



UDK:3786:004

Ozoda ABDULLAEVA,
Namangan muhandislik qurilish instituti professori
E-mail: aspirantka.030@gmail.com
Baxodir AZAMXONOV,
TATU Farg'ona filiali erkin tadqiqotchisi
E-mail: baxodirazamxonov@gmail.com

TATUFF, pedagogika fanlari nomzodi I.Bilolov taqrizi asosida

BAKALAVRIAT TALABALARINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Maqolada texnik yo'nalish bo'yicha bakalavr talabalarining AKT kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik modeli keltirilgan. Taklif etilayotgan strukturaviy-tarkibiy model axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kompetensiyalarni shakllantirishda, vazifalarni aniqlashda, kasbiy muammolarni hal qilishda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirishda dolzarb ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, pedagogik model, AKT kompetensiyalar, elektron darslik, kompyuter simulyatorlari, bakalavriat talabalari.

МОДЕЛ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ БАКАЛАВРИАТА

Аннотация

В статье представлена педагогическая модель формирования ИКТ-компетенций бакалавров технического направления. Показано, что предложенная структурно-структурная модель актуально в области информационно-коммуникационных технологий при формировании компетенций, определении задач, решении профессиональных проблем, совершенствовании навыков использования информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: Образование, педагогическая модель, ИКТ компетенции, электронный учебник, компьютерные тренажеры, студенты бакалавриата.

MODEL OF FORMATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCIES OF UNDERGRADUATE STUDENTS

Annotation

The article presents a pedagogical model of the formation of ICT competencies of bachelors of technical direction. It is shown that the proposed structural and structural model is relevant in the field of information and communication technologies in the formation of competencies, defining tasks, solving professional problems, improving skills in the use of information and communication technologies.

Key words: Education, pedagogical model, ICT competencies, electronic textbook, computer simulators, undergraduate students.

Kirish. O'zbekistonda ta'limni raqamlashtirish va uning barcha bosqichlariga zamonaviy axborot kommunikatsiyalarini tadbir etish bugungi kunda jadallik bilan amalga oshirilayotgan jarayonlardan biridir. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida xam iqtisodiyot sohasining deyarli barcha sohalari raqamli tizimlarga o'tishi ko'rsatib berildi. Shundan kelib chiqib oliy ta'lim tizimi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tibbiyot, aloqa, ta'lim kabi sohalarga raqamli tizimlar bilan ishlash ko'nikmalariga va axborot kompetentligiga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalashga dolzarb vazifa sifatida qaramoqda.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), internet ta'lim resurslari va masofaviy o'qitish texnologiyalari ta'lim bozorida o'z o'rnini mustahkam egallab bormoqda [1,4]. Axborot uzatish texnologiyalari takomillashgani sari ta'limda ularning o'rnini yanada samaraliroq bo'lib bormoqda. Ushbu raqamli ta'lim resurslari muxitida bugungi oliy o'quv yurtlarining barcha talabalarini tez rivojlanayotgan jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga va talablariga to'liq javob beradigan mutaxassis sifatida tayyorlash kerak [1,2,3].

Bugungi ish beruvchilar mustaqil ravishda tahlil qilish, turli muammolarni hal qilishda malakali va ijodiy fikrlashni biladigan bunday malakali mutaxassislariga qiziqishlari yuqoridir. Amaliyot shuni ko'rsatib beradi, talabalarni mustaqil ravishda o'qitishga va ularning o'quv va kognitiv faoliyatini oqilona tashkil etishga etarlicha e'tibor berilmayabdi. Shu sababli, oliy ta'lim bitiruvchilari doimiy ravishda yangilanib turadigan yangi axborot texnologiyalari tizimiga tezda moslasha olishlari qiyinlashmoqda [1,3,5,9].

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda ta'limni axborotlashtirish, axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirish (axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan kompetensiyalar) masalalari faol muhokama qilingan va o'rganilgan. Pedagogik yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistr larni tayyorlash jarayonida AKT kompetensiyasini shakllantirish Xutorskoy A.V. [4], Zeer E.F. [3], Gnatishina Ye. A. [5] va boshqalarning asarlarida ko'rib chiqilgan. O'quv jarayonida AKT vositalaridan foydalangan holda o'quv faoliyatini tashkil etish N.Tayloqov, R.Hamdov, U.Begimqulov [1], Bepalko V.P.[7] va boshqalar. Zamonaviy mutaxassislar kompyuterlar, telekommunikatsiya tizimlari va boshqa vositalar yordamida

ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak kerakli ma'lumotlarni tanlash, tizimlashtirish, uni yuqori darajada o'zlashtirish, tobora ortib borayotgan axborot oqimida harakat qilish qobiliyati universitet bitiruvchisining muhim sifatidir[5,6]. Pedagogik adabiyotlarda kompetensiya va kompetensiyalarni tushunish bo'yicha turli xil qarashlar mavjud.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish bakalavriat talabalari tomonidan umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni nazarda tutadi, bo'lajak bakalavrlarni kasbiy tayyorlashning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kompetensiyadir (AKT kompetensiya) [7,8,9]. Olib borilgan tadqiqotlarning muhimligini e'tiborga olib, shuni ta'kidlaymizki, texnik va texnologik yo'nalishdagi bakalavrlarni tayyorlash amaliyotida zamonaviy texnologiyalarga moslashtirilgan aspektlar yetarlicha ishlab chiqilmagan va texnik sohadagi bakalavrlarni kasbiy tayyorlashda AKT kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmagan.

Yuqorida aytilganlarning barchasi texnik va texnologiya sohasidagi bakalavrlarni kasbiy tayyorlashda AKT kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish, amalga oshirish va samaradorligini o'rganishning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Asosiy qism. Maqolaning maqsadi: axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy-tuzilmaviy modelini ishlab chiqish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, modellashtirish.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan vazifalar:


Ta'limda kompetensiyaga va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni amalga oshirishga bag'ishlangan pedagogik va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni ko'rib chiqish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kompetensiyalar tushunchasining mohiyati va mazmunini aniqlash.

Axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarining tuzilishini aniqlash.

Texnik va texnologiya sohasidagi bakalavrlarning AKT kompetentligi darajasini oshirishga imkon beradigan modelni yaratish.

Texnik yo'nalishdagi bakalavriat talabalarining AKT kompetensiyalarini shakllantirish modelini yaratish uchun shu sohaning oliy ta'lim uchun Davlat ta'lim standartlari ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi, turli yo'nalishlardagi umum-madaniy va kasbiy kompetensiyalar o'rganiladi va taqqoslanadi. Kutilayotgan natijalarni loyihalashda AKT kompetensiyasini shakllantirishning turli darajalari ko'zda tutilgan: chegaraviy, ilg'or va kengaytirilgan. Raqamli ta'lim muxitida bakalavriat talabalarining AKT kompetensiyalarini shakllantirishning uslubiy va nazariy asoslarini o'rganish natijasida quyidagi tarkibiy-tuzilmaviy model yaratildi va tavsiflanadi (Rasm. 1).



Rasm.1. Bakalavriat talabalarining AKT kompetensiyalarini shakllantirishning strukturaviy-tarkibiy modeli

Modelga quyidagi komponentlar kiradi:

Kognitiv-zamonaviy jamiyatdagi ma'lumotlarning mohiyati va ma'nosi, zamonaviy texnologiyalar asoslari va ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va shaxsiy kompyuter bilan ishlash tamoyillari, kompyuter texnologiyalari, asosiy dasturiy ta'minot, dasturiy mahsulotlar va xizmatlarni bilish, axborot jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilish, axborot xavfsizlik usullari;

Motivatsion-bakalavriat talabalarining raqamli ta'lim muhitida o'quv faoliyati motivlarini, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi qiziqishlarini va hokazolarni aks ettiradi va quyidagi jihatni o'z ichiga oladi: ta'lim faoliyatida

kompetensiyalarni shakllantirish, o'zini takomillashtirish, o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash zarurati;

Faoliyat-kelajakdagi kasbiy faoliyatda AKTdan foydalanish qobiliyatini aks ettiradi. Umumiy va maxsus professional dasturiy ta'minot bilan ishlashni bilish, global kompyuter tarmoqlarida axborot bilan ishlash qobiliyati va axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

O'zaro muloqot-bakalavrlarni tayyorlashda kompetensiyalarni shakllantirish aspekti o'z ichiga raqamli ta'lim resurslari, aloqa vositalari, ta'lim faoliyatida fikr-mulohaza uchun internet resurslaridan foydalanish, guruhlarda ishlash, o'quv mashg'ulotlari va o'qituvchi bilan muloqot davrlarini oladi[2,3,6,7].

Shunday qilib, texnik sohadagi bakalavriat talabalarining AKT kompetensiyalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan model yaxlit bir maqsadga qaratilgan tuzilmadir, chunki barcha tarkibiy qismlar o'zaro bog'liq va semantik tarmoqni o'z ichiga oladi. Ball- reyting o'quv tizimidan foydalanish, maxsus simulyatorli elektron vositalardan foydalanish talabalarga o'quv va mustaqil faoliyatini faollashtirishga imkon beradi, natijada texnik va texnologik yo'nalishdagi bakalavriat talabalarini o'rtasida AKT kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, ta'lim sifati samaradorligini oshirishda oliy o'quv

yurti talabalarining o'qitilayotgan fanlardan axborot kompetensiyasini rivojlantirish bugungi asosiy vazifalardan biri xisoblanmoqda. Talabalarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet resurslar asosiy vositalari sifatida qaralmoqda. Tadqiqot natijasida texnik yo'nalishdagi bakalavriat talabalarining AKT kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy va tuzilmaviy modeli yaratildi va uni texnik oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv jarayoniga tadbir etish samaradorligi o'rganildi.

ADABIYOTLAR

1. Tayloqov N., Hamdamov R., Begimqulov U. Ta'limda axborot texnologiyalari. Toshkent: 2010. – 120 b.
2. Belkin A.S. Problemi pedagogicheskogo masterstva. M.: Pedagogika, 1987. 172 s.
3. Zeer E.F. Klyuchevie kvalifikatsii i kompetensii v lichnostno orientirovannom professionalnom obrazovanii // Obrazovanie i nauka. Izv. Ural. otd. RAO, 2000. № 3 (5). S. 13-21.
4. Xutorskoy A.V. Sovremennaya didaktika: Ucheb. dlya vuzov. SPb: Piter, 2001. 544 s. 4.
5. Gnatishina Ye. A. Kompetentnostno-orientirovannoe upravlenie podgotovkoy pedagogov professionalnogo obucheniya: monografiya / Ye. A. Gnatishina. Sankt-Peterburg: Knizhny Dom, 2008. 424 s.
6. Didakticheskie osnovi podgotovki injenerov-pedagogov: uchebnoe posobie / N. M. Jukova [i dr.]; pod red. P. F. Kubrushko, V. P. Kosireva. Yekaterinburg, 1997. 200 s.
7. Bepalko V.P. Obrazovanie i obuchenie s uchastiem kompyutera (pedagogika tretego tisyacheletiya). - Moskva: Izd-vo Mosk. psixol.-sos. in-ta; Voronej: Izd-vo NPO «MODEK», 2002. - 352 s.
8. Zeer E.F., D.P. Zavodchikov Innovatsii v professionalnom obrazovanii: nauch.-metod. posobie. - Yekaterinburg: GOU VPO «Ros. gos. prof.-ped. un-t», 2007. - 215 s.
9. Kompetensii v obrazovanii: opit proektirovaniya [Tekst]: sbornik nauchnix trudov / Pod red. A.V. Xutorskogo. M.: Nauchno-vnedrencheskoe predpriyatie «INEK», 2007. 327s.
10. Shelten A. Vvedenie v professional'nyu pedagogiku. Yekaterinburg: Izd-vo Ural. gos. prof.-ped. unta, 1996. 288 s.



UDK:159.954-075.(043.3)

Sardorbek ABDURAYIMOV,
University of Business and Science o'qituvchisi
E-mail: abduraimovsardor@ru

P.f.n., dotsent T.Suleymanova taqrizi asosida

SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF STUDENTS' UNDERSTANDING OF A SUSTAINABLE FAMILY

Annotation

The article consists in determining the socio-psychological determinants of students' concepts about a sustainable family, which are aimed at the formation as a person in social relations, analyzing the typological features of identity and the state of study.

Key words: Social attitude, personality, stimuli, egos, social identity, interests, abilities, character and temperament.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПОНИМАНИЯ УЧАЩИМИСЯ УСПЕШНОЙ СЕМЬИ

Аннотация

В статье рассматриваются типологические особенности формирования понятий, направленные на становление учащихся как личности в социальных отношениях, заключающиеся в выявлении социально-психологических детерминант понятий Успешная семья в конкретных аспектах и анализе состояния усвояемости.

Ключевые слова: Социальная установка, личность, стимулы, эго, социальная идентичность, интересы, способности, характер и темперамент.

TALABALARNING MUVAFAQQIYATLI OILA HAQIDAGI TUSHUNCHALARINI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarning muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlashdan iborat ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan tushunchalar xosil bo'lishining tipologik xususiyatlarini o'ziga xos jihatlari va o'rganilganlik holatini tahlil qilish.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy munosabat, shaxs, ijtimoiy identifikatsiya, qiziqishlar, stumillar, egolar, qobiliyatlar, xarakter va temperament.

Kirish. Jahonda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyotida ham juda ko'p o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda, jumladan, "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning 16-moddasining 3-bandida "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli"[1]. Yangi ijtimoiy sharoitlarda mavjud ijtimoiy-psixologik amaliyot metodologik va amaliy muammolarni nazariy jihatdan chuqur anglamasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi, chunki mazkur mavjud muammolar hal qilinmasdan turib ta'lim va tarbiyada samaraga erishib bo'lmaydi. Ijtimoiy psixologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarning so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlari, ilmiy izlanishlar natijasi nizoli oilalarga ijtimoiy psixologik sharoitlarini o'rganishni dolzarb muammo sifatida gavalantirmoqda.

Respublikamizda yoshlarning oilaviy munosabatlarda nizolarning vujudga kelishining oldini olishning psixologik tomonlarini tadqiq etish orqali hamjamiyatimizni siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik taraqqiyotida ko'zda tutilgan ijobiy o'zgarishlarga dahldorlik hissini tarkib toptirish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratimoqda. "Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning faravon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi"[2] masalalari bilan bir qatorda ularni shaxslararo

munosabatlarga ijtimoiy-psixologik tayyorlash, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari ustuvor vazifasi sifatida belgilanganligi, ushbu muammoni ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF 87 son "Oila va xotin qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», 2022 yil 1 martdagi "Oila va xotin qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi Farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»[3] gi Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamlil strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy-axloqiy asarlarda ko'rish mumkin. Qomusiy olimlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning barkamol insonning aqliy tarbiyasida ilm-fanning o'rni haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Ilmiy adabiyotlarning kompleks o'rganilishi va tahlil etilishi shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur muammo jahon psixologiya fanida XX asr boshlaridan o'rganilib kelinmoqda.

Muammo masalalari, ayniqsa, yaqin xorij mamlakatlar olimlari V.M.Andreeva, Yu. I. Aleshinoy, V.N.Drujina, S.V.Kovaleva, A.S.Spivakovskiy, E.G.Eydemiller va bosqalar oilaviy jarayonlarda shaxslararo munosabatlarni o'rganishlar. Xorij psixologlaridan Argayl M, Z.Freyd, E.Fromm, G.Yu.Ayzenk, D. Dyui, A.A.Rean, Dobson.Ch, Shnabl.Z, va boshqa olimlar. O'zbek psixologlaridan V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, F.A.Akramova, N.A.Sog'inov, O'.B.Shamsiyev va boshqalarni ilmiy tadqiqot ishlariga alohida to'xtalib o'tish g'oyatda muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Psixoanaliz ta'limotining asoschisi Zigmund Freydning fikricha, inson o'z atrofidagilar va butun olam bilan doimiy ichki va tashqi konflikt holatida bo'ladi. Rohatlanish prinsipiga tayangan holda odam, "tashqi cheklovlar – axloqiy va ijtimoiy normalar tufayli – ko'pincha o'z xohish va istaklarini qondirishdan voz kechishga majbur bo'ladi"[4]. Bu esa psixik konfliktning paydo bo'lishiga olib keladi, psixoanaliz nuqtayi nazaridan bu konflikt normal yechimini topishi mumkin: axloqiy to'g'ri keladigan yo'llar bilan rohatlanishga erishish mumkin. Bunga badiiy yoki ilmiy ijod ko'rinishidagi sublimatsiyani misol qilib keltirish mumkin. Insonlardagi turli ko'rinishdagi psixik buzilishlarga patogen konfliktlar sabab bo'lib, jamiyat talablariga mos kelmaydigan xohishlarni zudlik bilan qondirishdan tashqari, majburiy voz kechishga ichki cheklovlar ham qo'shilganda, bunday patogen konfliktlar paydo bo'ladi. Insoniyatga azaldan xos bo'lgan bunday konfliktlilikka uning bolalik davri tajribasi, ota-onasi bilan munosabatlari tajribasi ham qo'shiladi. Bolalikda o'z yechimini topmagan konfliktlar, bola ulg'ayganda uning xulq-atvorida buzilish sodir bo'lishi

ehtimoli bilan bog'liq bo'ladi. Bunday fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, odamning xulq-atvori tashqi vaziyatlardan ko'ra ko'proq, uning o'z ichki xususiyatlari bilan asoslangan bo'ladi: "Anglanmagan psixologik konfliktlar odamning xulq-atvorini nazorat qilib turadi"[5].

Psixoanalizning vakillaridan bo'lgan K.Xomining fikricha, "normal konflikt har doim turli xil imkoniyatlar, pozitsiyalar, e'tiqodlar va h.k.lar orasidan tanlovni taqozo etadiki, buni amalga oshirish jarayonida odam konfliktlarni yechimini topadi"[6]. Nevrotik konflikt har doim ongsiz bo'ladi: ichki qarama-qarshiliklar odamga tanlov imkoniyatini qoldirmay uni ichiga yutadi, uni imkonsiz qiladi. Nevrotik shunchaki o'zini va o'z xohishlarini tushunish imkoniyatlarini yo'qotibgina qolmaydi, u o'zining ichki muammolarni yechishga qodir bo'lmay qoladi, bu esa konfliktning asosiy manbasiga aylanadi.

Psixoanaliz ta'limotida konflikt psixikaning chuqur tubida uning mavjudligining ichki qonuniyatlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan intrapsixik fenomen sifatida, faqat ushbu qonunlar doirasida to'g'ri tushuntirish mumkin bo'lgan xodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimizning empirik bazasini oilaviy munosabatlarning nafaqat turli tajribali, balki turmush tarzi va turli yoshga ega odamlar tashkil qilgan. Bunda ham jinsiy tafovutlar bilan bog'liq, ham hududda yashash darajasidagi farqlar bilan bog'liq, ham mehnat faoliyatining o'ziga xos muhiti va shart-sharoitlari bilan bog'liq hamda belgilanadigan ontogenetik jihatdan turli taraqqiyot bosqichlarini taqozo etadigan farqlar bilan bog'liq omillar ham tadqiq etilgan.

1-jadval

Tadqiqotga jalb etilgan respondentlarning ijtimoiy-iqtisodiy-demografik jihatdan e'tiborga molik taqsimoti

Turmush tajribasi	Jinsi	Yashash hududi		Umumiy soni
		Shahar	Qishloq	
Turmush qurmagan	Erkak	8	8	16
	Ayol	11	9	20
	Jami	19	17	36
5 yilgacha	Erkak	9	10	19
	Ayol	10	9	19
	Jami	19	19	38
5-9 yilgacha	Erkak	9	9	18
	Ayol	10	10	20
	Jami	19	19	38
10 yildan ortiq	Erkak	9	9	18
	Ayol	9	9	18
	Jami	18	18	36
Tadqiqotga jalb etilganlar umumiy soni Er/ayol		35/40	36/37	71/77
Jami		75	73	148

Shaxs ijtimoiylik qiyofasini o'zgartirish va belgilashda globallashtirish jarayonlarining roli haqidagi munozaralar hali o'z yechimini topmagan. Raqamli jamiyat muammosi virtual, raqamli, haqiqiy "Men" yangi shakldagi o'ziga xosliklarda namoyon bo'lmoqda.

Oilaviy munosabatlar murakkabligi, mozaikligi, ko'p darajali va ko'p bosqichli, o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi, bu ham uni tadqiq etish va tushunishni qiyinlashtiradi. Internetdan tortib blokcheyngacha bo'lgan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatni yangicha shaklda qayta tashkil etmoqda.

Gorizontal va ijtimoiy tarmoq tuzilmalari ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini kuchaytirmoqda. Bir tomondan, bu zamonaviy inson uchun katta imkoniyatlarni ochib bermoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda deyarli bir lahzali muloqotdan tortib, davlat va uning institutlari bilan elektron aloqaga qadar. Shu bilan birga bu jarayonda axborotning o'ziga xosligi,

2-jadval

A.N.Volkovanning "Oilangizda nizolar mavjudmi" testi natijalari (Student-t mezoni)

Shkalalar	Guruh	n	O'rtacha qiymat	df	t
Turmush	Erkaklar guruh	16	3.37	36	0.43

axborot jamiyati rivojlanishining natijasi yoki insonga tushadigan ma'lumotlarning miqdori va intensivligi uning tanqidiy idrok etishini cheklamoqda.

Shaxslararo munosabatlarda oilaviy nizolarning vujudga kelishi respondentlarning yoshi belgilaydi. Bizda ular to'rt turmush tajribasiga ko'ra tasniflangan: turmush qurmaganlar (16 nafar yigit va 20 nafar qizlar), 5 yillik turmush tajribasiga egalar (19 nafar erkak, 19 nafar ayol), 5-9 yilgacha turmush tajribasiga egalar (18 nafar erkak, 20 nafar ayol) va so'nggi guruh (18 nafar erkak, 18 nafar ayol) tashkil etdi.

Tadqiqotimizning dastlabki bosqichida A.N.Volkovanning "Oilangizda nizolar mavjudmi" testini 148 nafar respondentda o'tkazdik. Testda oilaviy nizolar mavjudligini va uning sabablarini aniqlashga qaratilgan 9 ta ta'kid mavjud bo'lib, har bir ta'kidlar ma'lum bir ballar bilan baholanadi. Biz tomonimizdan o'tkazilganda quyidagicha natijalar qo'lga kiritildi.

qurmagan	Ayollar guruhi	20	2.85		
5 yilgacha	Erkaklar guruhi	19	3.31	38	-0,07
	Ayollar guruhi	19	3.52		
5-9 yilgacha	Erkaklar guruhi	18	3.18	38	-0,07
	Ayollar guruhi	20	3.15		
10 yildan yuqori	Erkaklar guruhi	18	3.56	36	0,43
	Ayollar guruhi	18	3.67		

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, turmush qurmagan erkaklar guruhi 16 nafar tanlanmada o'rtacha qiymat 3.37 balni, ayollar guruhida esa 2.85 ni tashkil qildi. Ahamiyatli farqlar 2.81ni tashkil qildi. Ishonch darajasi esa 0,43 qiymatni hosil qildi.

Turmush tajribasi 5 yilgacha bo'lgan erkaklar guruhi 19 nafar tanlanmada o'rtacha qiymat 3.31 balni, ayollar guruhida esa 3.52 ni tashkil qildi. Ahamiyatli farqlar 0.21ni tashkil qildi. Ishonch darajasi esa -0,07 qiymatni hosil qildi.

3- jadval

A.N.Volkovanning "Oilangizda nizolar mavjudmi" testi natijalari. Ayollar shahar va qishloq (Student-t mezoni)

Shkalalar	Guruh	n	O'rtacha qiymat	df	t
Turmush qurmagan	Ayollar shahar guruhi	11	2.91	20	0,17
	Ayollar qishloq guruhi	9	2.77		
5 yilgacha	Ayollar shahar guruhi	10	3.31	19	0,15
	Ayollar qishloq guruhi	9	3.78		
5-9 yilgacha	Ayollar shahar guruhi	10	3.35	20	0,17
	Ayollar qishloq guruhi	10	2.99		
10 yildan yuqori	Ayollar shahar guruhi	9	3.88	18	0,14
	Ayollar qishloq guruhi	9	3.44		

Jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, turmush qurmagan ayollar guruhining shahar 11 nafar respodentda o'rtacha qiymat 2.91 ni, qishloq ayollarida 9 nafar respodentda o'rtacha qiymat 2.77ni. Ishonch darajasi 0,17 ni tashkil etdi.

5 yillik turmush tajribasiga ega ayollar guruhining shahar 10 nafar respodentda o'rtacha qiymat 3.31 ni, qishloq ayollarida 9 nafar respodentda o'rtacha qiymat 3.78ni. Ishonch darajasi 0,15 ni tashkil etdi.

5-9 yilgacha turmush tajribasi bor ayollar guruhining shahar 10 nafar respodentda o'rtacha qiymat 3.35 ni, qishloq ayollarida 10 nafar respodentda o'rtacha qiymat 2.99ni. Ishonch darajasi 0,17 ni tashkil etdi.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalarning muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash asosida shaxsning munosabati shakllanishini ta'minlovchi ta'sirchan omillarni hamda mexanizmlarni ilmiy-psixologik nuqtayi nazardan o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. "Talabalarning muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlari" mavzusidagi maqola ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

Mazkur muammoni hal qilishda talabalarning muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlari aloqador omillarining ahamiyati va oila mustahkamligiga ta'siri, oiladagi nizolarni boshqarish bo'yicha xorij tajribalarini o'rganish er-xotin o'rtasidagi nizolarni hal etish bo'yicha maslahatlar, nizoli oilalar bilan

Turmush tajribasi 5-9 yilgacha bo'lgan erkaklar guruhi 18 nafar tanlanmada o'rtacha qiymat 3.18 balni, ayollar guruhida esa 3.15 ni tashkil qildi. Ahamiyatli farqlar 0.03ni tashkil qildi. Ishonch darajasi esa 0,07 qiymatni hosil qildi.

Turmush tajribasi 10 yildan ortiq erkaklar guruhi 18 nafar tanlanmada o'rtacha qiymat 3.56 balni, ayollar guruhida esa 3.67 ni tashkil qildi. Ahamiyatli farqlar 0.11ni tashkil qildi. Ishonch darajasi esa 0,43 qiymatni hosil qildi.

ishlashda oila xaritasini tuzish texnologiyasidan foydalanish usullari o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlarini shakllantirish yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari, boshqa bir er-xotonga mos kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha tamoyilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlarga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Talabalarning muvafaqqiyatli oila haqidagi tushunchalarining ijtimoiy-psixologik determinantlari shakllantirishda oilaviy hayotning o'ziga yarasha notekisliklari, past-balandliklari, murakkabliklari, muammolari bo'ladi. Shunday murakkabliklardan biri yosh er xotinning yangi ijtimoiy statusga, mavqega: er, kuyov, uylangan, oilali yigit, xotin, kelin, turmushga chiqqan ayol rollariga, o'zlari uchun yangi bo'lgan ijtimoiy muhitga, yangi oilaga moslashish jarayoni bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi. 217 A (III):1948 yil 10- dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi.I bo'lim.2-modda.30.04.1998 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari. <http://lex.uz>
4. S.Freyd. A general introduction to psychoanalysis. New York: Doubleday.184 p.
5. Xell L., Zigle D. Teorii lichnosti. Spb., 2004. 204 s.
6. Horney K. New ways in psychoanalysis. New York: Norton.



Abdimumin ABDURAHMONOV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.n
E-mail: abdurahmonov.abdimumin@mail.ru

Professor, psixol.f.d. D. Jabborov taqrizi asosida

MATEMATIKA O'QITISHDA TA'LIM METODLARI VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Bu keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, taqqoslash metodi o'zining strukturasi ko'ra shu yuqorida keltirilgan uchta rukun ostida harakat qilib o'quvchilarga beriladigan bilimlar sistemasini avvalambor tartibga solish bilan birga uni to'g'ri qilinishini ham doim nazorat qilib turadi va bunga erishadi.

Kalit so'zlar: Obyekt, taqqoslash, analogiya, induksiya, teorema, misol, masala, dars, o'qituvchi, metod, foydalanish, formula, isbotlash, deduksiya.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МЕТОДИКА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ

Аннотация

Из приведенной информации видно, что метод сравнения по своей структуре действует в рамках трех вышеуказанных столпов, прежде всего организует систему знаний, предоставляемых учащимся, и всегда контролирует ее правильность, делает и достигает ее.

Ключевые слова: Объект, сравнение, аналогия, индукция, теорема, пример, задача, урок, учитель, метод, использование, формула, доказательство, дедукция.

EDUCATIONAL METHODS AND ITS SIGNIFICANCE IN TEACHING MATHEMATICS

Annotation

It can be seen from the given information that the method of comparison, according to its structure, acts under the three pillars mentioned above, first of all organizes the system of knowledge given to students, and always controls its correctness. does and achieves it.

Key words: Object, comparison, analogy, induction, theorem, example, problem, lesson, teacher, method, use, formula, proof, deduction.

Matematikada fikr yuritishni yana bir muhim ko'rinishlaridan biri bu praduktiv ya'ni (lotinchadan – almashtirish) almashtirish uslubdagi ko'rinishi bo'lib, bu bir yoki bir nechta fikrlarining umumiylkdagi ko'rinishlarini yangi umumiylkdagi ko'rinishlarga olib o'tishni bildiradi. Matematikani o'qitish jarayonida har xil obyektlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Ana shu holatlarda qanday matematik obyektlarni bir-biri bilan taqqoslash mumkin va qachon mumkin emas? Degan savolga javob topish maqsadida taqqoslash metodini o'rganamiz.

Ta'rif. Berilgan matematik obyektlarning o'xshashligi va farqini o'rganish metodiga taqqoslash metodi deyiladi.

Ma'lumki, atrofimizda o'rab turgan muhitini va unda bo'layotgan o'zgarishlarni bilish uchun ularda qatnashayotgan voqiyliklar va manbalarni birini ikkinchisi bilan taqqoslaymiz va ularda sodir bo'layotgan sifat o'zgarishlarni aniqlaymiz, o'rganamiz. Buning uchun quyidagi rukun(prinsip)larga rioya qilish lozim bo'ladi:

Taqqoslash ma'noga ega bo'lishi kerak – bu bir jinsli obyektlar orasida amalga oshirilishi talab qilinadi.

Masalan, 1 kg tosh bilan 1 kg paxtani og'irligiga nisbatan taqqoslasak ularni tengligi hajmlarini tengmasligini ko'ramiz. Lekin kilogram bilan metr taqqoslanmaydi ular bir jinsli tushuncha emaslar. Shuning uchun ham taqqoslash ma'noga ega bo'lishi talab qilinadi.

Taqqoslash reja asosida amalga oshirilishi zarur. Bunda taqqoslanayotgan obyektlarning xossalari aniq ajratilishi va qaysi tomonlari taqqoslanayotganligi aniq ko'rsatilishi zarur. Masalan, ko'p burchaklarni kerimetlari yoki yuzlari burchaklariga qarab aniqlanishi mumkin lekin

perimeter bilan yuzasi taqqoslanmaydi chunki ular bir jinsli tushunchalar emas.

Taqqoslash shu obyektlarga nisbatan to'liq bo'lishi kerak – bu bir jinsli obyektlar ustida olib borilayotgan taqqoslashlar oxiriga yetkazilishi va tegishli xulosa chiqarilishi talab qilinadi. Bu yuqorida keltirilgan asosiy rukunlar bu metodni tadbiiq qilishda nihoyatda e'tibor bilan yondashish kerakligini va ulardan kerak bo'ladigan xulosani chiqarishni o'rganish zarurligini talab qiladi.

Masalan, 1) 1; 2; 4; 6; 8; 10; ...

2) -3; -5; -7; -9; ...

3) 2;7;12;17;22;27;32;...

4) 1;-2;-5;-8;-11;-14;...

Ketma-ketliklarni taqqoslang va ular uchun umumiy qonuniyatni toping?

Buni o'quvchilar alohida ahamiyat bersa, ketma-ketliklar uchun umumiy bo'lgan qonuniyat, bu $2a_n = a_{n+1} + a_{n-1}$ ekanini aniqlaydilar.

Misol. Quyidagi sonlardan qaysi biri katta?

31^{11} mi yoki 17^{14} mi?

Yechish. Ma'lumki, har ikkala son ham bir jinsli ismsiz bo'lgani uchun darajani xossasidan foydalanib amalga oshiramiz, ya'ni:

$31^{11} < 32^{11} = 2^{55} < 2^{56} = 16^{14} < 17^{14} \Rightarrow 31^{11} < 17^{14}$ ekani

kelib chiqadi. Taqqoslash ham o'z tartibida fikrlash jarayonini o'ziga xos nozik tomonlarini aniqlashga ko'rishga o'rgatadi va undan unumli foydalanishga majbur ham qiladi.

Misol. Ushbu $\frac{1}{2} * \frac{3}{4} * \frac{5}{6} * \dots * \frac{99}{100} < \frac{1}{10}$ tengsizlikni isbotlang.

Isbotlash. Buning uchun $\alpha = \frac{1}{2} * \frac{3}{4} * \frac{5}{6} * \dots * \frac{99}{100}$ va $\beta = \frac{2}{3} * \frac{4}{5} * \frac{6}{7} * \dots * \frac{100}{101}$ sonlarini taqqoslaymiz. Natijada $\frac{a}{b}, a < b \Rightarrow \frac{a}{b} < \frac{a+1}{b+1}$; $a, b \in \mathbb{N}$ ekanini e'tiborga olsak, u holda $\frac{1}{2} < \frac{2}{3} < \frac{3}{4} < \frac{4}{5} < \dots < \frac{99}{100} < \frac{100}{101}$ dan $0 < 1 \Rightarrow k^2 - 1 < k^2 \Rightarrow \alpha < \beta$ ekani kelib chiqadi, bundan $\alpha^2 < \alpha * \beta = \frac{1}{101} < \frac{1}{100}$ bo'lib $\alpha^2 < \frac{1}{100} \Rightarrow \alpha < \frac{1}{10}$ hosil bo'ladi. Bu keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, taqqoslash metodi o'zining strukturasi ko'ra shu yuqorida keltirilgan uchta rukun ostida harakat qilib o'quvchilarga beriladigan bilimlar sistemasini, avvalambor, tartibga solish bilan birga, uni to'g'ri qilinishini ham doim nazorat qilib turadi va bunga erishadi.

Analogiya (o'xshatish) metodi

Obyektlar	Xossalari
S	A, b, c, d
S1	A, b, c, d

X=d

Analogiya berilishi jihatidan sodda, keng tarqalgan, qat'iy va noqat'iy analogiyalarga bo'linadi.

Sodda analogiya – tekshirilayotgan obyektlarni ayrim sifatlarini o'xshashliklariga qarab, ularning boshqa sifatlarini o'xshashliklariga xulosa chiqariladi.

Ayrim voqeeliklarning o'xshashliklariga qarab turib uni tahlilga suyanan holda, ularning sodir bo'lishi sabablaridagi o'xshashliklari haqida xulosa chiqarish uslubi – keng tarqalgan analogiya deyiladi.

Agar ayrim tekshirilayotgan obyektlarning asosiy sifatleri o'zaro aloqadorlikda joylashgan va idoralangan bo'lsa, bundan foydalanib xulosa chiqarish uslubiga – qat'iy analogiya deb yuritiladi.

Agar tekshirilayotgan obyektlarning asosiy belgilari aniq, o'zaro bog'langanligi yaqqol sezilmasa, u holda bunday xulosa chiqarish uslubi – noqat'iy analogiya deyiladi.

Matematikani o'qitishda analogiyadan foydalanish asosan:

Dars berish jarayonida;

Teoremlarni isbotlashda;

Misol va masalalarni yechishda;

Dars berish jarayonida yosh o'qituvchi o'ziga yoqqan o'qituvchini dars berishiga o'xshatib dars o'tishga harakat qilishida analogiya metodidan foydalanishi ko'rinadi. Lekin baribir shu o'qituvchi qandaydir darajada o'zini elementini ham qo'shadi, ammo dars jarayoni bu element ajratuvchi formada qatnasha olmaydi.

Teoremlarni isbotlashdagi analogiya

Teorema: $\forall U, v \in \mathbb{R}: \sin U = \sin v \Leftrightarrow U = (-1)^n v + n\pi$

Zaruriy shart: $\sin U = a \sin v = a U = (-1)^n \arcsin a + n\pi$; $v = (-1)^n \arcsin a + m\pi$; $n - m = 2n$ yoki $m + n = 2m + 1$ ekanini e'tiborga olsak

$$U = \begin{cases} v + 2n\pi \\ -v + (2n + 1)\pi = (-1)lv + l\pi \\ U = (-1)lv + l\pi, l \in \mathbb{Z} \end{cases}$$

Teorema: $\forall U, v \in \mathbb{R}: \cos U = \cos v \Leftrightarrow U = \pm v + 2n\pi$

Zaruriy shart: $\cos U = a \Rightarrow U = \pm \arccos a + 2n\pi$; $\cos v = a \Rightarrow v = \pm \arccos a + 2m\pi$; $2(n \pm m) = 2n$ $n, m \in \mathbb{Z}$ ekanidan $2(n \pm m)$ juft bo'lishiga ko'ra $U \pm v = 2n\pi$; $\{U = \pm v + 2n\pi$

Yetarililik sharti:

$$U = (-1)^n v + n\pi \Rightarrow \sin U = \sin[(-1)^n v + n\pi] =$$

$$\begin{cases} \sin(v + 2k\pi) \\ \sin(\pi - v + 2k\pi) \end{cases} = \begin{cases} \sin v \\ \sin v \end{cases} = \sin v \Leftrightarrow \sin U = \sin v;$$

$$U \pm v = 2n\pi \quad \cos U = \cos(\pm v + 2n\pi) = \cos(\pm v) = \cos v$$

Agar biz analogiyani nafaqat teoremlarni isbotlash bilan emas, balki misol va masalalarni yechishda qo'llasak, u holda $= 3^{\log_3 x} + x \log_3 x = 162$ ni yeching.

Matematikada fikr yuritishni yana bir muhim ko'rinishlaridan biri bu produktiv ya'ni (lotinchadan – almashtirish) almashtirish uslubdagi ko'rinishi bo'lib, bu bir yoki bir nechta fikrlarning umumiylikdagi ko'rinishlarini yangi umumiylikdagi ko'rinishlarga olib o'tishni bildiradi. Bunda asosan bir necha obyektlarni qandaydir munosabatdagi o'xshashliklarini boshqa umumlashgan ko'rinishdagi o'xshashlikka olib o'tishni anglatsa, analogiya esa – qandaydir S qoida a,b,c,d xossalarga bo'ysunishini bilgan holda S1 qoidani a,b,c xossalarga bo'ysunganiga qarab S1 qoida d xossaga ham bo'ysunadi degan xulosa chiqarish uslubiga aytiladi. Odatda, bunday xulosa chiqarish uslubi o'xshatib – analogiya deyilishini aniqladik.

$$3^{\log_3^2 x} = x^{\log_3 x} \quad \text{ekanidan} \quad 2 * 3^{\log_3^2 x} = 162;$$

$$3^{\log_3^2 x} = 81 = 3^4 \quad \log_3^2 x = 4 \quad x = 3^{\pm 2} \quad \{x_1 = 9; x_2 = \frac{1}{2}\}$$

$$3 \log_4 x + x^{\log_4^2} = 18 \quad 3^{\log_4^2 x} = x^{\log_4^2} \quad \text{ekanidan} \quad 2 * 3^{\log_4^2 x} = 18$$

$$3^{\log_4^2 x} = 9 \quad \log_4^2 x = 2 \quad x = 4^{\pm 2} = 16 \quad \{x = 16\}$$

ko'rinishidagi mos holda natijalarga erishiladi. Bu esa o'z navbatida analogiyani natijasi sifatida qarashi mumkin. Bunda o'quvchilar analogik holatlarni, masala va misollarni yechishni, teoremlarni isbotlashni o'rganadilar va to'g'ri xulosa chiqarishga harakat qiladilar. Lekin analogiya har doim ham to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi degan fikrni keltirib chiqarmaydi, ya'ni $a(b+c) = ab+ac$ tarqatish qonunini bilgan o'quvchida.

Ko'rinishida analogik fikr chiqazishini nazorat qilsangiz bu fikr noto'g'ri ekaniga yozgan odam ham ishonadi. Shuning uchun analogiyadan foydalanishda o'quvchilarga kelib chiqadigan noto'g'ri xulosalarni ham ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Induksiya metodi.

Ta'rif: fikrlashni xususiy mulohazalardan umumiy mulohazalarga olib o'tishga induksiya deyiladi.

Induksiya tabiati jihatidan ikki xil bo'lib, u chala va to'la induksiyalardir. Chala induksiya ayrim xususiy mulohazalarga tayanib umumiy mulohaza chiqarish uslubidir. Masalan, arifmetik progressiyada istalgan hadini formulasini chiqarishda $a_1 = a_1, a_2 = a_1 + d, a_3 = a_1 + 2d, a_4 = a_1 + 3d$ deb turib to'g'ridan to'g'ri

$a_n = a_1 + (n-1) * d$ umumiy mulohazani yozib qo'yamiz. Shuning uchun chala induksiya qo'yilayotgan mulohazani to'g'riligini kafolatlay olmaydi, chunki $(n+1)$ da noto'g'ri bo'lishi mumkin.

To'la matematik induksiya (to'la induksiya). Agar qandaydir S qoida $S(1) \equiv 1$ bo'lib, $S(n) \equiv 1$ ekanligidan $S(n+1) \equiv 1$ bo'lsa u holda S qoida barcha natural n lar uchun o'rinli bo'ladi- deb fikrni qat'iyatlik bilan qo'yilishi bu fikrni unda qatnashayotgan parametrga nisbatan doimo rost bo'lishini ta'minlanishini kafolatlaydi.

Agar qaralayotgan qoidaga nisbatan $((S(1) \equiv 1)^{n-1} \wedge S(n) \equiv 1) \Rightarrow S(n+1) \equiv 1 \Rightarrow \forall n \in \mathbb{N} : S(n) \equiv 1$

Fikrni qo'yilishi S qoidani takomillashgan induksiya orqali ham qilishini ko'rish. Matematikada ayrim hollarda shartli induktiv xulosalar chiqariladi.

Masalan, n^{n+1} kattami yoki $(n+1)^n$ mi? Fikrni qarask, unda agar $n=1 \Rightarrow (n+1)^n > n^{n+1}$ bo'lib $n=3$ da esa $n^{n+1} > (n+1)^n$ munosabat hosil bo'ladi va $n^{n+1} > (n+1)^n$ munosabat $n \geq 3$ shartida har doim o'rinli ekani kelib chiqadi. Shu bois ham shartli induksiyani

$$(((S(k) \equiv 1) \wedge S_{a=k+1}^n \equiv 1) \Rightarrow S(n+1) \equiv 1) \Rightarrow \forall n \geq k, n \in \mathbb{N} S(n) \equiv 1)$$

Ko'rinishida yozish mumkin bo'ladi. Umuman induksiya metodi bilan misollar yechishda

$$S_n = 1^2 + 2^2 + \dots + n^2 = \frac{n(n+1)(2n+1)}{6} \text{ uchun}$$

$$n=1 \Rightarrow S_1 = 1^2 = \frac{1 \cdot 2 \cdot 3}{6} = 1 \text{ o'rinli}$$

$$n=k \Rightarrow S_k = 1^2 + 2^2 + \dots + k^2 = \frac{k(k+1)(2k+1)}{6} \text{ o'rinli deb}$$

$$n=k+1 \Rightarrow S_{k+1} = S_k + (k+1)^2 = \frac{k(k+1)(2k+1)}{6} + (k+1)^2 = \frac{(k+1)[k(2k+1)+6k+6]}{6} = \frac{(k+1)(k+2)(2k+3)}{6} \text{ bo'ladi.}$$

Demak, $S_n = \frac{n(n+1)(2n+1)}{6}$ ifoda ixtiyoriy natural n da o'rinli bo'lar ekan deb xulosa chiqarish imkoniyatiga iskega bo'lamiz., foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsak teoremlarni isbotlashda, darslarni o'tishda ham shu induksiya metodidan deduksiya metodi yonma-yon yuradi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, chunki umumiy xulosa chiqarilishi bu o'z navbatida deduktiv xulosadir.

Deduksiya – bu keltirib chiqarish ma'nosini anglatib fikrlashning umumiy xulosalaridan xususiyoq xulosalarni keltirib chiqarish metodiga aytiladi.

Ma'lumki, umumiy xulosalarda xususiyoqlikga o'tish imkoniyatlari beriladi.

Masalan, $a_0 = a_1 = 1$ bo'lib $a_{n+1} = a_{n+1} + a_n$ shartini qanoatlantiruvchi sonlar ketma – ketligini toping.

Ma'lumki, biz ketma-ketlik $1; 2; 3; 5; 8; \dots$ Fibonachchi ketma ketligidir. Agar $G = \{ U_1, U_2, U_3, \dots, U_n \}$ gipoteza deb aytiluvchi formulalar ro'yxati bo'lib va $G+B$ bo'lsa, u holda $G^1 \vdash U_n \Rightarrow B$ bo'ladi. (bunda $G^1 = G \setminus \{U_n\}$). Bu keltirilgan mulohazalardan bevosita quyidagi:

$\frac{A \Rightarrow B, B \Rightarrow C}{A \Rightarrow C}$ sillogizm qoidasi.

$\frac{A \Rightarrow (B \Rightarrow C)}{B \Rightarrow (A \Rightarrow C)}$ shartlarni o'rnini almashtirish qoidasi va

boshqa ko'rinishdagi qoidalar orqali deduksiyadan induksiya o'tish mumkinligini ko'rish mumkin.

Umuman deduksiya metodi asosan geometrik obyektlar ustida ishlash jarayonida biz oldindan ma'lum bo'lgan aksiomalar sistemasi bilan ish ko'rilgani uchun ham deduksiyadan foydalaniladi. Demak induksiya va deduksiya metodlari o'qituvchilarni bilish faoliyatini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekan.

ADABIYOTLAR

1. Методика преподавания математики в средней школе
2. (общ.метод.)/ сос.: Р.С.Чернасов – М.: 1985 г.
3. Методика преподавания математики в средней школе
4. (част.мет.)/ сос Мышин В. – М.: 1987 г.
5. Методика преподавания математики в средней школе
6. (общ.метод.)/ М.Ю.Колягин и др. – М.: 1975 г.
7. Ачилов М. Нравственное формирование будущего учителя – Тошкент: Укитувчи. – 1979ю -328 бет
8. Математика укитиш методикаси . С.Алихонов. Тошкент.: „Укитувчи“ 1962 й
9. Математикадан практикум. Т.Тологанов, А.Норматов. Тошкент.: „Укитувчи“ 1989 й



E'zoza ABDURASHIDOVA,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti PhD. Ismoilov D.M. taqrizi asosida

THEORETICAL FOUNDATIONS OF TEACHING CRITICAL THINKING TO PRESCHOOLERS USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Annotation

A number of priorities presented in this article substantiate the relevance of the research work. The main concept of our research is characterized by the priority of innovative pedagogical technologies in improving the processes of formation of critical thinking skills in preschoolers.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

Ряд приоритетов, представленных в данной статье, обосновывают актуальность исследовательской работы. Основная концепция нашего исследования характеризуется приоритетом инновационных педагогических технологий в совершенствовании процессов формирования навыков критического мышления у дошкольников.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA KRITIK FIKRLASHGA O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko'rsatib o'tilgan qator ustuvor vazifalar tadqiqot ishining dolzarb ekanligini asoslaydi. Tadqiqotimizning asosiy konsepsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning kritik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Ularda sohada yechimini kutayotgan bir qator vazifalar o'z ifodasini topgan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiya"sida "ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash, maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish, bolani shaxs sifatida jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash" [1] kabi bir qator vazifalar o'z aksini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarorida o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama shakllantirish va ularni maktabga tayyorlashda xorijiy tajribaga tayangan holda sifatli ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan [6]. Shuningdek, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son farmonida esa zamonaviy texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama tarbiyalash belgilangan [7].

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlardagi muhim va ustuvor pedagogik vazifalarni hal etish tadqiqot ishining konseptual asosini tashkil etadi.

Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ustuvor talablar va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, MTTda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini yangi mazmun va

innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlanishga erishish, maktabgacha yoshdagi bolalarni kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual qobiliyatini o'stirish, ijodiy faoliyatga yo'naltirish mazkur yoshdagi bolalarni aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi o'ziga xos ahamiyatga ega.

Obyektlarning inson ongida umumiy va muhim xususiyatlarida umumlashtirilgan aks etishi fikrlashning o'ziga xos natijasi bo'lishi mumkin. Kritik fikrlashning natijasi esa harakat, munosabat, yo'nalish ko'rinishidagi ma'lum bir mahsulot bo'lib, tanqidiy analitik shubhani, shuningdek, umuman fikrlash jarayonini rasmiylashtirib bo'lmaydi.

Kritik fikrlash bo'yicha turli xil tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo kritik fikrlash tushunchasi hali ham aniq belgilanmagan. Mazkur tushunchani mualliflar o'xshash va hatto bir xil psixologik haqiqat sifatida tasvirlab, terminologiyada turlicha ifodalaydilar.

Ko'pgina tadqiqotlarda kritik fikrlash insonni tanlov qilishga, o'z xatti-harakatlarini axloqiy meyorlar, qadriyatlar va boshqalarning baholari bilan bog'lashga majbur bo'lganda "nazorat mexanizmi" vazifasini bajarishi asoslangan. Bundan tashqari kritik fikrlash xatolarni aniqlash, shuningdek, ilgari surilgan taxminlarning haqiqatini asoslash bilan ham bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu sababli kritik fikrlashning bir qismi bo'lgan boshqa ko'nikmalar, ya'ni bilimning kelib chiqishi, asosida xulosa chiqariladi. Amerikalik olimlar Marzano va Arredondo yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini (yuqori tartibli fikrlash) deb atashadi. Mantiqning asosiy qonunlariga rioya qiladigan fikrlash odatda "to'g'ri"deb hisoblanadi.

Kritik fikrlash konsepsiyasi dastlabki xulosalarini aniqlash asosida boshqa elementlarni kiritishgacha kengayib boradi, bu ilgari kritik fikrlashning asoslaridan biri hisoblangan rasmiy mantiqdan tashqari, norasmiy mantiq ham

kiritilganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek bunday tahlillar asosiy gipotezalardan tashqari bo'lgan tushunchalarni tahlil qilishga imkon beradi.

Kritik fikrlash bo'yicha olib borilgan eksperimental tadqiqotlarini hisobga olgan holda, uchta yo'nalishni ajratish mumkin:

Aqlning fazilatlarini aqliy faoliyatning shaxsiy parametrlari sifatida ko'rib chiqish A. I. Lipkina tadqiqotlarida amalga oshirilgan. Muallifning yondashuviga ko'ra, shaxsning aqliy faoliyati uning obyektiv mazmuni bilan bir qatorda, subyektga xos bo'lgan aqliy jarayonni tartibga solishning barqaror omillarini tavsiflovchi ma'lum parametrlar bilan belgilanadi. Bunday omil sifatida A. I. Lipkina aqlning bunday sifatini kritik fikrlash deb hisoblaydi, bu subyektning amalga oshirilgan faoliyat mazmuniga, uning natijalariga va hokazolarga nisbatan muayyan xatti-harakatlarini tavsiflaydi. Insonning kritik fikrlashi natijasi o'zini hurmat qilish sifatida birinchi o'ringa chiqadi. Mazkur eksperimental tadqiqotda kritik fikrlash va o'zini hurmat qilish muammoni hal qilishning tabiati va xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, uni hal qilishning ajralmas, regulyatorga o'xshash komponentiga aylanishi ko'rsatilgan.

Tahlil va natijalar. Adabiyotda tanqidiylik va olingan bilimlarning sifati, fikrlashning tanqidiyligi va intellektual muvaffaqiyat ko'rsatkichlari, o'rganish qobiliyati, aqliy operatsiyalarning rivojlanish darajasi (G. P. Antonova, I. P. Antonova, I.E. Shvars), fikrlash criticality ijodiy faoliyati ko'rsatkichi sifatida qabul qilindi (A. A. Smirnov, G. Lindsay, K. Hull, R. Thompson).

A. S. Bayramov tomonidan olib borilgan yeksperimental tadqiqot mustaqillik va tanqidiy fikrlashning namoyon bo'lishi, rivojlanishidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi va buni belgilaydi "... ushbu munosabatlar tizimidagi yetakchi komponent tanqidiy fikrlashdir" [10]

Shaxsni tadqiq qilish kontekstida olib borilgan ishning ikkinchi yo'nalishida shaxsning shaxsiy sohasini konstitutsiyaviy shakllantirishni izlash va uning aqliy faoliyat kursining tabiatiga ta'siri-tanqidiy fikrlash tashqi ta'sirlarning ta'siriga vositachilik qiluvchi konstitutsiyaviy shakllanish vazifasini bajaradi (B. V. Zeigarnik, I. I. Kozhukhovskaya, I. A. Kudryavsev, M. B. Yerokhina, va hokazo.)

Tanqidiy fikrlashning past darajadagi ishlashi (ikkinchidan, subyekt) intellektual faoliyatning bajarilishini nazorat qilish, tanqidiy fikrlash yesa ongning xususiyatlaridan biri sifatida tushuniladi. Bunday holda, "tanqidiylik" va "nazorat" tushunchalari farqlanmaydi va mualliflarning ye'tibori (S. L. Rubinshteyn, A. A. Smirnov) kognitiv jarayonlarni tashkil yetishda tanqidning funksional rolini aniqlashtirishga qaratilgan. Ushbu darajadagi tanqidiy fikrlashni o'rganishga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan. (A. S. Bayramov, S. I. Veksler va boshq.) Tanqidiy fikrlashning yuqori darajada ishlashi shaxsning motivatsion va semantik sohasini shakllantirishga bog'liq. Vaziyatni baholashning to'liqligi va chuqurligi universal madaniy ma'nolarning shaxsiy ma'nolari tizimida oshkor qilish o'lhoviga bog'liq.

Shuning uchun tanqidiy fikrlashning "chora-tadbirlar"toifasi bilan o'zaro bog'liqligi haqida savol tug'iladi. Bu masala dolzarb va yetarli darajada rivojlanmagan.

Amerikalik olim S. Brukfeld yozadi: "tanqidiy fikrlash - bu universal haqiqatlarga va absolyutizmga shubha bilan qarash-bu prinsipni boshqarish kerak, chunki inson hech qachon mukammal bo'lolmaydi. Tanqidiy fikrlashning bu xususiyati savol tug'diradi: halokatli oqibatlariga olib keladigan "tanqidiylikni yo'q qilish" aniq bo'lgan oqilona chiziq qayerdaekanligini ko'rsatadi. Ba'zi mualliflar tanqidiy fikrlashning ikkita qutbli tomonini ajratib ko'rsatishadi-tanqidiy bezovtalik, bir tomondan tashqi ma'lumotni rad yetish va boshqa tomondan bag'rikenglik (A. Korjuyev, YE. Ryazanova). K. Popper tanqidiy bezovtalikni tanqidiy

fikrlashning o'zi va bag'rikenglikni uning ijtimoiy manbai deb hisoblaydi, shu bilan birga ularning munosabatlarini ta'kidlaydi. Biror kishi o'z xatolarini aniqlasa, u boshqalar uchun "xato qilish huquqini" xotirjamlik bilan tan olishi mumkin va shuning uchun tanqidiy fikrlash boshqasining pozitsiyasiga bag'rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi. Keyingi bir asarda mualliflar tanqidiy fikrlashning ikkita qutbini ajratib ko'rsatishadi: tanqidiy fikrlashning yo'qligi va har qanday vaziyatda tanqidiy fikrlashning namoyon bo'lishi, bu o'quv jarayonining to'liq "yo'q qilinishiga" va ma'nosini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Ularning ta'kidlashicha, bu ikki qutb o'rtasida "katta masofa" bor va tanqidiylikning namoyon bo'lish intensivligining oqilona chegarasini ifodalovchi "oltin o'rtacha" qayerda [10] - mualliflarga aytish qiyin. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, tanqid tanqidiy fikrlashning bir tomoni bo'lishi mumkin. Tanqid-bu kimningdir xudbin qiziqishini yashiradigan nosamimiy tanqid bo'ladi. Haqiqiy tanqidiylik keng qamrovli va o'z-o'zini tanqid qilishni nazarda tutadi. Bir tomonlama tanqidiylik yertami-kechmi yuzaki tanqidga aylanadi, bu haddan tashqari umumiylik va mayda-chuyda bilan tavsiflanadi. Tanqid faqat maqsadga yerishishga yordam berishga qaratilgan bo'lsa, mantiqiy bo'ladi va tanqid uchun tanqid yemas.

Shunday qilib, har bir muallif "tanqidiy fikrlash" tushunchasini o'z tushunchasi bilan to'ldiradi, bu masala qaysi fanning pozitsiyasiga bog'liq. Bu psixologik (kognitiv, instrumental) yondashuv, falsafiy-mantiqiy, pedagogik yoki hamma narsaning ozgina aralashmasi bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, ushbu muammolarni tadqiq qilishning ushbu sohasidagi taraqqiyotga to'sqinlik qiladigan asosiy to'siqlardan biri shundaki, ularning aksariyati alohida-alohida qo'yilgan yoki ma'lum bir nazariya kontekstidan tortib olingan. Shaxsning tanqidiy fikrlashining maxsus proyeksiyada - shaxsning subyekt sifatida proyeksiyasida namoyon bo'lishini ko'rib chiqishda, bu muammo bo'yicha avvalgi barcha tajribalarni birlashtirish, shuningdek tanqidiy fikrlashni o'rganishning ba'zi savollarini to'g'ri ko'tarish imkoniyatini ochadi.

Bir tomondan, mavzu psixologiyasida ijtimoiy tajribaning tanqidiy rivojlanishini, mustaqillikni va pirovardida individual shaxsiy rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydigan fikrlash jarayonlari alohida rol o'ynaydi. Boshqa tomondan, inson nafaqat turli xil faoliyat turlari, balki aqliy jarayonlar va xususiyatlarining subyekt sifatida ham ishlaydi[11].

Psixologiyada predmetning mohiyatini tushunish insonning o'ziga (va boshqalarga) shaxs sifatida, subyekt faoliyatining har xil turlarining tashabbuskori va manbai sifatida munosabati bilan bog'liq (A. N. Leontiyev va boshqalar.), subyektivlik (faoliyat mahorati sifatida) insonning turli xususiyatlaridan biridir. Ga binoan K. A. Abulxanova-Slavskaya [1], insonning subyektiv mavjudligining yeng yuqori darajalari insonning o'z psixologik resurslaridan (jarayonlar, xususiyatlar, holatlar) hayotiy faoliyatni ta'minlash vositasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, psixologik resurslar o'ziga xos individual shaxs tuzilishini shakllantiradi, bu mavjudotda hayot va bilishning ishlab chiqilgan strategiyalarida ifodalanadi.

Abulxanova-Slavskaya [1], qarama-qarshiliklarni hal qilish qobiliyati mavzuning mezoni sifatida ishlaydi. Mavzu K. A. Abulxanova - Slavskaya ta'rifida iyerarxik rivojlanishda cho'qqiga chiqqan uyg'un, o'zini o'zi bajaradigan shaxsdir. Uning yozishicha, " insonning hayot yo'lining subyekt sifatidagi fazilatlarini uni tashkil yetishni amalga oshirish jarayonida uning hayot yo'lida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilish yo'lida namoyon bo'ladi." [1] shunday qilib, qarama-qarshiliklarni hal qilish qobiliyatisiz, odam subyekt maqomiga aylanmaydi yoki yo'qotmaydi. Qarama-qarshiliklarni hal qilish qobiliyati tanqidiylikdan

boshlanadigan ko'p bosqichli jarayon, ya'ni xatolarni, qarama-qarshiliklarni aniqlash qobiliyatini ko'rsatadi.

Shuning uchun tanqidiy fikrlashni shaxsning umumiy subyektivligini shakllantirishning dastlabki bosqichi sifatida subyektning o'ziga xos xususiyati sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Xulosa va takliflar. Tanqidiy fikrlashni mavzuni tavsiflovchi shaxsiy xususiyat sifatida ko'rib xulosa qilsak, nazariy jihatdan uning tuzilishida komponent mavjudligini tafsiflash mumkin. Kognitiv komponent-tanqidiy fikrlash haqidagi bilim; hissiy komponent - tanqidiy fikrlashga munosabat; samarali xulq - atvor komponenti-ta'lim faoliyati va xatti-harakatlarida tanqidiy fikrlashning namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. Б.39.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы) // автор-состав. – Ставрополь. 2012. – 145 с.
3. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании: Дисс. канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: МГПУ, 2003.-332 с. РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
4. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010, №1, -54-57 б.
5. Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. //Е.Б. Шоштаева. – Карачаевск: 2003. – С. 23.
6. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010.
7. Байденко, В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) [Текст] / В;И. Байденко // Высшее образование в России. - 2004. - № 11. - С. 3-18.
8. Балаш В.А. Задачи по физике и методы их решения [Текст]: Пособие для учителя. - 4-е изд., перераб. и доп. / В.А. Балаш. - М.: Просвещение, 1983. - 432 с. 196
9. М.Мuhiddinov, SH.Ahmedov, В. Qutlimurodov “Texnik adan testlar va ularning yechimi” Toshkent . O`zbekiston NMIU 2016, 424 b.
10. Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту № 1/1-Ф и применением технологий программирования. //Преподаватель XXI век. №4. – Москва, 2018. С. 88-95.



UDK: 316.42:369.219 (575.1)

Abdullo ABDUXALILOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: abduxalilovabdullo81@gmail.com,

O'zMU professori, sotsiologiya fanlari doktori N.M.Latipova taqrizi ostida

THE MAIN DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL PARTNERSHIP IN THE PROCESS OF SOCIAL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF PERSONS WITH DISABILITIES

Annotation

The evolution of the development of social policy in the field of disability clearly demonstrates that the participation of persons with disabilities based on the principles of social partnership in the life of society is a key factor in the processes of improving the quality of life of persons with disabilities.

Key words: Social policy, disability, social partnership, persons with disabilities, subjects of social partnership, non-governmental non-profit organizations, public authorities, law, equality, voluntariness, socio-political decision-making.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ НАПРАВЛЕННОЕ НА ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Аннотация

Эволюция развития социальной политики в сфере инвалидности ясно демонстрирует, что участие лиц с инвалидностью на основе принципов социального партнёрства в жизни общества является ключевым фактором процессов повышения качества жизни лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: Социальная политика, инвалидность, социальное партнёрство, лица с инвалидностью, субъекты социального партнёрства, неправительственные некоммерческие организации, органы государственной власти, закон, равенство, добровольность, принятие социально политических решений.

NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARNING TURMUSH SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN IJTIMOY SIYOSATNI OLIV BORISHDA IJTIMOY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Nogironligi bor shaxslarga qaratilgan ijtimoiy siyosatning rivojlanish evolyutsiyasini tahlili nogironligi bor shaxslarning turmush sifatini oshirish jarayonida eng muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Aynan ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslangan nogironligi bor shaxslarning jamiyat hayotidagi ishtiroki, inkyuziv ijtimoiy siyosatni shakllanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy siyosat, nogironlik, ijtimoiy sheriklik, nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy sheriklik subyektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, davlat hokimiyati organlari, qonun, tenglik, ixtiyoriylik, ijtimoiy siyosiy qarorlarni qabul qilish.

Kirish. Jahon tajribasi, shuningdek ko'p tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning negizida, ijtimoiy sheriklik yotadi[1]. Chunki, ijtimoiy sheriklik turli xil subyektlar o'rtasida konstruktiv muloqotni shakllantiradi va barcha stekholdirlar uchun qulay va maqbul bo'lgan qarorlarni qabul qilinishiga xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy sheriklik rivojlangan davlatlarning nafaqat qonunchiligida kiritilgan rasmiy institut sifatida, balki, aksariyat ijtimoiy siyosiy jarayonlarning real voqeligi sifatida namoyon bo'lmoqda[2]. O'z navbatida ijtimoiy sheriklik jarayonlari davlat hokimiyati organlari va nogironlik sohasi bilan shug'ullanuvchi jamoat tashkilotlari o'rtasida konstruktiv muloqotni vujudga kelishiga olib keladi va bu jarayon nogironligi bor shaxslarning turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik qonuni qabul qilinganidan so'ng, tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy sheriklik fenomeniga qiziqishni ortib borganligini ko'rish mumkin. Bu borada: Gаниева М.Х.[3], Мавлонов Ж.[4], Матибаев Т.[5], Муминов А.Г., Абдухалилов А.А., Нишанбаева Э.З.[6], kabi tadqiqotchilar o'z izlanishlarini olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrning 60-yillarida ijtimoiy fanlar vakillari va amaliyotchilari tomonidan ijtimoiy sheriklik konsepsiyasiga katta qiziqish bildirildi va aynan ijtimoiy sheriklikni rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy

hayotiga kirib borishi ularning ijtimoiy tizimini barqarorligini ta'minlanishiga olib keldi[7]. Shuni aytib o'tish joizki, bugunga kelib ijtimoiy sheriklik jarayonlari turli xil subyektlarning o'zaro aloqalarining aniq ishlab chiqilgan mexanizmlariga tayanadi. Ijtimoiy sheriklikning samaradorligi esa turli xil subyektlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarning teng taqsimlanganligi bilan bog'liq boladi. Ilmiy adabiyotlarda Ijtimoiy sheriklik turli jihatdan talqin qilinadi. Agar ba'zilar ijtimoiy sheriklik jarayonlarini davlat ish beruvchilar, shuningdek, mehnatkashlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm sifatida tushunsa, ba'zilar esa uni turli xil guruhlar (davlat, beznis, nodavlat notijorat tashkilotlari) o'rtasidagi munosabatlarning majmui sifatida talqin qilishadi[8].

Bu boradagi ilmiy adabiyotlar tahlili ijtimoiy sheriklik fenomeni fuqorolik jamiyati institutlarini rivojlanishining eng muhim elementi sifatida talqin etilishini ko'rsatadi. Chunki aynan turli fuqorolik jamiyati institutlari davlat hokimiyati organlari bilan konstruktiv muloqot asosidagina rivojlanishi mumkin. Jamiyatdagi muayyan ijtimoiy muammolar borasidagi dirskurs fuqorolik jamiyati institutlariga ijtimoiy siyosiy jarayonlarning real ishtirokchisiga aylanishiga imkon beradi. Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy sheriklikka nisbatan turli xil ta'riflar bo'lsada, bugungi kungacha mazkur hodisa va jarayonga nisbatan ilmiy jamoatchilik tomonidan aniq ta'rif berilgani yo'q. Ijtimoiy sheriklik tabiatini anglash jarayonida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim: Ijtimoiy sheriklik

jamiyatning ijtimoiy siyosiy jarayonlarida vujudga kelgan konfliktlarni bartaraf etish mexanizmi hisoblanadi. Ijtimoiy sheriklik jarayonlarining subyektlari nafaqat davlat hokimiyati organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, balki o'z-o'zini boshqarish organlari va beznes tuzilmalar bo'lishi mumkin. Ijtimoiy sheriklik asosida bo'lib o'tayotgan aksariyat jarayonlar turli xil guruhlar manfaatlarining muvozanatini ta'minlash maqsadida olib boriladi[9]. Shuni ham aytib o'tish joizki, ijtimoiy sheriklikning universal ta'rifi bo'lmasada uning universal tamoyillari mavjud, ularga quyidagilar kiradi. Qonunga itoat qilish, tenglik, shaffoflik, ochiqlik, foydalanish imkoniyatlari, mustaqillik, bir birini hurmat qilish, xolislik, bir birini manfaatini inobatga olish, javobgarlik, majburiyatni olishning ixtiyoriyligi va hokazo[10].

Shundan kelib chiqib, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni olib borish jarayonida ijtimoiy sheriklikning o'rni aniqlash maqsadida tadqiqot olib borildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning empirik asoslarini mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik va nogironlik sohasidagi qonunchilik, shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarning materiallari tashkil qildi. Ushbu sotsiologik tadqiqot davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, akademik doira vakillari bilan o'tkazildi. Ekspert so'rovnomada 30 ta ekspert ishtirok etib, ulardan 10 ta ekspert davlat hokimiyati organlari, 10 ta nodavlat notijorat tashkilotlari, nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, 10 ta ekspert esa akademik doira vakillaridan iborat bo'ldi. Mazkur so'rovnomada 2023 yilning yanvar mart oylarida o'tkazildi. Tadqiqot Toshkent shahri va Toshkent viloyatida olib borildi.

Tadqiqotda ishtirok etgan barcha ekspertlarning fikricha, ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini jamiyat hayotiga joriy etilishi ijtimoiy siyosiy tizimning demokratlashuviga va inkluzivligini ta'minlashiga xizmat qiladi. O'z navbatida ijtimoiy sheriklik jarayonlarini jamiyatda joriy etilishi bevosita bu borada qabul qilingan me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan bog'liqdir. Ana shundan kelib chiqqan holda biz ekspertlarga bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik borasidagi qabul qilingan me'yoriy huquqiy hujjatlardan qoniqasizmi degan savol bilan murojaat qildik. Tadqiqotda ishtirok etgan aksariyat ekspertlar O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik borasida ishlab chiqilgan me'yoriy huquqiy hujjatlardan qoniqishlarini ta'kidlashdi, shu bilan birga ijtimoiy sheriklik borasida mavjud bo'lgan me'yoriy huquqiy hujjatlardagi ayrim muammolarni ekspertlar keltirib o'tishdi. Biz murojaat qilgan ekspertlarning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy sheriklik qonunida davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarning mexanizmi to'liq ochib berilmagan. Ijtimoiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan davlat hokimiyati organlari uchun hech qanday rag'batlantiruvchi tizim mavjud emas. O'zbekiston qonunchiligida tadbirkorlar qatlami ijtimoiy sheriklikning mustaqil subyekti sifatida e'tirof etilmagan, shuningdek, ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish jarayonida davlat hokimiyati organlarining hisobdorligi qonunchilikda ko'rsatilmaganligi, O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik institutini rivojlantirishda to'siq bo'lmoqda. Yangi O'zbekistonda istiqbolda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish uchun biz murojaat qilgan ekspertlar quyidagi tavsiyalarini berib o'tdilar. O'zbekiston qonunchiligiga tadbirkorlarni ijtimoiy sheriklik jarayonlarini mustaqil subyekti sifatida kiritish lozim. Ushbu normani kiritilishi tadbirkorlarni nogironligi bor shaxslarni hayotini yanada yaxshilashga qaratilgan ishtirokini kengaytirish, shu bilan birga nogironligi bor shaxslarni bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslar uchun qonunchilikka

rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kiritish. O'zbekiston Respublikasini qonun osti hujjatlariga davlat homiyati organlari qoshida tuzilgan jamoatchilik kengashlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan normalarni kiritish.

Nogironlik sohasida faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlaridan ishtirok etgan ekspertlarning fikriga ko'ra davlat hokimiyati organlari qoshida tuzilgan jamoat kengashlari faoliyatini to'liq huquqiy belgilanmaganligi jamoatchilik kengashi institutini turli xil talqin qilinishiga, shuningdek, aksariyat hollarda tuzilgan jamoatchilik kengashlari deklarativ xarakterga ega bo'lishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlaridan tadqiqotda ishtirok etgan ekspertlarning fikriga ko'ra hanuzgacha davlat hokimiyati organlari vakillari ijtimoiy sheriklik mohiyatini to'la anglamaganligini ko'rish mumkin. Bunga O'zbekistonda hozirgacha davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasida tizimli muloqot yo'lga qo'yilmaganligi yaqqol misol bo'la oladi. Ekspertlarga ko'ra davlat hokimiyati organlari bilan davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi muloqot bugungi kunda fragmental xarakterga ega. Biz murojaat qilgan akademik doira vakillarining fikriga ko'ra davlat va nodavlat organlari o'rtasidagi munosabatlarning fragmentalligi quyidagi omillar bilan bog'liqdir: Ba'zi davlat hokimiyati organlari vakillari fuqorolik jamiyati institutlariga teng subyekti sifatida emas, balki, jamiyat hokimiyati ierarxiyasida quyi pog'onaga ega bo'lgan tuzilma sifatida qarashadi va ba'zi hollarda ularga topshiriq berib muddat ham qo'yishadi. Yuqorida qayd etilganidek, davlat hokimiyati qoshida faoliyat olib boruvchi jamoatchilik kengashlarining dekorativ xarakterga ega ekanligi.

O'z navbatida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish jarayonlarida davlat hokimiyati organlari vakillarining salohiyatini oshirish uchun ekspertlar fikriga ko'ra quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim: Ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi davlat hokimiyati organlarini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish. Deyarli barcha davlat hokimiyati organlarida fuqorolik jamiyati institutlari bilan ishlavchi bo'linmalarni tashkil qilish lozim. Joylarda Davlat hokimiyati faoliyatining samaradorligini aniqlash jarayonlarida, nafaqat muayyan hududning ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash, shu bilan birga muayyan hududda ijtimoiy sheriklikning qanday yo'lga qo'yilganligini samaradorlikni o'lchash ko'rsatkichi sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi jamoat tashkilotlaridan jalb qilingan ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda aksariyat davlat hokimiyati organlari nogironlik masalalaridan deyarli bexabardirlar. Ularni bu boradagi xabardorligini va inkluziv madaniyatini oshirish maqsadida ijtimoiy o'quv markazlarini tashkil qilish nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga ijobiy xizmat qiladi. Tadqiqotga jalb qilingan ekspertlarning fikriga ko'ra, O'zbekistonda nogironligi bor shaxslar huquqlari to'g'risidagi qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni va Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasini bajarilishini davlat va nodavlat tashkilotlari birgalikda monitoring qilishi mazkur sohada ijtimoiy sheriklikni kuchayishiga va nogironlik sohasidagi qonunchilikni O'zbekistonda bajarishiga olib keladi. Shuni aytib o'tish joizki, nodavlat notijorat tashkilotlaridan tadqiqot jarayonida ishtirok etgan ekspertlarning fikriga ko'ra, tizimli monitoring olib borish, shuningdek, birgalikda me'yoriy huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishdan ko'ra, davlat hokimiyati organlari jamoat tashkilotlari bilan muloqotni aksariyat hollarda seminar treninglar bilan cheklanadilar. O'z navbatida, davlat hokimiyati organlaridan tadqiqotga jalb etilgan ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari muayyan muammo atrofida bo'layotgan muhokamalariga va

qabul qilinayotgan qarorlar jarayonlariga ko'proq jalb etilmoqdalar. Shuni ham ta'kidlash joizki, ekspertlarning fikriga ko'ra ba'zi NNtlar vakillarining professionallik darajasi hanzugacha past bo'lib qolmoqda. Akademik doirada faoliyat olib boruvchi ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi muammolarga duch kelmoqdalar. 1. Moliyaviy resurslarning tanqisligi. Mazkur muammo bugungi kunda aksariyat nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, hattoki, o'z joyiga ega emasligiga olib kelgan. 2. Ba'zi nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlar xodimlarida o'z malakasini oshirish xohishi istagi mavjud emasligi (chunki ulaning malakasini oshishi tashkilot va ular hayotining sifatini o'sishiga tasir o'tkazmaydi). 3. Aksariyat nodavlat-notijorat tashkilotlarining ustavlarida davlat hokimiyati organlari bilan ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish punkti kiritilmagan va bu borada ularda deyarli hech qanday strategiya mavjud emas. Nodavlat notijorat tashkilotlaridan tadqiqotga jalb qilingan ekspertlarning fikriga ko'ra, hozirgi vaqtda nodavlat notijorat tashkilotlarida faoliyat olib borish jamiyatda unchalik obro'li kasb hisoblanmaydi, shuning uchun ko'p yoshlar nodavlat notijorat tashkilotlarida emas, balki, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda faoliyat olib borishni xush ko'radilar. Natijada nodavlat-notijorat tashkilotlari professional xodimlarni jalb qilishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Biz murojaat qilgan ekspertlar nodavlat-notijorat tashkilotlarni faoliyatini samaradorligini oshirish borasida quyidagi tavsiyalarni berdilar: 1) o'z tashabbusi bilan ochilgan nodavlat-notijorat tashkilotlarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va ularni joriy qilish; 2) qonunchilik asoslari, strategik menijment, piar texnologiyalarni qo'llash kabi masalalar bo'yicha trening

seminarlar o'tkazish; 3) nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat-notijorat tashkilotlarga ijtimoiy buyurtmalarni olish jarayonlarini soddalashtirish lozim.

Xulosa va takliflar. Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy sheriklikni o'rini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi: 1) taraqqiy etgan davlatlarning ijtimoiy iqtisodiy barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri ijtimoiy sheriklik hisoblanadi. Chunki, ijtimoiy sheriklik jamiyatning ijtimoiy siyosiy hayotida barcha qatlamlarni ishtirok etishiga imkon beradi; 2) O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish jarayonlarida mamlakat qonunchiligida tadbirkorlik subyektini ijtimoiy sheriklikni mustaqil subyektini ekanligini kiritish maqsadga muvofiqdir. O'z navbatida, mazkur normani kiritilishi nafaqat nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishda tadbirkorlarni ishtiroki oshishiga, balki, autsorsink tizimini shakllanishi asosida nogironligi bor shaxslarni bandligini ta'minlashga ham xizmat qiladi; 3) Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi va milliy qonunchilikni bajarilishini aniqlash jarayonida nodavlat va davlat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadida birgalikda monitoringlarni o'tkazilishi nogironlik sohasidagi ijtimoiy siyosatni yangi samarali tizimini shakllanishiga olib keladi; 4) ijtimoiy siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik kengashlarini ahamiyatini oshirish borasidagi chora tadbirlarni ishlab chiqilishi, qabul qilinayotgan qarorlarni inkyuzivligini ta'minlaydi; 5) nogironlik sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlarini ijtimoiy iqtisodiy holatini yaxshilanishi ular faoliyatini samaradorligini oshirishga yosh professional kadrlarni ular faoliyatiga jalb qilinishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Смирнов. В. М. Рязанцева А.В. Зарубежный опыт социального партнёрства на рынке труда и образования www.cyberleninka.ru 2016.г 29.06.2023.
2. Воронов А.А. Муратова А.Р. Направление развития социального партнёрство как механизм разрешения трудовых конфликтов приоритеты России. 14.ст www.cyberleninka.ru 29.06.2023.
3. Ганиева М.Х. Система социальной защиты детей в Узбекистане как фактор глобальной безопасности. Международной научно-практической конференции. – Тараз: Тараз университети, 2019. С.88-96
4. Мавлонов Ж. Гражданское общество: от концепта к концепциям и парадигмам (социально- философский анализ) // Монография. – Ташкент: Истиклол нури, 2014. 224 б.
5. Матибаев Т. Ижтимоий ҳамкорлик ва демократия: давлат ва жамият ҳаётининг барқарор тараққиёт йўлида. Тошкент: Билим ва интеллектуал салоҳият, 2019. С.25-26. (272 б.)
6. Муминов А.Г., Абдухалилов А.А., Нишанбаева Э.З. Ижтимоий шерикчилик: назария ва амалиёт. Тошкент: УзМУ, 2018. – Б.21. (60 б.).
7. Духанина Л.С. Лысенко И.И. Назаренко М.А. основные принципы социального партнёрства в сфере труда и доверия к ним со стороны работающей молодежи международный журнал экспериментального образования.2013.г.4-н. 175.ст.
8. Прохорова о г социальное партнёрства поиск консенсуса механизмы межведомственного взаимодействия монография Москва 2018.14с.
9. Мо'aminov A.G. Abduhalilov A.A. Nishonbayeva I.Z. Ijtimoiy sherikchilik nazariya va amaliyot. Toshkent. UzMu. 2018. 19. bet.
10. Духанина Л.С. Лысенко.И.И. Назаренко М.А. основные принципы социального партнёрства в сфере труда и доверия к ним со стороны работающей молодежи международный журнал экспериментального образования 2013. 4-н.175ст.



UDK: 681.3.062; 004.432

Olim ABRALOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: uralboynavoiy@mail.ru

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) U.Baxodirova taqrizi asosida

BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA “FLIPPED CLASSROOM” TEKNOLOGIYASINING AMALIY SAMARADORLIGI

Аннотация

Ushbu maqolada bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash holati, unga oid olimlarning ishlarini tahlili keltirilgan hamda mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarining biologiya ta‘lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish muammolari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda “Flipped classroom” texnologiyasidan foydalanish modeli taklif etilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda “Flipped classroom” texnologiyasidan foydalanish modelining samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda uning sifat darajasi Student-Fisher kriteriyasidan foydalanib isbotlangan.

Kalit so‘zlar: Flipped classroom, model, ta‘lim texnologiyasi, global tarmoq, axborot-ta‘lim muhiti, Student-Fisher.

ПРАКТИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТЕХНОЛОГИИ «ПЕРЕВЕРНУТЫЙ КЛАСС» В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК

Аннотация

В данной статье представлено состояние подготовки будущих учителей биологии, анализ работ соответствующих ученых, а также проблемы совершенствования биологического образования и учебного процесса в высших учебных заведениях нашей страны. Также предложена модель использования технологии «Перевернутый класс» в подготовке будущих учителей биологии. Вместе с тем, в данной статье проведена экспериментальная работа по определению эффективности модели использования технологии «Перевернутый класс» в подготовке будущих учителей биологии, а уровень ее качества подтвержден с помощью критерия Стьюдента-Фишера.

Ключевые слова: «Перевернутый класс», модель, образовательная технология, глобальная сеть, информационно-образовательная среда, Студент-Фишер.

PRACTICAL EFFECTIVENESS OF THE FLIPPED CLASSROOM TECHNOLOGY IN TRAINING FUTURE TEACHERS OF BIOLOGICAL SCIENCES

Annotation

This article presents the state of training of future biology teachers, an analysis of the work of relevant scientists, as well as the problems of improving biological education and the educational process in higher educational institutions of our country. A model for using the “Flipped Classroom” technology in the training of future biology teachers is also proposed. At the same time, this article conducted experimental work to determine the effectiveness of the model for using the “Flipped Classroom” technology in the training of future biology teachers, and the level of its quality was confirmed using the Student-Fisher test.

Key words: “Flipped classroom”, model, educational technology, global network, information and educational environment, Student-Fisher.

Kirish. Jahonda bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashning tashkiliy-metodik asoslarini tadqiq etishda integrativ yondashuvli interfaol metodlar va zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [1-8]. Tadqiqot natijalari biologiya ta‘limi jarayoniga dinamik illyustratsiyali o‘quv materiallarini loyihalash, kompyuter texnologiyalari, uning pedagogik dasturiy vositalari va zamonaviy ta‘lim texnologiyalari asosida mashg‘ulotlarini o‘tkazishda qo‘llash uchun optimal yondashuvlar bilan bog‘liq ilmiy ishlanmalar ko‘lamini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish, professional kadrlarni tayyorlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta‘lim texnologiyalari integratsiyasini ta‘minlash orqali talabalar o‘quv faoliyatini rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkoniyatlarini oshirmoqda. O‘z navbatida, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy ta‘lim texnologiyalarni, shu jumladan “Flipped Classroom” texnologiyasidan foydalanishning yangicha yondashuvlarini tadqiq etish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda bo‘lajak biologiya mutaxassislarini tayyorlash nazariyasi va amaliyoti, biologiya fanlarini o‘qitish metodikasiga o‘di tadqiqotlar J.O.Tolipova [1], M.S.Usmonova [2], A.K.Raximov [3], M.M.Isabayeva [4], Z.A.Mardanov [5], D.M.Elmuratova [6], S.F.Salimova [7], G.V.Shapapova [13], U.B.Baxodirova [14]lar tomonidan tadqiq etilgan.

Jumladan, biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirish nazariyasi va amaliyotiga oid izlanishlar J.O.Tolipova [1], M.S.Usmonova [2], innovatsion ta‘lim muhiti sharoitida talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish nazariyasi va amaliyotiga doir tadqiqotlar A.K.Raximov [3], biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarni sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish yuzasida ilmiy-tadqiqot ishlari M.M.Isabayeva [4], bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda modul texnologiyalari va integrativ yondashuv asosida takomillashtirish hamda bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalari shakllanganlik darajasini baholashning metodik tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar Z.A.Mardanov [5], D.M.Elmuratova


[6], S.F.Salimova [7]lar, biologiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalarda foydalanish metodikasiga oid izlanishlar G.V.Shapapova [13], U.B.Baxodirova [14]lar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida bo'lajak biologiya mutaxassislarining tayyorlashni metodik tizimini takomillashtirish, biologiyani o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar N.P.Stepanova [8], S.B.Baxvalova [9], T.A.Bespamyatnix [10], N.B.Firsova [11], A.A.Bogomolova [12], YE.N.Belyayeva [10], YE.N.Arbuzova [11]lar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, biologiyani o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar N.P.Stepanova [8], pedagogik oliy ta'lim muassasalarida biologiya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishning integratsion-modulli usulidan foydalanish metodikasi bo'yicha izlanishlar S.B.Baxvalova [9], biologiyani chuqur o'rganishda talabalarining o'quv-tadqiqot ishlari metodikasini takomillashtirish yuzasidan T.A.Bespamyatnix [10], talabalarining ekologik faoliyatini tashkil etish asosida biologiya o'qitish sifatini oshirishga oid ilmiy-izlanishlar N.B.Firsova [11], biologiyani o'qitish jarayonida talabalarining yovvoyi tabiatga emotsional-qadriyatli munosabatini shakllantirish bo'yicha tadqiqot ishlar A.A.Bogomolova [12], biologiyani o'qitishning innovatsion o'quv-uslubiy majmuasidan foydalangan holda refleksiv ta'lim tizimini loyihalashga qaratilgan tadqiqot YE.N.Arbuzova [11]lar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarida uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fanlarini o'qitish samadorligini oshirish metodikasi va talabalarining kompetentligini rivojlantirishning turli yondashuvlariga oid izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ammo o'qitishning zamonaviy vositalarini takomillashtirish, jumladan raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, global tarmoqning imkoniyatlari kengayishi tufayli biologiya fanlarni o'qitish samadorligini oshirishda turkum muammolar paydo bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida global tapmoqdan foydalanish keng ko'lamli joriy etilgan. Barcha fanlar, jumladan, biologiya ta'limiga oid didaktik o'quv vositalar, axborot-ta'lim muhitlar soni ortib bormoqda. Ta'lim vazifalarini belgilash nuqtai nazaridan, tarmoqdan ta'limga oid videoroliklarni va videoma'ruzalarni tinglash ta'lim oluvchidan yuqori malakani talab etmaydi [13]. Shu bois, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy fanlardan tarmoqqa joylashtirilgan videoroliklardan va videoma'ruzalardan foydalanish madaniyatini oshirish lozim [14]. Bu kabi o'quv vositalardan samarali foydalanishda ma'lum bir texnologiyani, shu jumladan "Flipped Classroom" texnologiyasidan foydalanishni taqozo etadi. Shu bois, tadqiqot doirasida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda "Flipped Classroom" texnologiyasidan foydalanish modeli ishlab chiqildi.



1-rasm. Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarning tayyorlash modeli.

Tavsiya etilayotgan model tashkiliy, texnologik va nazorat qismlaridan iborat. Tashkiliy qismda bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini tayyor nazarda tutilgan. Texnologik qismda bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda "Flipped Classroom" texnologiyasidan foydalanish tamoyillari, mashg'ulotlarda amalga oshir shartlari, amalga oshirish bosqichlari beriladigan topshiriqlarning mohiyati keltirilgan. Nazorat qismida esa bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini baholash mezonlari va darajalari taklif etilgan.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitiladigan kasbiy fanlarga "Flipped Classroom" texnologiyasini qo'llashning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat

pedagogika institutining "Biologiya" ta'lim yo'nalishi talabalari jalb etilib, ular tajriba (31 nafar) va nazorat (32 nafar) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhiga tadqiqot doirasida taklif etilayotgan modeldan bo'lajak biologiya fani o'qituvchilariga mashg'ulotlar va ularni mustaqil ta'limi tashkil etildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Ushbu tajriba-sinovga jalb etilgan bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining natijalari tahlil etilib, ishonchligini tekshirish maqsadida Student-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$$

, tarqoqlik koeffitsiyentlarini

$$D_n = \frac{\sum_{i=1}^4 n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}$$
, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlashda esa $A\% = \frac{\bar{x}}{3} \cdot 100\% - \frac{\bar{y}}{3} \cdot 100\%$ formulalaridan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko'ra, tajriba guruhining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 9,5% ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Shunday qilib, "Flipped Classroom" texnologiyasi mashg'ulot mavzularini oldindan o'rganishga, mashg'ulot vaqtida esa tushunmagan savollarni professor-o'qituvchi bilan muhokoma qilishdan iborat hisoblanadi. Shu bois, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarni tayyorlashda "Flipped Classroom" texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Flipped Classroom" texnologiyasi yordamida global tarmqning qidiruv tizimlari va ta'lim muhtirlaridan foydalanish orqali biologiyadan mashg'ulotlarning sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tarishga, talabalarining mashg'ulotdagi faolligini oshirishga va mustaqil ishlashga yo'naltirishga imkon beradi hamda o'qitishning individuallashtirish va differensiallashtirishni amalga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning tadqiqot faoliyatini kuchaytirish imkoniyatlarini kengaytiradi va uzluksiz qayta aloqa mavjudligi o'quv jarayonining jonlanishiga olib keladi, bu o'rganilayotgan materialga ijobiy munosabat shakllanishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Толипова Ж.О. Биология ўқитувчисининг илмий-методик тайёргарлигини ортиришнинг назарияси ва амалиёти // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2006. – 305 б.
2. Усмонова М.С. бўлажак биология ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш // педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2020. – 44 б.
3. Рахимов А.К. Инновацион таълим муҳити шароитида талабаларда табиий-илмий дунёқарашни ривожлантириш назарияси ва амалиёти // Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) Диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 46 б.
4. Исабаева М. М. Биологияни ўқитишда ўқувчиларда соғлом турмуш тарзи кўникмаларини таркиб топтириш тизими (5–9-синфлар мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореферати. – Тошкент, 2020. – 49 б.
5. Марданов З.А. Бўлажак биология ўқитувчиларини касбий тайёрлашда модуль технологияларини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Чирчик, 2020. – 49 б.
6. Элмуратова Д.М. бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини инновацион касбий фаолиятга тайёрлаш (Табиатшунослик ва уни ўқитиш методикаси фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Гулистон, 2020. – 48 б.
7. Салимова С.Ф. Бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий компетенциялари шаклланганлик даражасини баҳолашнинг методик тизимини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Чирчик, 2021. – 48 б.
8. Степанова Н.П. Методика развивающего обучения биологии в условиях научного общества учащихся // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Астрахань, 2006. – 18 с.
9. Бахвалова С.Б. Интегративно-модульная методика биологической подготовки на этапе довузовского образования в педагогическом вузе // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – СПб.: ООО1. Академ Принт, 2003. – 21с.
10. Беспамтных Т.А. Методика учебно исследовательской работы учащихся при углубленном изучении общей биологии // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – СПб.: РГПУ. Академ-Принт, 2002. – 20 с.
11. Арбузова Е.Н. Проектирование рефлексивной системы обучения с применением инновационного учебно-методического комплекса по методике обучения биологии // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2015. – 46 с.
12. Фирсова Н.Б. Повышение качества обучения биологии на основе организации природоохранной деятельности учащихся // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Астрахань, 2009. – 20 с.
13. Богомолова А.А. Системный подход к изучению мира живой природы в курсе биологии 6-7 классов общеобразовательной школы // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2006. – 284 с.
14. Шарапова Г.В. Иммунология фанини ўқитиш самарадорлигини оширишда электрон таълим ресурслардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2022. – 159 б.
15. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Қарши, 2020. – 156 б.



Muxayyo ALIKULOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
E-mail: muxayyosherovna_@mail.ru

Qarshi davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasini mudiri p.f.d N.Oripova taqrizi asosida

ZAMONAVIY SHAROITDA TALABALARNING OILAGA OID MAJMUAVIY BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH IJTIMOIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqola mazmunida talabalarning oilaga oid majmuaviy bilimlarini shakllantirish muammosi pedagogika sohasining asosiy mavzusi ekanligi va talabalarning oilaga oid bilimlarini shakllantirishning asosiy mezonlari, yo'l-yo'riqlari haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari mazkur muammoni oliy o'quv yurtlaridagi asosiy yechimlari tahlil qilib chiqilgan. Maqolada berilgan ma'lumotlardan dars mashg'ulotlarining asosiy qismlarida manba sifatida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Qadriyat, oila, ijtimoiy muammo, majmuaviy bilimlar, akseologiya, ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar, pedagogik qadriyatlarni guruhlash, shaxsiy va pedagogik qadriyatlar, o'z-o'zini ta'minlashga doir qadriyatlar.

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЛЕКСНЫХ СЕМЕЙНЫХ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В содержании данной статьи рассмотрена проблема формирования комплексных семейных знаний учащихся как основная тема педагогической сферы и основные критерии, направления формирования семейных знаний учащихся. Кроме того, проанализированы основные решения данной проблемы в высших учебных заведениях. Информация, представленная в статье, может быть использована в качестве ресурса в основных частях урока.

Ключевые слова: Ценность, семья, социальная проблема, комплексные знания, аксеология, социально-педагогические ценности, группировка педагогических ценностей, личностно-педагогические ценности, ценности по самообеспеченности.

FORMATION OF COMPREHENSIVE FAMILY KNOWLEDGE OF STUDENTS IN MODERN CONDITIONS AS A SOCIAL PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation

The content of this article reflects on the fact that the problem of the formation of comprehensive family knowledge of students is the main topic of the field of pedagogy and the main criteria, directions for the formation of family knowledge of students. In addition, the main solutions of this problem in higher education institutions have been analyzed. The information given in the article can be used as a source in the main parts of the lesson.

Key words: Value, family, social problem, complex knowledge, Axiology, socio-pedagogical values, grouping of pedagogical values, personal and pedagogical values, values.

Kirish. Mamlakatimizda oila qadriyat sanalib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, respublikada oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jamiyatda uning mavqeini oshirish, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarda oilaning ishtirokini kuchaytirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini shakllantirish tizimini takomillashtirish va ushbu jarayonning pedagogik-metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish hamda talabalarda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelini ishlab chiqish chiqishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni, 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5938-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-81-sonli Farmoni, 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi "Kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5204-son qarori, 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-sonli qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Psixolog olimlardan A. Jabborov, M. Fayziyevlar hozirgi zamon oilalarida inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida quyidagi fikrni keltirib o'tadilar: "Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik, shaxs kamoloti o'tgan yuz yillik davomida oilaviy munosabatlar tizimida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Bu esa zamonaviy oilaning tarkibiy tuzilmasi, undagi shaxslararo munosabatlarda ancha chigal muammolarni keltirib chiqarmoqda".

Rus sotsiologlari A.I.Antonov, V.M.Medkovalar oila inqirozi masalasi o'rganar ekan, uning "liberal-progressiv" va "konservativ-inqiroz" paradigmatlari mavjudligi ajratib ko'rsatadi. Birinchi paradigmanning mohiyati shundaki, eski an'anaviy oila parchalanadi va uning o'rnida yangi shakllar paydo bo'ladi. Ikkinchi paradigmadagi esa oila ijtimoiy institut sifatida butunlay yo'q bo'lib ketadi, shuning uchun oilaviy turmush tarzini mustahkamlash, an'analarni saqlash kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yoshlarda oilaga nisbatan akseologik munosabatni tarkib toptirish, oilaviy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish hamda ularni oilaviy hayotga pedagogik-psixologik tayyorlash masalalarining o'ziga xos jihatlari respublikamiz olimlaridan R. Shadiyev, O. Musurmonova, M. Artiqova, N. Oripova, A. Xo'jaqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz faylasuf olimlaridan J. To'lenov, Q. Nazarov, A. Erkayev, A. Huseynova, G. Navro'zova, I. Saifnazarov, X. Shayxova, R. Ro'ziyeva, H. Salomovalar tadqiqotlarida oilada mehr tuyg'usi va uni shakllantirish masalalarining ayrim jihatlari o'rganilgan.

Oilalarni nikoh masalalari, oiladagi shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlari E. G'oziyev, A. Jabborov, M. Fayziyeva, B. Shoumarov, N. Salayeva, M. Karimova, O. To'rayeva, F. Ro'ziqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.

E.I.Saxapova izlanishlarida oilani insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk qadriyat ekanligini ta'kidlab, bugungi kunda rus oilalari inqiroz yoqasida ekanligi aytib o'tadi: "... oila insoniyat butun tarixi davomida yaratilgan eng buyuk qadriyatlardan biridir. Hech bir millat, hech bir madaniy jamiyat oilasiz to'liq bo'la olmaydi. Rossiya oilasi endi inqiroz, ijtimoiy tanazzul holatida. So'nggi bir necha yil ichida oilaning barqaror pasayish tendentsiyasi: oila moddiy ahvolidagi yomonlashuvi, to'liq bo'lmagan oilalar sonining ko'payishi, farzandli bo'lishga qiziqishning susayishi, bolalarning oiladan begonalashuvi, o'smirlarda devyatsiya darajasining ortib borishi namoyon bo'lmoqda".

Tadqiqotchilardan E. Akramova oila inqirozi sabablarini o'rganar ekan, "Oilaning ijtimoiy institut sifatida inqirozi, shuningdek, nikoh munosabatlari institutining degradatsiyasida, xususan, ro'yxatdan o'tmagan nikohlar sonining ko'payishi, noan'anaviy nikoh turlarining (fuqarolik nikohi, dam olish kunlaridagi nikoh) paydo bo'lishida ham namoyon bo'ladi".

Tahlil va natijalar. Pedagogik qadriyatlar ularning mavjudligi darajasida farqlanadi, bu ularni tasniflash uchun asos bo'lishi mumkin. Ushbu poydevordan foydalanib biz shaxsiy, guruhviy va ijtimoiy pedagogik qadriyatlarni ajratib ko'rsatamiz.

Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar jamoat ongida o'zini namoyon qiladigan, turli xil ijtimoiy tizimlarda ishlaydigan qadriyatlarning mohiyati va mazmunini aks ettiradi. Bu jamiyatning ta'lim sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalari, tushunchalar, normalar, qoidalar, an'analarga to'plamidir.

Pedagogik qadriyatlarni guruhlash muayyan ta'lim muassasalari doirasida pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi va boshqaradigan g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar shaklida taqdim etilishi mumkin. Bunday qadriyatlar to'plami yaxlit

xarakterga ega, nisbiy barqarorlik va takrorlanuvchanlikka ega.

Shaxsiy va pedagogik qadriyatlar pedagog shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari, munosabatlari va boshqa g'oyaviy xususiyatlarini aks ettiradigan ijtimoiy-psixologik shakllanishlar vazifasini bajaradi, bu ularning jami jihatidan uning qiymat yo'nalishlari tizimini tashkil etadi.

O'z-o'zini ta'minlashga doir qadriyatlar - bu maqsadlar, shu jumladan, pedagog ishining ijodiy xususiyati, obro'si, ijtimoiy ahamiyati, davlat oldidagi mas'uliyati, o'zini o'zi tasdiqlash imkoniyati, bolalarga bo'lgan muhabbati kabi tuyg'ularning jamlanmasidir. Ushbu turdagi qadriyatlar pedagoglar va talabalar shaxsini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatning maqsadlari unda amalga oshirilayotgan ehtiyojlarga mos keladigan aniq motivlar bilan belgilanadi. Bu ularning ehtiyojlar ierarxiyasidagi yetakchi mavqeyini tushuntiradi, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi. Pedagogik faoliyatning maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini izlab, pedagog o'zining kasbiy strategiyasini tanlaydi, uning mazmuni o'zi va boshqalarning rivojlanishini belgilaydi. Binobarin, qadriyatlar davlat ta'lim siyosatini va pedagogika fanining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ular subyektivlashtirilib, pedagogik faoliyatning muhim omillariga aylanadi va ta'sir ko'rsatadi.

Qadriyatlar-munosabatlar pedagogik jarayonni maqsadga muvofiq va yetarli darajada qurish va uning subyektlari bilan o'zaro aloqalarini ta'minlash demakdir. Kasbiy faoliyatga munosabat o'zgarishsiz qolmaydi va pedagogning harakatlari muvaffaqiyatiga, uning kasbiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish darajasiga qarab o'zgaradi. Pedagog va talabalarning o'zaro ta'sirini belgilaydigan pedagogik faoliyatga qadriyatlar munosabati gumanistik yo'nalish bilan ajralib turadi. Qiymat munosabatlarida mutaxassis va inson sifatida o'ziga nisbatan munosabati bir xil ahamiyatga ega.

Qadriyatlar-fazilatlar pedagogik qadriyatlar ierarxiyasida eng yuqori daraja hisoblanadi, chunki ularda o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bularga xilma-xil va o'zaro bog'liq individual, shaxsiy, maqom rol va kasbiy-faollik fazilatlar kiradi. Ushbu fazilatlar bir qator qobiliyatlarining rivojlanish darajasidan kelib chiqadi: bashorat qiluvchanlik, kommunikativ, ijodiy, empatik, intellektual, aks etuvchi va interaktiv.

Bilim qadriyatlari - bu ma'lum bir tartibli va uyushgan bilim va ko'nikmalar tizimi, shaxsni rivojlantirish va sotsializatsiya qilishning pedagogik nazariyalari, ta'lim arayoni qurilishi va ishlash qonuniyatlari va tamoyillari va boshqalar. Pedagog tomonidan fundamental psixologik va pedagogik bilimlarni o'zlashtirish ijodkorlik uchun sharoit yaratadi, professional ma'lumotlarda harakat qilish imkonini beradi, pedagogik fikrlashning samarali ijodiy usullaridan foydalangan holda zamonaviy nazariya va texnologiya darajasida pedagogik muammolarni hal qiladi.

Shunday qilib, bir-birini vujudga keltiruvchi pedagogik qadriyatlarining nomlangan guruhlarini sintetik xarakterga ega bo'lgan aksiologik modelni tashkil etadi. Bu qadriyatlar-maqsadlar qadriyat-vositalarni belgilashida va qadriyat-munosabatlar, qadriyat-maqsad va qadriyat-sifatlariga va boshqalarga bog'liqligida namoyon bo'ladi. Ular bir butun bo'lib ishlaydi. Ushbu model ishlab chiqilgan yoki yaratilgan pedagogik qadriyatlarni qabul qilish yoki rad etish mezonlari sifatida harakat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida deyish mumkinki, zamonaviy talabalarda oilaga oid majmuaviy bilimlarni shakllantirish eng azaliy va davriy muammo sifatida ilmiy izlanishlarning asosiy mavzusi sifatida o'rganilib kelinadi. Aslida qadriyatlar inson tomonidan boshqa odamlar bilan birgalikdagi faoliyat orqali o'zlashtiriladi. Qadriyatlar - bu butun shaxsiy mavjudotning barqarorligini ta'minlaydigan

insoniyatning asosiy omili. Faoliyat orqali qadriyatlarni egallash aynan shu faoliyatda axloqiy o'lchovni ochadi, ideal qiymat va moddiy faoliyat turlari orasidagi masofani yaratadi va shu bilan axloqiy aks ettirishni ta'minlaydi, axloqiy o'z-o'zini anglashni - inson vijdonini uyg'otadi. Aksiologik yondashuv dastlab talabalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish va tarbiyalashning butun tizimini, eng yuqori pedagogik qadriyat sifatida milliy ta'lim idealiga, barcha zamonaviy ta'limning mazmuni va asosiy milliy qadriyatlar tizimiga asoslangan maktab hayotining butun uslubini belgilaydi.

Qadriyatlar tizimi talabalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish va tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari mazmunini belgilaydi. Oila tarbiyasidagi aksiologik yondashuv insonni asosiy milliy qadriyatlarning tashuvchisi, eng yuqori qadriyat sifatida, dunyodagi faoliyatini ma'naviy ideallar, axloqiy munosabatlar va axloqiy me'yorlar asosida tashkil etishga qodir sub'yekt sifatida tasdiqlaydi. Aksiologik yondashuv Oliy o'quv yurti talabalarining turmush tarzini mustahkam axloqiy asoslarga asoslashga va shu bilan ijtimoiy muhitning axloqiy nisbiyligiga qarshi turishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Safarov Oxunjon "Xalq og'zaki ijodi" darslik Buxoro davlat universiteti T.: "Musiq" nashriyoti 2010. 386bet
2. Q. Nazarov "Qadriyatlar falsafasi" (Aksiologiya) darslik T.: "O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyat" nashriyoti 2004-yil 85 bet.
3. Matbua Ahmedova "Falsafa" darslik T.: "O'zbekiston faylassuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2006-yil 496 bet
4. A. Madvaliyev "Pedagogika ensiklopediyasi" T.: "O'zbek tilining izohli lug'ati" davlat milliy nashriyoti 2015-yil 320 bet.
4. Ergashev, O. M. Muxammadiyeva, M. I. Xo'jayev "Milliy g'oya: O'zbekiston rivojlantirish strategiyasi" o'quv qo'llanma T.: "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti 2020-yil 180 bet.
5. N. Ruzmetova, R. Fayziev, A. Ishnazarov, Sh. Nurullaeva "Matematik modellashirish" o'quv qo'llanma T.: TSUE 2013 – yil 181-bet.



UDK: 159.99:316.6

Umida ALIMOVA,
Toshkent davlat pedagogika universitet o‘qituvchisi

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti dotsenti, p.f.d. X.Abdusamatov taqrizi asosida

AYOLLARDA ZO‘RAVONLIKDAN SO‘NG YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK JAROHLAR HANDA ULARNING IJTIMOY REABILITATSIYASI

Annotatsiya

Ma‘lumki insondagi psixologik stress va jarohat ijtimoiy hayotimizda uchrab turadigan voqelikdir. So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab turli tayziqqa uchragan va uning oqibatida jarohatdan keyingi stressni boshidan kechirgan ayollar soni oshib bormoqda. Mazkur ilmiy maqolada ayollar uchraydigan jarohatdan keyingi stresning psixologik asoratlari va reabilitatsiyasi masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, jamiyatda ayollarning roli, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, axloqiy sifatlarining namoyon bo‘lishi hamda xarakter xislatlarining o‘ziga xosligi kabi omillar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Ayollar, psixologik stress, psixologik jarohat, ijtimoiy jarayonlar, reabilitatsiya, emotsional omillar.

СОЦИАЛЬНАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРАВМ ЖЕНЩИН ПЕРЕНЕСШИХ НАСИЛИЕ

Аннотация

Как известно, психологический стресс и травма у человека-это реальность, с которой мы сталкиваемся в нашей социальной жизни. В последние годы во всем мире растет число женщин, перенесших различные тайзики и перенесших вызванный ими посттравматический стресс. В данной научной статье анализируются психологические осложнения посттравматического стресса, с которым сталкиваются женщины, и вопросы реабилитации. Исследовались также такие факторы, как роль женщин в обществе, их социально-психологические особенности, проявление нравственных качеств, своеобразие черт характера.

Ключевые слова: Женщины, психологический стресс, психологическая травма, социальные процессы, реабилитация, эмоциональные факторы.

SOCIAL REHABILITATION OF PSYCHOLOGICAL TRAUMAS OF WOMEN WHO HAVE SUFFERED VIOLENCE

Annotation

As you know, psychological stress and trauma in humans is a reality that we face in our social life. In recent years, the number of women who have undergone various taiziki and suffered post-traumatic stress caused by them has been growing all over the world. This scientific article analyzes the psychological complications of post-traumatic stress experienced by women and issues of rehabilitation. Factors such as the role of women in society, their socio-psychological characteristics, the manifestation of moral qualities, the originality of character traits were also studied.

Key words: Women, psychological stress, psychological trauma, social processes, rehabilitation, emotional factors.

Kirish. “Stress” ilmiy termini allaqachon kundalik hayotimizda ko‘p qo‘llaniladigan so‘zga aylandi. Stress haqida ommabop, ilmiy va badiiy adabiyotda yozishmoqda, bu holatdan qanday chiqish yo‘llarini qidirishmoqda. Faqat inson moslashuviga halal bermaydigan “normal” stress hamda jarohatlovchi stress mavjud bo‘lib, uning natijasida inson psixologik sferasida o‘zgarish kuzatilishini farqlash lozim.

Adabiyotlar va metodologiya tahlili. Jarohatlovchi hodisa o‘zi yohud o‘ziga aloqador bo‘lgan shaxsga o‘lim havfi, og‘ir yaralanish yoki jismoniy jarohat olish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo ba‘zi hollarda ruhiy jarohat o‘ziga butunlay begona bo‘lgan kishi hayoti xavf ostida qolishi, jarohatlanishi yoki o‘limi tufayli yuzaga keladi. Bunday voqea-hodisalar tub ma‘noda individning xavfsizlik hissiga zarar yetkazadi, unda jarohatlovchi stress tuyg‘u (qayg‘u)sini chaqiradi.

Jarohatlovchi stress – bu o‘ziga xos kechinma (tuyg‘u) bo‘lib, inson va tashqi olam o‘zaro ta‘sirining natijasidir. Bu murakkab va og‘ir bo‘lgan jarohatlovchi sharoit, holatga oddiy kishi hayotiy tajribasidan kelib chiqib bergan normal javob reaksiyasidir [1].

Boshdan kechirilgan psixologik jarohat tufayli yuzaga kelgan buzilish insonning barcha funksional sohalari (jismoniy, shaxsiy, shaxslararo va ijtimoiy hamkorlik darajasi)ga ta‘sir o‘tkazadi, nafaqat stressni boshdan kechirgan

insonlarda, balki uning oila a‘zolarida ham barqaror shaxsiy o‘zgarishga olib keladi.

Jarohatlovchi stressni boshdan kechirish natijasida ba‘zi insonlarda kelajakda jarohatdan keyingi stress yuzaga keladi.

Jarohatdan keyingi stress – bu jarohatlovchi stressga nopsixotik tezkor reaksiya bo‘lib, har qanday insonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik buzilishdir. Jarohatdan keying stress uni boshdan kechirganlarda kuzatilgan simptomlar kompleksi bilan belgilanadi.

Jarohatdan keying stress ko‘plab stressli vaziyatlarning asorati bo‘lishi mumkin. Turli sabablarga ko‘ra (jarohat xususiyati, individual shaxs xususiyatlari, ijtimoiy muhit qo‘llab-quvvatlashi va h.k.) jarohatlovchi kechinmalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Har doim psixologik jarohat ruhiy azob beradi. Kishi bu azobli kechinmalardan qutilishni istaydi, lekin kamdan kam hollarda o‘zini o‘zgartirishga harakat qiladi. Bunday vaziyatlarda o‘z ustida ishlash uzoq va azobli kechadi. Jarohatlovchi kechinmalar haddan tashqari og‘ir va chidab bo‘lmas darajaga yetganda ondan siqib chiqariladi. Kishi uni ondan siqib chiqarib, o‘zidan ajratadi. Shartli ravishda jarohatlovchi kechinma bilan bog‘liq g‘azab, aybdorlik hissi, qo‘rquv va h.k.larni “konteyner”ga inkapsulyatsiya qiladi ya‘ni joylashtiradi[2].

Jarohatlangan kishi haddan tashqari kuchli emotsional holatni boshdan kechirgani uchun hammasidan ham ko'ra o'sha holatning takrorlanishidan qo'rqadi. Jarohatlovchi voqea-hodisa bilan bog'liq emotsiyalardan qochish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Haddan tashqari kuchli azoblarni esga tushiruvchi emotsiyalar tashqariga chiqib ketmasligi uchun "konteyner"ni yanada mahkamlashga majbur bo'ladi. Jarohatlovchi vaziyatni esga tushiradigan har qanday stimuly (hid, tovush va h.k.) barcha hissiyotlarni uyg'otadi hamda kishi takror va takror jarohatlovchi voqea-hodisa vaqtida his etgan kechinmalarini boshdan kechirishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun kishi o'z "konteyner"ini biror stimuly bexosdan ochib yubormasligi uchun doimo ogoh turishi, jarohatlovchi vaziyatni esga tushiruvchi hamma narsadan qochishi kerak. "Konteyner"ni saqlash kishidan brogan sari ko'proq kuch talab qiladi. Natijada tushkunlik, uyqusizlik, sezgirlikning ortishi, diqqat, xotira va boshqalarning buzilishi yuzaga keladi. Kishi o'z-o'zi bilan kurashdan charchaydi[3].

Ayollarning muhim xususiyatlaridan biri – bu uning emotsionalligidir. U o'z atrofidagi har qanday o'zgarishga sergaklik bilan javob qaytaradi – hoh u ijobiy bo'lsin, hoh u salbiy. Aynan ayollarda stressli vaziyatlar ta'siriga nisbatan zaif va beqaror kategoriyaga mansub hisoblanadi.

Stress sabablari organizmning biologik butunligi hamda insondagi psixologik holatga ham tahdid soladi. Ana shu asosda olimlar stress holatlarini 2 guruhga – fiziologik va psixologik stressga tafovutlashadi. Fiziologik stressni fiziologik ta'sirlar – turli hildagi to'siqlar, shuningdek, kuchli ovozlari, kuchli yorug'lik, havoning yuqori harorati, vibratsiyalar va x.k. keltirib chiqaradi. Psixologik stress vaziyatning favquloddaligi insonning yuzaga kelgan vaziyatga munosabati va uning murakkablikni baholashi bilan belgilanadi. Vazifaning kutilmaganda o'zgartirilishi, zarur tayyorgarlikning yo'qligi, vaqt tig'izligi, ishning yuqori ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek topshirilgan vazifa uchun shaxsiy mas'uliyat – psixologik stressga olib keluvchi tipik vaziyatlar hisoblanadi. Shuningdek psixologik stress axborot va emotsional stressga tafovutlanadi.

Axborot stressi axborot yuklamalari ortib ketgan vaziyatlarda, inson o'zi qabul qiladigan qarorlar oqibati uchun juda katta mas'uliyatli bo'lganida, kerakli algoritmi topilmaydi, talab qilingan maromda to'g'ri qarorlar qabul qilishga ulgurmaydi. Informatsion stressga boshqaruvning texnik tizimlari operatorlari ishi misol bo'la oladi.

Emotsional stress insonning jismoniy xavfsizligiga tahdid uyg'onganda (urushlar, jinoyat, avariya, falokat, og'ir kasalliklar, uning iqtisodiy muvaffaqiyati, ijtimoiy mavqei, shaxslararo munosabatlari xavf ostida qolganida (ishini yo'qotish, pulsiz qolish, oilaviy muammolar, kasalliklar va x.k.) yuzaga keladi. Stressga munosabatning tashqi ko'rinishidan turlicha, lekin yakuniy natijaga bo'lgan munosabat jihatidan o'xshashligiga qarab 2 turi ajratiladi: ulardan birinchisi tormoz reaksiyasi – harakat faolligining sustlashuvi, yangi axborotni idrok qilib va esda olib qolishning qiyinligi, xattoki oddiy harakatlarni ham bajarishga qodir bo'lmaslikda namoyon bo'ladi. Bunda asosiy emotsiyalar sifatida qo'rquv, yordamga muhtojlik, apatiya kuzatiladi. Tashqi ko'rinishidan qarama-qarshi bo'lgan reaksiya impulsiv reaksiya nomini olgan.

Bunday reaksiyada tashqaridan inson maksimum darajadagi faollikni namoyon etadi, doimiy harakatda bo'ladi, shoshqaloq, ko'p gapiradi, bir vaqtning o'zida bir nechta har xil ishlarni bajarishga kirishadi, biroq ularning birortasini ham oxiriga yetkazmaydi. Fikrlash tez va ko'pincha mayda narsalarda qotib qoladi. Kayfiyati nihoyatda o'zgaruvchan bo'lib, qo'zg'aluvchanlik agressiya bilan o'rin almashib turadi. Turli odamlar uchun qiyin vaziyatda xulq-atvor tipining turli ko'rinishlari xosdir. Ba'zi insonlarda tormoz reaksiyasi ustunlik qilsa, boshqa odamlarda impulsiv reaksiya

yetakchilik qiladi. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, stress bu oddiy asabiy zo'riqish emas. Ko'pgina olimlar biologik stressni asabiy zo'riqish bilan yoki kuchli emotsional qo'zg'aluvchanlik bilan bir holat deb qaraydilar.

Natijalar tahlili. Tadqiqotchilar stressni ikki xil turini ajratib o'tadilar: eustress va distress. Eustress – bu ijobiy stress bo'lib, organizmga putur yetkazmaydi. Eustress inchonga ijobiy ta'sir ko'rsatadi diqqatni, psixik faoliyatni, organizmning adaptatsion imkoniyatlarini oshiradi. Biroq ko'pgina tadqiqotchilar stress tushunchasida reaksiyani tushunadilar bu atrofga ta'sir qiladigan ta'sirlar hisoblanadi. Distress organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rossiyalik tadqiqotchi V.A.Bodrov tomonidan stressga xos vaziyatlar sifatida quyidagi holatlar keltirib o'tilgan:

Individning hayotidagi muhim bo'lgan vaziyat;
Stressli ta'sirlarning kuchi va uzoqligi;
noaniqlik, vaziyatni nazorat qilish va boshqarish holatlarining mavjud emasligi;
bashorat qilish imkoniyatining yo'qligi[4].

Ayollar stress holatida ko'proq shu holatga olib kelgan sabablar haqida o'ylar ekanlar, erkaklar esa depressiv emotsiyalardan qochib, boshqa bir faoliyatga, masalan, jismoniy faollikka e'tiborlarini jalb qilar va shu yo'l bilan o'zlaridagi salbiy holatni yengishga harakat qilar ekanlar. Ayollardagi stress holatiga olib kelgan sabablarni haddan ziyod izchil tahlil qilish, ularning shu doirada uzoq muddat qolib ketishlari va tushkunlik holatiga tez tushib qolishlariga olib kelar ekan.

Stressga bo'lgan reaksiyalarning tipik shakllari ijtimoiylashuv jarayonining mahsuli bo'lib, hayot davomida shakllanadi. Ayollardagi reaksiyalar ko'proq passiv, hissiyotlarga to'plangan, emotsiyalarni namoyish qilish va boshqalar bilan o'rtoqlashishga qaratilgan bo'lsa, erkaklarda jismoniy va emotsional faollik, o'zining zaifligini ko'rsatmaslikka intilish, o'z kayfiyatini boshqalar bilan muhokama qilmaslik kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'smirlik davrida ham qiz va o'g'il bolalarda stressni kechini holatlarida jinsiy tafovutlar ko'zga tashlanadi. Erkaklarda delinkvent xulq-atvorga moyillik kuzatilsa, ayollarda stress holatiga tushganda ichki kechinmalar ichiga qaratilgan bo'ladi, depressiyaga berilish ham ayollarda erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'proq uchraydi.

Bugungi kunda o'z hayajonlarini, alamlarini ichida saqlab yuradigan odamlarning salomatligi, o'z g'azabini darrov chiqarib yuboradiganlarga nisbatan yomonroq, ya'ni ular yurak hurujlaridan o'z his-tuyg'ularini ushlab turmaydiganlarga nisbatan ikki baravar ko'proq bezovta bo'ladi.

Birinchidan, organizmdagi hissiy zo'riqishni faqatgina baqirish bilan emas, balki turli jismoniy mashqlar bilan ham bartaraf qilish mumkin. Masalan, katta tezlikda yuqori qavatga ko'tarilish, velosipedda uchish, o'tin yorish va h.k.

Ikkinchidan, salbiy kechinmalarni ijobiy his – tuyg'ular bilan almashtirish. Eng osoni nevrologlarning maslahatiga ko'ra vaziyatni jiddiy qabul qilmaslik va bu holatdan kulgili biror sababni topib qah-qah otib kulish kerak. Bu usul ham organizmdagi tanglikni yengib o'tishga yordam beradi.

Uchinchidan sovuq suvda yuzni yuvish, muz bo'lagi bilan yuzni artish va shu bilan birga sovuq suv ichish juda yaxshi choradir.

To'rtinchidan, agar imkon bo'lsa yoqtirgan kuyingizni eshitish. Bu usul tezda agressiyani bostirishga va kayfiyatni ko'tarishga yordam beradi. Oz vaqtdan so'ng o'zingizni yaxshi his qilishingiz va bo'lib o'tgan voqeani esdan chiqarishingiz mumkin.

Shunday qilib stress – bu organizmning zo'riqish holati bo'lib, organizmning unga qo'yiladigan talablariga javob reaksiyasidir.

Stress fiziologik, psixologik, shaxsiy va tibbiy ko'rinishlarga ega. Bundan tashqari har qanday stress odamni yuqori darajali emotsional tanqislikka olib keladi.

Fiziologik ko'rinishlari: Nafas olishning tezlanishi, yurak urishining tezlashishi, yuzdagi oqarish yoki qizarishlar, qondagi adrenalinning ko'payishi, terlash.

Psixologik ko'rinishlar: Psixologik funksiyalar dinamikasining o'zgarishi, ko'p holatlarda fikrlash qobiliyatining sekinlashishi, fikrni bir joyga to'play olmaslik, xotiraning kuchsizlanishi, sezish funksiyalarining kamayishi, qaror qabul qilishning sekinlashishi.

Shaxsiy ko'rinishlar: ishonchsizlik hosil bo'lishi o'z-o'zini kuzatishni kamayishi barcha harakatlarda holatsizlik ijodiy hol qilish borasidagi passivlik, hovliqishi, qo'rquv hayajonlanish kabilarning ko'payishi.

Tibbiy ko'rinishlar: Asabiylashishining kuchayishi, baqir-chaqirlar, hushdan ketish, kuchsizlanish, bosh og'rigi, uyqusizlik. Inson ekstremal holatga tushganda emotsional holati birdan ko'tariladi. U bu holatdan chiqib keta olmasligidan qo'rqadi. Natijada odam o'zini qo'yarga joy topa

olmaydi. Bunday holat o'sishi natijasida u o'z vazifasini kerakligicha bajara olmaydigan holatga tushadi; xatolar ko'payadi, topshiriqlarni o'z vaqtida bajara olmaydi. Rejalashtirish va o'z ishiga to'g'ri baho berish holati buziladi. Bu voqealarning barchasi salbiy emotsiyalarni keltirib chiqarib, unda o'z kuchiga ishonmaslik, o'ziga to'g'ri baho berish protsesisi kamayadi. Buning natijasida u ko'proq xatolarga yo'l qo'yadi va stress holatiga yaqinlashtiradi[5].

Xulosa. Bu borada O'zbekistonda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunga kelib davlatimizda onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlash, gender tengligi va ijtimoiy himoya ishlar olib borilmoqda. Jumladan muhtaram yurtboshimiz tashabbuslari bilan urush o'chog'i bo'lib turgan Suriya davlati hududidan 156 nafar ayollar va bolalar qaytarilishi, ularning ijtimoiy reabilitatsiya qilinib psixologik yordam ko'rsatilishi katta ijtimoiy voqelik bo'ldi. Bu ayollarning aksariyat qismi psixologik jarohatdan keyingi stressga tushgan ayollar sirasiga kiradi. Aynan shu ayollarga mo'ljallangan "Mehr" dasturi ishlab chiqildi. Kelajakda ham bunday ayollarga psixologik yordam ko'rsatish va ular bilan psixologik reabilitatsiyani olib borish o'z dolzarbligi yo'qotmadi.

ADABIYOTLAR

1. Cherepanova Ye. M. Psixologicheskiy stress: Pomogi sebe i rebenku. M., 1996.
2. Bordov V.A. Psixologicheskiy stress: razvitie i preodolenie. M., 2006.
3. Romek V.G., Kontorovich V.A., Krukovich Ye.I. Psixologicheskaya pomosh v krizisnykh situatsiyax. SPb.: Rech, 2004.
4. Bodrov V.A. Psixologiya professionalnoy prigodnosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov – M.. PER SE, 2001.
5. Mironov Ye. Stress. Moskva, Sankt-Peterburg, 2003.



UDK: 378(07) 0,52

Mohira ANKABAEVA,
Erkin tadqiqotchi
E-mail: ziyadullag@bk.ru

JDPU professori, fil.f. d.(DSc) U. Jumanazarov taqrizi asosida

REFLECTION OF MYSTICAL IDEAS OF NAQSHBANDIYA IN HUVAIDO'S WORKS

Annotation

This article analyzes the artistic aspects of Naqshbandiya ideas in the Sufi views of Sufi poet and thinker, Alloma Hojammazar Goybnazar son of Chimyan, Huvaido.

Key words: Sufism, education, doctrine, Truth, Allah, wisdom, mind - words, knowledge, manners, inner, outer, divine, enlightenment, love, soil, arrangement, Rohati dil (Happy heart), Ibrahim Adham, Devon.

ОТРАЖЕНИЕ МИСТИЧЕСКИХ ИДЕЙ НАКШБАНДИИ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУВАЙДО

Аннотация

В статье анализируются художественные аспекты идей Накшбандия в суфийских воззрениях суфийского поэта, чимьяноведа, мыслителя, сына Ходжамназара Гойибназара Хувайдо.

Ключевые слова: Суфизм, образование, учение, Истина, Аллах, мудрость, разум – слова, знание, манеры, внутреннее, внешнее, божественное, просветление, любовь, песок, секта, Рохати дил (Счастливое сердце), Ибрагим Адхам, деван.

NAQSHBANDIYA TASAVVUFYI G'OYALARINING HUVAYDO ASARLARIDA AKS ETISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada so'fiy shoir va mutafakkir, chimyonlik alloma Hojammazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydoning tasavvufiy qarashlaridagi naqshbandiya g'oyalarning badiiy jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, ta'lim, ta'limot, Haq, Alloh, donishmandlik, aql – so'z, ilm, odob, botiniy, zohiriy, ilohiy, ma'rifat, muhabbat, tuproq, tariqat, Rohati dil, Ibrohim Adham, devon.

Kirish. “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh tomligining uchinchi tomida (1978) V. Abdullaev va R. Orzibekovlarning Huvaydo haqidagi adabiy portreti chop etildi. Tadqiqotchi Abdusalom Xudoyberdiev shoir haqida nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi va bir qancha ilmiy, ilmiy – ommabop maqolalar e'lon qildi. Huvaydo adabiy merosini o'rganishga qiziqish davom etmoqda. Keyingi yillari uning “Rohati dil”, “Ibrohim Adham” qissalari, “Devon”i va ular nashri bilan bog'liq fikrlar e'lon qilindi.

Nusratillo Jumaxo'janing “Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros” mavzusidagi doktorlik tadqiqotida Huvaydo merosidagi so'fiyona dunyoqarash talqini va tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Shu mavzuga bag'ishlangan muallif maqolasi “Sharq yulduzi” jurnalining 1998 yil 4-sonida bosildi. N. Jumaxo'janing Huvaydoga bag'ishlangan ishlarida shoirning islom va tasavvuf ta'limotidagi she'rlarida ma'rifat nurlari yolqinlanib turishi, umuminsoniy hayotbaxsh masalalar orifona talqin etilganligi ochib beriladi.

Huvaydo ijodining nechog'li muhim ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligini XX asrning 60-yillaridayoq akademik Vohid Zohidov shunday baholagan edi: “ U na saroy bilan bog'liq bo'ldi, na mamlakatni idora etish ishlariga amaliy aralashdi... lekin shunga qaramasdan, o'z qalami bilan hayotni keng qamrab olishga, har bir muhim masalaga o'z munosabatini bildirishga va shunday qilib, o'z zamonining hozirjavob shoiri bo'lishga intildi. .. uning ijodida insonning oliyjanob xislatlaridan va Vatan tabiati go'zalliklaridan tortib to davr chirkinliklari, odam qiyofasidagi yovuzliklarning razil qilmishlariga qadar bo'lgan voqealar o'zining barcha ziddiyatlari bilan aks etdi”

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Huvaydoning she'riy merosi, “Rohati dil” qissasidan namunalar kiritilgan mukammal qo'lyozma devonining bir nusxasi chevarasi Salohiddin Soqib hamda Mirza Umid Marg'iloniy tomonidan

kitobat qilingan. Devonning shu qo'lyozmasi hamda shu devon asosida XIX asrning mashhur xattoti Shohmurod kotib ko'chirgan devon O'zRFA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanadi. Huvaydo devonining qo'lyozma va bosma nusxalari ko'p. Shohmurod kotib ko'chirgan devondagi saralangan she'rlaridan bir qismi 1961 yili Toshkentda “Tanlangan she'rlar” nomida chop etildi. Huvaydoning qo'lyozma devonida 351 g'azal, yetmishga yaqin ruboiy – to'rtliklar, muxammas, musaddas, musamman, mustahzod namunalari bor.

Ayonki, XV asr o'zbek adabiyotida sirli she'r janrlardan muammo, lug'z – chiston namunalari mavjud edi. Alisher Navoiy va uning zamondoshlari muammolar, chistonlar yaratilganliklari ma'lum. XVI asrning birinchi yarmi shoirlaridan Shayboniy – Shaboniy, Bobur, Ubaydiy ham xususan, muammoda iqtidor ko'rsatganlar. Biroq, XVII – XVIII asrlar o'zbek adabiyotida bunday sirli she'rlar yaratilgan – yaratilmaganligini hozircha bilmaymiz. Biz XVIII asr o'zbek she'riyatida faqat Hojammazar Huvaydo qalamiga mansub bir chiston – muammoni uchratamiz. Huvaydoning yetti baytli bu g'azal – chistonidan abjad hisobi bilan “Zulfi ishq” nomi chiqadi. Shunday chistonlar keyinchalik Kamyob, Ogahiy, Shavqiy, Uvaysiy kabi shoirlar ijodida ham yaratildi.

Bir pari ro'yi kuzumdin o'tmishin ko'rdu bukun,
Telba aylab, aqlim olib ketmushin ko'rdu bukun.
Boshi – etmish, yuz – oyog', uch yuz badanlik qush

kelib,

Tan tuzida murg'il jon sayd etmushin ko'rdu bukun.
Bir qalandar hindu bachcha xirmanogul ustida,
Rumig'a mehmon bo'lib o'lturmishin ko'rdu bukun.
Bir qaro qush ul zamon uchqonda gulzor ustidan,
Ikki ohu sahni gulzor tuzmushin ko'rdu bukun.
Yetti bosh o'ttiz badan, sakson oyog'mori siyah,
Xam bo'lub gul ustida talpinishin ko'rdu bukun.

Yor bazmida Huvaydo erdi rashk aylab raqib,

Oshiq ahli g'unchadek qon yutmushin ko'rdim bukun.

Bu chiston – g'azalning ikkinchi baytida keltirilgan 70, 100, 300 sonlari arabcha Ye(a), (q) hamda (sh) harflarini anglatadi. Bu o'rinda shoir "boshi etmish" deb eslatgan. Shu tufayli Ye(a)ni so'z boshiga yuz – (q)ni so'z oxiriga, uch yuz – (sh)ni so'z o'rtasiga (badan) joylashtiramiz. Natijada ularning qo'shiluvidan ishq so'zi hosil bo'ladi.

Shunga o'hshash beshinchi baytning birinchi misrasidagi 7, 30, 80 sonlari ham arabcha j(z), (i), (f) harflarini bildiradi. Bu harflar birikmasidan unga izofali (i) qo'shilsa, (zulfi) so'zi kelib chiqadi. Demak, Huvaydoning bu chiston – g'azalida abjad yo'li bilan "Zulfi ishq" so'zlari yashiringan. Huvaydoning bu chiston – g'azali muammo janriga xos poetik xususiyatlarga ham ega. Nazarimizda, Huvaydo ramziy yo'l bilan tasavvufiy ishqqa aloqador kechinmalarini tasvir etgan.

Maktabdorlik, hunarmandlik va she'r ijod etish bilan mashg'ul bo'lgan Huvaydo o'ta ziddiyatli taqdirli, zamonasi quli, ham isyonkori hisoblangan nafosatchilaridan biridir. Mana shunday qarama - qarshilikni tarafdagi turib ijod etgan, o'zbek adabiyoti tarixida hamda xalq hayoti va avlodlar dilida o'ziga xos chuqur iz qoldirgan san'atkorlardan biridir. U, bir necha juda muhim, istiqbolli muvafiqshiruvchi masalalarda o'zbek badiiy madaniyati va falsafiy ongi tarixida katta o'rin egallagan ijodkorlardandir.

Huvaydodan so'ng uning avlodlari bir necha shoir va shoirlar yetishib chiqib, ular badiiy ijodda Huvaydo an'alarini izdoshi bo'ldilar. Chunonchi, Huvaydoning nabirasi Mavlaviy Sirojij, chevaralari Samarbonu, Salohiddin Soqiblar sohibi devon shoirlar bo'lganlar.

Huvaydoning adabiy merosi shoirning chevarasi Hoji Salohiddin va Mirza Hakim Umid Marg'iloniylar ko'chirgan mukammal qo'lyozma devonda to'plangan bo'lib, u shoirning qalamiga mansub asarlarni deyarli to'la qamrab oladi. Hatto uni Huvaydning kulliyoti deyish ham mumkin. Salohiddin Soqibning ushbu kitob so'ngida keltirgan masnaviysidan ko'rinadiki, u Qashqar, Yorkent, Oqsuv, Xo'tan, Balx, Buxoro, Xorazm va boshqa joylarda bo'lib, hamma yerda Huvaydo she'rlariga qiziqish kuchli bo'lganini ko'rsatadi.

Huvaydo o'z qalami va badiiy ijodi bilan hayotni keng qamrab olishga, har bir muhim masalaga o'z munosabatini bildirishga va shunday o'z zamonining hozirjavob shoiri bo'lishga inildi. Haqiqatdan ham uning asarlari o'zbek va vatani tarixidagi ma'lum bosqichning anchagina jihatdan umumlashgan yaxlit badiiy ifodasidir desa bo'ladi. Uning ijodida insonning, xalqning olijanob xislatlaridan va Vatani tabiati go'zalliklaridan tortib to davr chirkinliklari, odam qiyofasidagi yovuzlarning razil qilmishlariga qadar butun voqelik o'zining barcha ziddiyatlari ilg'or qarashlari va zaifliklari bilan aks etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Naqshbandiya ta'limoti va harakatini o'rganish natijasida erishilgan har bir ilmiy xulosa va yutuqdan shubhalanish paydo bo'lgan joydagina yangi ilmiy izlanishlar uchun zaruriyat va ishtiyoq paydo bo'ladi. Lekin bundan shubhalanish olingan ilmiy natijani nigilistlarча inkor etish emas, balki muammoga boshqacha nuqtai nazardan yondoshish, ilmiy nazariyani tanqid qilish, tekshirib ko'rish imkoniyatining mavjud bo'lishidir. Ilmiy asarni diniy asardan, falsafani, badiiyatni ilohiyotdan farqlovchi eng muhim mezon olingan ilmiy natijalardan shubhalanish va unga tanqidiy yondoshishdir.

Naqshbandiya tariqati Bahouddin Naqshbandning podsholar dasturxonida o'tirish, shubhali taomlarni iste'mol qilishni man etish, biror kasb bilan halol yashab, qalbni Alloh bilan, qo'lni mehnat bilan bog'lashdan to podsholar bilan yaqinlashish, siyosiy hokimiyatni egallash, "Haqqarast emas, balki dunyoparast bo'lish" gacha, jamiyat va xalqqa rahnamolik qilishdan to mamlakat va xalqni umumiy inqiroz

va parokandalikka mahkum etishgaa bo'lgan g'oyat murakkab va ziddiyatli yo'lni bosib o'tdi.

Naqshbandiya – islom sivilizatsiyasining shakllanishi va gullab – yashnashini ta'minlagan musulmon tasavvufining ajralmas tarkibiy qismidir, ya'ni umumiylikning bir bo'lagidir. Umumiylikning alohidalikka nisbatan birlamchi ekanligini va ayni paytda alohidalikning umumiylikka nisbatan mazmundor, boy va mahsuldor ekanligini e'tirof etadigan falsafiy va badiiy ta'limotigina muammoning oqilona yechimini topishga imkon berishi mumkin.

Naqshbandiya milliy, mintaqaviy emas, balki umumbashariy ta'limot va ma'naviy qadriyatdir. Uning shakllanishi va rivojlanishi milliy xudud va mintaqalarning tarixiy, madaniy va etnik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ravishda ro'y berdi: Hindistondagi naqshbandiyani Turkistondagi naqshbandiya bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Ma'lumki, naqshbandiya o'zidan rosa yuz yil muqaddam shakllangan xojagon tariqatining nomi xojagon – nashbandiya tariqati deb ataladi. Hatto barcha naqshbandiya pirlarining ismlari oldiga "Xoja" iborasini qo'llash an'anasining mavjudligi ham uning xojagon tariqatining vorisi ekanligidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlarida bir tomondan, tasavvufning ko'p asrlilik an'analari izchil rivojlantirildi, ikkinchi tomondan, jamiyat duch kelgan ma'naviy – axloqiy, ijtimoiy – siyosiy inqiroz alomatlari ham sezilarli darajada aks etdi, naqshbandiyani ilk davriga qaytarishga bo'lgan intilishlari Xojamnazar Huvaydning hayoti, faoliyati va ijodida to'laroq ko'zga tashlandi: u xonlik poytaxtidan olis Chimyon qishlog'ida Boborahim Mashrab, So'fi Olloyorning tasavvufiy g'oyalarini keng targ'ib etdi, ular g'oyasini yangicha mazmun bilan boyitdi. Bir tomondan, Allohga bo'lgan ishq alangasi, jozibasi, iztiroblarini bayon etdi: zamondoshlarini Alloh ilmi, payg'ambar sunnatlariga sadoqatli bo'lishga, halol, iymone'tiqodli, diyonatli bo'lishga undadi; ikkinchi tomondan, Ibrohim Adham, Ibn Muborak, Robia Adaviya singari so'fiylarning ilohiy ishq yo'lidagi jo'mardligini keng targ'ib etdi, Allohning karami, Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning shafaotidan umidvor bo'lishga, oxirtda Alloh huzuriga pok ruh bilan borishga, gunohlardan tavba qilishga undadi.

Mutasavvif – shoir ijodida Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, So'fi Ollohyor, Boborahim Mashrab singari mashhur mutasavviflarning g'oyalari yanada rivoj topdi, ularning asarlariga xos insonparvarlik, yuksak badiiylik yangicha mazmun, ahamiyat va jozibadorlik o'rinni egalladi: "Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor, ani odam dema, de naqsh devor", deb yozdi, ulug' alloma shoir.

Huvaydning ta'lim berishicha, xarisi zikri Haq bo'lish, ya'ni Allohning zikrini tunu kun qilishga zo'r berish bandalikning nishonidir, ammo boylikka hirs qo'yish bandalikka munosib emas, balki bandalari ruhining "al – Miyoq" kuni qilgan ahdini bajarishini sinash uchun yubordi. Agar Xudoga yetishmoqchi bo'lsang, it nafsingni och tutib, mudom Xudoning zikrini qil: tanani tarbiyat qilish bandalikka munosib emas.

Xojamnazar Huvaydning tasavvufiy ta'limotida insoniy xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik va qardoshlik munosabatlarini qaror toptirish muhim o'rin egalladi. Uning fikricha, har bir notanish kishini huddi do'st Xizrni ko'rgan kabi tavof qilish, yetmish ikki millat xalqi bilan do'st bo'lish komillik belgisidir: "Agar har kimni ko'rsang, Xizr bo'lg'oy deb tavof aylab, Ki havtodu du millat xalqi birla oshno bo'lg'il"

Xojamnazar Huvaydo tasavvuf g'oyalarini targ'ib etishda malomatiya tariqati g'oyalaridan o'rinni foydalandi: zamondoshlarining kamchilik va nuqsonlari, ayb va gunohlarini o'zining shaxsiy kamchiliklari sifatida fosh etdi.

Ayni vaqtda ahli ummiy (avom) o'rtasida islom dini ta'limotlarini, hadis hikmatlarini ibratli diniy rivoyat va hikoyatlar orqali targ'ib qilishga, ularning diniy saviyasini ko'tarishga, shariat ahkomlarini sodda va tushunarli tilda bayon etishga, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga harakat qildi.

Mutasavvif shoir "musulmonchilikning mag'zi yo'qolib, faqat po'sti qolgan" bir sharoitda "Ko'rdim hamani ozuqai nafsigah hayron, Hech kim demadi to'shai uqbo qilib o'ttim", - deya dindan chekingan odamlarga ibrat bo'ldi.

Xojamnazar Huvaydo avomning diniy savodxonligi va ma'rifatini yuksaltirmay turib, din va tasavvufni inqirozdan qutqarib bo'lmaydi, deb hisoblanadi. Yana muhimi, Boborahim Mashrab va So'fi Allohordan farqli ravishda, avvalo, ilmsiz avomning o'lik qalblarini tiriltirishni, islom dinining muqaddas qonunlari, Qur'on oyatlari, Rasululloh sunnatlari mohiyatini sodda, lo'nda qilib bayon etish zarur va muhim deb hisobladi. Shu maqsadda "Rohati dil" manzumasi va "Hikoyati sulton Ibrohim Adham" asarini yaratdi.

Xojamnazar Huvaydoning Markaziy Osiyo tasavvufi tarixidagi buyuk xizmati, ishonch bilan aytish mumkinki, farzandni maktabga berish va ilmiy qilish, musulmon ota – onalarning burchi, farzandi oldidagi qarzi ekanligi masalasini rasululloh hadisini dalil sifatida keltirib, kun tartibiga qo'yganligidir...

Mutafakkirning yuqori darajadagi aql mushohadasi konsepsiyasi xos ahlining ma'naviy tanazzulini bartaraf etish uchun, avvalo, ularning dunyoqarashi, bilim va saviyasini yuksaltirishga, so'fiy hayotining ma'nosi haqida mulohaza yuritishga harakat qildi. Shuningdek, so'fiylar e'tiborini Xudoning yo'liga kirish, Ilohiy haqiqatga yetishish mashaqqatlari, molu dunyo havaslari va muhbbatidan tozalash, vujud sahrosini bosib o'tish, o'ziga munosib pir

topish, ilmi qolsiz ilmi holga erishib bo'lmasligi singari masalalarga jalb etdi.

Huvaydo XVIII asr o'zbek adabiyotida naqshbandiylik tariqati yo'li va g'oyalari kuchli e'tiqod qo'ygan shoirlardan biridir. Uning aksar g'azallari, shu jumladan, ayniqsa "Ichinda" radifli orifona g'azalida biz dildan Xudoga oshiq bo'lgan, uning visoliga erishmoq uchun barcha riyoziyotlarga chidashga tayyor solih inson e'tiqodini ko'ramiz. Uningcha odam Allohning bir zarrasi, Allohni tanishga intilish, uning yo'lida riyozat chekish insonni murodga yetishtiradi. Bu tasavvufiy g'azalda oshiq intilgan yorug'lik – Alloh nigor obrazi orqali jilvalanadi:

Darding erur nigorim ishqing bag'rimda jon ichinda,
Paykoni tiyra ishqing bag'rimda qon ichinda.
So'rsam ko'yingni eldin hech ofarida bo'lmas,
Ey yori lomakonim, yo'qsan makon ichinda,
Arzu samoni kezdim, emdi tan ichra keldim,
Topding nigohi qurbing mir'oti jon ichinda.

Xulosa va takliflar. Huvaydo fikricha, insonni e'zozlash Allohni e'zozlash qadar xayrli amaldir. "Yo'l bosib Ka'ba sari bormoq"qa imkon topolmagan mo'min g'ariblar ko'nglini shod aylash bilan mashg'ul bo'lar ekan, Tangriga muhabbat va sadoqatini bevosita emas, bilvosita izhor etadi. Unga Tangrining rahmat nurlari ham o'sha g'ariblarni siylagani uchun yog'iladi.

Huvaydoda may mavzusida she'rlar bor. May Alloh jamoliga bo'lgan ishqning g'alaboti deyiladi. Huvaydodagi may madhi, uni yigitlikda ichishga chorlashni qarigan chog'da emas, yoshlikda ishq haqiqiy mayidan mast bo'lishlikni, Xudovand ishq omonatini bandasiga mayxonada beradi, degan tasavvufiy aqidani uqtirishlik deb anglash kerak. Bu mayxona shunday bir mayxonaki, unda dunyoviy g'am-tashvishlardan holi bo'lib, yolgiz Alloh ishq bilan yoniladi.

ADABIYOTLAR

1. Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995
2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. XVII – XIX (yarmi) asrlar. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent, 2006
3. Ro'zmatzoda Qodirqul Ro'zmat o'g'li. Xojamnazar Huvaydo diniy – mistik qarashlarining XVII – XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidadagi o'rni. Falsafa fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi, T., 2020
4. Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham (eski o'zbek – arab yozuvidan nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Q. Ro'zmatzoda. Mas'ul muharrir: H. Aliqulov) – T: Navro'z, 2011
5. Xojamnazar Huvaydo. Devon. (eski o'zbek – arab yozuvidan nashrga tayyorlovchi, so'zboshi muallifi Q. Ro'zmatzoda. Mas'ul muharrir: prof. Xoji Ismatulloh Abdulloh) 2- nashri. –T.: Yangi asr avlodi, 2017
6. Nusratullo Ataullo o'g'li Jo'maxo'ja. Huvaydo tasavvufiy she'rlarida falsafiy-badiiy talqin // Sharq yulduzi, 1998, №4



Гузаль АСАНОВА,

Преподаватель кафедры «Практическая психология» ТДПУ имени Низами

На основе рецензии профессора кафедры «Практическая психология» ТГПУ В.Каримовой.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОНКОЛОГИЧЕСКИХ БОЛЬНЫХ

Аннотация

Воздействие онкологии и его лечения, несомненно, является стрессовым. И хотя многие люди выздоравливают, около 25% выздоровевших после онкологии имеют постоянные проблемы, включая тревогу, депрессию и другие психологические и социальные (психосоциальные) расстройства.

Ключевые слова: стресс, тревога, депрессия, психологическая помощь, адаптация.

SARATON KASALLIGIGA CHALINGAN BEMORLARNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Onkologiya va uni davolashga ta'sir qilish, shubhasiz, stressli. Va ko'p odamlar tuzalib ketayotgan bo'lsa-da, onkologiyadan tuzalib ketganlarning taxminan 25 foizida tashvish, depressiya va boshqa psixologik va ijtimoiy (psixososyal) kasalliklar kabi doimiy muammolar mavjud.

Kalit so'zlar: stress, tashvish, depressiya, psixologik yordam, moslashish.

PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF CANCER PATIENTS

Annotation

The impact of oncology and its treatment is undoubtedly stressful. And although many people recover, about 25% of those who recover from cancer have persistent problems, including anxiety, depression and other psychological and social (psychosocial) disorders.

Keywords: stress, anxiety, depression, psychological help, adaptation.

Введение. Онкологические заболевания являются постоянными, оставляют остаточную нетрудоспособность, вызваны необратимыми патологическими изменениями, требуют специальной подготовки пациента для реабилитации или, как ожидается, потребуют длительного периода наблюдения или уход.

Даже после завершения лечения люди, перенесшие рак (особенно перенесшие рак у детей), часто нуждаются в помощи нескольких специалистов и поставщиков первичной медико-санитарной помощи для устранения долгосрочных последствий заболевания и его лечения. Таким образом, траектории развития различных видов рака варьируются в зависимости от типа рака, стадии постановки диагноза и других факторов

Методология. В дополнение к преодолению беспокойства и стресса, вызванных их диагнозом, пациенты с раком и их семьи должны справляться со стрессами, вызванными физически сложными (часто опасными для жизни) процедурами лечения болезни, а также с постоянным ухудшением здоровья и инвалидностью, усталостью и болью, которые могут возникнуть, даже если больше нет никаких признаков болезни. Эти эффекты способствуют эмоциональному расстройству и проблемам с психическим здоровьем у онкологических больных и в совокупности могут привести к существенным социальным проблемам, таким как неспособность работать и снижение доходов. Эти эффекты усиливаются при наличии любых психологических и социальных стрессоров, которые предшествуют возникновению рака, таких как низкий доход, слабая или отсутствующая социальная поддержка. Действительно, физические, психологические и социальные стрессоры часто переплетаются, являясь как следствием, так и дополнением друг к другу.

Анализ исследование. Последствия рака и его лечения также влияет физический возраст и возраст развития пациентов и лиц, осуществляющих уход за ними. Более половины людей, у которых когда-либо был диагностирован рак, находятся в возрасте 65 лет и старше. Пожилые люди подвергаются большему риску возникновения трудностей с принятием решений, связанных со здоровьем, чем молодые. В совокупности пожилые люди могут испытывать большую потребность в психосоциальных услугах. Не смотря на это, с каждым годом растёт заболеваемость онкологическими заболеваниями среди детей. Эмоциональные различия и различия в развитии (а также физические различия) среди детей влияют на то, в какой степени они могут полностью понимать последствия своего заболевания и участвовать в принятии решений о лечении, как они справляются с физической болью и дистрессом, сопровождающими рак и другие заболевания.

Эмоциональный стресс, связанный с диагностированием онкологических заболеваний и его лечением, страх рецидива и стресс, вызванный повседневными физическими проблемами, описанными выше, могут создать новые или усугубить ранее существовавшие психологические проблемы у людей, живущих с этим недугом, их семей и других лиц, осуществляющих неформальный уход. Физические и психологические нарушения также могут привести к существенным социальным проблемам, таким как неспособность работать или выполнять другие нормативные социальные роли.

Тревожные психологические состояния часто встречаются у людей, больных онкологией.

Распространенность психологического стресса варьируется в зависимости от типа рака, времени с момента постановки диагноза, степени физического и

ролевого нарушения, интенсивности боли, прогноза и других переменных.

У больных с таким заболеванием наблюдается депрессия, расстройства адаптации и тревога. Наблюдаются так же наличие симптомов, соответствующих критериям посттравматического стрессового расстройства и симптомов посттравматического стресса у взрослых и детей, больных раком, а также у родителей детей, у которых диагностировано это заболевание. Действительно, переживание опасного для жизни заболевания или наблюдение его у другого близкого человека может быть квалифицирующим событием для посттравматического стрессового расстройства.

Даже среди пациентов, у которых не развиваются клинические синдромы, могут испытывать беспокойство, страхи и другие формы психологического стресса, которые причиняют им значительные страдания. Хроническое заболевание может вызывать чувство вины, потери контроля, гнева, печали, замешательства и страха. Тревога, нарушение настроения, страх рецидива, беспокойство по поводу образа тела, а также проблемы в общении и другие проблемы с членами семьи также распространены у больных онкологией. Пациенты также могут испытывать более общее беспокойство; страх за будущее; неспособность строить планы; неуверенность и повышенное чувство уязвимости; и другие опасения, такие как возможное развитие другой стадии онкологии, изменения в репродуктивной способности, а также изменения в своей роли в семье и других отношениях. Некоторые люди, находящиеся на лечении или перенесшие онкологию, сообщают о чувствах гнева, изоляции и снижении самооценки в ответ на такой стресс.

Диагноз опасного для жизни заболевания у члена семьи вызывает страх потерять любимого человека и беспокойство по поводу страданий, которые ему или ей предстоит пережить. Психологический стресс членов семьи может быть таким же серьезным, как и у пациента. Таким образом, помощь членам семьи справиться со своим дистрессом может оказать благотворное влияние на уровень дистресса пациентов.

Отношение к болезни содержит в себе когнитивный, эмоциональный и поведенческий компоненты. Если говорить о поведенческом компоненте связанные с болезнью реакции, способствующие адаптации или дезадаптации к ней и выработку определенной стратегии поведения в жизненных ситуациях в связи с болезнью (принятие роли больного, активная борьба с болезнью, игнорирование, пессимистические установки)[1].

Стресс особенно силен для родителей детей, больных онкологией. Исследования показывают, что у родителей более высокие показатели симптомы посттравматического стресса и посттравматического стрессового расстройства, чем у их детей или взрослых, перенесших рак, что позволяет предположить, что опыт воспитания ребенка, больным онкологией, может быть более травматичным, чем само заболевание. Дети онкологических больных также являются уязвимой группой с частыми психологическими проблемами, неадекватным поведением и проблемами в школе

Заключение. Наиболее тяжелыми в психологическом плане являются болезни, которые изменяют внешний вид человека, делают его непривлекательным. Это связано с системой ценностей, приоритетами молодых людей, для которых наивысшую ценность приобретает удовлетворение основополагающей потребности – «удовлетворенность собственной внешностью». Таким образом, наиболее тяжелые психологические реакции могут вызвать болезни, изменяющие внешность человека.

В таких случаях не маловажную роль могут сыграть психологи, а именно онко-психологи, которые будут работать не только с самим больным, но и с близкими. Помогая им адаптироваться и принять это заболевание.

Психосоциальная поддержка может включать консультирование, образование, духовную поддержку, групповую поддержку и другие услуги. Также эти услуги могут предоставляться медицинскими работниками, которые контактируют с ними, ведь именно они первоначально присутствуют на каждом этапе диагностики заболевания и его лечения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Фролова А.В., Минулина А.Ф. Клиническая психология: Методическое пособие.- Казань: ФГАО УВПО «Казанский (Приволжский) федеральный университет», 2013.- 158с.
2. Журавлева А. Л., Крюковой Т. Л., Сергиенко Е. А. Совладающее поведение: Современное состояние и перспективы. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2008. – 474 с.
3. Александрова Н.В. Клиническая психология. учебное пособие для студентов направления подготовки высшего образования – бакалавриата «Специальное (дефектологическое) образование», профилю «Специальная психология», «Логопедия» / сост. Н. В. Александрова. – Омск : Издво ОмГА, 2017.–228 с.



Manzura ASQAROVA,
Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: kuldasheva80@bk.ru

Namdu dotsenti, PhD M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

ECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF LITERACY IN PRIMARY STUDENTS BASED ON THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS PISA AND PIRLS

Annotation

This article highlights the issues of using the international PISA and PIRLS programs for assessing students' knowledge, reforming the national education system, improving the quality of education, translating the content of the text by younger schoolchildren into an image, analyzing the reality reflected in the text.

Keywords: national education system, text, content, reform, education, information, analysis, generalization.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ УРОВНЯ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ PISA И PIRLS

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы использования международных программ PISA и PIRLS для оценки знаний учащихся, реформирования национальной системы образования, повышения качества образования, воплощения содержания текста младшими школьниками в образ, анализа отраженной в тексте действительности.

Ключевые слова: национальная система образования, текст, содержание, реформа, образование, информация, анализ, обобщение.


BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA PISA VA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA SAVODXONLIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Аннотация

Ushbu maqolada o‘quvchilar bilimni baholash bo‘yicha PISA va PIRLS xalqaro dasturlaridan foydalanish, milliy ta‘lim tizimini isloh qilish, ta‘lim sifatini oshirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matn mazmunini obrazga kirib ifodalash, matnda aks etgan voqelikni tahlil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy ta‘lim tizimi, matn, mazmun, islohot, ta‘lim, ma‘lumot, tahlil qilish, umumlashtirish.

Kirish. Hozirgi kunda barchamizga ma‘lumki, mamlakatning taraqqiyoti ta‘lim sifatining takomillashib borishiga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ta‘lim tizimidagi islohotlar yuqoridagi ko‘rsatkich asosida olib borilmoqda. Xususan, 2030-yilga borib o‘quvchilar bilimni baholash bo‘yicha xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan. Masalan, PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlarida mamlakatlarning rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqish ko‘zda tutadi hamda mamlakatni xalqaro baholash dasturida ishtirok etish orqali quyidagi muhim natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Xalqaro baholash tizimida ishtirok etish natijasida erishiladigan natijalar

Demak, birinchi kutiladigan natijaga ko‘ra – mamlakatni xalqaro maydonda ishtirok etishi va nufuzli o‘rinlarni egallashi, ta‘lim sifati va uning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi;

Ikkinchi natija – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi sababli barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talab yanada oshishini belgilaydi;

uchinchi natija – ta‘lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash, monitoring qilish orqali ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi;

to‘rtinchi natija – baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilishni taqozo etadi;

beshinchi natija – o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazib borish zarurligini ifodalaydi [1].

Yuqorida ko‘rsatilgan natijalarga erishish uchun boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarida o‘qish va matn tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. PIRLS xalqaro dasturi bo‘yicha, xususan, matnlarni o‘zlashtirish darajalari haqida Britaniyalik olimlar o‘z tadqiqotlarida aytib o‘tganlar. Jumladan, M.Medvell, N.Metyular tomonidan matnning o‘qib o‘zlashtirishda elektron o‘qishni, J.Levin elektron so‘zlashuv

kitoblarini, A.Olofsson nutqni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minotlarni samarali ekanligini ta'kidlab o'tgan [2]. Pedagog D.N Roshenyaning fikriga ko'ra, tanlab o'qish ongli va ifodali o'qish malakasini shakllantirish, matn ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish, bolalarning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehni o'stirishga va o'qishga bo'lgan motivni kuchaytirishga imkon beradi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Tadqiqot jarayonida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.

2. Mazmuni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qishda o'qish ko'nikmalarining quyidagi to'rt guruhi baholanadi:

1. Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topa olish.

2. Xulosalarni shakllantirish.

3. Ma'lumotlarni umumlashtira olish.

4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

Demak, bundan ko'rinish turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari matn mazmunini obrazlarga kirish orqali ifodalash, matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrini bayonidan boshqa o'z fikr-mulohazalarini suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etishi, o'quvchini so'z boyligini ortishiga yordam beradi. Ushbu topshiriqlardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanilsa, o'zlashtirishda hamda o'qish va matni tushunishda ijobiy natijalarga erishish imkonini yaratadi.

PISA halqaro dasturida esa, matematikani real muammoni hal etishga, o'quvchilarni matematik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, PISA topshiriqlari rejalashtirish va tahlil qilishning asosiy jihati hisoblanadi. Bu jihat esa matematik savodxonlik ta'rifi bilan chambarchas bog'liq [3].

Shaxsiy hayot bilan bog'liq kontekstlar odatda o'quvchi, oilasi, do'stlari va tengdoshlarining kundalik hayotiy bilan aloqadorlikda bo'ladi (o'rtoqlari bilan muloqot, sport mashg'ulotlari, do'konlarda savdo-sotiq, dam olish, uydagi yumushlar).

– Faoliyatga doir kontekstlarda berilgan masalalarda maktab hayoti yoki mehnat faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Ular o'lchash, narxni hisoblash, qurilish uchun materiallarni harid qilish (masalan, maktab matematika kabinetiga kitob javonini yasash uchun), buyurtma bo'yicha to'lash, muayan ishni bajarish ("Tomchilar tezligi" topshiriqlari);

– Ijtimoiy hayotga oid kontekstlar jamiyatning (mahalliy, milliy yoki umuminsoniy) hayoti bilan bog'liq. Maxalliy jamiyat bilan bog'liq vaziyatlar o'quvchi atrofida vujudga kelgan muammolarga (masalan, valyuta ayirboshlash, bankka omonat qo'yish) bag'ishlangan. Kengroq jamiyatda vujudga kelgan muammolar sifatida saylov tizimlari va saylov natijalari bilan bog'liq muammolarga, transport, hukumat qarorlari, demografik muammolar, milliy statistika va iqtisodiyot masalalari qaralishi mumkin ("Rok – kontsert" topshirig'i); - Ilmiy faoliyatga oid kontekstlar odatda matematikani fan va texnologiyaga, fizik hodisalarga bag'ishlangan (masalan, mavjud statistik ma'lumotlar asosida zilzila ro'y berish-bermasligi to'g'risida hulosa chiqarish) [4]. Ushbu kontekstlarda ob-havo yoki iqlim, ekologiya va tibbiyot koinot, genetika muammolar qaralishi mumkin. Ularda nazariy savollar (masalan, aholining turli taqsimotlari) yoki bevosita real hayotga bog'liq bo'lmagan sof matematik

masalalar (masalan, uchburchakning ikki tomoni berilganda uchinchi tomonni topish, metapredmet ko'nikmalar, kognitiv kompetensiyalar).

Shuni ta'kidlash lozimki, PISA tadqiqotida topshiriqlar kontekstida har bir topshiriqqa 1 dan 3 gacha savol taklif qilinadi. Ulariga javob berish uchun berilgan vaziyatga oid ma'lumotlardan foydalanishi lozim. Shuning uchun bunday topshiriqni to'g'ri bajarish uchun nafaqat fanga oid ko'nikmalardan, balkim o'quvchilarning matn bilan ishlash va ma'noli o'qish strategiyasidan foydalanishiga bog'liq bo'ladi. Bunga qo'yidagi faoliyat turlari kiradi:

– matni to'liq va tanqidiy tushunishni talab qiladigan o'quv va o'quv-amaliy masalalarni yechish;

– masala shartlarini esda tutish;

– taklif etilgan vaziyat doirasida yechimni topishda va talqin qilishda shartlarning bajarilishini nazorat qilish;

– konkret muammo kontekstida turli ko'rinishlarda berilgan ma'lumotlar (mant, jadval, ustunli va doiraviy diagrammalar, chizmalar) bilan ishlash. Bundan tashqari, matematik savodxonlikni muvaffaqiyatli namoyish qilish matematikani o'qitishda rivojlantiriladigan mantqiy va algoritmik xarakterdagi universal kognitiv kompetensiyalarga bog'liq [5].

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash quyidagicha samara beradi:

1. Matn rejasini tuzish. Agar o'quvchilarning o'qish va matni tushunish darajasi susayib borayotgan bo'lsa, o'z shaxsiy rejangizni o'ylab chiqing. Misol uchun ozgina dars qilgach, tanaffus e'lon qiling so'ng musiqa yoki sayr qiling. Shunda o'quvchilarning xayollari bir joyga jamlanadi;

2. O'quvchilarni matn mazmunini o'zlashtirishda muntazam shug'ullanishga o'rgatish lozim. Har kuni o'qishdan so'ng 20 daqiqa matn ustida ishlamas, matni tushunish darajasi pasayib boradi;

3. So'z birikmalari ustida ishlash. O'quvchilarga alohida so'zlarni o'rgatish bilan birga bir-biriga qo'shilgan so'zlarni taxlil qilishga o'rgatish lozim;

4. Darslikda berilgan matni muntazam taxlil qilishga hamda boshqa fanlarga bog'liq jihatlarini o'rgatish lozim;

5. O'quvchilarni o'qish va matni tushunishda nazariya bilan cheklanib qolmaslikka o'rgatish lozim. Har qanday fanni faqat nazariy tomondan, amaliyotdan ajralgan holda o'rganish mumkin emas. Nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tadbiiq etishga o'rgatish lozim;

6. Muomalada keng qo'llaniladigan so'zlar, ibora va hikmatli so'zlarni amaliyotda qo'llanilishini tahlil qilishga o'rgatish kerak;

7. Matni tushunishda xatolarni ustida ishlashga o'rgatish lozim;

8. Matndagi obrazlarning ijobiy va salbiy xususiyatlarini hayotiy misollar orqali tushuntirishga harakat qilish lozim;

9. Matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrini o'z fikr-mulohazalarini suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etish maqsadga muvofiq;

10. Matn yuzasidan axborotlarni umumlashtirish va xulosalar chiqarishga o'rgatish lozim.

11. PISA dasturiga muvofiq matematikani real muammoni hal etishga qaratilgan topshiriqlarni ko'lamini kengaytirish lozim;

12. Muammo kontekstida turli ko'rinishlarda berilgan ma'lumotlarni jadval, diagrammalar, chizmalar bilan ishlashga o'rgatish;

13. Statistik ma'lumotlar asosida tabiiy ofatlar ro'y berish-bermasligi to'g'risida hulosa chiqarishga o'rgatish.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tavsiyalar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni aks ettiradi, har bir o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlarigina emas,

balki uning rivojlanish individual xususiyatlarini hisobga baholash dasturlariga tayyorlashda berilgan tavsiyalardan olgandagina unumli, ijobiy natijalarga olib keladi. foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS va PISA xalqaro

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent. 2021 yil.
2. Умаров А. Мутолаа маданияти: шахс, жамият, тараккиёт / Масъул муҳар. М.Бекмуродов. – Т.: Фан, 2004. – Б.192.
3. Орлова Э.А. Рекомендации по повышению уровня читательской компетенции в рамках Национальной программы поддержки и развития, чтения. – С.54 http://ifapcom.ru/files/publications/rekomend_obr_1.pdf
4. Карсалова Е.В. Методические основы руководства читательской деятельностью школьников на уроках литературы в средних и старших классах: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – М., 1991. – С.41.
5. Henderson M. Geoff Romeo. Teaching and digital technologies: big issues and critical questions, Cambridge University Press? Australia, 2015. – P. 15-



UDK:324

Malohat AXMEDOVA,
TAFU Pedagogika kafedrasi mudiri, professor v.b.
E-mail:m.axmedova@gmail.com

PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

CONTENT OF INDEPENDENT LEARNING TASKS IN TEACHING MOTHER LANGUAGE SUBJECTS

Annotation

This article is devoted to Uzbek and world linguistics, its methodological features, their types, independent learning and its tasks, in particular, problems associated with working on text and vocabulary in teaching linguistics, as well as issues of their research at the level of higher education studied. In particular, the vast possibilities of self-directed education are explained through linguistic sciences, and its importance is explained through the analysis of striking examples.

Key words: methodological features, credit-module system, independent learning, teaching methods, native language.

СОДЕРЖАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНЫХ ПРЕДМЕТОВ

Аннотация

В данной статье изучается узбекское и мировое языкознание, его методические особенности, их виды, самостоятельное обучение и его задачи, в частности, проблемы, связанные с работой над текстом и лексикой в преподавании языкознания, а также вопросы их исследования на изучен уровне высшего образования. В частности, посредством лингвистических наук объясняются широкие возможности самостоятельного образования, а его важность поясняется посредством анализа ярких примеров.

Ключевые слова: методические особенности, кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, методика обучения, родной язык.

ONA TILI FANLARINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI MAZMUNI

Аннотация

Mazkur maqolada o'zbek va jahon tilshunosligida o'rganilishi, undagi metodik xususiyatlar, ularning turlari, mustaqil ta'lim va uning vazifasi, xususan, tilshunoslik fanlarini o'qitishda matn va lug'at ustida ishlash bilan bog'liq muammolar, shuningdek, ularning oliy ta'lim miqyosida tadqiqi masalalari o'rganilgan. Jumladan, mustaqil ta'limning keng imkoniyatlari tilshunoslik fanlari orqali, muhimligi yorqin misollar tahlili orqali bayon qilingan.

Kalit so'zlar: metodik xususiyat, kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, o'qitish metodlari, ona-tili.

Kirish. Dunyoda oliy ta'lim tizimi talabani mustaqil faoliyatiga asoslangan. Rivojlangan xorijiy tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda o'quv topshiriqlarining mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Amalda foydalaniladigan o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllan-tiriladi.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimida modul-kredit tizimiga o'tish jarayonlari kechmoqda. Bunga tayyor bo'lish uchun talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Tilshunoslik fanlari, ona tili o'qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari shakllantiriladi. Ona til o'qitishda mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki talabalar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy qo'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda maktabga keladilar. Talabalarda ona tilidan (ular tining tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina shakllantiriladi, asosan, ulardagi mavjud ko'nikmalar rivojlantiriladi. Ayniqsa, bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari ona tilda matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda ona

tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarda eshitganlarini to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu mas'uliyatli vazifani, albatta, takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma'noda oliy ta'limda ona tilidna o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Oliy ta'limda modul-kredit tizimining joriy etilishi mustaqil ta'lim topshiriqlariga e'tibor kuchayishini ko'rsatadi. Davlat ta'lim standartlari va milliy baholash mezonlariga muvofiq tarzda tilshunoslik fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlari, savol, mashq va topshiriqlar mazmunini tanqidiy o'rganish, ularni nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va baholash nuqtai nazaridan tavsiflash va tasniflash zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-son Farmoni, 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabr kuni nihoyatda muhim bo'lgan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-

5850-son farmoni ijrosini ta'minlashga hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh.Yusupova[1] va N.Yuldasheva[2] kabilar o'z tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov[3], M.Saidov[4] va N.Alavuddinovlar[5] esa ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Shuningdek, uzluksiz ta'limda ona tilidan til sathlarini o'qitish metodikasi bo'yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, T.Yusupova gapning bosh bo'laklarini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan[6]. Mazkur maqola mazmunidan bugungi kunda davlat tili ta'limida keng foydalanish mumkin.

Ta'kidlash joizki, Ona tili o'qitish metodikasiga turli davrlarda filolog olimlar ham dastur, darslik mualliflari sifatida o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.Sobirov, I.K.Mirzaev kabilar shular jumlasidandir. B.Mengliev ona tili ta'limi maqsadi va mazmunini ishlab chiqqan professor H.Ne'matov g'oyalariga tayanib, ona tili o'qitishda yangi – ortiqcha grammatizmdan voz kechib, talabalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tilni, milliy ma'naviyatni talaba tafakkuriga singdirish, talabani turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash yo'nalishni boshlab berdi[7].

Tadqiqotchi A.Bobomurodova ona tili ta'limida o'yin-topshiriqlardan foydalanish, metodist T.Ziyadova ona tili ta'limi jarayonida talabalarining so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, M.Saidov o'zining o'zbek maktablarining 5-auditoriyalarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir T.T.G'aniev ona tilidan mashq bajarish jarayonida talabaning bilish faolligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. A.Hamroev[8] ona tili ta'limida ta'lim oluvchining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilgan.

Bu borada metodist K.Mavlonovanning "Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi tadqiqot ishini alohida ta'kidlash lozim. Olim tomonidan ona tili ta'limining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab bo'lib turgan matn ustida ishlash, uni o'qiy olish, tushuna olish va, eng muhimi, matn yaratish ko'nikmalarini adabiyot fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan[9]. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir I.A.Allayorov, O.R.Roziqov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov I.E.Davronov[10]lar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, uning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammolari ham o'rganilgan. Oliy ta'lim tizimida an'anaviy dars mashg'ulotlari talabalar, xususan, bo'lajak mutaxassislariga bilim berish, o'quv topshiriqlari orqali ma'lumotlarni yodlash, turli manbalardan olingan jumalarni lingvistik tahlil qilishga mo'ljallangan. Bu esa bugungi zamon talabalariga mos kelmay qolmoqda. Hayot insoniyat oldiga turli muammolarni qo'yadi, har bir kishi uni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda pedagogikada muammoli ta'lim texnologiyasi joriy qilindi. Muammoga asoslangan ta'limda o'quv topshiriqlaridan asosan, savol va topshiriqlarning muhim o'rni bor. Mashqlar esa uni o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida aqliy yoki amaliy harakatni takror-takror bajarish demakdir. Bu jarayonda o'z o'rni bilan mashqlar ham ishtirok etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ona tili ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini o'quv topshiriqlari orqali muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. Bu o'rinda muammoni yechish, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi. Muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida o'quv topshiriqlarning ishtiroki o'ziga xos bo'ladi: muammoning mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun yetarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar orqali motivatsiyani ta'minlash; har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash; muammoni hal qilishda qo'yilgan vazifa va savolning ahamiyati; talabalar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan qaralganda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi diologik do'stona muloqotning o'rnatilishi. Bularning barchasi o'quv topshiriqlar mazmuniga bog'liq, o'quv topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi. Bu borada I.Ya. Lerner, N. M. Skatkinlarning yondashuvi hammaga ma'lum va mashhurdir. Bilish faoliyatining turi-o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv jadvali bo'yicha ishlash orqali talabalar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir. Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi: tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv); reproduktiv; muammoli taqdimot; qisman-qidiruv (xuaristik); tadqiqot. U quyidagi xususiyatlarga ega: bilim talabalarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; talabalar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar. O'zlashtirishning mezonini – bilimlarni to'g'ri ko'paytirish; o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takror takrorlash orqali ta'minlanadi. Masalan: 1.6-mashq. Sinfda lug'at daftariga yozgan so'zlaringizni ma'nolari bilan yod oling[11]. Shu ma'noda savol va topshiriqlar ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qoladi. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida talabalar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usuldagi talabalar esa ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar.

Tahlil va natijalar. O'quv topshiriqlari oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarining ham asosiy qismini tashkil etishi kerak. Oliy oliy ta'limda o'quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha alohida fanlar tashkil etilishi lozim. Mavjud o'quv predmetlarning mavzu va yo'nalishidan kelib chiqib, oliy ta'limdagi o'quv topshiriqlarni mazmun jihatidan 3 ga ajratish mumkin:

Hozirgi o'zbek adabiy tili fani bo'yicha tuziladigan o'quv topshiriqlari.

O'zbek tili fani bo'yicha o'quv topshiriqlari.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani bo'yicha tuziladigan o'quv topshiriqlar.

Bu o'rinda filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi o'qitiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" va boshqa mutaxassislik fanlari mazmuni tilshunoslik ilmi asoslarini o'rgatish nazarda tutiladi. Shu ma'noda bu borada tuziladigan o'quv topshiriqlari talabalarni fikrlashga undaydigan, bir fikrni ikkinchi bir fikr bilan taqqoslash va yakuniy xulosani ayta oladigan nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Mavjud darsliklardagi o'quv topshiriqlari ma'lumotlarni yodlab, keyin yana qayta aytib berishga mo'ljallangan: ta'lim mazmuni o'quv adabiyotlarida (darsliklar, ma'lumotnomalar, qo'shimcha o'qish uchun kitoblar, atlaslar, xaritalar, topshiriq va mashqlar to'plamlari, bosma asosida daftarlar va boshqalar) batafsil bayon etilgan. O'quv adabiyotlarining

asosiy turi darslik – bo'lajak mutaxassislar uchun muhim bilim manbai, o'rganishning asosiy vositalaridan biridir. Unda o'qitish nazariyasi va metodikasi, talaba shaxsining ma'naviy mohiyati shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, umumiy madaniyat va inson faoliyati tajribasi doirasi aks etadi.

Xulosa va takliflar. O'quv topshiriqlari oliy ta'limning zamonaviy dars va darsliklarga mos bo'lish uchun ular takomillashtirilishi kerak. Chunki oliy ta'lim tizimining "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tili" darsliklarida ham, savol, mashq va topshiriqlar sifatiga, uning zamon talablariga qay darajada mosligiga e'tibor qaratilmaydi. Bu holat o'zbek tilining talabalar – bo'lajak mutaxassislar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, malaka hosil qiluvchi, takrorga asoslangan mashqlar, sinash uchun qo'llanuvchi topshiriqlar, fikrlashga o'rgatuvchi savollar o'zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930-1940) chop etilgan darsliklarda ham bugun amalda bo'lgan darsliklarda ham uchramaydi[12]. Umumiy mashq atamasi ostida oddiy topshiriq xarakteridagi tavsiyalar o'rin olgan. Oliy ta'lim tizimida ham mashq va topshiriq o'zaro farqlanmaydi. Talabalar o'z nutqiy muammolari ustida mashq qilmaydi. Topshiriqlar an'anaviy shaklda yodlab aytib berishga

ixtisoslashgan. Savollar fikrlashga undamaydi. Shu o'rinda G'.Hamroevning "mashq", "topshiriq" va "savol" atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyati haqidagi mulohazalariga e'tibor berish lozim. Metodist-olim dastlab, M.Saidovning o'quv material-lari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini, pedagogika fanlari doktori Asqar G'ulomovning "mashq ham o'quv topshiri-g'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shilishi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topshini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodala-shini[13] e'tirof etgan holda bu borada o'z yondashuvini bayon qiladi, ya'ni o'ziga qadar o'quv topshiriqlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillarda kelingan ilmiy xulosalardan farqli o'laroq, topshiriq mashq tarkibiga emas, aksincha, mashqlar topshiriq tarkibiga kiritilishi, vazifa jihatidan savol va mashqqa qaraganda kattaroq, kengroq tushuncha ekanligi asoslaydi[14]. Bizningcha ham, topshiriq mashqni o'z ichiga oladi, topshiriqlar talabani yo'naltiradi, sinaydi; takrorga asoslangan mashqlar esa ko'nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Yusupova Sh. Ona tili ta'limi samaradorligini oshirish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish: ped. fan. nom-di diss. TDPI. –T.,1998.– 137 b.
2. Yuldasheva N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida lug'aviy sinonimlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi: ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.–T., 2002. –123b.
3. Gulyamov A. Metodika razvitiya uchebno - poznovatelnoy aktivnosti uchamixsya v protsesse prepodovaniya rodnogo (uzbekskogo) yazika: Dis. dok. ped. nauk. –T.: TGPI, 1991. – 37 b.
4. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinlarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPU. –Toshkent, 2000.– 25 b.
5. Alavuddinova N. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPU. – T., 2008.– 24 b.
6. Yusupova T. Uzlaksiz ta'lim tizimi asosida maktabda o'quvchilarga bosh bo'laklarni o'rgatish: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPI. –T.,1998.– 22 b.
7. <http://uza.uz/oz/education/-uvchini-mayib-ilayetgan-k-rinmas-va-samarasiz-milliardlar-14-11-2019>
8. Hamroev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Pedagogika fanlari doktori (Dsc) ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. –Toshkent, 2020. –242 b.
9. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish Ped. fanl. bo'yicha fal. dok. (PhD)ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.T.: 2019.-22 b.
10. Allayorov I.A. Didakticheskie osnovi aktivnogo obucheniya. Avtoref. diss. ... dokt. ped. nauk. –T.: 1994. -44 s.; ; Rozykov O. Osnovy optimalnogo primeneniya sistemi uchebnix zadach v obucheni. –M.: O'qituvchi, 1981. -103 s.; Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Ped. fanl. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent: Qori Niyoziy nomli O'zPFITI, 2002. – 265 b.; Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 2003. -280 b.; Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –T.: 2004. -42 b.
11. Qodirov M., Ne'matov H. Mengliyev B. Va boshq. Ona tili 8-sinlar uchun darslik. – T.: Cho'lpon. 2019. 6-b.
12. Ramazan Q., Qajjumij X. Grammatik. Sarf. O'rta maktablar uchun darslik. I qism. –T.: O'quvpeddavnasr, 1937. –149 b.
13. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinlarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPU. –Toshkent, 2000. – 25 b.
14. Hamroev G'.Ona tili o'qitishning samarali usullari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: Bayoz nashriyoti. 2018. 9-b.



Umida AXROROVA,

“University of business and science” nodavlat oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisi

E-mail: axrorova.umida@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, prof. O‘.Asqarova taqrizi asosida

STEPS OF SYSTEMATIC ANALYSIS IN EDUCATION

Annotation

This article talks about the stages of systematic analysis in pedagogy, its structure, composition, features of systematic analysis, important signs of analytical intelligence.

Key words: Analysis, systematic analysis, structure of systematic analysis, complex system, methodology, theory, method, flexibility, thoroughness, intuition, stages of systematic analysis.

ЭТАПЫ СИСТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье говорится об этапах системного анализа в педагогике, его структуре, составе, особенностях системного анализа, важных признаках аналитического интеллекта.

Ключевые слова: Анализ, систематический анализ, структура системного анализа, сложная система, методология, теория, метод, гибкость, основательность, интуиция, этапы системного анализа.

PEDAGOGOKADA TIZIMLI TAHLIL BOSQICHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogokada tizimli tahlil bosqichlari, tuzilishi, tarkibi, tizimli tahlil xususiyatlari, tahliliy intellektning muhim belgilari to‘g‘risida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: Tahlil, tizimli tahlil, tizimli tahlilning tuzilishi, murakkab tizim, metodologiya, nazariya, uslub, egiluvchanlik, sinchkovlik, intuitsiya, tizimli tahlil bosqichlari.

Kirish. Tizimli tahlilda qo‘llaniladigan uslublarni rivojlantirish va kengaytirish, tizimli tahlilning istiqboldagi rivojlantirish yo‘nalishlariga tizimli tahlil nazariyasini rivojlantirish, tahlil metodlarini ishlab chiqish, tizim harakatining nazariy konsepsiyalari va tahlil uslublarini rivojlantirish, noaniqlik sharoitida tizim harakatini tahlil qilish uslubini yaratishdan iborat.

Insoniyatning tizimlilik tamoyillarni shakllanishi va rivojlanishini ijobiy yoki salbiy nuqtai nazar bilan baholash mumkin emas, chunki bu insoniy fikrlashning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi. Biz ko‘pincha o‘ylamasdan turib standart holatda qaror qabul qilamiz va biror bir ishni bajaramiz (ko‘p takrorlanadigan holatlarda). Masalan, sizning yo‘nalishingizdagi avtobus bekatga kelishi bilan siz harakat qilasisiz, ya‘ni unga chiqasiz; och qolganingizda ovqatlanasiz; charchaganingizda bilasizki, dam olish kerak. Inson fikrlashining o‘zi ham turli holatlarga nisbatan insonning munosabatlari majmuini belgilab beradigan algoritmlar asosida amalga oshadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tizimli tahlil har qanday tizimlarni emas, birinchi navbatda u katta va murakkab tizimlarni ko‘rishga qaratiladi. Albatta, umume‘tirof etilgan “katta va murakkab” tizimlar degan tushunchalari yo‘q. Ammo, masalaning murakkabligi elementlarning tuli xil aloqlarni birlashtirgan ko‘p komponentli tizimlarni xarakterlaydi. Katta tizimlar – bu tizimosti qismlarni birlashtirgan, murakkabligi jihatidan yuqori darajali tizimdir. Qo‘shimcha belgilar xususiyatlari sifatida quyidagi me‘zonlarni keltirish mumkin:

Katta o‘lcham;

Murakkab iyerarxik struktura;

Moddiy, energetik va informatsion katta tizimlardagi oqimlar;

Tizimni ifodalashdagi noaniqlikning yuqori darajasi.

O‘z navbatida “murakkab tizim” tushunchasi strukturaviy va funksional jihatdan ko‘p komponentli tizimning o‘zaro bog‘liq aloqalar va o‘zaro harakatdagi elementlarning turli tiplari bilan xarakterlanadi. Murakkab tizimlar ko‘p o‘lchovligi, strukturalar turiligi, element va aloqalar tabiatining har xilligi, tashkiliy qarama-qarshiligi va o‘zgaruvchan ta‘silarga beriluvchanligi bilan ajralib turadi. Murakkab tizimlarga quyidagi belgilarga xos me‘zonlarni keltirish mumkin:

tizimni tashkil etuvchi boshqa biron bir elementlarda mavjud bo‘lmagan xususiyatga ega;

tizimni tizimosti tizimlarga ajratish va ularni alohida o‘rganish mumkin;

Tizimli tahlilning tuzilishiga ko‘ra uning tarkibiga:

Metodologiya;

Nazariya;

Uslublar kiradi.

Metodologiya: falsafiy konsepsiyalar, tizimli yondashuv, iqtisodiy konsepsiyalar, matematik apparatdan iborat.

Nazariya: tushunchasi (tushuncha apparati), tizim nazariyasi, tizimli tahlil nazariyasi, qaror qabul qilish nazariyasi, boshqaruv nazariyasidan iborat.

Uslublari:

O‘lchov birligi

– shkala

– qayta ishlash uslubi

Tadqiqot uslubi;

– tuzilmalashtirish va agregatlash.

Qaror qabul qilish uslublari:

– muqobilni yagonalashtirish;

– muqobilni baholash;

– muqobilni tanlash kabilardir.

Tizimlar o‘z xususiyatlariga ko‘ra aniqlik, noaniqlik sharoitida va aniq ishonchli sharoitlarda tahliliy vazifalarni

amalgaga oshiradi. Jumladan, tizim harakatining xarakterli tahlili xususiyatlari quyidagi me'zonlarda namoyon bo'ladi.

A. Aniqlik sharoitida quyidagi optimallashtirish usullari qo'llaniladi:

- matematik dasturlash;
- simpleks uslubi;
- grafik tahlil va boshqa

B. Noaniqlik sharoitida quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- prognozlashtirish;
- imitatsion modellashtirish;
- o'yinlar nazariyasi va boshqa

V. Aniqlik ishonchli holatda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- ko'pchilik nazariyasi;
- matematik mantiq;
- graflar nazariyasi va boshqa

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, tizimli tahlil evolyutsiyasini tushunish apparatini mazmunini kengaytirish va mustahkamlash, yangi tushuncha va atamalar yaratish va kiritish vazifalarini qamrab oladi. Chunonchi, iqtisodiy tizimlarga joriy etish mumkin bo'lgan tabiiy fanlardagi jarayonlarni ifodalaydigan modellardan foydalanishni ko'zda tutadigan metodologik asoslarini kengaytirish muhim bo'lib hisoblanadi.

Tizimli tahlil duyonini va uning muammolarini tadqiq etishda qandaydir prinsial yangilik bo'lib hisoblanmaydi. Tadqiqotning markaziy o'rnida ikki qarama-qarshi yondashuvlar mavjud: analiz va sintez. Analiz butunni qismlarga bo'lish jarayonini nazarda tutadi. U tizimning qanday unsurlardan tashkil topganini aniqlashda foydali. Analiz orqali bilim olinadi. Ammo tizim xususiyatlarining mohiyatini sintez orqali to'liq ochilishga erishiladi. Sintezning vazifasi yaxlitlikni qismlardan tashkil toptirishdan iborat. Bevosita sintez yo'li bilan tizimni tushunish mumkin.

Tizimli tahlil bosqichlarining ahamiyati shunga muvofiq tizimli tahlil tadqiqoti darajasi bir nechta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot maqsadini belgilash;

Muammoni ajratib olish, asosiy muhim, jiddiy qismga ajratish;

O'z tabiatiga binoan xilma-xil holatlar va omillarni bir ma'noda ifoda qilish;

Mezonlarni belgilash. Olingan ma'lumotlarni baholash va muqobillarni qismlashda "nima yaxshi, nima yomon"ni aniqlash;

Ideallashtirish konseptual modellashtirish, muammoni ratsional ideallashtirishni kiritish uni imkon qadar soddalashtirishga erishish;

Dekompozitsiya (analiz) yaxlitni xususiyatini yo'qotmagan holda qismlarga bo'lish;

Kompozitsiya (sintez) qismlar xususiyatini yo'qotmagan holda qismlardan yaxlitlikni birlashtirish;

Qaror: muammoning yechimini topish.

Har safar tizimli tahlil texnologiyasi borasida masala ko'tarilganda ayrim murakkabliklar yuzaga ko'tariladi. Zero, bunga sabab shu davrgacha muhim qaror topgan tizimli tahlil texnologiyasi mavjud emas. Tizimli tahlil bugunda rasmiy va norasmiy bo'sh metodlar yig'indisini qamrab oladi. Tizimli tahlilda intuitsiya hukmonlik qiladi va bu o'z o'rnida tizimli tahlil muammolarining saqlanib kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu borada Yu.P.Surmin tizimli tahlil mohiyatini belgilovchi quyidagi variantlarni tavsiya etadi:

Ilmiy tadqiqot texnologiyasini tizimli tahlil texnologiyasi bilan uyg'unlashtirish;

Tizimli tahlil ma'lumotlari orqali konstruksiyalash tizimiga o'tish. Bunda tizimli tahlil texnik tizim faoliyati bilan uyg'unlashadi;

Tizimli tahlil funksional-strukturaviy tahlil bilan amalgaga oshiriladi;

Tahliliy faoliyatda tizimli yondashuvni tizimli tahlil bilan uyg'un tashkil etish;

Tizimli tahlilni tizim qonuniyatlari tadqiqoti sifatida yondashish;

Tizimli tahlil ma'lumotlarini murakkab muammolarni tayyorlash, asoslash, amalgaga oshirishda mavjud metodlar yig'indisidan foydalanish.

Tahlil va natijalar. Xulosa qilishimiz mumkinki, tizimli tahlil boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi samaradorligiga qaramasdan tizimli tahlilning aniq belgilan-gan metodologiyasi mavjud emas. Tizimli tahlil ob'ekt, jarayon va voqealarni quyidagi tartib bosqichlaridan o'tishi lozim:

1. Muammoni aniqlash (vazifa).

2. Muammoning dolzarbligini baholash.

3. Maqsadni, tadqiqot muommosi va ustuvorligini shakllantirish.

4. Tadqiqot resurslari aniqlash va belgilash.

5. Resurslar yordamida tizimdan (atrof-muhitdan) ajratib olish.

6. Tizim osti o'zaro bog'liqlikni, (tizim strukturasi o'chish) elementlar yaxlitligini xatlash.

7. Tizim strukturasi qurish, xatlash va rasmiylashtirish.

8. Tizim va tizimosti funksiyalarini belgilash.

9. Tizim maqsadlarini tizimosti maqsadlari bilan muvofiqlashtirish.

10. Tizim yaxlitligini tahlil etish, tajriba o'tkazish.

11. Tizim tahlili va baholashemerdjenti sistemi.

12. Tizimni tajribadan o'tkazish, uning modeli funksiyalarini sinash.

13. Tizim tajribasi natijasida qayta aloqadorlik tahlili.

14. Barcha bosqich natijalarini tekshirish va tuzatish.

Tizimli tahlil metodining ko'pligi rivojlanishi uchun quvvat manba bo'lib xizmat qildi. Tizimli tahlil ko'rinishlarini tasniflash to'g'risidagi masala fanda hali ishlab chiqilmagan. Ayrim ishlarda uchraydigan bu muammoga alohida yondashuvlar mavjud. Tizimli tahlil shakllari turli xususiyatdagi tizimlarga yondashuv va tizimli tahlil usuliga keltiriladi. Tizimli tahlilning tez sur'atlar bilan rivojlanishi ko'plab asoslarga ko'ra uni tasniflashga olib keldi: tizimli tahlil ahamiyati; tahlil vektori yo'nalishi; uni amalgaga oshirish usuli; tizim davri va jihatlar; bilish sohasi va hayotni aks ettirish xususiyati.

Mazkur tasniflash tizimli tahlilning har bir aniq ko'rinishini tashxislash imkonini beradi. Buning uchun barcha asosiy tasniflar bo'yicha o'tish zarur bo'lib, tahlilning qo'llanilayotgan shaklini xususiyatini eng yaxshi tarzda aks ettiruvchi shakli tanlanadi.

Tahlilni amalga oshirish jarayoni tahlil olib boruvchi shaxsdan qator bilim va malakalarga ega sifatlarni talab qiladi. Tizimli tahlil xususiyat va bosqichlari bilan qurollanish va unga mutaxassisning salohiyati uyg'unlashganda tegishli natijalarni beradi. Faqat tahliliy usullarni ko'r-ko'rano qo'llash samara bermaydi. Muammoga keng va atroflicha qarash, dalillarni suiiste'mol qilmaslik, tanqidiy mushohada bilan qarash, ma'lum bilimlarga ega bo'lish kabi fazilatlar muhim hisoblanadi. Shu jihatdan tahliliy intellektning muhim belgilari quyidagilar hisoblanadi:

teranlik – dalil va hodisalarning mohiyatiga yetib bora olish qobiliyati, ularning sabab va qonuniyatlarini, aloqadorligi va rivojlanish istiqbolini bilish;

tanqidiy qarash – hodisa va dalillarni ob'ektiv baholash, mavjud qarash, mulohaza, qarorlarni shubha ostiga olgan holda yondashish;

egiluvchanlik – bir g'oyadan ikkinchisiga o'ta olish, shu jumladan o'zining zid bo'lgan g'oyalarga ham;

bilimning kengligi – hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni ko'ra olish qobiliyati, muammoni keng ko'lamda ko'ra olish;

tezkorlik – topshiriqlar yechimining tezligi;

asllik – notakror yechimlarni topa olish qobiliyati, umumiy qabul qilingan qarashlardan farqli bo'lganyangi g'oyalarni o'rtaga tashlay olish;

sinchkovlik – hodisalarning tub mohiyatigacha yetib borishga bo'lgan intilish;

intuitsiya – zakovatning barcha belgilarini faol ishga solgandan so'ng voqealar rivojini oldindan ko'ra olish qobiliyati.

Tizimli tahlilni amalga oshirish jarayonida maqsadning sintezlashuvi, ijtimoiylashuvi, ob'ektivlashuvi kabi jarayonlar kechadi. Bu, o'z navbatida quyidagi tamoyillarga amal qilishni taqozo etadi. Bular:

har qanday hajm va mazmundagi axborotni mutaxassis sifatida obyektiv baholash;

real vaziyatni (vaqt, makon va zamon jihatidan) inobatga olish;

aniq dalillarga suyanganda holda, ilgari surilgan dalil va keltirilgan raqamlarni ishonchligini ta'minlash;

tahlilning konstruktivligi;

tahlilning bosqichliligi;

tahlilning tushunarliqligi;

tahlilni amalga oshirishda aniq metrik usulardan foydalanish;

jamlangan axborotni yaxlit tarzda sharhlash;

manzilli tavsiya va takliflarni ilgari surish;

qaror uchun turli yechim variantlarini tuzish va b.

Tizimli tahlil turning nazariy modelini funksional-strukturaviy jihatlarini inobatga olgan holda, tadqiqotchi, tizimli tahlilni amalga oshirishda (yoki tizimli tadqiqotni modellashtirishda) muhim hisoblangan shartlarga amal qilishi talab etiladi. Bular:

tizimning mohiyatini (tizimosti xossalarni

aloqadorlikdarajasini) anglashi lozim;

tizimni loyihalash jarayonini (sabab-oqibat bog'liqligini) to'liq egallashi lozim;

entropiya (tasodifiy ob'ektning mavhum me'yorlari) holati haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim;

muhitdan (tizimsimon, tizimosti tarkiblar, majmualar qatoridan) tizimni ajratib ilishi lozim;

tizimni biron bir sathini (stratasini) tanlab, uni amaliy o'rganishi lozim.

Bu shartlarni amaliyotda qo'llagandagina, tadqiqotchi tizim faoliyatini tizimning tuzilishidan, tizimli tahlil turini tizimli tahlilni amalga oshirish usullaridan, tizimli yondashuvni tizimli sharhlashdan vazifadorligi jihatidan ajratibgina qolmasdan, muammoni (ob'ektni) tizimli idrok etish va uni yechimini aniqlashda tizimli tafakkur yurita olishga musharraf bo'ladi.

Tizimli tahlilni amalga oshiruvchi (tadqiqotchi) va amaliyotchi (buyurtmachi) o'rtasida muammoni mohiyatini tushunish davomida ziddiyatlar kelib chiqmasligi uchun oldindan tizimning qaysi sathi tadqiq etilishi hamda qaysi tushunchalar qo'llanilishi belgilab olinishi zarur. Mazkur tarzdagi munosabat nazariyotchi va amaliyotchilar orasida

muammoni tushunishni, kasbiy muloqot davomida qo'llaniladigan u yoki bu tushunchani bir xil ma'no va mazmunlarni qamrab olishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida kasbiy muloqot, aniqrog'i samarali hamkorlikka erishishni kafolatlaydi.

Shunday qilib, tizimli tahlil quyidagi vazifalarni belgilaydi:

muammoli vaziyatlar mohiyatini aniqlash;

o'zaro bog'liq va ayri xususiyatlarini belgilash, axborot berish;

dunyoqarashni shakllantirish;

hayot yo'lini tanlashni o'rgatish, madaniylashtirish;

maqsadni shakllantirish sohalari taraqqiyotini ta'minlashning asosiy vazifalarini belgilab beradi.

Bir nechta olimlar qarashlari tahlili natijasida tizimli tahlil bosqichlarining umumiy qabul qilingan 8 ta asosiy bosqichlarini aniqlashtirib olamiz. Ular quyidagidan iboratdir:

1-bosqich. Salbiy hodisalarni aniqlash – jamiyatda sodir bo'layotgan salbiy hodisalarni aniqlash;

2-bosqich. Tizimning joriy holatini tahlil qilish – miqdoriy va sifat alomatlarini to'plash va tizimning hozirgi holatiga birlamchi xulosa chiqarish;

3-bosqich. Tizimning istalgan (namunaviy) holatini tahlil qilish – bosh maqsad va ikkilamchi maqsadlar aniqlanadi, natijaviy mezon belgilanadi;

4-bosqich. Tizimli muammoni izohlash – tizimning joriy holati bilan istalgan holati orasidagi farq aniqlanadi va bu farq tizimdagisifatida ko'rsatiladi;

5-bosqich. Tizim modelini tuzish turli xil yechimlarni solishtira oladigan kompleks mantiqiy va matematik ifodalar bilan tasvirlangan joriy tizimning soddalashtirilgan moleli yaratiladi;

6-bosqich. Alternativ yechimlarni topish – barcha mavjud bo'lgan alternativ yechimlar topiladi hamda mavjud bo'lgan yechimlar sohasi aniqlanadi;

7-bosqich. Optimal yechimni aniqlash – barcha topilgan yechimlar maqsad va samaradorlik mezonlariga nisbatan bir-biri bilan taqqoslanadi va ular orasidan eng optimali tanlanadi;

8-bosqich. Teskari aloqa – agar optimal yechim topilmasa, u holda birinchi bosqichga qaytiladi va tizimli tahlil natijasida yo'l qo'yilgan xatoliklarni inobatga olib qaytadan tahlil amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, ko'rib turganimizdek, O'zbekistonda ta'lim – tarbiyaning ulkan va beqiyos merosi mavjud va uni yanada rivojlantirish va shakllantirish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko'rinib turibdiki, tahlil alohida ilmiy tayyorgarlikni, turli ilmiy uslublarni maqsadli tanlash va o'rinli qo'llash, o'rganilayotgan muammo bo'yicha bilimga ega bo'lishni talab etuvchi faoliyatning murakkab turidir. Bugungi kunga qadar tahlilning barchaga maqbul bo'lgan, ya'ni universal modeli yaratilmagan (yaratilishi ham mumkin emas). Sababi ijtimoiy jarayonlar rivoji o'zgaruvchan bo'ladi va shu o'zgaruvchan dealektik harakatning mazmuni topish yangi tahliliy yondashuvlarni talab qiladi. Shu ma'noda tahlil va qaror qabul qilish uchun muhim hisoblangan tahliliy manbalarga ehtiyoj oshib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Герасимов Б.И., Попова Г.Л., Злобина Н.В. Основы теории системного анализа: качество и выбор тамбов издательство фгбоуво «ТГТУ», 2011.
2. Игнатъева А.В., Максимцов М.М. Бошқарув тизимини тадқиқ қилиш: ОЎЙ учун қўлланма. – М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2001.
3. Перегудов, Ф.И. Введение в системный анализ / Ф.И. Перегудов, Ф.П. Тарасенко. – М.: Высшая школа, 1989.
4. Самаров Р., Ражабов А. Сиёсий матн таҳлили (методология, назария, амалиёт). - Тошкент: Академија, 2010.
5. Сурмин Ю. П. Теория систем и системный анализ: Учеб. пособие — К.: МАУП, 2003.
6. Тарасенко Ф.П. Прикладной системный анализ. Учебное пособие. — М.: КНОРУС, 2010
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2002.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т., 1981.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2004.
9. Системный анализ и структуры управления Г. Шорина Философский словарь. / под ред. М.М. Розенталя. — М.: Политиздание 1972. — 496 с.
10. Анфилатов В.С., Емельянов А.А. Кукушкин А.А. Системный анализ в управлении. — М.: Финансы и статистика, 2003. — 368 с.



Shaxnoza ASHUROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: shaxnoza1297@gmail.com

TerDPIning psixol.f.n. dotsenti M.A.Narbasheva taqrizi asosida

THE ROLE FAMILY IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE AT THE YOUNG PERIOD

Annotation

In this article, the role of the family in the formation of a healthy lifestyle in pre-school age is covered, and it is aimed at developing the concepts of a healthy lifestyle in pre-school age.

Key words: Family, healthy lifestyle, social imagination, family environment, healthy lifestyle.

РОЛЬ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В ДОШКОЛЬНОМ ПЕРИОДЕ

Аннотация

В данной статье освещена роль семьи в формировании здорового образа жизни в дошкольном возрасте, и она направлена на развитие представлений о здоровом образе жизни в дошкольном возрасте.

Ключевые слова: Семья, здоровый образ жизни, социальное воображение, семейная среда, здоровый образ жизни.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRSHIDA OILANING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oilaning o'rni yoritilgan bo'lib, maktabgacha yoshda sog'lom turmush tarzi tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar : Oila, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy tasavvur, oilaviy muhit, sog'lom turmush tarzi bo'yicha tasavvurlar.

Kirish. Yangi jamiyatning zamonaviy tarbiya kontseptsiyasi inson shaxsini, ya'ni, barkamol, yetuk, qo'yilgan maqsadga erkin va o'z kuchi bilan erisha oladigan yoshlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu bir tomondan, shaxsning har tomonlama gormonik rivojlanishini, ikkinchi tomondan, uning butun rivojlanishi jarayonida ruhiy, jismoniy, ma'naviy sog'lom o'sishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Inson hayoti, sog'lig'i eng katta ijtimoiy boyliqdir. Bu oila, maktab va inson tarbiyasi, kamoloti bilan shug'ullanuvchi maskanlar oldiga sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasini ko'ndalig qo'yadi. Millat sog'ligi ham, tabiiy ravishda, sog'lom turmush tarzi orqali hal etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishda, eng avvalo, har bir shaxs "salomatlik" tushunchasi; salomatlik omillari; salomatlikni saqlashda organizmning himoyalanihi; valeologiya fani, uning tamoyillari va metodlari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi kerak. Qolaversa, turmush tarzining o'zi inson yashashi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlarini o'zlashtirishi demak. O'zlashtirish usuliga qarab uni sog'lom turmush tarzi va nosog'lom turmush tarzi deb ajratish mumkin, hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning rivojlanishi, boshqa fanlar bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalarini uzlashtirishi zarur. Faol harakat bilan bog'liq hayot kechirish, chiniqish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish – sog'lom turmush tarzining muhim omillari. Insonning sog'lom turmush kechirishida faol harakat, ya'ni chiniqish asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha eng muhim muammo – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mehnat turmush va dam olish sohasida, ilmiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy-psixologik – gigienik faolligi kuchayib borishiga yordam beradigan, ijtimoiy-gigienik jihatdan oqilona bo'lgan turmush tarzini shakllantirish muammosidir

Sog'lom turmush tarzi kishilarning hayot darajasi bilan salomatligi, kayfiyati, intilishlari, ishonch, kundalik o'zgarishlar bilan, bu o'zgarishlar qay darajada xalqimizning

ehtiyojini qondirishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti darajasi, eng muhimi yosh avlod tarbiyasining yuksak samaradorligini ta'minlaydigan choratadbirlar bilan bog'liq.

Sog'lom turmush tarzi aholining farovonlik darajasini oshirish, sog'liqni saqlash va maishiy xizmatni yaxshilash, demografik jarayonlarni maqbul holatga keltirish, oilaning ma'naviy madaniyati, sog'ligi, axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi o'sib borishi va ijtimoiy mehnatdagi faolligi bilan belgilanadi. Sog'lom turmush tarzi mehnat, turmush va dam olish, shaxslararo munosabatlar madaniyati, ekologik madaniyat, o'z organizmini fiziologik jihatdan maqbul holatda saqlash, shuningdek, atrofda gilarning salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi kompleks omillarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sog'lom avlod – millat kelajagining poydevori. Azal-azaldan ota-bobolarimiz sog'lom avlod tarbiyasiga qat'iy e'tibor berib kelganlar. Shu asnda xalq ijodiga murojaat qilsak ham buning guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, xalq o'yinlari, chavondoqlik, otda yurish, suzish va boshqalarga ijobiy munosabat tarbiyalangan va bular haliyam o'z kuchini yo'qotmagan. Barkamol avlodni tarbiyalash jismonan sog'lom bo'libgina qolmay, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan bo'lishi kerak. Inson eng avvalo sog'lom bo'lishi va buning uchun esa sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Har bir insonni yoshligidan o'z sog'ligini qadrlaydigan qilib voyaga yetkazish – sog'lom turmush tarzining ajralmas qismidir.

Ma'lumki, inson salomatligi va hayot davomiyligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning 50% dan ortig'i aynan turmush tarziga bog'liq, ekologiyaga – 20% ga yaqin, nasliy omillarga – 20%, tibbiy omillarga esa atigi – 10%. Ya'ni, inson sog'lom bulishi uchun uning turmush tarzi sog'lom bulishi shart va sog'lom insonni voyaga yetkazish uchun unda sog'lom turmush tarzi tushunchasini shakllantirish kerak. Sog'lom turmush tarzi deganda quyidagilarni e'tiborga olish zarur: – faol jismoniy harakat qilish, chiniqish, jismoniy

tarbiya va sport bilan shug'ullanish; – kun tartibini oqilona rejalashtirish va unga doimo amal qilish; jismonan va ruhan toliqishga yo'l qo'ymaslik– aqliy va jismoniy mehnatni gigienik talablar asosida to'g'ri rejalashtirish; – to'g'ri va sifatli ovqatlanish; – shaxsiy va umumiy gigiena talablariga rioya qilish; – atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyatga erishish; – yuqumli kasalliklar, jarohatlanish va baxtsiz hodisalarning ro'y berishini oldini olish; – to'g'ri jinsiy tarbiya olish; – zararli odatlarga berilmaslik (tamaki mahsulotlarini iste'mol qilmaslik, ichkilikbozlik va gijohvandlikka yo'l qo'ymaslik va h.k.).

Tahlil va natijalar. Inson salomatligi bu – eng avvalo, uning ruhiy va fiziologik sifatlarini rivojlantirish, umrning maksimal davomiyligida maqbul darajadagi ishchanlik qobiliyati va ijtimoiy faolligini saklab qolishdan iboratdir. Ko'pgina olimlarning fikricha, inson organizmining funksional imkoniyatlari va uning tashqi muhitdan bo'ladigan noxush omillarga barqarorligi butun umri davomida o'zgarib turadi, negaki, salomatlikni saqlash, jo'shqin jarayon bo'lib, u yosh, jins, kasbiy faoliyat, yashash muhitiga bog'liq holda yaxshilanib (salomatlik bo'shashib yoki mustahkamlashib) boradi

Ma'lumki, odam hayoti, sog'lig'i – eng katta ijtimoiy boylikdir. Bu oila, maktab va inson tarbiyasi, kamoloti bilan shug'ullanuvchi boshqa maskanlar oldiga sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Millat sog'lig'i ham tabiiy ravishda, sog'lom turmush tarzi orqali hal etiladi. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, sog'lom farzand tarbiyasida otaonalarning qanchalik pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lishining o'rni beqiyosdir.

Har bir ota-ona farzandining shakllanishi va ruhiyatidagi o'zgarishlariga juda qiziqadi, ammo o'zlaridan “bolamga bugun qancha vaqt ajratdim?” deb so'rganlarida, qoniqtiradigan javobni kam oladilar. Qilingan tajribalarda, asosan 6 yoshgacha bo'lgan davr ichida bolalarning shakllanishi otaonalarning ularga qancha vaqt ajratishlari bilan bog'liqligi kuzatilmogda. Vaqt ajratish – bolalarning markaziy nerv sistemasi ivojlanishiga yaxshi ta'sir qilishi e'tirof etilmogda. Ota-ona kundalik ishlarini bir tomonga surib, bolalariga, albatta vaqt ajratishi zarur. Bolangiz bilan o'tkazgan vaqtinigiz uning ishonchini oshiradi. Chunki unga vaqt ajratishingiz, bolaga ko'rsatilayotgan e'tiborni bildiradi. Agar farzandingiz sizga qanchalik yaqin bo'lsa, yomonliklardan shunchalik yiroqlashadi. Hayoti davomida siz va umuman oilasi bilan mustaxkam bog'langan bo'lsa, muammolar kamayadi. Bolaning tarbiyasida, bola tug'ilib to'voyaga yetgunicha, ushbu komponentlar bosqichma bosqich uzluksiz ravishda rivojlantirish lozim.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish oiladan boshlanadi va bolaning shaxsini shakllantirishda oilaning turmush tarzi, oilada mavjud bo'lgan urf – odat va an'analari, oilaning psixologik sharoiti, zararli odatlarni mavjudligi va boshqalar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Oila sharoitida bola kun tartibiga va shaxsiy gigienaga rioya qilishni, vaqtni to'g'ri taqsimlashni, kattalar va tengdoshlari bilan muomala qilishni va yana boshqa ko'p narsalarni o'rganadi. Jismoniy faollik ham sog'lom turmush tarzining asosiy komponentlaridan biri bo'lib, unga amal qilishni bola oila muhitida badantarbiya bilan shug'ullanish, xar hil turdagi jismoniy ishlarni bajarish orqali o'rganadi.

Oila sharoitida bola ko'chadan uyga qaytgach, ovqatdan oldin va keyin qo'l yuvishni, kiyimlarini, buyumlarini, xonasini ozoda saqlashni o'rganadi va gigienik kunikmalarni uzida shakllantirib boradi. O'z vaqtida turish, ovqatlanish, kunini to'g'ri taqsimlashni o'rganish orqali kun tartibiga tegishli ko'nikmalarni shakllantiradi. Zararli odatlarga munosabati ham oiladagi sharoitga qarab shakllanadi. Oiladagi tarbiya bola voyaga yetguniga qadar davom etaveradi va sog'lom turmush tarziga oid malaka va

kunikmalar shakllanadi. Bu uzluksiz ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzining poydevori shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bola kun tartibiga rioya qilishni, o'z vaqtida to'g'ri ovqatlanishni, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishni o'rganadi va oila sharoitida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shaxsiy gigiena qoidalarini uyda shakllantirgan bola maktabgacha ta'lim muassasalarida umumiy va jamoat gigienasi bilan tanishib kunikmalarni shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy mashg'ulotlar o'tkaziladi, chiniqtirish, massaj muolajalari olib boriladi va shu bilan birga bolalarni jismoniy faollikka o'rgatiladi. Bu esa sog'lom turmush tarzining shakllantiruvchi yana bir komponenti hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kun tartibiga qat'iy rioya qilinishi bois bola kunini to'g'ri taqsimlashni o'rganadi. Bolalar amaliy ko'nikmalar bilan birgalikda boshlang'ich nazariy bilimlarni ham egallab boshlaydi.

Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi va bolalarga sog'lom turmush tarzi haqida tushunchalar berib boriladi. Keyingi bosqichda, ya'ni maktabda, sog'lom turmush tarzi tushunchasi bolalarda yanada chuqurroq shakllanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar nazariy bilimlar bilan mustahkamlanadi. Inson organizmi tuzilishi, atrof muhitning ekologiyasi, o'simlik va hayvonlar haqida umumiy tushunchalar shakllanadi.

Maktabda o'quvchilar ekologik tushunchalarga ega bo'lishadi va atrof muhitni muhofaza qilish, ozodalikni saqlash sog'liq uchun muhimligi o'quvchilarning tafakkuriga singdirib boriladi. Salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun, avvalo, odam o'z tanasining tuzilishi barcha to'qima va a'zolarining normal ish faoliyati, o'sishi, rivojlanishi va ko'payishi qonuniyatlarini bilishi zarur.

Shuningdek, barcha tirik mavjudotlar kabi, insonga ham xos bo'lgan ushbu biologik xususiyatlarni asrash va tobora takomillashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni mukammal bilish va yaratish talab etiladi. Bugungi kunda yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, bilim va tafakkurini kengaytirish, qobiliyat va imkoniyatlarini namoyish etishni taqozo etadi. Shu sababli, davlatimiz mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab barkamol avlod tarbiyasi davlat va jamiyatning ustuvor vazifalari sifatida e'tirof etildi.

Insonning o'zini-o'zi bilishida, o'z-o'zini shakllantirishi, o'z qobiliyatlarini ko'proq o'stira borishi jarayonlarida, oilaviy munosabatlarda, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ma'naviyat yarq etib ko'zga tashlanib tursa, bu, tabiiyki, sog'lom turmush tarzi qaror topganligining ifodasidir. Barkamol avlodni tarbiyalashda sog'lom turmush tarzining muhim shartlaridan biri bo'sh vaqtni o'tkazishni to'g'ri tashkil etish hisoblanadi. Bolalar, ayniqsa o'smirlar bo'sh vaqtini ota-onalari bilan birga kinoteatr, parklarga yoki turli sayilgohlarda o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, har qanday nazoratsiz qoldirilgan farzand albatta zararli odatlarni o'rganadi. Ayniqsa, 10–14 yoshdagi o'smirlarda tamaki chekish, spirtli ichimliklarni tatib ko'rish, narkotik moddalarni “kayf” qilishi haqidagi hikoyalardan keyin ularni o'zida sinab ko'rishga qiziqish kuchayadi. Bundan tashqari bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining tez suratlarda o'sishi, ya'ni kompyuterlar, uyali telefonlar, Internet kabilar ham nazoratsiz qolgan yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmogda.

Shunday qilib, sog'lom turmush tarzi jismonan sog'lom va aqlan barkamol yangi avlodni shakllantirishni, mehnat qilish, dam olish va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishga yordam beruvchi oqilona hayot tarzini tashkil etishni ifodalaydi. Sog'lom turmush tarzi aholining farovonlik darajasini oshirish, sog'liqni saqlash va maishiy xizmatni yaxshilash, demografik jarayonlarni maqbul holatga keltirish, ommaning ma'naviy madaniyati, ongliligi, axloqiy jihatdan

tarbiyalanganligini o'sib borishi va ijtimoiy mehnatdagi faolligi bilan belgilanadi. Sog'lom turmush tarzi barkamol avlodni jismonan sog'lom, ma'nan boy qilib o'stirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarni muxtasar qilib qayd etish mumkin, o'sib kelayotgan yosh avlod – millat kelajagidir va sog'lom yosh avlodni voyaga yetkazish xar birimizning muqaddas burchimizdir. Mamlakatimizda bu vazifani to'laqonli amalga oshirish uchun barcha yetarli shartu

– sharoitlar yaratilgan. Ushbu shartu – sharoitlardan oqilona foydalangan holda bola shaxsini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bola shaxsini shakllantirishning har bir bosqichi komil inson tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Har bir bosqich keyingi bosqich uchun paydevor hisoblanadi va har bir bosqichda bolaning yoshiga mos bo'lgan tushunchalarni singdirish va ularda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini bosqichma bosqich rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.
2. Фахриддиновна, А.Ш., & Шахноза, А. Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши.
3. Ashurova, Sh. F. (2022) Bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oilaviy munosabatlarning o'rni "Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali" 1(6),71-73-b
4. Ashurova Sh. F. (2023) Sog'lom psixologik turmush tarzi to'g'risidagi tasvurlarning shakllanishi "Журнал Педагогика и психологии в современном образовании,3(1). <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>
5. Ashurova Sh.F. (2022) A healthy lifestyle in uzbek families from the point of view of islam religion Emergent: *Journal of educational discoveries and lifelong learning* (ejedl)
6. <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)
7. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). Oilada o'smirlarning sog'lom turmush tarzi va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllanishining pedagogik-psixologik omillari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 363-368.
8. Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). Professional ta'limda tahsil olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 369-373
9. Ashurova, S. F. (2023). Oilada yoshlarning sog'lom turmush tarziga munosabat shakllanishining pedagogik-psixologik omillari muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 32-35.
10. Ashurova, S. F. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlashda psixologik xizmatning o'ziga xos jihatlari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 418-421.
11. Иманова, М. Б. (2021). Шахс характери акцентуацияси ва деструктив хулк-атвор. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1399-1403.Иманова, М. Б. (2021). Шахс характери акцентуацияси ва деструктив хулк-атвор. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1399-1403.
12. Имонова М.Б. Суицидаль хулк-атвор акцентуацияси муаммоси сифатида, *Международный современный научно-практический журнал научный импульс № 4(100), часть 4 ноябрь, 2022 735-739 б.*
13. Имонова М.Б. "Характер акцентуациясининг деструктив хулк шаклланишига оиланинг таъсири", *Муғаллим хем узликсиз билимлендириў № 6/7 – 2022 79-81 б.*
14. qizi Imonova, M. B. (2023). Musiqaning inson hissiyotiga tasiri. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(3), 156-161.
15. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. *Journal of Discoveries in Applied and Natural Science*, 1(1), 62-67.
16. Imanov, B. (2023). Negative factors affecting the quality of education and ways to eliminate them. *Science and innovation*, 2(B3), 355-358.
17. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.
18. Imonova M. Tojiyeva D.(2023) Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlarini. *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali*, 1(6), 75-77
19. Ньёматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. *Студенческий вестник*, (5-1), 62-63.
20. Ne'matullaeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin terapiyasini qo'llashga oid qarashlar. *Science and innovation*, 1(B4), 444-449.
21. Nematullaeva, S. (2023). Developing communication skills in preschool children through game therapy. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 86-88.



UDK:53.35.014.51

Akbar BURIYEV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi
E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti PhD. D.Ismoilov taqrizi asosida

FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCIES OF FUTURE ENGINEERS BASED ON TRAINING IN SPECIAL DISCIPLINES

Annotation

The article discusses methods for improving the practical competence of students and teaching them independent thinking when teaching the subject geology of oil and gas fields, the stages of formation of skills in the field of mining geology.

Key words: Competence, competence, engineer, problem solving, problem solving methods; teaching methods for solving technical problems; stages of formation of skills and abilities.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ НА ОСНОВЕ ОБУЧЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫМ ДИСЦИПЛИНАМ

Аннотация

В статье рассматриваются методы повышения практической компетентности учащихся и обучения их самостоятельному мышлению при преподавании предмета геология нефтяных и газовых месторождений, этапы формирования умений и навыков в области горной геологии.

Ключевые слова: Компетентность, компетентность, инженер, решение проблем, методы решения проблем; методы обучения решению технических задач; этапы формирования умений и навыков.

BO'LAJAK MUHANDISLARNING IXTISOSLIK FANLARINI O'QITISH ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada neft va gaz kon geologiyasi fanini o'qitishda talabalarining amaliy kompetentligini oshirish va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish usullari, kon geologiya sohasi ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kompetensiya, muhandis, masalalar yechish, masalalar yechish usullari; texnik masalalar yechishga o'rgatish usullari; ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari.

Kirish. Muhandislik ta'limini modernizatsiyalash tushunchasi mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'qitishda kompetentli yondashuvni joriy etish asosida mutaxassis tayyorlash sifatini oshirish vazifasini qo'yadi. Shuning uchun ham ushbu tadqiqot muammosi ixtisoslik fanlarini o'rganishda texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida kompetensiyalarni shakllantirish jihatlarini ko'rib chiqishdan iborat. Tadqiqotning maqsadi kadrlar tayyorlash mazmuni, usullari, shakl va vositalariga fundamental va kasbiy yo'naltirilganlikni singdirishni hisobga olgan holda kasbiy tayyorgarlikni kompetentli yondashuv doirasida isloh qilish va kompetensiyalarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat. Ixtisoslik fanlarini o'qitishda talabalarga texnik masalalarni yechishga o'rgatish usullari, masala yechish bosqichlari haqidagi bilimlarni shakllantirish, ko'nikmalarini va amaliy kompetentligini oshirish lozim. Malakali mutaxassisning asosiy sifati professional vazifalarni malakali va o'z vaqtida hal qilish qobiliyatidir. Faqat shu sifat bilangina muhandis ilmiy - texnik jarayonning markazida bo'la oladi. Hozirgi kunda davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – bilimlar asosidagi paradigmadan kompetentlikka asoslangan yondashuvga o'tishdir. Ta'limni modernizatsiyalash tushunchasi ko'ra, zamonaviy oliy ta'limning maqsadi yuqori darajada professional faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Texnika oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fani hisoblanadi. Ixtisoslik fanlarini o'rganayotgan talabalar tomonidan

o'zlashtirilgan bilimlar umumkasbiy, ixtisoslik va maxsus fanlarni o'rganish, yangi asbob-uskunalar va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish uchun fundamental asosdir. Muhandislik mutaxassisliklari uchun ta'lim, uning mazmuni talabalarda olamning zamonaviy manzarasi haqidagi fikrlarini shakllantirishga yordam berishi kerak. Ixtisoslik fanini o'qitish mutaxassislik bilan uzviy bog'liq bo'lishi va bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati bilan bog'liq aniq jarayon va hodisalarni ko'rib chiqishga asoslanishi lozim. Biroq, neft va gaz yo'nalishi o'quv dasturiga amaliy kompetentlikni muhandislik kompetensiyalariga integratsiyalash vazifasini kiritish, muhandislik muammolari yechish orqali professional ta'limni amalga oshirish obyektiv mavjud qiyinchiliklar bilan bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ixtisoslik fanlarini o'rganishda texnika ta'lim muassasalari talabalarini uchun kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'quv jarayonining mazmuni - talabalarda shakllanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifat va fazilatlar majmui hamda maqsadga erishish usullari, shakllari va vositalarini aniqlash lozim. O'qitish maqsadlari nafaqat bilimlarni, balki faoliyatning ayrim turlarini, shu jumladan, amaliy kompetentlikni shakllantirishni ko'zda tutgani uchun ham o'qitish mazmuniga faoliyatli tarkibiy qismi kiritilishi lozim. Shuning uchun, texnika oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini uzlashtirishdagi mazmunini tuzishda umumiy mazmunini (qonunlar va nazariyalar, dunyoning zamonaviy manzarasi, ilmiy dunyoqarashlari, ixtisoslik fanida bilish usullari haqidagi g'oyalar haqida bilimlarni shakllantirish)

hamda aniq maqsadlarni hisobga olish kerak: umumkasbiy, ixtisoslik va maxsus fanlarni o'rganish uchun ilmiy baza yaratish, amaliy kompetentlikka asoslangan professional muammolarni hal qilish; muhandis kasbiy faoliyatiga mos keladigan faoliyatni shakllantirish lozim. Shuning uchun mavzuning didaktik modeli ikkita blokni o'z ichiga olishi kerak: eng avvalo umumkasbiy fanlarning mazmunini o'z ichiga olgan asosiy mavzu o'quv dasturiga kiritilgan va vositalar bloki yoki protsessual blok, bilim olish, turli ko'nikmalar, jumladan, kasbiy faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Aksariyat hollarda talabalar tadqiq qilinadigan masalalar bilan yuqori kurslarda to'qnashadilar, bunday topshiriqlarni bajarish (masalan, kurs ishi yoki diplom loyihalari) oldindan jiddiy tayyorganlik ko'rishni ko'zda tutadi. Tadqiqot faoliyatining asoslar umumiy ko'rinishda yaxshi ishlab chiqilganligiga qaramasdan, texnika OTMLar talabalarini bunday faoliyatga tayyorlash metodikalari yetarli darajada ishlanmagan; ta'lim oluvchilarning aksariyati uni mustaqil amalga oshirishga tayyor bo'lmaydi: ishini nimadan boshlashni va uning qanday zaruriy bosqichlari borligini bilmaydilar.

Tadqiqot faoliyatini shakllantirishda tadqiqot elementlariga ega masalalar katta ahamiyatga ega. Bunday masalalar faoliyatning ushbu turi uchun funksional jihatdan qo'llash mumkin hisoblanadi va uni shakllantirish hamda talabalarni uni bajarishga tayyorligini diagnostika qilish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot faoliyatni shakllantirish uchun laboratoriya praktikumi ishlari optimal hisoblanadi, lekin ushbu faoliyatning ba'zi elementlarini yaxshi o'zlashtirilishi uchun ba'zi o'quv texnik masalalardan ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotchi faoliyatining bosqichlarini sodda qilib modellashtiruvchi topshiriq misolini keltiramiz. Mazkur masalani yechishda talabalarga tadqiqot faoliyatiga taqlid qiluvchi quyidagi harakatlar ketma-ketligi taklif qilingan: yoritgichlarni ulashning mumkin bo'lgan variantlari haqida bir nechta faraz ilgari surish, taklif qilingan har bir farazni tekshirish, farazning to'g'riligi haqida xulosalarni ta'riflash.

Bunday masalalar yechilishining tuzilishi tadqiqot masalalarini yechish bo'yicha faoliyatning tuzilishini sodda holda aks ettiradi va unga ularga xos quyidagi asosiy elementlar kiradi: shartni tahlil qilish, bitta yoki bir nechta farazni ilgari surish, olingan natijalarni talqin qilish. Bunday mashq masalalarining jiddiy tadqiqotlarga qaraganda afzalligi ularni yechish atigi bir necha daqiqa vaqt olishi, va ushbu bir necha daqiqa davomida talaba tadqiqot faoliyatining tuzilishini, ya'ni uni amalga oshirishning asosiy bosqichlari va ketma-ketligini o'zlashtirib olishidan iborat. So'ng ushbu tuzilishni yanada murakkab bo'lgan tadqiqiy topshiriqlarga qo'llash mumkin.

Tizimli talablari buzilgan (texnik jihatdan noto'g'ri masalalar) masalalar. Mutaxassislar nafaqat "tayyor", biron kishi ta'riflagan texnik va metodik masalalarni yechishni bilishi, balki o'z kasbi sohasida masalalarni "ko'rishi", ta'riflashi kerak. Bunday ko'nikmalarning asosini kognitiv tayanch kompetensiyalar tashkil qiladi, bular — mustaqil fikrlash va ta'lim olish, tahlil, sintez qilish qobiliyati, ijodiy qobiliyatlar, bir kasbiy faoliyat turiga tegishli bilimlar va ko'nikmalarni boshqasida qo'llash qobiliyati, muammolarni hal qilish, baholash, tanqidiy fikrlash qobiliyati. Sanab o'tilgan qobiliyatlarining ba'zilari tug'ma bo'lishi mumkin, boshqalari muayyan mashqlarni bajarish davomida rivojlanadi.

Ta'limga kompetensiyali yondashuvga mos ustuvor ta'lim usullaridan biri sifatida muammoli ta'lim hisoblanadi. Bunday usulda ta'lim oluvchilarga bilishga oid, shartida biron ziddiyat bo'lgan (ortiqcha, yetishmagan, muqobil, qisman

noto'g'ri va h.k. ma'lumotlar) masalalar taklif qilinadi, bu masalalarning oxirida mazkur ziddiyatni obyektivatsiya (ifoda) qiluvchi savol turadi.

Tizimli obyekt sifatida masala ko'plab ilmiy ishlarda o'rganilgan. Masalaning tarkibiy qismlariga muayyan talablar qo'yiladi, ularga rioya qilmaslik masala noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Bunday masalalarga ma'lumoti yetishmagan yoki ortiqcha bo'lgan masalalarni, shartida ziddiyat bo'lgan yoki har xil yechimlarga ega masalalar, shuningdek berilgan shartlariga ko'ra yechilganda izlanayotgan kattaliklarning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan qiymatlari kelib chiqadigan masalalar kiradi. Bunday masalalarning o'ziga xos xususiyatlari ular bilan ishlaganda nomutanosiblikni, kutilmagan to'siqni aniqlash, so'ng uni tuzatish yoki masala to'g'ri bo'lishi uchun uning shartini oxirigacha aniqlash zarurligi hisoblanadi.

Talabalarga tizimli talablarida buzilish bo'lgan masalani yechish taklif qilingan holda, bunday masalaning yechimini izlash davomida talaba uni tizimli obyekt sifatida ko'rinishi, kattaliklar o'rtasidagi tizim tashkil qiluvchi bog'lanishlarni aniqlashni o'rganadi va oqibatda ushbu bog'lanishlarga qo'yiladigan talablarga ega bo'ladi. Klassik texnik aga tegishli masalalarda, qoidaga ko'ra, texnik kattaliklar o'rtasidagi makon-vaqtdagi bog'lanishlar, shuningdek funksional aloqalarni ifodalovchi butun va qism nisbatlari tizim tashkil qiluvchilar sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarga ikki turdagi masalalarni taklif qilish mumkin: 1) "...shartlarni qanoatlantiruvchi masalani tuzing" yoki 2) "Masalani yeching. Nima uchun u yechimga ega emasligini tushuntiring". Ikkinchi holda talabaga tuzuvchi tomonidan tizimga oid talablarning biri ataylab buzilgan holdagi masala taklif qilinadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnik jihatdan anglangan javobga ega "oddiy" masalalarga qaraganda tizimli talabari buzilgan masalalar texnik ilmiy tadqiqot jarayoniga ko'proq to'g'ri keladi, chunki ular har qanday tizim elementlari o'rtasidagi bog'lanishlar va nisbatlar turlarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi, xususan, o'rganilayotgan hodisalarni tavsiflovchi texnik kattaliklar o'rtasidagi bog'lanishlarni chuqurroq o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Texnik masalalarning boshqa turlarini yechish ham talabalar tomonidan ilmiy tadqiqotning umumiy usullarini egallashlari va tahliliy faoliyatning rivojlanishi, bilimlarning uzluksiz takomillashishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. O'quv texnik masalalarni yechish bo'yicha faoliyatni kasbiy masalalarni yechish bo'yicha faoliyat bilan taqqoslash. Mazkur ishda kasbiy masalalar deganda texnika OTM talabalarini turli yo'nalishlar bo'yicha tayyorlash ta'lim standartlarida ro'yxati keltirilgan namunaviy masalalar va o'quv jarayonida talabalarni ularni bajarishga tayyorlash zarurligi tushuniladi.

Psixologlar ta'kidlashicha, masalalarni yechishda inson tomonidan foydalaniladigan aniq qoidalar masalaning xarakteriga bog'liq, lekin masalalarni yechishdagi xulq-atvorniy umumiy tuzilishi har doim bir xil bo'ladi. Inson tomonidan har qanday onda egallangan muvaffaqiyatni xabardorlik holati tushunchasi orqali tavsiflash mumkin. U o'sha paytgacha yig'ilgan ma'lumotni ifodalaydi. Masalani yechuvchi inson xabardorlikning bir holatidan boshqasiga - u ega bo'lgan operatsiyalar to'plamidan operatsiyalarni tanlab, ishlatib ko'rishga urinishlar orqali o'tib boradi. Muvaffaqiyatga erishgan holda u yangi ma'lumotga ega bo'ladi va shu tariqa xabardorlikning yangi holatiga o'tadi. U sinab ko'rish va xatolar qilish, turli usullarning maqbulligini tekshirib, mazkur operatsiyalar ketma-ketligi boshi berk ko'chaga olib borganda orqaga qaytish va qaytadan boshlash yo'li bilan harakat qiladi.

Muammoviy vaziyatlarni yechishning universal algoritmi yo'q, lekin yechish variantlarini izlash doirasini anchagina toraytirish mumkin. Buning uchun masalani yechuvchi kishi yechilayotgan masalaning turini aniqlashni o'rganib olishi, va tafakkurning qanday usullari va ularning qanday ketma-ketligi mazkur turdagi masalani yechishga yordam berishini bilishi zarur. Ba'zi hollarda yechish jarayoni ma'lum bo'lgan o'quv texnik masala yechish kerak bo'lgan boshqa masala, shu jumladan kasbiy masala uchun analog bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Masalan, usullar to'plami va ketma-ketligi ikki turdagi faoliyatda mos keladi: texnik obyektning ishini sozlash va texnik masalaning shartini tuzatish yoki shuningdek texnik faoliyat obyektlarini modellashtirish va masaladagi vaziyatni modellashtirish.

Yuqorida ko'rsatilganlardan masalalarni loyixalash bo'yicha faoliyat asbob va moslamalarni loyixalash bo'yicha faoliyatning soddalashtirilgan analogi bo'lib, konstruksiyalar faoliyatini amalga oshirishga umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Ushbu analogiyani ilmiy bilimlarni integratsiyalashning dolzarb g'oyalarini aks ettirish uchun o'tkazdik, ular «nafaqat fan doirasidagi, balki fanlararo o'zgarimas tushunchalar, tizimini asoslab berish imkonini beradi» [2], ularga shuningdek universal mantiqiy fikrlash usullari kiradi. Shuningdek faoliyatning boshqa turlari tarkibiga kiruvchi mantiqiy usullarni ajratib ko'rsatish mumkin. Shunday qilib, biz tasniflash uchun ajratilgan

mantiqiy va kompetensiyaviy asoslarga tayanib masalalarning ba'zi turlarini ajratdik, ulardan foydalanish, bizning fikrimizcha, qo'yilgan maqsadlarga erishish doirasida eng samarali hisoblanadi. Har bir hol uchun o'quv masalalar turlarini ularning soddalashtirilgan prototipi, DTSda sanab o'tilgan namunaviy kasbiy masalalar bilan solishtirdik, shuningdek ham o'quv, ham kasbiy masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan mantiqiy usullar va ko'nikmalarni hamda mazkur topshiriqlarni u yoki bu turga tegishligini ko'rsatadigan belgilarini ajratdik.

Agar talabalar texnik masalalarni tuzish bo'yicha faoliyatni a'lo darajada o'zlashtirib olsalar (ya'ni ushbu faoliyatni umumlashtirilgan holda o'zlashtirsalar), ular keyinchalik o'z harakatlarini boshqa predmetli materialga ko'chirishlari va konstruktorlik, tadqiqiy, tuzatish va faoliyatning boshqa turlarini, ularda mazkur faoliyat turlarining invariant tarkibiy qismi –mantiqiy fikrlash usullari shakllanganligi sharti bilan, muvaffaqiyatli amalga oshirishlari mumkin.

Texnik masalalarni loyixalash, tuzatish va yechish bo'yicha faoliyat bu holda mutaxassisning bo'lajak faoliyatining soddalashtirilgan modeli hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday analogiyalarni anglagan talabalar tafakkurning uchinchi – reflektiv darajasiga ko'tariladilar. Refleksiya, o'z navbatida, talabalar mustaqil bilish faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Махманов Э. Б. Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда мантикий фикрлаш компетенцияларини такомиллаштириш //Наманган давлат университети-2021. – Т. 1. – С. 581.
2. Binokulovich, Makhmanov Ergash. "The development of laboratory practice-trainings in the identification of comparative specific heat capacity in liquids and solids." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.9 (2020).
3. Ишмуродова Г.И., Махманов Э.Б. Талабаларнинг физикадан мантикий масалалар ечиш кўникмаларини шакллантириш //“Замонавий таълим журнали”, 2020, 3-сон 16-23-бет
4. Махманов Э. Б. Физика таълими жараёнида талабаларнинг ўқув компетенцияларини ривожлантириш //А ИLM. – С. 75.
5. Ишмуродова Г. И., Махманов Э. Б. Физика фанидан лаборатория машғулотларини инновацион ёндашув асосида утказиш //Современное образование (Узбекистан). – 2019. – №. 8 (81). – С. 16-22.
6. Ишмуродова Г. И., Махманов Э. Б. Мастер-класс асосида физикадан масалалар ечиш машғулотларини ташкил қилиш //Современное образование (Узбекистан). – 2020. – №. 10 (95). – С. 11-17.
7. Беспалько. В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989. — 192 с.
8. Дамитов, Б.К., Фридман, Л.М. Физические задачи и методы их решения. – Алма-Ата: Мектеп, 1987.–100с.
9. Байденко, В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) [Текст] / В.И. Байденко // Высшее образование в России. - 2004. - № 11. - С. 3-18.
10. Балаш В.А. Задачи по физике и методы их решения [Текст]: Пособие для учителя. - 4-е изд., перераб. и доп. / В.А. Балаш. - М.: Просвещение, 1983. - 432 с. 196
11. M.Muhiddinov, SH.Ahmedov, V.Qutlimurodov “Texnik adan testlar va ularning yechimi” Toshkent . O'zbekiston NMIU 2016, 424 b.
12. Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту № 1/1-F и применением технологий программирования. //Преподаватель XXI век. №4. – Москва, 2018. С. 88-95.



Sardor BURIYEV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi
E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti PhD. Ismoilov D.M. taqrizi asosida

FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ENGINEERS ON THE BASIS OF DIFFERENTIATED TRAINING IN SPECIALIZED DISCIPLINES

Annotation

The analysis of the state of the theory and practice of higher education in this article proved that ensuring the sustainability of the process of developing technical knowledge is possible only by creating a special pedagogical model. In this paragraph, a methodological model has been developed for the formation of professional qualifications of future engineers based on differentiated training in special disciplines.

Key words: Competence, competence, engineer, problem solving, problem solving methods; teaching methods for solving technical problems; stages of formation of skills and abilities.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ ПО ПРОФИЛЬНЫМ ДИСЦИПЛИНАМ

Аннотация

Анализ состояния теории и практики высшего образования в данной статье доказал, что обеспечение устойчивости процесса развития технических знаний возможно только путем создания специальной педагогической модели. В данном пункте разработана методическая модель формирования профессиональной квалификации будущих инженеров на основе дифференцированного обучения по специальным дисциплинам.

Ключевые слова: Компетентность, компетентность, инженер, решение проблем, методы решения проблем; методы обучения решению технических задач; этапы формирования умений и навыков.

BO'LAJAK MUHANDISLARGA IXTISOSLIK FANLARIDAN DIFFERENSIAL TA'LIM BERISH ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim nazariyasi va amaliyoti holatini tahlil qilish texnik bilimlarni rivojlantirish jarayonining barqarorligini ta'minlash faqat maxsus pedagogik modelni qurish orqali amalga oshirish mumkinligini isbotladi. Mazkur paragrafda bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kompetensiya, muhandis, masalalar yechish, masalalar yechish usullari; texnik masalalar yechishga o'rgatish usullari; ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari.

Kirish. Texnika oliy ta'lim muassasalari umummadaniy va umumkasbiy kompetensiyani ixtisoslik fanlarini differensial o'qitish asosida shakllantirish murakkab tashkil etilgan obyekt ekanligini hisobga olib, ta'limni boshqarish muammolari bo'yicha ishlarni tahlil qilish tizimli yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa qilishga imkon berdi. Tizimli yondashuv obyektlarni tizimlar sifatida ko'rib chiqadi va uning yaxlitligi, amal qilish tamoyillari, ichki aloqadorligini ochib berishda obyektidagi turli aloqalar turlariga yo'naltiradi. Tizimli yondashuv obyektlar tarkibiy tuzilishi, ularni tashkil qiluvchi komponentlar orasidagi o'zaro bog'liqlik, komponentlar funksiyalari, ularning munosabatlarini ochib berishga imkon beradi. Bilish usuli bo'lgan tizimli yondashuv bilish obyektlari, ularning komponentlari, tarkibiy aloqalarni bir butunlikda ko'rib chiqishga yo'naltirilgan.

Bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida umumkasbiy va umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirishning tadqiq qilinayotgan muammosiga tizimli yondashuvni jamiyat rivojlanishi darajasiga muvofiq ravishda maqsad va vazifalarni, shaxs ehtiyojlari va ta'lim vositalari, mazkur sohada texnik bilimlarni rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun pedagogik vositalarni tanlash, pedagogning mahorati maqsad va vazifalari hamda darajasiga

mos ravishda ta'lim vositalarini tanlash va nihoyat, talabalarda umummadaniy va umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali modelini ta'minlash kabi jihatlarni aniqlab olishni o'z ichiga olgan bilishni tashkil qilishning sifat nuqtai nazaridan yanada yuqori darajasini nazarda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda tizimli yondashuvni amalga oshirish pedagogik o'ziga xoslikni hisobga olgan holda "tizim" tushunchasiga kiritilishini taqozo qiladi. Mazkur yo'nalishda B.П.Беспалко, Н.В.Кузмина, В.В.Сериков, В.А.Сластенин, В.Н.Худяков, Е.В.Яковлев va boshqalar tadqiqot olib borganlar. Tizimli yondashuvni amalga oshirishda biz tizim ostida o'zaro aloqadorlik va o'zaro ta'sirda bo'lgan o'zaro shartlangan komponentlarning yaxlit majmuasini tushunamiz.

Bizning tadqiqotimiz doirasida oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning yangi usullari va vositalarini topish zarur, xususan, talabalarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish sohasi bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Talabalarda umummadaniy va umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ochiq, boshqariladigan tizim hisoblanadi.

Shu bois muhim jihatlardan biri talabalarning bilishga oid faoliyatini boshqarishning tizimini yaratish bo'lib, uni ostida ta'limning maqsadiga erishishni ta'minlovchi ixtisoslik fanlari o'qitish jarayonini tashkil qilish vositasi tushuniladi.

O'zini o'zi boshqarish tizimlar holatiga baho berish, boshqaruv maqsadini aniqlab olish, unga bosqichma bosqich erishish yo'llarini izlab topish, uni amalga oshirishning mazmuni va vositalarini aniqlab olish, maqsadlarni amalda ro'yobga chiqarish va tahlil qilish, boshqaruv natijalarini to'g'rilab olish va natijalariga baho berish bilan bog'liq. Ma'lumki, tizimli yondashuvning quroli tizimli tahlil bo'lib, u murakkab obyektlarni o'rganishning usul va vositalari majmuini o'z ichiga oladi. Mazkur majmuaga modellashtirish, grafik, evristik va bir qator boshqa metodlar kiradi. Pedagogik jarayonlarning tizimli tarkibiy tahlili tarkibiga zamonaviy ta'lim jarayonini metodologik asoslantirish kiradi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tizimli tahlil metod va vositalaridan foydalangan holda bilishga oid jarayonini modellashtirish quyidagilarni nazarda tutadi: tizimni ajratib ko'rsatish; uning komponentlarini belgilash (tizimlarga bo'lish va pog'onama pog'ona iyerarxiyani aniqlab olish); modelning kirish va chiqish ta'sirlarini tavsiflovchi mazmunli mohiyatini aniqlash va tanlab olish; boshqarish va holat o'lchamlaridagi cheklovlarni hisobga olish; holat va boshqaruv o'lchamlari orasida o'zaro bog'liqlik turini aniqlab olish [96].

Bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini boshqarish komponentini ishlab chiqishni tizimli yondashuvning vazifasi deb hisoblaymiz. Mazkur jihatni tizimli xususiyatlarni bilish nuqtai nazaridan tahlil qilamiz: yaxlitlik (o'zaro bir birini to'ldiruvchi komponentlardan iborat birlik), komponentlarning o'zaro bog'liqligi (komponentlarning tartibga solingan aloqalari), natijakorlik (komponentlar orasida o'zaro almashinishni ta'minlovchi kanallar, integrativlik (bir butunga xos bo'lgan, biroq alohida olganda mazkur yaxlitlikning bitta ham alohida komponentiga tegishli bo'lmagan sifatlarga ega bo'lish). Talabalarning bilishga oid jarayonini tizim sifatida tasavvur qilish va uni tadqiq etish maqsadida tizimli tahlil apparatini jalb qilish mumkin[3].

Bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish modelini qurish asosi sifatida quyidagilarni olish mumkin: oliy ta'limda ixtisoslik fanlaridan bilimlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz mazmunidagi kompetentli yondashuvda ta'lim jarayonini natija olishga yo'naltirish aks etgan: ixtisoslik fanlaridan bilimlarni egallash, ixtisoslik fanlaridan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda talaba uchun zarur bo'lgan texnik bilimlar, ko'nikma va ijodiy qobiliyatlarni egallash. Pedagogik adabiyotlarda kompetentli yondashuv V.I.Байдено, М.Е.Дуранова, И.А.Зимняя, В.Серикованинг ishlarida metodologik va nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi, shuningdek amaliy metodologik jihatdan bitiruvchining tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar bo'limida DTSning natijaviy-maqsadli asosini belgilashda ifodalanadi.

Tadqiqot muammosining o'ziga xosligi va mazmunini tushuntirishga aksiologik yondashuv uning xususiyatlarini qadriyat tushunchasi atrofida to'plash imkonini beradi. Qadimgi antik faylasuflar (Suqrot, Platon va boshqalar), shuningdek qadriyatli yondashuv Dekart, Spinoza, Lakk asarlarida ham o'z aksini topgan. Pedagogikada aksiologik yondashuv o'quv jarayonini o'rganish va tashkil qilishni o'rganishning rahbariy yo'riqnomasi sifatida ifodalanadi.

Bu barcha pedagogik jarayonlar va hodisalarning ko'rib chiqish ularning qadr-qimmatligi, ijobiy ahamiyati, shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi zarur[4].

Oliy ta'limda qadriyatlarni talabalarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'laydilar. Ushbu holatda qadriyatlarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi: ideal shaxsning ta'lim olish maqsadi sifatida; ta'limning mazmunli

tomonini tashkil qiluvchi bilim va ko'nikmalar; ta'lim natijalarini aks ettiruvchi shaxsiy sifatlar; talabning mohiyatli xususiyatini tarkib toptiruvchi qarashlar, e'tiqod tamoyillar tizimi.

Shunday qilib, aksiologik yondashuv shaxsning ta'lim olishi va rivojlanishi uchun hodisa va predmetlarni ularning qadr-qimmatini nuqtai nazaridan o'rganishni nazarda tutadi. Aksiologik yondashuv bizga kasbiy kompetentlikning ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarini komponentlarni ochib berish, ixtisoslik fanlarini muhandislik ixtisosliklari uchun zarurligi nuqtai nazaridan o'rganilishini tashkil qilishga imkon beradi[5].

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagogik jarayonning ikkita tomoni o'zaro aloqadorligi: pedagog va o'quvchilar faoliyati bilan bog'liq.

U talabalarni o'quv-bilishga va kasbiy-bilishga oid faoliyatda, bilishga oid va boshqa qadriyatlarga ularning tayyorgarligini hisobga olgan holda yo'naltiradi. Ta'lim olishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan[6].

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga, ixtisoslik fanlaridan bilim va ko'nikmalarni egallash va faollik motivatsiyasini yuzaga keltirish, o'quvchilarda ixtisoslik fanlaridan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini metodologik kuzatish imkonini beradi.

Binobarin, fandagi model nazariy sxema, vizual tasvir, jarayon, hodisaning analogi sifatida qaraladi.

Modellashtirishga oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish jarayonida, biz modelning pedagogik tadqiqotlarda ahamiyati shundan iboratki, u modelning o'zaro bog'liq va reproduktiv elementlarining ajralmas majmuasini aks ettiradi; elementlar va model tomonidan bajariladigan funksiyalar; pedagogik modelni amalga oshirish shartlaridir[7].

Ilmiy va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, modellashtirish quyidagi funksiyalarni bajaradi: jarayonning mohiyatini ochib berish bilan bog'liq bo'lgan bilim; tadqiqot, gipotezani qurish, tadqiqotlarni tashkil etish bilan bog'liq; nazariy, aks ettiruvchi tizim aloqalari; pedagogik jarayonni amalga oshirish omillari va shartlarini aks ettiruvchi texnologik; pedagogik jarayonni boshqarish asoslarini belgilovchi normativ.

Bizning modelimiz shakllanishi va amalga oshirilishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarga quyidagilarni kiritdik: o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mezonlari bo'lib xizmat qiladigan DTS; talabalarning mutaxassislik tayyorgarligi darajasiga jamiyat talablari[8].

Modelni ishlab chiqishga va unga bevosita ta'sir ko'rsatishga sabab bo'lgan omillar (DTM talablari va jamiyatning kompetentli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlari), shuningdek modelni yaratishning asosiy bosqichlari (ixtisoslik fanlari fan dasturining mazmunini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonini metodologik qo'llab-quvvatlash) ko'rsatilgan. Tajriba-sinov tadqiqotini o'tkazish sharoitida bizning taklif qilingan ketma-ketlik diagrammasi modelni metodologik qo'llab-quvvatlash va tajriba-sinov tadqiqotlari natijalari o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi; shuningdek, axborot kompetensiyani shakllantirish jarayonining yo'nalishlari; tajriba-sinov ishlarini o'tkazish tartibi.

Tizimli, kompetentli, shaxsga yo'naltirilgan, aksiologik va faoliyatli yondashuvlar asosida bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik

modeli ishlab chiqilgan bo'lib, uni ixtisoslik fanlari ta'limi doirasidagi tagtuzim sifatida ko'rib chiqish mumkin[9].

Modelga ta'rif berish uchun uning umumiy komponentlarini tasavvur qilamiz:

Maqsadli komponent – bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniqlab olish;

Metodologik komponent – yondashuvlar, tamoyillar;

mazmunli komponent – kasbiy tayyorgarlikning mazmuni (ixtisoslik fanlari, umumkasbiy va ixtisoslik fanlar sikli dasturlari (Issiqlik energetikasi yo'nalishlarida), uslubiy kuzatish);

texnologik komponent – kasbiy kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi, uning shakllanish bosqichlari, metodlari, vositalari.

Baholash-natijaviy komponent – natijaviy komponent – mezonlari va bosqichlari.

Modelning har bir komponenti mazmunini ko'rib chiqamiz.

Maqsadli komponent modelimizning maqsadini belgilab beradi, maqsad agar u talabalarining shaxsiy qadriyatiga aylanganida etishgan hisoblanadi. Mazkur komponent bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo'nalganlikni ta'minlaydi.

Talabalarda kompetentli yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga motivini tiklash va takomillashtirish professor-o'qituvchining pedagogik qobiliyatini hisobga olgan holda yakka tartibdagi yondashuvni talab qiladi. Ilm-fanda psixologik-pedagogik motivatsiya muayyan jarayonni bildirib, uning natijasida faoliyat individ uchun shaxsiy ma'no kasb etadi, unga nisbatan qiziqish uyg'otadi va uning tashqi berilgan faoliyat maqsadlarini ichki ehtiyojlarga aylantiradi. Bunda tashqi motivatsiya individdan tashqarida bo'lgan faoliyatlarni tartibga solish sifatida, ichki motivatsiya individning ichida bo'lgan omillarni tartibga solish sifatida taqdim etiladi. Ichki motivatsiya individ uchug muayyan ehtiyoj va qadr-qimmatlikni yuzaga keltiradi [10].

Mazkur bosqichda shaxsiy muhim motivlarning shakllanishini ta'minlovchi talabalarga rag'batlantiruvchi ta'sir yuzaga keladi. Pedagogik fanda motivatsiya usullariga ishonirish, tushuntirish, asoslantirish, talab qilish va boshqalar kiradi. Talabalarining ichki motivatsiyasini shakllantirish joriy va istiqboldagi maqsadlari bilan tanishib chiqish; olinayotgan texnik bilimlarning amaliy nazariy va amaliy ahamiyatini

tushuntirish, kasbiy yo'nalganlikka ega bo'lgan topshiriqlarni taqdim etish orqali amalga oshiriladi[11].

Maqsadni aniqlashtirish – faoliyatni bajarishni yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi motivatsiyali jarayonning muhim komponentidir.

Metodologik komponentlar quyidagilar o'z ichiga oladi: (tizimdi, integrativ kompetentli, aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli) yondashuvlar; bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish funksiyalari va tamoyillari[12].

Xulosa va takliflar. Nazariy tahlil natijasida biz quyidagi tamoyillar tizimini shakllantirdik, uning asosi sifatida bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish olingan bo'lib, ularga: yaxlitlik, ochiqlik, dinamiklik, komponentlarning o'zaro bog'liqligi, bashoratlik, natijakorlik kiradi. Yaxlitlik tamoyili ushbu modelning mazmunli (maqsad, mazmun) va texnologik (vosita va usullar)ning o'zaro uyg'unligini aks ettiradi. Ochiqlik tamoyili modelning qayishqoq tarkibiy tashkil etilishi bilan ta'minlangan tashqi muhit omillari bilan shartlangan rivojlangan va o'zaro aloqadorlikka moyillikni ifodalaydi. Dinamiklik tamoyili uning o'zgarib borayotgan sharoitlarda rivojlanishi va moslashuvini nazarda tutadi, modelning tiklanish, o'zarish va takomillashtirish bosqichida samaradorligini ushlab turishga imkon beradi. Komponentlarning o'zaro aloqadorligi tamoyili modeldagi barcha komponentlarning o'zaro moslashuvi va o'zaro ta'sirini talab qiladi. Bu maqsad, mazmun, tashkiliy shakllar va usullar orasidagi o'zaro bog'liqlik, nazariy va amaliyotning bog'liqligida ifodalanaadi. Nazariya va amaliyotning bog'liqligi tamoyili nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikmalar va uquqlarning bir butunlikda shakllanishini hamda amaliyotda ro'yobga chiqarilishini nazarda tutadi. Bashoratlik tamoyili texnika oliy ta'lim muassasasida kasbiy muhandislikka tayyorgarlik sharoitida mazkur modelni qo'llash imkoniyatida o'z aksini topadi.

Shunday qilib, tanlangan yondashuvlar va tamoyillarga muvofiq, bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlaridan differensial ta'lim berish asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik modeli asosida biz maqsadli, mazmunli, texnologik-jarayonli va baholovchi-natijaviy komponentlarni o'z ichiga olgan modelini tushunamiz.

ADABIYOTLAR

1. Махманов Э. Б. Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда мантикий фикрлаш компетенцияларини такомиллаштириш //наманган давлат университети-2021. – Т. 1. – С. 581.
2. Binokulovich, Makhmanov Ergash. "The development of laboratory practice-trainings in the identification of comparative specific heat capacity in liquids and solids." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.9 (2020).
3. Ишмуродова Г.И., Махманов Э.Б. Талабаларнинг физикадан мантикий масалалар ечиш кўникмаларини шакллантириш //”Замоनावий таълим журнали”, 2020, 3-сон 16-23-бет
4. Махманов Э. Б. Физика таълими жараёнида талабаларнинг ўқув компетенцияларини ривожлантириш //А ИLM. – С. 75.
5. Ишмуродова Г. И., Махманов Э. Б. Физика фанидан лаборатория машғулотларини инновацион ёндашув асосида утказиш //Современное образование (Узбекистан). – 2019. – №. 8 (81). – С. 16-22.
6. Ишмуродова Г. И., Махманов Э. Б. Мастер-класс асосида физикадан масалалар ечиш машғулотларини ташкил қилиш //Современное образование (Узбекистан). – 2020. – №. 10 (95). – С. 11-17.
7. Беспалько. В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989. — 192 с.
8. Дамитов, Б.К., Фридман, Л.М. Физические задачи и методы их решения. – Алма-Ата: Мектеп, 1987.–100с.
9. Байденко, В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) [Текст] / В;И. Байденко // Высшее образование в России. - 2004. - № 11. - С. 3-18.
10. Балаш В.А. Задачи по физике и методы их решения [Текст]: Пособие для учителя. - 4-е изд., перераб. и доп. / В.А. Балаш. - М.: Просвещение, 1983. - 432 с. 196
11. M.Muhiddinov, SH.Ahmedov, V.Qutlimurodov “Texnik adan testlar va ularning yechimi” Toshkent . O'zbekiston NMIU 2016, 424 b.
12. Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту № 1/1-F и применением технологий программирования. //Преподаватель XXI век. №4. – Москва, 2018. С. 88-95.



UDK:159.9(575.1

Dilnoza DAVIDOVA,
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti stajor assistenti
E-mail: talor58@mail.ru
Tojiboy ALMATAYEV,
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti professori

Andijon davlat universiteti professori, t.f.d R. Alliyev taqrizi ostida

APPLICATION OF INNOVATIVE LEARNING MODELS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION

Annotation

The article analyzes the role of integration in the system of technical education and the results of research on the integration of technical higher education and production.

Key words: Education, quality, production, integration, research, analysis.

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье анализируется роль интеграции в системе технического образования и результаты исследований интеграции технического высшего образования и производства.

Ключевые слова: Образование, качества, производство, интеграция, исследование, анализ.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION O'QUV MODELLARINI QO'LLASH

Annotatsiya

Maqolada muhandislik ta'lim tizimida integratsiyaning o'rni hamda muxandislik oliy ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi bo'yicha tadqiqot natijalari taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, muxandis, sifat, ishlab chiqarish, integratsiya, tadqiqot, tahlil.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-sonli va 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ 3151-sonli qarorlari qabul qilidan asosiy maqsad Mustaqil vatanimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratishdir [1-2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorlari bilan oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmii laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Ta'lim - fan - ishlab chiqarish o'rtasida uzilishlar mavjudligi, integratsiya ta'minlanmagan. Ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etilmagan, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqmasdan amalga oshirilmoqda. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. «Integratsiya» atamasi mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. Dastlab fanga u XVIII asrda faylasuf olim G.Spenser tomonidan kiritilgan [3]. Hozirgi kunga kelib jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish sohalarida, shu jumladan, ta'lim sohalarida, mikroolamdan tortib to makroolamgacha

bo'lgan hududda integratsiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Integratsiyaning rivojlantiruvchi funksiyalarini amalda joriy etish orqali muhim ilmiy muammolarni hal qila olish mumkinligi amaliyotda o'z isbotini topgani holda unga katta ehtiyoj sezilmoqda [4-10].

A.I.Avazboyev integratsiya «ayrim tarkibiy qismlarning yangi xossa hosil qilib bir butun birlashish jarayonidir» - degan xulosani bildiradi. Muallifning fikricha, integratsiya jarayon sifatida talqin qilinishi lozim [5].

R.A.Mavlonova ham integratsiyani jarayon sifatida talqin qilib, uning ikki ma'noda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi: 1.Tizim, organizmning alohida tabqalashtirilgan qism va vazifalarining bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon. 2. Tabqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning maqsadi innovatsion o'quv modeli(4+2)dan foydalangan holda va muxandislik sohasidagi ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashgan hamkorligi asosida ta'lim sifatini oshirishdir.

Andijon viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalarini va oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislari tomonidan institutlarda mavjud ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o'quv meyoriy xujjatlari ilmiy asosda taxlil qilindi va zarur o'zgartirishlar tavsiya etildi.

Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi birinchi, iqtisodiy jihatdan samaralidir, ikkinchidan, ular ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtiradi. Ushbu tajribani umumlashtirish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq qilish ushbu jarayonning barcha ishtirokchilariga katta foyda keltirishi mumkin. Oliy ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligi natijasida talabani tanlagan mutaxassisligi bo'yicha sifatli tayyorlashni ta'minlaydi. Bunday hamkorlikning ta'siri, uning amalga

oshirish shakliga bog'liq bo'lib, ta'lim maydoni talabaga olgan bilimi, malaka, ko'nikma, kasbiy o'sishi va keyingi faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Tahlil va natijalar. Integratsiyaning asosiy tamoyili sifatida oliy ta'lim muassasalariga va ishlab chiqarish korxonalariga sifatli mutaxassislar tayyorlash jarayonida ikki tomonga ham bir xildagi mas'uliyatni yuklanishini alohida e'tirof etish lozim.

Eng asosiy jihati, bu ikki tomonlama hamkorlikda "Manfaatdorlik prinsipi" ning ishlashi, ya'ni oliy ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish o'rtasida tub ma'nodagi hamkorlik uchun, eng avvalo, ikki tomon ham manfaatdor bo'lishi kerak, ayniqsa kadrlar iste'molchi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini, aks holda ish kutilgan natijani bermaydi.

Manfaatdorlik prinsipi nimalarda namoyon bo'ladi.

OTMning manfaatlari- oliy ta'lim tizimidagi eng asosiy manfaatlaridan biri bu ishlab chiqarishning texnik bazasi va imkoniyatidan foydalanish, bo'lajak muhandislarni tayyorlash, ilmiy loyihalar ustida ishlash, talaba va professor-o'qituvchilar mutaxassislikka oid eng zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishish, talabalarining malakaviy amaliyoti va professor-o'qituvchilarning qisqa muddatli stajirovka o'tishi hamda mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni bevosita korxonadagi mavjud texnologiyalar asosida, korxonaning tajribali mutaxassislari yordamida o'tish imkoniyati, korxonadagi mavjud texnik hujjatlar, adabiyotlar va korxonada faoliyati bo'yicha eng oxirgi statistik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati, eng asosiysi talabalar muayyan ishlab chiqarish sharoitlari bilan tanishadilar va kasbiy faoliyat asoslarini o'zlashtiradilar, natijada oliy ta'lim muassasalarini tamomlaganidan so'ng ular mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari OTMlar korxonaga muammolariga yechimlar topish hisobiga qo'shimcha, byudjetdan tashqari mablag' topish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Ishlab chiqarish korxonasiining manfaatlari – avvalo, ish beruvchi o'zi bevosita bitiruvchi mutaxassislarning kasbiy bilimlarni shakllantirishda, korxonaning real ish sharoitlariga ko'nikma hosil qilishda va ularda ustoz-murabbiylik tizimlarini shakllantirishda faol ishtirok etganligi uchun ham mutaxassis xodimlarni izlash va tanlash, tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ish muhitiga moslashuvi uchun ko'zda tutilgan sarflarni kamaytirish, zarur mutaxassis xodimlarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zarur hollarda, korxonaga xodimlarining ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy va siyosiy bilimlarini oshirish, ularning kasbiy mahoratini oshirish, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'quv, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etishda OTM professor-o'qituvchilari salohiyatidan foydalanish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Bundan tashqari, korxonaga o'zining ishlab chiqarishdagi muammolariga OTMlar tomonidan ilmiy asoslangan, qulay, kam xarajatli va sifatli yechimlar topish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Qachonki, yuqorida keltirilgan eng minimal talablarni bajarish uchun ikki tomonda ham yetarli shart-sharoitlar va yetarli harakat bo'lsagina hamkorlik amalga oshadi. Ikki hamkorlar tomonidagi kompleks imkoniyatlarni ishga solish natijasida sinergetik integratsiya yaratiladi, talabalarga sifatli ta'lim berish uchun shart-sharoitlar yaratilib, ish beruvchi korxonalar malakali mutaxassislarga ega bo'ladilar.

Prezidentimiz qarorlarida belgilangan vazifalarni sifatli va to'liq bajarish maqsadida «Uz Auto Motors» AJ yetakchi mutaxassislari institut talabalarini uchun 2021-2022 yillar davomida ishlab chiqarish jarayonlari, yutuq va muammolari bo'yicha qator ilmiy-amaliy seminarlar hamda ularni bevosita ishlab chiqarishdagi amaliyotlar tashkil etildi.

2022-2023 o'quv yilidan boshlab Andijon mashinasozlik instituti va Andijon iqtisodiyot va qurilish

institutlarining mutaxassislik kafedralarida mashg'ulotlar viloyatimizning «Uz Auto Motors» AJ, «O'Z AUTO-AUSTEM», «UZ - KOJE» AJ va boshqa ishlab chiqarish korxonalarini xamkorligida «4+2» o'quv modeli bo'yicha tajriba mashg'ulotlari o'tkazildi.

Ishlab chiqilgan mazkur «4+2» modeli bo'yicha, o'quv-amaliyot mashg'ulotlari o'tkazish bo'yicha boshqaruv dasturi yaratildi. Dasturning mohiyati shuki, talabalar oliy ta'lim muassasalarida o'quv haftasining 4 kuni davomida olayotgan nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish korxonasida, ya'ni kelajakda ish bilan ta'minlanishi mumkin bo'lgan joyda 2 kun amaliy o'quv mashg'ulotlarini o'taydi. Mazkur o'quv dasturining yutuqlaridan biri shuki, unda talaba o'quv jarayoni mobaynida oliy ta'lim muassasalarida olgan nazariy bilimlarini ishlab chiqarish korxonasida olgan amaliy ko'nikmalari asosida mustahkamlab boradi.



2-rasm. 4+2 o'quv modeli

Ishning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

ta'lim sifatini oshirish, talabaning tanlangan faoliyat sohalari bo'yicha nazariy ko'nikmalarni shakllantirish;


ta'lim mazmunini ishlab chiqarishning zamonaviy darajalarga mosligi;

o'quv jarayonida ishlab chiqarish sharoitlariga yaqin bo'lgan zamonaviy texnika va texnologiyalaridan foydalanish; korxonalarining yuqori malakali injener-texnik xodimlarini o'quv jarayonlariga mutaxassislari sifatida jalb etish;

bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash va amaliyot negizini tashkil qilish;

talabalarini maqsadli tayyorlashni, talabalar va o'qituvchilar uchun qo'shimcha stipendiyalar va grantlarni moliyalashtirish;

bitiruvchining yangi ish jamoasida ijtimoiy moslashuvi va mehnatga ko'nikishi bo'yicha xarajatlarini minimumga keltirish.



2- rasm. Model dasturi

Mutaxassis xodimlarni tayyorlashda dunyoda tan olingan soha mutaxassisligiga o'qitish tizimi (dualnaya sistema) o'quv muassasasida o'qitishni ishlab chiqarishdagi faoliyati davri bilan birgalikda olib borilishini ko'zda tutgan mutaxassis xodimlar tayyorlashning shakli sifatida asosan o'rta maxsus ma'lumotli xodimlarni tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lsa, taklif etilayotgan mazkur 4+2 o'qitish modeli – bu oliy ta'lim muassasalarining va korxonaning o'zaro hamkorligi asosida kasbiy tayyorgarlik sharoitlaridagi pedagogik texnika usullari hamda tashkiliy shakllar, uslublar va ularni amalga oshirish vositalari tizimidir.

Ushbu 4+2 o'qitish modelining asosiy mazmuni – oliy ta'lim muassasalariga va ishlab chiqarish korxonalariga sifatli

mutaxassislar tayyorlash jarayonida ikki tomonga ham bir xildagi mas'uliyatni yuklaydi.



3-rasm. Modelni joriy qilishdan kutilayotgan natija.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinida shuni aloxida ta'kidlash kerakki, ushbu modelning mazmuni o'quv jarayonini amaliyot bilan to'ldirishdir ya'ni o'quv jarayonining ma'lum qismi-asosan amaliy mashg'ulotlar korxonalarida o'tkaziladi. Talabalar bilimni baholash, kurs loyihalarini tayyorlash, bitiruv malaka ishlari, diplom loyihalarini va ishlari, magistrlik va doktorlik dissertatsiya mavzulari korxonalar muammolari asosida ularning buyurtmasi asosida shakllantiriladi, natijada korxonalar muammolarini hal etish tizimi ishlaydi, sohaga oid olimpiadalarni birgalikda o'tkazish, nomdor stipendiyalar belgilash, tegishli malaka sertifikatlarini berish jarayoniga korxonalar va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari jalb etiladi.

Kelajakda ushbu loyiha doirasida "3+3" o'quv modeli asosida yangi o'quv jarayoni tashkil etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3171590>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-3151-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3286194>O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-tom. -Toshkent-2002. 179 b.
3. Спенсер Г. Основания психологии - М.: ООО «Издательство АСТ-ЛТД», с.
4. Абдураимов Ш.С. Интеграция образования, науки и производства как методологическое основание подготовки учителей профессионального образования // Образование: традиции и инновации. Материалы V международной научно-практической конференции, Прага, Чешская Республика. Прага. 2014 г. – Ст.-7-8
5. Abduraxmonov O. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2017
6. Avazboyev A.I. O'quv predmetlarini mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.:2001. - 124 b.
7. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. - Metodik qo'llanma. - T.: TDPU, 2005. - 109 b.
8. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. - Metodik qo'llanma. - T.: TDPU, 2005. - 109 b.
9. Митько К., Щеглов О.Н., Феодоров А.Г. Интеграция различных способов освоения мира в учебнике нового поколения и новые задачи образования в XXI веке.-Т.: // Низомий номидаги ТДПУ, 2002. № 8.- Б. 24-34.
10. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Н. Инновацион таълим технологиялари /, Сайфулов Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 150 б.
11. Сазонова З.С. Интеграция образования, науки и производства как методологическое основание подготовки современного инженера: дис...док.пед.наук.-Казань, 2008. – 42 с.
12. Сайдалиев И.Н., Алматаев Т.О., Турсунов О., Қосимов И.С. К вопросу синергетической интеграции образования, науки и производства в Узбекистане // Scientific discussion. -Чехия, 2019. VOL 1. №36, -С. 16-17
13. Saydaliyev I., Qobulova N., Tursunov O., Almatayev N., Hamdamov B. Ta'lim sifatini oshirishda "5+1" va "4+2" o'quv modellarining o'rni // Zamonaviy ilm-fanning innovatsion rivojlanishi mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman AndMI. 2019. -589-593-b.
14. Turdialiyev U.M., Almatayev T.O.va boshqalar. O'zbekistonda Oliy ta'lim va ishlab chiqarishning sinergetik integratsiyasini yaratish (SYNERGY) loyihasining yakuniy hisoboti. Andijon:AndMI, 2022,- 50 bet.



UDK: 796:078

Axror DJABBAROV,
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi
E-mail: Djabbarovaxror@gmail.com

TMI dotsenti F.Karimov taqrizi asosida

OLIV TA'LIMDA JISMONIY TARBIVANING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada Oliy ta'limda jismoniy tarbiyaning o'rni va tahsil olayotgan talabalarning jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni qo'llash strukturasi bayon etilgan. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar jismoniy tarbiya, sport sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya darslari, harakatli o'yinlar, talabalar, o'zaro hamkorlik, jamoatchilik, tashabbuskorlik, faollik.

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье описывается роль физического воспитания в высшей школе и структура использования подвижных игр на занятиях по физическому воспитанию студентов. Представлена информация об организации занятий физической культурой, спортивной физкультурой со студентами в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Уроки физической культуры, подвижные игры, учащиеся, взаимодействие, коллектив, инициатива, деятельность.

THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN HIGHER EDUCATION

Annotation

The article describes the role of physical education in higher education and the structure of using mobile games in physical education classes of students. Information on the organization of physical education, sports fitness classes for students in higher education institutions is provided.

Key words: Physical education classes, action games, students, interaction, community, initiative, activity.

Kirish. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining dunyo taraqqi-yoti darajasidagi istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida katta o'zgarishlar bo'lishi bilan bog'liq. Bunday o'zgarishlarda ishtirok etish insonlardan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, yuksak madaniyat, ma'naviyat va keng dunyoqarashni talab etadi.

Ta'lim tizimini shu talablar asosida qayta qurish – jamiyatning kelajak avlod tarbiyasi sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. “Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va qishloqda zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz o'zining ijobiy samarasini bermoqda”.

Barcha ta'lim turlari kabi jismoniy tarbiya darslarida ham pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Chunki jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, o'quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlashga o'rgatish, ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning ta'lim jarayonining faol sub'ektlariga aylanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin pedagogik adabiyotlarda jismoniy tarbiya darslari ta'lim texnologiyasi masalalariga kam e'tibor berilgan. Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda jismoniy tarbiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovasion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

Oliy ta'lim tizimidagi jismoniy tarbiya an'anaviy ravishda yosh avlodning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tarbiyasi uchun javobgardir. Mamlakatimiz jismoniy tarbiyasi milliy tajribalar va an'analar asosida ishlaydi hamda rivojlanadi. Bu tizimning nazariy-uslubiy asoslari va mazmuni yosh avlodni muayyan turmush sharoitlariga tayyor-lashga qaratilgan. Yangi, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash zamonaviy jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishining zarur va hal qiluvchi shartlaridan biridir.

Jismoniy tarbiya fanining va ilg'or amaliyotining rivojlanishi inson organizmida sodir bo'ladigan biologik va aqliy jarayonlarning rivojlanishi va mustahkamlanishida harakat faoliyatining, xususan, jismoniy mashqlarning rolini tushunishni sezilarli darajada kengaytiradi.

Jismoniy (jism, badan va h.k.) tarbiya tushunchasi mantiqiy jihatdan qaralsa, inson harakatining faolligi, gavda tuzilishi va uning rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik (tarbiyaviy) jarayondir. Jismoniy tarbiya – bu jismoniy kamolotga erishishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Bu jarayonda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi – sog'lom, baquvvat, xushchaqchaq, botir, dovyurak, jasur, har tomonlama rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan kishilarni tarbiyalashdan iborat. Sport yunoncha so'z bo'lib, „kuch“, „sinashaman“, „musobaqalashaman“ degan ma'nolarni bildiradi.

Sport deganda, eng avvalo, muayyan holatdagi murakkab mashqlar majmuini texnik va taktik jihatdan talab darajasida bajarish faoliyati tushuniladi.

Talabalarda ephillik, ixchamlik, abjirlik, uddaburonlik, qayishoqlik kabi xususiyatlarni rivojlantirishda faqat jismoniy tarbiya darslaridagi harakatli o'yinlar bilan

chegaralanib qolmaslik lozim. Ularning bo'sh vaqtlarida hovli, ko'cha, maydonlarda erkin ravishda sport o'yinlari, gimnastika, yengil atletika, kurash kabi sport turlarining elementlari bilan shug'ullanishlarini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi, xilma-xil turkumlarga bo'linadigan harakatli o'yinlarni o'z vaqtda maqsadli qo'llash zarur.

Jismoniy tarbiya darslarining maqsadi talabalarni sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlantirish va har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashdir. Jismoniy tarbiya darslarining vazifalari esa shu darsda o'rgatiladigan jismoniy mashqlar va harakatlar texnikasini va taktikasini egallash bo'ladi. Shuning uchun har bir dars maqsadi o'zgarib ham dars vazifasi o'zgarib boradi.

Oliy ta'lim talabalarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni qo'llash orqali talabalarining jismoniy fazilatlarini rivojlantiriladi, hayotiy zarur bo'lgan harakat ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Harakatli o'yinlari talabalarining nafaqat jismoniy fazilatlarini tarbiyalanmay, balki ularning ahloqiy sifatlarini o'zaro hamkorlik, jamoatchilik, tashabbuskorlik, faollik, botirlik va qo'rqmaslik xislatlari tarbiyalanadi. Shuningdek, harakatli o'yinlari darslari jarayonida talabalarda Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik ruhi shakllantirish kerak.

Talabalar jismoniy rivojlanishi, jismoniy qobiliyatlarini va shaxsiy xususiyatlarini xilma-xil bo'lganligi uchun o'qituvchilardan harakatli o'yinlar mashg'ulotlarni tashkil etish va boshqarishda talabalarga individual yondashish hamda kasbiy pedagogik va amaliy tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lishligini talab etadi.

Harakatli o'yinlar darslariga qo'yiladigan talablar: Yoshlarni tarbiya jarayoni hisoblanib bir qator pedagogik, psixologik, tibbiy biologik va amaliy talabalariga rioya qilinishi kerak.

Ta'lim vazifalari tarbiya va sog'lomlashtirish vazifalari bilan birga olib boradi. Harakatli o'yinlar darslarida tartib intizom, diqqat, iroda, saranjomlik, do'stlik, hamkorlik, jamoatchilik, tashabbuskorlik, mustaqillik hamda qiyinchiliklarni yengishda botirlik va qo'rqmaslik sifatlarini tarbiyalanadi. Axloqiy sifatlarini tarbiyalash

Jismoniy tarbiya va sportning o'zgartiruvchi kuchi bilan hech narsani solishtirib bo'lmaydi. Bu kuch qo'polni ephil, sekinni - tez, zaifni - kuchli, doimo charchoqdan shikoyat qiladigan - chidamli, kasalni - sog'lom qiladi. Yaxshi jismoniy tayyorgarlik yangi murakkab ishlab chiqarish kasblarini tezda o'zlashtirishga imkon beradi. Shuningdek, uchuvchilar, kosmonavtlar va harbiylarni tayyorlashda hal qiluvchi omillardan biriga aylangan.

Jismoniy tarbiya va sport intellektual jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi - diqqat, idrokning aniqligi, yodlash, ko'paytirish, tasavvur qilish, fikrlash, aqliy faoliyatni yaxshilaydi. Sog'lom, jasur, yaxshi rivojlangan o'g'il-qizlar, qoida tariqasida, o'quv materialini muvaffaqiyatli idrok etadilar, universitetda dars paytida kamroq charchashadi va shamollash tufayli darslarni qoldirmaydilar.

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatga ega natijalari - bu shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishi, jismoniy o'zini o'zi tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, bo'sh vaqtni madaniy tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim, harakat va uslubiy ko'nikmalar, ko'nikma va odatlardir. Shuningdek, ular jismoniy va ma'naviy tiklanish, tananing kasalliklarga chidamliligini oshirish, jismoniy reabilitatsiya va dam olishni o'z ichiga oladi.

Jismoniy tarbiya shaxsga ko'p jihatdan ta'sir qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda jismoniy tarbiyaning ko'plab ijtimoiy ahamiyatga ega natijalariga faqat qisman erishilmoqda. Bularning barchasi talabalarining jismoniy tarbiyasi muammosidan dalolat beradi.

Jismoniy tayyorgarlik - bu jismoniy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatga ega natijalaridan biri. Shuning uchun majburiy jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri jismoniy o'zini o'zi takomillashtirishning barqaror motivlarini shakllantirishdir. Ular barcha uchun majburiy bo'lgan umumiy jismoniy tarbiya bilan ta'minlanishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlari o'qituvchi va talabalarni jismoniy rivojlantirish, sog'lomlashtirish va hayot faoliyatiga tayyorlashdan iborat bo'ladi. Jismoniy tarbiya jarayonlari barcha bosqichlarida tashkil etiladi. Jismoniy tarbiyani tashkil etishda Oliy ta'lim muassasaning pedagogik jamoasi jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylarining ahamiyati katta.

Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlari ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya darslari sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar, sport musobaqalari va bayramlar hamda dam olish kunlari va ta'tillarda olib boriladigan turizm mashg'ulotlari hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya tadbirlarida o'quvchilar hayotiy zarur harakatlar yurish, yugurish hamda sakrash va ulotirish, tirmashib chiqish mashqlarni bajarib harakat malaka va ko'nikmalari shakllantiriladi. Jismoniy tarbiya vositalari bo'lib hisoblangan jismoniy mashqlar va tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari hamda gigienik vositalar yordamida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi va organizm sog'lomlashadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari o'z salomatliklarini yaxshilash va mustahkamlash uchun jismoniy jihatidan chiniqishlari to'g'risida qayg'urishlari shart. Bu esa to'la ma'noda o'quv dargohlaridagi jismoniy tarbiya ishiga ham taalluqlidir.

Talabalar jismoniy tarbiyasi ularni jismoniy harakatlarini amalga oshirishning tashkil etilgan pedagogik jarayonidir. Oliy ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiyaga oid ishlar o'quvchi va talabalardan havaskorlikni, tashabbuskorlikni, uyushqoqlikni talab qiladigan juda xilma-xil shakllari bilan farq qiladi. Ular o'qituvchi va talabalarda tashkilotchilik ko'nikmalari, faollik, topqirlikni tarbiyalashga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya darslarining samaradorligi o'quvchilar faoliyatini tashkil etish usullariga bog'liq. Faoliyatni tashkil etishning frontal usuli darsning tayyorgarlik va yakuniy qismlarida ham qo'llaniladi. Uning mohiyati shundaki, o'qituvchi barcha o'quvchilar bilan shug'ullanadi. Guruh usuli asosiy qismda qo'llaniladi va ancha murakkab materialdan o'tishda qo'llaniladi. Bu usulning afzalligi shundaki, o'qituvchi darsning umumiy borishini buzmasdan, boshqalarga aralashmasdan, kuchsizroq o'quvchilar guruhiga kerakli e'tiborni berish imkoniyatiga ega.

Individual darslar metodi mashqlarni mustaqil bajarishni nazarda tutadi, darsning asosiy va tayyorgarlik qismlarida qo'llaniladi. Usul tuzatish mashqlarini bajarishga, mashqlar hajmini va intensivligini o'zgartirishga va vosita ko'nikmalari va qobiliyatlarini individual ravishda yaxshilashga yordam beradi.

O'qituvchi faoliyatidagi muhim nuqta - amaliy jismoniy mashqlar komplekslarini ishlab chiqish. Shu bilan birga, asosiy e'tibor talabani sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishga qaratilishi kerak. Mashg'ulotlarning qo'shimcha shakllari turli xil tadbirlar, sayrlar, ekskursiyalar, musobaqalar shaklida qo'llanilishi kerak, bu esa o'quvchilar o'rtasida turli xil tabiatdagi individual og'ishlarni va turli darajadagi asoratlarini tuzatishga imkon beradi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarga jalb etish.

O'qituvchi va talabalarni ta'lim muassasalaridagina emas, balki uyda ham jismoniy mashqlarni sistemali ravishda bajarishga odatlantirib borishdan iborat. Bu muhim vazifani amalga oshirish uchun o'quvchi va talabalar bilan olib boriladigan barcha mashg'ulotlarni jonli, o'rganiladigan materialning mazmuni va shaklini qiziqarli, hayajonli qilish, mashg'ulot rahbarining samimiy muomalasi ostida o'tkazish,

shug'ullanuvchilar o'zaro do'stona xamkorlik qilishlari uchun sharoit yaratish zarur.

O'qituvchi va talabalarni shaxsiy qiziqishlari va jismoniy qobiliyatlariga ko'ra ularni sport turlari bilan shug'ullanishga jalb etish. Shuningdek, yashash joylarida, sport to'garaklarga umumiy jismoniy tayyorgarlik va sport mashg'ulotlarni amalga oshirish kerakdir.

O'qituvchi va talabalarda tashkilotchilikni tarbiyalash, jismoniy madaniyat faoliyatini tayyorlashda Oliy ta'lim muassasasi ommaviy jismoniy madaniyat va sport ishlarini muvaffaqiyatli olib borish, jismoniy madaniyat darslari hamda

mashg'ulotlarni to'laqonli o'tkazishda o'quvchi va talabalar jismoniy madaniyat faoliyatining o'qituvchiga doimiy yordami zarur.

Talabalar orasida jismoniy madaniyat tashkilotchilari, jamoa sardorlari, guruh boshliqlari saylanadi. Ular faol ishtirokchi ichidan tanlanadi. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarishda jismoniy madaniyat jamoasiga yaqindan yordam beradilar. Shuningdek, o'qituvchi va talabalarni sportga jalb etish va jismoniy tarbiyaga qiziqishlarini orttirishda ahamiyati kattadir.

ADABIYOTLAR

1. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //ilmiy xabarnoma. -С. 69.
2. Alisherovich M. N. Health and physical education in educational institutions technology of development measures //Конференции. - 2020.
3. Kh K. R., Shukurov R. S., Samadov S. S. The Inquiry On The Changes Of Relations Towards The Basics Of The Culture Of Healthy Life In The Students Of Elective Courses //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. - 2021. - Т. 25. - №. 2. - С. 112-118.
4. Олимов С. Дифференциация образования – важный фактор педагогической технологии. Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук, том. 8 № 11, 2020 г. Часть II ISSN 2056-5852
5. Олимов С.С. Инновационный процесс – приоритет в развитии педагогических наук. - 2021.
6. Азимова Н. Э. Роль профессионального педагога в подготовке гармонично развитой личности //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. - 2018. - №. 5-1.
7. Арипова М., Носирова Ш. Инглиз тилини укутишда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш //Современное образование (Узбекистан). - 2014.



Abrorjon DILSHODOV,
TATU Farg'ona filiali katta o'qituvchisi
E-mail: addilshodov@gmail.com

TATU Farg'ona filiali dotsenti, p.f.n I.Bilolov taqrizi asosida

ATVUD MASHINASINI KOMPYUTER MODELLASHTIRISH YORDAMIDA QAYTA TIKLASH

Annotatsiya

Maqolada fizik muammolarni echishda Atvud mashinasi Nyutonning ikkinchi qonunini katta aniqlik bilan ko'rsatish uchun kompyuter modellariga asoslangan tajribada qo'llaniladi. Massalarga ishqalanish kuchini va shkivning inersiya momentini aniqlash haqida so'z boradi. Maqolada o'quvchilarga kompyuter modelini yaratishga misol yordamida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu misol fizik tajribalar o'tkazishda sizning mahoratingizni va bilimingizni yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: Kompyuter modeli, fizik modellashtirish, kompyuter modellashtirish, kompyuter simulyatsiya, sonli usullar, modellar, muammoli masala.

ВОССТАНОВЛЕНИЕ МАШИНЫ АТВУДА С ПОМОЩЬЮ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

Аннотация

В статье при решении физических задач машина Этвуда используется в эксперименте, основанном на компьютерных моделях, для иллюстрации второго закона Ньютона с большой точностью. Речь идет об определении силы трения к массам и момента инерции шкива. Статья показывает читателям на примере построения компьютерной модели. Этот пример улучшит ваши навыки и знания при проведении физических экспериментов.

Ключевые слова: Компьютерная модель, физическое моделирование, компьютерное моделирование, компьютерное моделирование, численные методы, модели, проблемный вопрос.

RESTORATION OF THE ATWOOD MACHINE USING COMPUTER SIMULATION

Annotation

In the article, when solving physical problems, the Atwood machine is used in an experiment based on computer models to illustrate Newton's second law with great accuracy. It is about determining the friction force to the masses and the moment of inertia of the pulley. The article shows readers the example of building a computer model. This example will improve your skills and knowledge when conducting physical experiments.

Key words: Computer model, physical modeling, computer modeling, computer modeling, numerical methods, models, problem question.

Kirish. Hozirda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda. Jumladan, yoshlarning fizika faniga qiziqishlarini kuchaytirishga yetarli e'tibor berish, ta'lim dasturlari o'quvchilarda mustaqil, kreativ fikrlashni shakllantirishga va rivojlantirishga qaratish, ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar zamon talablaridan biridir[1].


Talaba va o'quvchilarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarning chuqur tahlili asosida fizika fanini o'qitishda iqtidorli maktab o'quvchilarining tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishda fizik masalalarni yechishda kompyuter modellarini ishlab chiqish eng samarali usul ekanligini ta'kidlashimiz mumkin[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli pedagogikaning rivojlanishi talabal va o'quvchilari uchun tushunarli bo'ladigan fizik-texnik tizimlarning oddiy kompyuter modellarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Kompyuter modellashtirish usuli ko'rib chiqilayotgan masalani hal qilishning boshqa usullari unchalik samarasiz yoki juda mashaqqatli va murakkab matematik hisob-

kitoblarni talab qilganda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Mavjud kompyuter simulyatsiyasi texnikasi ko'plab fizik muammolarni hal qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, ishlab chiqish qiyin bo'lmagan mavjud dasturiy vositalardan foydalanish muhimdir [3].


Atvud mashinasi Nyutonning ikkinchi qonunini katta aniqlik bilan ko'rsatish uchun mikrokompyuterga asoslangan tajribada qo'llaniladi. Massalarga ishqalanish kuchini va shkivning inersiya momentini ham taxmin qilish mumkin. Asl Atvud mashinasi birinchi marta ruhoniy Jorj Atvud (1746-1807) tomonidan 1784 yilda nashr etilgan risolada statsionar shkiv orqali ip bilan bog'langan ikkita massadan iborat bu qurilma Nyutonning ikkinchi qonunining bog'langan jismlarning harakatini bashorat qilishdagi rolini hamda boshqa tegishli masalalarni ko'rsatish uchun yillar davomida eng ko'p qo'llaniladigan qurilmalardan biridir. Atvud mashinasidan ko'plab nazariy va eksperimental foydalanish taklif qilingan: masalan, Uayt va Peys (1973) eng yaxshi talabalarni ko'ngil ochish uchun qiziqarli muammoni tasvirlab berdi va Vang (1975) tortishish tezlashishini o'lchashni yaxshilash uchun tajriba ishlab chiqdi. Yaqinda Benenson (1994) yuqoriga tezlashganda og'irlikning ko'rinib turgan ortishini ko'rsatish uchun bir xil shkivlardan foydalangan holda qurilmani ishlab chiqdi va DeBuvitz (1994) Nyutonning ikkinchi qonunini ko'rsatish uchun mohir vaqt o'lchash moslamasini ixtiro qildi [4].

Foto to'sqich MBL interfeysiga ulangan



1-rasm. Eksperimental o'rnatish.

Kompyuterga asoslangan laboratoriyalarning paydo bo'lishi va ular nafaqat bog'langan massalarning tezlashishini, balki ularning tezligini ham juda aniq o'lchash imkoniyatini berdi. Kompyuterga asoslangan eksperimentni ko'rib chiqar ekanmiz, unda talabalar Atvud mashinasidan Nyutonning ikkinchi qonunini yuqori aniqlik va aniqlik bilan namoyish qilish, shu jumladan massalarga ta'sir qiluvchi ishqalanish kuchini va g'altakning inersiya momentini baholash uchun foydalanishlari mumkin.



2-rasm. Vaqt funksiyasi sifatida oniy tezlik (vaqtga nisbatan pozitsiyaning raqamli hosilasi sifatida hisoblanadi).

Tadqiqot metodologiyasi. Tajriba uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: 6,4 sm diametrlil tayanch ustiga o'rnatilgan ikkita Pasco Superblok (ulardan faqat bittasi tegishli fotogeytga ega Aqlli blok vazifasini bajaradi), mikrokompyuter, kompyuter tipidagi taymerga to'g'ridan-to'g'ri ulanadigan tegishli interfeys bo'lishi mumkin. Pasco, Logal yoki boshqa har qanday yetkazib beruvchidan sotib olingan, interfeys o'tkazgich simi, 120 sm tayanch, og'irlik va ilgichlar to'plami hamda o'ralgan shnur (1-rasmga qarang).

Aqlli shkviv - bu yuqori sifatli shkviv bo'lib, o'rnatilgan fotogeyt qurilmasiga ega. Shkviv aylanganda, shkvivning shpiklari fototuyuk nurini to'xtatadi, ya'ni shkvivning har 1.5 sm aylanishiga 1 ta uzilish to'g'ri keladi. Kompyuter fotogeyt uzilishlari vaqtini hisoblab chiqadi, shuning uchun biz vaqtga nisbatan joylashuv va tezlikning jadvalari hamda grafiklarni yaratishimiz mumkin. Talaba yuklarning harakatini to'xtata olishi uchun etarlicha uzunlikdagi (110 sm) arqon ilgichlarni ehtiyotkorlik bilan bog'laydi.

Massalar doimiy tezlanish bilan harakat qilishiga ishonch hosil qilish uchun m_1 - 185 g va m_2 - 225 g qo'yib, ularni harakatga keltiramiz. Biz vaqt va joylashuv o'lchovlarini elektron jadvalga, vaqtga nisbatan pozitsiyaning raqamli hosilasi sifatida hisoblangan tezlik bilan qayd etdik va tezlikni vaqtning funksiyasi sifatida chizdik (2-rasmga qarang).

Ushbu natijalarga ko'ra, massa doimiy tezlanish bilan harakat qiladi. Bunday holda biz tushgan massaning o'rnini uning o'rtacha tezligini vaqtga ko'paytirish orqali hisoblashimiz mumkin. Faraz qilaylik, $t = 0$ bo'lganda massaning pozitsiyasi va tezligi ham nolga teng; keyin yozishimiz mumkin

$$x = vt/2. \quad (1)$$


Shuning uchun o'rtacha massa tezligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi

$$v_{ave} = 2x/t. \quad (2)$$

Darhaqiqat, tezlikni vaqtning funksiyasi sifatida tavsiflovchi tenglama (2-rasmga qarang) boshlang'ich tezlik nolga teng emasligini ko'rsatadi, shuning uchun (1) ga aylanadi.

$$x = \frac{(v_0 + v)t}{2} \quad (3)$$

$$\text{va (2) ichida } v_0 + v_{ave} = 2x/t \quad (4)$$



3-rasm. Vaqt funksiyasi sifatida oniy tezlik (♦) va o'rtacha tezlik (■).

Massalarning tezlanishini hisoblash ularning boshlang'ich tezligiga bog'liq emas, shuning uchun biz buni e'tiborsiz qoldirishimiz mumkin. Har qanday holatda (2) tenglama yordamida o'rtacha tezlikni hisoblash vaqtga nisbatan pozitsiyaning raqamli hosilasini hisoblashdan ko'ra aniqroqdir, chunki vaqt o'sishi bilan raqamli xosila haqiqiy lahzalik tezlikdan tobora ko'proq chetga chiqadi.

Endi elektron jadvalga qaytib, o'rtacha tezlikni hisoblaymiz va ikkala natijani vaqtga nisbatan chizamiz (3-rasmga qarang). Ko'rib turganimizdek, biz deyarli bir xil tezlanishga ega bo'lamiz, lekin har xil boshlang'ich tezliklar, bu o'rtacha hisoblangan dastlabki tezlik soni lotin orqali hisoblanganidan ikki baravar katta ekanligini ko'rsatadi. Bir lahzali tezlik tenglama bilan berilgan

$$v_{inst} = v_0 + at \quad (5)$$

va massaning joylashuvi

$$x = \frac{(v_0 + v)t}{2} \quad (6)$$

shunday qilib

$$\frac{2x}{t} = v_0 + v = v_{ave} \quad (7)$$

Tajriba natijalaridan ko'rganimizdek, o'rtacha tezlik (5) kabi tenglama bilan berilgan bo'lib, u faqat dastlabki tezlikda farqlanadi:

$$v_{ave} = v_0 + at \quad (8)$$

(7) va (8) dan biz olamiz

$$v_{ave} = v_0 + v = v_0 + at \Rightarrow v = v_0 + v_0 + at \quad (9)$$

(9) ni (5) bilan solishtirsak, quyidani olamiz

$$v_0 - v_0 = v_0 \Rightarrow v_0 = 2v_0 \quad (10) \text{ quyidagi}$$

tenglamani olamiz.


Nyutonning ikkinchi qonunini ko'rsatish uchun biz bir qator o'lchovlarni amalga oshirdik, bunda biz massani doimiy ushlab turdik, tizimdagi aniq kuchni o'zgartirdik va uning tezlanishini o'lchadik. Avvaliga $m_1 = 200$ g va $m_2 = 210$ g ni qo'yamiz va har bir yangi o'lchovda biz 5 g ni m_1 dan m_2 ga ko'chirdik. Natijalar 4-rasmga ko'rsatilgan.

Biz juda yaxshi chiziqli taxmini olamiz, lekin ikkita narsaga e'tibor bering.

1. Grafik koordinata boshidan o'tmaydi, bu massalarga ularning harakat yo'nalishiga qarama-qarshi ta'sir qiluvchi qandaydir ishqalanish kuchi mavjudligini ko'rsatadi.

2. 2,383 koeffitsienti massalar yig'indisining ($m_1 + m_2$) o'zaro qiymatidan kam, $1/0,41 = 2,439$, bu shkiqlarning inertiya momentini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shkiqlarning inertiya momentini hisobga oladigan kuch diagrammasini ko'rib chiqamiz (5-rasmga qarang).



4-rasm. Tezlanishni aniq kuch funksiyasi sifatida o'lchash (massani doimiy saqlash).

Biz quyidagi tenglamalarni yozishimiz mumkin:

$$m_2 g - T_1 = m_2 a \quad (11)$$

$$T_3 - m_1 g = m_1 a$$

$$(12)$$

$$(T_1 - T_2)r = I\alpha = Ia/r$$

$$(13)$$

$$(T_2 - T_3)r = I\alpha = \frac{Ia}{r} \quad (14)$$

Ushbu tenglamalarning barchasini qo'shgandan so'ng quyidagi tenglikni olamiz

$$m_2 g - m_1 g = a(m_1 + m_2 + 2I/r^2) \quad (15)$$

bu yerda I - shkiqning inertiya momenti, r - shkiqning radiusi, α - uning burchak tezlanishi.

Shkiqlarning inertiya momenti uchun yaxshi yaqinlik - $I \approx m_p r^2 / 2$, bu erda m_p g'altaklarning samarali inertial massasi, shuning uchun biz quyidagi ifodani olamiz

$$a = \frac{(m_2 - m_1)g}{m_1 + m_2 + m_p} = \frac{F_{net}}{m_1 + m_2 + m_p} \quad (16)$$


va agar shinaning ishqalanish kuchini f hisobga olsak, biz quyidagi tenglikni olamiz

$$a = \frac{F_{net} - f}{m_1 + m_2 + m_p} = \frac{F_{net}}{m_1 + m_2 + m_p} - \frac{f}{m_1 + m_2 + m_p} \quad (17)$$

Endi, tajribada olingan eng yaxshi moslik (4-rasmga qarang) va tenglama (17) asosida biz ishqalanish kuchi va shkiqlarning samarali inertiya massasini aniq baholashimiz mumkin:

$$m_p = \frac{1}{2.383} - (m_1 + m_2) = 0.42 - 0.41 = 0.01 \text{ kg}$$

$$f = 0.049 \times 0.42 = 0.0206 \text{ N.}$$



5-rasm. Kuchlar diagrammasi.

Xulosa. Iqtidorli talaba va o'quvchilarning tadqiqot ishlarini bajarishda fizik muammolarni kompyuter yordamida imitatsion modelini yaratib, yechimlar chiqarish tahlil qilindi va kompyuter modellashtirish aniqlandi. Fizik imitatsion modellarni yuqori darajada bajarish uchun o'quvchilarga tadqiqot qobiliyatlari, yuqori izlanish faolligi va yuqori darajadagi tadqiqot ishlarini bajarish uchun barqaror ichki motivatsiya kerak. O'quvchilarni tadqiqot faoliyatiga oshirishda raqamli usullar asosida kompyuter modellashtirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR

1. "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2021 PQ-5032-sonli qarori.
2. Dilshodov A.D. Iqtidorli maktab o'quvchilarini fizika fanini o'qitishda tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish kontseptsiyasi. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2021. - № 8.
3. Угринович, Н. Д. Исследование информационных моделей. Элективный курс: учеб. пособие. М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2004. с.
4. LoPresto M 1999 Another look at Atwood's machine Phys. Teach. 37 82.



UDK: 316.346.2-055.2:314.7.045

Xolida ZIYAYEVA,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi, PhD

E-mail: tas_tas1988@mail.ru

Sotsiologiya fanlari doktori, professor T.Narbayeva taqrizi asosida

PRACTICE, STAGES AND PROCESSES OF SOCIAL REHABILITATION OF WOMEN EXPOSED TO VIOLENCE: SOCIOLOGICAL ANALYSIS

Annotation

The article highlights the fact that women are an integral part of society, types of violence against women, objective and subjective reasons and factors that cause violence, and sociological solutions for protection against all forms of violence against women. Also, the theories and analysis of the stages and processes of social rehabilitation of abused women and girls and the tasks of subjects participating in these processes have been made. In addition, the specific aspects of social rehabilitation of women and the systematic and functional analysis of the activities of specialists engaged in social rehabilitation are covered in detail.

Key words: Women, rehabilitation, violence, social protection, Eastern thinkers, Zoroastrianism, Avesta, socio-psychological support, foundations and non-profit organizations.

ПРАКТИКА, ЭТАПЫ И ПРОЦЕССЫ СОЦИАЛЬНОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ ЖЕНЩИН, ПОДВЕРГШИХСЯ НАСИЛИЮ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье освещается тот факт, что женщины являются неотъемлемой частью общества, виды насилия в отношении женщин, объективные и субъективные причины и факторы, вызывающие насилие, а также социологические решения по защите от всех форм насилия в отношении женщин. Также сделаны теории и анализ этапов и процессов социальной реабилитации подвергшихся насилию женщин и девочек и задач субъектов, участвующих в этих процессах. Кроме того, подробно освещены конкретные аспекты социальной реабилитации женщин, системный и функциональный анализ деятельности специалистов, занимающихся социальной реабилитацией.

Ключевые слова: Женщины, реабилитация, насилие, социальная защита, восточные мыслители, зороастризм, Авеста, социально-психологическая поддержка, фонды и некоммерческие организации.

ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN XOTIN-QIZLARNI IJTIMOYIY REABILITATSIYA QILISH AMALIYOTI, BOSQICHLARI VA JARAYONLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

Аннотация

Maqolada xotin-qizlar jamiyatning ajralmas qismi ekanligi, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning turlari, zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv sabablar va omillar, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlaridan himoya qilishning sotsiologik yechimlari yoritilgan. Shuningdek, zo‘ravonlikka uchragan xotin qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bosqichlari, jarayonlari va ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlarning vazifalariga oid nazariyalar, tahlili qilingan. Bundan tashqari xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishning o‘ziga xos jihatlari va ijtimoiy reabilitatsiya bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarining faoliyatining tizimli va funksional tahlili atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlar, reabilitatsiya, zo‘ravonlik, ijtimoiy himoya qilish, Sharq mutafakkirlari, Zardushtiylik, Avesto, ijtimoiy-psixologik yordam, jamg‘armalar va notijorat tashkilotlari.

Kirish. Dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy munosabatlarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra, “dunyo aholisi 7,6 milliarddan ortiq, ulardan 49,7%i xotin-qizlardan iborat bo‘lib, 35% xotin-qizlar hayoti mobaynida kamsitilishga uchramoqda. Ya‘ni, har uch ayoldan biri zo‘ravonlikka uchraganini ko‘rish mumkin”. Xotin-qizlarning jamiyatga integratsiyalashuvi, ijtimoiy-siyosiy madaniyatining o‘sishi maishiy zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar bilan ishlashda samarali mexanizmlar joriy etilishiga bevosita bog‘liqligi bois, ularni ijtimoiy himoyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda zo‘ravonlikni kamaytirish, maishiy zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni davlat tomonidan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teng ravishda xotin-qizlarga ham o‘z iqtidori, iste‘dodini erkin namoyon qilishga keng imkoniyatlar yaratib berish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Eng og‘ir, murakkab

masalalarimiz ayollar bo‘yicha. Xalqimizning talabi o‘sib boryapti. Biz shu talablarga munosib sharoit yaratib berishimiz kerak”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi PQ-3827-son “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyat ega. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish borasida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish uchun tizimli tadqiqotlar olib borilishi ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-yanvar kuni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig'ilishda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mazmun-mohiyati, uni yaqin va o'rta istiqbolda amalga oshirish mexanizmlari haqida batafsil so'z yuritildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da keltirilgan oila va shar'iy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g'oyatda qimmatli fikrlar bugunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, "Avesto"da oila nikoh munosabatlari, oilaviy burch va farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. Unda qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qat'iy man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Unda ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi, bir yo'la 2 yoki 3 nafar farzand tug'gan ayollar mukofot olishga sazovor ekanligi uqtiriladi [2].

Sharq xalqlari oilani vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan hamda farzandlarning nasliy pok bo'lishini hisobga olib, bo'lajak qaynata va qaynonalarni tanlash zaruriyati o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Kelin yoki kuyov qilmoqchi bo'lgan har bir ota-onaning bo'lajak qudalar naslini surishtirishlari yoxud har bir musulmon o'zining "yetti pushti"ni bilishi lozim, degan talablar ham islomiy ma'naviyatdan kelib chiqqan. Muqaddas Qur'oni Karim kitobining "Baqara", "Niso" suralarida oila, oilaviy munosabatlari va oilaviy tarbiya masalalariga alohida urg'u berilib, oilaviy munosabatlar ilohiy qonun darjasiga ko'tarilgan.

Sharq Arestoteli nomini olgan buyuk ajodimiz Abu Nasr Farobiy inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlarini mashhur "Fozil odamlar shahri" va "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarlarida bayon etadi. Farobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt-saodatga erishish yo'llari haqida gapirib, shunday deydi: "Rahbarlar (er yoki xotin) «yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'timshni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'timsh talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi". Shuningdek, "Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur"ligini ta'kidlaydi[3].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab o'tgan olima Faxr-ul Banot Sibg'atulloh qizining "Qizlar tarbiyasi", "Oila saboqlari" kabi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlari mavjud. Olimaning "Oila saboqlari" risolasida xotin-qizlarning tarbiya, axloq, odob masalalari, uy-ro'zg'or va bola tarbiyasi, salomatlik va oila sihatini saqlash xususida, qarindoshlar munosabati, qaynona-kelin munosabati, kelinning vazifalari haqidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan pand-nasihatlar o'rin olgan[4. B.96].

Shuningdek, Ahmad Donish "Navodir ul vaqoe'" nomli asarida quyidagilarni yozadi: "Oilaviy baxt ko'proq xotinlarga bog'liq, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq hech bir ne'mat yo'qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo'lidadir"[5]. Bu jamiyatdagi xotin-qizlar masalalariga, ularni ijtimoiy himoya qilishga alohida e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz olimlari M.Bekmurodov, M.Ganiyeva, M.Nurmatova, T.Narbayeveva, N.Latipova, M.Gaffarova, G.O'rozaliyevlar o'zlarining tadqiqotlarida xotin-qizlar jamiyat hayotida munosib o'rin egallashi, xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi gender tengligini ta'minlash, ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish, xotin-qizlar ijtimoiy nufuzini oshirish hamda O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda innovatsion mexanizmlarni aniqlash kabi masalalar sotsiologik tahlil qilganlar [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishning sotsiologik asoslarni ochib beruvchi, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalarni ilmiy bilishning umumiy metodi bo'lgan dialektik metod ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi. Shuningdek, mavzuga tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, tizimli tahlil kabi xususiy-ilmiy metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot predmetni Sharq mamlakatlarida zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga doir konseptual, kognitiv, hamda gumanistik ta'limotlarining sotsiologik tahlili tashkil qiladi. Tarixiy metod tadqiq etilayotgan voqeaning yashash tarzini o'rganish usullarini, ichki rivojlanishning borishi to'g'risidagi qonuniyatlar ifodasi bo'lgan, xronologik uzviylikda bir-birini almashtirayotgan faktlar genezisini, hodisalar tarixini qayta tiklash yo'li bilan o'rganish usullarini o'zida ifoda etadi.

Tahlil va natijalar. Rehabilitatsiya – bu juda keng tushuncha bo'lib, u turli xil turlari va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ko'pincha rehabilitatsiya deganda insonning jismoniy holatiga qaratilgan tibbiy rehabilitatsiya tushuniladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti rehabilitatsiyani quyidagicha ta'riflaydi: rehabilitatsiya – bu "insonning funksional imkoniyatlarini tiklashga va sog'lig'ida muammolar bo'lgan odamlarning yashash sharoitlarini hisobga olgan holda nogironlik darajasini pasaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui"[7].

Rehabilitatsiyani tibbiy-pedagogik va psixologik-pedagogik uslublarining ma'lum tizimi deb hisoblansa, uning natijasida bola rivojlanish jarayonidagi qiyinchiliklarga, ijtimoiy muhitga, jamiyatga moslashishga, tengdoshlari bilan muloqot qilishga, mehnat qilishga, ijtimoiy hayotga o'zining psixologik, jismoniy layoqatlari doirasida ko'nika oladi va shu orqali o'zidagi kamchiliklarni yengib, o'matilgan normaga mos bo'la boshlaydi.

Rehabilitatsiya tushunchasiga berilgan JSST tomonidan qabul qilingan ta'rifni olsak, bu shunday tizimki, qaysiki unda subyektning (shaxsning) mehnatga layoqatini topishiga qaratilgan bir necha tadbirlar jamlanganligini ko'ramiz.

Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) rehabilitatsiyaga bergan ta'rifiga ko'ra rehabilitatsiya sog'liqni tiklashga qaratilgan tadbir. Shu tadbir natijasida shaxslar o'zlarining cheklangan psixologik yoki jismoniy imkoniyatlarini yengib o'tib, kasbiy, psixologik va jismoniy to'laqonli shaxsga aylanishlariga qaratilgan[8].

Rehabilitatsiya tushunchasi faqat nogironlarga taalluqli emas. Tibbiy rehabilitatsiyadan tashqari jismoniy, ijtimoiy, pedagogik, kasbiy rehabilitatsiya va boshqalar mavjud. V.Mamonova-Tomova inson rehabilitatsiyaga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan turli sabablarning 4 guruhini aniqladi. Bu sabablarga quyidagilar kiradi: tibbiy va biologik (irsiiy, tug'ma, individual hayot davrida paydo bo'lgan); ijtimoiy-iqtisodiy (urbanizatsiya, zamonaviy oila muammolari, bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etish qoidalarning yo'qligi, ommaviy axborot vositalarining ta'siri va boshqalar); psixologik (atrofdagi voqelikka munosabat, qobiliyatlarini shakllantirishning turli darajalari, temperament va xarakter); pedagogik (tizimli ta'limning mavjudligi yoki yo'qligi, rivojlanish uchun salbiy shartlar paydo bo'lishining oldini olish) [9]. Sababga qarab, rehabilitatsiyaning o'ziga xos turi ajratiladi.

Rossiya ijtimoiy ish ensiklopediyasida ijtimoiy rehabilitatsiya qanday ta'riflangan: ijtimoiy rehabilitatsiya "fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat, xususiy, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmui" degan ta'rif keltirilgan [10].

Ijtimoiy rehabilitatsiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardir: rehabilitatsiya xizmatlarini o'z vaqtida va bosqichma-bosqich amalga oshirish; rehabilitatsiya tadbirlarining izchilligi

va murakkabligi; rehabilitatsiyani amalga oshirishda izchillik va uzluksizlik; har bir mijozga individual yondashuv; barcha muhtojlar uchun ijtimoiy va rehabilitatsiya yordami mavjudligi.

Ijtimoiy rehabilitatsiyaning maqsadlari – shaxsning ijtimoiy mavqeyini tiklash, ijtimoiy voqelikka moslashish, ijtimoiy va moddiy farovonlikning ma'lum darajasiga erishish, shuningdek, moddiy va nomoddiy mustaqillikka erishish.

Ijtimoiy rehabilitatsiya bilan shug'ullanadigan mutaxassislarining asosiy vazifasi mijozning shaxs sifatidagi ijobiy o'zgarishlarini, shuningdek, mijozning muhitidagi ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashdir. Ijtimoiy rehabilitatsiya jarayonining yo'nalishlari: 1) Ijtimoiy-psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ta'lim muassasalarida, oilada, ishda homiylik, diagnostika va dolzarb muammolarni hal qilishda maslahat, tashkiliy, muvofiqlashtiruvchi va vositachilik xarakteridagi zarur yordamni ko'rsatish; 2) huquqlar va imtiyozlar, ularni amalga oshirish tartibi, ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarni amalga oshirishda yordam berish masalalari bo'yicha axborot berish va maslahat berish, shuningdek ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi muassasalar to'g'risida xabardor qilish; 3) Ijtimoiy va psixologik yordam va atrof-muhit bilan ishlash, oila va maishiy munosabatlarni psixokorreksiya qilish; 4) Hayotning turli sohalarida ehtiyoj va qiziqishlarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish — ishga joylashishda yordam berish, bo'sh vaqtni tashkil etish va boshqalar[11].

E.I.Xolostovanning so'zlariga ko'ra yagona ijtimoiy rehabilitatsiyaga faqat rehabilitatsiya sohalarida doirasidagi harakatlar kombinatsiyasi natijasida erishish mumkin: yo'qolgan ko'nikmalarni singdirish yoki tiklash, atrof-muhit terapiyasi, bandlik terapiyasi, yangi turmush sharoitlariga psixologik moslashish. E.I. Xolostovanning so'zlariga ko'ra, faqat ularni amalga oshirish jarayonida shaxsning ijtimoiy faoliyat qobiliyatini haqiqiy va to'liq tiklash mumkin[12].

Rehabilitatsiya bir-biriga bog'liq bo'lgan besh bosqichdan iborat. Birinchi bosqich diagnostik va prognostik deb ataladi va mijozning holatini tashxislash, individual rehabilitatsiya dasturini tuzishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich – optimal texnologiyalar, ish shakllari va usullarini ishlab chiqish bosqichi. Uchinchi bosqichda tanlangan ish usullarini amalga oshirish uchun bevosita tayyorgarlik ko'riladi. To'rtinchi bosqich – amalga oshirish va tuzatish va kompleks nazoratni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Beshinchi bosqichda – ekspert baholash – natijalarni tizimlashtirish, umumlashtirish va nazorat qilish.

Ijtimoiy maqomni tiklash ijtimoiy rehabilitatsiyaning ajralmas qismidir. Ijtimoiy rehabilitatsiyaning zaruriy sharti uning turli yo'nalishlaridan foydalanishning murakkabligi bo'lib, huquqbuzarliklarni bartaraf etish bilan birga insonning jamiyatga qaytishiga imkon beradi.

Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish davlat tashkilotlari, masalan, ayollar va bolalarga yordam ko'rsatish inqiroz markazlari (bo'limlari), sheltorlar, shuningdek, boshqa ijtimoiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari, masalan, kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari, oila va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bolalarga yordam markazlari, shuningdek, inqiroz markazlari funksiyalarini bajaradigan maxsus tashkil etilgan stasionar bo'limlar ham shular jumlasiga kiradi[13].

Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish natijasida ayolning qay darajada mustaqil hayot kechirishi, tajovuzkordan alohida yashashi, farzandlar tarbiyalashi mumkinligi aniqlanadi. Ideal holda, ayol tajovuzkor bilan aloqani butunlay uzadi, o'zaro bog'liqlikni rivojlantiradi va undan xalos bo'ladi. Ayol o'z huquqlarini tiklaydi, yana hujjatlarga, ish, uy-joyga ega bo'ladi, mustaqil yashaydi, yangi ijtimoiy aloqalar va aloqalarni o'rnatadi va quradi, nizolarni hal qilishning buzg'unchi usullaridan xalos bo'ladi, ijtimoiy jihatdan maqbul turmush tarzini olib boradi.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy rehabilitatsiya davlat, xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan shaxsning ijtimoiy faoliyatini tiklash, uni jamiyatga integratsiyalashuvi va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyidir. Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish ayollar uchun inqiroz markazlari, shuningdek, davlat va nodavlat ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va ayollarga inqirozli vaziyatlardan chiqishda yordam berishga qaratilgan.

Ijtimoiy rehabilitatsiya ijtimoiy, psixologik, huquqiy yordamni o'z ichiga oladi va uning asosiy maqsadi mijozning oldingi xulq-atvorini rad etish, jamiyatga qaytish va ijtimoiy mavqeyini tiklash, ma'lum darajadagi ijtimoiy va moddiy farovonlik, moddiy mustaqillik, yashash imkoniyati uchun ichki va tashqi resurslarni topish shuningdek, farovonlikka erishishdir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 26 февралдаги хотин-қизларнинг муаммоларини ҳал қилиш ва ularни ижтимоий қўллаб-қувватлаш масалалари муҳокамаси юзасидан селектордаги нутқи. «Халқ сўзи» газетаси, 2021 йил 27 февраль.
2. Ҳасанов С. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. – Т.: «Ўқитувчи», 1996. –304-б.
3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –224-б.
4. Фахр-ул Банот Сибгатуллоҳ кизи. Оила сабоқлари. – Т.: «Ёзувчи», 1992. –96-б.
5. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақоъ. – Душанбе: «Дониш», 1989. – Б.339.
6. Х.Зияева. Маиший зўравонликка учраган хотин-қизларни ижтимоий ҳимоялаш самарадорлигини яшириш механизмларини. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. Тошкени - 2021.- Б.7.
7. Реабилитация URL: <https://www.who.int/ru/news-room/factsheets/detail/rehabilitation>
8. http://goukkemk.ru/uploads/libray/ebooks/koshkald_a_osnovi_fizioterapii/rehabilitation.htm#p1
9. Гордеева, А. В. Реабилитационная педагогика / А.В. Гордеева. - Москва: Парадигма: Академический Проект, 2005. – 317 с.
10. Российская энциклопедия социальной работы / [Акимова Ю. А. и др.]; под общей редакцией Е. И. Холостовой. - 2-е издание. – М.: Дашков и К, 2017. – 1030 с
11. Справочник по медико-социальной экспертизе и реабилитации / [Р. М. Войтенко и др.]; Под. ред. М.В. Коробова, В.Г. Помникова. - СПб.: Гиппократ, 2003 (ГИПП Искусство России). – 798 с.
12. Холостова, Е. И. Социальная реабилитация : учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности "Соц. работа" / Е.И. Холостова, Н.Ф. Дементьева. - 3-е изд. - М.: Дашков и К, 2004. – 338 с
13. Об опыте работы организаций социального обслуживания субъектов Российской Федерации, предоставляющих социальные услуги гражданам, пострадавшим от семейного насилия, в том числе кризисных центров женщинам, и некоммерческих организаций, реализующих эффективные модели профилактики насилия в семье. URL: <https://мвд.рф/document/20344526>
14. Гордеева, А. В. Реабилитационная педагогика / А.В. Гордеева. - Москва: Парадигма: Академический Проект, 2005. – 317 с.
15. Ковкова Т.Г. Технологии социальной работы с женщинами, подвергшимися насилию в семье / Т.Г. Ковкова, И.А. Гизатова. — Текст : непосредственный // Педагогическое мастерство : материалы II Междунар. науч. конф. (г. Москва, декабрь 2012 г.). Москва: Буки-Веди, 2012. URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/65/3178/> (дата обращения: 25.05.2022).



Mashxura ISABAYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dosenti
Xilola DILMURODOVA,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: otajonovasarvigul@mail.com

Qo‘qon DPI dotsenti, PhD X.Abdinazarov taqrizi asosida

OPPORTUNITIES TO DEVELOP VALEOLOGICAL COMPETENCE OF THE FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHER

Annotation

This article emphasizes the importance of valeological skills of a future physical education teacher, the functions of their application, as well as modern pedagogical possibilities of biology teaching methods. Innovative teaching activities aim to increase biological knowledge and exchange of ideas. When preparing future biology teachers for professional teaching activities, the development of sanogenic thinking related to ensuring the health and well-being of young people, valeological skills in the content of biological education is recognized as the main factor ensuring sustainable development in them.

Key words: Valeological competence, didactic foundations, forms of education, professional pedagogical activity, pedagogical opportunities.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ВАЛЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ФИЗКУЛЬТУРЫ

Аннотация

В данной статье подчеркивается значение валеологических умений будущего учителя физкультуры, функции их применения, а также современные педагогические возможности методики преподавания биологии. Инновационная деятельность преподавания направлена на повышение биологических знаний и обмен идеями. При подготовке будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности развитие саногенного мышления, связанного с обеспечением здоровья и благополучия молодежи, валеологических умений в содержании биологического образования признается главным фактором, обеспечивающим устойчивое развитие в их.

Ключевые слова: Валеологическая компетентность, дидактические основы, формы обучения, профессиональная педагогическая деятельность, педагогические возможности.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISINI VALEOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining valeologik ko‘nikmlarini ahamiyati, qo‘llash funksiyalari va biologiya o‘qitish metodikasini zamonaviy pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan. O‘qitishning innovatsion faoliyatida biologik bilimlarni oshirish, o‘zaro fikr almashishga qaratilgan. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda yoshlar salomatligi va farovonligini ta‘minlashga oid sanogen tafakkurni rivojlantirish, ularda biologik ta‘lim mazmunida valeologik ko‘nikmalarni barqaror taraqqiyotni ta‘minlaydigan asosiy omil sifatida e‘tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: Valeologik kompetentlik, didaktik asoslari, o‘qitish shakllari, kasbiy pedagogik faoliyat, pedagogik imkoniyatlari.

Kirish. Respublikamizni Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak kadrlarni tayyorlash borasida olib borilayotgan islohotlar zahirida ma‘navan etuk, aqlan va jismonan sog‘lom yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ustivor masalalardan sanalmoqda. Oliy ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “ta‘lim – tarbiya berishda innovation va integratsion yondashuvga asoslanib didaktik materiallar va multimedial mahsulotlarini yangi avlodlarini yaratish, sog‘lom raqobatbardosh kadrlar taryyorlash tamoyillarini ommalashtirish”[7] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarga asoslanib, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarda valeologik kompetentlikni takomillashtirishning innovation texnologiyalarini didaktik mazmunida o‘quvchilarni addiktiv xulqdan himoyalashga va o‘z hayotiy faoliyatini to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatish, ularda gigienik, ekologik, jinsiy, jismoniy va axloqiy madaniyatni rivojlantirish kabi chora tadbirlarini ishlab chiqish ijtimoiy vazifalardan sanalib, bu valeologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik mazmunini aniqlash, jismoniy tarbiyani

o‘qitish mazmunida talabalarni o‘z hayotiy faoliyatini to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatish orqali sog‘lom tafakkurini rivojlantirishga asos bo‘luvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishga asoslangan metodik tizimni uzviylik va izchillikda boshqarish imkoniyatini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarixiy manbalardan e‘tirof etish joizki, O‘rta Osiyoda yashab ijod etgan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Jurjoni, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlarimizning asarlarida insonning axloqiy fazilatlarini yuksaltirish, salomatlikni saqlashga undovchi g‘oyalar ilgari surilgan bo‘lib, tabiatni sevish va uni muhofaza qilish, tashqi muhitning tirik organizmlarga ta‘siri va ular borasida yosh avlodga muayyan bilimlarni berishga xizmat qiladigan ilmiy-ma‘naviy meroslari biz uchun muhim ahamiyatga ega. Mavjud manbalarning mazmuni va mohiyatini o‘rganish jamiyatimizning ilk davridayoq inson turmush tarzini yaxshilash, aholi o‘rtasida valeologik ko‘nikmalarni qaror toptiruvchi mezonlarni yaratishga

nisbatan ijtimoiy amaliy harakatlar olib borilganini asoslaydi [2]. Yoshlarda ma'naviy madaniyatini shakllantirish, milliy istiqlol g'oyasi asosida komil insonni tarbiyalash, ularni sog'lom turmush tarzi asosida mustaqil oilaga tayyorlash, sog'lom e'tiqodni va milliy immunitetni shakllantirish kabi masalalar M.Inamova, N.D.Ishniyozova, O.Musurmonova, I.M.Mirziyotov, M.Quronov, B.Ziyamuhmedov, G.U.Salixova, O.Fayziev, D.Sharipova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida valeologik tushunchalar, o'smir qiz va o'g'il bolalarning shaxsiy gigienasining tashkil etishning ilmiy pedagogik jihatlari N.P.Abaskalova, Yu.K.Babanskiy, L.N.Bashmakova, I.I.Brexman, N.M.Verzilin, E.I.Guseva, F.Georgievskiy, P.L.Dribinskiy, S.A.Drujilov, M.P.Doroshkevich, A.E.Zavyalov, A.D.Karabasheva, S.A.Lyadova, I.YA.Lerner, A.I.Martimenko, B.M.SHapirolar ishida o'z aksini topgan.

Talabalarda valeologik ko'nikmalarini shakllantirishda ekologik bilimlarni tarkib toptirish muhim o'ringa ega bo'lib, ushbu muammolarga bag'ishlangan qator tadqiqot ishlari vujudga keldi. Maktab o'quvchilarida ekologik taffakkurni shakllantirish metodikasining X.A.Raxmatova, A.S.To'xtaev, A.Hamidov, X.B.Norbo'taev ekologik noqulay mintaqalardagi maktab o'quvchilarining sog'ligini saqlashga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini tadqiq etganligi, X.O.SHayxovanning ilmiy tadqiqot ishlari sog'lom turmush tarzi yaratishning axloqiy jihatlari tadqiq etilishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonda ekologik ruhda tarbiyalashning samarali shakl, uslub va vositalarini M.B.Raximqulova tomonidan tadqiq etilishi [7], I.Xakimov sog'lom avlod kamolotida sog'lom muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy pedagogik tahlil qilinganligi, SH.B.Irgashev, L.A.Tursunxo'jaeva, SH.Qurbonovlar sog'lom turmush tarzini tashkil etishda jismoniy faollik, mehnat va dam olishni mo'tadil darajada bo'lishi, me'yoriy ovqatlanish, hamda ekologik sharoitlar ta'sirini salomatlikka bevosita ta'sirini ilmiy jihatdan yoritilishi bizning tadqiqot ishimizda muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon miqyosida ta'lim-tarbiya sifati va jismoniy tarbiyani va sport sohasini innovasion texnologiyalarni joriy qilish yuqori natijalarga erishishda ustuvor muammolardan biri hisoblanmoqda. Respublikamizning Oliy ta'lim muassalarida sog'lom turmush tarzi mazmunini o'zlashtirish imkonini beruvchi ilmiy yondashuvlar, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash ta'lim texnologiyalari asosida o'qitilishi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining valeologik kompetentligini (sog'lom turmush tarzi) rivojlantirish muammosi ilmiy pedagogik, psixologik, tibbiyot va biologiya ta'lim mazmunida innovasion yondashuvlar asosida tadqiq qilingan bo'lib, mazkur tadqiqot faoliyatida metodik manba bo'lib xizmat qiladi. Valeologik kompetentlik (sog'lom turmush tarzi) sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishda pedagogik uddaburonlik, innovasion faoliyat va ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishga bo'lgan layoqatiga ega bo'lishni talab etiladi.

Pedagogika Oliy ta'lim muassalarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasbiy o'quv bilish faoliyatni rivojlantirish, ta'lim mazmuni va tuzilmasi, zamonaviy yondashuvlar asosida valeologik kompetentlikka (sog'lom turmush tarzi) oid ta'lim mazmunini yangilash imkoniyatlari bilan tanishtiradi. Mazur jarayon fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv, jarayonlar, o'qitishning pedagogik tamoyillar va qonuniyatlarni bilish, talabalarda jismoniy tarbiya kursi mazmunida valeologiyaga oid tushunchalar bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish

imkonini beradi. Ushbu imkoniyat valeologik (sog'lom turmush tarzi) kompetentlikni tarkib toptirishning didaktik asoslarini quyidagicha belgilash maqsadga muvofiqdir.

1. Jismoniy tarbiyaga oid nazariy amaliy mashg'ulotlar mazmunida milliy qadriyatlarga asoslangan sport o'yinlari, milliy kurash, ekologik, gigienik tarbiyaga oid valeologik ta'limni tarkib toptirishning metodik asoslaridan foydalanish.

2. Jismoniy tarbiyaga oid nazariy bilimlarni tiklash – biologik ta'lim mazmunida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar orqali valeologik bilimlarni tiklash, tahliliy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida bilimlarni yangilash – sog'lom turmush tarzi yuzasidan avval o'zlashtirgan bilimlarini kengaytirish, aniq dalillar asosida rivojlantirish.

4. Jismoniy tarbiya mazmunidagi nazariy bilimlarni korreksiylash – valeologiya yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini tahlil qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etib borish.

5. Valeologik bilimlarga amal qilish – sog'lom turmush tarzi yuzasidan olgan bilimlariga turmush tarzi davomida amal qilish orqali shaxsiy e'tiqodga aylantirish.

Valeologiyaning asosiy tushunchalariga valeologik ta'lim, valeologik o'qitish, valeologik (tarbiya, valeologik bilim, valeologik madaniyat kiradi. Valeologik ma'lumot deganda, ilmiy-amaliy bilim va ko'nikmalar, xulq-atvor va faoliyat tizimlarini shakllantirish, o'z salomatligi va atrofdegilar salomatligiga qadriyatli munosabatni ta'minlash bo'yicha sog'lom avlodni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning uzluksiz jarayoni tushuniladi [6]. Bo'lajak o'qituvchini sog'lom turmush tarzi omillarini fan mazmunida tahlil qilishi, o'quv mashg'ulotlarida motivasion muhitni shakllantirish kabi kasbiy faol iylatlarni rivojlantirish salomatlikni saqlashga taalluqli bilimlar bilan qurollantiriladi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz va xorijdagi ilmiy tadqiqotlar va ilmiy – metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. L.N.Bashmakova, B.M.SHapiro, G.U.Kurmanovalarning tadqiqot ishlari sog'lom turmush tarzi insonning ruhiy, jismoniy jihatdan salomatligini ta'minlovchi omil sifatida organizmning faol yashashida turli xil kasalliklardan himoya etish yo'llarini yoritib berilishi muhim ahamiyatga ega [4]. D.J.SHaripovanning tadqiqotlarida, o'quvchilarning valeologiya asoslari, gigienik tarbiyalash asosida sog'lom turmush tarzini tashkil etish muammolari yoritilgan bo'lib, gigienik tarbiyani tashkil etish yo'lidagi izlanishlar mohiyatining ochib berilishi, shuningdek gigienik tarbiyani yaxlit tizim tarzida tashkil etish borasidagi tajriba mazmunining ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratilgan [6]. Zero, bu tarzidagi yondashuv tadqiqot ishinin mohiyati to'g'risida aniq tassavur hosil bo'lishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot ishimiz rivojida jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda valeologik kompetentligini rivojlantirishning kompetentlik mazmunini aniqlashtirish, innovasion texnologiyalar asosida o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish, hamda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib topganlik darajasini aniqlashda talabalarni kreativ faoliyatni aniqlovchi didaktik topshiriqlar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir [3]. Mazkur didaktik topshiriqlardan unumli foydalanish vitagen, refleksiv, salomatlikni saqlash va sanogen tafakkurni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarida samarali natija berishi kuzatiladi. Tadqiqot rivojida innovasion texnologiyalarning didaktik maqsadini aniqlash va darsning tuzilmaviy loyihasi ishlab chiqishda valeologik bilimlarni mazmunan tanlay olish va jarayonga tadqiq etishning metod, vosita va texnologiyalaridan

samarali foydalanish orqali jamiyatimizning yuksak ma'naviyatli, bilimli va salohiyatli, barkamol shaxsga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari aniqlandi [5].

Xulosa va takliflar. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida valeologik kompetentlikni takomillash-tirishning didaktik asoslari ta'lim-tarbiya uzviyligida namoyon bo'lib, tadqiq qilinadigan ishining asosini tashkil etadi. Talabalarda

valeologik kompetentlikni vitagen, refleksiv, salomatlikni saqlash va sanogen tafakkurni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish, ularda valeologik kompetentlikni didaktik funksiyalari – bilimlarni yangilash, bilimlarni korreksiyalash, bilimlarga amal qilish, bashorat qilish, vitagen, refleksiv, salomatlikni saqlash va sanogen tafakkurni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Isabayeva M.M.. O'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish tizimi (5-9sinflar misolida). – 2020y.
2. N.I. Taylaqov, M.M. Isabayeva, Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. III tom. Monografiya / N.I. Taylakov va boshqalar. – Toshkent: "Ta'lim" nashriyoti, 2019 yil. 320 b.
3. Shapiro B.M., Bashmakova L.N., Kurmanova G.U.Zdarovi obraz jizni. Almati.: – 2003. – 240 s.
4. Sharipova D.J. Maktab o'quvchilarining gigienik ta'lim - tarbiyasi. – Toshkent: – Medisina. 2004. – 24b.
5. Sharipova D.J. Valeologiya asoslari. «Musiq» nashriyoti. Toshkent. – 2010. -116b.
6. Shayxova X.O., Tillaeva G.H. Sog'lom turmush tarzi va yoshlar kamoloti. -T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti. 2007. – 77 b.
7. "Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сонли Қарори. Қонун ҳужжатлар маълумотлар базаси.<http://lex.uz/docs/4312785>.



УДК: 1(091)122.123)

Дилбар ИСАЕВА,

Доктор философии (PhD) по философским наукам, доц. Бухарского ИТИ

E-mail: dilbar.isaeva@list.ru

Бухарский инженерно-технологический институт доцент, кандидат философских наук по отзыву Э.Зойирова

РОЛЬ МЕДИА В ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация

В данной статье рассмотрены следующие фундаментальные и взаимосвязанные положения: 1) культура, повседневная жизнь, люди материально и концептуально отличны от технологий и, следовательно, наблюдаются абсолютные различия между субъектом и объектом; 2) технологии формируются социально, но общество не формируется технологически; 3) человеческая деятельность является единственной движущей силой или средством в повседневной жизни и культуре.

Ключевые слова: Медиа, киберпространство, интернет-коммуникации, «мобильная приватизация», киберкультура, кибернавт, медиакультура, общество потребления, медиатехнология, домашняя среда.

OAV LARNING KUNDALIK HAYOTDAGI O‘RNI

Аннотация

Ushbu maqolada quyidagi asosiy va o‘zaro bog‘liq qoidalar muhokama qilinadi: 1) madaniyat, kundalik hayot, odamlar moddiy va konseptual jihatdan texnologiyadan farq qiladi va shuning uchun subyekt va obyekt o‘rtasida mutlaq farqlar mavjud; 2) texnologiyalar ijtimoiy jihatdan shakllanadi, lekin jamiyat texnologik jihatdan shakllanmaydi; 3) inson faoliyati kundalik hayot va madaniyatdagi yagona harakatlantiruvchi kuch yoki vositadir.

Kalit so‘zlar: Ommaviy axborot vositalari, kibermakon, internet aloqasi, "mobil xususiy lashtirish", kibermadaniyat, kibernavt, media madaniyat, iste‘molchilar jamiyati, media texnologiya, uy muhiti.

ROLE OF MEDIA IN DAILY LIFE

Annotation

This article discusses the following fundamental and interrelated provisions: 1) culture, everyday life, people are materially and conceptually different from technology and, therefore, there are absolute differences between the subject and the object; 2) technologies are formed socially, but society is not formed technologically; 3) human activity is the only driving force or means in everyday life and culture.

Key words: Media, cyberspace, Internet communications, "mobile privatization", cyberculture, cybernaut, media culture, consumer society, media technology, home environment

Введение. От часов до телеграфа, радио и телевидения новые медиа всегда влетались в повседневную жизнь, вмешиваясь в существующие модели пространственно-временной организации, порождая новые ритмы и пространства. Миграция компьютерных технологий из промышленности и исследовательских лабораторий в дом за последние тридцать лет или около того усилила эти процессы. Повседневная жизнь является одним из центральных понятий в философском подходе к технологиям. Она изучается и теоретизируется как:

- рынок, для которого компании разрабатывают потребительское оборудование и программное обеспечение;
- сайт практик и отношений, в которых смысл состоит из новых медиа;
- фокус взаимосвязанного набора конвергенций потребительских, медиа, образовательных и развлекательных технологий и рынков;
- социальные условия, которые в большей или меньшей степени трансформируются в результате использования и потребления новых медиа;-
- отсутствующий или недооцененный термин в утопических представлениях о новых знаниях и меняющихся идентичностях в киберпространстве-как отчуждение и рутина по отношению к связности и

творчеству, появляющимся в средствах интернет-коммуникаций.

• место потребления опосредованной поп-культуры, не в последнюю очередь изображений и драм из комиксов, телевидения и видео, составляющих коммерческое технологическое воображаемое.

Методология исследования. С точки зрения социальной философии «новизна» любого нового средства всегда сдерживается долговечностью экономических и социальных условий, в которых оно возникает, а также бытовым и культурным контекстом-от архитектуры и планировки дома до отношений, стабильность ядерной семьи, в которую он встроен. В своем исследовании старого средства массовой информации, которое когда-то было новым, Рэймонд Уильямс[1,2] утверждает, что появление телевидения в качестве популярного средства массовой информации было связано с историческими и культурными процессами, зародившимися во время промышленной революции. Его понятие «мобильной приватизации» подчеркивает, например, комплекс событий, связывающих приватизацию и одомашнивание экранных медиа с узурпацией кино телевидения, а также новые возможности мобильности семьи, предоставляемые такими технологиями, как автомобиль.

В социальном плане этот комплекс характеризуется двумя внешне парадоксальными, но глубоко

связанными тенденциями современной городской жизни: с одной стороны, мобильность, с другой стороны, более самодостаточный семейный дом. На смену более раннему периоду общественной технологии, лучше всего иллюстрируемой железными дорогами и городским освещением, пришла технология, для которой еще не найдено удовлетворительного названия: технология, которая служила одновременно мобильному и домашнему образу жизни-форма мобильной приватизации. Вещание в его прикладной форме было социальным продуктом этой самобытной тенденции.

Сосредоточение философии на повседневной жизни на первый взгляд может показаться бесполезным при изучении новых медиа и киберкультуры. Первый подразумевает обыденное и повседневное, рутинное и обыденное-все черты повседневного существования, из которых последние, как в своих вымышленных, так и в реальных формах, обещают трансформироваться. И прославление, и критика киберпространства имеют тенденцию постулировать его обособленность, его глубокую непохожесть на повседневную жизнь, воплощение, субъективность. Для Майкла Хейма «киберпространство-это платонизм как рабочая концепция», и «кибернавт, сидящий перед нами, привязанный к устройствам сенсорного ввода, кажется и действительно потерянным для этого мира». Подвешенный в компьютерном пространстве, кибернавт покидает тюрьму тела и выходит в мир цифровых ощущений» [3].

Интенсивное волнение, вызванное новыми формами медиа, такими как всемирная паутина и виртуальная реальность, в конце 1980-х и начале 1990-х годов пошло на убыль, поскольку такие медиа стали частью общеизвестного медиа-мира. Однако представление о «киберпространстве» как об отдельном, осваиваемом (или чаще угрожающем) царстве в рамках повседневной медиаккультуры, но отличным от нее, сохраняется. Журналисты регулярно подтверждают обособленность интернет-СМИ, таких как чаты и сайты социальных сетей, в статьях о зловещих последствиях для детей и молодежи. Здесь киберпространство является либо отчуждающим, антисоциальным отвлечением от более аутентичных социальной и коммуникативной деятельности или опасным царством, преследуемым хищниками. Производители и поставщики услуг для новых (или недавно модернизированных) цифровых коммуникационных средств также призывают к трансформации повседневной рутины и домашнего пространства посредством столкновения реального и виртуального пространства, хотя и с восторженным тоном.

Концепция потребления занимает центральное место в подходе исследований культуры и медиа к технологиям в повседневной жизни. Это спорный термин: по-разному рассматривается как основная культурная практика в пассивном, жадном обществе потребления; или как потенциально богатый и творческий способ осмысления индивидуальной идентичности в сложном мире. Производители пытаются ограничить использование и значение своих продуктов, потребители договариваются об этих предполагаемых значениях более или менее в соответствии с желаниями производителей, а ученые-культурологи пытаются определить творческие или прогрессивные тенденции в переговорах с потребителями.

Акцент на «смыслах», а не, скажем, на «использовании» медиатехнологий здесь имеет большое значение. Он обращает наше внимание на культурную природу технологий, например на то, как приобретение новейшего мобильного телефона может быть обусловлено

скорее стремлением его владельца к статусу, чем его функциональностью. Производители и рекламодатели действуют в соответствии с давно установившейся динамикой дифференциации по существу схожих продуктов путем создания образов и идентичности брендов. В этом отношении телефон такой же, как и любой другой товар. Однако понятие «смысл» никоим образом не исчерпывает социальное функционирование и распространение медиатехнологий, более того, концентрация только на их дискурсивном конструировании умаляет их материальную природу как технологий в реально живущие моменты принятия и использования.

Анализ и результаты. Изучая повседневное использование популярных новых медиа и играя с ними, становится ясно, что эти новые технологии не означают конец повседневной жизни и отношений; реальность мира не осталась позади для мигающих огней, геометрии и бестелесности вымышленного киберпространства. Вместо этого мы видим гораздо более сложную и интересную картину. Связи-векторы интернета, динамические пространства видеоигр, «технологическое воображаемое» - из всего этого переплетаются, вписываются в архитектуру дома, движение в городской среде, установившиеся закономерности пола, семейной и общественной жизни. Прорезая или открывая повседневные реальности, мерцающая между технологиями и медиа, киберпространство и повседневное пространство переплетаются и взаимопроникают друг в друга.

В этой статье использованы теоретические и эмпирические подходы к изучению повседневной жизни и общества из гуманитарных и социальных наук, а также философских и медийных исследований в частности. Однако на протяжении всего времени стало ясно, что ключевые гуманистические принципы этих интеллектуальных структур находятся ограничены и не учитывают полностью конкретные вопросы, поднятые цифровыми медиа технологиями и они неадекватно описывают текстуру и схемы повседневной цифровой культуры.

Развитие и модернизация компьютерных и информационных технологий, телекоммуникационных сетей и сетей передачи данных, интернет-услуг в нашей стране является одним из важных и основных направлений. В этом направлении ведутся масштабные работы по доведению их до мировых стандартов. Для достижения этих целей и результатов и регулирования общественных отношений в связи с этим в нашей республике создана необходимая нормативно-правовая база, в том числе Законы Республики Узбекистан «О связи», «О радиочастотном спектре», «О почтовой связи», «О связи», Законы «Об информации», «Об электронной цифровой подписи», «Об электронном документообороте», «Электронной коммерции», «Электронном правительстве», а также ряд постановлений и постановлений правительства Президентом Республики Узбекистан. Также в условиях активно развивающихся рыночных отношений происходит дальнейшее совершенствование данной нормативно-правовой базы. [4].

В наше время услуги социальных сетей интернет-системы приобретают широкую популярность. Цель социальной сети-общение с людьми, у которых есть общие интересы или деятельность в Интернете. Связь осуществляется через внутреннюю почту или систему обмена сообщениями.

Но, как и во всем хорошем и плохом, наряду с этими удобствами, помимо эффективных и целеустремленных пользователей Интернета, также

увеличивается количество пользователей различных развлекательных и порносайтов. Можно сказать, что основная причина этого в том, что навыки и культура интернет-пользователей, особенно учащейся молодежи, еще не полностью сформированы.

Сегодня создание и развитие национальных информационных ресурсов по направлениям сильных идейных, духовно-просветительских, научных, художественных, спортивных, военно-патриотических, народных игр, которые пропагандируют нашу национальную идеологию, представляют нашу идентичность, служат гарантией нашей прогресс, развитие и мир.

С теоретической точки зрения отношения между публицистом и аудиторией являются одним из основных направлений в его деятельности. Эти отношения также регулируются международными и ведомственными кодексами. Общая цель может быть достигнута путем соединения ведомственных интересов с интересами юстиции. В процессе связей с общественностью важно, чтобы как министерство, так и другие организации распространяли информацию через информационную службу с целью повышения эффективности своей деятельности. Эта информация предоставлена намеренно. Следует сказать, что информационная служба выполняет ряд задач.

Деятельность информационных служб имеет свои правила. Каждая информационная служба работает по трем основным направлениям: сотрудничество со СМИ, специальные мероприятия и наружная реклама. Работая вместе со СМИ, информационная служба составляет две трети всей деятельности.

Статья 5 Закона Республики Узбекистан «О средствах массовой информации» (новая редакция) озаглавлена «Свобода средств массовой информации», а ее второй абзац гласит, что «любое лицо, если иное не установлено законом, может выступать в средствах массовой информации», имеет право публично выражать свое мнение и убеждения»[5].

Данное положение свидетельствует о том, что принцип демократичности и открытости внедряется в Узбекистане с первых лет независимости.

В целях развития отношений с общественностью информационной службе необходимо выполнять следующие задачи:

- работник информационной службы в процессе связей с общественностью должен узнавать достоверность и достоверность каждого факта;

- основной целью связей с общественностью являются общественные интересы, а не ведомственные интересы. Пиарщики выпадут из поля зрения, если будут работать только в интересах офиса. Тогда общественность никогда их не поддержит, не будет интересоваться их деятельностью и не будет с ними контактировать;

- общественные интересы должны учитываться в первую очередь. Но даже в этом случае этот офис не сможет полностью достичь своей цели. Потому что

общественность слышит, принимает и действует в рамках этой информации;

- организация, устанавливающая связи с общественностью, должна работать таким образом, чтобы ее программы вызвали большой интерес у общественности. Информационная служба должна быть в состоянии показать это общественности. То есть общественность обращает внимание на эту организацию только в том случае, если она заинтересована в ее деятельности. В противном случае общественность пройдет мимо, не имея достаточной информации или знаний об этом;

- работники информационной службы в ходе своей деятельности обращаются к средствам массовой информации. Они не должны лгать СМИ. Если он солжет радио, телевидению или газете, он совершит большую ошибку, потому что будет очень страдать.

В исторических источниках часто встречается, что вопрос о расчете с общественным мнением уже много лет является причиной различных споров. Эту идею выдвинул еще Сократ, живший до Христа и призывавший своих учеников к познанию истины. Он сказал, что познать и понять истину можно через споры, через разговор, и что в разговоре необходимо сосредоточиться на анализе человеческого разума и мышления. В свое время этот метод назывался «методом Сократа» [6].

Это также отражено в ряде пословиц. Много идей выходит из многого, свадьба с советами не распространяется, семь мер один человек, поговорка отцов-как око ума, смысл обмена информацией, консультации, размышления воплощены в пословицах.

Заключение и рекомендации. С этой точки зрения роль информационной службы в развитии связей с общественностью очень велика и важна. Причина в том, что информационная служба является самым быстрым и нужным источником информации для журналистов. Информационной службе необходимо регулярно организовывать поток информации организацией. Для этого сотруднику информационной службы необходимо быть и создателем, и организатором. Любой журналист может столкнуться с определенными трудностями при получении информации от какого-либо министерства или организации. То есть при написании названий терминов, словосочетаний и документов, относящихся к этому полю, иногда путают. В это время информационная служба этой организации оказывает непосредственную помощь журналистам. При написании о конференции работник СМИ должен обращаться в информационную службу, чтобы соответствующие факты и цифры и другая информация не vyšли неверными.

В заключение главы можно сказать, что важность связей с общественностью и важность правовых аспектов системы образования в связях с общественностью на основе прозрачности также служат расширению освещения системы образования в средствах массовой информации. Это создаст основу для дальнейшего совершенствования связей с общественностью системы образования.

ЛИТЕРАТУРА

1. Williams, Raymond Television: technology and cultural form (2nd ed.), London: Routledge, 1990a [1975].
2. Williams, Raymond Problems in Materialism and Culture, London: Verso, 1990b.
3. Heim, M. (1993). The Metaphysics of Virtual Reality. Oxford: Oxford University Press.
4. Вестник Верховного Совета Республики Узбекистан 1992. № 3, 159-м.; Вестник Олий Мажлиса Республики Узбекистан 1999. №1. 16-й м.; Вестник палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан 2009. № 4. 138-м.;
5. Закон Республики Узбекистан «О средствах массовой информации» (новая редакция). //Сборник нормативных правовых документов по информации и информатизации. - Т.: Министерство юстиции Республики Узбекистан, 2008. - Б. 62-78.
6. История педагогики. А. Зуннунов, М. Хайруллаев и другие. -Т.: Шарк, 2000, -Б. 175.



UDK:54(075.8)

Saidjon ISMAILOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD

Pedagogika fanlar doktori, professor G.Ergasheva taqrizi asosida

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA KIMYO FANLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Аннотация

Maqolada oliy ta'lim muassasa talabalariga kimyo fanini o'qitishda axborot texnologiyalarni joriy etish va ularni natijalari ifodalangan. Talabalarga tajribalarni axborot texnologiyalar yordamida bajarish orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish va ularda tadqiqotchilik, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: OTM, klaster, keys, Oprosnik-2, MDH, induktiv metod, deduktiv, tahlil metod.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В статье представлен обзор внедрения информационных технологий и их результатов в преподавании химии студентам высших учебных заведений. Студентам объясняется формирование предметных компетенций путем проведения экспериментов с использованием информационных технологий и формирование у них исследовательских, профессиональных компетенций.

Ключевые слова: OTM, кластер, кейс, опросник-2, СНГ, индуктивный метод, дедуктивный метод, метод анализа.

DIDACTIC FOUNDATIONS OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING CHEMISTRY IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

The article presents an overview of the introduction of information technologies and their results in teaching chemistry to students of higher educational institutions. Students are explained the formation of subject competencies by conducting experiments using information technology and the formation of their research, professional competencies.

Keywords: OTM, cluster, case, questionnaire-2, CIS, inductive method, deductive method, analysis method.

Kirish. OTM talabalarining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishini chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. OTMlarda talabalar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur, mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida kimyoni o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish bo'yicha metodist-olimlar va kimyo fani o'qituvchilari tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish borasida muayyan ishlar olib borilayotganligini aniqlandi.

Talabalarda kimyo fanini o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili.

T.A. Borovskix tomonidan "Интегральная технология в обучении химии" maqolasida kimyoni o'qitishda integrallashgan ta'lim texnologiyasidan foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolaning mohiyati kimyoni o'qitishda talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda foydalaniladigan o'quv topshiriqlari uch: minimal, umumiy va nostandart darajada bo'lishi, mazkur darslarda talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini tizimlash maqsadida lokal darajadagi Klaster texnologiyasidan foydalanish, shuningdek, kimyoni o'qitishda seminar, seminar-amaliy darslardan foydalanish, mazkur darslarda talabalar zimmasiga muayyan vazifalarni yuklash orqali ta'lim samaradorligini orttirish yuzasidan fikr yuritilgan. Shuningdek, kimyoni o'qitishda talabalarining individual xususiyatlari: fikr yuritish turi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, o'quv motivlarini hisobga olgan holda

integrallashgan texnologiyalardan foydalanish talabalarining mustaqil bilim olish qayd etilgan.

"Химия в школе" jurnalining 2010 yil 4-sonida M.V.Lapenok tomonidan "О развитии познавательного интереса учащихся" maqola chop etilgan bo'lib, unda kimyoni o'qitishda talabalarining o'quv fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish omillari haqida fikr yuritilgan. Mazkur maqolada talabalarining o'quv fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish uchun o'qituvchi: o'quv materialining ilmiyligi va yangiligi, nazariy masalalarni maqsadga muvofiq yoritilishi, nazariy masalalarni o'rganishdan avval muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, nazariy masalalarni yoritish imkonini beradigan ko'rgazma vositalaridan foydalanish asoslab berilgan. Shu bilan birga kimyoviy dalillarni kutilmagan holda bayon etish, avval o'rganilgan dalillar bilan o'rganilayotgan dalillar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni amalga oshirish, nazariya va amaliyot birligiga amal qilish, o'rganilayotgan muammoning amaliy ahamiyatini yoritib berilgan [1].

A.Y.Pavlisheva kimyo darslarida klasterdan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan bo'lib, unda talabalarining kimyodan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini umumlashtirish, tizimlashda Klasterdan foydalanish muhim o'rin tutishi qayd etilgan. Muallifning fikricha Klaster o'quv materialining grafik tarzda ifodalanishi bo'lib, tushuncha va atamalar o'rtasidagi uzviylikni anglash imkonini beradi [2].

Kimyoni o'qitishda Keys texnologiyalari muhim o'rin tutadi, shu sababli ushbu muammo YE.I. Belyayevaning kimyo darslarida keys texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar "Химия в школе" jurnalining

2010 yil 6-sonida chop etilgan. Kimyoni o'qitishda Keys texnologiyasidan foydalanish uchun o'qituvchi: o'rganiladigan mavzu bo'yicha o'quv topshiriqlarini tuzishi va har bir talabaga yetarli nusxada ko'paytirishi, o'rganiladigan mavzuni rejali va izchillikda ishlab chiqish, yangi mavzuni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtiradigan qismi uchun topshiriqlar tuzishi, o'rganilgan mavzuni umumlashtirishi, talabalar bilimidagi kamchiliklarni aniqlashi va ularga barham berishi, erishilgan natijani tahlil qilishi zarurligi ko'rsatilgan [4].

Tadqiqot davomida mazkur maqolalardan ijodiy foydalanildi.

Jahonda kimyo fanini o'qitishni nanotexnologiya, axborot texnologiya va pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni takomillashtirish bo'yicha ko'pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan, jumladan, Checchetti Andrea Istituto d'Istruzione Superiore "Leonardo da Vinci" San Giovanni in Fiore (Cs) (ITALY), Savchenko L.A. Krivoy Rog state pedagogical University, Kazakh National Technical University named after K.I. Satpayev va boshqalarni keltirish mumkin.

Checchetti Andrea Istituto d'Istruzione Superiore "Leonardo da Vinci" San Giovanni in Fiore (Cs), ITALY. Savchenko L.A. Italiya maktablarida o'qitish davomida axborot texnologiyalaridan foydalanish, zamonaviy laboratoriya xonalarida zamonaviy asbob-uskunalaridan foydalanish, tanaffus vaqtida ham talabalarni o'qitish metodikasi yaratilganligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Rossiya hamda O'zbekistonda ta'lim samaradiligini yaxshilashda axborot texnologiya va pedagogik texnologiyalar asosidagi ilmiy tadqiqot ishlari A.Rodionov, R.A.Bezrukov, N.P.Bezrukova, A.A.Jurin, YE.O.Yemelyanova, YE.Y.Zashivalova, A.A.Siromatnikov, V.N.Lixachev, A.A.Podgornova, A.S.Artemeva, O.YE.Gobunova, N.S.Mixaylova, E.U.Eshchanov, F.A.Alimova, L.T.Zaylobov, N.A.Anvarovlar tomonidan olib borilgan.

A. Rodionov tadqiqotlarida kimyoni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan. R.A. Bezrukov tadqiqotlarida kompyuterning "Oprosnik-2" dasturi yordamida talabalar kimyodan o'zlashtirgan bilimlarini testlar vositasida baholash nazarda tutilgan.

N.P. Bezrukova tadqiqotlarida kimyoning muayyan mavzularini o'rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi hal etilgan. A.A. Jurin tadqiqotlari umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kimyo ta'limini mediata'lim bilan integratsiyasiga bag'ishlangan. Ye.O. Yemelyanova tadqiqotlarida talabalarni o'zini-o'zi baholash metodi, bunda talabalar o'zini o'zi baholash uchun oldindan tayyorlangan materiallar (masalan, test savollari, slaydlar va hokozo) asosida dars tashkil qilinadi.

A.A. Siromatnikov tadqiqotida talabalarni an'anaviy usulda o'qitishdan ko'ra kichik guruhlariga bo'lib va talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish maqsadida kimyo fanini o'rganishda kompyuter texnologiyalarining afzalligi, talabalar o'z bilimlarini oshirishi uchun kimyo kursidagi ba'zi mavzular kompyuter texnologiyasi yordamida olib borilishiga qaratilgan metodik qo'llanmalar ishlab chiqilgan.

V.N. Lixachev tadqiqotida talabalar bilim saviyasini oshirish uchun talabalar doimiy o'qitib kelingan usullarni zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirish kerakligi, ammo bungacha qilingan ishlar to'liq bajarilmaganligi aytib o'tilgan. A.A. Podgornova tadqiqotida iqtidorli talabalar zamonaviy o'qitishning samarali usullarini birlashtirib o'qitishni joriy etish va uning natijaviy tahlili yoritib berilgan.

A.S. Artemeva tadqiqotida davlat ta'lim standartlarda ko'rsatilgan dars soatlarida yuqori natijalarga erishish talabalar individual tayorlanishi uchun elektron o'quv qo'llanmalar yaratish muhimligi yoritilgan. Elektron o'quv

qo'llanmalarda kimyo faniga doir elektron test, masalalar, talabalar fanga bo'lgan qiziqishini baholash usullari, darsda qo'llash uchun interfaol o'yinlar bo'lishi, o'zini-o'zi baholash uchun turli xilda test savollari bo'lishi kerakligi asoslangan. O.YE. Gobunova tadqiqotida kimyo fanini o'qitishning didaktik tamoyillari yaratilgan. 8-9 sinflarda talabalar kimyo fanini o'qitishda didaktik o'yinlar, to'plamlar, masalalar berilib, talabalar bilim saviyasi oshirilgan.

Tahlil va natijalar. Mazkur olimning tadqiqotlarida kimyoni o'qitishda masofali ta'limni tashkil etish, bunda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarining vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, talabalar mustaqil ish daftarini tuzish va amaliyotga qo'llashga doir tavsiyalari ahamiyatga molik.

Ye.Y. Zashivalovning tadqiqotlarida kimyoni o'qitishda kompyuter ta'limini joriy etishning metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda kimyoni o'qitishda kompyuter ta'limining nazariy asoslari, modeli, tamoyillari, maqsadi va vazifalari, kompyuter ta'limining didaktik asoslari, pedagogik va psixologik didaktik o'yinlar haqida tushuncha, kompyuterda kimyo o'qitish shakli, o'qitish metodikasi, pedagogik tahlillarining (talabalar o'qitishdagi) yaxlit metodikasi ishlab chiqilgan.

A.R. Naumov tomonidan kimyoni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqboldagi vazifalar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlari diqqatga sazovor. Mazkur olimning tadqiqotlari tizimli olib borilgan bo'lib, unda kimyo ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi avvalo o'qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligiga bevosita va bilvosita bog'liqligi asoslangan.

Ye.Y.Ratkevich axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar kimyoviy bilimlarini shakllantirish samaradorligini orttirish muammosi bo'yicha izlanishlar olib borgan bo'lib, unda talabalar tomonidan DTS bilan meyorlangan kimyoviy qonuniyatlar, tushunchalar va kimyoviy tilni o'zlashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Y.R.Yelena tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot texnologiyalaridan foydalanib maktab talabalarida kimyoviy bilimlarni oshirishga qaratilgan bir qator yangi texnologiyalar ishlab chiqilgan.

MDH mamlakatlari olimlarining kimyoni o'qitishni takomillashtirish borasida olib borgan ishlarining tahlili, ularda kimyoning u yoki bu mavzusi misolida axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi muvaffaqiyatli hal etilganligini qayd etish zarur.

Respublikamizda uzluksiz kimyo ta'limini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar jumlasiga, E.U. Eshchanovning "Organik kimyoni o'qitishda talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish", F.M. Alimovning "Pedagogika oliy o'quv yurtlarida kimyoni o'qitishda kompyuter texnikasidan foydalanishning didaktik asoslari", L.T.Zaylobovning "Umumiy kimyoda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini o'qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish" kabi tadqiqotlarni kiritish mumkin.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning didaktik masalalari N.N.Azizxodjayeva, V.Bespalko, B.Ziyomammedov, M.V.Klarin, N.C.Sayidaxmedov, O'.Q.Tolipovlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, tabiiy fanlarni o'qitishda N.Rahmatullayev, A.T.G'ofurov, J.O.Tolipova xususiy metodik darajada tadqiqot etilgan. Talabalar bilim qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda talabalar: axborotni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish va muammoni aniqlay olish,

muammoni yechish uchun imkoniyat va mos ashyolarni topa olish, maqsadlarga erishish strategiyasi va aniq harakat rejalarini ishlab chiqa olish, munozara va muhokamalarda faol ishtirok etishga mos qobiliyatga ega bo'lish, ya'ni hamsuhbatining fikrini eshita olishga asoslangan holda uni ishtirok etishga va bamaslahat qarorlar qabul qila olishga o'rganadilar [4].

Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Shunday yoshlar borki, ular umumiy o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. OTM aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli talabalarni tarbiyalashga xizmat qiladi [5].

Mazkur olimning tadqiqotlari asosida kimyo o'quv fanining yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kimyo ta'limi mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligi nazarda tutildi: 1. Kimyo fanidagi nazariya va tushunchalar - bilimlar. 2. Faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar). 3. Ijodiy faoliyat tajribalari. 4. Qadriyatlar tizimi.

O'qituvchi kimyo ta'limi samaradorligiga erishish va talabalarining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishi uchun, ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o'zlashtirish usullarini bilishi lozim.

Ta'lim mazmunining tarkibiy qismi bo'lgan bilimlar, talabalar tomonidan o'quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish, tasavvur qilish, abstrakt fikr yuritish, o'rganilgan ma'lumotlarni yodda saqlash, bilimlarni tanish, odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash bosqichlari yordamida o'zlashtiriladi [6].

Ta'lim mazmunining tarkibiy qismi bo'lgan faoliyat turlari - ko'nikma va malakalarni shakllantirishga kiradigan ish usullarini aniqlash va ularni bajarish, ko'rsatmaga binoan shu ish usullarini takror mashq qilish, ularni tanish, odatiy va kutilmagan yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Tabiiy fanlar yo'nalishida xususan, "Ekperimental kimyo" fanini o'qitish bo'yicha ushbu dasturda asosan talabalarda tarkib toptiriladigan asosiy ko'nikmalar sanalmagan.

Tadqiqot davomida talabalarda tarkib toptiriladigan quyidagi ko'nikmalar guruhlarini aniqlandi: kimyoviy tildan o'z o'rnida foydalanish, kimyoviy formulalarni tuza olish, kimyoviy reaksiyalarning tenglamalarini tuzish va uni tenglashtira olish, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kimyoviy reaktivlar bilan ishlay olish, ishlash texnikasi va xavfsizligiga rioya qilishga oid amaliy ko'nikmaga ega bo'lish, kimyo xonasida ishlash qoidasiga amal qilish, xonani tozaligini aniqlash va xavfsizlik qoidasiga muvofiq holda tozalash, shamollatish ifodalangan.

Laboratoriya ishini ongli ravishda bajarish va tegishli xulosa qilish, amaliy mashg'ulot vazifalarini tushungan holda bajarish va tegishli xulosa qilish, kimyoviy masala va mashqlarni yecha olish, kimyoga oid ko'rgazmali qurollarni

tayyorlay olish, tabiatni muhofaza qilishga tegishli bo'lgan umumiy foydali mehnatga qatnashishdan iborat. Tadqiqot davomida OTMlarning tabiiy fanlar yo'nalishida talabalarida tarkib toptirilishi kerak bo'lgan o'quv mehnati ko'nikmalari ham aniqlandi va kimyo ta'limida mazkur ko'nikmalarining o'zlashtirilishiga e'tibor qaratildi.

Talabalarida tarkib toptirilishi kerak bo'lgan o'quv mehnati va amaliy ko'nikmalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1. O'quv qo'llanma va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ishlash ko'nikmalari: 2. Matn ustida ishlash ko'nikmalari: 3. Aqliy faoliyat ko'nikmalari:

Ta'lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismi bo'lgan ijodiy faoliyat tajribalari talabalarining mustaqil va ijodiy fikr yuritishiga zamin tayyorlab, uni o'qituvchining tayyor axboroti orqali shakllantirish mumkin emas.

Talabalar faoliyati muammoli topshiriqlarni bajarish va tajribalar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o'quv farazlarini hosil qilish, o'quv farazlarini isbotlash, obektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o'quv-tadqiqot tajribalarini o'tkazish, o'quv xulosalari va umumlashtirish ta'riflarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Talabalarida mustaqil va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o'qitishning mantiqiy metodlari muhim o'rin tutadi. Mazkur metodlar darsda o'rganiladigan o'quv materialini mazmunining yo'nalishini belgilab, talabalarga bosh g'oyani ajratish, o'rganilayotgan obektni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish ko'nikmalari, aqliy faoliyat usullarini egallash, abstrakt tafakkurni rivojlantirish, sabab-oqibat bog'lanishlarni anglashga imkoniyat yaratadi.

Bu metodlar guruhiga kiruvchi induktiv metod – xususiy dalillarni muammoli bayon qilish, talabalar faoliyatini xususiydan umumiy xulosalar chiqarishga yo'naltirish, muammoli topshiriqlarni berish imkonini beradi. Agar o'rganiladigan mavzu deduktiv mantiqiy yo'nalishga ega bo'lsa, aksincha, darsda avval umumiy tushunchalar bayon qilinadi, talabalarining faoliyatini umumiydan xususiy xulosa chiqarishga yo'naltiriladi. Kimyo jarayonlarni o'rganishda tahlil metodidan foydalaniladi. Mazkur metod kimyoviy jarayonlar haqidagi axborotlarni anglab idrok etish, o'rganilgan jarayonlarning o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o'rganilgan jarayonlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash imkonini beradi.

Talabalarining fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda dalillarni umumlashtirish uchun o'qituvchi umumlashtirish metodidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Mazkur metod talabalarining o'rganilgan o'quv materialidagi tipik dalillarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini kimyoviy belgilar bilan belgilash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot davomida OTMlarning tabiiy fanlar yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda kimyo fanini o'qitish jarayonini tashkil etish shakllariga dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va talabalarining mustaqil ta'limi kiritildi. Mazkur o'qitish shakllarining o'zaro uzviy tashkil etish maqsadida istiqbolli reja ishlab chiqildi va har bir o'qitish shaklida axborot texnologiyalardan foydalanish nazarda tutildi.

ADABIYOTLAR

1. Лапенко М.В. О развитии познавательного интереса учащихся// Химия в школе -2010 № 4. 37-40 с.
2. Павлицева А.Ю. Из опыта использования кластеров//Химия в школе-2010. № 6, 28-29 с
3. Беляева Е.И. Образовательные технологии: кейс-технология// Химия в школе. – 2010. – № 6. – С. 30-34.
4. Shernazarov I.E. Use of pedagogical, information and communication technologies, as well as interactive teaching methods in consolidating of organic chemistry lessons// Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, - Vienna №11-12, 2018 November-December – p 66-69
5. Ismailov S.A.(2023). Teaching chemistry based on chemical experiments. Proceedings of International Educators Conference, 2(1), 306–310. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/iec/article/view/1107>
6. Ismailov S.A. 2021. The importance of using Chemical Transformation by future Chemistry Teachers. International Journal on Integrated Education. 4, 3 (Mar. 2021), 240-244. doi:<https://doi.org/10.31149/ijie.v4i3.1393>



Ra'no ISMAYLOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., psi.f.n

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori Z.Nishonova taqrizi asosida

TURMUSH O'RTOQLAR ZO'RAVONLIGI IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada oilaviy zo'rvonlik turlaridan biri bo'lgan turmush o'rtloqlar zo'rvonligi va gender tenglik nuqtayi nazaridan zo'rvonlikka nafaqat ayollar, balki erkaklarning uchrashi haqida so'z boradi. Psixologik intervensiyani tashkil etishda zo'rvonlikka uchragan shaxsning ijtimoiy demografik xususiyatlari va psixologik yordamga ehtiyoj darajasini hisobga olish masalasi qo'yiladi.

Kalit so'zlar: Oila, zo'rvonlik, ayol, erkak, shaxs, munosabat, aloqa, anketa.

СУПРУЖЕСКОЕ НАСИЛИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В статье говорится о супружеском насилии, которое является одним из видов семейного насилия, и с точки зрения гендерного равенства с насилием сталкиваются не только женщины, но и мужчины. При организации психологического вмешательства необходимо учитывать социально-демографические особенности жертвы насилия и уровень потребности в психологической помощи.

Ключевые слова: Семья, насилие, женщина, мужчина, личность, отношение, общение, опрос.

MARITAL VIOLENCE AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Annotation

The article talks about spousal violence, which is one of the types of family violence, and from the point of view of gender equality, not only women, but also men face violence. When organizing psychological intervention, it is necessary to take into account the socio-demographic characteristics of the victim of violence and the level of need for psychological help.

Key words: Family, violence, woman, man, personality, attitude, communication, survey.

Kirish. Oilaviy zo'rvonlik oilaning shaxsiy ishi yoki davlat e'tibor qaratadigan muammo emas, bu keng jamoatchilikning ham diqqat markazida turishi kerak. Agar ham oila, davlat va jamoatchilik zo'rvonlikka munosabat bildirmasa va o'z vaqtida chora ko'rmasa, bu jamiyatga ham, oilaga ham katta zarar yetkazadi.

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda O'zbekistonda nafaqat davlat tomonidan, balki keng jamoatchilik tomonidan ham oilaviy zo'rvonlik masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Zo'rvonlik muammosi oila va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda mavjud bo'lgan nomutanosiblikni, shuningdek, undagi disfunktsional ijtimoiy va ma'naviy vaziyatni aks ettiradi. Zamonaviy jamiyat rivojlanishiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlarida jumladan, O'zbekistonda ham shaxslararo munosabatlar darajada oilada, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda, erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarda zo'rvonlik harakatlarining tobora ortib borayotganligini kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yil 11 aprelda "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-829-son Qonun imzolandi. Ushbu qonunga asosan, maishiy (oilaviy) zo'rvonlik uchun javobgarlik belgilandi. Ma'muriy javobgarlik, maksimal jazo chorasi- BHMning 10 baravaridan 20 baravarigacha jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq, jinoiy javobgarlik, maksimal jazo chorasi- 10 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi. Maishiy zo'rvonlikning og'ir turlari uchun javobgarlik 14 yoshdan belgilandi[2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni, inqirozli vaziyatning dastlabki bosqichida nizolar va kelishmovchiliklarni bartaraf etish qobiliyati muhim rol o'ynaydi.

XX asrning 60-yillarida amerikalik shifokor, Kolorado shtati professori S.G. Kemp va uning hammualliflari o'z kuzatishlari asosida "kaltaklangan bola sindromi" nomli maqola chop etishdi va unda ushbu nom bilan ataladigan kasallikni tasvirlab berdilar. Ushbu nashr bolalarga nisbatan zo'rvonlik muammosining keng jamoatchilikka olib chiqilishiga va aralushiviga olib keldi [5].

1984 yilda esa Lenore E. Uoker birinchi bo'lib "kaltaklangan ayol sindromi" tushunchasini turmush o'rtog'i yoki sherik zo'rvonligidan keyin yuzaga keladigan alomatlar to'plami sifatida tasvirlab berdi. 1990-yillarda sindrom o'z sheriklarini o'ldirgan va ularga nisbatan muntazam tajovuzkorlik qilgan ayollarni huquqiy himoya qilish uchun asos bo'lgan[8].

O'tgan asrning oxirida amerikalik sotsiolog Syuzen Steynmets "kaltaklangan er sindromi" tadqiqotini nashr etish orqali oiladagi zo'rvonlikning tor feministik talqinini yengib o'tishga hissa qo'shdi va "kaltaklangan er sindromi" atamasini kiritdi. Amerikalik sotsiolog Myurrey Strauss o'zining "Ayollarning erkaklarga nisbatan zo'rvonligi ijtimoiy muammo sifatida" maqolasi va boshqa asarlari bilan ham oiladagi erkaklar qurbonligi muammosiga ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Keyinchalik, ikki yuzdan ortiq xorijiy tadqiqotlar natijalari ayollarning ham o'z turmush o'rtloqlari erkaklar yoki sheriklariga nisbatan agressiya va zo'rvonlik ko'rsatishini tasdiqladi [4]. Shunday qilib, oilada er va xotin munosabatlaridagi faqat ayollar aziyat chekadi degan qarashlarga chek qo'yildi, ayollar ham, erkaklar ham oilaviy zo'rvonlik qurboni sifatida tan olindi.

MDH mamlakatlarida er-xotinning zo'rvonligi muammosi asosan ayollarga nisbatan zo'rvonlik muammosi sifatida o'rganilmoqda: M.P. Pisklavkova, Ye.R. Yarskaya-Smirnova, Ye. Cherepanova, T.A. Vaxmyanina, N.N. Vodopyanova, S.S. Morozova, Z.A. Androsova, N.Yu. Ivanovskayalar ishlarida turmush o'rtog'i o'rtasidagi zo'rvonlik turlarini, uning siklik tabiatini tahlil qilishga bag'ishlangan.

O'zbekistonda V.M.Karimova "o'zbek xotin-kizlari ijtimoiy tasavvurlarining o'zgarishi mexanizmi", G.B. Shoumarov "oilaning ijtimoiy psixologik vazifalari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, oilaning bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillari", E.G. G'oziev "etnopsixologik xususiyatlar va bola tarbiyasi", N.A.Sog'inov "o'zbek oilalaridan oila turmushidan qoniqqanlikning ijtimoiy psixologik xususiyatlari", B.M.Umarov "ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar shaxs xulqi og'ishining sababi bo'lishini" ilmiy tadqiqotlarda o'rgananganlar.

O'zbekistonda 2007 yilda ilk bor "Gender munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga kirish" to'plamida E.Fayzullaevaning "Gender zo'rvonlik" maqolasida oiladagi zo'rvonlik masalasi yoritildi. Muallif oiladagi zo'rvonlik yaqin yoki qarindoshlik aloqalarida bo'lgan, bir-birlari uchun xavf tug'dirmaydigan va aksincha bir-birlarini himoya qiladigan va bir-birlariga madad beradigan deb hisoblanuvchi odamlar orasida sodir bo'lishini e'tirof etadi[1].

Oilaviy va gender zo'rvonlik mavzusi bo'yicha O'zbekistonda F.A.Akromova "oiladagi zo'rvonlik profilaktikasi va ijtimoiy psixologik reabilitatsiya", T.K. Norboeva "xotin-qizlar ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashda va samarali ijtimoiy ximoya qilish" X.Sh. Ziyavutdinova "o'zbek oilalaridagi ayollarga nisbatan zo'rvonlikning ijtimoiy psixologik xususiyatlari va sabablarini o'rganish", X.O.Ziyaeva "zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish" kabi mavzularda ilmiy – tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O'zbekistonda xotin-qizlarni oilada tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish masalasi OAV orqali ham keng yoritilib kelinmoqda, va bu omma ongida oilada faqat ayol kishi zo'rvonlikka uchraydi degan stereotip fikrni shakllantirishga olib keladi. Afsuski, bu holat rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatiladi. Masalan, Fransiyada, Britaniya huquq-tartibot organlarida erkaklarga nisbatan ko'pincha "ikkinchi darajali qurbonlar" sifatida munosabatda bo'lishadi va ko'plab politsiyachilar ularni jiddiy qabul qilmaydilar[6]. Germaniya, Shveysariyada oilaviy zo'rvonlik bo'yicha politsiyaga qo'ng'iroqlarning chorak qismi erkaklar, Amerikada har to'rtinchi voyaga yetgan erkak hayoti davomida oiladagi zo'rvonlik qurboni bo'ladi[7]. Avstraliya Statistika Byurosi ma'lumotlariga ko'ra, turmush o'rtog'i tomonidan zo'rvonlik qurboni bo'lgan erkaklarning atigi 5,3 foizi politsiyaga murojaat qilgan.

2022 yil yanvar-sentyabr oylarida Respublika bo'ylab faoliyat ko'rsatayotgan reabilitatsiya markazi filiallariga fuqarolardan 5735 ta murojaat kelib tushgan, 1146 – "Ishonch telefoni"ga qilingan murojaatlar ham shu yerga kiritilgan. 5325-ayollar, 240-bolalar, 170-erkaklar va ishonch telefonlariga 1618 ta murojaat kelib tushgan[9].

Tadqiqot natijalari va tahlili. Oiladagi zo'rvonlik holatlarini samarali intervensiya qilishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish maqsadida 21 ta savoldan iborat skrinning anketa tayyorlandi. Anketa ikki qismdan iborat, "ijtimoiy-demografik ma'lumotlar" va "zo'rvonlikning o'ziga xos xususiyatlari". "Ijtimoiy-demografik ma'lumotlar" bloki 2-jadval

respondentning ijtimoiy-psixologik holatini aniqlashtirishga qaratilgan.

Ushbu blok asosan yopiq savollarni (javoblarni tanlash bilan) o'z ichiga oladi va bizga respondentning hozirgi oilaviy ahvolini, uning farzandlari bor-yo'qligini aniqlash, ta'lim va daromad darajasini aniqlash, ish holatiga oid savollarga aniqlik kiritish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot respondent va uning oilasining boshqa a'zolariga yoki / yoki yaqin atrofdagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxslarga moliyaviy qaramlilik darajasi, ota-onalar yoki ularni almashtiruvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlarini aniqlash, ota-ona oilasida yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Anketa savollari respondentning alkogol, tamaki mahsulotlarini chekish yoki giyohvandlikka berilganligini aniqlashga ham imkoniyat beradi.

B blok "Zo'rvonlik munosabatning xususiyatlari" bloki javob beruvchiga ilgari duchor bo'lgan va / va hozirda duchor bo'layotgan zo'rvonlik munosabatining turli tomonlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu blok yopiq (bir nechta tanlovli javoblar bilan) va ochiq (bir nechta tanlovsiz) savollarni o'z ichiga oladi. Ushbu savollar bizga o'tmishdagi zo'rvonlik, uning chastotasi va turiga oid ma'lumotlarni aniqlashtirishga, shuningdek, respondent hozirgi kunda zo'rvonlikka duchor bo'lganligini, uning turi va kimdan kelib chiqqanligini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu blokda respondent zo'rvonlik holatini yengish uchun qanday resurslardan foydalanganligini yoki uning fikricha, kelajakda uni yengishda yoki hozirda yengishda yordam beradigan resurslarni aniqlash imkonini beradigan savollar mavjud. Tadqiqot O'zbekiston respublikasining Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida olib borildi. Tadqiqotda jami 324 ta respondent, shundan 115 ta erkak, 209 ta ayollar ishtirok etdilar. So'rovnoma natijalari Xi-kvadrat mezonni asosida tekshirildi. Xi-kvadrat mezonni namunadagi haqiqiy ma'lumotlar va tadqiqotchi faraz qilgan nazariy natijalar o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Mezon namunaning tarqatish qonunlariga mos kelishini baholash uchun ishlatiladi. Har bir toifaga kiruvchi namunaning tadqiqot natijasida aniqlangan natijalari yoki sifat xususiyatlari va agar nol bo'lsa, o'rganilayotgan guruhlarda kutilishi mumkin bo'lgan nazariy son o'rtasidagi farqlarning ahamiyatini baholashga imkon beruvchi noparametrik bo'lmagan usuldir. Oddiy qilib aytganda, usul ikki yoki undan ortiq nisbiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatini baholashga imkon beradi.

So'rovnomaning "ijtimoiy-demografik ma'lumotlar" va "zo'rvonlikning o'ziga xos xususiyatlari" bloklari bo'yicha olingan natijalar xi- kvadrat mezonni asosida tekshirilganda quyidagi natijalar olindi. Turmush o'rtog'i tomonidan zo'rvonlikka uchrash davomiyligi jinsga bog'liqligi (ayollar ham erkaklar ham), farzandlari yoshi , yashash joyi, ro'yxatdan o'tkazilgan manzili, ma'lumotlilik darajasi, faoliyat turi, passiv daromad manbai, bolalikda ota-onasining munosabati, bolalikda zo'rvonlikka uchraganda qanday kurashganligi, hozir oilasidagi zo'rvonlik bilan qanday kurashayotganligi va zo'rvonlikka uchrash sabablari orasidagi bog'liq ekanligi tasdiqlandi.

Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilarning psixologik yordamga muhtojlik namoyon bo'lishida jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezonni asosida tekshirildi. Mann-Uitni U mezonni ikkita mustaqil namuna o'rtasidagi farqni tekshirishda qo'llaniladigan noparametrik usuldir. Usul ikki namuna o'rtasida qiymatlarning qanchalik mosligini aniqlaydi. Bir-biriga mos keladigan qiymatlar qanchalik kam bo'lsa, farqlar shunchalik katta bo'lishini ko'rsatadi.

Oilada zo'rvonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida psixologik yordamga muhtojlik namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatgichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Psixologik yordamga muhtojlik	123,1	184,2	7488,5	0,000**

Izoh: ** - $p < 0,01$

Psixologik yordamga ehtiyojni aniqlash testi yordamida psixologik yordamga bo'lgan ehtiyojning darajasi, umuman psixologiya haqida ma'lumotga egaligi, psixologik ma'lumotlarga ehtiyoji yoki respondentning ushbu kasb vakillari haqida fikrlarini aniqlashga, o'z muammolarini hal qilishda boshqa odamlarni jalb qilish istagi bor yoki yo'qligi, shuningdek respondentning psixologga bo'lgan ishonchi va u bilan birgalikda ishlash istagi bor yoki yo'qligini aniqlashga qaratilgan test. Kolmogorov-Smirnov Z mezon asosida tekshirilganda o'rtacha 8,0 va statistik og'ish 2,77 va ** - $p < 0,01$ bo'lib mustahkam bog'liq borligini ko'rsatadi. Erkaklar va ayollarni solishtirganda ayollarda oilada zo'rvonlikka uchrash ko'rsatkichi erkaklarnikiga qaraganda

3- jadval

Oilada zo'rvonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida depressiya namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatgichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Depressiya darajasi	116,8	187,6	6762,5	0,000**

Izoh: ** - $p < 0,01$

Oilada zo'rvonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida depressiya namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar Mann-Uitni U mezon asosida tekshirilganda Erkaklar (n=115) 116,8 va ayollar Ayollar (n=209) 187,6 va ** - $p < 0,01$ statistik ahamiyatga ega. Erkaklarda ham, ayollarda ham depressiya darajasining statistik ahamiyatligini ko'rishimiz mumkin. Erkaklarda va ayollarda depressiya

4-jadval.

Oilada zo'rvonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida xavotirlanish namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatgichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Erkaklar (n=115)	Ayollar (n=209)		
Reaktiv xavotirlanish	139,5	175,2	9371,5	0,001**
Shaxsiy xavotirlanish	131,0	179,8	8398	0,000**

Izoh: ** - $p < 0,01$

Oilada zo'rvonlikka uchragan tadqiqot ishtirokchilarida xavotirlanish namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlar Reaktiv xavotirlanish erkaklar (n=115) 139,5, ayollar (n=209) 175,2, shaxsiy xavotirlanish erkaklar 131,0, ayollar va ** - $p < 0,01$ statistik ahamiyatligi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Erkaklarda ham ayollarda ham reaktiv, ham shaxsiy tashvish darajalari o'rtasida sezilarli farqlar aniqlandi. Ayollarda tashvish darajasi erkaklarga qaraganda yuqori. Erkak va ayollarning reaktiv va shaxsiy tashvish darajasi o'rtasida statistik jihatdan muhim farqlar mavjudligi haqida gapirish mumkin.

Xulosa. Bugungi kunda O'zbekistonda gender tenglik nuqtai nazaridan zo'rvonlikka asosan ayollar uchraydi degan

kattaroq, lekin erkaklarda ham, ayollarda ham psixologik yordamga muhtojlik darajasi statistik ahamiyatligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, erkaklar orasida oilaviy zo'rvonlikka uchrashlari mumkinligini aniqlashga qaratilgan so'rovnomada 79,5 % erkaklar hayotlari davomida bir marta bo'lsada oilada zo'rvonlikka uchraganliklarini tasdiqlaydilar. "Agar oilada zo'rvonlikka uchrasangiz, psixolog yoki boshqa mutaxassisga murojaat etasizmi? – degan savolga, 82,4 foiz respondent yo'q deb javob berganlar. Agar "yo'q" bo'lsa nega? – degan savolga "Erkak kishi uchun shikoyat qilish uyat", "Oiladagi muammoni tashqariga olib chiqishni hohlamayman", "O'z muammolarimni o'zim hal qilaman" kabi javoblar olindi.

darjalari o'rtasida sezilarli farqlar aniqlandi. Ushbu ma'lumotlarga asosanib, ayollardagi depressiya erkaklarnikiga qaraganda ancha barqaror (vaqt bo'yicha) deb taxmin qilish mumkin. Bundan tashqari, erkaklarda salbiy his-tuyg'ular ayollarga qaraganda ko'proq o'zgaruvchan, uzoq vaqt davom etmaslik xaqida fikr bildirishimiz mumkin.

mulohaza chegarasidan chiqish xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlaydi. Afsuski, nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa chet el mamlakatlarida ham erkaklarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli xil ijtimoiy xizmatlar faoliyati uchun hali ham yaxshi ishlab chiqilgan usullar va texnologiyalar mavjud emas. Statistik ma'lumotlar bo'yicha har doim oilaviy zo'rvonlikka uchragan erkaklar soni kam ko'rsatiladi. Fikrimizcha, bu erkaklar huquqlarini himoya qilish markazining mavjud emasligi, ijtimoiy markazlarga murojaat etish madaniyati shakllanmaganligi va albatta jamiyatdagi stereotiplar sabab. Shunday qilib, erkaklarga nisbatan oilaviy zo'rvonlik keng tarqalgan hodisa deb qabul qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. "Gender munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga kirish»to'plami. Toshkent, 2007. 314-347 betlar
2. Nurberdiev S. Maishiy zo'rvonlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanmoqda// <https://www.norma.uz/uz/Murojaat-etildi:07.09.2023>
3. Ismailova Z. et al. Problem Of Ensuring Gender Equality In The International Relations System //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – T. 12. – №. 11. – S. 5120-5123.
4. Sidorenkova T. A. Kriminologicheskie problemy preduprejdeniya nasiliya protiv jenniciny v seme: Dis... kand. yurid. nauk. M., 1999. 226 s
5. Ochirova A.V. Vestnik San-Peterburskogo universiteta. Ser.6, 2003, v.4 (№30) str 91-99)
6. Les hommes aussi sont victimes de violence conjugale // URL: <http://www.lefigaro.fr/> (Murojaat etilgan sana:01.08.2021).
7. More than 40% of domestic violence victims are male, report reveals // URL: <http://www.theguardian.com/society> (murojaat etilgan sana: 15.08.20)
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
9. З'равонликка й'л й'к. https://t.me/zoravonlikka_yol_yoq_netnasiliyu. Murojaat etilgan sana:17.07.2023



Muyassarxon KARIMOVA,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti
E-mail: karimova@gmail.com

ADU professori, f.f.d. F.Yuldasheva taqrizi asosida

HISTORICAL GENESIS, MODERN PRINCIPLES AND LEGAL FOUNDATIONS OF WOMEN'S SOCIAL PROTECTION

Annotation

This article describes and analyzes the historical genesis, the legal foundations of women's social protection, which is one of the topical issues today. In particular, it was mentioned about the reforms carried out in the new Uzbekistan, in which the issue of social protection of women was raised to the level of state policy, the role, position of women in society, their legal protection, protection from any harassment, discrimination were considered as an important task.

Key words: Social protection, women, Avesto, dignity, the age of ignorance, justice.

ИСТОРИЧЕСКИЙ ГЕНЕЗИС, СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН

Аннотация

В данной статье описывается и анализируется исторический генезис, правовые основы социальной защиты женщин, что является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день. В частности, было упомянуто о реформах, проводимых в новом Узбекистане, в рамках которых вопрос социальной защиты женщин был поднят на уровень государственной политики, роль, положение женщин в обществе, их правовая защита, ограждение от любых притеснений, дискриминации рассматривались как важная задача.

Ключевые слова: Социальная защита, женщины, Авесто, достоинство, эпоха невежества, справедливость.

XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY MUHOFAZALASH TARIXIY GENEZISI, ZAMONAVIY TAMOYILLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi tarixiy genezisi, huquqiy asoslari tavsif va tahlil qilingan. Xususan, bu sohada Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida so‘z yuritilib, unda ayollarni ijtimoiy himoyasi masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, jamiyatda ayollarning o‘rni, mavqeyi, ularni huquqiy jihatdan himoya qilish, har qanday tazyiqlardan, kamsitilishlardan muhofaza qilish muhim vazifa sifatida qaralgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy himoya, xotin-qizlar, avesto, qadr-qimmat, johiliya davri, adolat.

Kirish. Xotin-qizlarning insoniy qadr-qimmatini ulug‘lash, uni e‘zozlash davlatimiz yuritayotgan ustuvor siyosat bo‘lib, jamiyatda ayollar nufuzini yanada oshirish davrning muhim talabiga aylangan. Ayol qadri ijtimoiy turmushda o‘z o‘rnini topmas ekan, jamiyatda erkinlik, osoyishtalik, mehr-muruvvat mezoniga aylanmas ekan, bunday jamiyatda barqarorlik, ezgulik va adolat, bunyodkorlik hukmron bo‘lishi mumkin emas. Chunki, ijtimoiy hayot va uning birinchi bo‘g‘ini oila ayolning faolligi, uning mas‘ulligida tarkib topadi. Yurt ayollarini nechog‘li ulug‘lasa, uning o‘zi ham shunchalik ulug‘lanadi. “Ayol baxtli bo‘lsa, oila va jamiyat ham, albatta, baxtli bo‘ladi. Shuning uchun ham barchamiz – Prezidentdan tortib eng quyi bo‘g‘indagi rahbar va mutasaddilar ana shu oliy mezoniga amal qilib ishlashimiz zarur”. Shundagina xalqimiz ham, Yaratgan ham bizdan rozi bo‘ladi, – deydi Shavkat Mirziyoyev[1]. Bugungi kunda o‘ziga xos bo‘lgan qiziqishlari, xarakter xususiyatlari, yoshi, turmush tarzi bilan ajralib turuvchi ayollarni aholining muayyan ijtimoiy-demografik guruhi sifatida o‘rganish ko‘pdan-ko‘p muammolarni to‘laroq tushunib olishimizda qimmatli manba bo‘la oladi. Shuni ta‘kidlash zarurki, mazkur ijtimoiy guruh jins belgisiga ko‘ra tabiiy ravishda ajralib tursada, biologik birlikni, demografik quramani bildirmaydi. Mazkur ijtimoiy guruh o‘z funksional belgilari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ya‘ni o‘ziga xos ehtiyojlari, qiziqishlari va munosabatlariga ega. Ayollar milliy-ma‘naviy qiyofalari bilangina emas, turmush tarzi bilan ham o‘ziga xos

xususiyatlarga molikdir. Shu bois Yangi O‘zbekistonni iqtisodiy, ijtimoiy rivojlantirish ayni paytda, xalqimiz turmush darajasini yaxshilash, ularning hayotiy manfaatlarining himoya kafolati hisoblanadi. Ana shunday muammolardan biri ijtimoiy himoya, xususan, ayollarni ijtimoiy muhofazalash bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. “Ijtimoiy himoya” tushunchasi bugungi kunda jamiyatda pishib yetilgan dolzarb masala sifatida ko‘pgina tadqiqotchilar, xususan, iqtisodchilar, sotsiologlar, siyosiy fan sohasi nazariyotchilari, psixologlar tomonidan tadqiq etilib, fundamental izlanishlar amalga oshirilayotganligini e‘tirof etish barobarida, ayni shu sohaning tarkibiy qismi bo‘lgan xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalashning milliy mentalitetimiz bilan bog‘liq jihatlari, xususan, Islom qadriyatlarini bilan aloqadorligi masalasini qayd etish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixiy manbalarda yozilishicha, “O‘rta asrlarda ayollarning nafaqat fuqaroligi, balki inson bolasi ekanligi ham shubha ostiga olindi. Xususan, Nitsshe ayollarning ilondan, g‘ozdan, itdan yoki boshqa biron hayvondan tarqalganligini, lekin inson zotiga taalluqli emasligini isbotlashga harakat qilgan. Ovrupaliklar ayolni iblisning tomiri, sharqliklar esa erkaklarni do‘zaxga olib tushuvchi arqon, deb ta‘kidlaganlar”[2]. “Buyuk inkvizitsiya” davrida minglab ayollarga “alvasti jodugarlar” degan tamg‘a bosilib o‘tda kuydirildi.

Qadimgi Arabiston yarim orolida VII asrgacha – “johiliya davri”da[3] ayollar jamiyatda hech qanday mavqega

ega emas edilar. Ularning ahvoli shu darajada ediki, hatto, qiz bolaning tug'ilishi ota uchun baxtsizlik alomati bo'lsa, o'g'il bolaning tug'ilishi esa alohida baxtning belgisi, Allohning oila boshlig'iga ko'rsatgan iltifoti, deb hisoblangan. Qizlarga bo'lgan bunday munosabat, ya'ni o'g'il tug'ilmasdan qiz bola tug'ilganidan or qilish va boshqalar ayollarning ahvoli nihoyatda ayanchli ekanligini isbotlaydi.

Johiliya davrida arablar ayollarni mulklarining bir qismi deb hisoblaganlar. Shuning uchun beva qolgan ayol o'lgan eridan (meros qoldiruvchidan) o'g'liga meros bo'lib qolgan. Bu odat ko'proq Yaman qabilalariga xos bo'lgan.

Islom dini o'zining bag'rikeng ta'limoti bilan ijtimoiy munosabatlarga tub o'zgarishlar kiritgan. Xususan, jamiyatda ayollarga bo'lgan munosabat ham islom dini va qadriyatlarini tufayli ijobiy tus ola boshladi.

Islom ta'limoti va ajdodlarimiz asarlarida ushbu masalada ibratli fikrlar bo'lishiga qaramasdan, afsuski, hozirgi kundagi jamiyatimizda ham shunga o'xshash qarashlar uchrab turibdi. Bu balki eski dinlardan qolib ketgan qarashdir yoki boshqa ijtimoiy, iqtisodiy omillarga bog'liqdir. Shunga qaramasdan, Islom ta'limotida "qiz tug'ilishi baraka bo'ladi, oilaga xursandchilik olib keladi", degan g'oya ilgari suriladi. Jobir ibn Abdulloh (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda aytilishicha, "kimning 3 ta qizi bo'lib, ularni o'z qo'lida tarbiya qilib katta qilsa, jannatga kirishi albatta muqarrardir"[4].

Muhimi, ijtimoiy himoya tushunchasining o'zida eng avvalo, ijtimoiy madadga muhtoj qatlamni, xususan, ayollar va bolalarni qo'llab-quvvatlash ustuvorlik kasb etishi lozim. Ana shu jarayonni teranroq tahlil etish uchun, avvalo, ijtimoiy himoya tushunchasiga tarixiy konsepsiya sifatida yondashish zarur. Ilmiy manbalardan ma'lumki, umumsotsiologik ma'nodagi ijtimoiy himoya konsepsiyasi 1935 yilda AQShda yuzaga kelgan[5]. Davr o'tishi bilan keyinchalik xalqaro mehnat tashkiloti konsepsiyalarida bu tushuncha mazmuni boyitilgan. Unga ko'ra, mamlakatning har bir fuqarosi ishsizlik yoki daromadini yo'qotishi, shuningdek, uning keskin ozayib ketishi bois, iqtisodiy ne'matlardan mahrum bo'lishidan himoya kiluvchi chora-tadbirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e'tirof etilgan. Aholini ijtimoiy himoyalash yetarli darajada yo'lga qo'yilgan barcha davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotini ijobiy o'zgarish va rivojlanish kuzatilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini, ayniqsa, ayollar va bolalarni muhofazalashga doir nazariy konsepsiyalar yaratishga e'tibor qaratildi. Yevropa davlatlarida hukm surgan ijtimoiy-falsafiy nazariyalar asosida ham ijtimoiy himoya tizimini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Jumladan, fransuz olimi Ansel Mark o'zining "Novaya sotsialnaya zashita" kitobida ijtimoiy himoyaning yangi konsepsiyasini yaratdi. Uning fikricha, "yangi ijtimoiy himoya jinoyatchilikka karshi kurash jarayonini ishlab chiqishda jinoyatchi shaxsning biologik xususiyatlarini qayta baholash"[6] ni nazarda tutadi. Umuman, A.Mark ijtimoiy himoya harakatini jinoyatchilikning ijtimoiy sabablarini o'rganish bilan izohlaydi.

Iqtisodchi olim V.A.Frolov uni "Ijtimoiy himoya – bu jamiyatdagi iqtisodiy samaradorlikni va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat kiluvchi alohida o'ziga hos iqtisodiy-siyosiy tizim" [7], deb ta'riflaydi. Ammo bu izoh ijtimoiy himoyaning mazmun-mohiyatini yetarli darajada ochib bera olmaydi. Bizning nazarimizda, ijtimoiy himoyaning ma'nosi Y.G.Odegov, G.R.Rudenko, N.G.Mitrofanov ta'rifida to'laroq aks etgan. Ularning fikriga ko'ra, "aholining ijtimoiy himoyasi bu mehnatga layoqatsizlar va aholining ijtimoiy zaif qismiga ijtimoiy iste'mol fondlaridan foydalanishda imtiyoz, pensiya, nafaqa, stipendiya sifatidagi bevosita moddiy yordamni ta'minlovchi qonuniy, ijtimoiy, iqtisodiy kafolatlar tizimidir"[8]. Bu xususda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham konseptual nazariy qarashlarni ilgari surganlar. Jumladan, D.Rahimovning fikricha, "hozirgi jamiyatda ijtimoiy himoya

aholining barcha qatlamlarini – mehnatga layoqatli va layoqatsizlarni qamrab olish kerak"[9]. Faylasuf olimlardan L.Tangriyev[10] ijtimoiy himoya masalasining yoshlarga daxldor jihatlarni, I.Qosimov[11] esa ijtimoiy himoyaning ehtiyoj va manfaatlar bilan uyg'unligini tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Insoniyat jamiyati shakllanishining dastlabki davrlaridayoq tabiatning eng nozik hilqati, ayni paytda, buyuk yaratuvchilik, fidoiylik timsoli bo'lgan hotin-qizlarga munosabat, ularga ehtirom o'zgacha bo'lgan. O'sha davrlardayoq ayollarsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilish qiyin edi. Markaziy Osiyoning eng qadimgi tarixiy manbasi "Avesto" da butun olamda ezgulik, adolat, yaxshilik timsoli bo'lgan zardushtning volidasi Dugdova ulug'lanib, uning hayoti va manfaatlarini himoyalash ilohiy karomat darajasida talqin etilgan. "Ko'hna Xorazmdagi Spitama qavmining sarboni Faroxish xonadonida oydek qizaloq tug'ildi, – deb yozadi avestoshunos olim Hamidjon Hamidiy, – chaqaloqqa Dugdova deb nom qo'ydilar. Ota-ona farzandini yeri ko'kka ishonmay, odamlar ko'zidan pinhon tutib tarbiyalay boshladilar.

Qizcha ulg'aygan sari uning siymosidagi nur allaqanday soxir qudrat kasb etar, xonadonda qut-baraka ortib borar edi. Nixoyat, o'n yoshga to'lgach, qiz onasidan so'ramay ostonaga xatlab ko'chaga chiqdi – unga xalq nazari tushdi. Orada g'avg'o ko'tarildi. Ba'zilar: "Bu qiz – "Parizod", – desa, boshqalar: "Qiz nutfasini farishtalar ona qorniga o'rnatib ketgan", – deydi. Qabih niyatli johil kimsalar: "Bu jodulik timsoli, u yurtga qabohat keltiradi, uni toshbo'ron qilib, o'ldirish kerak", – deyishadi. Ota ne qilarini bilmay zor-zor yig'lab, holdan toyib uyquga ketadi. Tushida bir oq kiyimli muysafid kelib, unga: "Ey Faroxish, o'rningdan tur. Bu qizning qatliga yo'l qo'yma, undan bashariyatni johiliyatdan qutqarib saodatga eltuvchi o'g'lon tug'iladi. Qizni raisiga topshir", – deydi-da, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Uyqudan seskanib turgan Faroxish yarim kechada qizini uyg'otib, ko'hna Urganch yaqinidagi tuyaboqar do'sti Spitama urug'ining raisinikiga olib boradi. "Ey birodar, – deydi ota, – qizimning hayoti xavf ostida, avom uni o'ldirmoqchi. Sen uni tutingan qiz qilib ol, shoyad u xonadonning saodat keltirsa". Qizning yuzida ilohiylik aksini ko'rgan rais bu taklifni bajonidil qabul qiladi" Ana shu qiz ulug' Zardo'shtning onasi edi. Albatta, bu bir rivoyat, ammo ana shu rivoyatni qiyosiy tahlil qilish asosida ikki muhim hikmatni anglash mumkin:

– birinchisi, "Avesto" da ayolni ilohiylikka daxldorligi va uni har qanday xavf-xatardan himoyalash;

– ikkinchisi, ayolni yaratuvchilik, ezgulikning bunyod-kori ekanligi haqidagi hikmatdir.

Binobarin, hozirda ham xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi masalasi nafaqat regional xususiyatga, ayni paytda, global mohiyatga ham ega bo'lib bormoqda. Xususan, ayollar va bolalarni zulm o'tkazish uchun yollash yoki ularni sotish kabi bugungi kundagi voqelik ana shu xususiyatlar bilan bog'lik. Xalqaro huquqiy aktlarda bunday negativ holatlar "trafficking in persons" degan lug'aviy ma'no bilan ifodalaniib, u bizning tilimizga o'girilganda "odam savdosi" degan tushunchani beradi[12].

Odam savdosining asosiy obyektini ko'proq ayollar va bolalar bo'layotganligi sir emas. MDH olimlari L.D.Yeroxina va M.Y.Buryaklarning fikricha, "Odam savdosi qulchilikning shakllaridan biri bo'lib, u o'z doirasiga eng zaif va himoyasiz qismi – ayollar va bolalarni qamrab oladi". Mualliflar fikrini analogik tahlil qilganimizda, "Ayollar savdosi" bilan "fohishabozlik" ni hech qanday holatda aralashitirib, ayniylashtirib bo'lmaydi. Odam savdosi, xususan, ayollar savdosi o'zining har xil ko'rinishlariga ega bo'lib, uy qulligi, majburiy nikoh kabi omillar tufayli ham yuzaga keladi.

Tahlil va natijalar. Aynan mana shu ijtimoiy illatlardan xotin-qizlarni himoya qilish maqsadida xalqaro konvensiyalar, huquqiy hujjatlar yaratilgan bir qancha ilmiy

tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, MDH davlatlaridan Rossiya, Belorussiya, Ukraina Respublikalari yaqindagina o'zining jinoyat qonunchiligiga mazkur masalada tegishli boblar kiritdi. O'zbekiston Respublikasida bu jinoyat turiga qarshi jinoyat qonunchiligining 135-moddasida jinoiy javobgarlik holatlari ko'rsatilgan [13] Bundan tashqari, respublikamiz ayollari huquqini himoyalashga xizmat qiluvchi bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [14] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [15] O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida" [16]. Xalqaro va O'zbekistonda qabul qilingan qarorlar asosan xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, qadimdan ushbu masala jamiyatning dolzarb mummosi bo'lgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davlat siyosati darajasida amalga oshirilib oilada, jamiyatda ayollar mavqei yuksalib bormoqda. Gender zo'rvonlikka barham berish chora-tadbirlari yaratilmoqda. Zo'rvonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik) larga chek qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar. Farmon va qarorlar asosida yaratilayotgan qonunlar yangi O'zbekistonda ayollarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda va nufuzi yuksalib bormoqda. Bugun dunyo miqyosida zamonaviy ko'rinish

olgan ayollarni kamsitish, tazyiq o'tkazish – zo'rvonlik muammosining oldini olish bo'yicha samarali tizim yaratish uchun, albatta, ushbu muammo doirasida amalga oshiriladigan faoliyat yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda. Mazkur tizim mamlakatimizda ayollarni ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, xotin-qizlarni qadr-qimmatini kamsitishni tubdan isloh qilinishiga xizmat qiladi. Ayollar sha'nini kamsitilishi sabablari, reabilitatsiyasi, turlari mavjuddir. Ular ilmiy-amaliy jihatdan shunday yondashilsa maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) kamsitish holatlarini barvaqt aniqlash. 2) muammo bilan bog'liq bo'lgan shaxslarga barcha dahldor tashkilotlarning holatga nisbatan ma'muriy va boshqa zarur munosabat bildirishi. 3) jabrlanganlar uchun ijtimoiy-huquqiy reabilitatsiya. Muammo bilan ishlash asoslari 1. Qonunchilik 2. Tizim 3. Madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar, munosabat. Kamsitish turlari ilmiy jihatdan o'rganib chiqilmoqda. Ruhiy zo'rvonlik – xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo'rvonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik); Tazyiq – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqim-lik; Gender zo'rvonlik – jinsga asoslangan zo'rvonlik. Ko'proq ayollar tazyiq va zo'rvonlikka uchragani uchun biz gender zo'rvonligi deganda xotin-qizlarni nazarda tutamiz. Gender zo'rvonligi deyilganda nafaqat uyda, balki ish joyida, jamoat joylarida ayol xotin-qizlarga faqat ayol jinsiga mansub bo'lganligi sababli haqorat, jismoniy va ruhiy bosim va shu kabi inson qadrini paymol qiluvchi harakatlar nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. "Аёлларни бахтли қилиш ҳақида" 6-март 2021 йил <https://xs.uz/uzkr/post/shundagina-yaratgan-bizdan-rozi-bo'ladi-Shavkat-Mirziyoev-ayolni-baxtli-qilish-haqida>.
2. Там же. -С. 7.
3. Қадимги Арабистон тарихи ўрта аср араб адабиётида "жоҳилия" номи олан. "Жоҳилия" сўзи луғатда "жаҳолат", "омилиқ", "нодонлик" маъноларини англатса-да, тарихий термин сифатида у Арабистон тарихининг исломдан олдинги даври – VII асргача бўлган даврга нисбатан ишлатилади. Қаранг: Ҳасанов А. Қадимги Арабистон ва илк ислом. Жоҳилия асри. -Т.: Тошкент ислом университети, 2001. -Б. 11.
4. Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад (Адаб дурдоналари). / Таржимон, мукаддима ва изоҳлар муаллифи Фил.ф.н. Шамсуддин Бобохонов. -Т.: Ўзбекистон, 1990. -Б. 39.
5. Ўзбек миллий энциклопедияси. 4-китоб. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б.90.
6. Hhh://WWW. Thetan-lucifer.ru/ prefix 3/27. htm 1
7. Фролов В. Социальная защита в переходный период: республика и регионы / Науч.ред. док. эком.наук, профессор Д.Шавишвили. -М.: ИПЗ. 1992. –С. 54.
8. Рынок труда и социальное партнерство: Монография Ю.Г. Одегов, ГГ. Руденко, Н.Г.Митрофанов. -М.: Хронограф, 1998. -С. 53-55.
9. Раҳимова Д. Ўзбекистонда кескин бозор ислохотларини амалга ошириш шароитида меҳнат салоҳиятини ривожлантириш ва фойдаланиш жараёни бошқариш. –Т.: ТошДТУ, 2000. – Б.247.
10. Тангриев Л. Ёшлар сиёсат субъекти: бандлик муаммоси. Фалс. фан. номз. дис... автореф. – Т., 2000. -27 б.
11. Қосимов И. Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида эҳтиёж ва манфаатларни шакллантириш муаммолари. Иқт.фан.номз. дис... автореф. -Тошкент, 1999. -23 б.
12. Қаранг: Ерохин Л.Д., Буряк М.Ю. Международное уголовное право: Учебник.-М.: Наука, 1999.-119 с.
13. Халова Э.Историко-правовой анализ борьбы с вербовкой женщин и детей для эксплуатации. Общественное мнение. Права человека. –Т., 2007,-№ 3.-С.85.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони 07.03.2022 йилдаги пф-87-сон
15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 31.03.2022 йилдаги 145-сон
16. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни " Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида"Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ.2019 йил 2 сентябрь,ЎРҚ561-сон



Ayjamal KONRATBAYEVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori Z.T.Nishonova taqrizi asosida

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI AGRESSIVLIK PSIXOKORREKSIYASI

Annotatsiya

Maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nanoyon bo‘ladigan agressivlikni bartaraf etishning psixologik metodlari, texnikalari, mashqlari keltirilgan. Mashqlardan bolaning o‘zi bemalol foydalanib agressivlikdan forig‘ bolishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Agressiya, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi, psixokorreksiya, metod, agressiv xulq-atvor.

ПСИХОКОРРЕКЦИЯ АГРЕССИВНОСТИ В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация

В статье представлены психологические методы, приемы, упражнения по преодолению агрессивности, которая проявляется у учащихся младшего школьного возраста. От агрессивности ребенок может легко избавиться, используя упражнения самостоятельно.

Ключевые слова: Агрессия, младший школьник, психокоррекция, метод, агрессивное поведение.

SMALL SCHOOL AGE AGGRESSIVENESS PSYCHOCORRECTION

Annotation

The article presents psychological techniques, techniques, exercises to eliminate the aggressiveness that nanoyon becomes in students of small school age. From exercises, the child himself can easily use and recover from aggressiveness.

Key words: Aggression, junior school age student, psychocorrection, method, aggressive behavior.

Bolaning har jihatdan barkamol rivojlanishida uning ruhiy dunyosining sog‘lomligi, xulq-atvorining mukammalligi, xatti-harakatlarining adekvatligi katta ahamiyatga ega. Bu bolaning ijtimoiy muhitda tez moslashuvida, maktabda bilim olishida, axloqiy ko‘nikmalarning shakllanishida muhim o‘ringa ega. Ammo, hozirgi kunda bolalar orasida yaqqol ko‘zga tashlanib borayotgan agressivlik holati yuqoridagi sifatlarni rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgandek ko‘rinadi.

Afsuski, agressiv bolalar ko‘pincha oilada, tengqurlari davrasida, o‘qish faoliyatida va umuman jamiyat oldida o‘z o‘rnini topishga qiynalib, muvaffaqiyatlarga erisha olmaydilar. Urushqoqlik, qaysarlik, qo‘pol so‘zlash, haqoratlash, o‘z maqsadiga erishish uchun hech narsadan tap tortmaslik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik va boshqalar agressivlikning ko‘rinishlaridan biridir.

Bolani o‘z g‘azabini plastik va vizual usullar bilan ifodalashga, shuningdek salbiy vaziyatlarga munosabat bildirishga yo‘naltirilgan korreksion ish metodlar, texnikalar, mashqlarga e‘tiboringizni qaratmoqchimiz.

V.Oklender g‘azabni ifodalashning to‘rt bosqichini ajratib ko‘rsatgan [2]:

1 bosqich - bolalarga tashqi holatda xavfsiz amaliy imkonli bo‘lgan g‘azabni namoyon etish metodlarini taqdim etish.

2 bosqich – g‘azab hissini haqiqiy idrok etishda bolalarga yordam berish, ularni g‘azabini to‘g‘ridan to‘g‘ri “hozir va shu yerda” emotsional namoyon etishga turtki berish. Bunday vaziyatlarda g‘azabni bo‘yoq bilan chizish yoki plastilindan yasash - o‘z g‘azabini vizual ifodalash yaxshi yordam beradi.

3 bosqich - “g‘azab hissi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri verbal aloqa imkoniyatini berish”. Kimga nima aytilishi kerak bo‘lsa hammasini aytsin. Odatda shundan so‘ng (ichidagilarni aytib bo‘lgandan so‘ng) g‘azabning vizual obrazini ijobiy tarafga aylanishi ro‘y beradi; bolalarning fikrlari eshitiladi va keyingi ish uchun tayyor bo‘ladilar.

4 bosqich - bolalar bilan ularni ko‘proq nima g‘azabga keltirishi, bu holat ko‘proq qanday vaziyatlarda ro‘y berishi, uni qanday bilishlari va bunday vaqtda o‘zini qanday tutishlarini muhokama qilish (V.Oklender). Shuni muhimki, bola o‘zining g‘azabini anglash va tushunishga keyinchalik g‘azabni ochiq namoyon etish (asotsial) yoki uni ijtimoiy imkonli bo‘lgan shaklda namoyon etish o‘rtasida tanlay olish uchun vaziyatni baholashga o‘rgansin.

G‘azabni namoyish etishning birinchi bosqichida qo‘llanadigan quyidagi metod va usullar samarali bo‘lib, psixologlar tomonidan keng qo‘llanadi:

qog‘ozni g‘ijimlash va yirtish;
yostiq yoki boksyorlik qopini urish;
oyoqlarni tapillatish;
vatmandan qilingan “stakan” yoki “truba” yordamida

qattiq baqirish;
yostiqni yoki yelim idishni tepish;
aytishni istayotgan so‘zni qog‘ozga yozish, g‘ijimlash va tashlab yuborish;

karton yoki qog‘ozga plastilinni ishqalash;
suvotar to‘pponcha, shishirilgan (havo bilan) to‘qmoqni qo‘llash.

1-mashq.

Maqsad: g‘azabni plastik ifodalash, g‘azabni xatti-harakatlar orqali namoyish etish va uni o‘z vaqtida o‘ziga va o‘zgalarga zarar yetkazmagan holda ifodalash ko‘nikmasini shakllantirish (guruhiy va individual tartibda bajarish mumkin).

Bolalar ixtiyoriy holatda turib yoki o‘tirib oladilar. So‘ngra ularning eng ko‘p g‘azabini qo‘zg‘atadigan vaziyatlar (yoki odam) haqida o‘ylash so‘raladi.

Ularga sezgilariga e‘tibor qaratish va tananing qaysi qismlarida ular kuchliroqligini aniqlash so‘raladi.

So‘ngra ulardan turish (o‘tirgan bo‘lsa) va o‘zlari his etayotgan his-tuyg‘ularni (salbiy sezgilarni) ifodalash uchun maksimal ravishda harakatlanish so‘raladi. Bunda o‘z

xatti-harakatlarini nazorat qilmaslik zarur, o'z his-tuyg'ularini ifodalash muhimdir.

Bolalar bilan quyidagilarni muhokama qiling:

Mashqni bajarish oson bo'ldimi?

Ular nimada qiyinchilik sezishdi?

Mashqni bajarish davomida ular nimani his etishdi?

Mashqdan so'ng ularning holati o'zgardimi?

2- mashq.

Maqsad: Bolalarda salbiy emotsiyalarni anglash, ularni ijtimoiy me'yorlarga asoslangan holda namoyish etish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bolalar o'z g'azabining rasmini chizishi (plastilin yoki loydan yasash) kerak (individual bajariladi).

Vositalar: qog'oz, rangli bo'rlar, flomasterlar (plastilin, loy).

1. Bolada eng ko'p g'azab hissi, agressiyani keltirib chiqaradigan vaziyatlar (odam) haqida o'ylash so'raladi.

2. Boladan o'z g'azabini tanasining qaysi qismlarida ko'proq his etishi so'raladi.

3. Bola o'z sezgilarini haqida gapirayotgan vaqtda undan so'rash zarur: "Sening g'azabing nimaga o'xshaydi? Sen uni rasm tarzida ifodalab yoki plastilindan yasay olasanmi?"

4. Bola bilan chizgan rasmlaridan ayrimlarini samimiy qiziqish bilan muhokama qilish va quyidagilarni belgilash zarur:

– rasmda nimalar ifodalangan;

bola o'z g'azabini ifodalayotganda nimani his etgan;

u o'zining chizgan rasmi (yoki yasagan narsasi) nomidan suhbatlashishi mumkinmi (yashirin motivlar va kechinmalarni aniqlash uchun);

– u rasmini chizib bo'lgach (yoki yasab bo'lgach) uning holati o'zgardimi;

5. So'ngra boladan rasmini (yoki yasagan narsasini) nima qilgisi kelayotganini so'rash kerak.

Ba'zi bolalar rasmini g'ijimlaydi, ba'zilari yirtadilar va otib yuboradilar, yana kimdir uni uradi, lekin ko'p bolalarning ta'kidlashicha, endi ularning "rasmi o'zgargan" (qoidaga muvofiq rasmning rangi, o'lchami, ba'zan mazmuni ijobiy tarafdagi o'zgaradi. Bunday vaziyatda bolalardan rasmning o'zgarishi va rangini so'rash kerak. SHuningdek, uni bola bilan muhokama qilish zarur.

Bolalarda o'z g'azabini nazorat qilish va boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan psixologik metodlar, uslublar va mashqlar.

Agressiv bolalarda o'z emotsiyalari ustidan nazorat qilish sust rivojlangan, ba'zan esa umuman mavjud emas. SHuning uchun ular o'z g'azabini boshqarish va nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zini-o'zi boshqarish uslublarini o'rgatish, ularga turli muammoli vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlashga yordam beradi. SHuningdek, bo'shashtiruvchi (relaksatsion) texnikalarni egallashlari muhim, chunki ular boladagi shaxsiy xavotirlar darajasini pasaytirishga yordam beradi (agressiv bolalarda xavotirlanish darajasi yuqori bo'ladi.) [1].

Ushbu yo'nalishdagi korreksion ish quyidagilardan iborat:

Bolalarga o'z g'azabini boshqarishiga yordam beradigan aniq qoidalarni o'rnatish;

Ushbu qoidalarni (ko'nikmalarni) rolli o'yinlar orqali mustahkamlash;

Nafas oldirish mashqlari orqali bo'shashtiruvchi texnikalarni o'rgatish.

Qoidalarni kiritish.

1. Harakatga o'tishdan avval, o'zinga "to'xta" deb ayt. Buni samaraliroq o'zlashtirish uchun bola "to'xta" belgisini yozishi (hoshiyalari bilan) kerak. Ushbu belgini qattiq (karton) qog'ozdan yasab cho'ntakda olib yurish mumkin.

Har safar urgisi yoki itarib yuborgisi yoki verbal agressiya namoyon qilishni istasa "To'xta" belgisi mavjud cho'ntagini ushlashi yoki shunchaki tasavvur qilishi kerak. Belgi hoshiyalarni sokin ranglarga bo'yash va "To'xta" so'ziga biror rang tanlash zarur (hoshiya uchun havorang, ko'k, yashil, tilla rang, to'q sariq rangni tanlash mumkin). Masalan, ko'k rangdagi hoshiya uchun "To'xta" so'ziga to'q sariq yoki tilla rang mos tushadi. Ranglarning uyg'unligi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatish va unga yoqishi zarur.

2. Harakatni boshlashdan avval chuqur nafas ol va 10 gacha sana.

3. Haddan ziyod urushqoq bolalar uchun. Harakatni boshlashdan avval mushtini qattiq siq va ochib yubor. Buni 10 marotaba takrorla.

4. Destruktiv xatti-harakatlarni jismoniydan verbal rejaga o'tkazish. Harakatga o'tishdan avval to'xta va o'ylab ol, sen nima qilishni istayapsan.

5. Boshqa qoidalar.

Qoidalarning ushbu tipiga alohida bola uchun, uning namoyon etadigan agressiyasining xarakteridan kelib chiqqan holda tuzilgan individual qoidalar taalluqlidir. Masalan, ular quyidagicha bo'lishi mumkin: "Kattalar bilan hurmat bilan gaplash", "Buyumlarga ehtiyotkor bo'l", "Qo'llaringni o'zing bilan tut".

Bunday qoidalarni tuzishda inkor yuklamasini qo'llamaslik zarur: "urishma", "sindirma", "qo'pollik qilma" v. h. [3]

Qoidalarni mustahkamlash.

Rolli o'yinlarda qoidalarni mustahkamlashga o'tishdan avval:

boladan ko'proq qanday vaziyatlarda jahli chiqishini va bunda kimdir urgisi, itarib yuborgisi, haqorat qilgisi, buyumlarga zarar yetkazgisi keladigan holatlar haqida so'rash va ularning ro'yxatini tuzish kerak;

– undan qanday vaziyatlarda o'zini tutib tura olganligi va bunda unga nima yordam berganligini (yordamchilar) so'rash va mavjud bo'lsa "yordamchilar" ro'yxatini tuzish kerak;

so'ngra qoida kiritiladi. Uni yozib qo'yish zarur. Agar bola 8 yosh yoki undan katta bo'lsa, nizoli vaziyatlarni, o'zining "yordamchilarini" eslashini, shuningdek qoidani bajarganini tasavvur qilishni va vaziyat qanday davom etishini xayolida kuzatishini undan so'rang;

agar bola bu mashqni bajarishni uddalay olsa, nizoli vaziyat olinadi va kiritilgan qoidani hisobga olgan holda rolli o'yin o'ynaladi, bunda psixolog "raqib-jabrlanuvchi" rolini ijro etadi;

- 7-7,5 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan rolli o'yinlarni boshlashdan avval, tasavvur uchun mashqning o'rniga, ko'nikmalarni mustahkamlash uchun avvaliga o'yinchoqlar (rezina), qog'irchoqlar bilan o'yinli vaziyatni ijro etgan yaxshiroqdir. Buning uchun psixolog bola bilan birgalikda uning muammosini va uning destruktiv xulq-atvorlari reaksiyalari majmuasini ifodalovchi kichkina hikoya to'qiydi. Psixolog qoida kiritadi va ushbu qoida o'yinli vaziyatda mustahkamlanadi. Bola o'yinda o'rnatilgan qoidaga osonlik bilan amal qila boshlarsa, nizoli vaziyatni aks ettiruvchi rolli o'yinlarga o'tiladi.

ko'nikmalarni tezroq mustahkamlash uchun rag'batlantiruvchi mukofot, tabriklarni qo'llash mumkin.

3-mashq. "Eng yaxshi do'sting rasmi"

Maqsad: tahlil va o'zini o'zi tahlil qilishni va turli vaziyatlarda o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bolalarga o'zining eng yaxshi do'stini rasmini chizish topshirig'i beriladi. So'ng suhbat o'tkaziladi:

Sen kimni eng yaxshi do'sting deb hisoblaysan?

U qanday xususiyatlarga ega?

Seni yaxshi do'st deb hisoblashlarini xohlaysanmi?

Buning uchun nima qilish va o'zini qanday tutish kerak?

Umumiy muhokama jarayonida quvnoq muloqot qoidalari shakllanadi va ular ishtirokchilar tomonidan vatmanga yozib boriladi. Masalan:

Do'stlaringa yordam ber.

Ular bilan bo'lishishga, o'ynashga va birgalikda dars tayyorlashga o'rgan.

Do'sting yomon ish qilayotgan bo'lsa uni to'xtat. Agar u nohaq bo'lsa unga ayt.

Urishma, arzimagan narsalar uchun bahslashma, barcha bilan inoq bo'lib o'yna.

Agar xato qilgan bo'lsang uni tan olishga qo'rqma va uzr so'ra.

Boshqa bolalarning maslahati va yordamini xotirjam qabul qil.

Kimdir yutqazsa suyunma, unga yordam ber.

Agar o'zing yutqazsang boshqalarga jahl qilma, balki keyingi safar yutarsan va h.k.

4-mashq. "Laqablar"

Maqsad: kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, salbiy emotsiyalarni bartaraf etish.

Izoh: o'yinni boshlashdan avval bolalar bilan odamni xafa qiluvchi so'zlar, odamlar odatda nimaga xafa bo'lishlari va haqoratli so'zlarni ishlatishlari haqida suhbat quriladi.

Zarur vosita: koptok.

O'yinning borishi: ishtirokchilarga bir-birlariga koptokni bera turib xafa qilmaydigan so'zlar bilan bir-birlariga laqab aytishlari ko'rsatmasi beriladi. Masalan; mevalar yoki sabzavotlarning nomi. Bunda bolalarni bu faqat o'yin ekanligi haqida ogohlantirish zarur. O'yin esa ishtirokchilarning ismlariga yaxshi sifatlar qo'shib aytish bilan yakunlanadi.

5-mashq. "Antonimini top"

Maqsad: SHaxsdagi ijobiy va salbiy xususiyatlar va ularning mohiyati haqida bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.

O'yinning borishi: ishtirokchilar ikki guruhga bo'linadilar. Har bir komanda xarakter xususiyatini nomini aytadi, ikkinchi guruh esa antonimini topib ta'rif beradi, misol keltiradi, uni oqibatini tushuntiradi. (ertakdan, mul'tfil'm qahramonlaridan v.h.) To'g'ri va to'liq javob bergan komanda g'olib bo'ladi.

6-mashq. Xulqni o'zgartirish.

Maqsad: guruhiy nizolar, shaxsdagi salbiy emotsiyalarni ertak, mul'tfil'm qahramonlarining xulq-atvorini tahlili orqali korreksiya qilish.

Ertak yoki multfilm qahramonlari guruh ishtirokchilari tomonidan tahlil qilinadi, ijobiy va salbiy xususiyatlari ajratiladi. Ularning xatti-harakatlari, xulq-atvorlari qanday oqibatlarga olib kelganligi muhokama qilinadi. Salbiy xulq-atvorlardan voz kechish yo'llari topiladi va vatmanga yozib boriladi.

7-mashq. "Ixtiyorsiz rasm chizish".

Maqsad. Fantaziyani rivojlantirish, salbiy his - tuyg'ularni, emotsional zo'riqishni yo'qotish.

Zarur vositalar: Turli shakldagi qog'ozlar (dumaloq, kvadrat, uchburchak, to'g'ri burchak) qaychi, bo'yoq, qalamlar, aplikatsiya uchun turli materiallar.

O'yinning borishi: Xonada past ovozda yoqimli musiqa yangraydi. Ishtirokchilar xohlagan rasmlarini chizib, uni aplikatsiyalar bilan bezatishlari mumkin.

Izoh: dabdurustdan, ixtiyorsiz chizish, depressiyadan chiqishga yordam beradi, psixologik zo'riqishni yo'qotadi, me'yor hissini faollashtiradi. Bola boshqa tajriba qilishning keragi bo'lmaganida to'xtaydi. Hissiyotlar qog'ozda aks etadi.

8-mashq. Vaziyatlarni rolli ijro etish.

Maqsad: turli vaziyatlardan nizosiz chiqib keta olish, muloqot ko'nikmalarini, o'z emotsiyalarini boshqarishni, ijtimoiy ma'qullangan xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish.

O'yinning borishi: ishtirokchilarga turli vaziyatlar beriladi. Guruh ikkiga bo'linadi: 1 chi guruh aktyorlar vaziyatlar rolini ijro etadilar, 2 guruh "kuzatuvchilar" - "aktyorlar" ning ijrosini kuzatib turadilar va muhokama qiladilar. Keyingi safar ikkala guruh o'zaro o'rin almashadilar. Har bir ishtirokchi ham "aktyor", ham "kuzatuvchi" rolini ijro etishi shart. Turli vaziyatlardan eng adekvat yo'lni topa olgan ishtirokchi g'olib hisoblanadi.

Quyidagi vaziyatlar beriladi:

Sen ko'chaga o'ynagan chiqding va bolalar o'ynayotganini ko'rding. Lekin ular seni o'yinga qo'shishni istashmayapti. Seni esa juda ham o'ynaging kelayapti. Ular seni o'yinga qo'shishlari uchun nima qilasan?

Sen o'rtog'ingni qattiq xafa qilding. Endi esa undan kechirim so'rab, u bilan yarashishga harakat qil.

O'rtog'ing seni narsangni berussat oldi va qaytarib berishni unutdi. Sen qanday yo'l tutasan?

Sinfdoshing seni nohaq ayblab baqirdi, buyumlaringni otib yubordi. Sen o'zingni aybsiz ekanligingni tushuntirishing kerak.

Shunday qilib, yuqorida biz tomonimizdan keltirilgan mashqlardan foydalanish kichik maktab yoshidagi agressiv bolalar bilan ishlashda samaralidir.

ADABIYOTLAR

1. Rasulova F.F. Agressivlik: diagnostikasi va korreksiyasi. -T. 2017. -123 b.
2. Оклендер В. Окна в мир ребенка. Руководство по детской психотерапии/ <https://docs.yandex.ru/docs/view?tm>.
3. <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/psikhologiya/2020/07/12/programma-psihokorreksii-agressivnogo-povedeniya-u>



UDK:373.5:(53)

Xurshid QUYBAKOV,
Samarqand davlat universiteti akademik litseyi fizika fani o'qituvchisi
E-mail: xquybaqov@gmail.com

SamDU ped.f.d. N.Shodiyev taqrizi asosida

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA VA AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA FANINI O'QITISHDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolamizda umumta'lim maktablari va akademik litseylarda o'quvchilarni fizika fanini sevishtga, uni o'rganishga undovchi xislatlarni shakllantirish, aniqrog'i motivatsiyalarini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. Fizika fanining o'qitish sifatining bir muncha oshganligi fan o'qituvchisining bilim va mahoratiga, litseyda o'quv jarayonini tashkil etilishiga, eng muhimi o'quvchining bilim olish motivatsiyasiga bog'liqligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Uzlusiz ta'lim, umumta'lim maktabi, akademik litsey, fizika, o'qituvchi, o'quvchi, bilim sifati, kirish ko'rsatkichi.

ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИИ ПРИ ПРЕДОВАНИИ ФИЗИКИ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ И АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

Аннотация

Показано, что незначительное повышение качества преподавания физики зависит от знаний и умений учителя естественных наук, организации учебного процесса в лицее, а главное мотивации учащегося к обучению.

Ключевые слова: Дополнительное образование, общеобразовательная школа, академический лицей, физика, учитель, ученик, качество знаний, входной индекс.

FORMATION OF MOTIVATION IN TEACHING PHYSICS IN SECONDARY SCHOOLS AND ACADEMIC LYCEUMS

Annotation

This article is devoted to the formation of qualities that motivate students to love and study physics in secondary schools and academic lyceums, more precisely, the formation of motivation. It is shown that a slight increase in the quality of teaching physics depends on the knowledge and skills of the science teacher, the organization of the educational process in the lyceum, and most importantly, the motivation of the student to learn.

Key words: Continuing education, secondary school, academic lyceum, physics, teacher, student, quality of knowledge, entrance index.

Kirish. Uchinchi renessans tamal toshi qo'yilayotgan bugungi kunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, raqobatbardoshli kadrlar tayyorlar davlat siyosatining bosh masalasiga aylandi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, xususan, ta'lim va ilm-fan sohasining istiqbolli yo'nalishlari hukumatimiz tomonidan qabul qilingan hamda 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan bo'lib, «IV.Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari...» 4.4-bandida Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 3 dekabrda PQ-4910-son qarorida iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirish, akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilganligi, 2020 yilning 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga

Murojaatnomasi"da 2021 yil uchun ustuvor ilm-fan yo'nalishlarini qatorida fizika fanini belgilab olingani, Prezidentning "Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatan ham, fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarida natijaga erishib bo'lmaydi" deb aytgan so'zlari ham aynan yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, fizika fanini o'qitish metodikasini mustaqillik yillaridagi rivojlanish bosqichlari va undagi muammolar, bugungi kundagi ta'lim innovatsiyalarini tarixiy yo'sinda o'rganish va teran tahlil etish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo ilmiy-texnik inqilobini, xususan, XX-XXI asrdagi buyuk kashfiyotlarni fizika ta'limi va fani taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fizika tabiatning asosiy va shu bilan birga uning eng umumiy xossalari, materiya, uning tuzilishi va harakati to'g'risidagi fan bo'lib, fizikaviy qonunlar tabiatshunoslikning asosini tashkil etadi.

Har qanday mamlakatning iqtisodiyoti, ayniqsa, sanoatining taraqqiyot darajasi yuqori malakali muxandis-texnik mutaxassislar soni va kompetentlik darajasiga bevosita bog'liq. Bu soha mutaxassislarining mehnat samaradorligi va mahsulot sifati to'g'ridan-to'g'ri fizik bilimlar darajasi va zamonaviy asbob-uskunalaridan foydalanish malakasi bilan belgilanadi. Ammo, bugungi kunda shu sohalar bo'yicha oliy

ta'lim muassasa (OTM) larni bitirgan yoshlarning kasbiy bilim, malaka va amaliy ko'nikmalari talab darajasida emasligi tufayli mahalliy va xorijiy intellektual mulk bozorida O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga, shuningdek, tayyorlanayotgan kadrlarimizga talab yo'q. Bu salbiy holatni keltirib chiqaruvchi omillarni faqat OTMlardan izlash to'g'ri emas, uning tub ildizlari maktab, hattoki maktabgacha ta'limga borib taqaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2022 yillardagi chiqishlari va videoselektor yig'ilishlarida bosh masalasi maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktabi ta'limi, akademik litsey ta'limi va oliy ta'limga bag'ishlanganligi o'quvchilarning aksariyati o'z bilimlariga tayangan holda OTMlarga o'qishga qabul qilinayotganligidan dalolat beradi.

Umumta'lim maktablari (akademik litsey, kollejlari) va oliy ta'limda tahsil olayotgan yoshlar, ularning ota-onalari, o'qituvchilar bilan ko'p yillardagi kuzatuvlar, suhbat va muloqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, fizika fani jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi eng asosiy fanlar qatorida bo'lishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalarining fizika-matematika yo'nalishiga kirish ko'rsatkichining sezilarli darajada oshganligida ko'rish mumkin. O'tgan ikki yil mobaynida fizika fani ham matematika, kimyo, biologiya fanlari kabi maktab o'quvchilarida bu fanga bo'lgan qiziqish, moyillik, ijtimoiy motivatsiya yuqori darajada shakllandi. Jamiyat tomonidan ham, davlatimiz rahbari tomonidan ham, ta'lim muassasalari, jumladan, maktab ta'limi oldida qo'yilayotgan ijtimoiy vazifa (buyurtma) ta'lim va tarbiya sifatini oshirishdan iborat. Demak, maktablarda yoshlarni fizika faniga va umuman bilim olishga qiziqishi va moyilliklarini shakllantirish, ularni kasbga yo'naltirish ishlarini yangicha mazmun va shaklda tashkillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda xorijiy va mamlakatimiz nashrlarida o'quvchilar(talabalar)ni bilim olishga moyilligi, qiziqishi, ya'ni motivatsiya masalalari, shuningdek, bilish faoliyatini faollashtirishga oid ko'plab maqola, tavsiya va ko'rsatmalarda motivatsiya nazariyalari yoritilganki, bu nazariyalarda yoshlarni bilim olishga qiziqishi, moyilligi jamiyatning bugungi zaruriyati va ehtiyojidan kelib chiqishi bo'yicha turlicha yondashuvlar bayon etilgan[3]. Lekin, yagona va hamma bop motivatsiya nazariyasi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, chunki o'quvchining bilish olishiga moyilligi uning fiziologik jihatlaridan tashqari, uning psixologik holati va oilasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit, jamiyatning bugungi holati, shuningdek, davlatning bu sohadagi siyosatiga (maktab va oliy ta'limning nufuzi va yaratilgan sharoitlar, ish bilan ta'minlash, o'qish jarayonini tashkil etilishi va o'quvchilarni rag'batlantirilishi, jamiyatda u yoki bu mutaxassislikning qadrlanishi va h.k.) ham bevosita bog'liq.

Fizika fani va ta'limi yoshlarni intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Aynan, fizika fani insoniyat tarixi taraqqiyotida va uning yutuqlarida intellektual qurol sifatida xizmat qilib kelmoqda. XX asrdagi globallashtirish jarayonlari, insoniyatning energiyaga, kosmosni o'zlashtirishga, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarining tobora oshib borishi bugungi kunda innovatsion ta'lim va fanning taraqqiyoti orqali mavjud muammolarni hal etishini taqozo etadi. Bu albatta yangicha fikrlaydigan, mutloq innovatsion bilimlarni generatsiyalaydigan yangi avlodni shakllantirish vazifasini jamiyat oldiga vazifa etib qo'yadi.

Ushbu maqolamizda umumta'lim maktablari va akademik litseylarda o'quvchilarni fizika fanini sevishtirish, uni o'rganishga undovchi xislatlarni shakllantirish, aniqrog'i motivatsiyalarini shakllantirish masalalariga e'tiborni qaratmoqchimiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni fizika fanini sevishti va

kelgusida shu fan bilan bog'liq mutaxassislik(kasb)larni egallashlari uchun maktab fizika va akademik litsey o'qituvchisi muayyan tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi. Agar o'quvchi yoki talabada shu fan yoki shu fan asosida egallanilishi lozim bo'lgan mutaxassislikni egallash ishtiyoqi (motivatsiyasi) va albatta zaruriyati bo'lmasa, har qanday o'qituvchi, har qanday pedagogik texnologiya ta'lim oluvchini innovatsion bilim olishga unday olmaydi. R.Xazbend ta'kidlaganidek, «Ijodkorlik uchun ijod qilish, dastlabki «qora mehnatni» nazar-pisand qilmaslik, ilhomlanish (jo'shqinlik) va his etish (sezgirlik)ni bo'rttirib ko'rsatish ta'limda halokatdir». Demak, fizika predmetining bilim komponentalarini o'zlashtirish zaruriyati ta'limning muqarrar bosqichidir, shu sababli uni shunday tashkil etish va o'tkazish kerakki, o'quvchining bu faoliyatga ishtiyoqi (motivatsiyasi) bo'lsin. Buning uchun o'qituvchi o'zida mavjud bo'lgan barcha jo'shqinlik va ijtimoiy richaglardan foydalanib, ta'lim oluvchida ijobiy his-tuyg'uni shakllantirishi kerak[1].

O'quv jarayoniga tatbiq etilgan u yoki bu pedagogik texnologiya shu vaqtda samara beradiki, agar o'quvchi (talaba)ning bilim olishga bo'lgan hoxishi, moyilligi, ya'ni motivatsiya darajasi yuqori bo'lsa. Madomiki, turli sabablarga ko'ra o'quvchi bilim olishni hojlamasa, pedagog bergan topshiriqlarni bajarmasa, har qanday pedagogik texnologiya ham o'quvchining zamonaviy bilim olishiga yordam bera olmaydi[2].

Afsuski, o'quvchilarda fizika faniga bo'lgan motivatsiyani o'rganish bizning mamlakatimizda talab darajasida emas. Chunki mamlakatimizda ancha yillar hukm surgan iqtisodiy-ijtimoiy turg'unlik ta'limga bo'lgan e'tiborni ham o'ta susaytirdi. Sobiq Ittifoq davrida fanlarni o'qitish metodikalari bilan shug'ullanadigan institutlar faoliyati to'xtadi yoki «soxta ta'lim islohoti»ni targ'ib etishga yo'naltirildi. Bu holat shu jumladan, fizika fani va ta'limini o'qitish, ommalashtirish jarayonlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

P.YA.Galperin motivatsiya turlarini 3 ga bo'lgan: tashqi, musobaqali va ichki.

O'qish motivatsiyasining o'zi esa 5 ta darajaga bo'lingan.

Birinci daraja-o'quv faoliyatining yuqori darajadagi motivatsiyasi (Bu bolalarda o'quv motivatsiyasi mavjud bo'lib, ular maktab tomonidan qo'yiladigan barcha talablarni muvaffaqiyatli bajarishda haddan tashqari kirishadi. O'quvchilar o'qituvchining barcha ko'rsatma va topshiriqlarini aniq bajaradilar, halol va mas'uliyatli, agar qoniqarsiz baho olsalar juda tashvishga tushadilar).

Ikkinchi daraja-yaxshi o'quv motivatsiyasi (O'quvchilar o'quv faoliyatini yaxshi olib boradilar). Mazkur motivatsiya darajasi o'rtacha me'yor hisoblanadi.

Uchinchi daraja – maktabga ijobiy munosabat, lekin maktab bunday bolalarni darsdan tashqari faoliyati bilan o'ziga jalb qiladi, xolos (Bunday bolalar do'stlari, o'qituvchilar bilan muloqot qilishda maktabda o'zlarini etarli darajada erkin his qilishadi. Ular chiroyli portfel, ruchka, penal, daftarlari bor o'quvchi ekanliklari bilan o'zlaridan mag'rurlanadilar. Bunday bolalarda bilish motivi kam darajada shakllangan va o'quv jarayoni ularni o'ziga kam tortadi).

To'rtinchi daraja – past o'quv motivatsiyasi (Bu bolalar maktabga istar-istamas qatnaydi, mashg'ulotlarni qoldirishni afzal ko'radi, darsda ko'pincha boshqa aloqasi yo'q ish va o'yinlar bilan mashg'ul bo'ladilar, o'quv jarayonida jiddiy qiyinchiliklarga uchraydi).

Beshinchi daraja – maktabga salbiy munosabat, maktabga moslashmaslik (Bunday bolalar o'qishda jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradilar: ular o'qish faoliyatini bajara olmaydilar, sinfdoshlari bilan muloqotda, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatda muammolarga duch keladilar. Ular

maktabda bo'lishlikni toqat qilib bo'lmaydigan darajadagi holat, maktabni ko'pincha adovatli muhit sifatida qabul qiladilar. Boshqa hollarda o'quvchilar tajovuzkorlikni namoyon etadilar, topshiriqlarni bajarish, u yoki bu qoida va tartiga bo'ysunishdan bosh tortadilar. Ko'pincha, bunday o'quvchilarda asabiylilik, ruhiy chetlanishlar kuzatiladi).

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'quvchining bilimni egallash darajasi uning fiziologik va psixologik jihatlariga bevosita bog'liq ekan. Madomiki shunday ekan sinfdagi (talabalar guruhidagi) shu 5 ta darajaga tegishli yoshlarga bir xil dars o'tish (bir xil pedagogik texnologiyani qo'llash) didaktika nuqtai nazardan nomaqbul ekanligi ko'rinib qoladi.

Samarqand davlat universitetining akademik litseyini keyingi 2 yilda aniq fanlar (texnika) yo'nalishini bitirgan o'quvchilarning, matematika, fizika, muxandislik-texnika ta'lim yo'nalishlaridagi oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichining sezilarli darajada o'sishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2019 – 2020 o'quv yilida 20 nafar o'quvchidan 16 nafarni (80%), 2020-2021 o'quv yilida 73 nafar o'quvchidan 69 nafarni (94,5%) tashkil etdi.

Bizning akademik litseyimizda 2021-2022 o'quv yili uchun iqtidorli o'quvchilarni qamrab olish maqsadida 2022 yilning fevral-mart-aprel oylarida viloyat maktablariga borib, a'lochi o'quvchilar orasida tanlov asosida qabul tashkil qilindi. Xuddi shuningdek, olimpiadalar o'tkazildi, onlayn tanlov amalga oshirildi. Afsuski, tanlab olingan o'quvchilarning aksariyati mustaqil ta'lim olishni bilishmaydi, fizikaviy tajribalar aksariyat maktablarda o'tkazilmaganligi tufayli fizikaviy qonuniyatlar va hodisalarni hikoya qilib berish darajasida bilishadi, xolos. Bu holat litsey o'quvchilari oldida qator muammolarni yechishni ko'ndalang etib qo'ydi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bizlar Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti akademik litseyi aniq fanlar (texnika) yo'nalishida tahsil olayotgan 45 nafar 1 va 2-bosqich o'quvchilari orasida maxsus so'rovnoma – tajriba o'tkazdik.

So'rovnomada quyidagi savollar kiritildi (qavs ichida o'quvchilarning javoblari foizlarda keltirilgan):

1. Akademik litseyda fizika fani bo'yicha o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasi: a) darsliklar (bosma va elektron shaklda) yetarli;

b) darsliklar (bosma va elektron shaklda) yetarli emas; 1-jadval

Jami o'quvchilar soni	1 – savol			2 – savol			3 – savol			4 – savol			5 – savol		
	a	b	v	a	b	v	a	b	v	a	b	v	a	b	v
45	41	4		43		2	37	5	3	40	1	4	40	2	3
Foizda (%)	91	9		96		4	82	11	7	89	2	9	89	4	7
6 – savol			7 – savol			8 – savol			9 – savol			10 – savol			
a	b	v	a	b	v	a	b	v	a	b	v	a	b	v	
38	4	3	33	8	4	18	22	5	19	26		42	3		
84	9	7	73	18	9	40	49	11	42	58		93	7		

Tahlillardan ko'rinadiki, o'quvchilarning barchasi akademik litseyda fizika fani bo'yicha o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha o'quvchilarning darsliklar (bosma va elektron shaklda) etarli 91% va darsliklar (bosma va elektron shaklda) yetarli emas 9% ekanligini ko'rish mumkin (1-savol). Akademik litseyda fizika fani bo'yicha tajribalar o'tkazish uchun yaratilgan imkoniyatlar bo'yicha 96% (2-savol), o'quvchilarning 82% fizika o'qituvchisi tomonidan o'quv (mavzu) materialini aniq va tushunarli bayon etishi va 11% o'qituvchi mavzuni aniq va tushunarli bayon etmasligini, 7% esa o'qituvchi mavzuni asosan nazariy tomondan tushuntiradi, amaliy qo'llanilishi e'tibordan chetda qoladi, masalalar ham kam yechilishini (3-savol), 89% fizika o'qituvchisining o'quvchilarga nisbatan talabchan, 2% o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan talabchan emas va 9% esa o'qituvchi darsini shunchaki darsini o'tadi, xolos (4-savol) deb fikr bildirishgan. O'quvchilarning 89% o'qituvchi o'zining xizmat vazifasiga ijodiy yondashishini (5-savol) ta'kidlashgan.

2. Akademik litseyda fizika fani bo'yicha tajribalar o'tkazish uchun yaratilgan imkoniyatlar: a) laboratoriyalar yaxshi jihozlangan, tajribalar o'tkazishga imkoniyatlar etarli; b) laboratoriyalar yaxshi jihozlanmagan, tajribalar o'tkazish imkoniyati yo'q;

3. Fizika o'qituvchisi tomonidan o'quv (mavzu) materialini bayon etilishi: a) o'qituvchi mavzuni aniq va tushunarli bayon etadi; b) o'qituvchi mavzuni aniq va tushunarli bayon etmaydi; v) o'qituvchi mavzuni asosan nazariy tomondan tushuntiradi, amaliy qo'llanilishi e'tibordan chetda qoladi, masalalar ham kam yechiladi;

4. Fizika o'qituvchisining o'quvchilarga nisbatan munosabati: a) o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan talabchan; b) o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan talabchan emas; v) o'qituvchi darsini shunchaki darsini o'tadi, xolos;

5. O'qituvchining o'zining xizmat vazifasiga munosabati: a) o'qituvchi o'zining xizmat vazifasiga ijodiy yondashadi; b) o'qituvchi o'zining xizmat vazifasiga loqaydlik bilan qaraydi; v) o'qituvchi shunchaki dars o'tadi, xolos;

6. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni baholashi: a) o'qituvchi o'quvchilar bilimni adolatli baholaydi; b) o'qituvchi o'quvchilar bilimni adolatsiz baholaydi; v) o'qituvchi o'quvchilar bilimni baholashda e'tiborsizlik qiladi;

7. Fizika faniga ajratilgan soatlar bo'yicha fikringiz: a) o'quv soatlari yaxshi bilim olish uchun etarli; b) o'quv soatlari yaxshi bilim olish uchun etarli emas; v) taklifingiz;

8. Fizika fanini o'qitishda o'qituvchilar eng ko'p duch keladigan muammolar:

a) o'quvchining darsga qiziqmasligi va loqaydligi; b) maktabda olingan fundamental bilimlarning etishmasligi; v) boshqa sabablar;

9. Fizika darslarini o'tishda qaysi usullarni tanlagan bo'lar edingiz: a) an'anaviy usul (o'qituvchi tushuntiradi, yozdiradi, so'raydi); b) noan'anaviy-innovatsion usul (o'qituvchi va o'quvchi o'zaro muloqatda ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi, baholaydi);

10. Akademik litseyda sifatli ta'lim olish muhiti to'g'risidagi fikringiz: a) akademik litseyda sifatli ta'lim olish muhiti yaratilgan; b) akademik litseyda sifatli ta'lim olish muhiti yaratilmagan v) takliflaringiz;

Akademik litsey o'quvchilari o'rtasida fizika fanini o'qitish va darsliklar bilan ta'minlanganlik bo'yicha savollarga javoblari 1- jadvalda umumlashtirildi.

84% o'quvchilar o'qituvchi o'quvchilar bilimni adolatli baholashini (6-savol), 73% o'quvchilar fizika faniga ajratilgan o'quv soatlarining bilim olish uchun etarli ekanligini, 18% esa o'quv soatlari yaxshi bilim olish uchun etarli emasligini, 9% dars soatlarini ko'paytirish kerakligini (7-savol), 40% o'quvchining darsga qiziqmasligi va loqayd bo'lishi, 49% o'quvchilar fizika fanini o'qitishda o'qituvchilar eng ko'p duch keladigan muammo bu maktabda olingan fundamental bilimlarning etishmasligi (8-savol) deb fikr bildirishgan. Fizika darslarini o'tishda 42% o'quvchi an'anaviy usulni (o'qituvchi tushuntiradi, yozdiradi, so'raydi), 58% esa noan'anaviy-innovatsion usulni (o'qituvchi va o'quvchi o'zaro muloqatda ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi, baholaydi) ma'qul ko'rishgan.

O'quvchilarning 93% akademik litseyda sifatli ta'lim olish muhiti yaratilganligini, o'quv jarayoni yaxshi tashkil etilganligini, fizika fanini o'qitish darajasi va o'qituvchilarning bilim va mahoratlari yuqoriligini e'tirof

etishgan (10-savol). Albatta, akademik litsey o'quvchilari hozir o'zlari o'qiydigan muassasa to'g'risida o'ta yuqori baho berishlari bir tomondan quvonarli holat va akademik litseyning nufuzini belgilasada, ikkinchi tomondan bu ularning sharqona «mentaliteti» asosida baholanganligini ham ta'kidlash lozim bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish lozimki, umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish masalasida jiddiy kamchilik va muammolar mavjud: birinchidan,

umumta'lim maktablarida bilimli va malakali fizika fani o'qituvchilari etishmaydi va bu holatga oliy ta'lim muassasalari alohida e'tibor qaratishlari kerak, ikkinchidan, maktabda o'quv jarayonini tashkil qilish va fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tish darajasi talabga javob bermaydi, uchinchidan, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va bilim olishlariga qiziqishlarini (motivatsiyani) oshiruvchi samarali tadbir va mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

ADABIYOTLAR

1. Ханнанов Н.К. Настольная книга учителя физики. 7-11 классы// -М.:Эксмо, 2008.-656 с.
2. Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология// Т.: Изд-во «ALQACHU», 2009.-148с.
3. Федюнина Н.В. Повышение мотивации учащихся к изучению физики//Физика. Всё для учителя. 2016, №4(64), с.4-11.



Aziza KURBANOVA,

*PhD, associate professor, head of the department of
Information technologies at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan
E-mail: kurbanovaaziza87@gmail.com*

According to the review of associate professor, PhD. Mamadaliyev K.R.

ART-PEDAGOGIKA YORDAMIDA O‘QITISH ASOSLARI

Аннотация

Bu maqolada art pedagogikaning mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. Art-pedagogika yordamida o‘qitish usullariga urg‘u berilgan. Art-pedagogikadan foydalanib o‘qitish talabalarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlari: madaniyat, art-pedagogika, art-terapiya, rivojlanish, kasbiy qobiliyat, musiqa.

ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ АРТ-ПЕДАГОГИКИ

Аннотация

В данной статье раскрывается содержание и сущность арт-педагогике. Особое внимание уделяется методам обучения с использованием художественной педагогики. Обучение с использованием арт-педагогике основано на служении профессиональному развитию учащихся.

Ключевые слова: культура, арт-педагогика, арт-терапия, развитие, профессиональные навыки, музыка.

FUNDAMENTALS OF TEACHING THROUGH ART-PEDAGOGY

Аннотация

This article reveals the content and essence of art- pedagogy. Particular attention is paid to teaching methods using art- pedagogy. Learning using art pedagogy is based on serving the professional development of students.

Key words: culture, art pedagogy, art therapy, development, professional skills, music.

Introduction. Art pedagogy today is one of the most actively developing areas of scientific knowledge. Despite the fact that the concept of “art pedagogy” as a special direction in modern pedagogical science, today in Uzbekistan has not yet received a sufficiently complete and accurate definition, creatively thinking teachers are increasingly beginning to use various techniques, methods and technologies in their practice art pedagogy. We can confidently say that every year this direction is increasingly asserting itself in the modern educational and cultural space of Uzbekistan.

The concept of art pedagogy Art pedagogy (art + pedagogy) is a technology for the development and education of children with the aim of forming the foundations of artistic culture through art and artistic and creative activities (musical, visual, artistic and speech, theatrical and gaming, etc.). Let us remember that art therapy (from Latin ars - art and Greek therapeia – treatment) is a technology of treatment and development using art and creativity.

Teaching the basics of art pedagogy makes its own demands on a pedagogical university and requires special training of teaching staff and training facilities.

One of the most important conditions for the development of a teacher’s creative pedagogical position is the creation of an arts environment. It should be formed with the help of cultures of intensive technologies and diverse high-quality means of various disciplines, both the humanities and the natural sciences.

Material and methods. The creative component of the process of training a future teacher should be strengthened - with an art pedagogical approach, he will have to not only transfer his knowledge and skills to the student, but also develop his creative individuality: in a broad sense, art pedagogy considers the student as a person striving for self-realization. In addition, the teacher needs a special, non-standard psychological readiness to work with students.

Therefore, the art-pedagogical approach also presupposes a good knowledge of psychology.

In this regard, there is a need to review and change the content of pedagogical and psychological disciplines studied both at the university by future teachers and in the system of advanced training and retraining of teaching staff [4].

However, it is difficult to name competencies that can be developed without art-pedagogical support and are not required by a modern art teacher - he must be able to improvise, look for new approaches, change stereotypes, have oratory skills, know the basics of pedagogical creativity , dramaturgy, theater pedagogy.

It’s not bad to have the skills of a director, musician, choreographer, and this is in addition to professional requirements – high intelligence, developed thinking and memory. After all, art pedagogy is an appeal to the inner world of the student, the development of individuality, creativity, the need for self-education, self-education, self-development in both the student and the teacher. In the educational space, this is “dialogue on equal terms” [5].

Art pedagogy, which allows one to acquire fundamentally new competencies for working in schools, can be taught as a separate independent discipline in the pedagogical and psychological-pedagogical areas of training bachelors and masters, as well as within the framework of the implementation of individual master’s programs.

Results. Art pedagogy integrates the means of teaching, education, development and art, has a complex impact on the motivational, creative and aspects of the student’s personality, develops him through creative, aesthetic, artistic and educational-cognitive activities through motives, imagination, improvisation, knowledge, abilities, skills. Thus, the time has come to rethink the methods and forms of introducing preschool and school-age children to art and

transform the traditional practice of organizing this work in educational institutions.

In this case, special attention must be paid to revealing the creative potential of each student, encouraging his self-expression through artistic and creative activities, and shaping him as a harmonious personality.

"In one moment to see eternity, A huge world - in a grain of sand, In a single handful - infinity and the sky - in a cup of a flower": these famous lines from William Blake translated by Samuel Marshak, in our opinion, characterize the level of perception of the world in children who are trained using art-pedagogical methods[3]. Raising a comprehensively developed personality with broad views is the goal of any school, regardless of place and time, and the task of a pedagogical university is to prepare teachers who will ensure the education, no matter how pretentious it may sound, of a new "Renaissance man."

Discussion. The relevance of this problem is due to the fact that, on the one hand, art pedagogy is in great demand today and should be included in the practice of every teacher working with children of preschool and primary school age and, on the other hand, teachers are insufficiently prepared for this work. Moreover, the use of art-pedagogical technologies is important and necessary not only for working with "special" children, but also as a warning, preventive correctional and creative work with "ordinary" preschoolers. There is no need to wait until the time comes to correct and adjust.

It is necessary to help the student himself "correct" his problematic issues in the early stages, to launch the mechanism of "self-healing" through art and artistic and creative activity.

Art pedagogy: facilitates the learning process for both the child and the teacher; - provides material for analyzing the results of diagnosing the level of general and artistic-aesthetic development of students (diagnostic approach); - allows you to study educational material based on the existing personal and personal experience of the teacher and student, which makes knowledge, skills and abilities personally significant, and therefore successfully implement a student-oriented approach;- helps to establish relationships between the teacher and children, to create optimal conditions for dialogue, without which productive learning, education and development are impossible - dialogic and optimization approaches; - provides a socially acceptable outlet for aggression and other negative feelings that may arise during children's communication with the teacher or with other children (students); - contributes to the preservation of the integrity of the individual, influencing the aesthetic, emotional and moral spheres of the individual during the learning process.

Conclusion. General objectives of art pedagogy and art therapy: general and artistic-aesthetic development; formation of the foundations of artistic culture; social adaptation of personality through art.

Particular tasks of art pedagogy: - development of content and correctional and developmental pedagogical technologies for the use of art, ensuring the harmonious development of the student; - activation of the student's potential through art,

problems in development, its creative manifestations in various types of artistic activity (musical, visual, artistic and speech, theatrical and play); - providing the student's cognitive and information needs with the help of art; - ensuring the development of emotional, aesthetic, moral, communicative and reflective foundations of a student's personality through art; - implementation by means of art of correction and prevention of existing deviations in the development of cognitive activity, emotional-volitional, motor and personal spheres; - creating conditions for the sociocultural adaptation of students with problems through art and artistic activity.



1- drawing. The basis of art- pedagogy

The common tasks of art pedagogy and general pedagogy are to help the student learn to understand himself and live in harmony with himself, - to learn to live together with other people in society, - to learn to understand the world around him according to the laws of beauty and morality. In other words, to help a developing personality in its socialization, development and self-realization[2].

Art pedagogy has a powerful potential, the actualization of which allows us to radically change didactic (educational) approaches to the process of teaching, upbringing, personal development, organization and implementation of joint intellectual, emotional and artistic activities of the teacher and student. The use of art pedagogy

tools makes it possible to informally implement the process of integrating scientific and practical knowledge, abilities, skills in different types of activities (speech, cognitive, motor, artistic and aesthetic, etc.).

The experience of many teachers who use art pedagogy in their teaching activities has shown that the most effective is the use not of individual elements and technologies, but of integrated classes that combine various types, techniques, methods and techniques of art pedagogy.

Research has shown that classes that include art-pedagogical technologies provide a greater educational, developmental and training effect.

REFERENCES

1. Altshuler G.S., Vertkin I.M. How to become a genius: Life strategy of a creative person. Minsk: Belarus, 1994.
2. Medvedeva E.A., Levchenko I.Yu. Art pedagogy and art therapy in special education. - M., 2007.
3. Nikishina I.V. Art therapy as a health-developing technology. – Electronic methodological manual, 2013.
4. Sergeeva N.Yu. Art-pedagogical support for the professional training of a future teacher: abstract of thesis. dis. ... doc. teacher Sci. Cheboksary. 2010. - 43 p.
5. Anisimov V.P. Art pedagogy as a system of psychological support of the educational process // Bulletin of the Orenburg State University. University.-2003.-No.4.-S. 146-148.



UDK:372.8

Feruz QO‘CHQAROVA,
Andijon davlat universiteti professori v.b.
E-mail: quchqarova@mail.ru

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti M.Boltayeva taqrizi asosida

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SANOGEN TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI

Аннотация

Ushbu bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari, bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning afzalliklari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Sanogen tafakkur, pedagogika, psixologik asoslari, strategiya, tafakkur omillari, muammoli vaziyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

Представлены психолого-педагогические основы педагогических стратегий развития саногенного мышления будущих учителей, преимущества развития саногенного мышления будущих учителей.

Ключевые слова: Саногенное мышление, педагогика, психологические основы, стратегия, факторы мышления, проблемная ситуация.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL BASES OF PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR DEVELOPMENT OF SANOGENIC THINKING OF FUTURE TEACHERS

Annotation

The psychological and pedagogical bases of pedagogical strategies for the development of sanogenic thinking of future teachers, the advantages of developing sanogenic thinking of future teachers are presented.

Key words: Sanogenic thinking, pedagogy, psychological foundations, strategy, thinking factors, problem situation.

Kirish. Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari mexanizmlari tatbiq etilgan. 2015 yil Janubiy Koreyada o‘tkazilgan butun jahon forumida ta‘limning barqaror taraqqiyotini ta‘minlovchi “Ta‘lim-2030” Inchxon deklaratsiyasi qabul qilindi va butun hayot davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari takomillashtirish, didaktik ta‘minot sifati darajasini oshirish, talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish, kreativ va kompetentli mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar. Respublikamiz uzluksiz ta‘lim tizimida o‘qitishning muammolari, ta‘lim muassasalarida ta‘limni tashkil etish masalalari bo‘yicha B.Abdullayeva, R.Djurayev, R.Isyanov, N.A.Muslimovlar ilmiy-tadqiqot olib borgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari va kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari G.Karlyabayeva, B.M.Mirzaxmedov, Yu.G‘.Mahmudov, K.Mo‘minxo‘jayev, Yu.Po‘latov, K.Tursunmetov, N.Sh.Turdiyev, B.To‘rayev, J.Usarovlar ishlarida tadqiq etilgan

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida ta‘limda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini rivojlantirish, o‘qituvchilarni kasbiy madaniyatga qiziqtirish va ularda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish muammolari I.A.Zimnyaya, Ye.Demyankov, E.F.Zeer, A.K.Markova, V.A.Yakunin, N.V.Kuzmina kabi olimlar tamonidan o‘rganilgan.

Xorijiy davlat Rabiye Razzuk, Kerlis Vomak Veyne, Kim Bonggyu, Park Minju, Tilek Erduran Avji, Sedef Janbazo‘g‘lu Biliji kabi tadqiqotchilarni ishlarida ta‘limining

zamonaviy ta‘lim tizimidagi ahamiyati masalalariga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson ma‘naviyatini yuksaltirishga bo‘lgan ehtiyoj keng qamrovli tushuncha sifatida “sanogen tafakkur” mohiyatini tahlil qilishga undab, ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olmoqda hamda “tafakkur va sog‘lom tafakkur” kategoriyalarini chambarchas bog‘liq tushunchalar sifatida aqliy-mantiqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o‘lchov sifatida maydonga chiqarmoqda.

Yosh avlodning mamlakatimiz barqarorligiga, uning ijtimoiy, ma‘naviy yuksalishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan ekstremistik va terroristik oqimlar, patogen g‘oyalar ta‘siriga tushib qolmasligi uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish, takomillashtirish hozirgi kunda psixologiya fani oldida turgan “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami 100 muhim vazifalardandir. Mazkur masala, yoshlarning sanogen tafakkuri genezisi, mohiyati va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyangan holda ta‘rif berish, tasniflash, tahsil oluvchilarning sog‘lom tafakkurini rivojlantirishga bag‘ishlangan ijtimoiy-psixologik, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Hozirgi vaqtda patogen g‘oyalar va destabillashtiruvchi guruhlarining paydo bo‘lish sabablari, faoliyat doirasi kengayishining oldini olish maqsadida yoshlarning sanogen tafakkurini o‘stirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, bu sohada ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni olib borish dolzarb vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Insonning sog‘lom fikrlashga undovchi manbalardan biri “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib,

ajdodlarimiz yaratgan eng qadimiy, noyob bilimlarning xazinasidir. Jumladan "Avesto"da yaxshi fikr, tarbiyasi haqida quyidagi mulohazalar uchraydi: "Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avval yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin". "Yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shonshavkat baxsh etaman". Avestoda Odamning tanasi ham, so'zi ham ishi-yu tafakkuri ham pok bo'lmog'i lozim, deyiladi... Ahuramazda dedi: "O'zgalarga ro'shnolik istagan odamning yo'li, albatta, hamisha nurafshon bo'lgay!" Odamning tanasi ham, so'zi ham ishi-yu tafakkuri ham pok bo'lmog'i lozim, deyiladi fargardlardan birida. Demak, "Avesto" ma'naviyatimizning ilk sarchashmalaridan biridir. Unda iymon, e'tiqodda sobitlik, ilm-fan, kasb-kor egallash, xalqni adolat, marifat, insondo'stlik, vatanparvarlik, ona sayyorani e'zozlashga, hidoyat etishga da'vat bosh masala hisoblanadi.

Alloh taolo Qur'oni Karimda tafakkur va mushohadaga buyurib, tafakkur kishilarini maqtab, shunday deydi: "Ular turib ham, o'tirib ham, yotib ham Allohni zikr etadilar va osmonlar-u Yerning yaratilishi haqida fikr yuritadilar (va duo qiladilar...)" (191-oyat). "Alloh bir kishining ichida ikki qalb yaratgan emas" (Ahzob surasi, 4-oyat) ya'ni "Fikrlar turli tomonga sochilgani sayin, narsaning haqiqatini bilish qiyinlashaveradi. Shuning uchun hukamolar: "Sen o'zingni ilmga to'la bag'ishlamaguningcha ilm senga biror narsasini bermaydi..." – deyishgan. Har tarafga sochilgan fikr, xayol ko'plab ariqlarga tarqalib ketgan svuga o'xshaydi. Uning bir qismini yer shimadi, qolgani havoda bug'lanadi, ekinga hech narsa yetib bormaydi", – deb, fikrning teranligi, sog'lom tafakkurga ega bo'lish uchun inson ilm talabida bo'lib, ma'rifatga intilib, o'qib o'rganib muayyan sohani egallashi zarurligiga ishora qilishgan. Payg'ambarimiz alayhissalom: "Bir soatlik tafakkur bir yil ibodat qilgandan xayriroq", deb marhamat qilganlar. Sir emaski, fikr nurlar kaliti va bilish uchun harakat asosidir.

Shuningdek, fikr ilmlarni o'zida tutib qoladigan to'r, maqsad va tushuncha tuzog'idir. Ko'pchilik ilmning fazl va martabasini bilsa ham, uning haqiqati, samarasi, masdari, makoni, paydo bo'lish joyi, yo'li va kayfiyatidan xabardor emas. Shu bilan birga, inson qanday tafakkur qilish, nima to'g'risida va nima uchun tafakkur qilishni, talab etilgan narsa ayni maqsad yoki maqsad emasligini ham to'g'ri hal qilib ololmagan. Ibn Abbos: "Yaxshiliklarni fikrlab ko'rish yaxshilik qilishga undaydi, yomonliklardan afsuslanish undan voz kechishga boshlaydi", degan. Rivoyat qilinishicha, Alloh taolo kitoblaridan birida aytadiki: "Har bir hikmat sohibining so'zini qabul qilavermayman, uning o'y-fikr va ishtiyoqiga qarayman. Agar uning o'y-fikr va ishtiyoqi men uchun bo'lsa, sukutini tafakkur, so'zini hamdga aylantirib qo'yaman". Shofe'iy rahimahulloh aytadilar: "Sukut saqlash bilan gapirishga, fikrlash bilan xulosa chiqarishga yordam beringlar". Tag'in u zot: "Masalaga to'g'ri nazar g'ururdan saqlaydi, bir fikrga qaror qilish xato va nadomatdan xalos etadi: ko'rish va fikrlash jazm va fatonat(farosat)ni kashf etadi. Hikmat ahli bilan maslahatda bo'lish nafsga sabot va aqlga quvvat beradi. Bir qarorga kelishdan oldin fikrlab ko'r, hujumga o'tishdan oldin tadbir qil, oldinga yurishdan ilgari maslahatlash". "Tafakkur"ning foydasi esa ilmni ko'paytirish va hosil bo'lmagan ilmni jalb qilishdan iborat.

Umar Xayyom o'z ijtimoiy va axloqiy qarashlarida shaxsiy baxtni jamoa baxti bilan bog'lab, uning asosini adolat, insonparvarlik, hurfikrlilik, insoniy burch tashkil egishini, shundagina hayotning baxtli damlariga erishish mumkinligini yozgandi.

Tahlil va natijalar. Sanogen tafakkur (lotincha: "sanus" – sog'lom va yunon tilida – "genezis" - rivojlanish) his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog'lomlashtiruvchi tafakkur.

Patogen fikrlash bu insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig'indisi bo'lib, u shaxsning o'z-o'zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional beqarorlik va ichki nizolar bilan izohlanadi.

Sanogen tafakkurning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan professor Yu.M.Orlov insonning ruhiy salomatligi masalasiga to'xtalib, quyidagi fikrni bildirib o'tadi: "Sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo'llaridan biridir. Ushbu metodika yangi hissiy-aqliy odatlarni yuqori darajada o'zlashtirishga imkon beradi, o'tmishdagi patogen fikrlash tajribasini to'playdi.

Sanogen tafakkur inson ongini sog'lomlashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Ya'ni, insonning hayotiy faoliyati davomida yuzaga kelgan inqirozli holatlarini ruhiy qo'llab-quvvatlash yordamida, hissiy-emotsional o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish orqali bartaraf etish usuli" [3]. O'z mulohazalarini davom ettirib, olim quyidagi fikrlarni qat'iy ta'kidlab o'tadi: sanogen tafakkurning asosiy ahamiyati o'z-o'zini kamolga yetkazish maqsadlariga erishish uchun sharoit yaratish, ya'ni fe'l-atvor hamohangligi, o'z-o'zi va atrofdagilar bilan kelishish, shuningdek yomon odatlarni bartaraf etish, o'z histuyg'ularini boshqarish, o'z ehtiyojlarini nazorat qilish deb hisoblaydi.

S.Ataxanova sog'lom tafakkur muammosini o'rganib quyidagi fikrni bildiradi: "Sog'lom tafakkur insonning aqliy va hissiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lib, u sog'lom fikrga yo'naltirilsa sog'lom tafakkur shakllanadi. Aqliy faoliyat mavjud bilim va malakalarni egallash vazifasi bo'lib, hissiy faoliyat esa sog'lom turmushga bo'lgan hissiy munosabatni anglatadi [4]. Muallif sog'lom tafakkur tushunchasining psixologik, pedagogik va falsafiy mazmunini ochib bergan bo'lsada, lekin uning tarkibiy komponentlarini aniq ajratib ko'rsatmagan. Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik muammolarini tadqiq etgan

Z.A.Abdiraxmonovanning fikricha, sanogen tafakkurni rivojlantirish fikrlashdagi refleksivlik va o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan ehtiyojning yuqoriligi bilan belgilanib, o'smir yoshdagi talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish, shaxs xususiyatlari va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar ta'lim jarayoni, shaxslararo munosabatlar, kasbiy kamolot kabi ijtimoiy omillar bilan bog'liq [5].

S.N.Morozyuk oliy ta'lim muassasalari talabalarining shaxsiy va xarakter xususiyatlarini psixodiagnostik jihatdan tahlil qilib, "sanogen refleksiya"ni sog'lom tafakkurning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Sanogen refleksiya – bu turli xil vaziyatlarda to'g'ri xulq-atvor usullarini tanlashga imkon beruvchi, insonning o'z-o'zini, hissiy kechinmalarini, fikrlari va muammolarini obyektiv ko'rish va baholash qobiliyati [6].

T.N.Vasileva o'qituvchining sanogen fikrlashiga bolani sanogen tarbiyalash vositasi sifatida jiddiy e'tibor beradi hamda talabalarda sanogen fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi o'yinlar va mashqlar to'plamini ishlab chiqadi [7].

A.B.Rossoxin sanogen fikrlash usulining quyidagi ijobiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: sog'lom fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirish shaxsda ko'plab ijobiy o'zgarishlarni ta'minlaydi; sanogen fikrlash aqliy faoliyatning xilma-xilligi va mustaqilligini ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi [8].

U.N.Kraynova emotsional kompetentlik va sanogen refleksiya muammosini tadqiq etar ekan, sanogen refleksiyani sanogen fikr yuritishning muhim tarkibiy komponenti sifatida belgilab, talabalarda emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ichki omili sifatida baholash mumkin", degan xulosaga keladi [9].

Xulosa. Inson tafakkurini va ularning insonparvarlik qadriyatlariga munosabatini tubdan o'zgartirish uchun ularda sanogen tafakkurni rivojlantirish muhim ijtimoiy-psixologik vazifa sifatida o'rganilishini taqozo etadi. Binobarin, insonning sog'lom tafakkuri, mustahkam iroda va e'tiqodi,

halollik va adolat bilan hayot kechirishi, inson va ijtimoiy hayotga xos barcha xislat, fazilat, xususiyatlarga ega bo'lish, unga amal qilish kabi ma'naviy boylik majmuyi bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
2. Valerie Lesniak. An Integrative Model of Spiritual Formation: A Work Always in Process. // Reflective Practice: Formation and Supervision in Ministry ISSN 2325- 2855 © Copyright 2013 Reflective Practice: Formation and Supervision in Ministry All rights reserved.
3. Орлов Ю.М. Оздоровляющее (саногенное) мышление / составитель А. В. Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1. — Издание 2-е изд., исправленное. - М.: Слайдинг, 2006. - 96 с.
4. Ataxanova S. Innovatsion ta'lim jarayonida tafakkur // Ilmiy maqola. "Sog'lom avlod uchun" ilmiy-ommabop jurnal materiallari. 2014 yul. 5/4- 5 b.
5. Abdiraxmonova Z.A. O'smir yoshdagi o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss. avtoref. 2020. - 48 b.
6. Морозюк С.Н. Саногенная рефлексия как фактор оптимизации акцентуаций характера и повышения эффективности учебной деятельности. Док.псих.наук ... дисс. М. 2001. – 382 с.
7. Васильева Т.Н. Саногенное мышление учащегося, учителя. Калининград : ГИПП «Янтарный сказ», 2000. - 152 с.



Kamoliddin MAMADALIYEV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsent v.b.

E-mail: kmamadaliyev@umail.uz

Taqrizchi O'zbekiston san'at va madaniyat instituti dotsenti, p.d.d.f. (PhD) A.T.Kurbanova

ELEKTRON O'QUV-METODIK MAJMUALARNI YARATISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, yangi avlod o'quv adabiyotlarini uzviylik prinsipiga asoslangan elektron o'quv-metodik majmualarni yaratish bo'yicha talablar bo'yicha batafsil ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: elektron o'quv-metodik majmua (EO'MM), elektron o'quv qo'llanma, model, o'rganish vositalari, elektron dastur, pedagogik ta'lim sohasining yangi ochilgan ta'lim yo'nalishlari.

METHODOLOGY OF CREATING ELECTRONIC EDUCATIONAL-METHODICAL COMPLEXES

Annotation

This article provides detailed information about the requirements for the creation of electronic educational and methodological complexes based on the principle of the integrity of the new generation of educational literature.

Keywords: electronic educational and methodical complex (EUMC), electronic textbook, model, educational tools, electronic program new educational direction of teacher education.

МЕТОДИКА СОЗДАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСОВ

Аннотация

В данной статье представлена подробная информация о требованиях к созданию электронных учебно-методических комплексов на основе принципа непрерывности учебной литературы нового поколения.

Ключевые слова: электронный учебно-методический комплекс (ЭУМК), электронное учебное пособие, модель, учебные средства, электронная программа, новые образовательные направления области педагогического образования.

Kirish. O'zbekiston kelajakda buyuk davlat bo'lishida inson omilining o'rni beqiyosdir. O'sib kelayotgan avlodni to'g'ri va maqsadga muvofiq tarbiyalash ko'p qirrali va murakkab jarayondir. An'anaviy ta'limning modernizatsiyalashtirishda ta'lim jarayonlarida har xil texnologiyalardan foydalanilmoqda. "...umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limgacha bo'lgan bo'g'inlarda chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonini o'z ichiga olgan yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish ishlari izchil davom ettirilganini ta'kidlamochimam"-degan edi o'z nutqlaridan birida Birinchi Prezident I.Karimov.

Mamlakatning jahon hamjamiyatida egallagan o'rni uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bugungi kunda, inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirish, tobora takomillashib borayotgan texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasi misolida yaqqol ko'rib turibmiz. Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy mamlakatlar hamkorligida zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarish korxonalarini bunyod etilib, ularni kadrlar bilan ta'minlash ishlari mumkin qadar hal qilinmoqda. Shunday bo'lsa-da, mamlakatimizda zamonaviy mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundankunga kuchayib bormoqda. Bu muammoni ijobiy hal qilmasdan turib, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirib bo'lmaydi. Respublikamizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Shu sababdan ta'lim mazmunini takomillashtirishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlarini samarali qo'llashni, ta'lim muassasalarida kompyuterlashtirishni rivojlantirishni, elektron axborot-ta'lim resurslaridan to'laqonli foydalanishni taqozo etmoqda. Ta'lim bosqichlari orasida uzviylikni ta'minlash ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, prinsiplari orasida

uzviylikni ta'minlashni taqozo etadi. Shu sababli uzviylikni ta'minlashda elektron o'quv-metodik majmualardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti shunday imkoniyatlarga yaratilgan kompyuter paketlaridan tashkil topishi mumkin, uyda shaxsiy kompyuterlarda, mustaqil ishlash uchun jihozlangan oliyoghlarda, kompyuter sinflarida, yotoqxonalarda, maxsuslashtirilgan malakaviy auditoriyalarda foydalanishimiz mumkin.

Elektron o'quv qo'llanma (hatto eng zo'r) kitob shakliga almashtirish shart ham, kerak ham emas. Ekranlashtirilgan o'quv adabiyotining bu janri mutloq yangidir. Kitobni xuddi film tomosha qilgandek tushunish mumkin. Bu janrni yangilash ham oson, ham qulay bo'lib, qidirish tizimiga ega. U o'zida boy ma'lumotlar video, kartinka, ma'lumotnomalar, matnlar joy olgan.

Elektron o'quv qo'llanma maksimal darajada tushunish va tushuntirilishga ega bo'lishi, inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish balki ko'rish orqali yetib borishi, kompyuter tushuntirishidan foydalanish kerak. Tashkil qiluvchi matnlar hajmi chegaralangan bo'lishi kerak.

Uning turlari va funksiyalari Y.Kamenskiy VII asrdayoq ko'rgazmalilikni shunday ta'riflaydi: xar bir narsani hissiyotlar bilan anglash, o'rganilayotgan obyektini his-tuyg'ular orqali anglash, maket va modellarni o'quvchitalabalar orqali kuzatish, o'qitish ko'rgazmaliligini avval aniq obyektini anglash deb tushunilgan, masalan: real predmet va hodisalar o'z boshlang'ich ko'rinishida mashinalar modellari, ko'rgazmali tarqatma material, jadvallar va ayrim hizmatlar dasturlar, o'quv kinofilmlar. Zamonaviy didaktika shuni ta'kidlaydiki, ko'rgazmalilik tushunchasi bu nafaqat konkret vizual predmetlarga tayanish, balki modellarga ham model – bu nima? Odatdagi ko'rgazmalilikdan farqi nimada? Model bu – obyekt yoki obyektlar turlarining shartli ko'rinishi. O'rganilayotgan obyektning tashqi ko'rinishi xaqida tasavvur

hosil qiluvchi natural predmetlar anglatadi. Model esa faqat hodisa va jarayonning ayrim, zarur bo'lgan tomonlarini ko'rsatadi. Bu tomonlar to'g'ri aks ettirilishi zarur, o'rganilayotgan hodisa uchun izomorfl.

O'rganish vositalari ko'rgazmali bo'lishi uchun hodisa modelga aylantirilishi kerak, uning asosiy xossalarini ko'rsatish (ya'ni model o'rganilayotgan hodisaga izomorfl bo'lishi kerak), modelning tushunarligini ta'minlaydi. Izomorfl va oddiylik bu ko'rgazmalilikning farqli tomonlari, o'quv modellarining teoriya tushunchalari shakllanishidagi o'rni Davido orqali ilmiy fikrlash asosi deb topildi. O'quv modellarini u ko'rgazmalilik va tushuncha uyg'unligi deb ta'riflaydi. Modellarini Davidov ko'rgazmalilikni to'ldiruvchi didaktik prinsip deydi.

Elektron dasturning maqsadi - o'quv materialini hamma yutuqlarini saqlab qolish emas, balki kompyuter orqali tasvir uchun ko'rgazmalarni tanlash. Tasviriy material turi va soni qaysi tartibda tanlanadi.

Bizningcha, o'quv matni tushunilishi qiyin joyida tasvir kiritiladi, qo'shimcha ko'rgazmali tasvir orqali mavzuviy-mazmuniy bloklarining uyg'unlashishi va tartiblashishi uchun. Kompyuter texnologiya elektron dasturga hamma axborotni sig'dirish maqsadi qo'yilmaydi. Bu o'quvchi-talabani matn parchasini o'rganishdan chalg'itadi.

Talabaga beqiyos ozodlik berish havfli. Rasmdan lug'atga, boshqa gipermatnga ko'chish maqsadga muvofiq emas. Lekin, uni ozodlikdan mahrum etish xam kerak emas. Ongli kelishuv zarur o'qitish usulidagi bir chiziqlik yoki modullik yaratilishi kerak.

Gipermatnda harakatli rasmlar ko'pligi, dinamikasi bir chiziqlik bilim olishni susaytiradi, bu animatsiya to'liq bilim olishga halaqit beradi.

Bir mavzuda nechta tasvir bo'lishi kerak?

Bu nazariy o'quv dasturining mazmuni va xarakteriga bog'lik.

Ko'rgazmalarga boy betlar yoki elektron matnlar keraklimi?

Bir marta tasvir qo'rib, ko'p marta elektron matnni o'qigandan yaxshiroq.

Misol uchun siz yumuq ko'z bilan notanish xonaga kirib, yoningizdigidan xonani tasvirlashni so'raysiz, unga 3-5 sekund ichida ko'rgani ma'qul. Xonani tasvir vositasi orqali qanday tasavvur etsa bo'ladi? Tasvir soni va beti aniq belgilanmaydi, quyidagi faktorlari asoslanadi:

O'quv matnini mazmuni va xarakteriga ko'ra;

O'quv uslubiga ko'ra;

O'quv muassasasiga ko'ra.

Axborotni ko'z odiga keltirish deb anglash jarayoniga yoki ko'z, yoki quloq, yoki baravariga ikkalasi yoki hissiyotlarni ulashdir. O'quv dasturini anglash uning ko'z oldiga keltirishdan boshlanadi. Shuning uchun barcha sezgi organlari ishga tushadi, shu tufayli tez va oson o'quv matnini o'zlashtiriladi. Tasviriy material bo'lishi kam, u tushunarli va o'zaro bog'langan, aktual bo'lishi kerak. Bunda tasvir vositalaridan foydalanadi.

Yaxshi jihozlangan o'quv matni umumiy holatga ijobiy ta'sir etadi. Ranga qiziqish oshadi. Diqqat va faoliyat uyg'unlashadi, kuzatuvchanlik va sezgirlik oshadi, xotira tayyerlanadi, fikrlash jarayoni yengillashadi, o'quv materiali o'zlashtiriladi.

Demak, akademik litsey, kasb-hunar kollejida boshlanib, oliy ta'lim bosqichida davom etadigan fanlardan shu ta'lim bosqichlarida dars beradigan o'qituvchilar hamkorligida uzviylik prinsipiga asoslangan elektron o'quv metodik majmualarni yaratish muhim masala hisoblanadi.

Elektron o'quv-metodik majmualarni yaratish bo'yicha bir qator talablar ishlab chiqilgan. Uzviylik prinsipiga asoslangan elektron o'quv-metodik majmualarni

yaratish bo'yicha yuqoridagi talablarga qo'shimcha quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

1) oldin o'rgangan, o'quv materialini hozirda va kelajakda o'rganish istiqbollarini hisobga olish;

2) o'quv materiallarini o'rganishda turli tafakkur usullarini uyg'unlashtirish;

3) psixologiyadagi turli o'zlashtirish nazariyalari yutuqlarini hisobga olish;

3) ko'p bosqichli masalalar tizimidan foydalanish;

4) tarixiy materiallar va tatbiqiy masalalar (sohalar bo'yicha) bloklarini kiritish.

Biz Matematika ta'lim jarayonini loyihalash fani sifatida o'qitiladigan pedagogika ta'lim sohasining yangi ochilgan ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan matematika kurslari uchun yagona elektron o'quv-metodik majmuani yaratmoqdamiz.

Uzviylik rivojlanish qonuniyati bo'lib, u rivojlanuvchi obyekt rivojlanishining yangi sathda avvalgi xossalari, parametrlari va funksional tavsifnomalarini tadqiq qilingan ko'rinishda saqlab qolishni bildiradi.

Shu sababli ta'lim maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari har bir konkret bosqichda avvalgi ta'lim va rivojlanish natijalariga suyanishi va bir vaqtda kelgusi rivojlanish istiqbollari va potensial tendensiyalarini hisobga olishi lozim.

Shu maqsadda ko'p bosqichli masalalar tizimi g'oyasiga asoslangan masalaviy yondashuvdan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu g'oyaning mohiyati quyidagidan iborat: dastlab mavzu, kursning mazmun elementlari aniqlanadi, so'ngra tayanch masalalar aniqlanib, ularning atrofida ko'p bosqichli masalalar tizimi tuziladi.

Quyida elektron o'quv-metodik majmuadan foydalanish ketma-ketligi bilan tanishtirib o'tamiz:

Bosh menyu – uchta muhitdan iborat bo'lib, har bir muhitning o'z muhitiga mos ravishda darajalar belgilangan hamda har bir boshqa muhitlar bilan bir biriga bevosita uzviy bog'liqdir, ya'ni davomiydir.

Har bir muhit mos ravishda modullardan, modullar esa mavzulardan iborat. Modullarga kirishdan oldin modullarga qo'yiladigan talablar bilan tanishiladi. Talablar talabning modulga kirishdan oldin, kirgandan so'ng va chiqish davridagi bilim saviyasiga ko'ra darajalarga ajratilgan. Talaba talablar bilan tanishgach tashhis testlari topshiriladi. Tashhis testlaridan yetarli ball to'plagan talaba mavzular mundarijasiga yuzlanadi. Talaba kerakli mavzuni o'zlashtirgach modullar yakunida nazorat testlarini topshiradi. Nazorat testlaridan yetarlicha ball to'plagan talabagina keyingi modulga o'tishi mumkin. Aks holda joriy modulning kirish qismiga qaytib boradi. Nazorat testlaridan yetarli ball to'play olmagan talaba aynan qaysi testlarda xato qilganligi va shu test olingan mavzuni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi hamda qayta o'zlashtiradi.

Mavzular matnlar bilan birga chizmalar, grafiklar va navigatsiyali animatsiyalardan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari modullar yuzasidan bosqichli test, faol kalit so'zlar, murakkab mavzular uchun dinamik animatsiyalar, talabalar uchun mustaqil ishlardan iborat.

Har bitta muhitning o'zining menyusi bo'lib, menyuda bosqichli testlar, faol kalit so'zlar, dinamik animatsiyalar hamda talabalarni mustaqil ishlashi uchun misol va masalalar bo'limi tashkil topgan. Foydalanuvchi ushbu bo'limlardan mavzu ichida hamda menyudan to'g'ridan to'g'ri murojaat qilishi mumkin.

Shu hisobda birga elektron o'quv-metodik majmualarni qayta ishlash metodik ko'rsatgichlari bilan tanishamiz.

Buning uchun birinchi qadamda elektron o'quv qo'llanmani qayta ishlash uchun nashriyot yoki elektron nashriyot tanlash kerak.

To'la standartlangan dasturga mos keladi;

Gipertekstlarni yaratishi qulay;
 Masala va misollari ko'p;
 Qulay formatli.
 Ikkinchi qadam: nashriyot bilan kelishuvni tastiqlash (unga narxi va sifati ham kiradi).
 Uchinchi qadam: kirish haqida. Ya'ni materiallar necha bo'limdan nima haqida ekanligi haqida.
 To'rtinchi qadam: mavzularni bo'limlarga moslab qo'yiladi. Modulyatsiya va gipertekst o'rtasidagi aloqani aniqlash.
 Beshinchi qadam: gipertekst elektron forma ko'rinishda keladi.
 Oltinchi qadam: talabalarga va o'qituvchilarga kerakli bo'lgan, elektron o'quv-metodik majmuasi yaratiladi. Endi elektron o'quv-metodik majmuasi multimediya yordamida keyingi mukammallikka tayyor bo'ladi.
 Yettinchi qadam: tekst multimediya ma'lumotlari bilan almashadi.
 Sakkizinchi qadam: ovozli tekst yaratish.
 To'qqizinchi qadam: testlarni diktafonda yozib olish uchun kopyuterda qayta ishlanadi.
 O'ninchi qadam: vizualizatsiyali tekst yaratiladi.
 Elektron o'quv-metodik majmuani ishlatishga tayyorlash.
 Shu qadamlarning ishlashiga quyidagi mundarijalar kiradi:

Testlash;
 Ko'rsatmani ekspluatatsiya bo'yicha yozish.
 Metodik ta'minlashni qayta ishlash.
 Ma'lumotni registratsiyaga tayyorlash.
 Elektron o'quv qo'llanmasini himoyalash va tarqatish.
 Elektron o'quv-metodik majmuani uslubiy ta'minlash.
 Agar elektron o'quv-metodik majmuani yaratishda metodik ma'lumotlarni qayta ishlash kuzatilmasa, EO'Q qo'llanma sifatiday ishlatilmaydi. Zamonaviy o'quv ma'lumotlarni yangilash uchun hamma bir xil dostup bo'lishi kerak. Lekin domlalar yangi texnologiya bilan ishlashga hali uncha tayyor emas. Chunki bu yangi texnologiya yaratilishi bilan o'quv dasturlarni, ma'ruzalarni, amaliy ishlarni o'zgartirilishi kerak.
 Agar bu metodikani qo'llasak hamma uylarda, xonalarda, auditoriyalarda, yotoqxonada bo'lishi kerak. Lekin bizda hozircha bunday sharoit yo'q. Kompyuter orqali ta'lim olish uchun nafaqat hamma kompyuter bo'lishi kompyuter yaxshi ishlashiga ham shart. Shu qo'llanmani ishlatish davomida faqat kopyuterdan ishlamaslik kerak, uy vazifalarni (masalan: matematika fanidan misol, masalalarni yechishni qo'lda yechish kerak,) chunki tayyor dasturlar kompyuterda bor. Kompyuter talabani yalqovlikka olib keladi. Lekin kompyuter bilan ishlash ham oson ham vaqt kam oladi.

ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. "2012 йил Ватанамиз тараққиётини янги босқичга кўтардиган йил бўлади". Халқ сўзи газетаси 2012й. 20январь 14 сон
2. Максютин А.А. Многоуровневая система задач как средство обучения учащихся средней школы алгебре и началу математического анализа. Дис. канд. пед. наук: 13.00.02. - Самара. 2007., 128-134 бетлар.
3. Тайиров Ж.Ў. Босқичли электрон ахборот-таълимий мухити ва ундан фойдаланиш методикаси // Академик лицей ва касб-хунар коллежларида физика, математика ва информатика фанларини ўқитишни такомиллаштириш истикболлари (7-Республика илмий – амалий конференция) Т-2011. 124-126 бетлар.
4. Электрон ўқув-методик мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. Методик қўлланма. Тузувчилар: Ф.Закирова ва бошқ. – Т.: ОЎМТВ, 2010. – 57 б.
5. Тайиров Ж.Ў. Математикани ўқитишда кўп босқичли масалалар тизимидан фойдаланиш // Амалий математика ва информацион технологияларнинг долзарб муаммолари – ал Хоразмий 2012 (Халқаро илмий анжуман материаллари) Т-2012. 265-268 бетлар.
6. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании. Учебное пособие. М.: Изд. МГТУ им. Н.Баумана. 2002-336с.



UDK:101.8

Xayrullo MIRZAAXMEDOV,
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD J.Yusubov taqrizi asosida

KORRUPSIYANING MAVJUDLIGIGA DOIR TARIXIY DALILLAR VA ULARNING IJTIOMIY-FALSAFIY JIHATLARI

Аннотация

Har bir voqea-hodisa, jarayon va voqelikning tarixi, vujudga kelish shart-sharoitlari mavjud bo'ladi. Bu hayotiy haqiqat korrupsiya va uning ko'rinishlariga ham taalluqli bo'lib, mazkur ilmiy tadqiqot ishida shu haqda atroflicha to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, poraxo'rlik, urug'-qabilalar, qadimgi davr, Shumer, Misr, Hindiston, O'rta Osiyo, Arab xalifaligi, Usmoniylar sultonligi, Rim imperiyasi, G'arbiy Yevropa.

ИСТОРИЧЕСКИЕ СВИДЕТЕЛЬСТВА СУЩЕСТВОВАНИЯ КОРРУПЦИИ И ИХ СОЦИАЛЬНО- ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация

Каждое событие, процесс и реальность имеет историю, условия своего возникновения. Этот важнейший факт касается и коррупции и ее проявлений, которые будут подробно рассмотрены в данном научном исследовании.

Ключевые слова: Коррупция, взяточничество, племена, древность, Шумер, Египет, Индия, Средняя Азия, Арабский халифат, Османский султанат, Римская империя, Западная Европа.

HISTORICAL EVIDENCE OF THE EXISTENCE OF CORRUPTION AND THEIR SOCIAL-PHILOSOPHICAL ASPECTS

Annotation

Every event, process and reality has a history, conditions for its emergence. This vital fact also applies to corruption and its manifestations, which will be discussed in detail in this scientific research.

Key words: Corruption, bribery, tribes, ancient times, Sumer, Egypt, India, Central Asia, Arab Caliphate, Ottoman Sultanate, Roman Empire, Western Europe.

Tarixdan ma'lumki, quldorlik jamiyatida qonun tomonidan inson huquqlari faqat quldorlar uchun imtiyoz sifatida qarab chiqilib, behisob qullar ommasi huquqi inkor etilar edi. Korrupsiyaning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Jumladan, qadimgi davrladanoq, ya'ni urug'-qabila paytidayoq o'z ishini bitkazish hamda ma'lum mavqega erishish uchun qabila boshliqlariga sovg'a-salom berishdan boshlanadi, degan farazlar mavjud. Ammo bu o'z davrida odatiy hol sifatida qabul qilinardi. Keyinchalik davlatning markazlashishi natijasida korrupsiya ham taraqqiy eta borgan va bu mamlakat rivoji, jamiyat manfaatlariga putur yetkazishi ma'lum bo'la boshlagan.

Qadimgi Shumer davlati korrupsiyaga qarshi kurashgan yurt sifatida tarixga kirgan. Miloddan avvalgi XXIV asrda hukmronlik qilgan Uruinigina korrupsiya va uning oqibatlarini oldini olishga qaratilgan faoliyatni boshlab beradi. U boshqa jinoyat va huquqbuzarliklarga nisbatan korrupsiya va uning barcha ko'rinishlari uchun jazo choralarini kuchaytiradi. Lekin shunga qaramay, natija kutilganidek bo'lib chiqmaydi. Faqatgina, katta jinoyatlar-ninggina oldi olinadi. Ammo, poraxo'rlik, mansabini suiste'mol qilish, davlat mulkidan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanish orqali kamomad keltirib chiqarish kabi holatlar jamiyatda keng ildiz otib ketganligi bois, ulardan butkul qutulishning imkoni bo'lmagan.

Miloddan avvalgi IV asrda Qadimgi Hindiston (Bxarat) vazirlaridan biri hisoblangan taxallusi Kautilya bo'lgan vazir o'zining "Arta-shastra" asari orqali korrupsiya haqida dasatlabki yozma ma'lumotlarni qoldirgan. Unda mamlakat mulkining kichik bir ulushi ham mazkur mulkni

boshqaruvchi mansabdorlar tomonidan o'zlashtirilishi mumkin emasligi haqidagi fikrlar keltirilgan.

Korrupsiya muammosi Qadimgi Misr mamlakati uchun ham begona bo'lmagan. Chunki, Misrda qonunbuzarliklarni odat qilgan hamda quyi tabaqa vakillari hisoblanmish oddiy aholi manfaatlariga putur yetkazuvchi amaldorlar hokimiyati o'rnatilgan edi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Itaxotel ismli shaxs o'zining o'gitlarida quyidagicha tavsiya beradi: "Boshliq oldida belingni bukib ta'zim qil, shunda sening uyingda tartib bo'ladi, sening maoshing joyida bo'ladi, kim boshliqqa qarshilik ko'rsatadigan bo'lsa, uning hayoti oson kechmaydi, lekin u iltifot ko'rsatganda esa yashash ham oson bo'ladi"[1].

Qadimgi yunon faylasuflaridan Platon korrupsiyani siyosiy kategoriyalar qatoriga kiritgan bo'lsa, Aristotel: "Har qanday davlat tizimida - konunlar va boshka farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo'l bilan boyishiga yo'l qo'ymaslik lozim" degan edi. Bu borada Sharq Arastusi Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan.

Shunday tamoyil o'rta asrlarga ham bo'lgan. Aholining qatlamlari turli tabaqalarga bo'lingan o'sha davrlarda inson huquqi ayrim tabaqalarning imtiyozi hisoblanib, huquqiy tenglik muayyan tabaqaga mansublik bilangina belgilanardi. Shu bilan birga inson huquqlarining tabaqaviy cheklanganligi shaxs dahlsizligi huquqi ilk bora ifodalangan inglizlarning 1215-yilgi "Erkinliklarning buyuk Xartiyasi" - inson huquqlarini himoya qilib chiqqan, insonlar

o'rtasida tinchlik bo'lishini qonuniy mustahkamlashiga asoslangan dastlabki muhim hujjatlardan biri hisoblanadi.

Faransiyaning ulug' mutafakkir va faylasufi Sharl lui Monteskiyo korrupsiyani siyosiy rejimni vayron qiluvchi "disfunktsional jarayon" sifatida ta'riflaydi hamda bu borada "Asrlar tajribasidan ma'lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan shaxs, uni suiiste'mol qilishga moyil bo'ladi va u ma'lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo'nalishda yuradi" degan fikrlarni bildirgan. Tarixiy manbalar hamda yozma adabiyot namunalaridan ma'lumki, G'arbiy Yevropa davlatlarining keyingi tarixida ham korrupsiyaning turli ko'rinishlari va korrupsion munosabatlarning avj oladi. Xususan, Shekspirning "Venetsiyalik savdogar", "Qonga qon, jonga jon", Dantening "Do'zax", "Tozalovchi" kabi asarlarida ham korrupsion holatlar bilan bog'liq dalillar keltirilgan. Shuningdek, Dante korrupsionerlarni do'zaxni eng qorong'u va eng chuqur joyiga tashlash kerak degan fikrni bildirgan bo'lsa, Italyan faylasufi Nikkolo Makiavelli korrupsiyani davlatning fuqarolar ma'naviyatiga putur yetkazuvchi umumiy kasallik alomati deb hisoblagan va yo'talga qiyoslab shunday degan edi: "Korrupsiyani ham yo'talga o'xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o'tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin"[2].

Qadimgi davrlardagi mamlakatlar, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish bilan shug'ullangan maxsus vakolatli tashkilotlarning korrupsiya va poraxo'rlikdan qattiq tashvish chekkanligi yozma ma'lumotlar orqali saqlanib qolgan. Negaki, bu hol hukumatning xalq oldidagi obro'siga katta xavf solardi. Jahon dinlarida ham davlat organlarining poraxo'rlik bilan shug'ullanishi qattiq qoralab kelingan. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmagiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" yoki "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" (Baqara surasi, 188) deyilgan.

Ammo, poraxo'rlik va korrupsiya Usmoniylar imperiyasida ham mavjud edi. Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qilardi, lekin vaqt o'tishi bilan bu ishni boshqasiga - o'ziga yaqin bo'lgan odamga - xalifaning turli ishlar bo'yicha shaxsiy yordamchisiga topshirib qo'ydi. Ko'p o'tmay, vazirlar butun boshli davlat apparatini shakllantirdi. Milodiy X asrning o'rtalaridayoq u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish "an'ana"ga aylanib ulgurandi.

Jumladan, xalifa Muqtadirning vaziri Ubaydulloh Hoqoniy amaldorlarni turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda shu "usul"dan keng foydalandi. G'aznani to'ldirishga qattiq muhtojlik sezgan davlat soliqlar to'plashni xususiy shaxslarga topshirgani bois bu turli suiste'molliklarni yuzaga keltirardi. Shu tariqa poraxo'rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi.

Qudratli Usmoniylar imperiyasida ham aynan soliq yig'ish bilan bog'liq muammolar kuzatilganligiga doir ma'lumotlar mavjud. Jumladan, dehqonlardan soliqlarni yig'ib oluvchi mansabdor shaxslar turli xil qonun buzilishlariga qo'l urishgan. Ish shu darajaga borib yetganki, xatto mamlakat shayxulislomlari chiwqargan fatvolar ham bu qing'irliklarga barham bera olmagan. Ma'lum sovg'a-salomlar berish evaziga janglarga qatnashmaslik yo'lini topgan harbiylar o'zlariga ajratilgan yer-mulkarda yakka hokimlarga aylana boshlaganlar. Hukumat esa harbiylarning bosh ko'tarishidan havfsiraganligi bois, bunga qarshi chora ko'rishga botinolmaganlar. Bu esa qo'shinning harbiy qudratiga putur

yetkazgan va Turk sultonligi biz tarixdan biladigan xalqaro mag'lubiyatlarni boshidan kechirishga majbur bo'lgan.

Qadimgi Rim qonunlarida "corrumpere" atamasidan, ya'ni "sudda ko'rsatmalarni pulga sotib olish" yoki "sudyani pora evaziga sotib olish" ma'nosida foydalana boshlaganligini ko'rsatuvchi dalillar kishini xayratga soladi: "Nahotki sen sudda so'zlashda ishlarni tekshirish uchun tayinlangan va bu ish bo'yicha pora olgan sudya yoki vositachini o'lim jazosi bilan jazolaydigan qonunni shafqatsiz deb hisoblaysiz?"[3].

O'tgan asrning II yarmidan boshlab korrupsiya umuminsoniy xarakter kasb eta boshladi. Jumladan, globalashuv jarayonlari oqibatida korrupsiya "havosi" mamlakatlar va xalqlar o'rtasida keng tarqalib keta boshladi. Natijada, Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa korrupsiyaga oid savodxonlikni tashviqot qilish uchun 9 dekabrni "Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro kuni" deb e'lon qilindi va ushbu kun 2004-yildan boshlab nishonlanib kelinadi. 1994 yilning 31dekabrda esa "Finansial Times" gazetasi tomonidan 1995 yilni "Korrupsiyaga qarshi kurashish yili" deb e'lon qilindi.

Korrupsiyaning axloqiy jihatlari ushbu keng tarqalgan ijtimoiy muammoni tushunishimizga yordam beradigan axloqiy mulohazalar va tamoyillarni yoritadi. Korrupsiyaning ma'naviy jihatlarni chuqurroq o'rganish orqali biz uning o'ziga xos noto'g'riligini va uning jamiyatga olib keladigan zararli oqibatlarini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Mazkur tushuncha korrupsiyaning oldini olish hamda adolatli jamiyatni barpo etishga xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

Korrupsiyaning barcha shakl va ko'rinishlari axloqiy tamoyillarning aniq buzilishi sifatida gavdalanadi. Bunda davlat organlaridagi mansabdor shaxslarning o'z vazifa vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishini anglatadi. Halollik, adolat va javobgarlik korrupsion amaliyotlar oldida buziladi. Korrupsiyaning axloqiy jihati shaxsiy boylikdan ko'ra jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishning axloqiy majburiyatini ta'kidlaydi.

Korrupsiyaning eng muhim oqibatlaridan biri bu ishonchni yo'qotishdir. Ishonch ijtimoiy munosabatlar va institutlar faoliyatining asosidir. Korrupsiya bu ishonchni susaytiradi, chunki u hokimiyatdagilarning adolat va ishonchliligiga ishonchni yo'qotadi. Ishonch buzilgan taqdirda, jamiyatda birdamlik zaiflashadi va hamkorlik yanada qiyinlashadi, taraqqiyot va taraqqiyotga to'sqinlik qiladi.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlari bilan shug'ullanuvchilar o'zlariga, yaqinlariga naf keltiraman degan puch g'oya ortidan jamiyatga, millatga, mamlakatga zarar yetkazadilar. Natijada, jamiyat a'zolari o'rtasida tengsizlik, adolatsizlik, ayrimachilik kabi salbiy illatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bundan ham yomoni, korrupsiya insonlarning ekspluatatsiya qilinishiga sabab bo'ladi.

Korrupsiya resurslarni umumiy manfaatlardan chetga surib, butun jamiyatga bevosita zarar yetkazadi. Ta'lim tizimi, tibbiyot, turizm, ishlab chiqarish va boshqa muhim sohalarga ajratiladigan kapitalni noto'g'ri yo'llarga yo'naltirib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga putur yetkazadi. Korrupsiyaning ma'naviy oqibatlari kengroq aholi farovonligidan ko'ra shaxsiy manfaatlarning ustuvorligidadir. Qolaversa, keng tarqalgan korrupsiya jamiyatning axloqiy asoslarini zaiflashtiradi. Korrupsiyaviy amaliyotlar me'yorlashtirilgan yoki toqat qilinsa, axloqiy me'yorlar buziladi va insofsizlik madaniyati va halollik yo'qligi yuzaga kelishi mumkin. Halollik, oshkoralik, yuksak ma'naviyat hislatlari yuksak rivojlangan va korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi tura oladigan jamiyatni barpo etishda etosferani - axloqiy qadriyatlar qobig'ini rivojlantirish va himoya qilish talab etiladi.

Korrupsiya institutlar va boshqaruv tuzilmalarining qonuniyligini ham buzadi. Korrupsiya keng tarqalgan bo'lsa,

bu jamiyatning ushbu muassasalarga bo'lgan ishonchini yo'qotadi va ularning xalq manfaatlarini ko'zlab harakat qilish qobiliyatiga shubha uyg'otadi. Korrupsiyaning ma'naviy jihati boshqaruv tizimlarida shaffoflik, hisobdorlik va halollikni ta'minlash orqali qonuniylilikni tiklashni talab qiladi.

Bundan tashqari, korrupsiya jamiyat qadriyatlari va me'yorlariga ta'sir qilishi mumkin. Korrupsion amaliyotlar keng tarqalgan bo'lsa, ular munosabat va xatti-harakatlarni shakllantirishi, insofsizlik madaniyatini davom ettirishi va axloqiy qadriyatlarni buzishi mumkin. Aksincha, axloqiy tamoyillar va qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yadigan jamiyatlar korrupsiyani to'xtatadigan va halollikni targ'ib qiluvchi muhitni yaratishi mumkin.

Korrupsiyaning axloqiy jihatlarini hal qilish jamoaviy sa'y-harakatlarni talab qiladi. Bunda ideallar obrazini shakllantirish, jamiyatning axloqiy me'yorlarini yuksaltirish, ochiqlik va oshkoralik, mas'uliyat va ishonch tuyg'ularini mustahkamlash talab etiladi. Kishiga bolalik paytidan boshlab

axloqiy qadriyatlarni singdirish, jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini tarbiyalashda ta'lim va ogohlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Korrupsiyaning axloqiy jihatlari ushbu ijtimoiy muammoni tushunishimizga yordam beradigan axloqiy mulohazalar, tamoyillar va qadriyatlarni ochib beradi. Korrupsiyaning axloqiy oqibatlarini tan olish orqali jamiyatlar yanada axloqiy va adolatli muhit yaratishga harakat qilishlari mumkin. Halollik, shaffoflik, yuksak ma'naviyat, o'zaro ishonch, jamkiyat manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi tuyg'ularni shakllantirish uchun etosfera – axloqiy tamoyillar qatlamini asrab-avaylash, tengsizlikka barham berish lozimdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, korrupsiya insoniyat uchun yangi yoki begona tushuncha emas. Uning tarixiy ildizlari, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yaxshi anglab olish – ushbu illatga qarshi samarali kurashish uchun muhim bosqich hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Хрестоматия государства и права зарубежных стран. Древность и Средние века / сост. В. А. Томсинов.- М.: Зерцало, 1999; 2004. - С. 56.
2. Макиавелли Н. Избранное. - М., 1989. — С. 78-79.
3. Таблица IX. 3. Авл. Гелий / Законм XII таблиц. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран / под ред. В. А. Томсинова. — М.: Зерцало, 1999. С. 120.
4. Ruslan, U. (2021, April). Korrupsiya uning kelib chiqish sabablari va unga qarshi kurashishda singapur strategiyasining ahamiyati. In Archive of Conferences (Vol. 23, No. 1, pp. 145-146).



Bexzod MIRZAYEV,

Qarshi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'quv uslubiy metodik bo'limi uslubchisi

E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti PhD. D.Ismoilov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICS FOR SCHOOLCHILDREN BASED ON INTEGRATIVE LEARNING

Annotation

In this article, much attention will be paid to the development of graphic training in physics, mathematics and computer science lessons. In math lessons, students can build graphs of functions, apply and highlight properties of functions, find unknown quantities on a graph, etc. In the physics course, students are taught to build graphs of functions using experimental data, solve problems using mathematical knowledge about functions. The construction of graphs of functions using computer programs in computer science lessons teaches to display the relations between quantities in a convenient form corresponding to the condition of the problem.

Key words: Software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ФИЗИКЕ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье большое внимание будет уделено развитию графической подготовки на уроках физики, математики и информатики. На уроках математики учащиеся могут строить графики функций, применять и выделять свойства функций, находить неизвестные величины на графике и т. д. в курсе физики школьников учат строить графики функций с использованием экспериментальных данных, решать задачи с использованием математических знаний о функциях. Построение графиков функций с помощью компьютерных программ на уроках информатики учит отображать отношения между величинами в удобной форме, соответствующей условию задачи.

Ключевые слова: Программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

MAKTAB O'QUVCHILARING FIZIKA FANINI INTEGRATIV O'QITISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizika, matematika va informatika darslarida interaktiv o'qitishni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Matematika darslarida o'quvchilarga funksiyalar grafiklarini tuzish, funksiya xossalari qo'llash va ajratib ko'rsatish, grafikdan noma'lum miqdorlarni topish va hokazo o'rgatiladi. Fizika kursida maktab o'quvchilariga eksperimental ma'lumotlardan foydalangan holda funksiya grafiklarini tuzish, funksiyalar haqidagi matematik bilimlardan foydalangan holda masalalar yechish o'rgatiladi. Informatika darslarida kompyuter dasturlari yordamida funksiya grafiklarini tuzish, kattaliklar orasidagi bog'lanishni masala shartiga adekvat bo'lgan qulay shaklda ko'rsatishni o'rgatadi.

Kalit so'zlar: Dasturiy vosita, elektron resurs, animatsiya, dasturiy paket, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, texnologiyalar, loyihalash, konstruktorlik.

Kirish. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi", 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fizika o'qituvchilarining ish tajribasi G.V.Ribkinaga ko'ra, grafiklar bilan ishlashning quyidagi usullarini ajratadi: grafiklar bilan ishlash, grafiklarni tuzish, masalalarni grafik usulda yechish, laboratoriya ishlarini bajarishda o'lchov natijalarini grafik tasvirlash.

Grafiklar bilan ishlash orqali, vazifa allaqachon fizik miqdorlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash mumkin bo'lgan

grafikni o'z ichiga olganligi tushuniladi; noma'lum qiymatini ma'lum qiymat bo'yicha topish; grafik quriladigan fizik jarayonning borishi xususiyatlarini tushuntirib berish; grafiklarni solishtirganda o'rganilayotgan jismlar va moddalar xossalardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash; vazifalarni yaratish; o'qlar bo'ylab chizilgan qiymatlardan olingan miqdorning qiymatlarini topish; tegishli fizik miqdorlarning grafik bog'liqligiga ko'ra qiymatlar jadvalini tuzish; grafik tuzish.

Muallif muammo bayonidagi ma'lumotlarga qarab, grafiklarni chizishning turli usullarini aniqlaydi, ya'ni jadval bo'yicha, formulalar bo'yicha, sxematik, boshqa jadvallar bo'yicha.

Matematika darslarida o'quvchilarga funksiyalar grafiklari bilan bosqichma-bosqich ishlash o'rgatiladi.

Maktab o'quvchilari funksiyalar grafiklari bilan 6-sinfda tanishadilar. O'quvchilarga ushbu jadval bo'yicha berilgan savollarga javob berish, vazifalarni bajarish, tegishli sohalarini ajratib ko'rsatishga o'rgatiladi[2].

7-sinf dan boshlab o'quvchilarga chiziq, kvadrat, kub, tekari proporsional grafiklar tuzish o'rgatiladi. O'quvchilar berilgan formula bo'yicha grafik tuzadilar, funksiya grafiklarining asosiy xossalari o'rganadilar (o'sish va kamayish, funksiyaning ekstremalari, funksiyaning nollari).

7-sinf oxirida o'quvchilar grafik yordamida tenglamalarni yechishni o'rganadilar.

8-sinfda o'quvchilar tengsizliklarni yechishda kvadratik funksiya xossalariidan foydalanadilar.

Informatika darslarida o'qituvchilar o'quvchilar uchun interaktiv o'qitishni quyidagicha rivojlantiradilar: birinchi navbatda o'quvchilarga jadval bo'yicha savollarga javob berishga, so'ngra kompyuter dasturlari yordamida funksiya grafagini tuzishga o'rgatiladi. Xususan, Microsoft Yexcel yordamida grafik tuzish o'rganadilar[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib, fizika darslarida ham, matematika va informatika darslarida ham o'quvchilarni funksiyalar grafiklari bilan ishlashga o'rgatish bo'yicha boy tajriba to'plangan.

Biz fizika, matematika va informatika fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha dissertatsiya tadqiqotini tahlil qildik, unda mualliflar tadqiqotning aniqlovchi bosqichi doirasida maktab o'quvchilari o'rtasida interaktiv o'qitishni rivojlantirish masalasini ko'taradilar.

Davlat imtihoni fizika kursining barcha asosiy mavzulari bo'yicha turli darajadagi vazifalarni, shuningdek, ma'lumotlarni taqdim etishning turli shakllariga ega bo'lgan vazifalarni o'z ichiga oladi: diagrammalar, grafiklar, jadvallar. Imtihon hujjatlarini ishlab chiqishda mualliflar nafaqat bilim elementlarini o'zlashtirishni, balki grafiklar shaklida taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini ham sinab ko'rish zarurligini hisobga oldilar[4].

Fizika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tahlillar maktab o'quvchilari kompyuterdan kam foydalanishini ko'rsatdi. Biroq, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, maktab direktorlari tomonidan ilgari surilgan eng muhim maqsadlar o'rganishga qiziqishni oshirish va kelajakdagi kasbga tayyorgarlik ko'rishdir.

O'qituvchilardan maktabdagi o'quvchilar xususiyatli grafiklarni yaratish uchun dasturiy ta'minotdan foydalanishlari so'ralgan. Ushbu so'rov natijasi quyidagicha bo'ldi: dasturiy ta'minotdan foydalanish foizi eng past. "Maktabingizda qaysi fanlar uchun dasturiy ta'minot mavjud?" degan savol ham berildi, bunda informatika uchun dasturiy ta'minot birinchi o'rinda, matematika ikkinchi o'rinda, fizika uchinchi o'rinda. Maktab direktorlari AKTDan foydalanishda quyidagi qiyinchiliklarni aniqladilar:

- o'qituvchilar kompyuterdan foydalanadigan darslarga tayyorgarlik ko'rish uchun yetarli vaqtga ega emaslar;

- sinfdagi darslarni tashkil etishda kompyuterni ishlatishi qiyin [].

Shunday qilib, xalqaro tadqiqotlar natijalari grafik tayyorgarlikning metapredmet darajasida (fanlararo va darsdan tashqari materiallar bo'yicha) shakllanish darajasining etarli emasligi haqida gapirishga imkon beradi va bu holatning sabablaridan biri - kompyuter texnologiyalari bilan ishlashda funksiya grafiklari bilan ishlay olmaslikdir.

Umuman olganda, yuqorida tavsiflangan natijalar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarida grafik tayyorgarlik muammosining holatini amalda qoniqarli deb bo'lmaydi.

Keltirib o'tilgan muammolarni yechimini topish uchun avvalo tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar ta'minlanishi kerak: interaktiv o'qitishni rivojlantirishning har bir bosqichida egallangan bilimlar o'quvchilar tomonidan aks ettirilishini ta'minlash; nostandart vaziyatlardan foydalanish va o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib muammoli vaziyatlarni hal qilish; interaktiv o'qitishni rivojlantirishni uslubiy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish; interaktiv

o'qitishni rivojlantirishning har bir bosqichi uchun maqsadlarni aniqlash; tayyorlash bosqichlarining uzluksizligini ta'minlash.; o'quv jarayoni subyektlarining faol o'zaro hamkorligini ta'minlash[4].

Pedagogik shart-sharoitlar turli xil tadqiqot va amaliy tadbirlar bilan to'ldirilib metodik modelning ishlashini ta'minlaydi — tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish, anketa so'rovnomalarni tashkil etish, test; innovatsion vazifalarni hal etishga qaratilgan o'qituvchilar guruhini shakllantirish; o'quv jarayoni jadvaliga o'zgartirishlar kiritish, fizika o'qitish vaqti va mazmunini muvofiqlashtirish; o'quvchilarni grafik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha to'garaklar tashkil etish[5].

Shunday qilib, umumta'lim maktablarida fizika o'qitish o'quvchilarni grafik tayyorgarligini rivojlantirish uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish lozim. Pedagogik sharoitlarining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat: o'qituvchining o'quvchi faoliyatini boshqarishi; o'qituvchi va o'quvchi tomonidan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini birgalikda boshqarishi; o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida o'z-o'zini boshqarishi[6].

shaxsiy-kasbiy muhitda munosabatlar tizimini o'rnatish va uning rivojlanishi davomida shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini shakllantirishda o'quvchi shaxsining faoliyati bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, biz o'quvchi shaxsining rivojlanishining muhim boshqaruvi "Men-konsepsiyasi" - bu o'z-o'zini hurmat qilish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalarni majmui. Bu holda, "Men-konsepsiyasi" uch rol o'ynaydi: bu o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun hissa qo'shadi; ijobiy va salbiy tajribalar shaklida o'quvchi tomonidan orttirilgan ko'nikmalarning tabiati va xususiyatlarini belgilaydi; o'z-o'zini namoyon qilish uchun o'z xatti-harakati bilan bog'liq faoliyatining manbai bo'lib xizmat qiladi.

Malaka oshirish jarayonlarida boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslashda quyidagi holatlar e'tiborga olindi[7].

Birinchi tashkiliy-pedagogik shart bu - shuovchilarda interaktiv o'qitishni rivojlantirish bo'lib, bir qator sabablarni nazarda tutadi:

fizika ta'limi jarayonining barcha subyektlarini anglash, ularning o'zaro aloqalarining maqsadi sifatida interaktiv o'qitishni rivojlantirish;

ta'lim oluvchi subyektning rolini tegishli o'quv faoliyati tashkilotchisiga aylanishga yo'naltirish;

o'quvchilar uchun o'quv faoliyatlariga mos muammoli vaziyatlar atrofida o'quv jarayonini qurish;

Fizika o'qitish quyidagi mantiq asosida loyihalashtiriladi: umumiy maqsadni belgilash, o'z o'zini baholash, marketing-tadbirkorlik, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, hamda mazmuni o'quv faoliyatga yaqin bo'lgan umumta'lim fanlarini integratsiyalash[8].

Ikkinchi tashkiliy-pedagogik shart - bu shaxsiy darajadagi interaktiv o'qitishni rivojlantirishda o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ta'limiy ehtiyojidir. Ta'lim olishga ehtiyoj orqali mavjud muammolarni hal qilish uchun zarur bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarga ega bo'lish zarurligini tushuniladi. Motivatsiyani shakllantirish muammosi turli sabablarga ko'ra murakkab sanaladi. Interaktiv o'qitishni rivojlantirishda o'qitishning motivatsion sohasi bir emas, balki bir nechta yetakchi motivlar bilan tavsiflanishi mumkin. Masalan: ta'lim olishni yoqtiraman, bilimimni tizimlashtirmoqchiman, qobiliyatimni rivojlantirmoqchiman, fizik muammolarni hal qila olmayman va hokazo.

O'quvchilarning ijobiy motivatsiyasi, tayyorligi shaxsning tayanch kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga ongli ravishda qo'shilishini va uning ijobiy o'zgarishini ta'minlaydi. O'tkazilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, aksariyat hollarda o'quvchilarning motivatsion tayyorligi psixologik sabablarga bog'liq: o'z qobiliyatlariga shubha bilan qarash, noaniqlik, qoniqarsiz darajadagi ko'nikmani namoyish etishni istamaslik, xatolarni tan olish, "ta'lim oluvchi" rolidagi noqulaylik, yangi bilimlardan qo'rqish. Shaxsiy tajribalar asosida shakllangan noto'g'ri fikr, ba'zan haqqoniy yechimni tanlashga imkon bermaydi[9].

Uchinchi tashkiliy-pedagogik shart – grafik tayyorgarlikning predmetli darajada rivojlantirishga yo'naltirilgan integrallashgan, innovatsion interfaol metodlardan foydalanish, shuningdek, muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim va sifatlarini mustaqil rivojlantirish omillaridan kelib chiqqan holda amalga oshirishni nazarda tutadi.

To'rtinchi tashkiliy-pedagogik shart grafik tayyorgarlikning metapredmetli darajada rivojlantirishni monitoring qilishni nazarda tutadi. Monitoringning maqsadi – interaktiv o'qitishni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish, fizika o'qitish jarayonini tashkil etish sifatini tahlil qilish, baholash, maqsad va vazifalarni shakllantirish, ko'rsatkichlarni tanlash, ularni aniqlash usullari, olingan natijalarni kuzatishni nazarda tutadi[10].

Tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar biz tomonimizdan maxsus yaratilgan va o'quvchilarning grafik tayyorgarligini rivojlantirish modelini amalga oshirish samaradorligini ta'minlovchi zarur va yetarli darajada qurilgan sharoitlar majmui sifatida qaraldi[11].

Tadqiqotimizda pedagogik shartlarning ush guruhini ajratamiz: tashkiliy, psixologik va didaktik.

Tashkiliy shartlar guruhiga subyektlar va o'quv faoliyatining tashkiliy shakllari o'rtasidagi o'zaro ta'sir qilish usullari to'plami kiradi, ular interaktiv o'qitishni rivojlantirish ush guruhini mazmuniy yelemntlarini maqsadli rejalashtirish natijasidir.

Psixologik shartlarga biz interaktiv o'qitishni rivojlantirishga ta'sir qilishning aniq pedagogik chora-

tadbirlarini ta'minlashga va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga yordam berishga qaratilgan bir qator shartlarni olamiz.

Didaktik shartlar guruhini - bu umumiy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan (o'quvchilarning o'zini o'zi rivojlantirishini shakllantirish) mazmun yelemntlarini, o'qitishning tashkiliy shakllari va usullarini tanlash, loyixalash, ulardan foydalanish natijasidir. Bu guruhda o'quvchilarning grafik tayyorgarligini rivojlanishiga yordam beradigan shart-sharoitlar alohida o'rin tutadi[12].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, maktab o'quvchilarida interaktiv o'qitishni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadbirlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni fizikadan egallagan bilimlarining turli jihatlarini qamrab olish ush guruhni keltirib o'tilgan pedagogik shart-sharoitlarning uch guruhini amalga oshirish ush guruhni zarur va yetarli: tashkiliy, psixologik va didaktik.

Pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy adabiyotlar tahlili hamda ilmiy tadqiqot ishlari o'rganish natijasida quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

1. Umumta'lim maktab o'quvchilariga fizika o'qitishda grafik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ta'minlanmagan, metodologik yondashuvlari va didaktik tamoyillari shakllantirilmagan;

2. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fizikadan grafik tayyorgarligini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqilmagan, didaktik ta'minoti takomillashtirilmagan;

3. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fizikadan grafik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilmagan;

4. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fizikadan grafik tayyorgarligini rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari ishlab chiqilmagan.

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolar va ularni barataraf etish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarimiz dissertatsiyaning keyingi boblarida batafsil keltirib o'tiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. Б.39.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы) // автор-состав. – Ставрополь. 2012. – 145 с.
3. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании: Дисс. канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: МГПУ, 2003.-332 с. РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
4. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010, №1, -54-57 б.
5. Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. //Е.Б. Шоштаева. – Карачаевск: 2003. – С. 23.
6. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010.
7. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019.
8. Смолкин, А.М. Методы активного обучения: [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров] / А. М. Смолкин. – М.: Высш. шк., 1991. – с. 175
9. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Слостенина В.А. – М.: «Совершенство», 1998.
10. Махмадиев Б.С. MathCAD тизимида ишлаш асослари. Ўқув қўлланма. – Қарши. 2012. – 144 б.
11. Тураев С.Ж., Хўжаев Л.Х., Пардаев Б.А. Matlab/Simulink муҳитида динамик системаларни моделлаштириш ва Borland Delphi7 дастурлаш тилида графигини ўрганиш.
12. Аладьев В.З., Харитонов В.Н. Программирование: Maple или Mathematica. – Таллинн , 2011. -415 с.



Sayyora MIRZAYEVA,
Chirchik davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti, PhD D.Ismoilov taqrizi asosida

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF STUDYING THE DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE AMONG STUDENTS WITH FAMILIES

Annotation

The results of the study of the development of a healthy lifestyle among family students in this article show that compliance with the work and rest regime, regular sports not only strengthen health, but also significantly increase the effectiveness of educational activities.

The article highlights approaches to the formation of a healthy lifestyle for students with a family, forms and methods of working with students with a family.

Key words: Approach, information, skill, experience, task, assignment, knowledge, skill, rule.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У УЧАЩИХСЯ С СЕМЬЯМИ

Аннотация

Результаты исследования развития здорового образа жизни у семейных учащихся в данной статье показывают, что соблюдение режима труда и отдыха, регулярные занятия спортом не только укрепляют здоровье, но и значительно повышают эффективность учебной деятельности.

В статье освещены подходы к формированию здорового образа жизни у учащихся с семьей, формы и методы работы с учащимися с семьей.

Ключевые слова: Подход, информация, умение, опыт, задача, задание, знания, умение, правило.

OILALI TALABALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZI RIVOJLANISHINI O'RGANISHNING NAZARIY METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilali talabalarda sog'lom turmush tarzining rivojlanishini o'rganish natijalari mehnat va dam olish rejimiga rioya qilish, muntazam sport turlari bilan shug'ullanish nafaqat salomatlikni mustahkamlashi, balki ta'lim faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Maqolada oilali talabalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga oid yondashuvlar, oilali talabalar bilan ishlash shakl va metodlari to'g'risida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yondashuv, ma'lumot, ko'nikma, tajriba, vazifa, topshiriq, bilim, ko'nikma, qoida.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda talabalarga jismoniy faollik va sog'lom turmush tarzini olib borish zarurligi to'g'risida ma'lumotlarni yetkazish zarurati mavjud. Shu bilan birga, pedagogika fanida oliy ta'lim tizimida jismoniy madaniyatga ijobiy munosabatni shakllantirishning vosita va usullari yetishmaydi, chunki boshqa viloyatlardan kelgan talabalarda oila tomonidan nazorat bo'lmaydi. Shu bois oliy ta'lim muassasalari oldida nafaqat talabalar salomatligi va ularning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, balki sog'lom turmush tarziga amal qilish, to'g'ri munosabatni shakllantirishga qaratilgan vazifalar mavjud. Bu vazifalarni amalga oshirilishi yoshlarning o'z taqdirini o'zi belgilash, ideallarni tanlash, ularga ergashish uchun namunalar va shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish hamda talabalarining kelajakdagi hayotiy faoliyati uchun zarur hisoblanadi[1].

Jamiyatda ijtimoiy-demografik inqiroz, o'lim ko'rsatkichlari tug'ilishdan oshib ketishi, odamlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish muammolarini olish maqsadida jismoniy tarbiya va sportning ulkan imkoniyatlaridan to'liq foydalanishimiz kerak. Bu millatni ma'naviy va jismoniy tiklashning eng arzon va samarali vositasidir[2].

Oilali talabalarda sog'lom turmush tarzining rivojlanishini o'rganish natijalari mehnat va dam olish rejimiga rioya qilish, muntazam sport turlari bilan shug'ullanish nafaqat salomatlikni mustahkamlashi, balki

ta'lim faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi[3].

Jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta'minlash, xalq genofondini bekamu-ko'st saqlash sog'lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari, oila, ta'lim-tarbiya maskanlari, mahalla oldiga fuqarolarga sog'lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini qo'yadi. Sog'lom turmush tarzi - inson salomatligini yaxshilash va muhofaza qilishga qaratilgan faol harakatlar hisoblanadi[4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sog'lom turmush tarzi borasida yetakchi olim Sh.X.Xonkeldiyev va boshqalar tomonidan "Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati" nomli darslik chiqarilgan bo'lib, unda ta'lim sohasiga qamrab olingan yoshlar uchun foydali ma'lumotlar berib o'tilgan. Darslikda har bir talaba o'zining kun tartibini mustaqil ravishda tuzib chiqishi zarurligi ko'rsatilgan. Kun tartibi har bir talaba organizmining ichki va tashqi holatlarini rivojlantirishga katta xizmat kiladi.

O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19-noyabrdagi "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini ma'lum bir tartibda va ilmiy asosda olib borish imkonini yaratadi, uning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga sog'lom turmush tarzi odamlar jamiyatda o'zlarining mavjud yashash tarzlarini, gigiyenik xulqlarini, shuningdek tibbiy madaniyligi va faolliklarini namunaviy etap bilan qiyoslab ko'rish va unga tegishli o'zgartirishlar kiritib borish imkoniyatiga ega bo'lishlarini nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda har bir odamning qiladigan ishlari va mas'uliyati juda katta. Odam asosiy haqiqat va maqsadlarini unutilgan holda oddiy texnik muammolar bilan shug'ullanmoqda. Salomatlikka ahamiyat bermagan holda kam uxlash, piyoda yurmaslik, mashinada yurish, kitob o'qib ovqatlanishni odat qilgan.

Oila salomatlikni mustahkamlash va saqlash muammosini hal qilishda katta rol o'ynaydi. Oilali talabalarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirish masalasiga ijodiy, norasmiy yondashuvlar mavjud. Talabalar nafaqat nazariy ma'lumotlarga, balki, eng muhimi, amaliy ko'nikmalarga muhtoj ekanligini unutmaslik kerak. Shu sababli, ular ma'lum tajribaga ega bo'lishlari mumkin bo'lgan turli seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir[7].

Talabalar bilan ishlashning asosiy maqsadi oilada sog'lom turmush tarzini tarbiyalash, oilali talabalarni tashqi kuzatuvchilardan sog'lomlashtirishning faol ishtirokchilariga qayta yo'naltirishdan iborat. Oilali talabalarning o'zlari sog'lig'i va jismoniy tayyorgarligi haqida qayg'ursa, bola oilada mavjud bo'lgan qoidalar va qonunlarga muvofiq yashaydi.

Oilali talabalar bilan ishlashda quyidagi shakl va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Talabalarning salomatligini mustahkamlash va saqlash bilan bog'liq bo'lgan mavzularda ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish.

"Kundalik tartibingiz", "Jismoniy tarbiya va sport", "Jismoniy mashqlarning inson salomatligi uchun ahamiyati", "Sog'lom turmush tarzi", "Ertalabki mashqlarni boshlash", "Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish" kabi mavzularda uchrashuvlar o'tkazish.

2. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

Talabalarning e'tiborini jalb qilish uchun bukletlar, gazetalar, rasmlar qo'llaniladi. Ular bir guruh bo'lishi mumkin va maktab ijodiy guruhi tomonidan nashr etilishi mumkin.

Tizimda valeologik mazmunga ega bo'lgan ota-onalar uchun pedagogik vazifalar va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu vazifalar mantiqiy bo'lishi mumkin, ularning asosiy maqsadi talabalarning faolligini rag'batlantirish, pedagogik valeologik bilim, ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallash, pedagogik valeologiyaning muhim qoidalarini tushunish va oilada bolalarni tarbiyalashdir. Mantiqiy topshiriqlar bolalarni oilada va maktabda tarbiyalashning amaliy faoliyatini tahlil qilish, solishtirish, xulosalar chiqarish, valeologik ta'limni takomillashtirish istiqbollari va yo'llarini ko'rsatishga yordam beradi[8].

Amaliy topshiriqlar talabalarga pedagogik mahoratni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi va ularni oilada bolalarni tarbiyalashning muayyan vaziyatlarida qo'llaydi. Bu bolalarni tarbiyalashning o'ziga xos sharoitlarini o'rganish, tarbiyadagi kamchiliklarning sabablarini o'rganish va shu asosda oilada va maktabda ta'lim jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'lishi mumkin[9].

O'quv maqsadlari oilali talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha adabiyotlarni alohida yoki jamoaviy tahlil qilishlari, pedagogik vaziyatlarni muhokama qilishlari, bolalarning valeologik tarbiyasini takomillashtirish yo'llari va usullarini taklif qilishdan iborat bo'ladi.

3. Kasalliklarning oldini olish, ruhiy salomatlikni saqlash va mustahkamlash bo'yicha suhbatlar va maslahatlar.

Zamonaviy talabalar, bir tomondan, ma'lumotli odamlardir, lekin boshqa tomondan, ular pedagogika, psixologiya, fiziologiya va boshqa bilim sohalari bo'yicha kam ma'lumotga ega.

Talabalar psixologik va pedagogik ma'lumotlarni turli manbalardan: davriy nashrlar, televideniye va radio-eshittirishlar, ilmiy-ommabop adabiyotlar va Internetdan olishlari mumkin.

4. So'rovnoma o'tkazish.

5. Ochiq eshiklar kuni.

6. Videoyozuvdan foydalanish.

Bu oilali talabalar (darslar, muntazam lahzalar, bayramlar) o'rtasida video materiallarni namoyishini nazarda tutadi. O'qituvchilar video material beradilar va talabalar uyda bo'sh va qulay vaqtlarida materialni tomosha qilishadi.

7. Oilali talabalarni o'qituvchilar kengashlari va maktab seminarlarida ishtirok etishga jalb qilish.

Oilali talabalar muassasa hayotida ishtirok etish, takliflar berish, birgalikdagi ishlarni rejalashtirish huquqiga ega.

O'quv yilining boshida va oxirida gigiyena ko'nikmalarini rivojlantirish va sog'lom turmush tarziga motivatsiya bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar asosida oilali talabalarning javoblarini tahlil qilib, shunday xulosa chiqarish mumkin: o'tkazilgan sog'lomlashtirish mashg'ulotlari orqali gigiyena qoidalarini va tartiblariga rioya qiluvchi talabalar ulushi sezilarli darajada oshdi, sog'lom turmush tarziga bo'lgan motivatsiyaning rivojlanishi ham ijobiy natija ko'rsatdi.

Shunday qilib, oilali talabalarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash ishlarining yetakchi yo'nalishlaridan biri ularning haqiqiy ehtiyojlarini qondiradigan gigiyenik ta'lim va tarbiya bo'lishi kerak[10].

Tahlil va natijalar. Ruhiy salomatlik miyaning holatiga bog'liq bo'lib, u fikrlash darajasi va sifati, diqqat va xotiraning rivojlanishi, hissiy barqarorlik darajasi va irodaviy fazilatlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Axloqiy salomatlik insonning ijtimoiy hayoti, ya'ni muayyan inson jamiyatidagi hayotining asosi bo'lgan axloqiy tamoyillar bilan belgilanadi. Insonning axloqiy salomatligining o'ziga xos xususiyatlari, birinchi navbatda, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, madaniy boyliklarni o'zlashtirish, odatiy turmush tarziga zid bo'lgan urf-odatlar va odatlarni faol rad etishdir. Jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom odam axloqiy meyorlarga e'tibor berishi zarur. Axloqiy jihatdan sog'lom insonlar bir qancha umuminsoniy fazilatlariga ega bo'ladi.

Sog'lom va ma'naviy jihatdan rivojlangan inson baxtlidir, o'zini ajoyib his qiladi, o'z ishidan qoniqish oladi, o'z-o'zini takomillashtirishga intiladi va ruhiy va ichki go'zallikning o'zgarish yoshligiga erishadi[11].

Inson shaxsiyatining yaxlitligi, birinchi navbatda, tananing aqliy va jismoniy kuchlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Tananing psixofizik kuchlarining uyg'unligi salomatlik zaxiralarini oshiradi va hayotimizning turli sohalarida ijodiy o'zini namoyon qilish uchun sharoit yaratadi. Faol va sog'lom odam uzoq vaqt yoshlikni saqlaydi, ijodiy faoliyatni davom ettiradi va "ruhning dangasa bo'lishiga" yo'l qo'ymaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ta'riflanganidek, sog'liq - bu nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir[12].

Xulosa va takliflar. Inson salomatligi hayotning eng muhim qadriyatidir. Uni hech qanday pul evaziga sotib olish yoki olish mumkin emas, uni himoya qilish va saqlash, rivojlantirish va yaxshilash, mustahkamlash kerak.

Salomatlik ko'plab omillarga bog'liq. Bugungi kunda inson salomatligi 50% turmush tarzi, 20% atrof-muhit omillari, 20% biologik (irsiy) omillar va 10% tibbiyot bilan belgilanadi. Shunday qilib, agar inson sog'lom turmush tarzini olib borsa, bularning barchasi uning sog'lig'ining 50% yuqori darajasini belgilaydi. Aksincha, nosog'lom turmush tarzi salomatlikka putur yetkazadi va iztirobga, erta qarilikka va quvonchsiz hayotga olib keladi. Har bir inson o'z hayoti davomida sog'lom turmush tarzi normalari va qoidalari doirasida bo'lishi kerak.

Oilali talabalar sog'lom turmush tarziga rioya qilishlari sohasida o'zlarining barcha xaziralari va yutuqlarini, ko'nikma va qobiliyatlarini ishlatishlarini talab qilinadi.

Talabalarga quyidagilar tavsiya etiladi:

• To'liq dam olgan holda mashg'ulotlarda ishtirok etish. Har kuni ertalabki jismoniy faollik talabalarning yaxshi jismoniy holatda bo'lishiga yordam beradi;

• Darsda faol bo'lish;

• Darslar orasidagi tanaffuslardan unumli foydalanish.

Jismoniy mashqlar - dam olishning eng yaxshi manbai. Chekish va giyohvandlik, aroq va pivo, bekorchilik va behayo so'zlar kasbiy o'sishning yashirin va ochiq dushmanlaridir.

O'qishdan bo'sh vaqtlarda sog'lom turmush tarziga e'tibor qaratish tanani va salomatlikni tiklashga qaratilgan bo'lishi zarur. Uyqu, ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, bolalarni tarbiyalash, qariyalarga g'amxo'rlik qilish, ta'lim muassasasiga borish va qaytishda vaqt va kuch sarflash oilali talabalarning sog'lom turmush tarzi rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. Аҳолининг соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаш ва жисмоний фаоллигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 19.11.2020 йил. 735-сон.
2. Ботирова З. Повышение мотивации учащихся начальных классов// Проблемы современной науки и образования. № 6 (151), 2020 год.
3. Ботирова З.А. Мактабгача таълимда болалар соғлом турмуш тарзини шакллантириш усуллари / З.А.Ботирова, Ф.М.Омонова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 50 (340). — С. 597-598. — URL: <https://moluch.ru/archive/340/76402/> (дата обращения: 03.11.2023).
4. Гребешева И. И. Взросление. Репродуктивное здоровье и здоровый образ жизни. Для тех, кто работает с подростками / ред. И. И. Гребешева. - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: [б. и.], 2002. - 142 с. Имеются экземпляры в отделах: н.чз. (Инв.2003ДАР)
5. Игнатъева Л.П. Основы гигиенического воспитания : учебное пособие / Л. П.Игнатъева, М.В.Чирцова, М.О.Потапова ; ГБОУ ВПО Иркутский государственный медицинский университет, кафедра коммунальной гигиены и гигиены детей и подростков. - Иркутск: ИГМУ, 2014. - 68 с.
6. Маннапова Н.Ш. Совершенствование формирования мотивации здорового образа жизни у студентов высших педагогических учебных заведений: автореф. дис. ... д-ра философии (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2020. – 67 с.
7. Масыгин С.С. Талабанинг соғлом турмуш тарзининг асосий таркибий қисмлари / С.С.Масыгин. — Матн: дархол // Ёш олим. — 2021. — № 15 (357). - Б. 368-371.
8. Муминова Ф. Талабаларда соғлом ҳаёт тарзи кўникмаларини шакллантириш омиллари. // Ж.Мактаб ва ҳаёт 2002. №7. Б. 20-21.
9. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. Т.: Ўқитувчи. 1999. – 199 б.
10. Нуралиева Г.К. Психолого-педагогические основы ценностного ориентирования личности.: Автореф. дис.... д.пед.наук. - Алма-Ата. 1993. – 42 с.
11. Юлдашева Д. М. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Научный журнал. Москва, 1–2 февраля, 2013г., с.83–84.
12. Шарипова Д.Д. Здоровье будущего поколения – в ваших руках / Д.Д.Шарипова, О.Мусурманова, М. Таирова [и др.]. – Ташкент: Fan va tehnologiya, 2011. – 112 с.



Komiljon MO'MINOV,
TAFU Informatika kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: muminov@mail.ru

O'zMU Jizzax filiali dotsenti M.Boltayeva taqrizi asosida

METHODS OF USING FORSITE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING CREATIVE THINKING OF STUDENTS

Annotation

This article is intended for undergraduate students of the Pedagogical Higher Educational Institution and professors of higher pedagogical education. Pedagogical conditions and quality indicators of using innovative organizational and didactic forms of education in the methodical improvement of students' creative competencies based on foresight technologies, information and didactic support are described. The method of improvement of students' creative competences based on Forsayt technologies, innovative approach is covered.

Key words: Creative competence, innovative technology, global trend, methodological support, foresight.

TALABALARNI KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola pedagogik OTMning bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari hamda pedagogik oliy ta'lim professor o'qituvchilari, uchun mo'ljallangan. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini Forsayt texnologiyalari asosida metodik takomillashtirishda ta'limning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari va sifat ko'rsatgichlari, axborot-didaktik ta'minoti tavsiflangan. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini Forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish metodikasi, innovatsion yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kreativ kompetensiya, innovatsion texnologiya, global tendensiya, metodik ta'minot, forsayt.

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФОРСАЙТНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Данная статья предназначена для студентов бакалавриата педагогического вуза и преподавателей высшего педагогического образования. Описаны педагогические условия и качественные показатели использования инновационных организационно-дидактических форм обучения в методическом совершенствовании творческих компетенций обучающихся на основе технологий предвидения, информационно-дидактического обеспечения. Освещен метод совершенствования творческих компетенций студентов на основе технологий Форсайт, инновационный подход.

Ключевые слова: Креативная компетентность, инновационные технологии, мировой тренд, методическое обеспечение, форсайт.

O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillapga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot spategiyasi to'g'risida"gi, Qaroridagi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlanish Konsepsiyasida" Oliy ta'lim o'quv yurtlarida ilmiy – tadqiqot ishlarini natijadorligini oshirish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini yaratish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilandi: oliy ta'lim muassasasida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish; oliy ta'lim o'quv yurtlarida forsayt markazlari, texnopark, innovatsion texnologiyalar transferi markazlari, akselerator, startap, biznes inkubatorlar tashkil etish va ularni rivojlantirishning dolzarbligiga alohida e'tibor berila boshlandi.

Jahonda forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish va mustaqil kasbiy rivojlanishning yangicha shakllarini o'zlashtirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida ta'kidlanadi. Jumladan, 2030-yilgacha qabul qilingan umumjahon ta'lim Konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" g'oyasi

mutaxassislarni uzluksiz malakasini oshirish va ijodiy yaratuvchanlik tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Finlyandiya: Finlyandiya o'zining forsaytlash va strategik rejalashtirish markazlari bilan mashhur. Masalan, Finlyandiya Innovatsion Fond kompaniyasi (Sitra) iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining turli stsenariylari asosida uzoq muddatli forsaytlash ishlarini olib boradi. Germaniyada bir nechta forsayt markazlari mavjud, masalan, Federal tadqiqot va ta'lim vazirligi (BMBF) tadqiqot va ta'lim sohasida forsaytlash, trend tahlili va ishlab chiqishda faol. Buyuk Britaniyadagi Texnologiya Instituti (British Technology Strategy Board) forsaytlash va innovatsiyalar markazini ishga tushirdi. Markaz texnologik tendentsiyalarni forsaytlash va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. AQShda turli hukumat va sanoat forsayt markazlari mavjud. Milliy razvedka kengashi (Milliy razvedka kengashi) jahon siyosati rivojlanishining turli stsenariylari asosida global tendentsiyalarni forsayt qiladi. IBM va Microsoft kabi yirik kompaniyalar ham kelajakdagi texnologiya tadqiqotlari va ishlanmalarini rejalashtirish uchun o'zlarining forsayt markazlariga ega. Singapurdagi Singularity universiteti texnologik innovatsiyalar sohasida forsayt va tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Respublikamizda rivojlanayotgan uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy talablarga

mos rivojlanayotgan oliy ta'lim tizimi o'zining alohida o'rniga ega. Bu borada yuzaga kelayotgan muammolarning yechimini topishda, avvalo ta'lim jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda zaruriy axborot infratuzilmasini yaratish talab etiladi. Oliy ta'limda ta'lim tizimini rivojlantirishning nazariy-metodologik masalalari hamda ta'limda axborot muhitini yaratish muammolari yurtimiz olimlaridan R.X.Djurayev, H.F.Rashidov, Sh.E.Qurbonov, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, Sh.S.Sharipov, U.Sh.Begimqulov, E.A.Seytxalilov, M.A.Yuldashev, Mamatov D.N. va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Oliy ta'limda forsait texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va amaliyoti masalalari, didaktik va metodik asoslari, istiqbollari bilan bog'liq tadqiqotlar xorij olimlari Sokolov A.V.Georghiou L., Cassingena Harper J., Keenan M., Miles I., Popper R., Shelyubskaya N.V. o'zbek olimi Raximov O.D. va boshqalarning ishlarida yoritib berilgan. Ta'lim muassasalarining axborot-ta'lim muhitini tashkil etish hamda ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Abdugodirov, N.I.Taylaqov, U.Sh.Begimqulov, J.A.Xamidov, O.X.To'raqulov tomonidan amalga oshirilgan. Xorijiy mamlakatlarda oliy ta'limda masofaviy malaka oshiriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar I.R.Agamirzyan, Alekseyeva A. D., T.V. Konyuxova, A.D., Alekseyev, T.V. Yejoval, V.S.Yefimov, A.V. Lapteva, V.L.Inozemsev tomonidan olib borilgan.

Oliy ta'lim tizimi ta'limni samarali tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin: ta'lim tizimining tezkor yangilanishi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berishga yetarlicha tayyor bo'lmagan amaldagi tizim o'rtasidagi ziddiyat; metodik ta'minotning ishlab chiqilmaganligi; integrallashgan axborot-ta'lim muhitini yaratish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi hamda pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi yechimini kutayotgan bir qator muammolar manbasi bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirish jarayonini tahlil qilish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishga tayyorlashning axborot-didaktik ta'minotini mazmun-rivojlantirish, talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini va didaktik imkoniyatlarini asoslash; talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishni modellashtirish, oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarini tayyorgarligini rivojlantirish, talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirish darajalarini baholash, natijalarni qayta ishlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta'lim tizimiga eng zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Shuningdek, oliy ta'limda tayyorlanayotgan milliy kadrlarimiz kelajakni ko'ra bilishi, tezkor o'zgaruvchan raqobatbardosh muhitga moslashuvchan bo'lishlari, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga tatbiq eta olishlari zarur. Chunki, ta'lim sohasini rivojlantirish jarayoni tezlashib borayotgan bir vaqtda kelajakda ta'lim strategiyasini to'g'ri takomillashtirish, barqaror rivojlanishning asosini tashkil etadi. Hozirgi globallashtirish davrida dunyo, mintaq, davlat yoki ta'lim sohalaridagi yirik muammolar (elektron axborot almashinuvi, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik, siyosiy va b.) yechimiga oid strategik rejalar, yo'l xaritalari va konsepsiyalar ishlab

chiqishda Forsait texnologiyalaridan foydalanish eng samarali va maqbul variant hisoblanadi. Forsait asosida rivojlanishning uzoq muddatli (5 yildan 30 yilgacha) rivojlanish dasturi yoki konsepsiyasi qisqa muddatli aniq dalillarga asoslangan ma'lumotlar asosida yaratiladi, ya'ni kelajak strategiyasi aniq, yuqori darajadagi dalillar asosida rejalashtiriladi. Rivojlangan davlatlarda forsait alohida bir tashkilot yoki korxonada doirasida ham keng foydalaniladi, forsait texnologiyasi yordamida korxonaning kelajak strategik rejasi ishlab chiqiladi, qaysi texnologiyalarni takomillashtirish zarurligi aniqlanadi, maqsadga erishish uchun yo'l xaritalari ishlab chiqiladi. Shu sababli rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimida pedagog mutaxassis kadrlarni tayyorlashda Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi, Pedagogika, Kreativ pedagogika fanlarini o'qitishda forsait texnologiyalaridan keng foydalaniladi va ta'lim dasturlarida aynan forsaitga oid fanlar nazarda tutiladi. Forsait nisbatan yangi atama hisoblanib, shu sababli hozirgacha uning mukammal ta'rifi ishlab chiqilmagan. Forsait texnologiyalari asosida global (xalqaro hamkorlik asosida) elektron ta'lim-tarbiyaga oid muammolar, jumladan hamkorlik asosida shu sohani yanada keng rivojlantirish va Forsait texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. 1990 yillardan boshlab uzoq muddatli istiqbolni belgilashda forsait texnologiyalardan AQSH, Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasidagi iqtisodiy rivojlangan bir qancha davlatlar keng foydalana boshlashdi. Forsait loyihalar natijalari asosida keng masshtabli Xalqaro tadqiqot dasturlari ishlab chiqilgan, jumladan Yevropa Ittifoqining VI chi va VII ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish dasturining byudjet xarajatlari 17,5 va 54 mlrd. yevroni tashkil etganligi, Shvesiyaning oxirgi forsait loyihasi 3,6 mln yevro, Turkiyada esa 2 mln yevroga yaqin mablag' sarflanganligi bu Forsait texnologiyalari asosida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. EFMN (The European Foresight Monitoring Network) - Yevropa forsait tadqiqotlar monitoringi tizimi, FISTERA - axborotlashgan jamiyat sohasidagi loyihalar tizimi faoliyatini misol qilishimiz mumkin. EFMN Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi va “Yevropa bilimlar almashinuvi platformasi”ning bir qismi hisoblanadi. Uning tarkibiga ARC-SA, VDI, PREST, TNO, CKA, Atlantis, Fhg-ISI, Dialogik, Louis Lengand & Associates, Technology Centre Prague kabi tashkilotlar kiradi. 2006 yilgi ma'lumotlar bo'yicha EFMN monitoring portfoliosida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda hamda Yaponiya, AQSH, Kanada, Xitoy, Koreya Respublikasi va Braziliyada bajarilgan 1000 ga yaqin Forsait tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Forsait texnologiyalari asosida O'zbekistonda elektron axborot tarmoqlari, jumladan ta'lim sohasidan uzoq muddatli strategik rejalar, konsepsiyalar va istiqbolli yo'l xaritalari ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilmaganligi boisi, respublikamizdagi kopinga ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari oldida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Yuqori texnologik loyihalarni rivojlantirish jarayonini bozor va texnologik trendlar rivojlanishini hisobga olmasdan amalga oshirib kelinayotganligidadir. Innovatsion sektorda kooperativ jarayonlarning rivojlanmaganligi tufayli ilmiy yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etish masalasiga sust yondashish hamda elektron ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasiga oid tadqiqotlari o'tkazishning yetarlicha baholanmaganligi kuzatildi. Shu sababli oliy ta'lim o'quv jarayonida bo'lajak pedagoglarga forsait texnologiyasi, uning mazmuni, forsait uslublaridan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar berish hamda ushbu texnologiyani o'quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya sifatida keng qo'llash va talabalarning kreativ kompetensiyalarini Forsait texnologiyalar asosida takomillashtirish “Forsait kreativ kompetentlik”ni rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim sohasida Forsait texnologiyasi yangi texnologiya hisoblanadi, shu sababli bo'lajak pedagoglarga elektron tarmoq sohasida

hamda elektron ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasida forsait tadqiqotlar olib borilmaganligi, Forsait texnologiyasi bo'yicha ilmiy dissertatsiyalar himoya qilinmaganligi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillar shundan dalolat beradiki Forsait asosida talabalarning kreativ kompetentlikning qo'yidagi ta'rifi ishlab chiqildi.

Курируемый контент: сюда входят цифровые учебники, электронные книги, онлайн-курсы, образовательные веб-сайты и другие цифровые хранилища образовательного контента, имеющие отношение к информатике. Эти ресурсы предлагают актуальную информацию, способствующую более глубокому пониманию концепций и принципов.

Мультимедийные элементы. Использование мультимедийных элементов, таких как видео, анимация и интерактивные учебные пособия, делает обучение более динамичным и привлекательным. Они помогают визуализировать абстрактные концепции и процессы, улучшая понимание и запоминание[3].

Платформы для сотрудничества :

Системы управления онлайн-обучением (LMS): эти платформы облегчают совместное обучение, позволяя студентам работать с материалами курса, участвовать в дискуссиях, сотрудничать в проектах и предоставлять обратную связь от коллег.

Виртуальные классы. Виртуальные классы, работающие в режиме реального времени, позволяют проводить синхронное обучение, интерактивные дискуссии и живые занятия, имитируя традиционный класс в цифровой среде.

Системы оценки и обратной связи :

Инструменты автоматической оценки: эти инструменты обеспечивают автоматическую оценку и обратную связь по заданиям, викторинам и тестам, что позволяет немедленно оценивать и персонализировать обратную связь для учащихся.

Аналитика обучения: ИЕЕ может включать аналитику для отслеживания прогресса, участия и вовлеченности учащихся, помогая определить области для улучшения и оптимизации стратегий обучения[2].

Интеграция ИЕЕ в обучение учителей информатики

Включение ИЕЕ в образование и подготовку будущих учителей информатики требует стратегического и продуманного подхода для обеспечения его эффективности и соответствия образовательным целям. Интеграция включает в себя следующие педагогические подходы и методики:

Смешанное обучение:

Модули онлайн-обучения. Подготовка учителей информатики включает использование онлайн-модулей в рамках ИЕЕ, что позволяет будущим преподавателям гибко получать доступ к теоретическому контенту и ресурсам.

Очные семинары и лаборатории: практический опыт в физических классах и лабораториях дополняет онлайн-обучение, создавая сбалансированный подход к развитию навыков.

Перевернутый класс:

Знакомство с контентом перед уроком : будущие учителя информатики знакомятся с учебными материалами, лекциями и ресурсами, связанными с предстоящими темами, перед уроком[2].

Интерактивные занятия в классе : время в классе затем используется для обсуждений, решения проблем,

совместных проектов и прояснения сомнений, поощрения активного участия и критического мышления.

Интеграция ИЕЕ в обучение учителей информатики

Бесшовная интеграция информационной образовательной среды (ИОО) в обучение учителей информатики является стратегическим императивом для оснащения будущих преподавателей необходимыми компетенциями для эффективного преподавания в эпоху цифровых технологий. Эта интеграция предполагает тщательное планирование, согласование учебных программ и использование передовых технологических инструментов для улучшения опыта и результатов обучения.

Педагогические подходы и методики

Смешанный подход к обучению :

Онлайн-модули и ресурсы : использование онлайн-платформ в рамках ИЕЕ для предоставления учебного контента, учебных пособий и ресурсов, к которым студенты могут получить доступ в удобном для них темпе, обеспечивая прочную основу теоретических знаний.

Персональные семинары и лаборатории: проведение практических занятий и практических занятий в физических классах или лабораториях, что позволяет студентам применять теоретические знания в контролируемой среде и поощряет интерактивное обучение.

Модель перевернутого класса:

Предварительное обучение : учащиеся используют ИЕЕ для доступа к заранее записанным лекциям, образовательным видеороликам или интерактивным руководствам, чтобы ознакомиться с предстоящими темами перед посещением занятий[5].

Применение и взаимодействие в классе : время в классе посвящено интерактивным дискуссиям, решению проблем, групповым занятиям и разъяснениям, что позволяет учащимся активно применять свои предварительные знания.

Виртуальное совместное обучение :

Совместные онлайн-проекты : вовлечение студентов в совместные проекты, реализуемые через ИЕЕ, содействие командной работе, взаимному обучению и применению концепций информатики в практических сценариях.

Дискуссионные форумы и виртуальные дебаты : использование онлайн-платформ для проведения дискуссий и дебатов по актуальным темам, поощрение критического мышления, коммуникативных навыков и более глубокого понимания концепций.

Внедрение интегрированной учебной программы

Согласование учебной программы с инструментами ИЕЕ :

Определение целей обучения: определение конкретных целей обучения и компетенций, соответствующих использованию инструментов и ресурсов ИЕЕ.

Включение компонентов ИЕЕ: Интеграция выявленных компонентов ИЕЕ, таких как конкретные программные приложения, онлайн-платформы и инструменты оценки, в учебную программу в структурированном виде.

Обучение и поддержка преподавателей:

Профессиональное развитие: обеспечение непрерывного обучения и профессионального развития преподавателей с целью ознакомления их с новейшими технологиями, методологиями преподавания и эффективным использованием ИЕЕ в их педагогической практике.

Группы технической помощи и поддержки: создание групп поддержки для оказания помощи преподавателям и студентам в эффективном использовании компонентов ИЕЕ, устранении технических проблем и оптимизации процесса обучения.

Влияние на профессиональную компетентность
Интеграция ИЭЭ в обучение учителей информатики оказывает глубокое влияние на развитие профессиональной компетентности будущих педагогов:

Повышенная техническая компетентность :

Знакомство с широким спектром технологических инструментов и платформ в рамках ИЕЕ повышает технические навыки учащихся, гарантируя, что они смогут использовать соответствующие технологии в своем обучении.

Инновационные педагогические навыки :

Использование ИЕЕ для разработки инновационных стратегий обучения расширяет возможности будущих учителей информатики с педагогическим творчеством, позволяя им эффективно вовлекать учащихся и доставлять контент стимулирующими способами.

Адаптивность и непрерывное обучение :

ИЕЕ способствует созданию среды адаптивности и обучения на протяжении всей жизни, поощряя будущих учителей информатики быть в курсе новых технологий и развивающихся образовательных методологий.

В заключение отметим, что интеграция ИЕЕ в обучение учителей информатики представляет собой преобразующий подход, соответствующий динамичному характеру этой области. Используя этот подход, образовательные учреждения могут выпускать преподавателей информатики, обладающих техническими знаниями, педагогическими навыками и способностью к адаптации, необходимыми для подготовки следующего поколения ученых-компьютерщиков и новаторов. Продолжающееся развитие компьютерных наук и образовательных технологий требует постоянного улучшения интеграции для обеспечения ее актуальности и эффективности.

Заключение. Интеграция информационной образовательной среды (ИОО) в обучение учителей

информатики является ключевой стратегией формирования нового поколения преподавателей, способных противостоять вызовам цифровой эпохи. В этой статье изложена концептуальная основа ИЕЕ, подчеркнуты ее компоненты, адаптированные для образования в области информатики, и исследована ее плавная интеграция в образовательный процесс.

ИЕЕ, включающий в себя аппаратную и программную инфраструктуру, цифровые учебные ресурсы, платформы для совместной работы и системы оценки, представляет собой комплексную и интерактивную экосистему. Его тщательная интеграция, использование педагогических подходов, таких как смешанное обучение и модель «перевернутого класса», трансформирует традиционные парадигмы преподавания и расширяет образовательный опыт как для учащихся, так и для будущих преподавателей.

Стратегически согласовав ИЕЕ с учебной программой по информатике и обеспечив обучение и поддержку преподавателей, образовательные учреждения могут расширить возможности будущих учителей информатики. Эти будущие преподаватели извлекают выгоду из улучшенных технических навыков, инновационных педагогических навыков, а также адаптируемости и непрерывного обучения. Эта трансформация в конечном итоге позволит им эффективно подготовить следующее поколение ученых-компьютерщиков, программистов и технологов.

Продолжающееся развитие технологий подчеркивает необходимость постоянного расширения интеграции ИЕЕ в образование учителей информатики. Дальнейшие исследования и исследования необходимы для совершенствования методологий, оценки долгосрочного воздействия на профессиональную компетентность и адаптации к новым технологиям и образовательным парадигмам. Принимая эту динамичную интеграцию, мы прокладываем путь к образовательной среде, которая воспитывает информированных, новаторских и дальновидных преподавателей информатики, формируя светлое будущее как для области информатики, так и для студентов, которых они вдохновляют.

ЛИТЕРАТУРА

1. Андерсон, Калифорния, и Смит, ER (2018). Интеграция технологий в образование: комплексное руководство . Академическая пресса.
2. Браун Дж. С., Коллинз А. и Дугид П. (1989). Расположенное познание и культура обучения . Исследователь образования, 18 (1), 32–42.
3. Мишра П. и Келер М.Дж. (2006). Знания технологического педагогического содержания: основа знаний учителей . Отчет педагогического колледжа, 108 (6), 1017–1054.
4. Сименс, Г. (2005). Коннективизм: теория обучения в эпоху цифровых технологий . Международный журнал педагогических технологий и дистанционного обучения, 2 (1), 3-10.
5. ЮНЕСКО. (2013). Инструментарий ИКТ в образовании для политиков, специалистов по планированию и практиков . Организация Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры.



UDK:378.1

Gavharbonu OCHILOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: ochilova gavhar91@gmail.com

P.f.n. (PhD) M.Raupova taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF THE CONCEPT OF ECONOMIC INCENTIVES FOR THE PEDAGOGICAL EFFICIENCY OF HIGHER EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE DEVELOPMENT OF MODERN EDUCATION

Annotation

The research focuses on identifying and correcting the tendency of transition from passive distributive forms of funding to active (competitive) forms of economic stimulation of pedagogical efficiency. For higher education, this new trend is manifested in the form of regulatory and multi-channel financing, public orders and grants, final financing and educational loans.

Key words: Financing of the education system, economic incentives, competitive personnel, market economy, social sphere, material incentives, social relations.

РАЗРАБОТКА КОНЦЕПЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Целью исследования является выявление и коррекция тенденции перехода от пассивно-распределительных форм финансирования к активным (конкурентным) формам экономического стимулирования педагогической эффективности. Для высшего образования эта новая тенденция проявляется в форме регулятивного и многоканального финансирования, государственных заказов и грантов, конечного финансирования и образовательных кредитов.

Ключевые слова: Финансирование системы образования, экономическое стимулирование, конкурентоспособные кадры, рыночная экономика, социальная сфера, материальное стимулирование, социальные отношения.

ZAMONAVIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIMNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI UCHUN IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Tadqiqot ishida moliyalashtirishning passiv distributiv shakllaridan pedagogik samaradorlikni iqtisodiy rag'batlantirishning faol (raqobatbardosh) shakllariga o'tish tendentsiyasini aniqlash va tuzatish jihatlariga e'tibor qaratiladi. Oliy ta'limi uchun bu yangi tendensiya normativ va ko'p kanalli moliyalashtirish, davlat buyurtmalari va grantlar, yakuniy moliyalashtirish va ta'lim kreditlari shaklida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimini moliyalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirish, raqobatbardosh kadrlar, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy soha, moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy munosabatlar.

Kirish. Maqolada moliyalashtirishning passiv distributiv shakllaridan pedagogik samaradorlikni iqtisodiy rag'batlantirishning faol (raqobatbardosh) shakllariga o'tish tendentsiyasini aniqlash va tuzatish jihatlariga e'tibor qaratiladi. Oliy ta'limi uchun bu yangi tendensiya normativ va ko'p kanalli moliyalashtirish, davlat buyurtmalari va grantlar, yakuniy moliyalashtirish va ta'lim kreditlari shaklida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarining pedagogik samaradorligini iqtisodiy rag'batlantirish namunalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 6 noyabrdagi PQ-4884 sonli Qarori hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirishga qaratilgan boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlardir[3]. Ular budjetni moliyalashtirish tamoyillarini o'zgartirishga, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga va bozor munosabatlari xarakterida immanent bo'lgan iqtisodiy rag'batlantirishning investitsion usullari bilan ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogika fani hali oliy ta'lim tizimining eng iqtidorli subyektlarini aniqlash va iqtisodiy rag'batlantirishga asoslangan oliy ta'limni boshqarish amaliyotini yetarli darajada o'rganmagan. Bozor iqtisodiyoti yillarida to'plangan tajriba allaqachon kasbiy pedagogikaning yangi yo'nalishi - iqtisodiy rag'batlantirish usullari bilan oliy ta'limning pedagogik samaradorligini oshirishni yuzaga keltirish mexanizmlarini aniqlash va tahlil etishni taqozo etadi va maqola mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini, hamda iqtisodiy rag'batlantirishni rivojlantirish maqsad qilib qo'yildi.

Oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligi taminlash ustida amaliy ishlar olib borilmoqda. Konsepsiya

tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan "Yo'l xaritasi" orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirish tartibini belgilangan[2].

Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini va boshqa toifadagi xodimlarini moddiy rag'batlantirish pul mukofotlari ko'rinishida, shuningdek, mehnat faoliyatida yuqori ijodiy va ishlab chiqarishdagi erishgan yutuqlari uchun oliy ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan asosiy ish haqiga ustama va qo'shimcha haqlar belgilash orqali budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Pul mukofotlari, ustamalar va qo'shimcha haqlar miqdori har bir xodimning oliy ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirishga qo'shgan shaxsiy hissasiga qarab belgilangan.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarlariga (rektor, prorektor, filial direktori va o'rinbosarlari) mehnat faoliyatida erishgan yuqori ijodiy va ishlab chiqarishdagi yutuqlari uchun ustama va qo'shimcha haqlar hamda pul mukofotlari yuqori turuvchi tashkilotlarning tegishli qarorlari bilan belgilangan.

Moddiy rag'batlantirish nafaqat bir xodim uchun, balki oliy ta'lim muassasasi rahbariyati yoki boshqa boshqaruv organlari tomonidan jamoatchilik ishlarini bajargan butun bir jamoa, kafedra, fakultet, ilmiy laboratoriya va boshqa bo'linmalar xodimlariga ham berilishi mumkin. Bunda, moddiy rag'batlantiriladigan xodimlarning ro'yxati bajarilgan ishlarning aniq ko'rsatkichlari, erishilgan natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim.

Oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga bajarilgan ishlar va erishilgan natijalar to'g'risida noto'g'ri ma'lumot taqdim etgan xodimlar moddiy rag'batlantirilmaydi.

Oliy ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot va iqtisodiy faoliyati samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida xodimlarni rag'batlantirish o'quv yili davomida amalga oshirilishi mumkin.

Rag'batlantirish ko'rsatkichlari bajarilgan ishlarning xususiyati, o'ziga xosligi va oliy ta'lim muassasasi (uning tarkibiy bo'linmalari)ning yo'nalishidan kelib chiqib aniqlashtirilgan bo'lishi lozim. Jamoa (aniq bir xodim) moddiy rag'batlantirilishida haqiqatan ham erishishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlardan ikki yoki uchtdan ko'p bo'lmagan mukofotlash mezonlari belgilangan.

Xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi buyruq har bir xodim uchun oliy ta'lim muassasasi rahbari tomonidan imzolaniib, kasaba uyushma tashkiloti bilan kelishiladi, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari uchun esa yuqori turuvchi tashkilotning qarori tegishli boshqarma va bo'limlarining tavsiyasiga binoan tayyorlangan.

O'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida professor-o'qituvchi va xodimlarga ustamalar hamda moddiy rag'batlantirish turlari va miqdorlari moliyaviy imkoniyatdan kelib chiqib, mustaqil belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy nashrlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limning pedagogik samaradorligiga iqtisodiy rag'batlarning ta'siri muammosi amalda ko'rib chiqilmagan.

Oliy ta'limning pedagogik samaradorligini oshirish yo'li sifatida iqtisodiy rag'batlantirish usullarini tahlil qilishning shart-sharoitlari sohadagi fundamental ishlar xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan quyidagi jihatlari o'rganilgan, jumladan:

- ta'lim tizimining nazariy va uslubiy asoslarini shakllantirish, zamonaviy ta'lim tizimi A. G. Asmolov, V. I. Baydenko, V. A. Bolotov, N. V. Kuzmina, A. A. Kuznetsov, B. C. Lednev, N. N. Nechayev, N. D. Nikandrov N. K. Sergeyev, V. D. Shadrikovlar tomonidan, pedagogik samaradorlik va kasb ta'limini rivojlantirishning umumiy nazariyasi V. V. Anisimov va V. G. Muhametzyanovlar tadqiqotida, kasbiy ta'limning pedagogik samaradorligi mazmuni va mezonlari S. I. Vershinin, Y. L. Derazhne, V. A. Malysheva, M. V. Nikitin, P. N. Novikov, YE. S. Polat, V. N. Onushkin, T. S. Panina, I. V. Robert, L. G. Solomkolar tomonidan, zamonaviy innovatsiya sohasida kasb-hunar ta'limini rivojlantirish O. G. Groholskaya, P. F. Kubrushko, V. V. Kuznetsov, A. S. Meshcheryakov, N. N. Mikhailova, YE. A. Nain, YE. I. Tupikin kabi olimlar tomonidan o'rganilgan[7,8,9].

Tahlil va natijalar. Zamonaviy sharoitda oliy ta'limni ma'muriy boshqarish salohiyati ko'p jihatdan tugab, ijtimoiy soha tobora kengayib borayotgan bozor iqtisodiyoti tamoyillari bilan to'qnash keladi. Oliy ta'limning yangi paradigmasi pedagogik jamoa tomonidan tobora ko'proq qabul qilinadi: "ish beruvchi nimani o'qitishni, ta'lim muassasasi - qanday o'qitishni, o'zi belgilaydi" [4].

Hozirgi ta'lim jarayoniga emas, balki uning pedagogik samaradorligi va yakuniy natijasi darajasiga e'tibor qaratadi. Oliy ta'limda boshqaruvning bunday talablarga javob beradigan iqtisodiy va tashkiliy shakllarini ilmiy ishlab chiqish va amalga oshirish ma'muriy boshqaruv tamoyillarining hukmronligi davrida keng qo'llanilgan pedagogik tizimlarni boshqarish nazariyasi qoidalarini ko'plab qayta ko'rib chiqish zarurligini nazarda tutadi[11].

So'nggi yillarda boyitilgan davlat-xususiy sheriklik amaliyoti, oliy ta'limning investitsion jozibadorligini oshirishga qaramay, ularning pedagogik samaradorlikka ta'sirini ilmiy tahlil qilish yetarli darajada jadal amalga oshirilmayotganligini kuzatish mumkin. O'zbekiston ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga kiritishda uning davlat-jamoat va davlat-xususiy sheriklik tizimining asosiy tamoyillariga yetarli e'tibor bermasdan kelinganligi va pedagogik samaradorlik va iqtisodiy rag'bat o'rtasidagi munosabatlarni to'liq o'rganilmaganligi, o'rganilayotgan muammoning ilmiy murakkabligi va yuqori ijtimoiy-pedagogik yo'naltirilganligi, ushbu masalalar bo'yicha mavjud nashrlarning yetishmasligi va (munozarali) tabiati: oliy ta'limni iqtisodiy rag'batlantirishning pedagogik samaradorligi mavzusini tanlashni oldindan belgilab berdi[12].

Xulosa va takliflar. Fikrimizcha, Oliy ta'lim muassasalarining pedagogik samaradorligini iqtisodiy rag'batlantirish va yakuniy natijalar asosida pedagogik ishlarni baholash usullari asosida takomillashtirish, jumladan, malakali ishchi (mutaxassis) larni tayyorlash sifatini baholash, ularni ish joyida ish bilan ta'minlash va moslashtirish uchun model yaratiladi. Oliy ta'limni rivojlantirishning hududiy dasturi ishlab chiqiladi, unda oliy ta'limning pedagogik samaradorligini iqtisodiy rag'batlantirishning yangi usullari taqdim etiladi. Oliy ta'limda tayyorlangan mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish va joylashtirish mexanizmi ishlab chiqiladi va sinovdan o'tkaziladi.

Grant moliyalashtirish modelini oliy ta'lim tizimining pedagogik samaradorligini iqtisodiy rag'batlantirishning muhim vositasi sifatida ham taklif etish mumkinligi asoslanadi. Grant moliyalashtirish ta'lim xizmatlari shahar bozorida raqobat muhitini yaratadi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida madaniyatli raqobat munosabatlarni rivojlantiradi va rag'batlantirishi ilmiy asoslanadi.

Maqola natijalaridan oliy ta'lim tizimida, pedagog tayyorlashning xizmatlar sohasida, bakalavr, magistrlar, doktorantlar tayyorlashda pedagogik samaradorligini

o'shinishda foydalanish mumkinligi bilan muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiyotni chuqurlashtirish yo'lida. T. «O'zbekiston» 1995 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son, "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil avgustdagi PF-5505-son farmonlarida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF4947sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 6 noyabrda PQ-4884 sonli Qarori
5. Toshboyev A. "Aholi turmush farovonligini oshirishda ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish yo'llari". Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. TerDU – 2014 y. 78 b. B.:18.
6. Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. –T.: SHarq, 2003; Raximova D. Davlat tomonidan kuchli himoya tadbirlarining qo'llanishi.//O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2000. №3.
7. Jamoliddinova O., Aminov F. Zamonaviy bilim va yuksak intellektual salohiyatga ega yoshlarbuyuk kelajagimiz kafolati // "Ma'rifat", 2016 yil 26 noyabr.
8. Ro'ziyev.Z. Harakatlar strategiyasi: Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Manba: "postda.uz" rasmiy veb-sayti.
9. Maxmudov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida moliyalashtirish tizimini boshkarishning xalkaro amaliyoti . – «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, N/, yanvar – fevral, 2015 yil. www.iqtisodiyot.uz.
10. Raxmonov D.A., Pulatov A.S. , Viyetsma ye. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish.
11. Saidov M.X, Narsiyev I.I. va boshqalar Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug'ati.T: "O'zbekiston Milliy kutubxonasi", 2007. B. 342.
12. Berdiyulov.Q.G'. "Zamonaviy jamiyatda xizmatlar sohasining o'rni qanday?". Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining "stat.uz" rasmiy veb-sayti.
13. www.wikipedia.org
14. www.iso.org
15. www.lex.uz
16. www.dtm.uz



UDK: 37.018.46

Shahnoza POZILOVA,

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti doktoranti (DSc)

E-mail: informatikpazilova@gmail.com

P.f.d., professor F.Zakirova taqrizi asosida

KASBIY KREATIVLIK TURLARI VA ULARNING ILMIIY-NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqola professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarini kasbiy kreativligini belgilashning ilmiy-metodik jihatdan tahliliga bag'ishlanadi. Maqolada kreativlik, kasbiy va shaxsiy kreativlik tushunchalarini pedagogik, psixologik va falsafiy jihatdan yoritish bilan bir qatorda malaka oshirish kurslarida o'qituvchilarning kasbiy kreativlik faoliyatini belgilashga qaratilgan axboriy –infografik kreativlik, pedagogik – metodik kreativlik va raqamli –professional kreativlik turlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim, malaka oshirish kurslari, kreativlik, kasbiy va shaxsiy kreativlik.

ВИДЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО КРЕАТИВНОСТИ И ИХ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Данная статья посвящена научно-методическому анализу определения профессионального креатива слушателей курсов переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров профессиональных образовательных учреждений. В статье предлагаются виды информационно-инфографического креатива, педагогико-методического креатива и профессионально-цифрового креатива, направленные на определение профессиональной креативной деятельности педагогов на курсах повышения квалификации, а также на педагогическое, психологическое и философское освещение понятий креативности, профессиональной и личностной креативности.

Ключевые слова: Профессиональное образование, курсы повышения квалификации, творчество, креативность, профессиональное и личное креативность.

TYPES OF PROFESSIONAL CREATIVITY AND THEIR SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS

Annotation

This article is devoted to the scientific-methodological analysis of the professional creativity of the trainees of retraining of pedagogues of professional educational institutions and their professional development courses. In addition to pedagogical, psychological and philosophical clarification of the concepts of creativity, professional and personal creativity, the article offers information-infographic creativity, pedagogical-methodical creativity and digital-professional creativity aimed at determining the professional creativity of teachers in professional development courses.

Key words: Professional education, training courses, creativity, professional and personal creativity.

Kirish. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar albatta ta'lim taraqqiyoti uchun xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda bilimli, malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ta'lim sohasida qanday o'zgarishlar va yangiliklar qilinmasin, bularning barchasi ta'lim taraqqiyoti uchun xizmat qiladi va qilmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy o'qituvchining zamonaviy darsi, pedagogik madaniyati, bolaga do'stona munosabatda bo'lish, pedagogik texnologiya asosida dars o'tish – davr talabidir.

Bu talablarning barchasi o'qituvchidan yuksak ma'suliyatni talab etadi. Ma'suliyatni anglagan o'qituvchi

doimiy ravishda o'z ustida ishlaydi, yangiliklardan boxabar bo'ladi va ularni amalda tadbiiq etadi, axborot kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanadi.

Tadqiqotimiz davomida o'qituvchilarning kreativlik turlarini o'rganish natijasida kasbiy kreativlikning turlarini belgiladik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 466-sonli Qaroriga muvofiq, professional ta'limning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini kasbiy kreativligi turlari bo'yicha tavsifiy xususiyatlarini keltiramiz. (1-jadval).

1-jadval.

Professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini shaxsiy kreativligi turlari bo'yicha tavsifiy xususiyatlari

Kreativlik turlari	Mazmun -mohiyati
Emotsional kreativlik [1], [2]	Pedagogning emotsional kreativligi – pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladigan emotsional va hissiy barqarorlikni ta'minlovchi qobiliyatlaridir. Bunda o'qituvchining emotsional stressli holatlarda noodatiy yechim topish va kasbiy faoliyatning psixologik noqulay sharoitlariga samarali qarshi harakat qilish qobiliyatidir. Shu bilan bir qatorda auditoriyada ijodiy barqaror muhitni yaratadi va ta'lim oluvchilarni emotsional holatini nazorat qiladi hamda baholaydi.
Kognitiv kreativlik	Pedagogik mahoratini kreativ yondashuvlar asosida rivojlantiradi; Kasbiy-psixologik hamda shaxsiy xususiyatlari asosida mashg'ulotlarni olib boradi.
Intellektual kreativlik [3]	O'quvchida intellektual qobiliyatlarini rivoj-lantirish asosida jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashuvchanlik ko'nikma-larini shakllantiradi.
Ijtimoiy -kollaborativ kreativlik	Ijtimoiy muhitga moslasha oladi, ta'limning guruhli shakllarini kollaboratsiyadan foydalanadi, uzluksiz ravishda motivatsion-baholovchi komponentlarni ta'lim oluvchilarning qobiliyatlariga qarab qo'llaydi. Mutaxassisligiga nisbatan kasbiy kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlik ko'nik-malarini rivojlantiradi. Mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir kreativ qobiliyatli kadrlar tayyorlaydi

O'zbekiston Respublikasida professional ta'lim – iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini,

zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj, ish

beruvchilarning takliflari hamda "Hayot davomida ta'lim olish" prinsiplaridan kelib chiqib [4] professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini kasbiy kompetensiyalariga kasbiy kreativlik va uni tashkil etuvchi komponentalar sifatida infografik kreativlik, metodik kreativlik va AKT kreativlikni kiritganmiz.

Professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini kasbiy kreativligini rivojlantirishda yuqoridagi komponentalarning ilmiy-metodik jihatdan tahlilini ko'rib chiqamiz.

Raqamli jamiyat muhitida axborotlarni vizuallashtirish bilan birga ijtimoiy media tarmoqlarda, turli reklama va marketingda jadalik bilan qo'llanilib kelinmoqda.

V.Laptevning ta'rif berishicha, infografika – bu sonli ma'lumotlardan tashkil topgan kommunikativ dizayn muhitidir [5].

Ta'limda ko'rgazmalilik va vizuallashtirishni qo'llash muammolari bilan pedagogika asoschilaridan Ya.A.Komenskiy, Dj.Dyui, K.D.Ushinskiy, I.Ya.Lerner, M.I.Maxmudovlar shug'ullanganlar. Ma'lumotlarni vizuallashtirish va raqamlashtirish bo'yicha D.Jelyazi [6], V.Laptev, D.Lankov [7] va T.Taftilar [7] o'z tadqiqotlarini olib borganlar.

Infografika yaratish tamoyillariga, mavzuning dolzarbligi va ahamiyatligi; soddaligi va qisqaligi; kreativligi; obrazlilik; axborotning aniqligi va tashkil etilishi; maqbul dizayni kabilarni kiritishimiz mumkin [8].

Axboriy - infografik kreativlik – bu professional ta'lim o'qituvchisining o'quv materiallarini umumiy kontekst asosida vizuallashtirish va tartiblangan kontekstni infografika elementlari bilan ishlab chiqish qobiliyatidir.

Metodika – bu maqsad va mazmuni, tasniflarni doimiy ravishda izlash, bunga asosan mashg'ulotni oldindan rejalashtirish va ta'lim oluvchilarga dars davomida o'zlarini

anglash imkoniyatini berishdir. Bu haqli ravishda pedagogik mahorat, san'at deb ataladi, chunki bu o'qituvchining self-complited (individual-takomillashgan) qobiliyatlaridan dalolat beradi. Zamonaviy ta'limda metodikadan foydalanish ta'limning ajralmas qismi sanaladi.

Pedagogik - metodik kreativlik - o'quv jarayonini tashkillashtirishda o'qituvchining kreativ ta'lim texnologiyalardan foydalanish asosida ijodiy muhitni tashkil etish qobiliyati deb ta'riflaymiz.

"Professional ta'lim o'qituvchisining AKT kompetentligi – bu ma'lumot bilan maqsadli ishlash ko'nikmasi va o'quvchiga yangi bilimlarni, ma'lumotlarni yetkazishda axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni qo'llay olish layoqatidir" deb ta'riflaydi D.Li [10].

Zakirova M. o'zining tadqiqot ishida "Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining kreativ axborot-kommunikatsion kompetentligi – bu direktorlarning axborot va menejerlik qobiliyatlarining integrativ uyg'unligi asosida axborot-boshqaruv muhitini zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida shakllantirish va innovatsion axborot-boshqaruv muhitiga olib kelish uchun zarur bo'lgan axborot va menejerlik bilim, ko'nikma, tajriba va motivatsiyalaridir" deb mualliflik ta'rifini keltiradi [11].

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqqan holda, professional ta'lim o'qituvchisining raqamli-professional kreativligi – bu pedagogik faoliyatda vujudga keladigan muammolarni AKT vositalari yordamida aniqlay olish, bashoratlash va ularga original yechim topish qobiliyatidir.

L.A.Kitaev [12] taklif etgan kreativlikning kompilyativ, loyihaviy va insayt-kreativ darajalari asosida raqamlashtirilgan jamiyat muhitida professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kreativligi xususiyatlarini keltiramiz. (2-jadval)

2-jadval

Raqamlashtirilgan jamiyat muhitida professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kreativ faoliyati xususiyatlari

Raqamlashtirilgan jamiyat muhitida professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kreativligi				
Daraja/ tur		Axboriy - infografik kreativlik	Pedagogik - metodik kreativlik	Raqamli – professional kreativlik
Kompilyativ	Ma'nuzi mashg'uloti	Materiallarni taqdim etishda infografik platformalar, onlay web saytlardan foydalanadi.	Mashg'ulotlarni kreativ yondashuvlar asosida tashkillashtiradi va kreativ ta'lim texnologiyalaridan ta'lim turi va shakliga muvofiq samarali foydalanadi.	Mashg'ulotlarni AKT vositalaridan foydalangan holda olib boradi.
Yahaviy	Amaliy mashg'uloti	Mashg'ulotlarni talab etilgan infografik tamoyillar asosida tashkil etadi; Taqdimotlarni yaratishda infografik dasturlardan foydalanadi	Fan dasturi, sillabus, o'quv qo'llanma, darslik va metodik qo'llanmalarni kreativ pedagogikaning tamoyillarini, mezonlari asosida yaratadi.	Professional ta'lim muassasasi o'qituvchilarini amaliy mashg'ulotlarda AKT kreativligini jamoaviy ishlash, boshqaruvchilik, hamkasblar orasida vazifalarni teng taqsimlash kabi qobiliyatlari asosida rivojlantiradi;
Insayt-kreativ	Mustaqil ta'lim	Insayt [7] – bu kreativ kouching (ingliz tilidan olingan bo'lib, coaching – maqsad yo'lida yangi g'oya ishlab chiquvchisi d.m.b.) [18], ya'ni kreativ kouching asosida mustaqil ishlarni tashkil etish.	O'qituvchilarining insayt-kreativligini rivojlantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	Professional ta'lim muassasasi o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkillashtirishda kreativ kouching sifatida AKT vositalaridan foydalanish va dasturiy vositalar asosida ularni yagona sayt, elektron resurs yoki platformaga keltirish.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan tahlillarga ko'ra, professional ta'lim o'qituvchisining kasbiy kreativligi raqamlashgan muhit talablariga muvofiq pedagogik, texnologik va metodik tarafdin yetarlicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligini bildiradi. Shunday qilib, tadqiqotning dolzarbligi, uning yetarli darajada o'rganilmaganligi hamda nazariy va amaliy jihatlar dissertatsiya mavzusining maqsadi, obyekt, predmeti, gipotezasi va vazifalarini keltirib chiqardi.

Bunga ko'ra, professional ta'lim muassasasi o'qituvchilarining kasbiy kreativligini nafaqat metodologik jihatdan, balki texnologik jihatdan ham o'rganish vazifasi qo'yildi. Bunga ko'ra, professional ta'lim muassasasi o'qituvchilarini kasbiy kreativligi malaka oshirish kurslaridagi modullar kesimida rivojlantirilsa, professional ta'lim muhitiga ijobiy ta'sir etadi va hamda kreativ ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi degan fikrda to'xtalamiz.

ADABIYOTLAR

1. Shestova M.A. Emotsionalnaya kreativnost v svyazyax s emotsionnym intellektom i "psixologicheskoy razumnostyu" (na osnove aprobatsii oprosnika emotsionalnoy kreativnosti Dj. Everilla) // Vestnik Polotskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya E. Pedagogicheskie nauki. 2019. №7. URL:

- <https://cyberleninka.ru/article/n/emotsionalnaya-kreativnost-v-svyazyah-s-emotsionnym-intellektom-i-psihologicheskoy-razumnostyu-na-osnove-aprobatsii-oprosnika> (data obraшeniya: 03.05.2023).
3. Dietrich, A. Types of creativity. *Psychon Bull Rev* 26, 1–12 (2019). <https://doi.org/10.3758/s13423-018-1517-7>
 4. Drujinina Svetlana Vladimirovna Sootnoshenie intellektualnyh sposobnostey i kreativnosti v strukture intellekta // *Akmeologiya*. 2016. №1 (57). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sootnoshenie-intellektualnyh-sposobnostey-i-kreativnosti-v-strukture-intellekta> (data obraшeniya: 03.05.2023).
 5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi 466-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi Nizom
 6. V.V.Laptev. *Tvorcheskoe nasledie akademika V.V.Lapteva i sovremennost*. M.2014. Ukaz.soch.-S.7
 7. Jelyazny D. *Govori na yazyke diagramm*. – M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2012. – 320 s.
 8. Lankow J., Ritchie J., Crooks R. *Infographics: the Power of Visual Storytelling*. – New Jersey: John Wiley&Sons Inc, 2012. – 263 p.
 9. Tufte E. *Beautiful Evidence*. – Cheshire: Graphic Press, 2006. – 213 p
 10. yermolaeva J. ye., Lapuxova O. V., Gerasimova I. N. Infografika kak sposob vizualizatsii uchebnoy informatsii // *Konsept*. – 2014. – № 11 (noyabr). – ART 14302. – 0,5 p. l. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/14302.htm>. – Gos. reg. El № FS 77-49965. – ISSN 2304-120X.
 11. D.E.Li. Razvitie informatsionnoy kompetentnosti prepodavatelya professionalnogo kolledja posredstvom sozdaniya infokommunikatsionnoy sredy // "Kasb-hunar ta'limi" ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal, 2020 y 1-son 53 bet.
 12. Zakirova M.R. Development of Creative Information and Communication Competence of Directors of Educational Schools (On The Example of Training Courses) // *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*. – Germany, 2021. Vol. 8. No. 02. – P. 277-281.
 13. L.A.Kitaev-Smyk, *Faktory napryajennosti tvorcheskogo protsessa* // *Voprosy psixologii*. 2007. № 3. - s. 69–82.
 14. Kuzyakov, Y., Friedel, J. ., & Stahr, K. (2000). Review of mechanisms and quantification of priming effects. *Soil Biology and Biochemistry*, 32(11-12), 1485–1498. doi:10.1016/s0038-0717(00)00084-5
 15. N.I.Ivanova, D.I.Piskunov. Iz vystupleniy na seminare «Vozmojno li ispolzovanie instrumenta texnologicheskogo forsayinga v Rossii?». Elektronnyy resurs. <http://stra.teg.ru/library/global/Prognoz/foresight/11>
 16. Rismark, M., & Solvberg, A. M. (2011). Knowledge Sharing in Schools: A Key to Developing Professional Learning Communities. *World Journal of Education*, 1(2). doi:10.5430/wje.v1n2p150
 17. <https://yuz.uz/news/sinergetik-effekt>
 18. <https://bs.krok.edu.ua/ru/news-storage/kreativnost-kak-sposob-myshleniya-ushpeshnykh-insaity-s-florida-creativity-conference-xvi/>
 19. <https://insight.planerkaservice.ru/>
 20. <https://timeweb.com/ru/community/articles/что-такое-воркшоп>
 21. <https://www.bricksandbusiness.com/lp/lego-serious-play-the-method.html>



UDK: 37.013.73(575.146)

Gulchera RAVSHANOVA,
Buxoro shaxar 29-sonli maktab direktori, PhD
E-mail: gulchera_ravshanova@gmail.com

BuxMTI dotsenti, PhD J.Shodiev taqrizi asosida

INFLUENCE OF INFORMATION FOREIGN ON YOUTH EDUCATION

Annotation

In the article, information has always served as a mirror of the country's development, the main tool in the formation of people's minds, worldviews, and political level in any society. analyzed.

Key words: Human value, information attacks, education, youth education, perfection, development of the spiritual sphere, human achievement of true happiness.

ВЛИЯНИЕ ИНОСТРАННОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье информация всегда служила зеркалом развития страны, главным инструментом в формировании сознания людей, мировоззрения, политического уровня в любом обществе.

Ключевые слова: Ценность человека, информационные атаки, образование, воспитание молодежи, совершенствование, развитие духовной сферы, достижение человеком истинного счастья.

AXBOROT XURIJINING YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelganligi, agar biz axborot olish madaniyatini shakllantirsak, milliy g'oyamiz va ma'naviy merosimizga tayanib faoliyat olib borsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo'lishimiz taxlil etilgan.

Kalit so'zlar: Inson qadri, axborot xurujlari, ta'lim-tarbiya, yoshlar tarbiyasi, komillik, ma'naviy soha rivoji, inson haqiqiy baxt-saodatga erishishi.

Kirish. Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkurafiy kurash ma'naviy salohiyat yetakchi o'ringa chiqdi. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganishga imkon, an'ana va urf odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhim, taffakurning o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liq. Hammamizga malumki, biz bugun axborot globallashuv davrida yashayabmiz biz xohlaymizmi yo'qmi, yurtimizdagi turli ko'rinishdagi axborot xurujlari bo'lishi tabiiy. Ana shunday xurujlarga qarshi aholida, ayniqsa, yoshlarda immunitetni mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarimiz, istiqloq g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashda televideniya va radioning o'rni beqiyosdir. Ma'nan va jismonan yetuk yoshlarni tarbiyalash masalasi bugungi O'zbekiston uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik va qat'iylik bilan davom ettirish mazkur sohadagi asosiy mezonga aylandi. Bu borada jamiyatni doimiy harakatga keltirib turadigan kuch-milliy g'oya, milliy manfaatga xizmat qiladigan qadriyatlarni, ilg'or demokratik qoida va tushunchalarni aniqlash ravshan tasavvur etish, ularni o'rganish, borini asrab-avaylash, boyitish, rivojlantirish, xalqni, avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni ana shu bilim va ko'nikmalar bilan tarbiyalash-ma'naviy tarbiya sohasidagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Yoshlar bu jamiyatdagi ijtimoiy-demografik guruh hisoblanib, ular ayrim umumiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi: jumladan zamonaviylik va bilimlilik; yangi kasblar va yangicha turmush tarziga intiluvchanlik; ijtimoiy jihatdan harakatchanlik va boshqalar. Yoshlarda qadriyatlarni qayta baholash kattalarga nisbatan o'zgacharoq,

ya'ni ular ehtiyojlar va ideallar, axloqiy me'yorlar faol o'zlashadi. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida ta'lim turini tanlash va uni egallash, mehnat jarayoniga kirish, oilani shakllantirish, kasbiy jihatdan o'sish va xizmat bo'yicha ilgirilish kabilar asosiy muammolardan bo'lib hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bizga ma'lumki tarbiya-avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiluvchi, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta'siri ostida jismonan sog'lom, ma'nan barkamol insonni shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi. Yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi hisoblangan, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha bu – ma'naviy tarbiyadir. Ma'naviy tarbiya keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini ifodalaydi. Har qanday ma'naviy tarbiya dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligida olib borilsa, bu jarayonda shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki unda ma'naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi ham tezlashadi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyasining keskin rivojlanib ketayotganligi, internet tizimining barcha davlatlar, madaniy hududlar, barcha yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuv vositasiga aylanib borayotganligi munosabati bilan xavfsizlikning o'ziga yana bir turdagi axborot xavfsizligi paydo bo'ldi. Bu vositalar aynan mustaqil bo'lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir

siyosiy kuch alohida davlat yoki ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak. Chunki, mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo'layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berish lozim. Agar biz axborot olish madaniyatini shakllantirsak, milliy g'oyamiz va ma'naviy merosimizga tayanib faoliyat olib borsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo'lamiz. Har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Bu holat, ayniqsa, shiddatli suratlar bilan o'zgarib borayotgan hayotimizning birorta sohasini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyatda mavjud bo'lgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni ta'minlash organlari, davlat muassasalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istaklari, maqsad-muddaolarini amalga oshirishga imkon berish bilan bog'liq vazifalarni o'z ichiga oladi. Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir yurtdoshimizning mustaqil e'tiqod va dunyoqarashga ega bo'lishni taqozo etadi. Sog'lom immunitetga ega bo'lmagan, sog'lom e'tiqod va dunyoqarashdan mahrum bo'ladi. Unday kishilar yaxshi bilan yomonning, halol bilan xaromning farqiga bormaydi. Ular uchun xalq va vatan manfaatlariga begona. Sog'lom immunitetli odam o'zini yomon ishlardan tiyadi, nohaqlik va zulmga qarshi qalbidan norozi bo'lib, o'z nafratini bildiradi.

Binobarin, omonlikka qarshi nafrat, yaxshilikka nisbatan muhabbat va xayrixohlik sog'lom immunitetning asosiy belgilaridandir. Mafkuraviy immunitetning asosiy xususiyatlari ogohlik, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olish ko'nikmalaridir. Globallashuv jarayonlarida ishtirok etish, obektiv haqiqatdir. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida globallashuv jarayonlariga faol ishtirok etish orqali ijobiy tomonlaridan foydalanish va shu bilan birgalikda uning salbiy ta'sirlaridan himoyalashni qobig'ini yaratish kerak. Milliy istiqloq g'oyasining shakllantirilganligi mafkuraviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiladi. Prezidentimiz takidlaganidek Farzandlarimiz mustaqil fikirli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, sog'lom hayotiy pazitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi. Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy axloqiy jihatidan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz kurashmog'imiz zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Milliy-ma'naviy merosimizni yoshlar ongi va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirishda adabiyot, san'at, va OAVning faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishni jadal o'zgarayotgan davirning o'zi talab qilmoqda. Jamiyat shu darajada shakllanishi lozimki, uning a'zolari tig'iz axborotlar bozoridan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo'lgan qadriyatga aylanmog'i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta'sir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo'ravonlik va urushni targ'ib etuvchi, pornografiya, maishiy buzuqlik, shaxslar mavqeiga, obro'siga va sha'niga salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-ruhiy me'yorlari vujudga keladi. Bizning nazarimizda, axborot sohasidagi xavfsizlik-bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o'zini o'zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarning yuksak ma'naviy-ma'rifiy me'zonlar asosida shakllantirish, axborot qurolidan zamonaviy

insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Axborotdan foydalanish madaniyati hech qachon o'zidan-o'zi kelmaydi, bunday madaniyat quyidagi omillarga bog'liq:

– axborot iste'molchilari yuksak shaxsiy madaniyatga ega bo'lishlari lozim.

– OAV va boshqa manbalardan kelayotgan ma'lumotni mag'zini chaqib, uning mualliflarini maqsadlarini anglab olish kerak.

– Shaxsiy dunyoqarash va kasbiy o'sishni rivojlantiradigan ma'lumotlarni olib, keraksiz axborotlarni tez esdan chiqarish zarur va x.k.

Millatning "men"ligini taminlovchi asosiy omil uning o'ziga xosligini ifoda etiruvchi ma'naviyati, urf-odat, an'ana va qadiryatlar hisoblanadi. Shunday ekan, millatni insoniyat go'zalligining gultoji sifatida saqlab qolish, uni umumisoniy taraqqiyot jarayonlariga mos rivojlantirib borishni taqozo qiladi.

Tahlil va natijalar. "Axborot xurujlari, g'oyaviy tahdidlar va mafkuraviy tajovuzlar jamiyatimizga qanday salbiy ta'sir ko'rsatadi?", degan savolga javob berishdan oldin tahdidlarning kelib chiqish sabablariga to'xtalsak.

Ma'lumki tabiiy ofatlar asrlar davomida bashariyatga o'z kuch-qudratini ko'rsatib, insoniyatni bu tahdidlardan ogoh bo'lishga undab keladi. Bu tabiiy ofatlar natijasida o'nlab, yuzlab va minglab insonlar qurbon bo'ladi. Ammo inson qo'li bilan yuzaga kelayotgan muammolar – diniy ekstremizm, terrorizm, separatizm, g'iyohvand moddalarning noqonuniy savdosi oldida tabiiy ofatlarga qarshi kurash masalasi ikkinchi o'ringa o'tib qolmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida sovuq urush davomida turli tuzilmalar vujudga keldi. Uning nihoyasida yetakchi geosiyosiy kuchlar uchun kerak bo'lmay qolgan bunday qurolli guruhlarining homiy davlatlar nazoratidan chiqishi, jangarilik tizimi vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Afg'onistonda 1980 yillardan uya qurib olgan mutaasiblar to'dasining urchib ketishi oqibatida umumbashariy darajada tahdid tug'diruvchi kuch - xalqaro terrorizm shakllandi. XXI asr ibtidosida ham jamiyat barqarorligi, xavfsizligiga tahdidlar majmuasida mafkuraviy tahdidning tarkibiy qismiga aylangan diniy ekstremizm bosh omil va keng qo'llanilayotgan uslub sifatida o'zini nomoyon qilib kelmoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojarolar va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda".

G'oyaviy tahdid va mafkuraviy tajovuz-muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, mavjud siyosiy tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g'oyaviy-nazariy qarashlar va unga asoslangan amaliyot majmui.

Ular bunga kishilarning diniy va milliy hissiyotlardan foydalanib, hayotda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni ro'kach qilib, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalangan holda erishmoqdalar. Maqsad-inson ongi va qalbi uchun kurash!!!

Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurashning namoyon bo'lish xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi o'zgarib bormoqda.

2. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi ro'y bermoqda.

3. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar kuchaymoqda.

4. Ko'p qutbli dunyoning mafkuraviy tizimi to'la barqarorlashmagani aniq bo'lib bormoqda.

5. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat uyg'unlashmoqda.

6. O'rta Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar murakkablashmoqda.

7. Mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlarda yangi mafkuraviy tamoyillar ahamiyati tobora ortmoqda.

Har kuni dunyoda millionlab voqealar sodir bo'ladi. Ammo kishilar diqqatiga OAV muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar manfaatidan kelib chiqib e'tibor qaratgan masalalargina havola etiladi. Bu ularning hodisalarni yoritishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma'lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher "Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi", [Internet ma'lumoti] degan fikrni aytib o'tgandi. Bu gapning mag'zini chaqqan odam "Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq o'ylab ko'rsakchi? Aslida, terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan o'ldirish orqali millionlarda qo'pquv va dahshat uyg'otishga intiladilar. Demak, ularning maqadlari o'ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik, qo'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat qilib qo'yadilar". Ularning terror oqibatlarini haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qo'rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksil targ'ibotni uyushtirish zarurati tug'iladi.

Xulosa va takliflar. Jamiyatimizni, ayniqsa yosh avlodni axborot hurujlari va g'oyaviy tajovuzlardan himoya qilishda quyidagi jihatlariga jiddiy e'tibor qaratish zarur:

- bir yoqlama axborotlar va baholarga qarshi obyektiv ma'lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadrijiy yetkazib berish;

- hayotimizdagi ijobiy o'zgarishlar haqida hikoya qiluvchi chuqur tahliliy ma'lumotlarni muntazam berib borish, aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo'lishini ta'minlash;

- turli ijtimoiy toifa va guruhlarining qiziqish va intilishlari, hayotiy manfaatlarini yoritish;

- beparvolik va loqaydlikning oldini olish;

- mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, oqoh va hushyor bo'lib yashashni o'rganish;

- ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni to'g'ri baholash, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqara olish malakasini tarbiyalash;

- yurtdoshlarimizning madaniy saviyasi, bilim va dunyoqarashini oshirish;

- har bir fuqaroda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish;

- fuqarolarimiz ongida demokratik qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

- qadimiy an'analarimiz, tarixiy merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirish;

- yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash; kishilarimizda o'z kuchiga va ertangi kunga ishonch tuyg'ularini yanada kamol toptirish;

- fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirish;

- turli sohalarda erishilayotgan yutuqlarimiz haqida obyektiv axborotlarni jahon jamoatchiligiga vaqtda yetkazib berish;

- mamlakatimizdagi voqelikni undan tashqarida ham xolis va to'g'ri qabul qilinishiga erishish.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T "O'zbekiston" 2017.256-b
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T "O'zbekiston" 2017.257-b
3. Otamurodov S. Glaballashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik.- T "O'zbekiston" 2013-y 421-b
4. Mirziyoev Sh.M. "Xalq ichiga kirib borib, odamlar bilan muloqot qilish – inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omili". 2017-yil 20-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi nutqidan. www.prezident.uz
5. Ritsler Dj. Sovremennye sotsiologicheskie teorii. 5-ye izd.–SPb.: Piter, 2002. - 516 s.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri). //Axborot va axborotlashtirishga oid
7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti: asosiy omillar.-T.: BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi. –B.214-215.
8. Rustamova M. Yoshlarda tafakkur madaniyatini shakllantirishning falsafiy jihatlarini.-T.:Mehnat, 2000.



UDK :371.035(045)

Adham RAJABOV,
Qarshi Davlat universiteti o'qituvchisi, PhD

Qarshi DU professori, pedagogika fanlari doktori SH.Nurullayeva taqrizi asosida

TALABALARNI NAZARIY-METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TASHKILIY-PEDAGOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda tashkiliy-pedagogik bilimlarning ahamiyati katta bo'lib, ular bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nazariy-metodik faoliyatida mutlaqo boshqa bilim sohalarini: matematika o'qitish metodikasi, rus tili, ingliz tili, o'qish (adabiyot), tabiatshunoslik, texnologiya va boshqa predmetlarni o'qitish bilan bevosita bog'liq.

Kalit so'zlar: Jarayon, predmet, tamoyil, didaktik tamoyil, integratsiya, integrativ kurslar, integrativ tamoyillar, nazariya, integrativ yondashuv.

В РАЗВИТИИ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

Аннотация

Большое значение в развитии теоретико-методической подготовки учащихся имеют организационно-педагогические знания, которые непосредственно связаны с преподаванием в теоретико-методической деятельности будущих учителей начальных классов совершенно разных областей знаний: методики преподавания математики, русского языка, английского языка, чтения (литературы), естествознания, техники и других предметов.

Ключевые слова: Процесс, предмет, принцип, дидактический принцип, интеграция, интегративные курсы, интегративные принципы, теория, интегративный подход.

IN THE DEVELOPMENT OF THEORETICAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF STUDENTS THE IMPORTANCE OF ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE

Annotation

In the development of theoretical and methodological training of students, organizational and pedagogical knowledge is of great importance, which is directly related to the teaching of completely different fields of knowledge in the theoretical and methodological activities of teachers of the future primary class: methods of teaching mathematics, Russian, English, reading (literature), Natural Science, Technology and other subjects.

Key words: Process, subject, principle, didactic principle, integration, integrative course, integrative principle, theory, integrative approach.

Kirish. Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bugungi kunning zarurati hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilayotgan bir qator tadqiqotlarda ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuv zaruriyati qayd etilmoqda. Ta'lim jarayoniga integratsion yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra bir qator tamoyillarining uyg'unligini talab etadi. Asosiy tuzilmaga asoslangan fan hamda tegishli fanlar tushunchalari iyerarxiyasi mantiqiy-strukturaviy asoslar iyerarxiyasiga birlashtirilgan. Tuzilma esa didaktik ta'minotlar bilan konsentratsiyalangan. Chunki, o'quvchilarga ta'lim berish yaxlit jarayon bo'lib, uning ustuvor yo'nalishi g'oyaviy xususiyatidir.

Talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda tashkiliy-pedagogik bilimlarning ahamiyati katta bo'lib, ular: umumiy ta'lim ko'nikmalarini ta'lim maqsadlari va mazmuniga element sifatida kiritish; boshlang'ich maktab o'quvchilarining fanlardan egallagan bilim, ko'nikmalarini rivojlantirishga o'qituvchilarning tayyorligini ta'minlash; fanlararo tadqiqotlar tizimini ishlab chiqish; tarbiyaviy ishlardan tizimli va samarali foydalanish; baholash uchun mezon bazasini yaratish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda integratsiyaning genetik jihatlari ham tahlil qilinadi. Ayniqsa, integratsiyaning turlari, asoslari, darajalarini aniqlashga yondashuvlar ko'proq ko'zga tashlanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, integratsiya - bu elementlarning bir butunga oddiy birlashishi emas, balki uning rivojlanishi, ilgari bu elementlarga xos bo'lmagan yangi xususiyatlarning paydo bo'lishiga, shuningdek ularning faollashishiga yordam beradigan tizim, o'zaro aloqadorlikdir.

"Integratsiya ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq" ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, integratsiya — fanlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash omili sifatida ham e'tirof etiladi [5]. Bizningcha, mazkur fikrlarning bu diapazoni ko'p funksiyali hodisa bo'lib, qo'llanilish sohasiga qarab mazmunan farqlanib boradi.

Pedagogika ensiklopediyasida Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zidan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish tarzida talqin qilingan[1].

Demak, integratsion dars odatdagi darslardan: aniqligi, ixchamligi, o'quv materialining zich ko'lamli; darsning har bir bosqichida integratsiyalanayotgan o'quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi; berilayotgan o'quv materialidagi keng ko'lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

Talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish jarayonining mohiyati va mazmunini asoslovchi, zamonaviy oliy ta'limda uning samaradorligini oshirishning pedagogik usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan N.A.Muslimovning tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchini nazariy-metodik shakllantirishning nazariy-metodik asoslari, nazariy-metodik shakllantirishda pedagogik tizim va faoliyat yurituvchi muhitning o'zaro ta'sirlashuv mexanizmini yaratish kabi goyalar ilgari surilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich sinflarda mazkur bilimlardan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

1) tashkiliy-pedagogik bilimlar. Ta'lim jarayoniga o'rganish obyekti sifatida kiritish quyidagi tashkiliy metodlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarni bilim, ko'nikmalarini (xususan, ta'lim mantig'ini) shakllantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda eng maqbul o'quv materialini tanlash; belgilangan o'quv maqsadiga mos keladigan uslubiy majmualarni tahlil qilish va tanlash; ta'lim jarayonida yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun diagnostik materiallarni ishlab chiqish.

2) metodik bilimlar: boshlang'ich ta'lim bo'yicha nomenklaturani aniqlashtirish va har bir dars uchun ustuvor bo'lgan tushunchalarni aniqlay olish; bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish uchun murakkab vazifalar tizimidan foydalanish; o'quvchilarning mustaqil kognitiv faolligini faollashtiruvchi usullardan foydalanish; o'quvchilarning harakatga yo'naltirish asosini shakllantirish maqsadida didaktik materiallarni ishlab chiqish; o'quvchilarning subyektivligini rivojlantirish maqsadida individual tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish; maktab o'quvchilarini tarbiyaviy ishlarning guruh shakllariga kiritish.

Buning uchun talabalar boshlang'ich sinf predmetlarining metodik muammosini aniq shakllantirish va hal qilish (savollarga javob: mazkur predmet o'quvchilarda qanday bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantiradi? Buning uchun qaysi o'quv material eng qulay? Qanday uslubiy vositalardan foydalanish kerak?); boshlang'ich maktab fanlari yuzasidan topshiriqlarni tanlash. Har bir topshiriq uchun savollar tizimini ishlab chiqish, vaziyatni yaratish, o'quvchilarning faol harakat uslublaridan xabardor bo'lish.

3) Psixologik bilimlar: o'quvchilarni ta'lim faoliyati va hissiy-emotsional jihatlarini birlashtirish; boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv-o'rganish jarayoniga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish; o'quv faoliyati hamda o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini o'zaro aloqadorlikda olib borishga stimull berish; samarali do'stona munosabatni shakllantirish uchun psixologik muhitni yaratish.

Tahlil va natijalar. Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – o'zaro bir-birini to'ldiruvchi materiallarning (mavzular) ma'lum iyerarxiyada joylashganligidir. Ta'lim jarayoniga integrativ yondashuv mohiyatini fanning o'ziga xos mantiqi va mazmuni belgilab beradi. Shuningdek, ma'lum ma'noda, fanning mantiqi va mazmuni didaktik jarayonining dasturi hisoblanadi. Bu esa u nimaga va qaysi didaktik yaxlitlikka imkon beruvchi real jarayonlarga mos keladi [6]. Integratsion yondashuvning asosi uning mantiqi va mazmunini belgilaydi.

Mazkur bilimlar talabalarda quyidagi holatlarda asos bo'lib xizmat qiladi: dars jarayonida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish tizimini rejalashtirish; o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini va ularning yangi materialni idrok etishga tayyorlik darajasiga va darsda ishtirok etishga e'tibor qaratish (har bir bola uchun javob berish qobiliyatiga muvofiq keng yoki tor savollarni tanlash); o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga sharoit yaratish. O'qitishning mavjud metodologiyasida maktab o'quvchilariga

ko'pincha erkinlik cheklab qo'yiladi. Ularga tashqi tomondan faoliyat maqsadi yuklanadi, ularning harakatlari o'qituvchi tomonidan qat'iy tartibga solinadi, o'qituvchi maqsadni belgilash vazifasini to'liq o'z zimmasiga oladi. Bu o'quvchilarning tashabbuskorligini cheklaydi.

N.V.Amosovning fikriga ko'ra pedagogik o'quv muassasalari "ko'p fanlilik" asosida faoliyat olib borishi ta'kidlanadi. Bu sharoitda esa talabalar bir vaqtning o'zida ko'pincha bir-biri bilan asosli bog'lanmagan, bir-birini takrorlovchi bir qator o'quv fanlarini o'rganishlariga to'g'ri keladi [9]. Ko'p fanlilik bilan bir qatorda o'qituvchi tayyorlashning "elementlar bo'yicha" tendensiyasi rivojlanib, u alohida elementlar, qismlardan tarkib topib, ularning har biri tegishli fanga oid nazariy ma'lumotlar hamda u belgilab beruvchi nazariy bilim, ko'nikma va malakalar asosida vujudga keladi [9].

Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan darslar muammosining vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin: fanlararo bog'liklikni amalga oshirishda nazariy-metodik bilimlarning aloqadorligidan amalda qo'llash; didaktik jarayonni qulaylashtirish; o'quvchilarning qobiliyatiga asoslanishi tufayli ularning kognitiv faoliyatini rivojlantirish;

Bunda "pedagogikadagi integratsion jarayonlarni tahlil qilishning dastlabki qoidalari" ham mavjud [7].

G.I.Ibragimov zamonaviy voqelikda sodir bo'layotgan asosiy tendensiyalarni batafsil tahlil qiladi: dars shakllarini tanlashda integratsiya tamoyillarini mustahkamlash; ma'lum bir fanni o'qitishni tashkil etishning murakkab shakllardan foydalanish ("gorizontal" bo'yab integratsiya), ta'lim jarayonining tarkibiy bo'linmalari - darsdan tashqari ta'limni tashkil etish tizimining asoslanishi – "ochiq eshiklar kuni", "fan o'quv haftaligi" ("vertikal" integratsiya) kerakligini o'rganib chiqadi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish asosida quyidagi ko'nikmalar yotishi aniqlandi: talabalarning fanlararo bog'liklikni his etish, anglash, amalda qo'llashga doir ko'nikmalari; ta'limning ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish funksiyasidan oqilona foydalanishi; zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilishi, kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirilgan eng qulay didaktik ta'minotlarni bilishi va tanlay olishi; bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish psixologik qonuniyatlarga bog'liq ekanligini inobatga olishi; o'quvchilar bilim olishidagi qiyinchiliklarni o'z vaqtida payqash va ularning ehtimoliy sabablarini aniqlash, tegishli tuzatishlar kiritish ko'nikmasi; boshlang'ich sinf o'quvchilarning fanlarni o'qitish bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish metodikasini o'zlashtirishi; o'zini rivojlantirishga, ijodkorlikka va nazariy-metodik o'sishga intilishi.

Shunday ekan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kompleks tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishda quyidagi ko'nikmalarga e'tibor qaratamiz: talabada faoliyat subyektlariga taalluqli ko'nikmalar; boshqa odamlar va hamkasblar bilan o'zaro munosabatlarini belgilab beruvchi ijtimoiy ko'nikmalar; ta'lim olish, o'z bilimlarini mustaqil mustahkamlash, o'zini rivojlantirishga intilish layoqati; zamonaviy jamiyatda zaruriy axborotlar olish va qayta ishlash bilan bog'liq axborot bilan ishlash ko'nikmalari; tarbiya, taraqqiyot, mustaqil ta'lim sohalarida kasb vazifalarini bajarishda qo'l keluvchi madaniyat omillariga tayangan holda, faoliyat yuritishiga imkon beruvchi umummadaniy ko'nikmalar; boshlang'ich sinflarga fanlarni o'qitish jarayonini samarali yo'lga qo'yishga imkon beruvchi ilm-fanga oid zamonaviy bilimlarni o'rganish ko'nikmalari. Fikrimizcha, mazkur ko'nikmalar integrativ ko'nikmaning asosini tashkil qiladi. U esa o'z navbatida talabalarni boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishga tayyorligini ta'minlaydi. shuningdek, yaxlitlik xususiyatlari va namoyon bo'lishining

o'ziga xosligini aks ettiradi. Talabalarni faoliyatga kompleks tayyorgarlashning maqsadi ularning ilmiy-uslubiy faoliyatining o'ziga xosligini va o'quv jarayoni tuzilishining obyektiv xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Xulosa va takliflar. Talabalarni nazariy-metodik bilimlari boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini faollashtirish asosida fanlarni aloqadorlikda o'qitishga, o'quv jarayoni hamda tarbiyaviy muammolarni bartaraf etishga integrativ yondashuvni ta'minlashga qaratishi, boshlang'ich sinf o'quvchisining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish orqali borliqning har tomonlama bir-biri bilan aloqadorligini tushunishi uning tafakkuri rivojlanishining asosidir. Ta'lim jarayonida bolaga integrativ bilimlar berilishi turli fanlardagi asosiy tushunchalar, hodisalar mohiyatini anglashiga imkon

berib qolmay, ta'limning yaxlit tabiatini anglashga ham o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda o'qitish jarayonida ushbu nazariy-metodik bilimlarini amalga oshirish uchun faqatgina nazariy bilimlarning muayyan hajminigina emas, balki uning ilg'or sohalari, asosiy kasblar, o'qitish texnologiyasini rivojlantirish tendensiyalari, iqtisod va mehnatni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi bilan mos ravishda tashkil etish asoslari haqidagi bilimlarni ham taqdim etish zarurdir. O'quvchilarga turli kasblar haqidagi ma'lumotlarni birgina fan o'qituvchisi yetkazib bera olmaydi. Bu muammoni hal etishda barcha o'quv fanlarining o'qituvchilari birgalikda fanlararo aloqadorlikni ta'minlagan holdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
2. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. - T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005. [http:// library.ziyounet.uz/ru/book/33810](http://library.ziyounet.uz/ru/book/33810).
3. Muslimov N. Kasb ta'limi o'qituvchilarini nazariy-metodik shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.fan.dokt. ... darajasini olish uchun dissertatsiya.- Toshkent, 2007.- 337 bet.
4. Ибрагимов Г. И. Формы организации обучения в педагогике и школе: учебное пособие / Г. И. Ибрагимов. Самара: Изд-во Института сферы соц. отношений Рос. акад. образования, 1994. 227 с.
5. 67 Шеменов Г. И. Некоторые проблемы возникновения и развития технических наук / Г. И. Шеменов // Философские вопросы технического знания: сборник статей / ред. Н. Т. Абрамова [и др.]. Моск- ва: Наука, 1984. С. 58-67
6. Urakov Sh.R. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish: ped. bo'y. fal. dok. (Phd) diss... -Toshkent, 2018. 142 b.
7. Гамидов А. Педагогические основы формирования культуры межнационального общения у студентов вузов. Сборник трудов конференции. 2019. -181 с
8. Берулава М. Н. Интеграция содержания образования / М. Н. Берулава. Москва: Педагогика, 1993. 172 с.]



UDK:37.015.3(575.1)

Zilola RO'ZIYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti magistratura bo'limi uslubchisi

E-mail: zilolarf847@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsent v/b N.Askarova taqrizi asosida

TA'LIM PSIXOLOGIYASI O'RGANILISHI VA MUAMMOLARI

Annotsiya

Mazkur maqolada ta'lim psixologiyasi o'rganilishi va muammolari, Ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslari haqidagi, psixologiyasi va xususiy metodlarni psixologik jihatidan asoslash, tarix davomida ta'lim psixologiyasi turli xil hodisalar va jarayonlarning ko'pligiga e'tiborni qaratilganligi, yangi bilimlarni egallashda har bir kishining individual farqlari ta'sir qilishi mumkinligi, konstruktivist oqimlar, ilmiy intizom sifatida empirik tadqiqotlarga asoslanganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Konstruktivistik, psixologiya, eksperimental ishlar, shaxsiyat, motivatsiya, o'qitish modeli, tadqiqotchilar, empirik tadqiqotlar.

STUDY AND PROBLEMS OF EDUCATIONAL PSYCHOLOGY

Annotation

In this article, the study and problems of educational psychology, the psychological foundations of education and upbringing, the psychological justification of psychology and private methods, the fact that educational psychology throughout history has focused on a large number of different phenomena and processes, new knowledge Information is provided that individual differences of each person can affect the acquisition, constructivist currents, based on empirical research as a scientific discipline.

Key words: Constructivist, psychology, experimental studies, personality, motivation, teaching model, researchers, empirical studies.

ИЗУЧЕНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье изучаются и проблемы педагогической психологии, психологические основы обучения и воспитания, психологическое обоснование психологии и частных методов, тот факт, что педагогическая психология на протяжении всей истории сосредоточивала внимание на большом количестве различных явлений и процессов, новых знаний. Приводится информация о том, что индивидуальные различия каждого человека могут повлиять на приобретение конструктивистских течений, основанных на эмпирических исследованиях как научной дисциплине.

Ключевые слова: Конструктивизм, психология, экспериментальные исследования, личность, мотивация, модель обучения, исследователи, эмпирические исследования.

Kirish. Hozirgi vaqtda psixologlar, pedagoglar hamda metodistlar bilan birgalikda ta'lim ishlari va o'quvchilarga tarbiya berishning saviyasini ko'tarishga yordam berishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga e'tibor bermoqlari kerak.

Ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslari haqidagi masala shunday muammolar jumlasidandir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati o'quv materialining mazmuniga, ta'lim-tarbiya metodlariga bog'liq emas. Bu muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'quvchining qanday o'qiyotganligini bilishga, ya'ni o'quvchining yosh xususiyatlariga, dastlabki aqliy taraqqiyoti va faolligiga muvofiq bilim va malakalar o'zlashtirish jarayonining psixologik asoslarini bilishga ham bog'liqdir. O'quv materialini mazmunini tanlash, o'quv dasturlari va rejaları, darslik va o'quv qo'llanmalari tuzish, shuningdek, maktab ta'limining har xil bosqichlarida turli o'quv predmetlari bo'yicha o'qitish metodlari tizimini tashkil qilish va tanlash ham ko'p jihatdan ta'limning psixologik asoslarini bilishga va hisobga olishga bog'liq.

Hozirgi vaqtda ta'lim psixologiyasi va xususiy metodlarni psixologik jihatidan asoslash bo'yicha bizda ko'p eksperimental ishlar o'tkazilmoqda. Biroq bu ishlar hozircha maktabning o'quv materialini mazmunini belgilash, ayniqsa, yangi, yanada samarali o'qitish metodlarini qidirish bilan bog'liq bo'lgan, tez o'sib kelayotgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Shuning uchun ham psixologiyaning hozirgi

vaqtidagi eng muhim vazifasi ta'lim psixologiyasi masalalarini yanada chuqur ishlab chiqishdan iboratdir.

Tarix davomida ta'lim psixologiyasi turli xil hodisalar va jarayonlarning ko'pligiga e'tiborni qaratgan. Bundan tashqari, har bir muallif o'zini eng qiziqirgan yoki u eng muhim deb hisoblagan mavzular ustida ishlashni tanlagan, shuning uchun o'rganilgan sohalarning juda keng doirasi mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim psixologiyasi ser Frensis Galtonning empirik ishlaridan va Stenli Xoll nazariyalardan kelib chiqqan bo'lib, u kitob yozgan. Bolalar ongining mazmuni(1883). Biroq, ushbu intizomni zamonaviy shaklda yaratilishiga eng katta ta'sir ko'rsatgan shaxs Edvard Torndayk bo'lib, u bolalarning aql-zakovati va o'rganish qobiliyatini sinab ko'rish uchun turli xil o'lchov usullarini ishlab chiqdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ta'lim psixologiyasini rasmiylashtirgan va uni ushbu fanning asosiy tarmoqlaridan biriga aylantirgan turli xil mutafakkirlar paydo bo'ldi. Eng muhimi Uilyam Jeyms, Alfred Binet va Edvard Torndayk edi; ammo Jan Piaget yoki Jon Devi kabi boshqa buyuk siymolar ham paydo bo'ldi.

Masalan, Uilyam Jeyms Qo'shma Shtatlardagi barcha psixologiyalarning asoschisi hisoblanadi; va uning tadqiqotlari va nashrlarining bir qismi o'z mamlakatidagi ta'lim jarayonini yaxshilashga qaratilgan edi. Ushbu mutafakkir uchun

o'qituvchilar o'quvchilarni jamiyatga yaxshiroq moslashishlari uchun tayyorlashlari kerak edi.

Alfred Binet esa eksperimental usulni ta'limga tatbiq etishga harakat qilgan birinchi odamlardan biri edi. Shunday qilib, u o'tkazilishi mumkin bo'lgan ikki turdagi eksperimentlarni tasvirlab berdi: laboratoriyada va sinfda bo'lganlar. Binet shuningdek, "normal" bolalar va rivojlanishida muammo bo'lgan bolalar o'rtasidagi farqlarni o'rganish bilan shug'ullangan.

Thorndike Alfred Binetning g'oyalarini qabul qildi va ta'limdagi ilmiy harakatni qo'llab-quvvatlashni davom ettirdi. Ushbu muallif o'qitish amaliyoti o'lchovlar va empirik dalillarga asoslangan bo'lishi kerak deb hisoblagan. Bundan tashqari, u o'quvchilar shaxsiy va kuchli tomonlarga asoslangan ta'lim yondashuvini qo'llash orqali ko'plab individual farqlarni yengib o'tishlari mumkinligiga ishongan.

Va nihoyat, Jan Piaget kabi mualliflar o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi va uni ta'limga tadbiq etish jarayonini o'rgandilar. Bu har xil yoshdagi o'quvchilarning aqliy kamolot darajasiga moslashtirilgan, ta'limning har bir bosqichida eng yaxshi natijalarga erishish mumkin bo'lgan o'quv dasturlarini yaratishga imkon berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim psixologiyasi ta'limning aniq mohiyatini aniqlashga katta kuch sarf qildi. Shu ma'noda, uning tarixi davomida ko'plab turli xil nazariyalar paydo bo'ldi, ular ko'pincha bir-biri bilan ziddiyatga tushishdi.

Masalan, ba'zi ta'lim psixologlari bolalar dunyoga "bo'sh aql" bilan keladi, deb o'ylashadi, chunki ular rivojlanayotgan barcha bilimlari ularning tug'ma xususiyatlari bilan emas, balki ularning atrof-muhitiga bog'liqdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'rganish atrof-muhitdan ma'lumot, e'tiqod va bilimlarni singdirish orqali yuzaga keladi.

Boshqa tomondan, qurilishchi kabi nazariyalar buning aksini himoya qiladi: o'rganish faqat bolalar taqdim etgan avvalgi bilimlar asosida amalga oshishi mumkin, bu ko'p jihatdan ularning tug'ma va genetik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Har bir daqiqada hukmron bo'lgan nazariyaga qarab, etarli o'qitish jarayonini amalga oshirish uchun qilinadigan harakatlar sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Ta'lim psixologiyasidagi eng muhim masalalardan biri bu yangi bilimlarni egallashda har bir kishining individual farqlari ta'sir qilishi mumkin. Psixologiyaning ushbu sohasi paydo bo'lganidan beri ko'pchilik tadqiqotchilar o'rganish uchun qaysi shaxsiy omillarni eng muhimligini topishga harakat qilishdi.

Shu ma'noda, bir-birini to'ldiradigan ko'plab turli xil ta'lim sohalar mavjud. Masalan, ba'zi tadqiqotchilar asosan aql-idrokka, boshqalari esa shaxsiyat, motivatsiya yoki o'quv uslublariga e'tibor berishgan.

Qanday bo'lmasin, o'quv jarayoni natijalarini aniqlashning eng muhim omillari qaysi ekanligi aniq ma'lum emas; ammo bu borada individual tafovutlar og'irligi aniq. Shu sababli, so'nggi paytlarda har bir talabaga moslashtirilgan shaxsiy o'qitish sharoitlarini yaratish uchun ko'proq izlanmoqda.

Ta'lim psixologiyasi doirasida ushbu fan tarixidagi eng muhim bahslardan yana biri talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi yoki o'qituvchi

bajarishi lozim bo'lgan rol bo'ldi. Shu ma'noda qarama-qarshi bo'lgan va umuman boshqacha ta'lim strategiyalariga olib keladigan turli xil qarashlar mavjud.

Masalan, psixologiyaning yana bir necha an'anaviy oqimlaridan o'qituvchining yagona vazifasi - u o'zida mavjud bo'lgan bilimlarni shogirdlariga yetkazish, ular uni passiv ravishda qabul qilishi va shunchaki takrorlash orqali ichkillashtirishi kerak, deb hisoblashadi. Ushbu model aniq an'anaviy ta'limda qo'llaniladi.

Boshqa tomondan, konstruktivist kabi ba'zi oqimlar buning aksini himoya qilmoqdalar: talabalar harakat qilishlari va o'z bilimlari doirasida faol subyektlarga aylanishlari mumkin bo'lganda ko'proq narsani o'rganadilar. Shunday qilib, o'qituvchilar o'quvchilarga tajriba o'tkazishlari va o'zlariga javob topishlari uchun faqat qo'llanma sifatida harakat qilishlari kerak edi.

Tahlil va natijalar. Konstruktivistik nuqtayi nazar yaqinda paydo bo'lganlardan biridir. Uning himoyachilarining fikriga ko'ra, talabalar dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lib, ular uchun mazmunli muammolarni hal qilishda o'z bilimlarini faol ravishda quradilar.

Konstruktivistik nuqtayi nazar, har bir talaba uchun noyob o'quv tizimini yaratish juda qiyin, chunki ularning har birining ehtiyojlari butunlay boshqacha bo'lar edi.

Shuning uchun, uning o'qitish modeli o'quvchilarga muammolarni hal qilish va atrof-muhitni o'rganish uchun imkon qadar ko'proq erkinlik berishdan iborat bo'lib, o'qituvchi qo'llanma sifatida ishlaydi.

Xulq-atvor nazariyasi barcha xatti-harakatlar konditsionerlik jarayoni orqali erishilishini himoya qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'quvchilarning motivatsiyasi, shaxsiyati yoki aql darajasi kabi jihatlari hisobga olinmaydi, chunki ularning barchasi atrof-muhit tomonidan shakllantirilgan bo'sh varaqdan boshqa narsa emas.

Shunday qilib, bixeviorizmistlar uchun o'rganish faqat mustahkamlash, jazolash yoki klassik shartlash kabi jarayonlar orqali sodir bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya amaliyotida yana bir qancha masalalar borki, ularni hal qilishda ham psixologlar ishtirok etishlari kerak. Masalan, o'quvchilarning o'quv vaqtini, darsda o'tiladigan o'quv materialining hajmini, uy vazifasining hajmini qanday qilib unumli taqsimlash mumkinligi haqidagi masala bolalarning internat sharoitidagi hayotining ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'siri va shu sharoitda bola shaxsini shakllantirish haqidagi masala: maktab-internatlarda va kuni uzaytirilgan maktablarda o'quvchilar mustaqil mashg'ulotlarini tashkil qilish haqidagi masala. Ta'lim berish va rivojlantirish haqidagi, boshqachasiga aytganda, rivojlantiruvchi ta'lim haqidagi masalani ham juda dolzarb deb hisoblamq kerak.

Xulosa. Ta'lim psixologiyasi birlashtirilgan fan bo'lishdan uzoqdir. Uning ichida umuman qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'lgan turli xil oqimlar mavjud, shuning uchun ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan texnikalar ro'yxatini ta'riflash qiyin.

Bundan tashqari, aksariyat hollarda ta'lim psixologiyasi imtihonlar, psixologik testlar, so'rovnomalar yoki tuzilgan intervyular kabi o'lchov vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat beradi.

ADABIYOTLAR

1. "Ta'lim psixologiyasi" ingliz tilida: Britannica. Oldi: 19 iyun, 2020 yil Britannica: britannica.com.
2. "Ta'lim psixologiyasi": Juda yaxshi aql. Olingan sanasi: 2020 yil 19-iyun kuni Juda yaxshi fikr: verywellmind.com.
3. "Ta'lim psixologiyasi: ta'rifi, tushunchalari va nazariyalari": Psixologiya va aql. Qabul qilingan vaqti: 2020 yil 19-iyun, Psixologiya va aql: psicologiamente.com.
4. "Ta'lim psixologiyasining ta'rifi" ning: Ta'rifi: Qabul qilingan vaqti: 19 iyun, 2020 yil: Definition Of: definicion.de.
5. Vikipediya: "Ta'lim psixologiyasi". 2020 yil 19-iyun kuni Vikipediya dan olingan: en.wikipedia.org.



UDK:53.35.014.54

Shoxista SAMAROVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

E-mail: sirojiddin@umail.uz

QarMII dotsenti, PhD D.Ismoilov taqrizi asosida

IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS BY INCREASING THE EFFECTIVENESS OF THE TEACHER'S ACTIVITIES

Annotation

In this article, improving the educational process to increase the effectiveness of teaching activities, the educational institution in Ham consists in providing experienced, educated, dedicated teachers in their profession. The article will focus on the abilities and skills required from the teacher, which ensure effectiveness in the activities of the educator.

Key words: Qualifications, talent, competence, intelligence, culture, education, information.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ЗА СЧЕТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Аннотация

В этой статье совершенствование образовательного процесса для повышения эффективности педагогической деятельности образовательное учреждение в Хэме состоит в предоставлении опытных, образованных, самоотверженных в своей профессии педагогов. В статье пойдет речь о способностях и навыках, требуемых от учителя, которые обеспечивают эффективность в деятельности воспитателя.

Ключевые слова: Квалификация, талант, компетентность, ум, культура, образование, информация.

PEDAGOG FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Pedagog faoliyati samaradorligini oshirish ta'lim jarayonini takomillashtirish xamda ta'lim muassasasini tajribali, bilimli, o'z kasbining fidoyilari bo'lgan pedagoglar bilan ta'minlashdan iborat. Maqolada pedagog faoliyatida samaradorlikni ta'minlovchi o'qituvchidan talab qilinadigan qobiliyat va ko'nikmalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Malaka, iste'dod, layoqat, zehn, madaniyat, ta'lim, axborot.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda – zamonaviy maktab bitiruvchisining qiyofasi o'zgarimoqda va u voyaga yetishi uchun qanday sharoitlar yaratilishi kerakligini aniq tasavvur qilish zarur.

Bitiruvchilarning yuqori bilim darajasini, uni mustaqil egallash va amaliyotda qo'llash qobiliyatini ta'minlaydigan o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakllarini izlash zarur.

O'qituvchi o'z o'quvchilarini o'qitish va rivojlantirishda kompyuterlashtirish vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyor bo'lishi kerak. O'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish uchun o'qituvchining o'zi ham shunday madaniyatga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda maktab ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni katta hajmdagi axborotni tez idrok etish va qayta ishlashga tayyorlash, ularni zamonaviy asbob va texnologiyalar bilan jihozlash, axborot madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Biz shuni tushunishimiz kerakki, ta'lim sifati faqat o'qitish sifati bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda ta'lim motivatsiyasi past bo'lgan bolalar bilan ishlash muammosi juda keskin farq qiladi. Bu yerda ham yechim individual ta'lim shakllaridan to'g'ri foydalanish va kognitiv ehtiyojlari yuqori bo'lgan o'quvchilar uchun ham, o'qishda qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilar uchun ham individual ish shakllaridan foydalanishda individual ta'lim yo'nalishlarini qurishdan iborat.

Muvaffaqiyatli o'rganishning asosiy sharti - o'qituvchining zamonaviy darsni doimiy ravishda

takomillashtirish, o'quvchilarni o'qitishning yangi yondashuvlari va usullarini topish, o'rganilayotgan fanga kognitiv qiziqishni oshirish va o'quvchilarning bilim sifatini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har qanday mutaxassis o'z ishining samaradorligi haqida qayg'uradi. Bu masala, ayniqsa, pedagogik faoliyatga kelganda muammoli. O'qituvchining faoliyati natijalarini o'rganmasdan turib uning samaradorligini aniqlash mumkin emas, chunki samaradorlik qo'yilgan maqsadlar (ya'ni bashorat qilingan natija) va haqiqatda erishilgan natija (o'tmishdagi natija)ga nisbati bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning natijasi - bu maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat natijasida muayyan davr mobaynida pedagogik jarayon va jamoa ishtirokchilari bilan, shuningdek, ular o'rtasidagi munosabatlarda sodir bo'lgan o'zgarishlardir.

Biroq, har qanday pedagogik faoliyat, natijadan (qo'yilgan maqsadlarga erishish) tashqari, pirovard natijada faoliyatning maqsadi sifatida ko'rsatilmagan ba'zi boshqa ta'sirlarga (natijalarga) ega. Masalan, biz maqsadli ravishda faoliyat, muloqot, xulq-atvor va boshqalar uchun shart-sharoitlarni yaratamiz va iloji boricha qo'shimcha ta'sirlar sifatida o'qituvchiga bo'lgan munosabatda rejadani tashqari o'zgarishlar, bolalar munosabatlaridagi o'zgarishlar va hokazolarni olamiz. Yoki: biz maqsadli ravishda ijodiy muhit yaratamiz va natija sifatida biz xayrixohlik, mas'uliyat, do'stona munosabat va boshqalarning namoyon bo'lishiga erishamiz.

Tahlil va natijalar. Pedagog faoliyati samaradorligi pedagogik mahorat bilan o'lanadi. Pedagogik mahorat quyidagi kasbiy ko'nikmalar va malakalar bilan belgilanadi:

Ta'lim jarayonining mazmunini aniq pedagogik vazifalarga "uzatish" ko'nikmasi:

- shaxs va jamoani o'rganish;

- jamoa va individual o'quvchilarning rivojlanishini loyihalash;

- ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar majmuasini ajratib ko'rsatish.

Pedagogik tizimni qurish va harakatga keltirish ko'nikmasi:

- tarbiyaviy vazifalarni kompleks rejalashtirish;

- o'quv jarayonining mazmunini tanlash;

- uni tashkil etish vositalari, usullari va shakllarini optimal tanlash.

Ta'lim va tarbiyaning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o'rnatish ko'nikmasi:

- o'quvchi shaxsini faollashtirish, uning faoliyatini rag'batlantirish;

- birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish;

- maktab va atrof-muhit o'rtasidagi aloqani ta'minlash.

Pedagogik vaziyatlarni - vazifalarni qurish va hal qilish ko'nikmasi:

- vaziyatni va undagi qarama-qarshiliklarning mohiyatini tahlil qilish;

- pedagogik faoliyatning maqsadlarini belgilash va asosiy vazifasini yoritib berish;

- maqsadga erishish uchun optimal vositalarni tanlash;

- faoliyatni tashkil etish, natijalarni tuzatish, tahlil qilish.

O'quv faoliyati natijalarini qayd etish va baholash ko'nikmalari:

- o'quv jarayoni va o'qituvchi faoliyati natijalarini tahlil qilish va o'z-o'zini tahlil qilish;

- pedagogik vazifalarning yangi majmuasini belgilash.

Olingan ko'nikmalar o'quvchiga o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarni shakllantirishga imkon berishi kerak. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblanadi, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn bo'lishi ham zarur. Ana shu tabiiy zaminda kobilyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lishi va tarbiyalanishi zarur:

1. Bilish qobiliyati — fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatdir. Bunday kobilyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni to'liq biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati — o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish

qobiliyatidir. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi dardkor.

3. Kuzatuvchanlik kobilyati — o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

4. Nutq qobiliyati — nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi darsni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati — birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi.

6. Obro' ortira olish qobiliyati — o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokazolalar asosida ham qozoniladi. Bu kobilyat o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig'indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyiligi, talabchanligi va hokazolarga), shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, o'zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o'quvchilarga yetkaza olish kabilarga ham bog'liq.

7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati - bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarini tarakqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga bog'liqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati - o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar. Pedagog faoliyati samaradorligini oshirish ta'lim jarayonini takomillashtirish xamda ta'lim muassasasini tajribali, bilimli, o'z kasbining fidoyilari bo'lgan pedagoglar bilan ta'minlashdan iborat. Shuningdek, bu samaradorlik o'qituvchidan qobiliyat, malaka, iste'dod, layoqat va zehni ham talab qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Очилов М. Муаллим қалб мѣъмори: Сайланма. -Т.: Ўқитувчи, 2000.
2. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм: Педагогика назарияси. (М.Х.Тохтаходжаева ва бошқалар) - Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2007, 380 б.
3. Пирмухамедова М. Педагогик маҳорат асослари.- Т.: 2001.
4. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. назария ва амалиёт. - Т.: Молия нашриѣти, 2003.
5. Семенов И.Н. Психология рефлексии в организации творческого процесса мѣппления: Автореф. дисс. доктора психол. наук. - М., 1992, 52 с.
6. Шойимова Ш.С., Бижанова А.Б. Личность в профессиональной деятельности. Научно-теоретический журнал «Наука, образование и культура» 2017 г. № 9 (24), С 102-104.

7. Шойимова Ш.С., Файзиева М.Д. Мехнат жараёнида субъектнинг касбий шаклланиш муаммоси. Интернаука №23-4 (105), часть 4, 2019 г. С 48-49. Смолкин, А.М. Методы активного обучения: [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров] / А. М. Смолкин. – М.: Высш. шк., 1991. – с. 175.
8. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Слостенина В.А. – М.: «Совершенство», 1998.
9. Махмадиев Б.С. MathCAD тизимида ишлаш асослари. Ўқув кўлланма. – Қарши. 2012. – 144 б.
10. Тураев С.Ж., Хўжаев Л.Х., Пардаев Б.А. Matlab/Simulink муҳитида динамик системаларни моделлаштириш ва Borland Delphi7 дастурлаш тилида графигини ўрганиш.
11. Аладьев В.З., Харитонов В.Н. Программирование: Maple или Mathematica. – Таллинн , 2011. -415 с.



Mehriniso SAYDALIYEVA,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: saydaliyevamekhriniso@gmail.com
Zoir BOTIROV,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: botirovzairbek@gmail.com

TerDUning psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD) A. Qodirova taqrizi asosida

PSYCHODIAGNOSTICS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN AGGRESSIVENESS AND RELIGION IN ADOLESCENTS (IN MUSLIM AND CHRISTIAN TEENAGERS)

Annotation

In this article, religious belief is approached as a psychological phenomenon, and its connection with the state of personal aggression was studied on the basis of research. Also, its role in the development of mental health and cognitive sphere of a person was explained theoretically.

Key words: Belief, "Psychological effects", religious person, catharsis, cognitive sphere, negativism, asthenic, sthenic, pre-religious experiences.

ПСИХОДИАГНОСТИКА ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ АГРЕССИВНОСТЬЮ И РЕЛИГИОЗНОСТЬЮ У ПОДРОСТКОВ (У МУСУЛЬМАНСКИХ И ХРИСТИАНСКИХ ПОДРОСТКОВ)

Аннотация

В данной статье религиозное убеждение рассматривается как психологический феномен, и на основе исследования изучается его связь с состоянием личностной агрессии. Также теоретически объяснена его роль в развитии психического здоровья и познавательной сферы человека.

Ключевые слова: Вера, «Психологические эффекты», религиозный человек, катарсис, познавательная сфера, негативизм, астенический, стенический, до религиозных переживаний.

O'SMIRLARDA AGRESSIVLIK VA DINDORLIK O'RTASIDAGI ALOQADORLIK PSIXODIAGNOSTIKASI (MUSULMON VA XRISTIAN O'SMIRLARIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada diniy e'tiqodga psixologik fenomen sifatida yondashilib, uning shaxs agressivlik holati bilan aloqadorligi tadqiqot asosida o'rganildi. Shuningdek, uning shaxs psixik salomatligi va kognitiv sohasi rivojidadagi o'rni ham nazariy jihatdan yoritib berildi.

Kalit so'zlar: E'tiqod, "Psixologik ta'sirlar", agressiya, katarsis, kognitiv soha, negativizm, astenik, steniklik, dingacha bo'lgan munosabat.

Kirish. Inson va jamiyatning psixik salomatlik holati bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng asosiylaridan biri, inson hayotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan dindir. Bu sohada asosiy o'rinda diniy e'tiqod masalasi turadi. Diniy e'tiqodning inson ruhiy holatiga ta'sir qilish usullari va mexanizmlari, ulardan ijobiy foydalanish maqsadida faol o'rganilmoqda. Biroq, diniy e'tiqodning psixologik mohiyati haligacha to'liq ochib berilmagan. E'tiqod egasi shaxs bo'lib, iymon amali uning ichki o'zgarishlari va ularning tashqi voqelikdagi aks etishi bilan uzviy bog'liqdir. Shularni inobatga olsak, e'tiqod hodisasi haqida, uning mazmunli psixologik xususiyatlariga ega bo'lmagan fikrlarning biryoqlamaligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Diniy e'tiqod psixologiya, sotsiologiya, falsafa fanlarning o'rganilish predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologiyada e'tiqod turli tadqiqotchilar tomonidan tan olingan muhim psixologik fenomen sifatida B.S. Bratusya, V.R.Bukin va B.A. Erunova, Y.F.Borunkova, R.M. Granovskaya, A.K. Kozyreva, K.K. Platonova, T.P.Skripkina, D.M.Ugrinovich, P.N. Shikhireva, E.Fromm, K.G.Yung va boshqa psixolog olimlarning nazariyalarida ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston psixologiya fani rivojiga katta xissa qo'shgan olim E.G'.G'oziyev e'tiqodga bergan ta'riflariga e'tibor qaratadigan bo'lsak: "E'tiqod odamning shaxsiy

qarashlari, xulq-atvor tamoyillari, ilmiy dunyoqarashlariga asoslanib harakat qilishga undovchi anglashilgan ehtiyojlar majmuidir"[1]. Mazkur ta'rifda muallif e'tiqodga uchta asosiy nuqtaga alohida e'tiborimizni qaratadi. Bular ilmiy dunyoqarashlar, harakat qilish va undovchi anglashilgan ehtiyojlardir.

E'tiqod hodisasining mohiyati, uning psixologik xususiyatlari to'g'risida tadqiqotchilar o'rtasida yagona kelishuv mavjud emas. Shunga ko'ra, Y.F.Borunkov[2] e'tiqod jarayonini ong elementi sifatida tavsifladi, K.K.Platonov[3] "Tasvirlarni, xayollarni rang beruvchi va voqelik illyuziyasini yaratuvchi tuyg'ular va ular haqida bilish" deb ta'riflaydi. V.R. Bukin va B.A. Erunov[4] e'tiqodni insonning atrofidagi odamlarga va tabiatga munosabati bilan bog'liq bo'lgan asosiy qobiliyati, T.P. Skripkina[5] esa, e'tiqodni – qabul qilish akti bilan psixologik bog'liq bo'lgan ong hodisasi deb ta'riflaydi.

A.M.Dvoynin[6] e'tiqod hodisasini o'rganishga ba'zi psixologik yondashuvlarda quyidagi xatoliklarni aniqlaydi:

1. E'tiqodni mazmunini qabul qilish, tan olish mexanizmi sifatida qarash;
2. E'tiqodga mavhum tushuncha sifatida qaralib, uning psixologik jarayon sifatida "asossiz" deb qabul qilinishi;

3. E'tiqodni tarkibiy qismlar (intellektual, hissiy, irodaviy) yig'indisi sifatida ko'rib chiqishda elementarizm, uning "boshqa hodisalarda aralashib ketishi";

4. E'tiqodning maxsus voqelik sifatida mistifikatsiyalanishi.

B.S. Bratus nazariyasi e'tiqodning psixologik mohiyatini ochib berishda alohida ahamiyatga ega. U nafaqat e'tiqod va boshqa psixologik hodisalar o'rtasidagi tafovutni kuzatdi, balki ular bilan bog'liqlik mohiyatini ham belgilab berdi. Uning fikricha, e'tiqod – har qanday murakkab tarzda tashkil etilgan har qanday faoliyatni amalga oshirishning zaruriy shartidir[7]. Faoliyat haqida gapirganda, muallif uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qaror qabul qilish, motivatsiya, aqlning dalillari, iroda harakatlari yetarli emasligini ta'kidlaydi. Shaxs psixologiyasida e'tiqod fenomeni mualliflar tomonidan hissiyotlar, his-tuyg'ular, kechinmalar, munosabatlar, harakatlar va boshqa shu kabi psixik jarayonlar bilan bog'lanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida berilgan nazariyalarning ilmiy asoslarini o'rganish maqsadida islom va xristian dinlariga e'tiqod qiluvchi 14-18 yosh oralig'idagi 151 nafar o'smir yoshlarda tadqiqot olib bordik. Tadqiqot ishidan ko'zlangan maqsadga erishishda va qo'yilgan vazifalarining yechimini topishda anketa - so'rovnoma, Y.Strelyauning "Temperament tip so'rovnomasi", V.V.Stolin va S.R.Pantelevning "O'ziga bo'lgan munosabat", Bassa-Darkining Agressivlikni o'rganish so'rovnomasi, O.D.Smirnov "Diniy faollikni o'lchash" metodikasidan foydalanildi. Shuningdek, ta'dqiqotdan olingan natijalarni psixologik qayta ishlashda, gender, guruh va yosh tafavutlarini solishtirishda hamda o'zaro bog'liqlik – korrelyatsiyani o'rganishda Spss – 14 dasturi asosidagi statistik metodlar (Styudent –T, Mann – Whitney, Spermen)dan ham foydalanildi.


Tahlil va natijalar. Ma'lumki, bugungi kunda diniy e'tiqod shaxsning psixik salomatligi, bilish jarayonlari va irodaviy sifatleri rivojida muhim ahamiyatga ega ekanligi

ko'plab psixologik tadqiqotlarda o'z isbotini topmoqda. V.M.Bexterev nomidagi Sankt-Peterburg neyropsixofiziologiya ilmiy tekshirish instituti rahbari professor Valeriy Slezin insonga oilaviy munosabatlarga ta'sir qiluvchi dinning psixologik xususiyatini tekshirish davomida quyidagi xulosaga keladi: yoshlikdan olgan diniy tarbiya jarayonida diniy e'tiqod va ibodat inson organizmida bo'ladigan hamma bilish jarayonlarini tartibga solib qolmay, balki ongning zararlangan qismlarini ham qayta tiklaydi deydi.


Izlanishning natijalariga ko'ra, dinga e'tiqodsiz kishilar e'tiqodli kishilarga qaraganda ikki martagacha ko'proq oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'riydilar va ularning nafas yo'llari xastaliklaridan o'lish darajasi e'tiqodli insonlarga nisbatan 66% ko'proq ekan. Dindan xoli, dunyoviy psixologlar bunga o'xshash raqamlarga «Psixologik ta'sirlar» deb izoh berishadi. Bu shuni anglatadiki, dinga e'tiqod odamlarning ruhini ko'taradi va bu ularning sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

AQShda nafaqat tibbiyot yo'nalishida, shuningdek, an'anaviy dinlardagi oilalar tizimida meditatsiyaning psixoterapevtik xususiyatlaridan foydalanishga harakat qilinyapti. Katarsis, meditatsiya, tavba-tazarru kabi psixologik holatlar diniy amallarning ajralmas qismiga aylanib boryapti. AQShlik protestant ruhoniysi va psixologi A.Boyzen fikricha, inson hayotidagi inqirozli vaziyatlardan chiqishda din ijobiy ta'sir etish kuchiga ega[8].


Hozirgi kunda psixologiyada diniy e'tiqod va agressivlik muammolari o'rtasidagi aloqadorlik munosabatlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Aksariyat tadqiqot natijalari haqiqatdan ham diniy e'tiqod psixologik fenomen sifatida shaxsning irodaviy xususiyatlari rivojida, psixik va fiziologik salomatligida ham yuqori o'rin egallashi o'z tasdig'ini topmoqda. Biz ham ushbu tadqiqot ishimizda diniy e'tiqod va agressivlik o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik munosabatlarini xristian va musulmon o'smirlarida o'rgandik. Quyida tadqiqot ishimizdan olingan ba'zi natijalarni keltirib o'tamiz.



1- rasm. Respondentlarning jins bo'yicha nisbati



2- rasm. Respondentlarning yosh bo'yicha nisbati



3- rasm. Respondentlarning guruh bo'yicha nisbati

Tadqiqot ishimiz davomida respondentlarni anketa-so'rovnomasida o'rganganimizda, ularning e'tiqod jihatidan 3 guruhga mansubligi ma'lum bo'ldi. Unga ko'ra respondentlarning 106 nafari musulmon, 43 nafari xristian hamda 2 nafari ateist guruhiga mansubligi aniqlandi.

Spirmen mezoni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi natijalar olindi: Jismoniy agressiya va verbal agressiya shkalalari o'rtasida 99 % lik ishonch darajasi bilan musbat korrelyatsiya aniqlandi. ($r=0,522$, $p\leq 0,01$), ya'ni shaxsda jismoniy agressiya holati qanchalik yuqori bo'lsa, unda verbal agressivlik holati ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Jismoniy agressiya va bilvosita agressiya shkalalari o'rtasida 99 % lik ishonch darajasi bilan musbat korrelyatsiya aniqlandi. ($r=0,278$, $p\leq 0,01$), ya'ni shaxsda jismoniy agressiya holati qanchalik yuqori bo'lsa, unda verbal agressivlik holati ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Jismoniy agressiya va tajanglik shkalalari o'rtasida 99 % lik ishonch darajasi bilan musbat korrelyatsiya aniqlandi.

($r=0,406$, $p\leq 0,01$), ya'ni shaxsda jismoniy agressiya holati qanchalik yuqori bo'lsa, unda tajanglik holati ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Jismoniy agressiya va asteniklik shkalalari o'rtasida 99 % lik ishonch darajasi bilan manfiy korrelyatsiya aniqlandi. ($r=-0,267$, $p\leq 0,01$), ya'ni shaxsda jismoniy agressiya holati qanchalik yuqori bo'lsa, unda asteniklik xususiyatlari: tangriga nisbatan chuqur va xilma-xil his - tuyg'ular haqida gapirish, tangri oldida o'jizlik, nomukammallik, og'riqni his qilish kabi holatlar shunchalik pasayib boradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bizning tadqiqot natijalarimizda ham diniy e'tiqodning shaxs emotsional holatlari jumladan agressivlik holati bilan aloqadorligi o'rganildi. Ya'ni diniy e'tiqod darajasi yuqori shaxslarda agressivlik holatga tushish darajasi nisbatan quyi ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Tursunov L.S. Maxsus son 3/1, 2019 "PSIXOLOGIYA" Ilmiy jurnal 77-bet.
2. Борунков Ю.Ю. Структура религиозного сознания / Борунков Ю. Ю.– М. : Прогресс, 1991. – 240 с.
3. Платонов К.К. Психология религии / Платонов К. К. – М. : Высшаяшкола, 1986. – 224 с.
4. Основы религиоведения : [учебник / под ред. И. Н. Яблокова, Ю. Ф. Борункова и др.]. – М. : Высшая школа, 1994. – 36
5. Москалец В. П. Психология религии : [пособник] / Москалец В. П. – К.: Академвидав, 2004. – 240 с.
6. Двойнин А.М. О психологической природе религиозной веры / А. М. Двойнин // Психологические исследования : вып. 3 под ред. А. А. Журавлева.
7. Грановская Р. М. Психология веры / Грановская Р. М. – СПб. : Литер, 2010. – 480 с.
8. Сафронов А.Г. Психология религии. – Киев: Ника Центр, 2002. – 170



Saida SULTANOVA,
TDPU "Amaliy psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Toshkent davlat pedagogika universiteti, p.f.d., dots. N.Sh.Umarova. taqrizi asosida

ISHLOVCHI AYOLLARDA AYBDORLIK HISSI PAYDO BO'LISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ishlovchi ayollarda namoyon bo'ladigan aybdorlik hissining mazmuni, xorij psixolog olimlarining psixologik nazariyalari, ilmiy qarashlari hamda shaxs hayotida aybdorlik hissining ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, ishlovchi ayollarda aybdorlik hissining yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishining tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ishlovchi ayollar, ishga mas'uliyat, hamkasblar o'rtasidagi muloqot, aybdorlik hissi, hissiyot, kechinma, emotsiya, ichki me'yor, jamoatchilik fikri, ijtimoiy me'yor, xulq-atvor, o'zgalalar bilan nizolashish.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЗНИКНОВЕНИЯ ЧУВСТВА ВИНЫ У РАБОТАЮЩИХ ЖЕНЩИН

Аннотация

В данной статье широко освещаются содержание чувства вины, проявляющегося у работающих женщин, психологические теории и научные взгляды зарубежных психологов, важные аспекты чувства вины в личной жизни. Также представлен анализ научно-исследовательской работы, проведенной по определению социально-психологических факторов, влияющих на возникновение чувства вины у работающих женщин.

Ключевые слова: Работающая женщина, ответственность за работу, общение между коллегами, чувство вины, чувство, переживание, эмоция, внутренняя норма, общественное мнение, социальная норма, поведение, конфликт с окружающими.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE EMERGENCE OF A SENSE OF GUILT IN WORKING WOMEN

Annotation

This article, the content of the feeling of guilt manifested in working women, the psychological theories and scientific views of foreign psychologists, and the important aspects of the feeling of guilt in personal life are widely covered. Also, the analysis of the scientific research work conducted to determine the socio-psychological factors affecting the emergence of guilt among working women is presented.

Key words: Working women, responsibility for work, communication between colleagues, feeling of guilt, feeling, experience, emotion, internal norm, public opinion, social norm, behavior, conflict with others.

Kirish. Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo ishlovchi ayollarda aybdorlik hissi namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bundan ko'zlangan maqsad asosida mehnat faoliyatida ayollarda yuzaga keladigan aybdorlik hissiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

Mavzusining dolzarbligi. Jahonda mehnat faoliyatida o'z kasbiy burchlarini yuksak darajada amalga oshiradigan, o'z faoliyati uchun mas'uliyatni zimmasiga oladigan, emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan, innovatsion jarayonlarga moslashuvchan munosabatda bo'luvchi malakali ayol mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (International Labour Organization) bergan statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda ayollar butun dunyo bo'ylab ishchi kuchining 40% dan ortig'ini tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda ayollarning qariyb 70%, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 60% ga yaqini haq to'lanadigan ishlarda faoliyat yuritishadi. Shunday ekan, turli sohalarida ishlaydigan ayollardagi aybdorlik, emotsional zo'riqish kabi hissiy holatlarni bartaraf etish, salbiy

1-jadval

Ishlovchi ayollarda aybdorlikni yuzaga keltiruvchi omillarning namoyon bo'lishi

№	Omillar	Tanlovlar qiymati
1	Ishga mas'uliyatsizlik bilan yondashish	44,5%
2	Hamkasblarga yordam bermaslik	35,8%
3	Oilaga yetarlicha vaqt ajrata olmaslik	81,9%

4	O'zgal bilan nizolashish	25,6%
5	Rahbariyat bilan murosaga kelolmaslik	29,3%
6	Ish davomida boshqalarni ranjitib qo'yish	56,7%
7	Kam daromad topish	27,5%
8	O'zini hech qachon aybdor his qilmaslik	10,3%

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar ishlovchi ayollarda qanday vaziyatlar aybdorlikni yuzaga keltirishini aniqlash maqsadida "Ish davomida siz o'zingizni qachon aybdor his qilasz?" deya berilgan savolning javoblaridan olingan. Natijalardan ma'lumki, sinaluvchilarning 44,5%i ishga mas'uliyatsizlik bilan yondashish, 35,8%i hamkasblarga yordam bermaslik ayollar orasida ko'pincha aybdorlik hissini paydo qiluvchi asosiy muammolardan deb hisoblashadi. Ularning fikricha, ish jarayonida o'ziga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarmaslik, topshiriqlarga javobgarlikning yetishmasligi, mehnat faoliyatini yuzaki amalga oshirish, shuningdek, birga ishlaydigan hamkasblariga zarur paytda ko'maklashmaslik, ular bilan hamfikir bo'lish va o'z tajribalarini o'rtoqlashishni istamaslik ayollarda keyinchalik aybdorlikni his qilishga sabab bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, ishlovchi ayollarning 81,9%i oilaga yetarlicha vaqt ajrata olmaslik, 25,6%i o'zgal bilan nizolashishni aybdorlikni yuzaga keltiradigan omil sifatida baholashadi. Bundan ko'rinadiki, oilaviy munosabatlar, xususan, farzandlar tarbiyasiga e'tibor qaratish, ular bilan birga bo'sh vaqtlarni tashkil qilish, turmush o'rtog'i bilan munosabatlarni o'rnatishda fursat yetishmasligi, oiladan ko'ra ishda ko'p onlarni sarflash ishlovchi ayollarda boshqa omillarga qaraganda aybdorlik hissini yuzaga keltiruvchi yetakchi sabab hisoblanadi. Bundan tashqari, mehnat faoliyatida boshqa shaxslar bilan kelishmovchiliklar va ziddiyatlarning kuzatilishi ularda aybdorlikning namoyon bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.


Sinaluvchilarning 29,3%i rahbariyat bilan murosaga kelolmaslik, 56,7%i ish davomida boshqalarni ranjitib qo'yish ishlovchi ayollarda aybdorlikni paydo qiluvchi muammolar ichida yetakchi o'rin tutishini ta'kidlashgan. Rahbarlar tomonidan asossiz topshiriqlarning ko'p berilishiga e'tiroz

bildirish, turli masalalar bo'yicha kelishmovchiliklar, o'z fikrini ochiq tarzda bayon etish, kasbiy faoliyatda bexosdan o'zga insonlar ko'ngliga ozor berib qo'yish, qo'pol munosabat ko'rsatish holatlari ishlovchi ayollarda aybdorlik hissining kuchayishiga olib kelishi mumkinligi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, ishlovchi ayollarning 27,5%i kam daromad topish aybdorlikni keltirib chiqaruvchi omil deb hisoblagan bo'lsa, 10,3%i o'zini hech qachon aybdor his qilmasliklarini qayd etishgan. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, mehnatiga yarasha haq olmaslik, oz miqdordagi oylik maoshi orqali oilaviy va shaxsiy ehtiyojlarini qondira olmasligi, topayotgan mablag'idan qoniqmaslik holatlari ishlovchi ayollarda aybdorlik hissining paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, aksariyat ayollar mehnat jarayonida o'zlarida hech qanday aybdorlik hislarini boshdan kechirmasliklarini bayon etishgan.

Yuqorida qayd etilgan natijalardan ma'lum bo'ladiki, ishlovchi ayollar aybdorlik hissi ko'plab omillar sababli yuzaga kelishi mumkinligini qayd etishgan, ayniqsa, oilaga yetarlicha vaqt ajrata olmaslik, ish davomida boshqalarni ranjitib qo'yish, ishga mas'uliyatsizlik bilan yondashish kabilar boshqa omillarga qaraganda ko'proq yetakchi o'rin tutadi.

Tadqiqot davomida ishlovchi ayollarning shaxsda aybdorlik hissi yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan omillarga nisbatan munosabatini o'rganishga harakat qildik. Buning uchun ularga "Shaxsda aybdorlik shakllanishi nimalarga bog'liq deb o'ylasz?" savoli bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda quyidagi diagrammada aks ettirildi.



1-rasm. Ishlovchi ayollarning shaxsda aybdorlik hissini yuzaga keltiradigan omillarga nisbatan munosabatining ifodalanishi

1-rasmda keltirilgan ko'rsatkichlarga ko'ra, sinaluvchilarning 51,4%i xarakter xususiyatlari, 72,7%i ijtimoiy muhit insonlarda aybdorlik hissi kelib chiqishiga ta'sir etuvchi asosiy omil ekanligini ta'kidlashgan. Mazkur ko'rsatkichlardan anglash mumkinki, shaxsning fe'l-atvoridagi moyillik, o'ziga nisbatan bahoning pastligi, tortinchoqlik, introvertlik va shu kabi muloqotga kirishishda qiyinchilik tug'diradigan boshqa sifatlardan, bundan tashqari, shaxslaro munosabatlar, oiladagi tarbiyaning noto'g'ri berilishi, bolalik davrida ijtimoiy-psixologik ta'sirlar shaxsda aybdorlik hissining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ishlovchi ayollarning 31,6%i insonning vaziyatga munosabati, 70,5%i o'zgalarning ayblashlari tufayli aybdorlik hissi kelib chiqadi deb hisoblashlari aniqlandi. Mazkur natijalardan shu narsa ayon bo'ladiki, yuzaga kelgan turli salbiy holatlarda o'ziga tanqidiy ko'z bilan qarash, voqea va hodisalarga nisbatan adekvat munosabatda bo'lmaslik,

ko'ngilsiz vaziyatlarga o'zini sababchi deb bilish, shu bilan birga, atrofda insonlarning sodir bo'lgan holatlar uchun shaxsni aybdor qilishi, tanqid qilishi va javobgarlikni bo'yiniga qo'yishi insonlarda o'zini aybdor his qilishiga olib kelishi mumkin.

Sinaluvchilarning 22,3%i muloqotdagi tushunmovchilik, 40,8%i salbiy hissiyotlarni boshqara olmaslik insonda aybdorlikni yuzaga keltiradi deb hisoblasa, 12,4%i bu bo'yicha hali chuqur o'ylab ko'rmaganligini ma'lum qilishgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, ishlovchi ayollar shaxslar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot jarayonidagi biri-birini idrok qilishdagi noaniqliklar, o'ylanmasdan bildirilgan fikr-mulohazalar, iliq bo'lmagan munosabatlar, shuningdek, o'zida kechayotgan salbiy hissiyotlarni ta'sirida o'zgalarga qo'pol muomalada bo'lish, o'zini o'zi nazorat qila olmaslik kabi omillar aybdorlikning paydo bo'lishi va kuchayishiga zamin hozirlaydi. Bundan

tashqari, ayrim sinaluvchilar aynan qaysi omillar shaxsda aybdorlikning namoyon bo'lishiga ta'sir etishi haqida ma'lumotga ega emasliklarini bildirishgan.

Yuqorida keltirilgan natijalardan ta'kidlash joizki, ishlovchi ayollar shaxsda aybdorlik hissining yuzaga kelishiga turli omillar o'z ta'sirini o'tkazadi deb hisoblashadi. Xususan, ular orasida xarakter xususiyatlari, ijtimoiy muhit, o'zgalarning ayblashlari, salbiy hissiyotlarni boshqara olmaslik singari holatlar yetakchi o'rinda turadi.

2-jadval

Ishlovchi ayollarning aybdor qilingan holatlar bo'yicha bildiradigan munosabatlari tahlili

№	Xatti-harakat shakllari	Tanlovlar qiymati
1	Xijolat bo'lish	71,2%
2	Jahl chiqishi	33,8%
3	Vaziyatni yaxshilab o'ylab ko'rish	51,9%
4	Aybsiz ekanligini isbotlashga harakat qilish	57,4%
5	O'zini koyish	45,3%
6	E'tibor qilmaslik	30,8%
7	Bunga o'zlari sababchi deb hisoblash	18,9%
8	Holatni to'g'ri tushuntirishga urinish	68,4%

2-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, sinaluvchilarning 71,2%i o'zgalarni aybdor deb hisoblashganda xijolat bo'lishi, 33,8%i jahl chiqishi, 51,9%i vaziyatni yaxshilab o'ylab ko'rishini ta'kidlashgan. Mazkur natijalardan anglash mumkinki, atrofdagi insonlar tomonidan ishlovchi ayollarni sodir bo'lgan ma'lum bir voqea-hodisalarning sababchisi deb bilishganda, ular o'zlarida noqulaylik, o'zgalarni oldida uyalish, ayrim vaziyatlarda esa agressiv munosabatda bo'lish, o'z hissiyotlarini boshqara olmaslik kabi holatlarni boshidan kechirishadi. Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilarining ma'lum qismi yuzaga kelgan bu kabi noxush vaziyatlarning asl sabablarini tahlil qilishi, aql bilan yondashishi hamda salbiy emotsiyalarga berilmasligini qayd etishgan.

Shu bilan birga, muammoli vaziyatda boshqalarning ayblovlari nisbatan ishlovchi ayollarning 57,4%i aybsiz ekanligini isbotlashga harakat qilishi, 45,3%i o'zini koyishi, 30,8%i e'tibor qilmasligini ma'lum qilishgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, ishlovchi ayollar ularga qo'yilgan ayblash holatlariga javob sifatida o'zining yuzaga kelgan muayyan voqelik uchun aloqasi yo'qligini tushuntirishga urinish, asl sababchilarni izlash va uni o'zgalarga ko'rsatish istagining ifodalaniishi, ma'lum paytlarda esa o'ziga o'zi tanbeh berishi, o'zidan qoniqmasligi, salbiy kechinmalarni his qilishi kabi holatlarni namoyon qilishadi. Shuningdek, ayrim sinaluvchilar o'zgalarning ayblovlari e'tibor qaratmasligi, o'z ishini davom ettirishi, ziddiyatlarga bormasligi, sodir bo'lgan holatdan tushkunlikka tushmasligini ta'kidlashgan.

Tadqiqot davomida ma'lum vaziyatlar oqibati uchun atrofdagilar tomonidan aybdor qilingan holatlar bo'yicha ishtirokchilarning munosabatlari o'rganildi. Shu nuqtayi nazardan ularga "Biror-bir holat uchun sizni boshqalar aybdor deb hisoblasa, o'zingizni qanday his qilasisiz?" degan savol bilan murojaat qilindi. Mazkur savolga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda quyidagi jadvalda aks ettirildi.

Sinaluvchilarning 18,9%i ko'ngilsiz voqea-hodisalarga insonlarning o'zlari sababchi deb hisoblashi, 68,4%i holatni to'g'ri tushuntirishga urinishi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi. Bundan shuni anglash mumkinki, sodir bo'lgan biror-bir holat uchun ishlovchi ayollarni boshqa shaxslar aybdor sifatida ko'rsatishganida, ular bunga nisbatan zid munosabatda bo'lishi, o'zini voqelik sababchisi sifatida baholamasligi, atrofdagi insonlar xatti-harakatlari tufayli vaziyat yuzaga kelgan deb bilishi, shu bilan birga, ma'lum holatlarda vaziyatni ayblovchi shaxslarga tushuntirishga urinish, asl holatni oydinlashtirishga intilish kabi xulq-atvor shakllarini amalga oshirishadi.

Xulosa. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, ishlovchi ayollar atrofdagilarning ularga nisbatan bildirgan ayblovlari turlicha munosabatlarni bildirishgan, xususan, xijolat bo'lish, vaziyatni yaxshilab o'ylab ko'rish, aybsiz ekanligini isbotlashga harakat qilish, holatni to'g'ri tushuntirishga urinish kabi omillar boshqa xatti-harakatlarga nisbatan ko'proq kuzatilishi aniqlandi.

Umuman olganda, ish faoliyatida ayollarda namoyon bo'luvchi aybdorlik hissi, ularda kuzatilishi mumkin bo'lgan emotsional holatlar, aybdorlik hissining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar, o'zgalarni tomonidan qo'yilgan ayblovlarga sinaluvchilarning munosabatlari bir-biridan farq qiladi, bu esa ularning ishlash sharoiti, ijtimoiy muhiti, kasbiy tajribasi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan izohlanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Мяснищев В.Н. Психология отношений / под ред. А.А. Бодалева. - М.: б.н., 2004.
2. Tangney J. P., Dearing R. L. Shame and Guilt. New York: Guilford Press, 2003. 272 p.
3. Муздыбаев К. Переживание вины и стыда. СПб.: СПб, филиал Института социологии РАН, 1995. стр. 39.
4. Ильин Е.П. Психология совести: вина, стыд, раскаяние. – СПб.: Питер, 2016.
5. Изард К. Э. Психология эмоций. – СПб.: Питер, 2008. – 464 с.: ил. – (Серия «Мастера психологии»).



UDK:091.2

Nutfullo TESHAYEV,

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
teshayev_nutfullo@mail.ru*

O'zMU professori B.Tuychiyev taqrizi asosida

FUQAPOLIK JAMIYATINING MA'NAVY OMILLARI VA MAFKURAVIY TAMOYILLARI TUGRISIDA IJTIMOIY- FALSAFIY G'OYALAR

Аннотация

Maqolada muallif fuqarolik jamiyatining ma'naviy omillari va mafkuraviy tamoillari haqida ijtimoiy-falsafiy g'oyalar, zardushtilik dinining muqaddas kitobi bo'lmish Avestoda ilgari surilgan g'oyalar "ezgu fikr", "ezgu so'z", "ezgu amal" tamoyiliga asoslangan falsafiy ta'limot hamda Sharq Uyg'onish davrining yirik namoyondasi Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy goyalari har tomonlama tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: "jamo'a", "inson jamoasi", "ijtimoiy ahdnoma", "ijtimoiy shartnoma", "fuqarolik jamoasi", "shahar jamoasi", "fozil shahar", "madaniy jamiyat", "madaniy shahar", "foydali mehnat".

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О ДУХОВНЫХ ФАКТОРАХ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРИНЦИПАХ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В статье автор представляет социально-философские представления о духовных факторах и идеологических принципах гражданского общества, идеи, выдвинутые в Авесте – священной книге зороастрийской религии, основанной на принципе «доброй мысли», «доброй мысли. слово», «доброе дело». Всесторонне анализируются социально-философские идеи Абу Насра Фараби, крупного представителя эпохи Восточного Возрождения.

Ключевые слова: «сообщество», «человеческое сообщество», «общественный договор», «общественный договор», «гражданское сообщество», «городское сообщество», «добродетельный город», «культурное общество», «культурный город», «полезный труд».

SOCIAL-PHILOSOPHICAL IDEAS ON THE SPIRITUAL FACTORS AND IDEOLOGICAL PRINCIPLES OF CIVIL SOCIETY

Annotation

In the article, the author presents socio-philosophical ideas about the spiritual factors and ideological principles of civil society, the ideas put forward in the Avesta, the holy book of the Zoroastrian religion, based on the principle of "good thought", "good word", "good deed". The socio-philosophical ideas of Abu Nasr Farabi, a major representative of the Eastern Renaissance period, are comprehensively analyzed.

Key words: "community", "human community", "social contract", "social contract", "civic community", "city community", "virtuous city", "cultural society", "cultural city", "useful work".

Kirish. Sharq olamida, xususan, vatanimiz O'zbekistonda jamoa bo'lib yashash odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, bir-birini qo'llab-quvvatlash hayot kechirish uchun zamin yaratuvchi tuyg'u bo'lib, jamiyat taraqqiyotida ulkan ahamiyat kasb etgan. Inson, xalq, millat tafakkuri, ma'aviy qarashlari, turmush tarzi jamoat tar'sirida shakllangan va taraqqiy etgan. Sharq xalqlari va yurtimiz ahliga xos bo'lgan mehr-muruvvat, oqibat, saxovat kabi ma'naviyatimizning yuksak ko'rinishlari haqida gapirganda, ularning ijtimoiy-falsafiy zaminiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bu jihatdan, ajdodlarimiz tomonidan O'zbekiston hududida yaratilgan «Avesto» milliy davlatchiligimiz va yurtimizdagi muayyan jamiyat haqidagi g'oyalar majmui sifatida mazkur mavzuni tarixiy-falsafiy anglashda alohida o'ringa ega. U eramizdan oldingi 3 minginchi yillarda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan jamiyat rivoji va ilk davlatchilik to'g'risidagi ijtimoiy qarashlar majmui hisoblanadi. Agar «Avesto»da ilgari surilgan g'oyalarga e'tibor beradigan bo'lsak, bugungi adolatparvar - fuqarolik jamiyat barpo etishga qaratilgan g'oyalar bilan hamohang ekanligini ko'ramiz. U asrlar davomida xalqimizning jamiyat rivoji, uning ma'naviy omillari haqidagi milliy tafakkuriga ulkan ta'sir ko'rsatgan omillardan biridir. Unda qadimgi yurtdoshlarimizning ko'plab masalalar kabi, jamiyat va uni

rivojlantirishning ma'naviy omillari va mafkuraviy tamoyillari to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyiliga asoslangan falsafiy konsepsiya o'z aksini topgan bu asarning «Hayot yo'riqnomasi» deb atalishi ham bejiz emas.

Asosiy qism. Ik jamiyat asoslarini shakllantirish borasida «Avesto» deyarli barcha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar davlat tuzum asoslari, zardushtiyning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Manbada avvalo, inson erki, uning ruhiy komilligi masalalari ustuvor qo'yiladi. Masalan; "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman" deyiladi Yasna (14) kitobida. Axuramazda, insonlar o'rtasida bo'layotgan munosabatlar o'zaro samimiylik, hurmat beg'arazlik, yordam va oqibatli bo'lish zarurligiga, yomon fikrlardan holi bo'lishga chaqiradi. Kattaga hurmat va kichikka izzat, sabr-bardosh, halollik, mehr-oqibat va boshqa bir qator tamoyillar borki, bular milliy g'oyamizning asosiy tamoyillariga uyg'un keladi. G'oyalarning bunday tarzda qo'yilishi dunyo ana shu kuchlarning yonma-yon yashashidan iborat, degan falsafaning mohiyatini anglashga undaydi[1]. Shu tariqa «Avesto» o'sha zamonda yashagan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish, davlatga bo'lgan

ehtiyoj va zaruriyati o'laroq yuzaga kelgan manba bo'lib hisoblanadi.

"Avesto"da eng muhim masalalardan biri – bu jamiyatdagi munosabatlarning nazariy jihatdan shakllanganligidir. Unda inson hayoti va odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni huquqqa asoslanganligi haqida ma'lumotlar bor. Oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh hisoblangan: "O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur yetkazadi. O Spitama, ahdingni buzma...[2]" ("Yasht", X bob.) Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishish haqida", "Grajdanlik siyosati", "Davlat arbobining aforizm (naql)lari" kabi risolalaridagi insonlar jamiyatining shakllanishi, turlari, maqsad va vazifalari, jamoa a'zolarining baxt-saodat haqidagi tushunchalari va unga erishish vositalariga doir g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan.

Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida "Inson jamoasi" (fuqarolik jamoasi) – odamlarning yashashi va kamolotga erishishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'zaro birlashish natijasida vujudga kelgan deb ta'kidlaydi. Uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida davlat, shahar, inson jamoasi (fuqarolik jamoasi) tushunchalari mavjud bo'lib, mutafakkir "shahar" tushunchasini insoniyat jamiyatining madaniylashgan, yuqori bosqichini ifodalash uchun qo'llaydi. "Inson jamoasi" (fuqarolik jamoasi) tushunchasi esa shaharga nisbatan quyi taraqqiyot bosqichini ifodalaydi. Bu bosqichda odamlar yashash va hayotlarini saqlab qolish maqsadida moddiy yordam berish uchun birlashadilar. Davlat – baxt-saodatga erishish maqsadida birlashgan odamlarning, jamoaning yuqori shakli bo'lib, unda turli ijtimoiy munosabatlarni hukm suradi. Shahar jamoasi esa davlatning mavjudlik shartidir.

Forobiy shaharlarni fozil va fozil bo'lmagan turlarga ajratadi. Fozillar shahri asosiy maqsadi haqiqat baxt-saodatga erishish uchun birlashgan odamlar jamoasidir. Fozillar shahrining eng muhim belgisi yuksak axloqiylik, ma'naviyat-chilikdir. Mutafakkir fozil jamoa zid bo'lgan johillar, ayriboshlovchilar, benomuslar, beqarorlar, adash-ganlar, badbaxtlar shahrini ta'riflab beradi. Bu jamoalardagi yomon xususiyatlar boshqaruv shakliga emas, balki shu shahar aholisining va boshqaruvchisining axloqiy sifatlariga bog'liq ekanligini ochib beradi.

Jamiyat, davlat taraqqiyotida mutafakkirning ta'biri bilan aytganda, baxt-saodatga erishuvda boshqalarga rahbarlik qilish eng qiyin, eng mas'uliyatli vazifa ekanligini his etgan holda, Forobiy shahar hokimi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi zarurligini qayta-qayta ta'kidlaydi. "Baxt-saodat yuksak maqsad bo'lib, uni fazilatli mehnat orqali qo'lga kiritish mumkin"[2] ligi haqidagi fikri esa faqat shahar hokimiga emas, fuqarolarga ham tegishlidir.

Forobiy fuqarolik jamoasi haqida quyidagi firlarni bayon qiladi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning bir-biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnatildilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi"[3]

ADABIYOTLAR

1. Отамуродов С. "Авесто" миллий ғоямиз манбаи. //Жамият ва бошқарув. 2002, сон, 34 бет.

deb ko'rsatadi. Demak, odamlar o'zaro birlashuv va yordam orqali o'z ehtiyojlarini qondirishlari va o'z maqsadlariga erishuvlari mumkin. Forobiy bu birlashuvni ehtiyojni qondirish yo'lidagi zaruriy jarayon deb bilash bilan birga, umuman insonning hayvonot dunyosidan nutqi va aqli tufayli ajralib chiqqanidan keyingi takomili jamoada, ijtimoiy hayotidagi ham mumkin deb tushuniladi.

Kishilarni qanday maqsadlar atrofiga uyushtirganiga qarab Forobiy shahar-davlatlarni ikki qarama-qarshi turkumga bo'ladi: "O'z aholisini baxt-saodatga yetaklovchi, butun faoliyat va vazifalarini ana shu maqsadga yo'naltiruvchi shaharlar – yaxshi, fozil, olijanob shaharlardir; o'z faoliyatini noto'g'ri yo'ldan olib boruvchi, yomon maqsadni amalga oshirishni ko'zlovchi shahar-johil yomon shahardir"[4].

Forobiy shunday deb yozadi: "Haqiqat baxtga erishish uchun zarur bo'lgan ishlarda o'zaro yordamni maqsad qilib olgan kishilar birlashmasi mavjud bo'lgan shahar-fazilatli shahardir; baxtga erishish uchun kishilar bir-birlariga yordam beruvchi jamoasi fazilatli jamoadir.

Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq-fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli yetuk bo'ladi"[5].

Forobiy fozil shahar-davlatni kishining sog'lom organizmiga o'xshatadi. Inson tananing salomatligini saqlash, uning normal faoliyatini davom ettirish uchun uning a'zolari doimo bir-birlariga bog'liq holda o'zaro yordam berib turadi. Fozil shaharda ham xuddi shunday: uning a'zolari o'zlarining turli kasb-hunarlarini, bilimlari, shu faoliyatlari bilan bir-birlarining ehtiyojlarini qondirib, o'zaro yordam berib turadilar.

Forobiy fuqarolik jamiyati haqida quyidagi konseptual fikrni ilgari suradi: "Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladi, shu mamlakatni aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma barobar (teng) bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladi. Biri ikkinchisiga xo'jayin bo'lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya'ni podshoh) bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar" paydo bo'ladi"[6].

Fozil shahar davlatga fozil va hurmatga sazovor rais rahbarlik qiladi va shahar aholisini baxt-saodatga olib borishni o'z maqsadi deb biladi. Fozil shahar-davlat va fozil fuqarolarni ta'riflar ekan, Forobiy xususan ilm-fan va kasb-hunarga katta e'tibor beradi va baxt-saodatga erishuvni ular bilan uzviy ravishda bog'laydi.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining muhim faktori sifatida Forobiy kasb-hunarga, ya'ni ijtimoiy foydali mehnatga katta e'tibor beradi. Kishilarning keng ma'nodagi foydali mehnat faoliyatisiz inson jamoasini ya'ni fuqarolik jamoasini tasavvur etmaydi. Shu bilan birga, Forobiy baxt-saodatga intilishga, ya'ni – ma'naviy omilga eng muhim o'rin beradi.

Forobiy o'rta asr ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy ta'limotlari rivojida butunlay yangi oqimga asos soldi. Ilg'or ijtimoiy-siyosiy fikrlar taraqqiyoti ana shu yo'ldan, yo'nalishdan bordi. Forobiyning bu ta'limoti Sharq uyg'onish davri insonparvarligining eng asosiy tamoyillaridan birini tashkil etdi hamda uning mazmuni va mundarijasini belgilab berdi.

Forobiyning iroda erkinligi, baxt-saodatga erishuvda ilm-fanning o'rni haqidagi fikrlari so'nggi falsafiy va ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarning ravoji uchun katta ta'sir ko'rsatdi hamda ijtimoiy hodisalarni talqin etishda hur fikrlikka keng yo'l ochib berdi.

2. Форобий рисоалар Т “фан” 1975 , 121-бет.
3. Абу Наср Форобий “Фозил одамлар шахри”, Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 йил, 186-бет.
4. Абу Наср Форобий “Фозил одамлар шахри”, Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 йил, 164-бет.
5. Абу Наср Форобий “Фозил одамлар шахри”, Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 йил, 187-бет.
6. Абу Наср Форобий “Фозил одамлар шахри”, Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 йил, 90-бет.



UDK:324

Iroda TOJIYEVA,

QarMI mustaqil tadqiqotchisi

E-mail:tojyevairoda9@gmail.com

Hamro MALLAYEV,

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM katta o‘qituvchisi

E-mail:mallayevhamro@gmail.com

Bekzod MAMATOV,

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM katta o‘qituvchisi

E-mail:mamatovbekzod@gmail.com

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM professori, tarix fanlari doktori D.Kamolov taqrizi asosida

TARBIYA FANINI O‘QITISH METODIKASINING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarbiya fanini o‘qitishda metodikasining asosiy maqsad va vazifalari orqali darslarini o‘tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali metodlarini o‘rganish, uni amalda sinab ko‘rish, ulardan yanada samaraliroq foydalanish yo‘llarini izlash va ishlab chiqish kabi tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya fani, metodika, tarbiya metodlari, pedagog, zamonaviy pedagog, kasbiy kompetent, pedagogik xususiyat, o‘quvchi shaxsi, usul, vosita, metod, maqsad va vazifalar.

ОСНОВНЫЕ ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ПРЕПОДАВАНИЯ МЕТОДИКИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье через основные цели и задачи методики преподавания предмета образования рассматриваются эффективные методы использования современных педагогических технологий в ходе уроков, апробация их на практике, поиск и разработка способов их использования. более эффективно и выделяя такие рекомендации, как данные

Ключевые слова: наука об образовании, методология, методы обучения, педагог, современный педагог, профессиональная компетентность, педагогические характеристики, личность студента, метод, средство, метод, цели и задачи.

MAIN GOALS AND TASKS OF TEACHING METHODOLOGY OF EDUCATION

Annotation

In this article, through the main goals and objectives of the methodology of teaching the subject of education, the effective methods of using modern pedagogical technologies in the course of the lessons, testing them in practice, searching for and developing ways to use them more effectively, and highlighting recommendations such as given

Key words: science of education, methodology, methods of education, pedagogue, modern pedagogue, professional competence, pedagogical characteristics, student's personality, method, tool, method, goals and tasks.

Kirish. Tan olib aytish kerak, bugungi jadal globallashuv, innovatsion taraqqiyot sharoitida dunyo hamjamiyati sahnida raqobatbardosh mamlakatga aylanayotgan, yangilanayotgan O‘zbekiston davlati va jamiyati oldiga qator milliy va umuminsoniy vazifalarni yuklamog‘da. Bu ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar singari, ta‘lim-tarbiya borasiga ham bevosita tegishlidir.

Jumladan, Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur ezgu g‘oyalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil maydagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son [2] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzlusiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarorlari [3] hamda 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-422-

sonli qarorlari [4], davlat va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida umumta‘lim maktablarida Tarbiya fanini yanada kengaytirishga oid vazifalar belgilab berilgan bo‘lib mamlakatimiz hukumati tomonidan ulkan sa‘y-harakatlar olib borilmoqda.

Ushbulardan biri, shubhasiz, muhtaram Prezidentimizning bevosita tashabbuskorligida davr talabiga javob beradigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi ta‘minlangan, xalqaro tajriba va interfaol uslublardan unumli foydalanilgan Tarbiya fanining yaratilishi hamda undagi go‘zal insoniy fazilatlar, chuqur foydali bilimlarni yosh avlodga o‘qitish va uqtirishdir.

Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad yangi davrning mard va jasur, adolatli va sadoqatli, mehrlil va oqibatli, hayoli va oriyatli, vatanparvar, ezgu maslagida qat‘iyatli, mustahkam e‘tiqodga ega bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish sanaladi.

Bunda Tarbiya o‘qituvchilaridan yosh avlod ong-u shuurida:

- mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning yashirin salohiyatini yuzaga chiqarish;
- muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;

- faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash;
- burch va mas'uliyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, mustahkam ezgu e'tiqod, ma'rifatarvarlik, bag'rikenglik singari go'zal fazilatlarini shakllantirish talab etiladi.

Shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida kuzatilayotgan ayrim salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olishdagi ishlar samaradorligini oshirish ham nazarda tutiladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimiz umumta'lim maktablarida odob-axloq borasida yagona Tarbiya fanining joriy etilishi barkamol avlod, vatanparvar fuqaroni shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Aksincha, bunday tizimga ega bo'lmagan jamiyatda zo'ravonlik, axloqsizlik, razolat ildiz otadi. Va, oxir-oqibat, bu jamiyat tarbiyasizlik, tubanlik botqog'iga botadi [5].

Tarbiya fanini samarali o'qitishning turli innovatsion metodlari o'quvchilarni mustaqil faoliyati, erkin va tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini ravon ifoda etishiga zamin yaratishi juda muhim. Tavsiya etilgan metodikani kreativ qabul qilish, fan-texnika imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirish bo'lajak Tarbiya fani o'qituvchilarining ijodiy mahoratiga bog'liq. Maqolada taqdim etilgan mavzularga aloqador ma'lumotlar o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni yanada mustahkamlanishiga xizmat qilishiga ishonamiz.

Bo'lajak Tarbiya o'qituvchilarining fanga oid bu tamoyillarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida, tarbiyaviy tadbirlarda va mustaqil ta'lim izlanishlarida ana shu tamoyillarni o'zlashtirish, faoliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatda ularga amal qilish kompetensiyasini egallash dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun har bir talabning individual shug'ullanishi, Ustozlar bilan hamkorlikda faol ishlashi va tarbiya tamoyillarining hayotdagi ifodasini o'rganib borishi taqozo etiladi. Bunda oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari, ta'lim jarayonining sharoitlari va faoliyatning amaliy samaradorligidan oqilona foydalanish kerak. Har bir talabning mazkur fan tamoyillarini, asoslarini va istiqbolli maqsad-muddolarini o'zlashtirishi kasbiy tayyorgarlikning negizlaridan biri hisoblanadi [7].

Tarbiya metodlari. Yosh avlodni tarbiyalashda turli xil metod va vositalardan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

Metod (lotincha-metodos-yo'l so'zidan olingan bo'lib) tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilingan.

Metodika (yunoncha-metodika) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish tarbiyalash usullari va vositalari degan tushunchani anglatadi.

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jixatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir.

Tarbiya metodlari Tarbiya fanini o'qitish metodikasi fani ishlarini to'g'ri tashkil etishda muhim vosita bo'lib, bola shaxsining har tamonlama kamol topishi bilan belgilanadi va Tarbiyaviy ishlar jarayoniga taalluqli bo'lgan ko'pgina Tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tamoniidan ta'lim muassalari oldiga har tamonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o'z ichiga oladi.

Tarbiya metodlari o'qituvchi va jamoa tamoniidan tarbiyalanuvchilarning g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his tuyg'u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo'llanadigan shaxsga Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini anglatadi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan Tarbiya ishlarni olib boranda turli xil usul va vositalarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, ta'sir qilish zarurligini ko'rsatadi [8].

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagilardan kelib chiqib tarbiya darslarida foydalanish mumkin bo'lgan quyidagi usullar tavsiya etiladi: O'quvchilarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda quyidagi asosiy metodlarimiz muhim ahamiyat kasb etadi [6].

1. So'z orqali ta'sir etish.
2. Namuna ko'rsatish hamda ko'rgazmalilik.
3. Raqobat va jazo. Bu metodlarni amalga oshiradigan shakllari ham mavjud.

1. So'z orqali ta'sir etish.
1. Tushuntirish metodi. Natijalardan shuni bilish mumkinki, o'quvchilar o'qib o'rgangandan ko'ra, tushunib o'rganganlarida ko'proq bilim egallaydilar, unga amal qiladilar. Tarbiya jarayonida o'quvchilarga tushuntirish usuli ko'proq qo'llaniladi. Boshlang'ich sinf paytidanoq o'quvchilarga salomlashish odobi, kattalarni hurmat qilish, jamoat joylarida o'zini to'g'ri tutish, transport vositalarida yoshi ulug' insonlarga joy berish, mehmonga borganda tartibli bo'lish, xushmuomalalik, atrofda qilarga yaxshi munosabatda bo'lish, ota - onasining so'zlariga quloq tutish va shu kabi bir qancha tartib-qoidalariga amal qilishi o'qituvchi tomonidan o'rgatilib boriladi.

2. Ishontirish metodi. Hozirgi kunda o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bu ishontirish metodi hisoblanadi. Ishontirish deb, o'quvchilarni ma'naviy - axloqiy, siyosiy, huquqiy, madaniy fazilatlarini rivojlantirish, xarakterlaridagi ijobiy sifatlarni oshirib, salbiylarini yo'qotish maqsadida ularning ongi, tuyg'usi hamda irodasiga ta'sir etishga aytiladi. Qisqa qilib aytganda, o'quvchilarni sog'lom fikrlash yaxshi oqibatlariga olib kelishiga ishontirish. Ishonch har narsada muhim, hattoki, tarbiyada ham.

3. Hikoya metodi. Bu usul ham o'quvchilarning tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasining ijobiy xislatlarini yuzaga chiqarishda keng qo'llaniladi. Tarbiyaga oid bo'lgan biror hikoya yoki matn o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. Ijodkor o'qituvchi o'qiyotganida rolga kirib ta'sirli qilib o'qiydi. O'quvchilardan shu hikoyadagi nimalarga e'tibor berdingiz? Qaysi qahramon sizga yoqdi? Qaysi qahramonga o'xshashni xohlaysiz va nima uchun? Kabi savollar so'raladi. Har bir o'quvchi o'z shaxsiy fikrini aytib bo'lganidan so'ng, o'qituvchi kimning aytgan fikrlar to'g'ri, kimniki xato, to'g'ri tomonlari qaysi va hokazolar to'g'risida fikr yuritadi. Biroz xato qahramonlarni tanlashgan o'quvchilarga to'g'ri yo'l ko'rsatiladi. Oxirida hammasi umumlashtirilib, salbiy va ijobiy sifatlarga ega bo'lgan qahramonlar qayta tahlil qilib beriladi.

4. Nasihat qilish metodi. Bu metod nafaqat o'qituvchilar tomonidan, balki, bobolar, buvilar, ota-onalar hamda yoshi katta insonlar tomonidan qo'llaniladi. Bolalar yaxshi nasihatlariga amal qilishga harakat qiladilar. Ayniqsa, ularga ertaklar orqali nasihatlar qilinsa samarali natija beradi. Chunki ertaklarning so'ngida doimo yaxshi fazilatli insonlar g'olib bo'ladi. «Ertaklar - yaxshilikka yetaklar» deb bejizga aytilmagan. Bolalarga iloji bo'lsa har kuni kechqurun uyqudan oldin ertak aytib berishga odatlanish kerak. Bu ularning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

5. Amaliy ta'sir etish metodi. Bu metodda o'quvchilarning bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishlari o'rgatiladi. Oilada ham biror ishni birgalikda bajarib,

mehroqibatni mustahkamlash uchun qo'llaniladi. Hozirgi kunda bu metoddan tez-tez foydalanib turiladi.

II. Namuna hamda ko'rgazmalili metodi.

1. Namuna ko'rsatish metodi. Bola tarbiyasida namuna ko'rsatish metodining ahamiyati nihoyatda katta. Namuna metodi orqali bolalar taqlid qilishga harakat qiladilar. E'tibor bersak, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qtuvchilarini o'zlari uchun ideal inson hisoblaydilar. Namuna qilib ko'rsatilayotgan insonning tarbiyasi, yurish-turishi, xulq-atvori, muomala madaniyati hamma uchun o'rnatilgan bo'la oladigan bo'lishi kerak. Shunda o'quvchilarning tarbiyasiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bolalar faqat yaxshi xulqli insonlarga emas, balki yomon xulqli kishilarga ham taqlid qiladi.

Shunday holatlarda o'qituvchi va ota-onalardan kuchli e'tibor talab etiladi.

Bolalarning tarbiyasiga bee'tibor bo'lmasliklari tafsiya etiladi. Bolalar yana quyidagilardan namuna olishlari mumkin:

1. Badiiy film qahramonlari.
2. O'rtoqlarining harakatlari.
3. Multfilm qahramonlari.
5. Hikmatli nasihatlar.

Bundan tashqari, ijobiy va salbiy xislatlarga ega bo'lgan qahramonlarining suratlarini chizib, namuna qilib ko'rsatish mumkin.

III. Rag'bat va jazo. Bola o'z xatti-harakatlarini baholashlarini xohlaydi. Uning bajarayotgan ishlariga yoki

jazo, yoki rag'bat tayinlash lozim. Rag'batni maqtash yoki mukofotlash usuli orqali berish mumkin.

1. Maqtash metodi. Bolalarni bajargan yaxshi ishlarni maqtash orqali ularda motivatsiya uyg'otish mumkin. Bu usul qo'llanganda o'quvchilar yanada yaxshiroq bo'lishga harakat qiladi. Ularga maqto'v yorliq berilsa, ota-onalariga tashakkurnoma yuborilsa taqsiinga loyiq bo'ladi.

2. Mukofotlash metodi. Maktabga o'quvchilarga beriladigan eng oliy mukofot faxriy yorliqdir. Bu o'quvchining maktabga ko'rsatgan eng yaxshi go'zal xulqi, odobi sababli berilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dars o'tayotganda har qanday o'qituvchi ta'lim berish bilan birga ularga tarbiya ham berib borishi lozim. Shu tarbiya berish jarayonida yuqorida aytilgan barcha metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, mukofot va jazoni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash kerak. Mukofot haqida yuqorida gaplashdik. Jazo esa bolalarning salbiy o'zgarishlarini sezganda, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining xatti-harakatlarida yomon xislatlar sezilyaptimi, o'z vaqtida qoralash va ta'qiqlash, ikkinchi bora bu xatoliklarga yo'l qo'yimasligiga da'vat etish kerak. Eng muhimi, aybdor jazo olayotganida xatosini tushunib yetishidir. Yuqorida aytib o'tilgan metodlardan foydalanish bolalarning tarbiyasidagi ijobiy fazilatlarini yuksaklarga ko'tarishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-1059-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-422-son qarori.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., Iste'dod, 2010. -141 b.
7. Mamatqulov D.M. Malaka oshirish jarayonida umumta'lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. bo'yicha fal. dok. ... dis. -T.: 2018.
8. <http://genderi.org/1-mavzu-tarbiya-fanini-oqitish-metodikasi-fanining-asosiy-maqs.html?page=4>



UDK:15: 371.044.4(045)

Umidjon TOYLOQOV,
Qarshi davlat universiteti talabasi
E-mail: umidtoyloqov@gmail.com
Erkin YAZIYEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti
E-mail: erkin.yaziyev@mail.ru

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi ostida

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS OF THE FORMATION OF LEGAL REPRESENTATIONS AMONG YOUTH

Annotation

The article deals with scientific, theoretical and methodological problems of the formation of legal concepts among young people. It tells about the theoretical and practical aspects of the problem, the author's scientific research in this regard. The studies conducted by the author show that the study of this problem remains very relevant today.

Key words: State, person, youth, school, student, jurisprudence, law, legal awareness, legal understanding, legal culture, legal literacy.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье рассматриваются научно-теоретические и методологические проблемы формирования правовых понятий у молодежи. В ней рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, авторских научных изысканиях в этой связи. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы остается весьма актуальным и на сегодняшний день.

Ключевые слова: Государство, человек, молодежь, школа, учащийся, правоведение, право, правосознание, правовопонимание, правовая культура, правовая грамотность.

YOSHLARDA HUQUQIY TUSHUNCHALAR SHAKLLANISHINING ILMIY NAZARIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI

Аннотация

Maqolada yoshlarda huquqiy tushunchalar shakllanishining ilmiy nazariy va metodologik muammolari o'rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Davlat, shaxs, yoshlar, maktab, o'quvchi, huquqshunoslik, qonun, huquqiy ong, huquqiy tushuncha, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqilikka erishgach barcha sohalarida bo'lgani kabi yoshlar masalalariga, ayniqsa ularning huquqiy savodxonligini oshirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Chunki huquqiy savodxonlikka erishish yoshlarning huquqiy jihatdan bilimli, yuksak huquqiy madaniyatli va ma'naviyatli bo'lishi, huquqning mohiyati, ahamiyati va talablarini chuqurroq anglashi, qonunlarga nisbatan hurmatini tarbiyalaydi, ularga bo'ysunish madaniyatini shakllantiradi. Har bir inson huquqiy bilim va madaniyatga ega bo'lishi, ularga qat'iy amal qilishi, qonun ustuvorligini dildan, qalbdan his qilishi xalq va millat yetukligining muhim ko'rsatkichi ekanligini belgilaydi. Shuning uchun ham yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularga bolalikdan huquqiy qarashlarini, davlat oldidagi farzandlik burchi, mas'uliyati, huquq va majburiyatlarini to'g'risidagi tushunchalarini shakllantirib borish bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon psixologiyasida shaxsda huquqiy tushunchalar shakllanishi muammosini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Huquqiy tushunchalarning shakllanishi muammolari rus olimlari S.N.Aleksandrova, S.S.Alekseyev,

V.Vasilyev, L.N.Karandasova, O.V.Martishin, YE.A.Pevsova, N.I.Xabibulina, A.F.Cherdansev, V.V.Romanov, M.V.Kroz, V.V.Gibovets A.M.Kunijev va boshqalar tomonidan olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlarda ko'rinadi. Uzoq xorij mamlakatlari olimlaridan R.Arntsa, J.L.Berjelya, R.Dvorkina, R.Iyeringa, D.Loyda, E.Xirsha va boshqalarning ilmiy ishlarida ham huquqiy tushunchalarni tadqiq etishga bag'ishlangan qarashlar ilgari surilgan.

Mamlakatimiz psixologiyasida huquqiy tushunchalar va ularning psixologik tavsifi, huquqiy tushunchalarning shakllanish xususiyatlari, ularning izohi, yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalari M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, A.M.Jabborov Z.T.Nishanova, B.Jo'rayev, B.Qodirov, B.Umarov, E.Usmonov, X.Karimov, G.To'laganova, Z.A.Rasulova, X.T.Mamatov, T.K.Xudaybergenova va boshqalarning asarlarida va olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Biz quyida yetakchi psixolog olimlar tomonidan shaxsda huquqiy tushunchalar shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilamiz.

B.Jo'rayevning ilmiy tadqiqot ishlari kasb-hunar kolleji o'quvchilarida huquqiy tushunchalar shakllanishining

psixologik asoslarini o'rganishga qaratilgan. Muallifning fikricha, o'quvchilarda huquqiy tushunchalarning shakllanishida asab tizimi xususiyatlarini belgilovchi omillar sifatida qarash mumkin. Bu esa o'qituvchini tushunchalar shakllanish jarayonida kuchli, o'rta va kuchsiz asab tizimiga ega o'quvchilar bilan ishlashning individual yondashuvini tanlashiga ko'maklashadi [3]. Shuningdek, kasb-hunar kolleji o'quvchilari huquqiy tushunchalarini o'zlashtirishda bilish qobiliyatlarini, o'quv ko'nikmalari va bilish imkoniyatini namoyon bo'lish mexanizmlari izchil komponentlarga ega. Ushbu komponentlar o'quvchilarda huquqiy tushunchalarni shakllantirishning ta'minlovchi aniq faoliyat bosqichlarini, ya'ni tushunchalarini shakllantirishda bilish qobiliyatlarini namoyon bo'lishning mexanizmlari, ta'limning boshlang'ich bosqichidagi o'quv ko'nikmalari, mashg'ulotlarda masalalarni hal etish imkoniyatlari, ta'limiy imkoniyatlari, tushunchalarni izohlash uchun maxsus rezervlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Q.Ibaydullayev esa o'z ilmiy izlanishlarida yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirishni ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi sifatida qaraydi. Bunda yoshlarni huquqiy savodxonlikka yetaklovchi tadbirlarning o'rni muhim bo'lib, bunday ma'naviy, huquqiy tadbirlarni o'tkazish mavsumiy emas, doimiylikka aylansa, o'quvchilarning ongi va qalbiga samarali ta'sir ko'rsatishi muallif tomonidan e'tirof etilgan. Qonunga itoatkorlik aql-idrok, vijdon, ichki e'tiqod mahsuli bo'lib, o'quvchilarimizning bunday olijanob fazilati ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali namoyon qilinadi. O'quvchilarimizning aksariyati qonunlarga ongli ravishda qanchalik og'ishmay rioya qilsa, kelajagimizning egalari bo'lmish yosh avlodning e'tiqodi qanchalik mustahkam bo'lsa, yurtimizda demokratiyaning poydevor tamoyillari shunchalik kuchli kafolatlangan bo'ladi, deydi muallif [4].

1-jadval

Huquq fani o'qituvchisi bilan o'quvchi munosabat ko'rsatkichlari

Faoliyat jihatlari	O'qituvchi		O'quvchi	
	X	σ	X	E
Hissiy	5,87	1,02	4,37	1,70
Bilish	4,18	1,10	3,37	0,95
Xulq-atvor	4,75	1,00	4,25	1,23

Izoh: x-o'rtacha arifmetik qiymat, σ -standart og'ish

Anketadagi munosabatning "hissiy" jihati o'qituvchining o'quvchilari bilan munosabati shogirdlarida narsa va hodisalar, atrofdegilarga munosabat ko'nikmalarini, turli xildagi hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, shaxslararo munosabatlarga kirishishga o'rgatish, o'zaro ishonch va hurmat tuyg'ularini shakllanishi lozimligini ifodalaydi. "Bilish" jihati esa o'qituvchining faoliyati asosan shogirdlariga bilim berishga, savodxonligini oshirishga, ko'proq ma'lumotlar bilan qurollantirishga qaratilgan. Ularning nuqtai nazaricha, o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi shogirdlarining xulq-atvorini tartibga solishga va atrofdegilar bilan muomala qilishga o'rgatishdan ko'ra, fan bo'yicha bilim berish muhim deb hisoblanadi.

"Xulqiy" jihati esa o'qituvchi o'z munosabatini o'quvchilariga to'g'ri-noto'g'ri nimaligini tushunishiga, xatti-harakatlarini tartibga solishga, mas'uliyat va javobgarlik hissini, o'zaro hurmat, qadr-qiymat va insonlarni e'zozlash tuyg'ularini kamol toptirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Tajriba-sinov natijalarida huquq fani o'qituvchisi bilan o'quvchilar munosabatida "hissiy" jihat (5,87 ball va 4,37 ball) ustuvor bo'ldi. Demak, o'qituvchi o'quvchilarini atrofdegilar bilan munosabatga kirishishga, kutilmagan hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, shaxslararo munosabat qoidalarini o'zlashtirishga, o'zaro ishonch va hurmat tuyg'ularining shakllanishiga ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Tahlil va natijalar. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda yoshlarda huquqiy tushunchalarni shakllantirish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlarining tushunchalar shakllanishidagi o'rni masalasini o'rganishga harakat qildik. Shu maqsadda tajriba-sinov ishlarida Qashqadaryo viloyati G'uzor tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli № 7 maktabning yuqori sinf o'quvchilari jalb etildi. Buning uchun maktab o'quvchilari bilan huquqshunoslik fani o'qituvchilarining o'quv mashg'ulotlari doirasidagi faoliyati ustida tajriba-sinov o'tkazildi. Chunki ta'lim jarayonining samaradorligi o'quv mashg'ulotini tashkil etishga, o'quv motivlarining shakllanganligi, o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlarini ijobiy tashkil etilishiga bog'liq.

Agar muammoni maktab o'quvchilarida huquqiy tushunchalarning shakllanishi bilan bog'lab izohlaydigan bo'lsak, huquqshunoslik fani o'qituvchisining muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarda huquqiy tushunchalarning shakllanishidan iborat. Bu esa o'quvchilarda abstrakt va mantiqiy tafakkurning shakllanishi va rivojlantirish bilan chambarchas tarzda kechadi. O'quvchilarning huquqiy tushunchalarni o'zlashtirganlik darajasi esa ularning bilimlarni egallashdagi muvaffaqiyatidan dalolat beradi va navbatdagi o'quv materiallarini o'zlashtirishni kafolatlaydi.

O'quvchining huquq faniga qiziqishi bilimlarni o'zlashtirishning bir sharti hisoblansa, bunda ijobiy ta'lim muhitining o'rni ahamiyatlidir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan o'quv munosabatlarini to'g'ri tashkil etilmaganligi bilimlarni o'zlashtirishda o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta. Tadqiqotimizda huquq fani o'qituvchisi bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar "O'qituvchi bilan o'quvchi munosabati" anketasi yordamida o'rganildi. Anketaning mohiyatiga ko'ra o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlari bilish, his-tuyg'u va xulqiy jihatdan tahlil etildi (1-jadval).

Ikkinchi o'rinda esa o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatida "xulq-atvor" jihatini muhim deb hisoblaganlar (4,75 va 4,25 ball). O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarini hayotga tayyorlashi kerak degan xulosa bilan yondashayotganliklarining guvohi bo'lindi. Bundan ko'rinadiki, o'qituvchining o'quvchilarda xatti-harakatlarini tartibga solish, mas'uliyat va javobgarlik hissining shakllanishiga, insonlarni hurmat qilish va e'zozlashga o'rgatish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifasi sifatida qarashlaridan dalolat bermoqda. Bu holat o'qituvchining o'quvchilariga tarbiyachi sifatida ko'proq ta'sir ko'rsatayotganligidan dalolat bermoqda.

"Bilish" jihati o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatining o'ziga xos tomoni sanaladi. Aynan ushbu jihat o'quvchilarning huquqiy tushunchalarni o'zlashtirishida muhim o'rin tutadi (4,18 va 3,37 ball). O'qituvchi bilan o'quvchilarning natijalari ham munosabatni bilish jihati bo'yicha quyi ko'rsatkichni aks ettirdi.

O'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlaridagi ichki moslik holati o'rganildi va korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Korrelyatsion tahlil o'quvchilarning o'qituvchilari bilan munosabatining uchala jihati o'zaro aloqadorlikka ega degan xulosani beradi: "hissiy" munosabatning ijobiy tus olishi, "bilish" ($r=0,452$, $r \leq 0,01$) va "xulq-atvor" ($r=0,220$, $r \leq 0,05$); o'qituvchi munosabatining "bilish" jihatidan ijobiy

o'zgarishlarga erishishi "xulq-atvor" jabhalarida rivojlanishini ($r=0,258, r \leq 0,05$) ifodalaydi (2-jadval).

2-jadval

Huquq fani o'qituvchisi bilan o'quvchi munosabati ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlar (o'quvchilarning ko'rsatkichi asosida)

Faoliyat jihatlari	Hissiy	Bilish	Xulq-atvor
Hissiy	1	0,452**	0,220*
Bilish		1	0,258*
Xulq-atvor			1

Izoh: ** $p \leq 0,01$; * $p \leq 0,05$

O'quvchilar o'qituvchilarini munosabat jihatlari o'rtasida uyg'unlikka ega. Bu holat ta'lim jarayonini tashkil etish talablari, o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorligi va ta'lim subyekti shaxsi uning diqqat markazida turishini ko'rsatmoqda.

Tajriba-sinov natijalariga ko'ra o'quvchilar huquq fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini va ta'limning texnik vositalarini to'g'ri tatbiq etish psixologik jihatdan imkoniyatlarini yuzaga chiqishiga olib kelishi yana bir bora tasdiqlanmoqda. Bu esa huquq fani bo'yicha o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlarining yaxshilanishiga, ta'lim-tarbiya jarayonida ortiqcha zo'riqishlarni bartaraf etishga, taqdim etilayotgan o'quv materiallarini ko'rgazmali taqdim etilishiga va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, huquqiy savodxonlik shaxs barkamolligining muhim komponenti sifatida o'z qiymatini hech qachon yo'qotmaydi. Hozirgi davrda subyektlarning huquqni bilishlari murakkab o'zgarishlar sharoitida amalga oshirilayotganligi sababli ularni huquqiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni aniq hamda ilmiy asoslangan metodologik yondashuvni taqozo etadi. Shu o'rinda maktab o'quvchilarida huquqiy savodxonlikni oshirish va huquqiy ongning shakllanishi uchun maxsus fanlardan o'quv-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda huquqshunoslik fani o'qituvchisi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, o'quvchilar huquq fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini va ta'limning texnik vositalarini to'g'ri tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. - 1997. - №9. - 227- modda. -35 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi Farmoni // Xalq so'zi.- 1997.- 26 iyun.
3. Jo'rayev B. Kollej o'quvchilari yuridik tushunchalarni o'zlashtirishida asab tizimining o'ziga xos ahamiyati // Zamonaviy ta'lim.- Toshkent, 2015.-№ 6. - B. 17-23.
4. Ibaydullayev Q. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish – ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye. 2019, 5(78)
5. G'oziyev E. G'. Ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining o'sishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.-56 b



Ummatali TO'RAXANOV,
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: uturaxonov@mail.ru

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti M.Boltayeva taqrizi asosida

THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL STRUCTURE OF SELF-IDENTIFICATION OF FUTURE TEACHERS

Annotation

This article discusses the formation of personality as a social phenomenon, its socio-psychological features. It also covers issues of fundamental research into the problem of identity are also covered. Research works of foreign and local scientists were used to reveal the topic of the article. The results of the article can be used in research in the field of pedagogy.

Key words: Identity, personality, psychology, world of information, crisis, consciousness, identification, comparison, alignment, mechanisms, conscious identity.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА САМОИДЕНТИФИКАЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается становление личности как социального феномена, его социально-психологические особенности. Также освещаются вопросы фундаментального исследования проблемы идентичности. Для раскрытия темы статьи использованы исследовательские работы зарубежных и отечественных ученых. Результаты статьи могут быть использованы в исследованиях в области педагогики.

Ключевые слова: Идентичность, личность, психология, мир информации, кризис, сознание, идентификация, сравнение, выравнивание, механизмы, осознанная идентичность.

BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARINING O‘Z-O‘ZINI IDENTIFIKATSIYA QILISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TUZILMASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsda identifikatsiya ijtimoiy fenomen sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muhokama qilingan. Shuningdek, identifikatsiya muammosini fundamental tadqiq etish masalalari yoritilgan. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida xorijlik va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan foydalanildi. Maqoladan olingan natijalarni pedagogika sohasida olingan tadqiqotlarida foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: Identifikatsiya, shaxs, psixologiya, axborot olami, inqiroz, ong, Identifikatsiyalash, o‘xshatish, tenglashtirish, birday qilish, mexanizmlar, anglangan identifikatsiya.

Kirish. Shaxs uz identikligini anglashi uchun ma’lum bir ijtimoiy guruhda o‘z-o‘zini tavsiflay olishi va qandaydir rol ni bajarishi talab etiladi. E.Erikson Identifikatsiyani oltita parametrini taklif etadi:

1. Identifikatsiya – bu individuallik asosida xam, ijtimoiy-madaniy turmush tarzi asosida xam lokalizatsiya kilingan jarayon.

2. Identifikatsiyaning shakllanishi insonning barcha psixik faoliyatida doimiy ongsiz aks ettirish bilan boglangan.

3. Identifikatsiyaning shakllanishi – bu doimiy uzgarishdagi va rivojlanishdagi jarayondir.

4. Identifikatsiyaning shakllanishi – bu ma’lum bir shaxsning ayni vaktidagi ichki inkizozlari tarixiy inkizozlar ta’siri natijasida kelib chikuvchi jarayondir.

5. Identifikatsiyaning shakllanishi – bu fakat ijtimoiy yoki individual psixologiya shartlariga tugri kelmaydigan doimiy rivojlanayotgan insonning jarayoni.

6. Identifikatsiyaning shakllanishi – bu insoniyat dunyosining yangi kirralarini ochuvchi yangi metodlar zarurati bilan boglangan yangicha fikrlash va kuzatish jarayonidir [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dj. Marsiya identifikatsiyani «o‘zini-o‘zi yaratadigan, qobiliyatlarini, e’tiqodlarni va inqirozlarni yengib chiqadigan individual-tarixiy dinamikani tashkil etuvchi» ego tuzilishi deb ta’riflaydi.

A. Vaterman identifikatsiyani aksiologik jihatlarini ta’riflashga xarakat kiladi. «Identifikatsiya insonda o‘zini-o‘zi anglashi va hayotda kuzatadigan e’tikod va kadriyatlarini

tanlash asosida shakllanadi». A. Vatermanga kura, «SHaxsda identifikatsiyani shakllantirishning eng muxim yunalishlari: ijtimoiy rollarni qabul qilish, kasb tanlash, siyosiy qarashlarni rivojlantirish, ma’naviy, axlokiy va diniy e’tikodlarni kayta baholashdir» [2].

O‘z-o‘zini identifikatsiya qilishning nazariy va metodologik asoslariga tayangan holda, uning mohiyatini va boshqa unga yaqin hodisalar bilan aloqasini aniqlash bilan birga uning ijtimoiy-psixologik mexanizmini ochish ham muhimdir.

Tadqiqot muammolari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, birinchi navbatda o‘z-o‘zini aniqlash mohiyatan maxsus jarayon bo‘lib, tashqi dunyoni tahlil qilish, mazmuni va ahamiyatini farqlash, aniqlangan ob’ektlarni umumlashtirishga qaratilgan aqliy faoliyatdir.

Shaxsiyat, hayot yo‘lini qurish inson hayotining uzoq muddatli tartibga solinishiga asoslangan o‘tmish, hozirgi va kelajak haqidagi g‘oyalar tizimi tomonidan boshqariladi. Insonning ichki dunyosi doimiy ziddiyatlar holatida bo‘lib, ular keskinliklarda namoyon bo‘ladi. Klassik psixodinamik va psixoanalitik yondashuvlarga ko‘ra, bunday stressning manbaiga inson uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ichki kurash, qarama-qarshi pozitsiyalar va fikrlarga kiradi [1].

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, shaxs ko‘pincha ichki qarama-qarshiliklarini tushunmaydi, lekin ular o‘zining hayotiy faoliyatidagi boshqa sohalariga taalluqli ortiqcha tashvish hissini tug‘diradi va odatda xatti-harakatlarga halokatli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday

tartibsizliklarni faqatgina pozitsiyalarni taqqoslash va tegishli qarorlar qabul qilish orqali bartaraf etish mumkin. Ushbu yondashuv o'z-o'zini identifikatsiya qilish, o'zgarishlarini amalga oshiradigan mavjud ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni tushunish va ajratishga yordam beradi.

O'z-o'zini aniqlash tizimini shakllantirish manbalari insonning bolaligidan to hozirgacha kelib chiqadigan turli xil identifikatsiyalar bo'lishi mumkin. Odatda, bolalarning asosiy axloqiy va qimmatli xususiyatlari yaqin atrof-muhit (ota, ona, aka-uka, opa-singil va boshqalar) ta'siri ostida shakllanadi. Maktab yoshidagi bolaning dunyoqarashi, shaxslararo ta'sir doirasi o'qituvchilar, sinfdoshlar, do'stlar, maktab rahbariyati va boshqalar ta'sirida sezilarli darajada kengayadi. Bunday holda, shaxs barcha qadriyatlarini bir butun holga yig'ish, to'plash va o'z shaxsiy idrokining yagona suvratini ishlab chiqish – tasavvur etish vazifasini bajara boradi.

Talaba yoshida, odatda, rivojlanishning muayyan muhim bosqichlarini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan jarayonlar mavjud. Ayniqsa, talaba yoshlar vaqtinchalik uzluksizligini anglash muammosiga duch keladi. Uning uchun hozirgi o'smirlik davri va kelajak o'rtasidagi to'g'ri aloqani, ya'ni kelajak ishlarini rejalashtira olish barobarida komil va mustaqil shaxs hamda professional tanlovni amalga oshirishga erishish zarur. Bu holat bu bosqichda talaba oldida turgan tanlovlarning eng muhim qismiga aylanadi.

Shu orqali ijtimoiy-madaniy va guruh haqiqati (ijtimoiy qadriyatlar, ma'lum bir joyga xos bo'lgan xatti-harakatlar, guruh me'yorlari va boshqalar) shaxsning ongiga ta'sir qiladi, o'z-o'zini aniqlash uchun mustahkam asos yaratadi, natijada identifikatsiya tizimini tashkil etuvchi shaxsning turli identifikatorlari shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talaba yoshlarining identifikatsiyalash tarkibi odatda gorizonttal va vertikal o'lchovda ko'riladigan identifikatsiya tizimi bilan belgilanadi. Gorizonttal o'lchov talabalar yoshlarini turli ijtimoiy jamoalarga kiritishni tavsiflovchi identifikatorlar soni va mazmuni bilan belgilanadi. Ijtimoiylashuvning har bir yosh bosqichi, guruhlari, oliy dargoh yoki jamiyat sohalari bilan bog'liq bo'lgan qarashlar bilan mos keladi. Bu taxminlar, bir tomondan, jamiyatning ijtimoiy-madaniy sharoitlariga, boshqa tomondan, shaxsning yoshi xususiyatlaridan kelib chiqqan individual psixologik xususiyatlari va imkoniyatlariga bog'liq. Agar talaba-yoshlarini identifikatsiya qilish tuzilmasining gorizonttal o'lchovini tavsiflaydigan bo'lsak, u birinchi navbatda ushbu ijtimoiy identifikatsiya guruhi uchun muhim bo'lgan tizim hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shaxsiyat o'zini o'zi identifikatsiya qilishning tuzilishi bolalikdan boshlanib, hayotiy faoliyatda boshqalar bilan o'rnatilgan munosabatlar jarayonida yuzaga keladi. Jarayonlardagi muhim identifikatorlar bu boradagi rollarni tanlab tanlash orqali belgilanadi. Natijada shaxs atrof-muhitga moslashadi. Muhim identifikatsiyalar tabiiy depozitlar, asosiy ehtiyojlar, samarali psixologik himoya, muvaffaqiyatli sublimatsiyalashlar va doimiy rollar bilan birga o'z-o'zini aniqlash tizimiga kiradi.

So'rovnomalar orqali umumiy xarakteristikasi o'rganilayotgan talabalarining muayyan ichki noaniqlik holatini, tegishli ichki o'zgarishlarga tayyorligini, zarur o'zgarishlarni, agar kerak bo'lsa, o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilish darajasiga bog'lab, yanada maqbul yo'l bilan o'tkazish ularning yana qanday qobiliyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Muayyan hayot sohalari – professional tarzda o'z taqdirini belgilash, dunyoqarashni shakllantirish, gender va ijtimoiy rolni qabul qilish. jamiyatda turli ijtimoiy rollarda o'zini sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Insonning identifikatsiyasini aniqlaydigan jamiyatning eskirgan shakllari o'rnini yangilari bilan almashtirish kerak, bu esa o'z navbatida shaxsni ijtimoiylashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu holatlarda qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi, o'z-o'zini aniqlashning yangi bosqichlariga o'tish natijasida bekor qilingan tegishli identifikatsiya inqirozlari namoyon bo'ladi, bu shaxsning muayyan o'zgarishlari, ya'ni muhim rivojlanish jarayoni bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korrelyatsion tahlil ko'rsatkichlar o'rtasida sezilarli aloqalar yo'q. Ular:

- a) «o'quv kursi», «yosh «va» moddiy o'zim»;
- b) «o'quv kursi», «yosh»va» jismoniy shaxs».

Bu holat bo'lg'usi o'qituvchi o'z-o'zini identifikatsiya qilish sohasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniq ko'rsatib turibdi, bu yerda moddiy va jismoniy «men» hali ahamiyatsiz pozitsiyalarga ishora qiladi. SHu bilan birga, bu jihatlar «Prospectiv men» prizmasidan foydalanib, yaqin kelajakda talaba muhim ahamiyatli mavqeiini topadi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, «men kimman?» usuli bo'yicha talabalarining psixodiagnostik tekshiruvi natijalari (n=273) degan xulosaga kelish mumkin.» (Muallif M.Kun, T.Mcpartland, N.L.Ivanova: T.V.Rumyantsevaning modifikatsiyasi) U kelajak o'qituvchilarning 26 identifikatsiya qilish pozitsiyalarini aniqlab berishga imkon berdi, ular birlashganda etti mazmunli identifikatsiya xususiyatlarining asosini tashkil etdi. Korrelyatsiya tahlillari natijasida (Spearman Rank mezonlari bo'yicha), yetti mazmunli identifikatsiyalash xususiyatidan quyidagi besh statistik jihatdan ahamiyatli va bo'lg'usi o'qituvchilarning o'z-o'zini aniqlash tuzilmasining gorizonttal tarkibiy qismlari sifatida tanlangan:

- 1) «ijtimoiy men» (r=0,65 da p<0,05), bo'lg'usi o'qituvchilarning etti identifikatsiya pozitsiyasini qamrab oladi;
- 2) «faol men» (r = 0,36 da p<0,05), bo'lg'usi o'qituvchilarning ikkita identifikatsiya pozitsiyasini qamrab oladi;
- 3) «refleksiv men» (r=0,34 da p<0,05), bo'lg'usi o'qituvchilarning ikkita identifikatsiya pozitsiyasini qamrab oladi.
- 4) «perspektiv men» (r=0,30 da p<0,05), bo'lg'usi o'qituvchilarning to'qqizta identifikatsiya pozitsiyasini qamrab oladi.
- 5) «kommunikativ men» (r=0,27 da p<0,05), bo'lg'usi o'qituvchilarning ikkita identifikatsiya pozitsiyasini qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy oliy ta'lim muassasasi sharoitida har qanday ijtimoiy-psixologik hodisani rivojlantirishning maqsadli vositalarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonida shaxsning ajralmas tuzilishini va bo'lg'usi mutaxassisning professional tarkibiy qismini shakllantirishni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot doirasida bo'lg'usi o'qituvchining o'z-o'zini identifikatsiya qilishni rivojlantirish jarayonida professional va tor yo'naltirilgan sohalarni uyg'unlashtirishning zaruriy ehtiyojni oldindan belgilab beradi. Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, bunday murakkab vazifa turli xil ijtimoiy-psixologik texnologiyalarni samarali ravishda hal qilishi mumkin, ular zamirida ijtimoiy-psixologik trening, ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi, ta'lim oluvchining shakllanishini psixologik ta'minlash va uning shaxsiy rivojlanishi yotadi.

ADABIYOTLAR

1. Muxamedova D.G., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik, - Toshkent, "Mumtoz so'z" 2018.-287 b.

2. Rasulov A.I. Psixodiagnostika: o'quv-metodik qo'l. / A.I. Rasulov; O'zR OO'MTV, M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. – T.: Mumtoz so'z, 2010. – 152 b.
3. Antonova N.V. Problema lichnostnoy identifikatsii. // Voprosy psixologii. 2010. №4. - S. 120-131.



UDK:378.013:17.022.1

Aziza TURGUNOVA,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, PhD
E-mail: aziza.turgunova.88@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Mirqosimova taqrizi asosida

GERONTOPEDAGOGIKA: “MUVAFFAQIYATLI KEKSAYISH” YAPONIYA TAJRIBASI MISOLIDA

Annotatsiya

Maqola gerontopedagogikaga asoslanib, olimlarning tadqiqotlariga tayanib, “Muvaffaqiyatli keksalik”ka erishish bo‘yicha ilmiy nazariy xulosalar chiqarilgan, hamda keksalikning individual-psixologik xususiyatlari, jismoniy va kongnitiv qobiliyati, sog‘lom qarish, ijtimoiy faollik, jamiyatda keksalikning maqomi Yaponiya tajribasi misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Individual, kongnitiv qobiliyat, gerontopedagogika, ijtimoiy faollik, sog‘lom qarish, muvaffaqiyatli keksalik, g‘amho‘rlik, an‘ana.

ГЕРОНТОПЕДАГОГИКА: ЯПОНСКИЙ ОПЫТ «УСПЕШНОГО СТАРЕНИЯ»

Аннотация

В статье проанализированы основе геронтопедагогике, на основе исследований ученых сделаны научно-теоретические выводы по вопросам достижения «Успешной старости», а также индивидуально-психологические особенности старости, физических и познавательных способностей, здорового старения, социальной активности, статус старости в обществе были проанализированы на примере Японского опыта.

Ключевые слова: Личность, познавательные способности, геронтопедагогика, социальная активность, здоровое старение, успешное старение, забота, традиция

GERONTOPEDAGOGY: JAPANESE EXPERIENCE OF “SUCCESSFUL AGING”

Annotation

The article analyzes the basis of gerontopedagogy, based on the research of scientists, scientific and theoretical conclusions are drawn on the issues of achieving “Successful old age”, as well as the individual psychological characteristics of old age, physical and cognitive abilities, healthy aging, social activity, the status of old age in society was analyzed using an example Japanese experience.

Key words: Personality, cognitive abilities, gerontopedagogy, social activity, healthy aging, successful aging, care, tradition

Kirish. Yaponiya dunyoda eng ko‘p keksalar istiqomat qiladigan davlat hisoblanib, oxirgi o‘n yil ichida mamlakatda keksalar sonining oshib borishi rivojlanib borayotgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Jamiyatda umrguzaronlikning oshishiga ikkita sababni keltirish mumkin; birinchisi aholi turmush darajasining oshishi, tibbiyotning rivojlanishi bo‘lsa, ikkinchi sabab, yosh yaponlarning kech yoki umumian oila qurmayotganligi natijasida tug‘ilishlar sonining keskin kamayishini keltirish mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, Yaponiyada keksalar aholining 29,1% ni tashkil etadi. Bu esa aholisi 100 000 va undan ko‘p bo‘lgan 200 mamlakat va mintaqalar orasida eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanib, ikkinchi o‘rinni Italiya (24,5 foiz), uchinchi o‘rinni Finlandiya (23,6 foiz) egallaydi.

Mamlakat tarixidagi keksayish tendensiyalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1950-yil urushdan keyingi qayta qurish davrida 65 va undan katta yoshdagilar aholi umumiy sonining 5% dan kamrog‘ini tashkil etgan bo‘lsa, 1970-yil ya‘ni, yuqori iqtisodiy o‘shish davrida taxminan, 7,1% ga oshdi hamda 1995 yilda 14,6% ni tashkil etdi. 2015-yil holatiga ko‘ra, 65 yoshdan oshganlarni har to‘rtinchi yaponiyalik tashkil qildi. 2010-yilga kelib bu ko‘rsatkich 21% dan ortiqni tashkil qilgan. Keksalar haqidagi kitobga (Vazirlar Mahkamasi, 2018-yil) ko‘ra, Yaponiyada 2025-yilga kelib 65 va undan katta yoshdagilar 36,77 million, 2065-yilga kelib esa har 2,6 kishidan 1 nafari 65 yoshni tashkil etishi kutilmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 75 yoshdan oshgan har 3,9(4) kishidan biri 75 yoshdan oshgan insonni tashkil etishi tahmin qilinmoqda. Bugungi kunda mamlakatda 65 yoshdan oshganlar soni 36,4

million kishiga yetadi, bu ko‘rsatkich aholining 29,1 foizini tashkil etadi[4].

Aholining qarishi nafaqa to‘lovlari, keksalarni parvarishlashni tashkil etish va ularga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun qo‘shimcha mablag‘larni talab etadi. Aholining keksayishi bir tomondan xizmat ko‘rsatish sohasining oshirishini, ikkinchi tomondan ushbu avlod vakillarining boy hayotiy tajribalaridan samarali foydalanishni talab etadi. Mamlakatda “65 yoshdan kattalar” yoshlariga qaramasdan faol turmush tarzini davom ettirmoqda. Kexsa yoshdagilarning 22 foizi faol mehnat bilan shug‘ullanadi, ko‘pchiligi volontyorlik asosida ta‘lim muassasalari faoliyatida faollik ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson keksalik bosqichiga yetib kelar ekan, ijtimoiy faollikning susayishi, sog‘likdagi o‘zgarishlar, oilaviy muammolar, yaqin insonlaridan judo bo‘lish, qarishdan qo‘rqish kabi holatlar yuz beradi va ruhiyatga sal‘biy ta‘sir ko‘rsatadi. Insonning yillar o‘tib keksayib borishi biologik holat hisoblanib, bu jarayonni to‘g‘ri qabul qilish, tayyorlanish, boshqa yosh davrlari kabi mazmunli o‘tkazish umrguzaronlikni oshishida muhim rol o‘ynaydi. Bu borada dunyoning yetakchi ta‘lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ko‘plab samarali natijalarga erishilgan. Jumladan, Finlandiya Xelsinki universiteti olimlari Urtamo Annele, Jyvaskorpi Satu, Strandberg Timolar tomonidan “Muvaffaqiyatli keksalik” bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularning fikricha “Keksalikning salbiy tomonlari yo‘q, keksalik ijobiy dunyoqarash, o‘shish, mehnatsevarlik va qoniqishni o‘z ichiga olgan hodisa”[1] sifatida qaraladi.

Tadqiqotchilar Rou va Kanning klassik konsepsiyasiga ko'ra, keksa yoshdagilarning muvaffaqiyatli qarishi kasalliklarsiz yuqori jismoniy harakat, ijobiy psixologik muhit va ijtimoiy faoliyat sifatida tavsiflanadi[8]. Ushbu konsepsiyada muvaffaqiyatli qarish tadqiq qilingan bo'lsada, Fernandez Ballesterosning tadqiqotlarida sog'lom qarish, faol qarish, samarali qarish va yaxshi qarish kabi bir nechta atamalar ishlatilgan Jamiyatda keksalarning "Muvaffaqiyatli qarishi" mamlakatdagi ijtimoiy muhit hamda shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq. Aholi turmush darajasi, sog'liqni saqlash siyosatining belgilangan talablarga javob berishi, individual jihatdan, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, keksalarning jismoniy va kognitiv faoliyati bilan belgilanadi[2], Stenford universiteti professori James Friesning fikricha "Muvaffaqiyatli qarishda asosiy e'tibor hayot davomidagi ijtimoiy hayot va sog'lom turmush tarzi ahamiyatga ega"[3]. Muvaffaqiyatli qarish jismoniy, funksional, ijtimoiy va psixologik salomatlikni o'z ichiga olgan ko'p qirrali tushuncha bo'lganligi sababli, keksalik bosqichi, gerontologiya, androgogika va gerontopedagogika sohasini tadqiq etishda ushbu jarayonlarning obyektiv va subyektiv sharoitlarini hisobga olish lozim.

Janubiy Koreya olimlari Sin-Hyang Kim va Sihyun Parklar muvaffaqiyatli qarishni tavsiflovchi to'rtta omilni aniqladilar; kasallik va nogironlikka chalinmaslik; yuqori kognitiv qobiliyat; aqliy va jismoniy funksiyalarga ega bo'lish; ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish[5].

Meidzi(Meidzi) universiteti professori Ryuichi Kaneko(Ryuichi Kaneko) "XXI-asrda barcha mamlakatlarda uzoq umr ko'ruvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi, bu asrni umuman olganda keksalik asri deb xam atash mumkin, Yaponiya, afsuski, hammadan oldinda"[4], – deydi.

Yaponiya olimlarining tadqiqotlarida jamiyatda keksalarning umrguzaronligi, sog'ligini saqlash, ish o'rni yaratish, ijtimoiy faolligini oshirish, keksalikda volontyorlik sohasi kabi yo'nalishda tadqiqotlar olib borilmoqda. Yaponiyalik olim Koji Takenaka (1996) o'zining ilmiy tadqiqotlarida keksalik ijtimoiy faollik va jismoniy funksiyaning pasayishi, ruhiy salomatlikning buzilishi kabi yoshga bog'liq o'zgarishlar bilan kechadi deydi va bu davrni quyidagicha tasvirlaydi.

- o'z yaqinlarini yo'qotish;
- o'z qobig'ida qolib ketish va yolg'izlik;
- o'limni anglash;
- keksalik yoshiga moslashish;
- shaxsiyat va uning o'zgarishi[9].

Umuman olganda olimlarning tadqiqotlaridan ko'rinib turibdiki keksalik davrini mazmunli va samarali o'tkazishda hayot faoliyati, ijobiy va pozitiv dunyoqarash, jismoniy va kognitiv qobiliyat, ijtimoiy faollik o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu faoliyatni samarali tashkil qilish, keksalarning tajriba va tarbiyasidan samarali foydalanish yo'llarini gerontopedagogika sohasi tadqiq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatda keksa avlodni ijtimoiy faolligi hamda hayotga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, sog'lig'ini saqlash va bu davrni mazmunli o'tkazishni tashkil etish maqsadida ta'lim standartiga asosan kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Tizimda uch yil o'qish talab etiladi, lekin yangi joriy etilgan ta'lim shakli bo'lganligi sababli, unchalik mashhur emas hamda mutaxassislar yetishmasligi kuzatiladi.

Bugungi kunda kadrlarning yetishmasligi, malakasiz kadrlarni kamroq oylik maoshi evaziga ishga jalb qilinishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, Yaponiya hukumati keksalar bo'lgan oila a'zolari uchun ushbu ta'limni joriy etishga qaror qilgan. Shifokorlar, hamshiralar, keksalar bilan ishlaydigan boshqa kasb egalari keksalarga g'amxo'rlik qilish, ular bilan qanday muloqotga kirishish kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun davlat tomonidan alohida ta'lim dasturi ishlab

chiqilgan. Shu bilan birga, keksalar parvarishi bo'yicha ularning ehtiyojlariga qarab g'amxo'rlik qilishning individual rejasini ishlab chiqadigan menejer lavozimi joriy etilgan.

Yaponiyada davlat tomonidan keksa avlod vakillarining mazmunli hayot kechirishlariga ko'maklashish maqsadida turli dasturlar moliyalashtiriladi. Har qanday yangi dasturni amalga oshirishdan oldin loyihalar samarasi o'rganiladi, so'ngra eng samaralisi tanlab olinib, butun Yaponiya bo'ylab joriy qilinadi. Bugungi kunda Tokioning Vakoshi hududida qo'llaniladigan tizim ushbu loyihalar doirasida joriy etilgan. U yerda keksalar moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlanib, ular uchun sport o'yinlari, jismoniy mashg'ulotlar tashkil etilgan, shu bilan birga keksalik sug'urtasi narxlarini sezilarli darajada kamaytirilgan. Mamlakatda keksalarga bo'lgan alohida etibor tufayli ularning umrini uzayishiga, hayotga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga, ushbu davrni sermazmun o'tkazishga erishiladi.

Yaponiyada bundan 10 yil oldin keksalarga nisbatan yoshni kamsitish, oilalar hamda jamoat joylarida zo'raonlikning oldini olish bo'yicha maxsus dastur qabul qilingan. Bugungi kunda keksalarga nisbatan zo'raonlik bo'lsa, Yaponiyaning qaysi nuqtasida yashashidan qat'iy nazar, murojaat qilish imkoniyati mavjud bo'lgan maxsus xizmatlar faoliyat yuritadi. Yaponiyada yoshni kamsitish tushunchasi "ageizm" deb ataladi.

So'nggi vaqtlarda ushbu tushuncha qo'llanilishining kamayishiga erishildi. Jamiyatda keksalik maqomining oshishiga nafaqa yoshida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatining mavjudligi va insonlarning yoshiga qarab emas, balki ularning qobiliyatlariga qarab baho berish lozimligini taklif qiladigan kompaniyalar ko'paya boshladi.

Tahlil va natijalar. Keksalik yoshiga hos bo'lgan holatlar yaponlar uchun o'z ta'sirini o'tkazmaydi, ular 65 yoshga yetganlarida umrlarining uchdan ikki qismini bosib o'tdik deb hisoblashadi va shu sababdan Yaponiyada yo'l harakatini tartibga soluvchi keksalar hamda katta yoshli haydovchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning ko'pchiligi bu ishni moddiy manfaatni ko'zlab emas, balki jamiyat manfaati uchun bajaradi[7]. Har bir yapon keksa avlod vakili davlatning rivojlanishi, millat bolalarining tarbiyasi va ta'limi uchun o'zlarini mas'ul deb hisoblaydi. Shu boisdan har bir yapon millatining yutug'ida keksalarning mehnati yotadi[6].

XX asrning 60-yillarida Yaponiya davlat tashkilotlarida keksalar faoliyat olib boradigan maxsus maktablar ish boshladi. Maktabda keksa avlod vakillari yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga ularni hayotga tayyorlash, ayollarni oilaviy hayotga o'rgatish, bo'lajak onalarni bolalarni parvarishlashga o'rgatishdan tortib hayotda uchraydigan turli xil ijtimoiy muammolarni hal qilishga o'rgatadigan o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu tizim 1980 yildan beri bugungi kungacha zamon talablariga mos holda muntazam faoliyat olib bormoqda.

Jamiyatda oilaga milliy madaniy merosning ajralmas qismi sifatida qaraladi, shuning uchun zamonaviy yapon oilasi an'anaviy, milliy qadriyatlariga sodiq qolgan holda keksa avlod vakillaridan oilaviy an'analarni o'rganadi, saqlab qoladi va kelajak avlodga qanday bo'lsa shunday yetkazadi. Qadriyatlariga ko'ra bobo-buvi, ota-onaga g'amxo'rlik qilish an'anasi ming yillar davomida katta farzand zimmasida bo'lib kelgan va bunday mas'uliyatni odatda yaponlar sharaf sifatida qabul qiladilar. Ammo, qayd etmoq lozimki, bu borada davlat turli dasturlar, volontyorlik tadbirlari yordamida keksalarning hayotini mazmunli o'tishiga harakat qiladi.

Hukumat tomonidan nafaqaga chiqqandan so'ng ishlashga, pul topishga, o'z-o'zini band qilishga imkon yaratilgan. Qadimdan mamlakatda qadriyatga aylangan "Eskisiga murojaat qilib, yangi narsalarni o'rganing" maqoli avlodlar o'rtasidagi vorislikni tizimli tashkil etishni taqozo qiladi.

Yaponiyada keksalarning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitining rivojida ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. 2002-2014-yillarda (Akiyama 2014, Takama and Sugihara 2002) keksa avlod vakillarini ijtimoiy faolligini oshirish hamda davlat siyosatida ishtirokini kuchaytirish konsepsiyasi qabul qilingan.

Konsepsiyada ijtimoiy faol, g'ayratli va yuksak tajribaga ega keksa avlod vakillari jamiyatning rivojlanishida hissa qo'shishi talab etiladi. Konsepsiyada "Keksalar – jamiyat rivojining tarafdorlari" degan bosh g'oya qabul qilingan bo'lib, bu tizim bir tomondan keksalar tajribalaridan foydalanishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, ijodiy va mazmunli faoliyat keksa avlod vakillarining samarali qarishini kafolatlaydi.

Xulosa va takliflar. Yaponiyada tug'ilishlar sonining kamayishi hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi kasblarga ehtiyojning ortib borishi gerontopedagogika sohasiga nisbatan

qiziqishning ortishiga sabab bo'ldi. Keks avlodlar orasida ishsizlikni bartaraf etish, ularning tarbiya va tajriba metodlaridan foydalanish, yangi talab etilgan kasb-korga o'qitish va qayta tayyorlash ehtiyoji kuchaydi. Dunyo ilm-fanida gerontopedagogika sohasi mamlakat hayoti va turmush tarzini ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatdan chuqur va qiyosiy tarzda o'rganuvchi aholishunoslik, demografik, etnografik soha fanlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi.

Gerontopedagogika fanining fan sifatida shakllanishi, funktsiya va vazifalari, "Muvaffaqiyatli qarish", keksalik yoshi va ushbu yoshda kechadigan o'zgarishlar, keksalar bilan muloqot, ular ta'limidan foydalanish, ijtimoiylashtirish masalalari, androgogik tadqiqotlar, gnoseologik va gerontopsixologik nazariyalar haqida har tomonlama tarixiy dalillar asosida ilmiy bilimlarga ega bugungi axborotlashgan jamiyatda alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Anneli U, Jyväkörpi K., Strandberg E. "Definitions of successful ageing: A brief review of a multidimensional". Finland (Helsinki)2019; 90(2): 359–363.
2. Fernandez B.R. The Concept of successful aging and related terms. The Cambridge handbook of successful aging. In: Fernandez-Ballesteros R, Benetos A, Robine J-M, editors. Cambridge University Press; 2019. pp. 6–22.
3. Fries J. Aging, natural death, and the compression of morbidity. New England Journal of Medicine. 1980;303:130–135.
4. Kaneko R. "The Society Created by the Longevity Revolution: Historical Development and Associated Issues." The Japanese Journal of Population, Vol.9 No.1 pp. 2011,135-154.
5. Kim S.H, Park S. A Meta-analysis of the correlates of successful aging in older adults. Research on Aging. 2016;39(5):657–677.
6. Kobayashi T "Nega faqat odamlar qariydi?" (Kodansha Gendai Shinsho) Paperback Shinsho – June 22, 2023
7. Robert L. Clark, PhD and Naohiro Ogawa, PhD. Human Resource Policies and Older Workers in Japan. The Gerontologist. Vol. 36, No. 5, 627-636
8. Rowe J, Kahn RL. Human aging: usual and successful. Science (New York, NY) 1987;237:143–149.
9. Takenaka K, Burbank P. Exercise and behavior change in the elderly Supervised translation Book House H.D. 2005



*Navbahor UMAROVA,
TDPU professor v.b., p.f.d*

Andijon pedagogika instituti professori, p.f.d. M.Halimova taqrizi asosida

AHOLINI IQTISODIY IJTIMOYLASHTIRISHDAGI GENDER O‘ZIGA XOSLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda aholini iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonining avlodlar kontekstida namoyon bo‘lishi tahlillari keltirilgan. Shuningdek ularning iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonida ustivor va usitvor bo‘lmagan qadriyatlar tizimi ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Avlod, gender, ayol, erkak, iqtisodiy ijtimoiylashuv, qadriyat.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация

В статье представлен анализ проявления процесса экономической социализации населения сегодня в контексте поколений. Также в процессе их экономической социализации выявляется система приоритетных и не приоритетных ценностей.

Ключевые слова: Поколение, пол, женщина, мужчина, экономическая социализация, ценность.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF GENDER IDENTITY IN THE ECONOMIC SOCIALIZATION OF THE POPULATION

Annotation

This article provides an analysis of the manifestation of the process of economic socialization in today's population, focusing on different generations. It also examines the prioritized and non-prioritized values within their economic socialization process.

Key words: Generation, gender, women, men, economic socialization, values.

Kirish. Ayollarga bo‘lgan katta e‘tibor xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish borasidagi qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni qabul qilinganligi va eng muhimi ana shu yangi qoidalarni hayotga to‘laqonli joriy etish bo‘yicha xatti-harakatlar asoslantirilgan «yo‘l xarita»lari orqali izchil ishlarni olib borib, aniq amalga oshirilayotganligi ham yangi O‘zbekistonga xos innovasion yondashuvdir.

Yana shu narsa diqqatga sazovorki, hozirgi kunda ayolning vazir, qo‘mita raisi, agentlik direktori va (yoki) hokim lavozimiga tayinlanishi jamiyat tomonidan hayratlanib emas, balki normal, odatiy hol sifatida qabul qilinayotganligi ham aholimiz ongida xotin-qizlarning boshqaruv, intellektual hamda irodaviy imkoniyatlariga baho berishda tub tafakkur o‘zgarishlari ro‘y berayotganligining yaqqol ifodasi sifatida baholanadi.

- ijodiy faoliyat falsafasini jismoniy tarbiya kontsepsiyalari bilan uyg'unlashtirish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik kontsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasabalar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni jismoniy tarbiya o'quv mashg'ulotlariga tatbiq etish, ularni o'z sharoitiga moslashtira olish.

Umuman olganda, kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil etish muammosi qator tadqiqot ishlarida o'rganib chiqilmoqda, biroq alohida fanlar, xususan, jismoniy tarbiya o'quv mashg'ulotlarini innovatsion loyihalash va bunda o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish yo'nalishida muammolar mavjudligicha hal etilmay qolmoqda.

Ammo, hanuzgacha bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar to'laqonli o'z yechimini topmagan.

Holbuki, har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish;

oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish;

oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish; oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqbol g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish;

oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish ta'lim tizimini modernizatsiyalashning tub mohiyatini tashkil etadi.

Har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha quyidagi konkret parametr va ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan manzilli rivojlantirish dasturlari tasdiqlangan:

- oliy ta'lim tizimida yangi ta'lim ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarning, shuningdek, iqtisodiyot sohalarini va hududlarni kompleks rivojlantirishning joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan hamda bakalavriat va magistraturaga talabalar qabul qilishning umumiy ko'rsatkichlarini 2021 yilgacha bosqich-ma-bosqich ravishda 18 foizgacha oshirishni nazarda tutadigan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan parametr va ko'rsatkichlari;

- o'quv binolari, talabalar turarjoylari, axborot-resurs markazlari va boshqa ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash hisobidan yangi o'quv o'rinlarini tashkil etish, yangi o'quv-laboratoriya komplekslarini sotib olish, auditoriyalarni kompyuter texnikasi bilan jihozlash;

- professor-o'qituvchilarning kasb mahoratini, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, shuningdek, ularning xorijiy hamkor oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishi, magistratura, doktoranturada ta'lim olishi hamda respublikamizning tayanch oliy o'quv yurtlari qoshida qayta tayyorgarlikdan o'tishi va malaka oshirishi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha amaldagi tizimni jiddiy takomillashtirish va bu borada moddiy rag'batlantirishning yangi mexanizmlarini joriy etishga ehtiyoj sezilmoqda.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash maqsadida korxonalarining buyurtmasiga asosan, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatini amalga oshiradigan ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'idan, yagona soliq to'lovidan, maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy to'lov va qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi.

Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun

yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar 1,7 trillion so'mdan ziyod bo'lib, ulardan 1,2 trillion so'mi o'quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turarjoylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashga,

500 milliard so'mdan ortiq mablag' esa o'quv-laboratoriya uskunolari, mebel va inventar bilan ta'minlash, umumiy tartibda foydalanishga mo'ljallangan, barcha ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatadigan laboratoriya komplekslarini tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi.

Respublikamizda ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ish uslubini takomillashtirishda optimal-pedagogik usullar izlanmoqda. Ammo bu urinishlar quyidagi kamchiliklar tufayli natijasiz bo'lib qolmoqda:

– bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda mutaxassislik fanlari blokiga kiruvchi "Jismoniy tarbiya" o'quv mashg'ulotlari zamonaviy modifikatsiyalashtirilmayapti;

– tadqiqot doirasida pedagogik jarayon talabalar ta'lim ehtiyojlarini qondirishga moslashtirilmagan;

– jismoniy tarbiya o'qituvchilari talabalarga zamonaviy bilim berishda jismoniy mashqlarni loyihalash texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlariga yetarlicha baho berilmayapti; talabalar ta'lim ehtiyojlarini shakllantirishga,

uni qoniqtirish uchun sharoitlar yaratishga intilish yetarli darajada emas;

– talabalarga jismoniy yo'nalishdagi didaktik vaziyatli topshiriqlaridan foydalanish tartibli va muntazam ravishda olib borilmayapti; bu mazmundagi auditoriyadan tashqari jismoniy-madaniy-oqartuv ishlarining olib borilishi talab darajasida emas;

– talabalarga kelgusi mutaxassisliklari bo'yicha jismoniy madaniyat sohasiga oid loyihalash texnologiyasi ko'pincha, tasodifiy mashqlardan foydalanish evaziga amalga oshirilmogda (ularning mazmuni shaklidan tashqarida qaraladi, o'zaro bog'liq holda ifodalanmaydi, shakli esa mazmunidan alohida olib borilishi kuzatiladi);

– bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari – ertangi kun umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari mazkur muammoning zamonaviy metodologik hamda nazariy asoslari (ayniqsa, nazariy-pedagogik) bo'yicha tavsiyalarga ehtiyoj sezadilar. Binobarin, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish darajasi sust ekanligi tahlillar natijasidan ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil qilishning innovatsion texnologiyalar alohida tadqiqot predmeti sifatida tanlanmaganini ko'rsatib o'tish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Aslanova M.A. Boshlang'ich sinf talabarlari bilan harakatli o'yinlarni tashkil qilish. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2006. - 178 b.
4. Kerimov F.A. Sport kurashi: nazariyasi va usuliyati. –Toshkent: O'zDJTI, 2011. - 286 b.
5. Karimova V. Psixologiya. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2016. – 206
6. Богданова М.А. Социальные и педагогические аспекты развития физической культуры и спорта инвалидов за рубежом. Монография.-Москва:Радуга, 2018.-216с.



Abrorjon XAYDAROV,

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Toshkent harbiy okrugi xodimi

E-mail: abror_a1977@gmail.com

O'zDJTSU dotsenti, PhD F.Yakubov taqrizi asosida

YOSHLARDA JISMONIY TARBIIYA VA SPORTDAN OQILONA FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Аннотация

Maqolada yoshlarda jismoniy tarbiya va sportdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish muammolari o'rganilgan bo'lib, jismoniy tarbiya va sportning inson shaxs bo'lib shakllanishidagi o'rni tadqiq etilgan hamda shaxs ijtimoiylashuvidagi mazmun va mohiyat yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, foydalanish, madaniyat, munosabatlar, dunyoqarash, tafakkur tarzi, inson, shaxs, jamiyat, jismoniy tarbiya, sport, ijtimoiylashuv, salomatlik.

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА У МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье исследуются проблемы формирования культуры рационального использования физической культуры и спорта у молодежи, исследуется роль физического воспитания и спорта в становлении человека как личности, а также освещается содержание и сущность социализации личности.

Ключевые слова: молодежь, употребление, культура, взаимоотношения, мировоззрение, образ мышления, личность, персона, общество, физическое воспитание, спорт, социализация, здоровье.

PROBLEMS OF FORMATION OF CULTURE OF RATIONAL USE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS AMONG YOUNG PEOPLE

Annotation

The article examines the problems of forming a culture of rational use of physical culture and sports among young people, examines the role of physical education and sports in the formation of a person as a person, and also highlights the content and essence of personality socialization.

Keywords: youth, use, culture, relationships, worldview, way of thinking, personality, persona, society, physical education, sports, socialization, health.

Kirish. Bizga ma'lumki jahonda davlatlar xalqining salomatligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Albatta, bunday yondashuvga pandemiyaning rivojlanishi sabab bo'lsa-da, bugungi ekologik vaziyat, insoniyatning ko'payib borishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi ham turli xil kasalliklarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shuningdek, jamiyatdagi tabaqalashuvning ortib borishi, insonlardagi befarqlikning avj olishiga olib kelmoqda. Natijada mazkur muammolarni bartaraf etishga bo'lgan zaruriyat ortib bormoqda.

Asosiy qism. Jahon va mamlakatimiz olimlarning fikricha mazkur holatdan chiqishda jismoniy tarbiya va sportdan oqilona foydalanish, jismoniy tarbiya va sportdan foydalanishni odatga chiqarish orqali qadriyatli yondashuvni (barcha munosabatlar qadriyatlar asosida tashkil qilishini) vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada jismoniy tarbiya va sportga qadriyatli munosabatni shakllanishga yordam beruvchi har bir omilni rivojlantirib borish kerak bo'ladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida qadriyatli munosabatlarning shakllanishi undan muntazam foydalanishga olib keladi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish jarayonlarini ilmiy qonuniyatlar doirasida tatqiq etib borish oldimizda turgan muhim vazafalardan biri, deb hisoblaymiz. "Shuning uchun ham salomatlikka umumiy tushunchada sifatida, inson bilim va ko'nikmalaridan unumli

foydalanish, asrash va sog'lomlashtirish, unga bo'lgan munosabatni umumbashariy qadriyat sifatida yuqori darajada ko'tarish madaniyati sifatida yondoshish mumkin"[5].

Bizga ma'lumki O'zbekiston xalqining madagniyati etnografik, iqlim, jug'rofiy, tarixiy, ma'naviy o'ziga xos sharoitlaridan kelib chiqib shakllangan. Ular xalqning minglab yillar dvomidagi ijodiy faoliyatining natijasi hisoblanadi. Ularda mehnat faoliyati, ijtimoiy va kundalik tartib, turmush tarzi, madaniyat va e'tiqod o'z aksini topgan. Millatning shakllanishining butun tarixiy tadrijiyligi davomida o'sib kelayotgan avlodni jismoniy tarbiyalashning eng maqbul usularini, vositalarini va yo'llarini tanlab olish bo'yicha seleksiya ishlari olib borilgan. Shu bilan birga ularda o'zbek xalqining tabiat bilan uyg'unlikda yashash, sog'lom turmush tarziga qilib hayot kechirish borasidagi qarashlari, ideallari va intilishlari aks etgan [1]. Bundan ko'rinadiki, jismoniy tarbiyaning o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning ijtimoiylashtiruvchi rolining boshlang'ich manbalari an'naviy tarzda, qadimdan xalq tomonidan jismoniy tarbiyani kundalik, umumqamrovli hodisa deb hisoblanganligi bilan izohlanadi. U faqatgina sog'liqni saqlashga va uni mustahkamlashga, bolalarda ma'lum bir axloqiy va jismoniy fazilatlarini shakllantirishga intilish bilangina cheklanib qolmagan, balki ularda jamoada yashashning mavjud tartib-qoidalariga nisbatan ma'lum bir munosabatni kamol toptirishni ham nazarda tutgan.

Tadqiqot muhokamasi. Bugungi zamonaviy murakkab va qarama qarshiliklarga to'la dunyoda insoniy

munosabatlar, jismoniy tarbiya-sport jamoalaridagi psixologik muhit, sport axloqi hamda sport pedagogining axloqi kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbek jamiyatda qadimdan o'ziga xos qadriyatlar tizimi, dunyoqarashlar yo'nalishi hamda odamlar xatti-harakatining qonun-qoidalari, boshqacha aytganda, o'z mentaliteti qaror topgan. Uning asosini asrlar osha ajdodlar tomonidan takomillashtirilgan, o'zbeklarga xos bo'lgan an'anaviy maishiy madaniyatning yadrosi tashkil etadi. Ma'naviy-axloqiy an'analar asosan islom qoidalari bilan mustahkamlangan.

Mamlakatda yuz bergan jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarga qaramay, o'zbek xalqining mentaliteti an'anaviy axloqiy tartiblarni saqlab qolishga imkon beradi. U shaxsiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan jismoniy tarbiya va sport sohasida ham namoyon bo'ladi.

Ma'lum bir sport hodisasini axloqiy jihatdan baholash bolalar, o'smirlar va yoshlarning ma'naviy axloqiy asoslari shakllanishi jarayonida ijobiy yoki salbiy ijtimoiylashtiruvchi rolni o'ynashi mumkin.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq bizning mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yangicha tarixiy sharoitlarda ularning faoliyat olib borishining qonunchilik asoslari yaratila boshlandi.

Hududimizdagi asosan jismoniy mehnat bilan band bo'lgan aksariyat insonlar esa jismoniy tarbiyaning ahamiyatini avlodlardan avlodga oiladagi, mahalladagi tarbiya vositasida yetkazib berganlar, bunda o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga mehnatsevarlikni singdirishga, o'yinlar, urf-odatlar, udumlar vositasida ularni sog'lomlashtirishga e'tibor qaratilgan.

Jamiyat rivojining tub ildizlari ko'rsatishicha, uning progressiv evolyutsiyasi jarayonida ijtimoiy hayotga ta'sir etuvchi ijtimoiy sabablar ko'payib boradi. Tarixning aniq jonli subyekti bo'lgan insonning hayotiy faoliyati jamiyatni bir bosqichdan boshqasiga – yuqoriroq'iga harakatlantiradi. Har doim shunday bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Eng yangi davrga kelib, ko'pgina jamiyatlar ongli ravishda o'zining yangilanishi va keyingi yo'li va o'ziga xos modelini tanlashadi. Ammo ijtimoiy harakatning bunday tanlovi inson muammosini maqsadli va har tomonlama tadqiq qilishga e'tiborni qaratishni talab etadi.

Ma'lumki, biologiklik va ijtimoiylikning o'zaro munosabatining asosiy prinsipi shundaki, inson mehnat jarayonida tashqi olamni o'zgartira borar ekan, o'z navbatida o'zining tabiatini ham o'zgartiradi. Ammo insonning doimiy ravishda o'zgarib boruvchi tabiati tashqi tabiatga, undan ham muhimrog'i, har bir aniq ijtimoiy hayotning talab va qoidalarga qanchalik mos keladi, boshqa tomondan esa, jamiyat qurilishi insonning tabiatiga qanchalik mos tushadi, hamda inson qanday qilib, qaysi yo'llar bilan ijtimoiy hayotga qo'shilib ketadi? Shaxs ijtimoiylashuvining butun mohiyati mana shunda.

Ijtimoiylashuv yo'lini bosib o'tib, har bir inson ijtimoiy mavjudotga, inson shaxsiga aylanadi.

3. Pedagogik qarashlar, xususan, jismoniy tarbiya-sport pedagogikasi tarixi qadim zamonlardan ta'lim va tarbiyaga asoslanib kelgan: Konfutsiyada ham, Platon yoki Aristotel'da ham, Forobiy va ibn Sinoda ham, Navoiyda ham, yangi davrning mutafakkir va ensiklopedist olimlari M. Monten, Y. Kamenskiy, D.Lokk, J.J. Russo va boshqalarning qarashlarida shuni ko'rish mumkin.

Faqatgina XX asrning 60-yillari oxiri 70-yillari boshlariga kelibgina jismoniy tarbiya va sport pedagogikasida ijtimoiylashuv tushunchasi paydo bo'ldi va faollik bilan birinchi o'ringa chiqq boshladi. Oldiniga bu jarayon xorijiy davlatlarda yuz berdi.

Yangi tushuncha yo'q joydan paydo bo'lgan emas. U o'zida yangi ijtimoiy jarayonlarni, qarashlarni, ehtiyojlarni, ilmiy masalalarga yangicha yondoshuvlarni aks ettirar edi.

Bir tomondan, fanda bolalarda uchraydigan qobiliyat, iqtidor va imkoniyatlar nafaqat tabiat tomonidan ato etilgan bo'ladi, nafaqat insondagi genetik jihatdan asoslangan sifatlarning yig'indisi, balki ular ijtimoiy voqelik bilan ham asoslangan bo'ladi, degan qarashlar yetakchilik qila boshladi.

Ikkinchi tomondan esa, ta'lim tizimining asosiy prinsiplarini qayta ko'rib chiqish boshlandi. Agar bolalarning hayotning barcha sohalaridagi qobiliyatlari faqat tabiat tomonidan ato etilmagan, balki ijtimoiy hayot sharoitlariga, jumladan ta'lim tizimiga ham bog'liq bo'lar ekan, u holda ularni shunday isloh qilish kerakki, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har bir bola ana shu qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Boshqacha qilib aytganda, bu davrda jismoniy tarbiyaning, ayniqsa sportning jamiyat va siyosat bilan aloqasi ochilib, u to'liq tushunib yetildi. Bu esa sport sohasida ijtimoiylashuv muammosiga qiziqishning ortishiga olib keldi.

Shunday qilib, o'tgan asrning oxirgi uchdan birida ijtimoiylashuv masalasiga e'tiborning ortishi sport pedagogikasining antropologiya g'oyalariga asolanuvchi an'anaviy yo'nalishdan yangicha yo'nalishga o'tishi, jismoniy tarbiya va sportga ijtimoiy hodisa sifatida qarala boshlanishi bilan izohlanadi.

Sport pedagogikasining vazifalarini tanqidiy jihatdan qayta ko'rib chiqish va xususan uning vazifasi ijtimoiylashtirish ekanining aniqlashtirib olinishi ham yangicha qarashlarning belgisi bo'ldi.

Sport ijtimoiylashuvining vazifalarini belgilab olish to'lig'icha o'zini anglovchi "ijtimoiylashuv"ning mazmunini aniqlashtirib olishga bog'liq bo'ladi. U esa birdaniga qaror topmagan: u shakllanish, aniqlashtirish, mantiqiy mazmun bilan to'ldirilish bosqichlaridan o'tgan.

Ijtimoiylashuv faqat ongli ravishda, balki anglanmagan holda ham kechishi mumkin. Bu narsa jamiyatda kechayotgan va odamlarning birgalikdagi hayot kechirish tufayli ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jarayonlarga bog'liq bo'ladi. Albatta, ijtimoiylashuv shaxsiga butun atrof voqelikning ta'siriga asoslangan holda mavosita ham yuz berishi mumkin. Bunda u inson miyasida mavjud voqelikni passiv aks ettirish bilangina cheklanmaydi, balki shaxsiy faollikni, tanlov erkinligini, mas'uliyatni ham nazarda tutadi.

Shunday qilib, ijtimoiylashuv individumning mavjud ijtimoiy tuzilmalarga moslashuvchanlik funksiyasi, shaxsning ularga ongsiz tarzda qo'shilish emas, u xatti-harakatning ko'plab prinsip va meyorlari orasidan eng ma'qulini tanlash qobiliyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiylashuv tarbiyadan farqli ravishda butun ongli hayot davomida: chaqaloqlikda, bolalikda, o'smirlilik va yoshlikda, balog'at va keksalik davrlarida davom etadi. Avvalgi hayotiy tayanchlarini yo'qotgan inson (masalan, nogironlar, keksalar) oilasiga, jamiyatga kerakli bo'lib qolish, o'zligini yo'qotmaslik, boshqacha aytganda, ijtimoiylashuv uchun yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday paytda ijtimoiylashuvning usullaridan biri jismoniy tarbiya va sport bo'lishi mumkin.

Xulosa. Yuqorida keltirib o'tilgan dalillar tarbiya birlamchi bo'lsa-da, u bir butun ijtimoiylashuvning bir qismi ekanini ko'rsatadi. Jumladan:

1. Sportning ushbu tomonini birinchi galda jismoniy tarbiya va sport ijtimoiylashuvi jarayonlari tadqiq etadi, ammo u har doim insonning umumiy ijtimoiylashuvini nazarda tutadi va nisbatan mustaqil xarakterga ega bo'ladi xolos.

2. Sport pedagogikasining shaxsning ijtimoiylashuvi masalalari bilan shug'ullanadigan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqasi bugungi qarama qarshilik va

murakkabliklarga to'la dunyoda keng ko'lamli nazariy tadqiqotlar olib borishni, mavzu diapazonini kengroq olishni, boshqa jamiyashunoslik va insonshunoslik fanlari bilan aloqador tarzda ijtimoiylashuv sohasida yangi yo'nalishlarda izlanishlar olib borishni talab etmoqda.

3. O'zbekiston sport pedagogikasi jismoniy tarbiya va sport ijtimoiylashuvi borasida ham umumdunyoiviy jarayonlar

oqimidan bormoqda. Bugungi kunda shakllanish bosqichida bo'lgan O'zbekiston sport pedagogikasining zamonaviy yo'nalishda rivojlanishi uchun yetarlicha obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Bu narsa O'zbekistonning har tomonlama barkamol insonni shakllantirishga qaratilgan davlat dasturlarini samarali amalga oshirish uchun ham juda zarur.

ADABIYOTLAR

1. Насреддинов Ф., Шатерников Э., Казакова Р. Игры – дело серьезное/Народное слово, 29.03.1994.
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры /Учебник для вузов ч.1.-Москва: 2004.-С.-177.
3. Керимов Ф.А. Спорт соҳасида илмий тадқиқотлар.//Дарслик.Т:Zar qalam, 2004.-344 б.
4. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati.Darslik.T:ITA-PRESS, 2015.-296 b.
5. Виленский М.Я., Горшков А.Г. Физическая культура: учебник. - Москва: КНОРУС., 2020, - 214 с.
6. Шопулатов А.Н. Физическая культура и физическое воспитание личности. “Проблемы и перспективы физического воспитания, спортивной тренировки и адаптивной физической культуры” материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. ФГБОУ ВО «Поволжская государственная академия физической культуры, спорта и туризма». 2016. С. 651-654.
7. Гонашвили А.С., Васильев И.А., Шопулатов А.Н., Тевари С., Иван Е. Спортда ҳалоллик ва ахлоқийликни таъминлаш масалалари.//Фан-спортга. 2021.№ 1. Б.3-5.



UDK:372.22:502.3(045)

Madina HALIMOVA,

Qarshi davlat universiteti doktoranti

E-mail: madinahalimova_@mail.ru.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti p.f.d., dotsent, Sh.R.Turdiyev taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TABIIY FANLARDAN ELEMENTAR TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH:TAHLIL, KUZATUV VA NATIJALAR

Аннотация

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar (SCIENCE) dan elementar tushunchalarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish orqali o'quvchilarning tabiiy fan asoslari bo'yicha chuqur va mustahkam bilimlarni egallashi, shuningdek, ularni mustaqil ravishda to'ldirishi va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilishi lozimligi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Bilim, atrof-muhit, qiziqish, ijodkorlik, tadqiqot, amaliy ish, tabiat hodisasi, kuzatish.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ ПОНЯТИЙ ПО ЕСТЕСТВОЗНАНИЮ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ:АНАЛИЗ, НАБЛЮДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Аннотация

В данной статье говорится о том, что путем выявления, изучения, анализа и устранения проблем, возникающих в процессе формирования элементарных понятий из естественных наук (SCIENCE) в начальных классах, учащиеся должны приобретать глубокие и прочные знания по основам естествознания, а также самостоятельно их дополнять и совершенствовать навыки применения на практике.

Ключевые слова: Знания, окружающая среда, любопытство, творчество, исследование, практическая работа, явление природы, наблюдение.

FORMATION OF ELEMENTARY CONCEPTS FROM THE NATURAL SCIENCES IN ELEMENTARY STUDENTS:ANALYSIS, OBSERVATION AND RESULTS

Annotation

This article mentions that by identifying, studying, analyzing and eliminating the problems that arise in the process of forming elementary concepts from natural sciences (SCIENCE) in elementary grades, students should acquire deep and solid knowledge on the foundations of Natural Science, as well as independently complement them and focus on improving the skills of their application in practice.

Key words: Knowledge, environment, interest, creativity, research, practical work, natural phenomenon, observation.

Kirish. O'quv jarayonini muvaffaqiyatli olib borishning muhim shartlaridan biri tinglovchilarning fanga bo'lgan qiziqishi hisoblanadi. Agar, pedagog o'quvchilarda majburlash kuchi bilan olib boriladigan ta'lim yo'lini tanlasa, bu o'z navbatida boladagi bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni o'ldiradi. Fanlar asoslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun qiziqishning ahamiyati xorijiy psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlarida asoslab berilgan. Uslubiy adabiyotlarda ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich bilimlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi turli ish uslublari ko'rib chiqilgan [3]

Olib borilgan tadqiqotlarda va adabiyotlarda keltirib o'tilgan fikrlar o'quvchilar tomonidan fanlarni o'zlashtirilishi ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyiliga qat'iy rioya qilishni, har bir o'quv yili uchun ta'lim oluvchilar uchun taqdim etilayotgan dalillarni to'g'ri tanlash, bilim chuqurligi va hajmini to'g'ri aniqlashga alohida e'tibor berishni talab qilgan. Shu jumladan, boshlang'ich sinflar tabiiy fanlar darsligida berilgan mavzular yuzasidan berilayotgan bilimlar o'quvchi yosh xususiyati bilan o'zaro muvofiq kelishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Olimlar o'zlarining olib brogan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, boshlang'ich sinflardanoq bolalarni kuzatishga, muayyan xulosalar chiqarishga, ular ko'rgan har bir hodisaga tadqiqotchi sifatida yondashuvni o'rgatish kerak, deb hisoblashgan. Unga ko'ra, "fanlar asoslarini o'rganishda tadqiqot usuli o'quvchilarda tevarak-

atrofdagi tabiatga chuqur qiziqish uyg'otadi, olamdagi hodisalarni idrok etishga, o'rganishga, olingan bilimlarni ham amaliy, ham nazariy muammolarni hal etishda qo'llashga intilishni uyg'otadi. Shu bilan birga, mazkur usul xulosa chiqarishda eng katta tafakkurning hushyorligini tarbiyalaydi" [4].

Bu pedagogika fani oldida turgan asosiy muammoni – bilimlar hajmini va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatini kengaytirish muammosini aniqlash imkonini beradi. O'quvchilar o'rganilayotgan tushunchalarga tezda yechim topishga tayyor bo'lishlari kerak. Bunda axborotning umumlashtirilishi va tizimligi katta ahamiyatga ega. Shu sababli zamonaviy maktab o'qituvchilarining faoliyati o'quvchilarni fan asoslari bo'yicha chuqur va mustahkam bilimlarni egallashi, ularda o'z bilimlarini doimiy ravishda oshirishga bo'lgan intilishlarini, shuningdek, ularni mustaqil ravishda to'ldirish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinf Tabiiy fanlar darsligi o'quvchilarda boshlang'ich kasbiy ko'nikmalar va malakalarni egallash, texnik vositalar va asboblardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar olish, laboratoriya ishlari va loyiha ishlari bilan tanishish, texnik va ilmiy ma'lumotlarda yo'nalishni topishga yordam berish, o'quvchilarning dunyoqarashi va shaxsini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, tabiiy

fanlarining shaxsni shakllantirishdagi juda katta salohiyati har doim ham to'liqligicha amalga oshirilmaydi. Bu jarayon ko'plab omillarga bog'liq. Asosiysi, tabiiy fanlarni o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari birinchi kunlardanoq yangi tushunchalar va ma'lumotlarni idrok etishlari kerak, ularni o'zlashtirish o'quvchilarning ma'lum bir qismi uchun ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ba'zan ayrim tushunchalarning mohiyati va mazmuni o'quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularda o'quv materialini mexanik yo'l bilan yod olishga majbur bo'ladi, qiziqishi susayadi, o'quv predmetiga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlar bo'yicha dastlabki bilimlarni shakllantirish va ularga bo'lgan qiziqishni uzluksizlik tamoyili asosida uyg'otish dastur materialini o'zlashtirish sifatini oshirishga imkon beradi, nafaqat o'rganilayotgan mavzu, balki umuman tabiiy fanlarga qiziqishning rivojlanishiga ham yordam beradi. O'qitish nazariyasi va amaliyotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha dastlabki bilimlarini shakllantirish muammosining ayrim jihatlarini yetarli darajada rivojlantirmaganligi ushbu muammoni hal etishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlar bo'yicha dastlabki bilimlarni shakllantirish muammosi holatini o'rganish maqsadida biz kompleks yondashuvdan foydalandik: tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik va uslubiy adabiyotlarni, pedagogik matbuot materiallarini o'rganish va nazariy tahlil qilish; boshlang'ich sinf o'qituvchilarining dars va mavzu rejalarini va sinfdan tashqari mashg'ulotlar rejalarini o'rganish; qatnashgan darslar tahlili va o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazish; kuzatishlar; boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida so'rovnomalar; boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlardan bilim darajasini aniqlash maqsadida konstatatsiya tajribalarini o'tkazish.

Tahlil va natijalar. O'quvchilar amaliy va laboratoriya topshiriqlarini bajarishda atrofidagi olamda sodir bo'ladigan tabiat hodisalari va oddiy jarayonlarning mohiyatini tushuntirishda xatolarga yo'l qo'yadilar. Ularda texnik vositalar, o'lchov va yordamchi asboblardan foydalanish ko'nikmalari ham kam rivojlangan. Bu boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha yetarlicha bilimga ega emasligi hamda o'quvchilarning tabiatshunoslik, botanika, fizika, geografiya va texnologiya fanlari bo'yicha asosiy materialini o'rganish jarayonida ularda tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich bilimlarni shakllantirish uslubiyotining to'liq shakllanmaganligi bilan ma'lum darajada belgilanadi

Olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi tasdiqlangan dalillar keltirib o'tiladi. Darhaqiqat, respublika maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari tabiatshunoslik tushunchalarining mazmun-mohiyatini tushuntirish, bu tushunchalarning fan va texnikadagi o'rni va rolini aniqlash, o'rganilayotgan jarayonning belgi va qonuniyatlarini o'rnatish, o'rganilayotgan jarayonning o'rni va qonuniyatlarini o'rnatishga, tabiatshunoslik tushunchalarini aniqlash bo'yicha amaliy ish olib borishga har doim ham imkoniyatga ega bo'lavermaydi. Bizning tajribamiz, kuzatishlarimiz va boshlang'ich sinf fanlari o'qituvchilari ishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligida tajribalar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, didaktik materiallar va texnik o'qitish vositalaridan foydalanish uchun asboblardan tanlash va ulardan foydalanish qiyin kechadi. Obyektlarga va tabiatga maxsus ekskursiyalar, o'rganilayotgan tabiiy-ilmiiy tushunchalar bilan tanishish va mustahkamlash, asboblardan tanlash va ulardan foydalanish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlar yetarli darajada tashkil etilmagan. Ko'pgina tushunchalar aniq va asosli taqdimotsiz qo'llaniladi. Shuning uchun o'quvchilarda tabiiy-ilmiiy tushunchalar va g'oyalar tizimining mazmunli elementlari shakllanmaydi.

Dastlabki tabiiy-ilmiiy tushunchalar tizimini shakllantirish uchun sharoit yaratadigan tegishli aloqalarsiz fizika, kimyo, biologiya va fanning boshqa sohalarini qonuniyatlarini va hodisalarini o'zlashtirish amalda qiyin kechadi. Ammo bir qator biologik jarayon va hodisalar 2-4-sinflarda fizika va biologiya fanlarini o'rganishdan oldin o'rganiladi. Shunday qilib, ba'zi tushunchalar boshqalari bilan to'ldiriladi, bir-biriga o'tadi, o'zgaradi va umumlashtiriladi. Bu esa o'quvchilar tomonidan tabiatshunoslik, matematika va texnologiya kurslarini o'rganish jarayonida tabiiy fanlar bo'yicha dastlabki bilimlarni shakllantirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinflarda joriy qilingan yangi tahrirdagi Tabiiy fanlar darsligi o'quvchilarda fizika, geografiya, biologiya, zoologiya, astranomiya bo'yicha dastlabki bilim va tushunchalarni shakllantirishda asosiy o'quv materialini bo'yicha ishonchli dalillarni o'zlashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi va o'quvchilarni amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda faollashtirishi, o'quv materialini ongli ravishda tushunishga hissa qo'shishi, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishi, aqliy faoliyatini rag'batlantirishi uchun devosita xizmat qiladi. Shuning uchun, ham fizikaviy tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarini fizikani o'rganishga tayyorlashning zaruriy sharti hisoblanadi;

– boshlang'ich sinflarda fizikaviy tushunchalarni shakllantirish o'rganilayotgan fizik hodisa va jarayonlarning mohiyatini to'g'ri tushunishga, ularning sabab va qonuniyatlarini aniqlashga, o'quvchilarning kuzatish qobiliyatini oshirishga, ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatini, shuningdek, fizikaga qiziqishlarini tarbiyalashga xizmat qilishi kerak" [4].

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich bilimlarni shakllantirish bilim olishda uzluksizlik tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, dasturiy materialni o'zlashtirish sifatini oshirishga va tabiiy-ilmiiy fanlar elementlarini shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin (fizik tushunchalarni shakllantirish misolida):

– "boshlang'ich sinf o'qituvchilari 1-4-sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida o'rganilayotgan fizik tushuncha va atamalar, tabiat hodisa va jarayonlarning mohiyatini tizimli ravishda ochib berishlari, o'rganilayotgan materialning ilmiyligini oshirishlari, shakllangan va shakllanayotgan tushunchalarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashg'ulotlar, tabiat va boshqa obyektlarga ekskursiyalar tashkil etishlari zarur;

– boshlang'ich sinf o'qituvchilari fizik ko'rgazmali tajribalar o'tkazish metodikasini puxta ega bo'lishlari, didaktik materiallar va o'qitishning texnik vositalaridan foydalana olishlari kerak" [3].

Muallifning ushbu fikrlariga qo'shilib, biz bu tavsiyalar ham yetarli emas deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha, tabiiy fanlar o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich bilimlarni shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishi kerak. Buning uchun tabiiy fanlar o'qituvchilari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari (tabiatshunoslik, matematika, texnologiya fanlari bo'yicha) faoliyatida mustahkam aloqalar o'rnatilishi kerak.

Bu aloqalar nimada yaqqol ifodalinishi kerak? Bizning fikrimizcha, bu aloqalar quyidagicha ifodalanadi:

a) tabiiy fanlar o'qituvchisining ko'rsatilgan fanlar o'qituvchilariga ularni tabiiy-ilmiiy fanlar elementlarini taqdim etishga tayyorlashda uslubiy yordami;

b) tabiiy fanlar o'qituvchisining fan o'qituvchilarining "kesishuvchi" masalalarni o'rganishga bag'ishlangan darslarida ishtiroki;

v) fan o'qituvchilarining tabiiy fanlar o'qituvchilarining darslarida ishtiroki;

g) tabiiy fanlar o'qituvchilari uslubiy birlashmalari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uslubiy birlashmalarining qo'shma yig'ilishlarini o'tkazish;

d) boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar o'qituvchisi tomonidan tegishli mavzular bo'yicha darslar o'tkazish [5].

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida nazarda tutilgan tabiat haqidagi bilimlar mazmuni va tabiati jihatidan ancha xilma-xil ekanligini hisobga olib, uni o'zlashtirishda turli xil tarbiyaviy ish usullarini talab qiladigan o'quv faoliyati mavjud, degan xulosaga keladi. Tabiat haqidagi bilimlarni egallashda eng maqbul o'quv faoliyati umumiy usullari sifatida muallif "obyektlarning holati va tashqi xususiyatlarini o'rganish va ularni tavsiflashga qaratilgan kuzatish; o'rganilayotgan obyektlarni guruhlash va taqqoslash" ni tanlaydi [2]. Tadqiqotchilar ushbu muammoni o'rganar ekan,

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat haqidagi bilimlar bilan tanishtirishda ko'p darslarda og'zaki o'qitish usullari va o'qituvchining o'qituvchilik faoliyati ustunlik qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda tabiiy-ilmiiy tushunchalarini shakllantirish va tabiiy fanlar elementlariga qiziqishni uyg'otish zarurati o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish shakllari va usullarini yanada takomillashtirish, ta'lim saviyasini yuksaltirish, ko'rib chiqilayotgan muammoni hal qilishga kompleks yondashish bilan shartlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlar bo'yicha dastlabki bilimlarni shakllantirish va ularga bo'lgan qiziqishni uzluksizlik tamoyili asosida uyg'otish dastur materialini o'zlashtirish sifatini oshirishga imkon beradi, nafaqat o'rganilayotgan mavzu, balki umuman tabiiy fanlarga qiziqishning rivojlanishiga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" 2018.
2. Nuriddinova M. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, "O'qituvchi" 2005.
3. Turdiyev. N "Tabiiy va aniq fanlar yo'nalishida ta'lim sifatini oshirish – muhim vazifa". T.: Aniq va tabiiy fanlar metodikasi ilmiy pedagogik, metodik jurnal. 9-son 2018.
4. Asadulina S.Yu., Viktorina "Atrofimizdagi tabiat". Boshlang'ich maktab. 2007. 4-son.
5. Barysheva Yu.A., Ekologiya va o'lkashunoslik ishlarini tashkil etish tajribasidan. Boshlang'ich maktab. 1998. 6-son
6. Божович Л.И. Познавательные интересы и пути их изучения Известия АПН РСФСР. 1955.
7. Сатоев М.С. Дидактические основы формирования физических и метрологических понятий у учащихся младших (2-5) классов средней школы: Автореф. дисс. ...канд. пед. наук. Ташкент, 1983.
8. Воробьева С.И. Формирование элементов стохастической культуры младших школьников в процессе обучения математике. Дисс. ... канд. пед. наук. Саранск, 1999.



UDK: 796.034.2

Zuhra HAMRAYEVA,
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi
E-mail: hamraevazuhro4@gmail.com

TMI dotsenti F.Tashpulatov taqrizi asosida

BO'LAJAK O'QITIVCHILARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORT KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya va sport kompetentligini takomillashtirish madaniyat o'qituvchilarining tuzatish va sog'lomlashtirish ishlari uchun kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonida tuzatish va sog'lomlashtirish ishlari bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirishning uch bosqichi aniqlangan va tavsiflanganligi to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, jismoniy tarbiya, tuzatish va sog'lomlashtirish ishlari, jismoniy faollik, sport kompetentligi.

ПОВЫШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ И СПОРТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В статье рассматриваются этапы формирования профессиональной компетентности для коррекционно-восстановительной работы будущих учителей культуры повышения квалификации физической культуры и спорта. Сказано, что определены и описаны три этапа формирования профессиональной компетентности в коррекционно-реабилитационной работе в образовательном процессе будущих педагогов.

Ключевые слова: Профессиональная компетентность, будущий учитель, физическое воспитание, коррекционно-восстановительная работа, двигательная активность, спортивная компетентность.

IMPROVING FUTURE TEACHERS' PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS COMPETENCE

Annotation

The article examines the stages of professional competence formation for correctional and rehabilitation work of future physical education and sports competence improvement culture teachers. It is said that three stages of the formation of professional competence in correction and rehabilitation work in the educational process of future teachers are defined and described.

Key words: Professional competence, future teacher, physical education, correctional and rehabilitation work, physical activity, sports competence.

Having studied the features of the modern approach to the professional training of future specialists in physical culture, in the conditions of increasing the social importance of physical culture and expanding its functions, views on the training of specialists in this field are changing.

Pay attention to modern requirements, it is necessary to ensure the readiness of graduates to strengthen the health of the population, prevent diseases, increase labor productivity, meaningful organization of free time, formation of healthy lifestyle skills, and other health-saving technologies. In this regard, the requirements for the professional competence of the physical education of teacher in the conditions of correction and rehabilitation are expanding significantly.

The professional competence of a modern physical culture teacher is a very broad concept, which includes education and development of competence, physical education and sports, correction and rehabilitation, recreation and prevention, methodological, educational, diagnostic, covers such concepts as prognostic, organizational-pedagogical, control and monitoring.

The competence of the physical education of teacher to correct and heal, taking into account the current state of children's health, is the basis of his readiness to solve the problems of physical education of children of primary school age in the process of physical education, first of all, it is the healing and correctional component of the implementation.

Competence's formation of future physical education teachers can be effective in correctional and rehabilitation work if they acquire basic and interdisciplinary knowledge,

psychological-pedagogical, sports-methodical, diagnostic and prognostic skills, pedagogical activity motives, personal culture.

Implementation of the process of formation of professional competence for correction and rehabilitation work of future physical culture teachers during their education at the university requires not only time but also a certain algorithmization of teaching the subjects mastered by students.

The whole process is carried out in three levels:

The first stage is preparatory-cumulative and covers the first year of study;

the second stage is a reproductive activity, corresponds to the second year of study;

the third stage - integrative activity, will be implemented in the following academic years.

At the preparation-collection stage, the semantic component of the student's educational activity is determined, the motives of the activity are formed and concretized, the goals of the activity and the conditions for their achievement are determined;

Professional competence of future physical culture teachers for correctional and rehabilitation work and the stages of its formation, algorithm of goal achievement taking into account the individual characteristics of the student.

In our republic, the system of modern training of specialists in the field of physical culture is organized perfectly. The State Institute of Physical Education of Uzbekistan, which is considered the leading and central higher

educational institution in the field, trains many highly educated physical culture specialists and sports coaches.

The leading scientists and sports coaches of our country give lessons to future specialists in this higher education institution. In addition, the existing faculties of physical education at the universities and pedagogical institutes of the republic's regions provide the educational system with many highly educated physical education teachers.

In addition to, the training of athletes, sports coaches with secondary specialized education are also trained in Olympic reserve colleges established in the following years. The scientific-methodological support for the training of specialists in the field of physical culture in the system of secondary special vocational education and higher education in the republic is fully organized based on modern requirements. That is, educational institutions are provided with well-developed DTS and educational programs, textbooks, and various training manuals.

The specific characteristics of the physical culture specialist's pedagogical activity, the specific tasks of his work determine the specific content of the complex of components of this profession, the basic, professionally necessary knowledge and skills as a pedagogue.

Psychological-pedagogical competence means knowledge, abilities, skills, as well as methods and methods of their implementation in activities. Solving this phenomenon, scientists emphasize that we are talking about special and professional competence in the field of the taught subject; methodological competence in the field of methods of formation of knowledge and skills in students, social-psychological competence in the field of communication processes, differential psychological competence in the field of motives, abilities, directions of student activity.

The activity of the teacher is both transformative and controlling. You need to be qualified to manage personal development. The teacher's professional qualification is expressed in the unity of his theoretical and practical preparation for the implementation of pedagogical activities and describes his professional skills. The main components of a teacher's professional competence are:

- Socio-legal competence - acquisition of knowledge and skills in the field of interaction with state institutions and people, as well as methods of professional communication;
- Personal competence - continuous professional growth, self-awareness at work;
- Special competence - readiness to self-perform specific types of activities (including in the field of physical education and sports);
- Self-competence - adequate understanding of one's own social and professional characteristics;
- Extreme competence - the ability to act in sudden difficult situations.
- Pedagogical culture is a specific form of general culture in the conditions of the pedagogical process. Pedagogical culture mainly includes worldview, moral, professional, emotional, aesthetic, physical and hygienic aspects of culture.

Each teacher is obliged to inculcate the skills of a healthy lifestyle in his students every day of his professional activity in words, actions and appearance. It is for this reason that every subject teacher's need for professional qualification in the field of physical culture is indisputable.

o'quvchiga o'zini o'zi ifoda etishdan va o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ko'rinishlardan voz kechishga va o'zini o'zi tashkil etishning ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega turiga olib borishga imkon beradi. Suhbat usulida ekologik muammolarni talabalarga yetkazishda metodik yondashuvlarning o'zni juda muhimligi tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR

1. Shadiev, R., Khimmataliev, D., Fayzullaev, R., & Chorshanbiev, Z. (2020). Professional culture of the future teacher of vocational education: a communicative aspect. *Journal of Critical Reviews*, 7(4), 399-400.
2. Shadiev, R., Alikulov, T., Chorshanbiev, Z., Gulomova, M., & Turaev, S. (2020). Mathematical preparation in the system of pedagogical education: From knowledge to activity. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 798-801.
3. Chorshanbiyev, Z. E. (2014). E-didactic environment factor improvement of mathematical and scientific training of engineering personnel. *The Way of Science*, 72.
4. Чоршанбиев, З. Э. (2021). Дифференцированное обучение студентов на занятиях высшей математики в техническом вузе. *Academy*, (4 (67)), 42-47.

5. SHorshanbiyev, Z. E. (2019). Improvement of mathematical and scientific training of engineering personnel in the educational process. in исследования в области психологии и педагогики в условиях современного общества (pp. 241-243).
6. Abdurasulovich, K. J., Abdurasulovich, K. O., Yangiboevich, K. M., Anvarovich, A. A., & Xolmurodovich, G. A. (2020). Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education. Journal of Critical Reviews, 7(14), 89-93.
7. Хўжжиев, М. Я. (2020). Возможности повышения эффективности мультимедиа в процессе урока. Universum: психология и образование, (1 (67)), 10-13.



Laylo SHARIPOVA,

SamDU Urgut filiali maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: laylo3356914@mail.ru

O'zMU professori D.Muxammedova taqrizi asosida

OLIV TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Annotatsiya

Bu maqolada bugungi kundagi zamonaviy innovatsion texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va ularning nazariy asoslari haqida ma'lumot berilgan. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: Refleksiya va shaxsning tayyorligi, interfaol ta'lim, tolerantlik, kreativ fikrlash, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyat.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация

В данной статье представлена информация об этапах развития современных инновационных технологий и их теоретических основах. Инновация отличается от любой инновации тем, что она должна иметь изменяемый механизм, позволяющий осуществлять управление и контроль. Инновационная деятельность заключается в создании нового технологического процесса или новой улучшенной продукции на основе научных исследований, создании разработок, проведении экспериментальных работ, использовании научно-технических достижений.

Ключевые слова: Рефлексия и личностная готовность, интерактивное обучение, толерантность, творческое мышление, уровень инновационности, коммуникативные способности.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN HIGHER EDUCATION

Аннотация

This article provides information about the stages of development of modern innovative technologies and their theoretical foundations. Innovation differs from any innovation in that it must have a changeable mechanism that allows for management and control. Innovative activity consists of creating a new technological process or a new improved product based on scientific research, creating development, conducting experimental work, using scientific and technical achievements.

Key words: Reflection and personal readiness, interactive learning, tolerance, creative thinking, level of innovation, communicative ability.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni rivojlanish tarixi, integrativning paydo bo'lishi hamda zamonaviy turlari va ularning muhim xususiyatlarini tahlil qilishni nazariy asoslarini o'rganish niyatida mashhur olimlarimiz ishlarini davriy yondoshish jihatidan ko'rib chiqishga harakat qildik.

T.M.Davidenko har qanday pedagogik innovatsiyani egallash uchun uchta zaruriy shart "tushunish, refleksiya va shaxsning tayyorligi" bo'lishi kerakligini ta'kidlagan.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi amaliyotida interfaol ta'limlaridan tobora kengroq foydalanilmoqda. Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar.

I.V.Pestalosi o'zining didaktik maqolasida o'quv darsliklaridagi bog'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan: "Bir-biri bilan bog'liq fanlarni o'zinga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla" – deydi. Pestalosi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto havfliligini ta'kidlaydi.

O'tmish pedagogikasida didaktik ta'sirning ruhiy-pedagogik xususiyati hamda psixologik-pedagogik bog'liqligi to'g'risida K.D.Ushinskiy shunday deydi: "Har qanday fan

tomonidan xabar qilinayotgan bilim va g'oya dunyo va hayotga keng nigoh va yorituvchan holatda berilishi lozim". Fanlararo bog'liqlik nazariyasining ishlab chiqishda K.D.Ushinskiy juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Fanlararo aloqa va integrativning OTMlarda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Pedagog olimlardan I.D.Zvernov, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranov, N.M.Skatkin; ruhshunos olimlar Ye.N.Kabanova-Miller, N.M.Polizina, Yu.A.Samarin, G.I.Vergelis; metodist olimlar M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Yu.M.Kolyagina, G.N.Pristupa va boshqalar o'z ilmiy izlanishlarida mazkur masalaga katta ahamiyat berganlar.

Tadqiqotchilar T.S.Banina va L.N.Vavilovalar interfaol ta'limning samarali jihatlarini quyidagicha baholaganlar.

– interfaol ta'lim talabalardagi bilish jarayonlarini faollashtirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni aniq vaziyatlarda qo'llay olish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi.

– interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari – ta'lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostandart vaziyatlarda to'g'ri

qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

– interfaol ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlil qilish, faol hayotiy vaziyatni shakllantirish, tolerantlik, o'zgaralar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Zamonamiz olimlaridan O'tkir Tolipov "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" nomli darsligida "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" tushunchasining mazmun mohiyatini to'laqonli ochib bergan.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. Mazmuni esa tushuncha negizida "innovatsiya" tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi:

- yangi g'oyalari;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovatsiyalari "Innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979- yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular: Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u holda u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Novatsiya va innovatsiya terminlarining farqli tomonlarini quyidagi jadval orqali ko'rsatib berishga harakat qilamiz.

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; metodlar yangilanadi; natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) subyektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi

Pedagogning innovatsion faoliyati. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati:
yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
novatorlik darajasi;
kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
ijodkorligi bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

Bir qator ilmiy ishlar OTMlarda fanlararo va fanlar ichidagi bog'liqliklar muammosiga bag'ishlangan bo'lib, o'quv qo'llanmalari integrasiyasini asta-sekin yaratib, yo'lga qo'yish masalalariga qaratilgan masalan: T.L.Ramzayev, G.N.Akvilev, N.Ya.Vinelkin, G.V.Belyukov va boshqalar. Integrativ jarayonini o'rganishda I.Boguslovskiyning "Go'dakdan-olamga, olamdan go'dakga" maqolasida aytilishicha: Bolalarning atrof-muhitni his qilish, unga o'rganish va OTM ta'limida bu muhitni turli fanlarga sun'iy ravishda bo'linishi turli xil qarama qarshiliklarga sabab bo'ladi. Bunday qarashlar XIX asrning o'rtalaridayoq

olimlarimiz tomonidan e'tirof etilgan edi. G'arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida (ayniqsa Germaniyada) umumlashtirilgan dasturlar tuzila boshlandi. Bu dastur mualliflari o'rganilayotgan hodisalarni muayyan bir o'zak atrofida jipslashtirishga harakat qiladilar. Ko'pincha bu o'zak atrof muhitni o'rganishdan iborat bo'lib, mehnat jarayoni va madaniyatini ham o'ziga biriktirgan edi.

XIX va XX asr boshlarida integrativ g'oyasi ilg'or g'oyalari qatori qadrlandi. Tan olingan ta'lim islohotchisi Dj.Dyui farzandni quyosh qatori qo'yib, uni pedagogika markazi deb, o'quv dasturlarini takomillashtirishning yangi prinsiplarini ilgari surdi. Bunga "Go'dakdan olamga, olamdan go'dakka", tezisi bu fikrimizga dalil bo'la oladi. Keyinchalik markazlashtirilgan fanlar negizida talabning ongini kengaytiruvchi mavzular paydo bo'ldi. Talaba ulg'aygan sari uning dunyoqarashi kengayib, ongida oila, OTM, tuman, shahar, mamlakat, insoniyat, koinot kabi tushunchalar paydo bo'la boshlaydi va ilm darajasi ham o'sib boradi.

XX asr boshlarida pedagogika yo'nalishida bir nechta qiziqarli ilmiy izlanishlar bilimlarni integratsiyalash yo'lida olib borildi. Ayniqsa N.N.Azizxodjayeva, Shodmonova Sh.S., O'.Tolipov, R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulovalarning "Chet tili ta'limi pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi" darsliklari ham shu masalani yoritishda katta ahamiyatga ega.

Chet tili ta'limi dars jarayonida bir qator ishlar fanlararo aloqalarga bag'ishlangan. Bu fanlarni integrativlashda o'zbek olimlaridan R. Mavlonova, B. Abdullayeva, N. U. Bekboyeva, A. G. Grigoryans ishlarida ko'rib chiqilgan.

Integrativ – turli fanlarga oid bilimlarni yagona maqsadni hal etishga yo'naltirishdan iboratligini anglash mumkin.

S.L.Rubenshteyn integrativ masalasini yechishda fikrlash bilan bog'liqlik yo'llarini analiz qilishdan va keyingi bosqichda sintezlashdan iborat deb ko'rsatadi.

Shaxs sifatida shakllanishi, uzoq umr ko'rishinining sabablari inson psixikasining rivojlanishiga bog'liq. Bu borada buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy "O'tmishdan qolgan yodgorliklar" asarida odamning uzoq umr ko'rishini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi. K.D.Ushinskiy talabani faqat o'zi qiziqtirgan narsa bilan emas, tevarak atrofga ongli qarashga o'rgatishni, ta'lim jarayonida o'quv materiallarining ma'nosini, mohiyatini, ilmiy asoslarini eslab qolishi va esga tushirish orqali mantiqiy xotira takomillashishini asoslab bergan.

R.Mavlonova integrasion darslarni ta'lim jarayoniga kirib kelishiga alohida e'tibor berib, uning maqsadi talabani dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan suhbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir deb ta'kidlaydi. Ushbu maqsadlardan yana biri o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiy negizi, insonning ichki

(ma'naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, talaba esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi. Bunda kursning OTM talabalarining kurs bilan parallel ravishda asosiy fanlarni ham o'rganishlariga hamda OTM ta'limida qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlarini, tillarining o'ziga xos xususiyatlarini ochish - mazkur tizimning asosiy mantiqidir. Bunda oddiydan murakkabga, bilishdan-ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chanqoqlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni, taklif qiladi. Talaba dunyo yaralishining «g'ishtchalari» bilan taniladi, olamning boshlanishiga, insonning yerda paydo bo'lishiga murojaat qiladi. So'zlar, sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar sirlarini ochish fikrlariga aylanadi. Talaba makon va zamon bo'ylab sayohatga o'tlanadi. Shunday qilib talaba har kuni ochishi kerak bo'lgan olamning go'zalligini va turli tumanligini his qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. – Т.: Фан, 2006.
2. Подласый И. П. Педагогика В 2 кн. – М.: ВЛАДОС, 2003.
3. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. – Т.: Фан, 2006.
4. Дьюи Дж. От ребенка – к миру, от мира – к ребенку. – М.: Карапуз, 2009. –С. 122.; Жўраев Т. С. Ўсмир ўқувчилар ақлий ривожланишининг психологик хусусиятлари: Псих. фан. номзоди ...дисс. – Т., 2005. – С. 139.
5. Мавлонова Р.А., Н.Рахмонкулова "Бошланғич таълим педагогикаси инновацияси ва интеграцияси. Т.: Ф.Фулум 2013.



Iskandar SHERNAZAROV,

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., p.f.d

E-mail: shernazarov_iskandar855@mail.ru

Pedagogika fanlar doktori, professor G.Ergasheva taqrizi asosida

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB O‘QUVCHILARDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda ularning funksional savodxonligini shakllantirish yoritib berilgan. Shu bilan birga funksional savodxonlik tarkibidagi o‘qish, matematika, tabiiy-ilmii, moliyaviy, kompyuter savodxonligi va kreativ fikrlash hamda global kompetensiyalar shakllantirish asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Funksional savodxonlik, o‘qish, matematika, tabiiy-ilmii, moliyaviy, kompyuter savodxonligi va kreativ fikrlash hamda global kompetensiyalar.

ФОРМИРОВАНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ

Аннотация

В статье освещается формирование функциональной грамотности учащихся общеобразовательных школ при подготовке их к международным оценочным исследованиям. В то же время в структуре функциональной грамотности заложены основы чтения, математики, естественнонаучной, финансовой, компьютерной грамотности и креативного мышления, а также формирования глобальных компетенций.

Ключевые слова: функциональная грамотность, чтение, математика, естественные науки, финансы, компьютерная грамотность и творческое мышление, а также глобальные компетенции.

FORMATION OF FUNCTIONAL LITERACY IN GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Annotation

The article highlights the formation of functional literacy of secondary school students in preparing them for international assessment studies. At the same time, the structure of functional literacy lays the foundations of reading, mathematics, natural science, finance, computer literacy and creative thinking, as well as the formation of global competencies.

Keywords: functional literacy, reading, mathematics, natural sciences, finance, computer literacy and creative thinking, as well as global competencies.

Kirish. Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta‘lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan.

Kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta‘lim sifatini tubdan oshirish, umum ta‘lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta‘lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta‘minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi – murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm – fan natijalaridan foydalanishda ta‘lim, ilm – fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmonlari[1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8 dekabrda “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 997-son qarori [2] hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Funksional savodxonlik bu insonning tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishish va unga imkon qadar tezroq moslashish hamda sharoitga moslashib ishlash qobiliyatidir. Shaxsning o‘qish, tushunish, oddiy, qisqa matnlarni tuzish va oddiy arifmetik amallarni bajarish qobiliyati sifatida elementar savodxonlikdan farqli o‘laroq, funksional savodxonlik ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning normal ishlashini

ta‘minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarning asosini tashkil etadi.

O‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro baholash tadqiqotidagi ishtirokiga tayyorgarlik ko‘rish holati va o‘quvchilarni ilmiy savodxonliklarini rivojlantirishga oid topshiriqlar ishlab chiqish va seminarlar tashkil qilish hamda bir qancha ekspertlar A.Radjiyev, A.A.Ismailov, X.J.Daminov, N.A.Karimov, G.O.Tog‘ayeva, S.R.Akbarova, M. Boymuratovalarga topshirildi. Ular tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma va seminar mashg‘ulotlari o‘quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlaridagi savodxonliklarini shakllantirish o‘z aksini topgan.

A.A. Ismailov, N.A. Karimov, B.Q. Haydarov, Sh.N. Ismailovlar tomonidan yaratilgan “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash” qo‘llanmasida PISA xalqaro baholash tadqiqotlarida tajribadan o‘tkazilgan topshiriqlardan namunalar keltirilgan [3].

MDH mamlakatlarida ta‘lim sifatini yaxshilash hamda xalqaro baholash tizimlariga tayyorlash maqsadida bir qancha olimlar tajriba va tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Masalan: G.S. Kovaleva, L.O. Roslova, G.A. Sidorova, A.Y. Pentin, PISA xalqaro tadqiqoti kontekstida kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish mazmunlariga oid ilmiy tadqiqot ishlari va o‘quv qo‘llanmalar yaratishgan.

“Funksional savodxonlik” turkumiga oid 1-qismida, mualliflar Ye.L. Rutkovskaya, Ye.S. Korolkova, A.A. Bochixina, A.A. Kozlova, A.V. Polovnikova, G.S.Kovaleva, N.V. Shtilman “Moliyaviy savodxonlik 1-nashrida”

qo'llanmasida hayot uchun o'rganish lozim bo'lgan moliyaviy muammolarni hal qilish maktabda olingan bilimlarni hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. "Moliyaviy savodxonlik 2-nashrida" qo'llanmasida hayot uchun o'rganish lozim bo'lgan moliyaviy muammolarni hal qilish maktabda olingan bilimlarni hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. 2-qism "Moliyaviy savodxonlik 2-nashrida" qo'llanmasida hayot uchun o'rganish lozim bo'lgan moliyaviy muammolarni hal qilish maktabda olingan bilimlarni hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. PISA tadqiqoti o'quvchilarning nimalarni bilishlari va nimalarni qila olishlari muhimligini aniqlashni maqsad qiladi. Ushbu tadqiqotda 15 yoshli o'quvchilarning ta'lim muassasini tamomlashi arafasida zamonaviy jamiyatda to'liq ishtirok etish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni qay darajada egallaganliklari baholanadi [6].

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ta'lim tizimi rivojlanmoqda. Zamonaviy maktabning muhim vazifalaridan biri funksional savodli insonlarni shakllantirishdir. O'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Birinchi marta "Funksional savodxonlik" atamasi sovet psixologi, faylasufi va o'qituvchisi A. N. Leontiev tomonidan kiritilgan. Uning tushunchasida "Funksional savodxonlik" birinchi navbatda ma'lumot bilan ishlash qobiliyatidir. A.N. Leontievning so'zlariga ko'ra, funksional savodxonlik bilim, ko'nikma, usullarni o'quv sharoitlaridan tashqarida, ushbu bilim, ko'nikma va usullar olingan vazifalardan farqli o'laroq, keng ko'lamlil muammolarni hal qilishda amalda qo'llash qobiliyati sifatida taqdim etiladi. A.A. Leontiev funksional savodxon shaxsga quyidagicha ta'rif beradi: "Funksional savodxon shaxs - bu inson faoliyati, muloqot va ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida hayotiy vazifalarning eng keng doirasini hal qilish uchun hayot davomida doimiy ravishda olingan barcha bilim va ko'nikmalardan foydalana oladigan shaxsdir" [7].

XX asrda savodxonlikni shakllantirish muammosi nafaqat bolalar, balki har qanday mamlakatning yoshi katta aholisi uchun ham dolzarb ekanligi ayon bo'ldi, shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda ushbu kontseptsyaning mazmuni faollik jihatini qamrab olgan holda kengayib bormoqda [6].

Funksional savodxonlik insonning butun hayoti davomida shakllanadi, chunki inson faoliyatining barcha sohalarida yangi bilimlar, tushunchalar, qoidalar va meyorlarni o'zlashtirish zarurligini tushunib yetadi.

Hozirgi tez o'zgarayotgan va axborot asri bo'lgan dunyoda funksional savodxonlik odamlarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etishi hamda muntazam ta'lim olishiga yordam beruvchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda.

Demak, funksional savodxonlik - bu insonning tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishish va unga imkon qadar tezroq moslashish hamda ushbu sharoitda ishlash qobiliyatidir. Shaxsning o'qish, tushunish, oddiy, qisqa matnlarni tuzish va oddiy arifmetik amallarni bajarish qobiliyati sifatida elementar savodxonlikdan farqli o'laroq, funksional savodxonlik ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning normal ishlashini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarning asosini tashkil etadi. Kasbiy standart o'qituvchi (maktabgacha, boshlang'ich umumiy, asosiy umumiy, o'rta umumiy ta'limdagi pedagogik faoliyat) bu kasbiy faoliyat turining o'ziga xos funksional xaritasidir [7].

Funksional savodxonlikni rivojlantirishga B.S. Gershunskiy, S.G. Vershlovskiy, M.D. Matyushkina kabi olimlar hissa qo'shdilar. Funksional savodxonlik quyidagi tarkibiy qismlarga ajratib o'rganamiz: o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, moliyaviy savodxonlik, ijodiy fikrlash, global kompetensiya [5].

J. Gilford birinchi bo'lib ijodiy fikrlash tushunchasini ilgari surdi: "Turli yo'nalishlarda harakatlanadigan fikrlash turi"ni o'ylab topdi. Fikrlash 2 turga bo'linadi: konvergent va divergent.

Konvergent fikrlash ko'plab shartlar mavjud bo'lganda muammoning yagona to'g'ri yechimini topish usullarini nazarda tutadi va divergent-aniiq ma'lumotlarga asoslangan yechimlar to'plami. E. P. Ilyinning so'zlariga ko'ra, ijodkorlik (lat. creatio-yaratish) bu insonning g'ayrioddiy g'oyalarni yaratish, o'ziga xos yechimlarni topish, an'anaviy fikrlash sxemalaridan chetga chiqish qobiliyati. Aynan kreativlik muayyan pragmatik muammolarni hal qilishga yordam beradi. Kreativ fikrlash tufayli biz yangi narsalarni ixtiro qilamiz, ilmiy kashfiyotlarni amalga oshiramiz [7].

Ijodiy fikrlashning rivojlantirish yo'llari: o'ziga nisbatan ishonchni o'stirish, tasavvurini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, jamiyat bilan munosabatdagi mustaqillik, ko'proq bilim olishga undash.

Kreativ fikrlash o'quvchilarni ko'paytirish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq. Obektlarni turli nuqtai-nazardan ko'rishga o'rgatish zarur [4].

O'qish savodxonligi - bu shaxsning o'z maqsadlariga erishishi, bilim va salohiyatini rivojlantirishi, jamiyatda ishtirok etishi uchun matnlarni tushunish, foydalanish baholash, mulohaza yuritish va ular bilan shug'ullanish qobiliyatidir.

O'qish savodxonlik quyidagi bosqichlarda shakllanadi: Topshiriqni bajarish mobaynida o'quvchilar savolni o'qib o'zlashtiradilar va uning uchun savolning mazmunini to'liq anglash, manashu topshiriqning ichida nechta noaniqlik mavjudligini aniqlash, savolning yoping test ekanligini fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi [7].

Matematik savodxonlik-bu shaxsning matematik fikrlashni amalga oshirish va turli xil real sharoitlarda muammolarni hal qilish uchun matematikani shakllantirish, qo'llash, talqin qilish qobiliyatidir. Shunday qilib biz matematik savodxonlik orqali o'quvchilar uchun zarur bo'lgan, asosli mulohazalar, maqbul qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishimiz mumkin.

PISA tadqiqotida tabiiy ilmiy savodxonlik bu insonning tabiiy fanlar bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatga ega masalalar bo'yicha faol fuqarolik pozitsiyasini egallash qobiliyati va uning tabiiy-ilmiy g'oyalarga qiziqishga tayyorligi sifatida belgilanadi.

O'qituvchilar topshiriqlardan dars mashg'ulotlarining mustahkamlash va takrorlash qismlarida keng qamrovli foydalanishi ayni muddao bo'ladi. Bu esa, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, PISA topshiriqlarini darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida taqdim qilish, o'quvchilarni yanada fan asoslariga qiziqishlarini ortishiga sabab bo'ladi [7].

Global kompetensiya deganda global kombinatsiya tushuniladi. Bu global muammolar yoki madaniyatlararo vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llaniladigan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar kombinatsiyasini talab qiladigan ko'p o'lchovli konstruktiviyadir. Global muammolar barcha odamlarga taalluqli bo'lgan va hozirgi va kelajak avlodlar uchun chuqur oqibatlariga olib keladigan masalalarni anglatadi [6].

Moliyaviy savodxonlik - bu muvaffaqiyatli moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan xabaridorlik, bilim, ko'nikma, xulq-atvor modellarining kombinatsiyasidir [6].

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi aholi moliyaviy savodxonlik darajasini ifodalab beradi [7].

Funksional savodxonlik ya'ni o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy ilmiy savodxonlik, moliyaviy savodxonlik, global kompetensiyalar va ijodiy fikrlash

dunyoda ta'limining sifati va raqobatbardoshligini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Funksional jihatdan vakolatli shaxsning ushbu fazilat-lari quyidagilar bo'lishi mumkin va zamonaviy maktab o'qituvchisining portreti sifatida qaralishi kerak. Bolalarning zarur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, o'qituvchining o'zi ularga yuqori darajada egalik qilishi kerak.

Tahlil va natijalar. V.A. Suxomlinskiy alohida ta'kidlab o'qituvchi va o'qituvchining madaniy tarkibiy qismining roli o'qituvchining qobiliyatlari, moyilliklari, iste'dodlarini rivojlantirishida ko'maklashadi va shuning uchun ham o'qituvchi ta'lim tizimining har doim markazda bo'ladi.

O'qituvchining funksional savodxonligini oshirish masalalari juda dolzarb va keng muhokama qilinmoqda. Chunki hozirgi paytda muayyan ko'rsatkichlar mavjud bo'lib o'qituvchining savodxonligiga funksional rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi [5].

O'qituvchining funksional savodxonligini rivojlantirish-yagona maqsadga erishishda hamkorlik va uzluksizlikni amalga oshirish, ta'limda raqamli resurslardan foydalanishni optimallashtirish, diagnostika uchun axborot tizimlaridan foydalanish har bir o'qituvchining rivojlanishi, boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda ta'lim muhitini loyihalash, rejalashtirish va o'z tajribangizni aks ettirish va kerak bo'lganda uni tuzatish [7].

Shunday qilib, bizning muvaffaqiyatli savolimizni o'rganish jarayonida o'qituvchining funksional savodxonligini rivojlantirish mumkin.

PISA o'quvchilarning bilim sifati monitoringidagi unda 6 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi. Tadqiqot yo'nalishlari: o'qish, matematik, moliyaviy, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kreativ fikrlash, global kompetensiyalar [7].

Tadqiqot ilk bor 2000-yilda o'tkazilgan bo'lib har uch yilda bir marotaba amalga oshiriladi [6].

2000 yilda test 32 mamlakatdan 265000 nafar o'quvchi ishtirok etadi. Asosiy mavzu o'qish va tushunish bilimiga ega bo'lishdir ya'ni o'qish savodxonlik.

2003 yilda 43 mamlakatdan 275000 nafardan ortiq o'quvchi ishtirok etadi. Finlandiya 543 ball to'playdi. Matematik savodxonlik bo'yicha esa 550 ball bilan Gangkong yetakchi o'rinni egallaydi. Tabiiy ilmiy savodxonlik bo'yicha esa Finlandiya yetakchi o'rinni 549 ball bilan egallaydi.

2006 yilda 57 ta mamlakat ishtirok etgan Rossiya 57 ta davlat ichida 440 ball to'plab 36-o'rinni egallagan. 556 ball bilan Janubiy Koreya yetakchi o'rinni egalladi. Matematik

savodxonlik bo'yicha 549 ball bilan Taypey mamlakati peshqadamlik qila oladi. Tabiiy ilmiy savodxonlik bo'yicha peshqadamlik qilgan davlat Finlandiya 563 ballga ega bo'ladi [7].

2009-yilga kelib tadqiqotda 74 ta mamlakat ishtirok etadi. O'qish savodxonlik bo'yicha 556 ball bilan Xitoyning Shanxay shahri yetakchi bo'la oladi. Matematik savodxonlik bo'yicha Rossiya 468 ball bilan 38-o'rin, tabiiy ilmiy savodxonlik bo'yicha 478 ball bilan 39-o'rin, Gruziya 374 ball 67-o'rin, matematik savodxonlik bo'yicha 379-ball 65-o'rin, tabiiy ilmiy savodxonlik bo'yicha 373 ball 69-o'rinni egallaydi.

2012-yilda PISA da 65 mamlakat ishtirok etdi. Ilgari foydalanilgan ishtirokchilar bilan birga, ommaviy test va baholash tarixida birinchi marotaba yangi vazifalar turi yangi obektini virtual uskunani (masalan, mp3-pleyer, kondisaner) mustaqil tekshiruvni talab qiladigan interaktiv vazifa va uskunalar bilan taminlandi [7].

2015-yilda PISA 72 ta mamlakat ishtirok etadi. Bu yilda ilgari ma'lum bo'lgan testlarga moliyaviy savodxonlik ham qo'shiladi [7].

2018-yilning tadqiqoti natijasida songi yillarda duyoda o'quvchilar savodxonligi rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash va o'quv sohasidagi funksional savodxonlikni baholashga asosiy etibor qaratildi. PISA tadqiqotida ishtirok etayotgan o'quvchilar va maktablar soni 2018-yilda tadqiqotda 79 ta mamlakat va iqtisodiy hududdan 600000 nafar o'quvchi ishtirok etadi. Estoniya 231ta mamlakatdan 5371nafar o'quvchi ishtirok etdi [7].

Xulosa va takliflar. PISA xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarni funksional savodxonligi aniqlanishning o'ziga xosligi o'rganilganligida oldindan o'zlashtirilgan bilimlarni shakllantirish jarayonlarida, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bosqichlarida tutgan o'rni tahlil etilgan va har bir talaba o'rganishi zarurat ekanligi aniqlangan.

O'quvchilarni funksional savodxonligi xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash va xalqaro baholash tadqiqotlariga oid topshiriqlarni ishlash o'rgatilgan.

O'quvchilarga xalqaro baholash tadqiqotlariga oid topshiriqlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirilgan va kreativ fikrlashlari oshirish uchun turli xil topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'quvchilarini funksional savodxonligini oshirishda kimyoning o'rni mavzusi fanni o'rganish obyekti, tekshirish metodi, yangi bilimlar manbai va vositasi tarzidagi mavqeyini kuchaytirilgan.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalk ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-son "Xalk ta'limi tizimida ta'lim sifatini baxolash sohasidagi Xalkaro tugrisida"gi karori. tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari.
3. Ismailov A.A., Karimov N.A., Haydarov B.K. Ismailov Sh.N. Turgunbayev R., Xafizov S., Mirzaahmedov M., Sanayeva M.Sh., Soibova I. Muxtorova R., Roslova L.O. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" (Matematika fani ukituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik kullanna) "ShaRK" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati TOSHKENT – 2019
4. Shernazarov I.E. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini Xalkaro baxolash dasturi PISA tadqiqotiga tayyorlashdagi vazifalar va ularning yechimlari. "Ta'limdagi xalqaro tadqiqotlarning yangi o'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya ilmiy ishlar to'plami 1 tom 31.03.2022 yil № 314/1.38-43-6et.
5. Shernazarov I.E., Smanova Z.A., Salixova M.K. O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini, kreativligini baxolash va rivojlantirishda PISA tadqiqotlariga doir topshiriklar. "Ta'limdagi xalqaro tadqiqotlarning yangi o'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya ilmiy ishlar to'plami I tom 31.03.2022-yil N=314/1. 208-211-bet
6. Shernazarov I.E., Salixova M.Q. Use of integrated technologies in preparation of higher educational institution students for international assessment programs on "organik chemistry". European Scholar Journal (ESJ) JIF: 7.2; SJIF: 5.083 Available Online at: <https://www.scholarzest.com>. Vol. 2 No. 2, February 2021, ISSN: 2660-5562. P-41-47
7. Shernazarov I.E., Bektosheva S.R. O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Science and innovation international scientific journal volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2. ISSN: 2181-3337, 1570-1577 bet



UDK:251.7(543.1)

Alisher SHOIMOV,
Termiz davlat universiteti falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: shoimovalisher187@gmail.com

Termiz davlat pedagogika instituti dotsent H.Rasulov taqrizi asosida.

THE ESSENCE AND FORMS OF POLITICAL ACTIVITY

Annotation

The article highly evaluates the role of youth in the formation of New Uzbekistan, where the level and forms of political activity of youth, interest in the social character of youth are of particular importance, and the processes of political decision-making are analyzed from a scientific point of view.

Key words: Political activity, society, youth, social activity, New Uzbekistan, democratic society.

СУЩНОСТЬ И ФОРМЫ ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ

Аннотация

В статье высоко оценивается роль молодежи в становлении Нового Узбекистана, где особое значение имеют уровень и формы политической активности молодежи, интерес к социальному характеру молодежи, а процессы принятия политических решений анализируются с научной точки зрения.

Ключевые слова: Политическая активность, общество, молодежь, социальная активность, Новый Узбекистан, демократическое общество.

SIYOSIY FAOLLIKNING MOHIYATI VA SHAKLLARI

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlarning o'rniga yuksak baho berilib, yoshlar faoliyatida namoyon bo'ladigan siyosiy faollik darajasi va shakllari alohida ahamiyat kasb etishligi, yoshlar siyosiy faolligining ijtimoiy mohiyati siyosiy masalalariga bo'lgan qiziqish, siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonlari ilmiy nuqtai nazarida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Siyosiy faollik, jamiyat, yoshlar, ijtimoiy faollik, Yangi O'zbekiston, demokratik jamiyat.

Kirish. Siyosiy faollik demokratik jamiyatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Aholi turli qatlamlari vakillarining yakka holda yoki turli rasmiy guruhlar doirasida siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ongli ravishda faol ishtirok etishga intilishi belgilanayotgan strategik maqsadlarga erishishning muhim shartidir. Bunda, ayniqsa, yoshlar faoliyatida namoyon bo'ladigan siyosiy faollik darajasi va shakllari alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlarning o'rniga yuksak baho berib, davlatimiz rahbari shunday ta'kidlaydi: "Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi "Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaat uchun yana nima ish qilishim kerak?" degan savollarga javob beradigan, shunday e'tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi".

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Bir qarashda zamonaviy jamiyat uchun tabiiy hisoblangan siyosiy faollik aslida murakkab jarayon bo'lib, qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Hozirda ayni muammoning tadqiqiga bag'ishlangan katta hajmdagi ilmiy ishlar mavjud bo'lib, xususan, ularning birida, "siyosiy faollik – individlar yoki ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartib, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlarni o'zgartirish yoki takomillashtirish bilan bog'liq faoliyati"[1] tarzida talqin etilgan.

V.F.Nitsevich, T.V.Ignatovlarning fikricha, "siyosiy faollik deganda sub'ektning umuman siyosiy jarayondagi, shuningdek siyosiy faoliyatning alohida shakllari doirasidagi ishtirokining muntazamligi tushuniladi. Yoshlar siyosiy faolligini bir nechta tomondan olib qarash mumkin: siyosatga

qiziqish, ochiq siyosiy faollik va siyosiy ishtirok, norozilik ko'rinishidagi faollik [2].

Yoshlar siyosiy faolligining ijtimoiy mohiyati siyosiy masalalarni hal etishga bo'lgan qiziqish, siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoniga u yoki bu ta'sir vositalarini qo'llash, shuningdek, siyosatga kirish uchun imkoniy bo'lgan yo'llardan foydalanish kabilarda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, quyidagi mutaxassisning fikrlari e'tiborga molik: "yoshlar siyosiy faolligi yosh avlod vakili yoki ular uyushmalari (shu jumladan, siyosiy uyushmalari)ning ongli, maqsadga intiluvchan hayotiy faoliyatining tavsifini ifodalaydi. Bu faollik jamiyatda mavjud siyosiy tuzumni saqlab qolish, amal qilishni ta'minlash yoki o'zgartirishga, shuningdek o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi"[3].

Siyosiy faollik ijtimoiy faollikning namoyon bo'lish shakllaridan biri sifatida sotsiologik nuqtai nazardan ham talqin etiladi. Jumladan, L.B.Bazarjapova shunday yozadi: "Siyosiy faollik – bu, ijtimoiy birlik, guruh, individlar xatti-harakatlari barcha shakllarining majmui bo'lib, ularda siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishga intilish, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, hokimiyat va uning qarorlarini qo'llab-quvvatlash yoki fuqarolar huquqlarini kamsituvchi qarorlarga nisbatan qarshi turish, siyosiy tizimni amal qilishiga, unda institutlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishga bo'lgan intilishlar o'z ifodasini topadi"[4].

Shu o'rinda ta'kidlash muhimki, individ yoki alohida olingan shaxs siyosiy faolligining tabiati va mazmuniga uning mafkuraviy mayllari emas, balki ko'proq turli davlat va jamoat tashkilotlariga nisbatan munosabati, ularga nisbatan ishonch darajasi ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, ijobiy ma'nodagi, jamiyat va davlat manfaatlariga muvofiq bo'lgan va amaldagi ijtimoiy normalarga zid kelmaydigan siyosiy faollik faqat davlat va

hokimiyatning alohida organlari hamda ijtimoiy-siyosiy institutlarni ijobiy qabul qilishga asoslangandagina imkonlidir. Aks holda siyosiy faollik davlat va uning manfaatlariga qarshi yo'nalgan bo'lishi va amaldagi davlat tuzumini buzishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Faollikning ijtimoiy shaklining mazmuniga oid fikr-mulohazalari doirasida mamlakatimiz olimlari N.M.Majidov, SH.V.Azizovalar shunday yozadilar: "Ijtimoiy faollik shaxs faoliyatining muhim tomonlaridan biridir. U shaxsning jamiyat va jamoa ishlaridagi ishtirokida namoyon bo'ladi; ma'lum darajada siyosiy va axloqiy o'zlikni anglashga asoslanadi. Ijtimoiy faollikni tarbiyalash – bu nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki yoshlarning axloqiy yo'nalganligini aniqlovchi motivlarning shakllanishi hamdir"[5].

Albatta, siyosiy faollik muammosi tadqiqiga bag'ishlangan yana ko'p fikr va qarashlar mavjud, biroq ularni bir tadqiqot doirasida tizimli ko'rib chiqish imkonsiz. Shunday bo'lsa-da, ta'kidlash mumkinki, yuqoridagi ayrim nazariy yondashuv va fikr-mulohazalar uchun umumiy jihat – siyosiy faollikni individ va ijtimoiy guruhlarining siyosiy sohadagi o'rni va rolini mustahkamlashga qaratilgan ongli faoliyat sifatida talqin etishdan iborat ekanligi anglashiladi. Shu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlagan holda quyidagi ta'rifni ilgari surish mumkin: Siyosiy faollik – bu, siyosiy faol bo'lgan fuqarolarning individual ravshda yoki guruhlar doirasida davlat hokimiyati organlari hamda nodavlat siyosiy tashkilotlarning shakllanishi va faoliyati, siyosiy qarorlarning qabul qilinishi va amalga oshirilishi, siyosiy institutlarning tashkil topishi va faoliyat olib borishi kabi jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi yoki shunday ta'sir ko'rsatishga intilishida namoyon bo'ladigan aniq maqsadga yo'nalgan xatti-harakatlar majmuidir.

Alohida ta'kidlash muhimki, siyosiy faollik, u aholining yosh qatlamiga xos bo'ladimi yoki katta yoshdagilarning faolligimi, bundan qat'i nazar, bir qator kuchli omillar ta'sirida yuzaga keladigan faollik shakli bo'lib, shu ma'noda u majmuaviy xususiyatga ega. Siyosiy faollikning mohiyatini anglashga doir qarashlarning tahliliga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, bu hodisa ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik, moddiy-maishiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Siyosiy soha barcha boshqa sohalar bilan uzviy bog'liq bo'lgani tufayli, bu yo'nalishdagi faollik ham keng qamrovli xususiyatga ega.

Siyosiy faollikning barqarorligi va samaradorligi bevosita jamiyatda mavjud siyosiy tartib xarakteriga, siyosiy huquq va erkinliklarni amalga oshirish uchun mavjud imkoniyatlarga, alohida olingan shaxsni bevosita qurshab turgan ijtimoiy muhitga, ommaviy kommunikatsiya vositalariga, shuningdek fuqarolarning siyosiy ongi va madaniyati rivojining darajasiga bog'liq bo'ladi.

Siyosiy faollik asosan siyosiy ishtirok orqali ifoda topadi. O'z navbatida, siyosiy ishtirokning turli talqinlari mavjud. Xususan, siyosiy ishtirok – ijtimoiy-siyosiy birlik a'zolari tomonidan individual yoki guruhviy asosda siyosiy qarorlarni tayyorlash yoki qabul qilish jarayoniga, mahalliy, mintaqaviy, umummilliy miqyosda davlat siyosatini amalga oshirish yoki siyosiy arboblarni saylash jarayoniga ta'sir o'tkazish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar [6] sifatida ifodalanadi.

Ko'p qirrali hodisa sifatida siyosiy ishtirok ham har qanday darajadagi hokimiyat bo'g'iniga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq uslublar majmuidan tashkil topadi. Biroq bunda siyosiy ishtirok shakllari va faollik bosqichlarini ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-tarixiy, ruhiy, yoshga oid va boshqa omillarga bog'liq bo'lishini ta'kidlash joiz.

Bu borada L.Milbras tipologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u sub'ektning faolligi mezoni asosida tuzilgan. Muallif

faollik shakllarining uch guruhini ajratib ko'rsatgan, bu guruhlar har biri, o'z navbatida, o'sib borish tartibida joylashgan bir qancha shakllarni o'z ichiga oladi:

"tomoshabinlik faolligi" – siyosiy stimullar, ovoz berish va boshqa shu kabilar ta'siri ob'ektining rolini ijro etish;

"o'tib boradigan faollik" – hokimiyat vakillari va siyosiy partiyalar liderlari bilan muloqot, yig'ilishlar, namoyishlarda ishtirok etish;

"gladiator faollik" – siyosiy jarayonda ishtirok etish, siyosiy partiya faoli yoki hokimiyat hamda partiya organi lavozimi rahbarligiga nomzod rolini ijro etish [7].

